В данной статье освещается выражение вопросов экологической культуры в учении великого ученого Ибн Сины, его взгляды на взаимоотношения природы и человека, а также аспекты, связанные с современным экологическим воспитанием. В статье более подробно освещены элементы экологической культуры в произведениях Ибн Сины, передовые идеи и пути развития связи между охраной природы, окружающей средой и здоровьем человека у учащихся начальных классов.

Ключевые слова: *Ибн Сина, экологическая культура, природа и человек, урок, внеклассная деятельность, окружающая среда, экологическое воспитание, медицина и экология, духовное наследие.*

THE ROLE OF THE TEACHINGS OF IBN SINA IN DEVELOPING ECOLOGICAL CULTURE AMONG PRIMARY SCHOOL STUDENTS

This article highlights the expression of ecological culture issues in the teachings of the great scholar Ibn Sina, his views on the relationship between nature and man, and aspects related to modern ecological education. The article extensively covers the elements of ecological culture in the works of Ibn Sina, advanced ideas about nature conservation, the relationship between the environment and human health, and ways to develop them in primary school students.

Keywords: *Ibn Sina, ecological culture, nature and man, lesson, extracurricular activities, environment, ecological education, medicine and ecology, spiritual heritage.*

Kirish. Hozirgi ekologik inqiroz sharoitida insoniyatning tabiat bilan munosabatlari masalasi dolzarblik kasb etmoqda. Atrof-muhit ifloslanishi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanmaslik, ekologik muvozanatning buzilishi kabi muammolar yechimini topish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir. Bu borada Sharq mutafakkirlarining, xususan, buyuk alloma Ibn Sinoning ekologik madaniyatga oid qarashlarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ibn Sino tabiat va inson o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ilmiy asoslab bergan allomalardan biridir. Uning “Al-Qonun fit-tib” (“Tib qonunlari”) asari va boshqa ko‘plab risolalarida atrof-muhitning inson salomatligiga ta’siri, toza havo, suv, tuproq, o‘simliklarning ahamiyati, tabiatni muhofaza qilish masalalari chuqur tahlil qilingan. Allomaning ta’limotida ekologik madaniyat nafaqat tibbiy, balki falsafiy, axloqiy va tarbiyaviy jihatdan ham o‘z ifodasini topgan.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishda Ibn Sinoning ilg‘or g‘oyalaridan foydalanish, ularning tabiatga nisbatan mas’uliyatli munosabatini tarbiyalashda muhim omil hisoblanadi. O’qituvchi o’z faoliyatlari jarayonida ekologik madaniyatni o‘quvchilarga o‘rgatishlari muhimdir. Mazkur tadqiqotning asosiy muammosi – Ibn Sino ta’limotidagi ekologik madaniyat masalalarini tizimli tahlil qilish va ularning zamonaviy ekologik ta’limdagi ahamiyatini aniqlashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Har bir xalqning ekologik madaniyati ularning qadimgi an’analari, diniy qarashlari va falsafiy merosi bilan chambarchas bog‘liqdir. Sharq uyg‘onish davrining yirik vakili Ibn Sino inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarni ilmiy-falsafiy asosda o‘rgangan allomalardan biridir. Uning qarashlarida ekologik madaniyat masalalari alohida o‘rin tutadi. Ibn Sinoning tabiat haqidagi ta’limotiga oid olimlarning ilmiy qarashlari va yondashuvlarini ko‘rib chiqamiz.

Olimlarimizdan U.I.Karimov Ibn Sino merosini o‘rganishda uning tabiat va inson o‘rtasidagi uyg‘unlik haqidagi g‘oyalariga alohida to‘xtalib, allomaning atrof-muhit omillarini inson salomatligiga ta’sir etuvchi muhim omil sifatida baholaganini ta’kidlaydi [1]. Olimning fikricha, Ibn Sino tibbiyotni ekologiya bilan uzviy bog‘liq holda o‘rgangan.

M.M.Xayrullayev tomonidan Ibn Sinoning falsafiy qarashlarini tahlil qilib, uning tabiatdagi barcha narsalar o‘zaro bog‘liq va bir-biriga ta’sir ko‘rsatadi degan qarashlarini asoslab beradi. Ibn Sino tabiatni yaxlit tizim sifatida tushungan [2].

Professor Sh.S.Shodmonova o‘z tadqiqotlarida Ibn Sinoning ekologik qarashlarini zamonaviy ekologik tarbiya bilan bog‘liq holda o‘rganib, allomaning toza muhit, gigiyena va atrof-muhit muhofazasi haqidagi g‘oyalari bugungi kunda ham dolzarb ekanini ta’kidlaydi [3].

Rus olimi V.N.Ternovskiy Ibn Sinoning “Tib qonunlari” asarini sharhlar ekan, alloma havoning ifloslanishi, suvning sifati, tuproqning xususiyatlari inson salomatligiga bevosita ta’sir qilishini ilmiy asoslab berganini qayd etadi [4].

Fransuz sharqshunosi A.M.Gotton Ibn Sinoning tabiat haqidagi qarashlarini antik va Sharq falsafasi uyg‘unligi nuqtai nazaridan tahlil qilib, alloma ekologik madaniyat masalalariga o‘z davridan ancha ilg‘or yondashganini ko‘rsatadi [5].

O‘zbekistonlik tadqiqotchi N.A.Ismoilova Ibn Sino asarlarida ekologik tarbiya g‘oyalarini o‘rganib, allomaning tabiatni asrash, undan oqilona foydalanish haqidagi ko‘rsatmalaridir[6].Bugungi ekologik ta’lim tizimining nazariy asoslaridan biri bo‘lishini asoslavdi.

Ibn Sinoning o‘zi “Al-Qonun fit-tib” asarida: “Havo, suv, tuproq, oziq-ovqat – bularning barchasi inson organizmiga bevosita ta’sir qiladi. Toza muhitda yashovchi inson sog‘lom bo‘ladi, iflos muhit esa kasalliklar manbai hisoblanadi”, deb yozgan. Ushbu fikrlar bugungi ekologiya fanining asosiy tamoyillariga mos keladi.

Muhokama va natija. Insoniyatning ekologik madaniyati uning tabiatga bo‘lgan munosabati, tabiiy resurslardan foydalanish madaniyati va atrof-muhitni muhofaza qilish borasidagi mas’uliyatini o‘z ichiga oladi. Ibn Sino ta’limotida ekologik madaniyat masalalari bir necha yo‘nalishda namoyon bo‘ladi. Ilmiy-pedagogik tahlillar asosida ushbu jarayonni quyidagi asosiy turlarga ajratish maqsadga muvofiqdir.

1. Atrof-muhit va inson salomatligi o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlash va tahlil qilish. Ibn Sino tibbiyotni ekologiya bilan chambarchas bog‘liq holda o‘rgangan. Uning asarlarida havo, suv, tuproq, iqlim sharoitlari inson salomatligiga bevosita ta’sir qiluvchi omillar sifatida tahlil qilinadi. Alloma “Tib qonunlari” asarida havoning ifloslanishi, suvning buzilishi, tuproqning xususiyatlari inson organizmida qanday o‘zgarishlarga olib kelishini batafsil yoritib bergan. Uning fikricha, sog‘lom muhit – sog‘lom insonning asosiy shartidir. Bu qarashlar zamonaviy tibbiy ekologiya fanining asosiy tamoyillariga to‘liq mos keladi.

2. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish. Ibn Sinoning ekologik madaniyat haqidagi qarashlarida tabiatni muhofaza qilish, undan oqilona foydalanish masalalari muhim o‘rin tutadi. U o‘z asarlarida suvdan tejab-tergab foydalanish, o‘simlik va hayvonot dunyosini asrash, tabiatdagi muvozanatni saqlash zarurligini ta’kidlaydi. Allomaning bu g‘oyalari bugungi barqaror rivojlanish konsepsiyasining asosiy tamoyillariga mos keladi.

3. Ekologik gigiyena va sanitariya madaniyati. Ibn Sino ta’limotida shaxsiy gigiyena, aholi punktlarining tozaligi, oziq-ovqat mahsulotlarining sifati masalalari alohida o‘rin tutadi. U iflos muhit turli kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo‘lishini, shuning uchun ham uylar, ko‘chalar, suv manbalari doimo toza saqlanishi kerakligini uqtiradi. Bu qarashlar bugungi sanitariya-gigiyena va ekologiya fanlarining asosiy tamoyillaridir.

4. Tabiatni muhofaza qilishning axloqiy asoslari. Ibn Sino ta’limotida tabiatga bo‘lgan munosabat axloqiy kategoriya sifatida qaraladi. U insonning tabiatga bo‘lgan mas’uliyatini, tabiiy boyliklarni avlodlar uchun saqlash zarurligini ta’kidlaydi. Allomaning bu qarashlari bugungi ekologik etika va ekologik tarbiyaning nazariy asoslaridan biridir.

5.Ekologik madaniyatni shakllantirishning tarbiyaviy jihatlari o’rganish muhimdir. Ibn Sino o‘z asarlarida yosh avlodga ekologik madaniyatni singdirish masalalariga ham katta e’tibor bergan. Uning fikricha, insonda tabiatga muhabbat, uni asrash va undan oqilona foydalanish ko‘nikmalari bolalikdan shakllantirilishi kerak. Bu g‘oyalar zamonaviy ekologik ta’lim va tarbiyaning asosiy yo‘nalishlari bilan uyg‘undir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning ekologik madaniyatni shakllantirish uchun eng qulay davr hisoblanadi. Bu yoshda bolalarda tabiatga qiziqish, kuzatuvchanlik, taqlid qilish, hissiyotlilik kabi xususiyatlar yuqori darajada bo‘ladi. Ular tabiatdagi o‘zgarishlarni qiziqib kuzatadilar, jonivorlarga mehr qo‘yadilar, o‘simliklarni parvarish qilishni xohlaydilar. Aynan shu xususiyatlardan foydalanib, bolalarda ekologik madaniyatni samarali shakllantirish mumkin.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ekologik tarbiyani tashkil etishda quyidagi omillarga e’tibor qaratish darkor:

Birinchidan, bu yoshdagi bolalar uchun o‘yin faoliyati yetakchi ahamiyatga ega. Ekologik tarbiyani o‘yinlar orqali tashkil etish, tabiatga oid rolli o‘yinlar, didaktik o‘yinlar, ekologik mazmundagi sayohat o‘yinlari o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi hamda bilimlarni mustahkamlaydi.

Ikkinchidan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari hissiyotlarga boy bo‘lib, ularni hissiy jihatdan ta’sirlantirish orqali ekologik tushunchalarni shakllantirish samarali bo‘ladi. Tabiat go‘zalligini ko‘rsatish, hayvonlarga nisbatan mehr uyg‘otish, tabiatdagi nozik muvozanatni his qildirish orqali bolalarda tabiatga ijobiy munosabat shakllanadi.

Uchinchidan, bu yoshdagi bolalarda kuzatuvchanlik va qiziqish yuqori bo‘ladi. Ular tabiatdagi har bir o‘zgarishni payqaydilar, savollar beradilar. Bu xususiyatdan foydalanib, tabiatda muntazam kuzatishlar olib borish, kuzatish natijalarini muhokama qilish orqali ekologik bilimlarni shakllantirish mumkin.

To‘rtinchidan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari amaliy faoliyatga qiziqadilar. Ular o‘simliklarni parvarish qilish, hayvonlarga g‘amxo‘rlik qilish, tabiat burchagida ishlash kabi amaliy ishlarni bajara oladilar. Bu xususiyatdan foydalanib, bolalarni ekologik amaliy faoliyatga jalb etish, ularning tabiatni asrashdagi mas’uliyatini oshirish mumkin.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik madaniyatni Ibn Sino ta’limoti orqali rivojlantirish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir:

1.Dars jarayonida Ibn Sino merosidan foydalanish. Tabiat fanlari, o‘qish, ona tili, tasviriy san’at kabi darslarda Ibn Sinoning tabiat haqidagi qarashlaridan, uning hikmatli so‘zlaridan, asarlaridan parchalar keltirish orqali o‘quvchilarda ekologik tushunchalarni shakllantirish muhimdir. O‘qish savodxonligi darslarida Ibn Sinoning “Tabiat haqida” risolasidan parchalar o‘qitish, undagi tabiat go‘zalligi, o‘simlik va hayvonlarning ahamiyati haqidagi fikrlarni tahlil qilish o‘quvchilarda tabiatga mehr uyg‘otadi. Tasviriy san’at darslarida esa Ibn Sino bobomiz ta’riflagan tabiat manzaralarini, o‘simlik va hayvonlarni tasvirlash, bolalarning tabiatga bo‘lgan munosabatini badiiy ifodalashga imkon yaratadi.Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlaridan kelib chiqib, allomamiz merosini o‘yin texnologiyalari orqali o‘rgatish samarali natija beradi. “Ibn Sino savollari” didaktik o‘yini. O‘yin davomida o‘quvchilarga Ibn Sinoning tabiat, ekologiya, salomatlik haqidagi savollariga javob topish, to‘g‘ri javob uchun ball olish kabi vazifalar beriladi. “Ibn Sino izidan” rolli o‘yini. O‘quvchilar Ibn Sino va uning shogirdlari rolida tabiatni o‘rganish, atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha maslahatlar berish, ekologik muammolarni hal qilish kabi vazifalarni bajaradilar.

2.Sinfdan tashqari ishlarda Ibn Sino merosidan foydalanish muhimdir. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlar, tadbirlarda, to‘garaklarda, tabiatga sayohatlar, ekskursiyalar davomida Ibn Sinoning ekologik qarashlarini o‘rganishga oid maxsus mashg‘ulotlar tashkil etish mumkin. “Ibn Sino izidan” ekologik sayohati. Tabiatga chiqib, Ibn Sino ta’riflagan tabiat elementlarini (havo, suv, tuproq, o‘simliklar) kuzatish, ularning inson alomatligiga ta’sirini amaliy kuzatish, tabiatni asrash bo‘yicha amaliy topshiriqlar bajarish mumkin. Maktabda o‘tkaziladigan ekologik tadbirlar, tanlovlar, ko‘rgazmalarda Ibn Sino merosidan foydalanish o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi hamda ekologik madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi. “Ibn Sino tabiat haqida” mavzusida insho tanlovi o‘tkazish. O‘quvchilar Ibn Sinoning tabiat haqidagi qarashlarini o‘rganadilar, ular asosida o‘z fikrlarini ifodalaydilar.

“Ibn Sino tavsiyalari – bugungi ekologik maslahatlar” mavzusida devoriy gazeta tanlovi tashkil etish. O‘quvchilar Ibn Sinoning ekologik gigiyena, toza muhit, sog‘lom turmush tarzi haqidagi tavsiyalarini o‘rganadilar, ularni zamonaviy ekologik maslahatlar bilan taqqoslaydilar, devoriy gazetalar orqali targ‘ib qiladilar.

Ekologik loyiha faoliyatida Ibn Sino merosidan foydalanish. O‘quvchilarni ekologik loyihalar tayyorlashga jalb etish, ularning allomaning merosini o‘rganish asosida loyihalar yaratishiga ko‘maklashish muhimdir.“Ibn Sino – ekologiya allomasi” loyihasi. Bu loyiha doirasida o‘quvchilar Ibn Sinoning ekologik qarashlarini o‘rganadilar, allomaning tabiat va inson o‘rtasidagi munosabatlar haqidagi fikrlarini tahlil qiladilar, ular asosida ekologik bukletlar, slaydlar, videoroliklar tayyorlaydilar. “Toza muhit – sog‘lom avlod” loyihasi orqali Ibn Sinoning “Toza muhit – sog‘lom inson” degan qarashidan kelib chiqib, o‘quvchilar maktab hududini obodonlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish, chiqindilarni kamaytirish bo‘yicha amaliy ishlar olib boradilar.

Xulosa.

1. Ibn Sino ta’limoti ekologik madaniyatni shakllantirishning boy nazariy va amaliy asosini tashkil etadi. Allomaning tabiat va inson o‘rtasidagi munosabatlar, atrof-muhitning sog‘likka ta’siri, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik gigiyena, tabiatni muhofaza qilishning axloqiy asoslari haqidagi qarashlari zamonaviy ekologik ta’limning asosiy tamoyillari bilan uyg‘undir.

2. Boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalarning psixologik xususiyatlari – qiziqish, kuzatuvchanlik, hissiyotlilik, taqlidchanlik, amaliy faoliyatga moyillik – ekologik madaniyatni shakllantirish uchun qulay imkoniyatlar yaratadi. Bu yoshda shakllantirilgan ekologik madaniyat keyingi hayotda barqaror ko‘nikma va munosabatga aylanadi.

3. Ibn Sino merosidan foydalangan holda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik madaniyatni rivojlantirishning metodik tizimi dars jarayoni, sinfdan tashqari ishlar, ekologik tadbirlar, o‘yin texnologiyalari, loyiha faoliyatini qamrab oladi. Ushbu metodik tizim o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos keladi va samarali natijalar beradi.

Adabiyotlar:

1. Karimov U.I. Ibn Sino va uning tabiat haqidagi ta’limoti. – Toshkent: O‘qituvchi, 1980. – 45–58-betlar.

2. Xayrullaev M.M. Ibn Sinoning falsafiy qarashlari. – Toshkent: Fan, 1975. – 112–125-betlar.

3. Shodmonova Sh.S. Ibn Sino merosida ekologik tarbiya g‘oyalari // Pedagogika fanlari jurnali. – 2018. – №4. – 34–39-betlar.

4. Терновский В.Н. Ибн Сина и его "Канон врачебной науки." - Москва: Медицина, 1969. - С. 87-94.

5. First published Fri Jul 29, 2016; substantive revision Thu Mar 20, 2025

6. Ismoilova N.A. Sharq mutafakkirlarining ekologik qarashlari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – 78–85-betlar.

7. Ibn Sino. Tib qonunlari. 5 jildlik. – Toshkent: Fan, 1981–1985.

8. Qodirova S. Ekologik ta’lim va tarbiya asoslari. – Toshkent: TDPU, 2021. – 92–98-betlar.

9. Jo‘rayev R. Sharq allomalari – ekologik madaniyat haqida. – Toshkent: Ma’naviyat, 2017. – 44–52-betlar.

10. Qosimov B. Sharq uyg‘onish davri ekologik madaniyati. – Toshkent: Akademiya, 2016. – 103–110-betlar.

11. To‘xtayev A. Ibn Sino merosining ekologik tarbiyadagi o‘rni // Ta’lim muammolari. – 2022. – №1. – 41–45-betlar.

12. Ziyomuhammadov B. Pedagogik texnologiya – zamonaviy o‘zbek milliy modeli. – Toshkent: Fan, 2020. – 156–162-betlar.

13. Raxmonova M. Boshlang‘ich sinflarda ekologik tarbiya // Boshlang‘ich ta’lim. – 2021. – №5. – 23–26-betlar.

14. Xolmatov X. Ibn Sinoning o‘simlikshunoslikka oid qarashlari. – Toshkent: Fan, 1982. – 67–74-betlar.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ONA TILI O‘QITISH METODIKASINING O‘RGANILISH TARIXI

Shavkatova Shahrizoda Shavkatovna,
Navoiy davlat universiteti 2-bosqich tayanch doktoranti
shaxrizodashavkatova98@gmail.com

Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari zamonaviy lingvodidaktik va pedagogik yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda metodikaning savod o‘rgatish bosqichidan boshlab kompetensiyaviy va kommunikativ yondashuvlargacha bo‘lgan evolyutsiyasi ochib beriladi. Shuningdek, ta’lim jarayonida terminologik aniqlik, nutqiy kompetensiya va innovatsion pedagogik texnologiyalarning o‘rni asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta’lim, ona tili metodikasi, lingvodidaktika, kommunikativ yondashuv, kompetensiya, nutqiy rivojlanish, pedagogik innovatsiya.*

ИСТОРИЯ СТАНОВЛЕНИЯ И РАЗВИТИЯ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ РОДНОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

В статье анализируется историческое развитие методики преподавания родного языка в начальных классах на основе современных лингводидактических и педагогических подходов. Раскрывается эволюция методики от обучения грамоте до компетентностного и коммуникативного подходов. Обосновывается роль терминологической точности, речевой компетенции и инновационных педагогических технологий.

Ключевые слова: *начальное образование, методика преподавания родного языка, лингводидактика, коммуникативный подход, компетенция, развитие речи, педагогические инновации.*

THE HISTORY OF THE DEVELOPMENT AND STUDY OF THE METHODOLOGY OF TEACHING THE NATIVE LANGUAGE IN PRIMARY EDUCATION

This article analyzes the historical development of native language teaching methodology in primary education based on modern linguodidactic and pedagogical approaches. The study reveals the evolution of methodology from literacy instruction to competency-based and communicative approaches. It also substantiates the role of terminological precision, communicative competence, and innovative pedagogical technologies in the educational process.

Keywords: *primary education, native language teaching methodology, linguodidactics, communicative approach, competence, speech development, pedagogical innovation.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida boshlang‘ich bosqich o‘quvchining intellektual, kommunikativ va ijtimoiy rivojlanishining poydevorini tashkil etadi. Ayniqsa, ona tili o‘qitish metodikasi ushbu jarayonda markaziy o‘rin egallab, o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasi, tafakkur madaniyati va bilim olish strategiyalarini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi pedagogik fanlar qatorida o‘quvchilarga boshlang‘ich til asoslarini o‘rgatish, adabiy ta’lim orqali borliq va jamiyat haqida tushuncha berish, o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish, kamol toptirish kabi amaliy ishlar nazariyasini ishlab chiqadi. Ushbu metodikaning evolyutsiyasi dastlab savod o‘rgatish amaliyoti bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘lsa-da, keyinchalik u mustaqil lingvodidaktik tizim sifatida rivojlandi. Zamonaviy ilmiy yondashuvlarga ko‘ra, ona tili o’qitish metodikasi nafaqat til birliklarini o‘rgatish, balki o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini, kognitiv faoliyatini va kommunikativ madaniyatini shakllantirishga xizmat qiluvchi kompleks tizimdir. Shu bois mazkur metodikaning tarixiy rivojlanishini o‘rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

Ona tili o‘qitish metodikasining shakllanishi dastlab savod o‘rgatish bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘lsa-da, bugungi kunda u lingvodidaktika, pedagogika va psixologiya fanlari integratsiyasi asosida rivojlangan kompleks ilmiy tizim sifatida qaraladi [1]. XXI asrda ta’lim paradigmasining o‘zgarishi, kompetensiyaviy yondashuvning ustuvorligi va raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi metodikaning mazmuni va shakliga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. XV asrdan XIX asrning 2-yarmigacha o‘tgan

davrda O‘rta Osiyoda pedagogik, metodik fikr o‘sdi. Bu davrda o‘nga yaqin lug‘atlar va tilshunoslik asarlari (Tali Imoniyning “Badoe al–lug‘at”i (XV asr), Muhib Ali Shamluning “Lug‘ati Navoiy”i (XVI asr), Mustafo binni Sodiqning “Abushqa”si (XVI asr), Fazlulloxonning “Lug‘ati turkiy”i (XVIII asr), Mirza Mexdixonning “Sangloh”i (XVIII asr), Fatx Alixonning “Kitobi lug‘ati atrokiya”si (XIX asr) yuzaga keldi. Ularda tovush va harf, imlo va talaffuz, so‘z ma’nosi va tarjima kabi masalalarni o‘zlashtirishga qaratilgan metodik fikrlar mavjud [2].

Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasining o‘rganilish tarixi pedagogik tafakkur evolyutsiyasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u bir necha bosqichli rivojlanish jarayonini o‘z ichiga oladi. Metodologik nuqtayi nazardan ushbu jarayonni tahlil qilishda tarixiy-tahliliy, qiyosiy va lingvodidaktik metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, metodikaning dastlabki bosqichi savod o‘rgatish amaliyotiga asoslangan bo‘lib, unda asosiy e’tibor o‘qish va yozish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan [3]. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish jarayoni o‘tgan asrning 20-yillaridan boshlangan. Ammo bu davrda jiddiy xatolarga yo‘l qo‘yilgan. Umumiy dasturlarda ona tilini o‘qitish tizimi buzilgan, ya’ni grammatik, orfografik ko‘nikmalarga yetarlicha e’tibor berilmagan. Savod o‘rgatishda yaxlit so‘z metodi tilning fonetik xususiyatlariga mutanosib bo‘lmagan, analitik-sintetik ishlar yo‘lga qo‘yilmagan, puxta, to‘g‘ri yozuv masalalari uchun imkoniyat yaratilmagan. 30-yillarda “Boshlang‘ich va o‘rta maktab haqida”, “Boshlang‘ich va o‘rta maktab o‘quv dasturlari rejimi haqida”gi [4] qarorlar yuqoridagi kabi yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarni bartaraf qilishda va o‘quv mashg‘ulotlari tizimini ishlab chiqishda maktabga va o‘qituvchilarga yordam berdi. 50-70-yillar mobaynida boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi sohasida anchagina qo‘llanmalar yaratildi. Bu yillarda ona tili o‘qitish metodikasi fan sifatida rivojlana boshladi, umumiy pedagogik, didaktik va psixologik xarakterdagi ilmiy tekshirishlarning natijalari ona tili o‘qitish metodikasini takomillashtirish va yangi metodika yaratishga imkon berdi.

50-yillarda bu sohada jami 24 kishi pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olishga erishdi. Jumladan, S.Tursunovning “O‘zbek maktablarining 4-sinflarida grammatikasi o‘qitish metodikasi”(1957), Y.Abdullayevning “Eski o‘zbek maktablarida savod chiqarish”(1961), O.Roziqovning “O‘zbek maktablarining boshlang‘ich sinflarida o‘quvchilarning mustaqil ishlari”(1967), O. G‘afforovaning “O‘zbek maktablarining boshlang‘ich sinflarida o‘quvchilar nutqida uchraydigan xatolar”(1970), Sh.Koyenovning “O‘zbek maktablarining boshlang‘ich sinflarida o‘quvchilarni bayon yozishga o‘rgatish”(1973), A.G‘ulomovning “O‘zbek maktablarining 4-sinflari ona tili darslarida o‘quvchilarning mustaqil ishlari”(1975), O.Botirovning “Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar nutqida uchraydigan dialiktal xatolar”(1978), S.Nabiyevaning “O‘zbek maktablarining boshlang‘ich sinflarida orfografiyani o‘qitish metodikasi”(1981), M.Mamayusupovning “Boshlang‘ich maktabning 1-3-sinflarida o‘zlashtirishi murakkab bo‘lgan fonemalarni o‘qitish metodikasi”(1981) Q.Yusupovning “Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda orfografik hushyorlikni shakllantirish”(1993), O‘. Ro‘ziyevaning “Uzliksiz ta’lim jarayonida bolalar bog‘chalari tarbiyalanuvchilari va 1-sinf o‘quvchilari og‘zaki nutqini o‘stirish”(1995), M.Hamidovaning “1-2-sinf o‘quvchilarining og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish tajtibasidan”(1998), A.Hamroyevning “Boshlang‘ich sinflarda ona tili ta’limini ijodiy tashkil etish”(2005), Sh.Nurullayevaning “Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish metodikasi”(2007), X.Bakiyevaning “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil ta’lim orqali nutq va tafakkurini rivojlantirish metodikasi”(2020), R.Isroilovaning “Boshlang‘ich sinf ona tili darslarini loyihalash jarayonida o‘quvchilarni faollashtirish texnologiyasi” (2020) [5], shuningdek, G.Sultonovaning “Ona tili va o‘qish savodxonligi va uni o‘qitish metodikasi”(2021), U. Usmanovaning “Boshlang‘ich ta’lim magistratura talabalarining ilmiy-tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi” (2022), D. Jamoliddinovaning “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirish usullari” (2023), G. Sultonovaning “Boshlang‘ich ta’limda matematika va ona tilidan sinfdan tashqari ishlar” (2024), Sh. Ergashevaning “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish savodxonligini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar” (2025) va N. Qodirovaning “Boshlang‘ich ta’limda interfaol metodlardan foydalanish samaradorligi” (2025) shular jumlasidandir.

Keyingi bosqichda metodika ilmiy asosda rivojlana boshladi va til birliklarini tizimli o‘rgatish tamoyillari shakllandi. Bu jarayonda fonetika, leksika va grammatika komponentlari o‘zaro integratsiyalashgan holda o‘rgatilishi metodikaning muhim xususiyatiga aylandi. Zamonaviy ilmiy manbalarda ta’kidlanishicha, til o‘qitish jarayonida tizimlilik va izchillik tamoyillari o‘quvchilarning bilimlarni chuqur o‘zlashtirishiga xizmat qiladi [6].

Zamonaviy bosqichda esa metodika kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta shakllanadi. Bu yondashuvga ko‘ra, o‘quvchilarda faqat lingvistik bilimlar emas, balki ularni amaliy faoliyatda qo‘llash ko‘nikmalari ham shakllantiriladi. Ayniqsa, kommunikativ metodlarning joriy etilishi ona tili darslarining samaradorligini oshiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, interfaol metodlar o‘quvchilarning nutqiy faolligini 30–40% ga oshiradi [7].

Ona tili o‘qitish metodikasi tarixi (rus va ingliz tillarida). Rus tilida so‘zlashuvchi davlatlarda rus tilini o‘qitish metodikasi uzoq tarixiy rivojlanish jarayonini bosib o‘tgan bo‘lib, u pedagogika va tilshunoslik asosida shakllangan mustaqil ilmiy yo‘nalish hisoblanadi. Ushbu metodika XVIII asrdan boshlab rivojlana boshlagan va hozirgi kunga qadar turli bosqichlar orqali takomillashib kelmoqda. Dastlabki davrda, ya’ni XVIII asr va XIX asr boshlarida rus tilini o‘qitish asosan grammatik-tarjima metodiga asoslangan edi. Bu yondashuv Yevropa ta’lim an’analarining ta’siri ostida shakllanib, unda asosiy e’tibor grammatik qoidalarni o‘rganish, matnlarni tarjima qilish va yozma nutqni rivojlantirishga qaratilgan edi. O‘quvchilar tilni jonli muloqot vositasi sifatida emas, balki qoidalar tizimi sifatida o‘zlashtirganlar.

XIX asrga kelib rus tilini o‘qitish metodikasi ilmiylashuv bosqichiga o‘ta boshladi. Bu davrda tilni o‘rgatishda nutq faoliyatiga, ya’ni gapirish va tinglash ko‘nikmalariga ko‘proq e’tibor berildi. Shuningdek, tabiiy o‘qitish usullari paydo bo‘lib, ular tilni ona tilini o‘zlashtirish jarayoniga o‘xshash tarzda o‘rganish g‘oyasini ilgari surdi [8]. XX asrning birinchi yarmidan boshlab, ayniqsa, Sovet davrida rus tilini o‘qitish metodikasi yanada tizimli va ilmiy asoslangan holga keldi. Bu davrda ta’lim tizimi markazlashgan bo‘lib, yagona darsliklar va metodik qo‘llanmalar asosida olib borildi. Metodikada struktural yondashuv ustun bo‘lib, til fonetika, grammatika va leksika kabi tarkibiy qismlar asosida o‘rgatildi. Shu bilan birga, ongli-amaliy metod keng qo‘llanilib, nazariy bilimlar bilan amaliy ko‘nikmalar uyg‘unlashtirildi [9].

XX asrning ikkinchi yarmida esa rus tilini o‘qitishda yangi burilish yuz berdi. Bu davrda Kommunikativ yondashuv keng tarqaldi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, til, avvalo, muloqot vositasi sifatida qaralib, dars jarayonida o‘quvchilarning real kommunikativ vaziyatlarda tilni qo‘llash qobiliyatini rivojlantirish asosiy maqsadga aylandi. 1990-yillardan keyingi davrda, ya’ni postsovet makonida rus tilini o‘qitish metodikasi yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu davrda ko‘p madaniyatli yondashuv shakllanib, tilni o‘rganish jarayonida madaniy omillarni hisobga olish muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Shuningdek, ta’limda innovatsion texnologiyalar, interaktiv metodlar va masofaviy o‘qitish tizimlarini keng joriy etish yo‘lga qo‘yildi.

Hozirgi zamonaviy bosqichda rus tilini o‘qitish metodikasi kompetensiyaviy yondashuvga asoslanadi. Bu yondashuvda o‘quvchilarning faqat nazariy bilimlari emas, balki tilni amaliy jihatdan qo‘llash qobiliyati ustuvor hisoblanadi. Shuningdek, ta’lim jarayoni shaxsga yo‘naltirilgan bo‘lib, har bir o‘quvchining individual xususiyatlari, ehtiyojlari va til darajasi inobatga olinadi [10].

Rus tilini o‘qitish metodikasi tarixan grammatik-tarjima yondashuvidan boshlab, kommunikativ va kompetensiyaviy yondashuvgacha bo‘lgan murakkab evolyutsiyani bosib o‘tgan. Bugungi kunda esa u tilni nafaqat tizim sifatida, balki ijtimoiy va madaniy hodisa sifatida o‘rganishga qaratilgan zamonaviy ilmiy yo‘nalish sifatida rivojlanib bormoqda.

XIX asrda ingliz tilini o‘rgatishning asosiy yondashuvi grammatik-tarjima metodi bo‘lib, u klassik filologiya an’analaridan kelib chiqqan. Bu metodda asosiy e’tibor grammatik qoidalarni o‘rganish, matnlarni tarjima qilish va yozma mashqlarni bajarishga qaratilgan. O‘quvchilar tilni jonli muloqot vositasi sifatida emas, balki qoidalar tizimi sifatida o‘zlashtirgan. Ushbu metodning afzalligi – tilning strukturaviy asoslarini tizimli o‘rgatish, kamchiligi esa og‘zaki muloqot ko‘nikmalariga yetarlicha e’tibor bermaslik edi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida til o‘qitishda tub burilish yuz berdi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri metod grammatik-tarjima metodiga qarshi pedagogik javob sifatida paydo bo‘ldi. Bu metod tilni faqat maqsad tili orqali o‘rgatishni nazarda tutadi va ona tilidan foydalanishni cheklaydi. Talaffuz va og‘zaki ko‘nikmalar kontekstual mashqlar orqali rivojlantiriladi, grammatik qoidalar esa o‘quvchi tomonidan induktiv tarzda tushuniladi [11].

XX asr o‘rtalarida lingvistika va psixologiya tadqiqotlari til o‘qitish usullarini qayta ko‘rib chiqishga sabab bo‘ldi. Audio-Lingual metod drill va takrorlash mashqlariga asoslanib, tilni “odatlar” orqali o‘rgatadi. Bu metod Ikkinchi jahon urushi davrida AQShda xalqaro xizmat xodimlarini tezkor tayyorlash zarurati bilan kuchaydi. Mashqlar talaffuz va tuzilmalarni mustahkamlashga yo‘naltirilgan edi.

1960–1970-yillardan boshlab metodologiyada yana tub burilish yuz berdi. Kommunikativ yondashuv tilni muloqot vositasi sifatida qaraydi. Kommunikativ til o‘qitishda o‘quvchilar real hayotiy vaziyatlarda ingliz tilida fikr almashish, tushunish va muloqot qilish orqali tilni o‘zlashtiradi. Grammatik ko‘nikmalar muhim bo‘lsa-da, asosiy urg‘u tilni amaliy qo‘llash, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga qaratiladi.

1970–1980-yillarda Natural Approach, ya’ni tilni tabiiy o‘zlashtirishga urg‘u berdi. Bu yondashuvda til kirishi asosiy ahamiyatga ega bo‘lib, xatolarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tuzatish cheklangan. XX asr oxirida esa Task-Based Language Teaching va boshqa interaktiv metodlar paydo bo‘ldi, ular tilni amaliy ishlatishga va vazifalarni bajarish orqali o‘rganishga urg‘u beradi [12].

Ingliz tilini o‘qitish metodikasida har bir bosqich til o‘rgatish nazariyasi va amaliyotini boyitgan, tilni nafaqat qoidalar tizimi, balki kommunikativ va madaniy vosita sifatida o‘rganish imkonini bergan.

Natija va muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi uch asosiy rivojlanish bosqichini bosib o‘tgan:

1. An’anaviy savod o‘rgatish bosqichi (XX asr oxiri – 2010 -yilgacha)

Ushbu bosqichda asosiy e’tibor o‘quvchilarning o‘qish va yozish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, an’anaviy yondashuv metodikalari bilan o‘qitilgan bolalarda nutqiy faollik past bo‘lgan (o‘rta hisobda 45–50% faollik).

2. Lingvodidaktik va integrativ metodlar bosqichi (2010–2020)

Bu davrda metodika til birliklarini sistematik tarzda ya’ni grammatika, leksika va fonetika integratsiyasi asosida o‘rgatishga yo‘naltirildi. So‘nggi tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, bu yondashuv o‘quvchilarning bilimlarni mustahkam o‘zlashtirishini 20–25% ga oshirdi.

3. Kompetensiyaviy va kommunikativ metodlar bosqichi (2020–hozirgi davr)

Zamonaviy metodikada o‘quvchilarda nafaqat lingvistik bilimlar, balki ularni amaliy qo‘llash ko‘nikmalari shakllantiriladi. Interfaol va kommunikativ metodlar yordamida nutqiy faollik 70–75% gacha ko‘tariladi, bu esa o‘quvchilarning mavzuni mustaqil tahlil qilish qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi. Raqamli vositalar va elektron darsliklardan foydalanish o‘quv jarayonini individualizatsiya qiladi va o‘quvchilarning ilg‘or kompetensiyalarini shakllantiradi. Tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, raqamli platforma orqali dars olib borilgan sinflarda nutqiy va yozma ko‘nikmalar 30% ga oshgani qayd etilgan [13].

Muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich ta’limda ona tili o‘qitish metodikasi quyidagi asosiy tendensiyalar bilan tavsiflanadi: integrativlik, kommunikativlik, kompetensiyaviylik va innovatsionlik. Ushbu tendensiyalar metodikaning zamonaviy rivojlanish yo‘nalishlarini belgilaydi va o‘quvchilarning nutqiy, lingvistik va tafakkur qobiliyatlarini maksimal darajada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasining tarixiy evolyutsiyasi an’anaviy savod o‘rgatishdan kompetensiyaviy va kommunikativ yondashuvga o‘tish orqali o‘quvchilarning nutqiy, lingvistik va tafakkur qobiliyatlarini maksimal darajada rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi tarixiy rivojlanish davomida murakkab va ko‘p bosqichli jarayondan o‘tgan. An’anaviy savod o‘rgatish yondashuvlari o‘quvchilarning asosiy o‘qish-yozish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qilgan bo‘lsa, lingvodidaktik va integrativ metodlar til birliklarini tizimli o‘rgatish, grammatik, leksik va fonetik qirralarni birlashtirish orqali ilmiy tafakkur va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish imkonini yaratgan.

Zamonaviy kompetensiyaviy va kommunikativ metodlar esa o‘quvchilarning nafaqat lingvistik bilimini, balki nutqiy, tafakkuriy va ijtimoiy kompetensiyalarini ham rivojlantirishda markaziy vosita hisoblanadi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, metodikaning samaradorligi pedagogning ilmiy tayyorgarligi, dars rejalashtirish va baholash tizimi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, interfaol va raqamli vositalarni qo‘llash faqatgina qo‘shimcha imkoniyat sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, tadqiqot davomida aniqlangan yana bir muhim jihat – terminologik izchillik va mushtaraklikni nazorat qilishning ona tili metodikasining samaradorligida hal qiluvchi rol o‘ynashi. So‘z, tushuncha va kontekst o‘rtasidagi ilmiy asoslangan uchlik munosabat, terminlarni normativlash va mushtaraklikni tartibga solish o‘quvchilarda ilmiy tafakkur va argumentatsion madaniyatni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi tasdiqlandi.

Ona tili metodikasining tarixiy evolyutsiyasi, pedagogik prinsiplar va lingvistik integratsiya o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik, uni nafaqat bilim uzatish vositasi, balki ilmiy tafakkur va mantiqiy bog‘lanishlarni shakllantiruvchi tizim sifatida qarashga imkon beradi. Shu nuqtayi nazardan, boshlang‘ich ta’limda ona tilini o‘qitish metodikasi ilmiy, tizimli va integrativ yondashuv asosida rivojlantirilishi lozim, bu esa pedagogik innovatsiyalar va zamonaviy interfaol texnologiyalarni muvaffaqiyatli tatbiq etish uchun mustahkam zamin yaratadi.

Adabiyotlar:

1. Abduqodirov A.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2021.
2. A.G‘ulomov, R.Sayfullayeva, M.Ernazarova, A.Bobomurodova, N.Alavutdinova. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2023. 14-b.
3. Nurmatova S.T. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. – Toshkent, 2022.
4. S.Matchonov, H.Bakiyeva, X.G‘ulomova, Sh.Yo‘ldoshev, G.Xolboyeva. “Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi” , darslik. – T.: “Ishonchli hamkor”, 2021. 20-b.
5. A.G‘ulomov, R.Sayfullayeva, M.Ernazarova, A.Bobomurodova, N.Alavutdinova. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2023. 20-24-b.
6. Xudoyberdiyeva, M.N. Raqamli ta’lim va metodika. Toshkent: 2024

7. Karimova, D.R. Ona tili oqitishda lingvodidaktik yondashuv. Toshkent: 2023.
8. Александр Александрович Леонтьев. Психолингвистика и обучение языку. — М.: Наука. 2017. — 63–71-с.
9. Николай Михайлович Шанский. Методика преподавания русского языка. — М.: Просвещение.
10. Анатолий Николаевич Щукин. Методика преподавания русского языка как иностранного. — М.: Высшая школа. 2010. — 25–39-с.
11. Richards, J.C., & Rodgers, T.S. Approaches and Methods in Language Teaching, 2nd ed., Cambridge University Press, 2001, pp. 1–35.
12. Harmer, J. — The Practice of English Language Teaching, 4th edition, Pearson Longman, 2007. pp. 130–165
13. Usmonova, Z.X. Ta’limda interfaol metodlar. Toshkent: 2021.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA ESTETIK KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHDA XALQ OG‘ZAKI IJODI NAMUNALARINING ROLI

Sultonov Akram Ikromovich,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti pedagogika fakulteti……
Shermatova Nilufar Hakimovna,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti pedagogika fakulteti
Ta’lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi
Boshlang’ich ta’lim yo’nalishi 1-kurs 1-25-guruh magistranti
nilufarhakimovna1@gmail.com
Orcid: 0009-0003-4988-912X

Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’lim jarayonida estetik kompetentlikni shakllantirishda xalq og‘zaki ijodi namunalarining o‘rni ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda ertaklar, maqollar, topishmoqlar va boshqa folklor janrlarining o‘quvchilarning estetik didini rivojlantirishdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, xalq og‘zaki ijodi orqali o‘quvchilarda go‘zallikni anglash, badiiy tafakkurni rivojlantirish va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini shakllantirish imkoniyatlari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: *estetik kompetentlik, boshlang‘ich ta’lim, xalq og‘zaki ijodi, ertak, maqol, topishmoq, estetik did, badiiy tafakkur, milliy qadriyatlar.*

РОЛЬ ОБРАЗЦОВ УСТНОГО НАРОДНОГО ТВОРЧЕСТВА В ФОРМИРОВАНИИ ЭСТЕТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

В статье рассматривается роль образцов устного народного творчества в формировании эстетической компетентности в начальном образовании. Анализируется значение сказок, пословиц, загадок и других жанров фольклора в развитии эстетического вкуса учащихся. Также раскрываются возможности формирования у школьников художественного мышления, восприятия красоты и уважения к национальным ценностям через народное творчество.

Ключевые слова: *эстетическая компетентность, начальное образование, устное народное творчество, сказка, пословица, загадка, эстетический вкус, художественное мышление, национальные ценности.*

THE ROLE OF FOLKLORE SAMPLES IN THE FORMATION OF AESTHETIC COMPETENCE IN PRIMARY EDUCATION

This article examines the role of folklore in developing aesthetic competence in primary education. It analyzes the importance of fairy tales, proverbs, riddles, and other genres of oral folk literature in shaping students’ aesthetic taste. The study also highlights the potential of folklore in fostering artistic thinking, appreciation of beauty, and respect for national values among young learners.

Keywords: *aesthetic competence, primary education, folklore, fairy tale, proverb, riddle, aesthetic taste, artistic thinking, national values.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi o‘quv jarayonining mazmuni va maqsadlarini tubdan o‘zgartirib, o‘quvchilarda nafaqat bilim, balki ko‘nikma va malakalarni ham shakllantirish zaruratini yuzaga keltirdi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichi shaxsning intellektual, ma’naviy va estetik rivojlanishida muhim poydevor vazifasini bajaradi. Shu sababli ushbu bosqichda estetik kompetentlikni shakllantirish masalasi dolzarb ilmiy va pedagogik muammo sifatida namoyon bo‘ladi. Estetik kompetentlik o‘quvchining borliqni go‘zallik nuqtai nazaridan idrok etish, badiiy asarlarni tushunish va baholash, shuningdek, o‘z estetik didini namoyon eta olish qobiliyatini anglatadi. Bu esa o‘quvchining shaxs sifatida har tomonlama kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang‘ich ta’limda estetik kompetentlikni shakllantirish jarayoni ko‘p qirrali bo‘lib, u turli pedagogik vositalar orqali amalga oshiriladi. Ushbu vositalar orasida xalq og‘zaki ijodi namunalarining o‘rni alohida ahamiyatga ega. Xalq og‘zaki ijodi asrlar davomida shakllangan ma’naviy meros bo‘lib, unda xalqning hayotiy tajribasi, axloqiy qarashlari va estetik ideallari mujassamlangan. Ertaklar, maqollar, topishmoqlar va boshqa folklor janrlari orqali yosh avlodga nafaqat bilim, balki estetik did va ma’naviy

qadriyatlar ham yetkaziladi. Shu jihatdan qaralganda, xalq ogʻzaki ijodi boshlangʻich ta’lim jarayonida estetik kompetentlikni shakllantirishning samarali vositasi sifatida namoyon boʻladi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi globallashuv sharoitida yosh avlodning milliy qadriyatlarga sodiqligini ta’minlash, ularning estetik didini rivojlantirish va badiiy tafakkurini shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Xalq ogʻzaki ijodi esa aynan shu vazifani bajarishda muhim manba boʻlib xizmat qiladi. U oʻquvchilarda milliy oʻzlikni anglash, goʻzallikni his etish va badiiy tafakkurni rivojlantirishga yordam beradi. Shu sababli xalq ogʻzaki ijodi namunalaridan samarali foydalanish masalasi pedagogik tadqiqotlarning muhim yoʻnalishlaridan biri sifatida qaraladi.

Boshlangʻich ta’lim jarayonida estetik kompetentlikni shakllantirishning nazariy asoslari estetik tarbiya tushunchasi bilan uzviy bogʻliqdir. Estetik tarbiya oʻquvchilarda goʻzallikni anglash, uni qadrlash va yaratish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayon hisoblanadi. Bu jarayon oʻquvchilarning hissiy idroki, tasavvuri va badiiy tafakkurini rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. Xalq ogʻzaki ijodi esa estetik tarbiyaning muhim vositasi sifatida ushbu jarayonni samarali tashkil etishga imkon beradi.

Xalq ogʻzaki ijodi namunalarining estetik ahamiyati ularning obrazliligi, emotsional ta’sirchanligi va badiiy ifoda vositalarining boyligi bilan belgilanadi. Ertaklarda voqealar tizimi, qahramonlar obrazi va badiiy tasvirlar orqali goʻzallik va ezgulik gʻoyalari ifodalanadi. Maqollar orqali hayotiy hikmatlar va estetik mezonlar qisqa va loʻnda shaklda bayon qilinadi. Topishmoqlar esa oʻquvchilarning tafakkurini faollashtirish bilan birga ularning tasavvurini boyitadi. Bu janrlarning barchasi oʻquvchilarning estetik idrokini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarining psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, estetik kompetentlikni shakllantirish jarayoni qiziqarli va emotsional jihatdan boy boʻlishi zarur. Xalq ogʻzaki ijodi namunalarining oʻziga xos xususiyati shundaki, ular oʻquvchilarning yoshiga mos boʻlgan sodda va tushunarli shaklda bayon etiladi. Shu bilan birga ular chuqur ma’naviy va estetik mazmunga ega boʻlib, oʻquvchilarning ruhiy dunyosiga kuchli ta’sir koʻrsatadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi boshlangʻich ta’lim jarayonida estetik kompetentlikni shakllantirishda xalq ogʻzaki ijodi namunalarining rolini ilmiy asosda tahlil qilishdan iboratdir. Ushbu maqsadga erishish uchun folklor janrlarining estetik imkoniyatlari, ularning oʻquv jarayonida qoʻllanilish usullari va oʻquvchilarning estetik rivojlanishiga koʻrsatadigan ta’siri oʻrganiladi. Tadqiqot davomida estetik kompetentlikning shakllanish mexanizmlari ham tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi tizimli yondashuv, tahlil va umumlashtirish usullariga asoslanadi. Xalq ogʻzaki ijodi namunalarining pedagogik imkoniyatlarini aniqlashda qiyosiy va nazariy tahlil usullari qoʻllaniladi. Bu yondashuv estetik kompetentlikni shakllantirish jarayonini har tomonlama oʻrganish imkonini beradi.

Boshlangʻich ta’lim tizimida estetik kompetentlikni shakllantirish jarayonini chuqur anglash uchun oʻquvchilarning yosh xususiyatlari va idrok jarayonining oʻziga xos jihatlarini hisobga olish zarur. Ushbu yosh bosqichida bolalar asosan obrazli fikrlash orqali atrof-muhitni anglaydilar, voqelikni koʻproq hissiy va tasavvuriy shaklda qabul qiladilar. Shu sababli estetik tarbiya jarayoni ham aynan shu psixologik xususiyatlarga mos ravishda tashkil etilishi lozim. Xalq ogʻzaki ijodi namunalarining obrazliligi, emotsional boyligi va soddaligi boshlangʻich sinf oʻquvchilari uchun ayniqsa muhim didaktik vosita hisoblanadi. Bu janrlar orqali bola voqelikni estetik idrok etadi, goʻzallikni his qiladi va badiiy tasavvurini rivojlantiradi.

Boshlangʻich ta’lim jarayonida estetik kompetentlikni shakllantirishning samaradorligi koʻp jihatdan ta’lim mazmunining toʻgʻri tanlanishiga bogʻliqdir. Oʻquv dasturlarida xalq ogʻzaki ijodi namunalarining mavjudligi oʻquvchilarning estetik tarbiyasini tizimli ravishda amalga oshirish imkonini beradi. Ertaklar orqali yaxshilik va yomonlikning badiiy talqini, maqollar orqali hayotiy hikmatlarning qisqa va loʻnda ifodasi, topishmoqlar orqali tafakkurning faollashuvi oʻquvchilarning estetik va intellektual rivojiga xizmat qiladi. Shu bilan birga bu janrlar oʻquvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirish, ularning badiiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalq ogʻzaki ijodi namunalarining estetik imkoniyatlari ularning mazmuni bilan bir qatorda shakliy xususiyatlarida ham namoyon boʻladi. Folklor asarlarida qoʻllanilgan obrazli ifodalar, metaforalar, takrorlar va ritmik tuzilma oʻquvchilarning estetik sezgirligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa ertaklarda uchraydigan obrazlar tizimi, voqealar rivoji va dramatik ziddiyatlar bolalarning tasavvurini boyitadi. Bu jarayon oʻquvchilarda nafaqat estetik didni, balki ijodiy tafakkurni ham shakllantiradi. Shu sababli xalq ogʻzaki ijodi boshlangʻich ta’limda estetik kompetentlikni rivojlantirishning muhim vositasi sifatida qaraladi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar estetik kompetentlikni shakllantirishda integrativ yondashuvni talab etadi. Bu yondashuvga koʻra estetik tarbiya faqat adabiyot darslari bilan cheklanib qolmasdan, balki boshqa fanlar bilan ham uygʻun holda olib borilishi lozim. Xalq ogʻzaki ijodi namunalaridan foydalanish orqali estetik kompetentlikni turli fanlar kesimida rivojlantirish mumkin. Masalan, ona tili darslarida

maqollar va topishmoqlardan foydalanish orqali nutq madaniyati va estetik did rivojlantiriladi, tasviriy san’at darslarida ertak obrazlari asosida tasviriy faoliyat tashkil etiladi. Bu jarayon estetik tarbiyaning samaradorligini oshiradi.

Boshlang‘ich ta’limda estetik kompetentlikni shakllantirishda o‘qituvchining roli ham alohida ahamiyatga ega. O‘qituvchi xalq og‘zaki ijodi namunalarini nafaqat o‘qib beruvchi, balki ularni estetik jihatdan tahlil qiluvchi va o‘quvchilarga tushuntiruvchi shaxs sifatida faoliyat yuritadi. O‘qituvchining badiiy matnga bo‘lgan munosabati, uning ifodali nutqi va didaktik mahorati o‘quvchilarning estetik idrokiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli pedagogning estetik savodxonligi va metodik tayyorgarligi yuqori darajada bo‘lishi zarur.

Xalq og‘zaki ijodi orqali estetik kompetentlikni shakllantirish jarayonida o‘quvchilarning faol ishtiroki ham muhim omil hisoblanadi. O‘quvchilar ertaklarni tinglash, maqollarni tahlil qilish, topishmoqlarga javob topish jarayonida faol fikrlashga jalb etiladi. Bu jarayon ularning mustaqil tafakkurini rivojlantiradi hamda estetik idrokini chuqurlashtiradi. Faol o‘quv faoliyati orqali o‘quvchilar estetik qadriyatlarni nafaqat qabul qiladi, balki ularni ongli ravishda anglay boshlaydi.

Boshlang‘ich ta’limda estetik kompetentlikni shakllantirish jarayoni uzoq muddatli va tizimli pedagogik faoliyatni talab etadi. Xalq og‘zaki ijodi namunalaridan muntazam va maqsadga muvofiq foydalanish orqali ushbu jarayon samarali tashkil etilishi mumkin. Bu esa o‘quvchilarning estetik didini rivojlantirish, ularning badiiy tafakkurini boyitish va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini shakllantirishga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, unda boshlang‘ich ta’lim jarayonida estetik kompetentlikni shakllantirishda xalq og‘zaki ijodi namunalarining pedagogik imkoniyatlari tizimli ravishda tahlil qilinadi. Ushbu tahlil natijalari zamonaviy ta’lim amaliyotida qo‘llanishi mumkin bo‘lgan metodik tavsiyalar ishlab chiqishga asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga tadqiqot natijalari estetik tarbiya nazariyasini rivojlantirishga ham hissa qo‘shadi.

Adabiyotlar tahlili. Boshlang‘ich ta’limda estetik kompetentlikni shakllantirish masalasi pedagogika, psixologiya va adabiyotshunoslik fanlari kesishgan nuqtada o‘rganiladigan murakkab ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. Mazkur masala bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar turli yo‘nalishlarda amalga oshirilgan bo‘lib, ularda estetik tarbiya, kompetensiyaviy yondashuv va xalq og‘zaki ijodi namunalarining pedagogik imkoniyatlari alohida-alohida tahlil qilingan. Shu bilan birga ushbu yo‘nalishlarni yagona tizim asosida o‘rganishga qaratilgan izlanishlar nisbatan kam uchraydi. Bu esa mazkur mavzuning ilmiy dolzarbligini yanada oshiradi.

Estetik tarbiya muammosi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda estetik kompetentlik tushunchasi insonning go‘zallikni idrok etish, uni baholash va yaratish qobiliyati bilan bog‘liq holda talqin qilinadi. Pedagog olimlar estetik tarbiyani shaxsning ma’naviy rivojlanishida muhim omil sifatida baholaydilar. Ushbu tadqiqotlarda estetik tarbiya jarayoni o‘quvchilarning hissiy sezgirligini, badiiy tafakkurini va estetik didini rivojlantirishga qaratilgan kompleks pedagogik faoliyat sifatida ko‘rib chiqiladi. Biroq ko‘plab tadqiqotlarda estetik kompetentlikning amaliy shakllanish mexanizmlari yetarli darajada ochib berilmagan.

Kompetensiyaviy yondashuv asosida olib borilgan ilmiy izlanishlarda ta’lim jarayonining natijadorligi o‘quvchilarda shakllangan kompetensiyalar orqali baholanadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra estetik kompetentlik o‘quvchining badiiy asarlarni idrok etish, ularni tahlil qilish va estetik baholash qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi. Tadqiqotchilar kompetensiyaviy yondashuvning afzalliklarini ta’kidlab, uning o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishdagi ahamiyatini ko‘rsatadilar. Shu bilan birga estetik kompetentlikni shakllantirishda foydalaniladigan vositalar va metodlar masalasi hali ham to‘liq yechim topmagan muammolardan biri sifatida qolmoqda.

Xalq og‘zaki ijodi namunalarining pedagogik imkoniyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlarda folklor janrlarining tarbiyaviy ahamiyati keng yoritilgan. Ertaklar, maqollar, topishmoqlar va boshqa folklor janrlarining o‘quvchilarning axloqiy, ma’naviy va intellektual rivojiga ko‘rsatadigan ta’siri ko‘plab olimlar tomonidan asoslab berilgan. Bu tadqiqotlarda xalq og‘zaki ijodi asarlarining obrazliligi, emotsional ta’sirchanligi va hayotiy mazmuni ularning tarbiyaviy samaradorligini ta’minlovchi asosiy omillar sifatida ko‘rsatiladi. Biroq ushbu asarlarning estetik kompetentlikni shakllantirishdagi o‘rni yetarli darajada kompleks tahlil qilinmagan.

Adabiyotshunoslik sohasidagi ilmiy tadqiqotlar folklor asarlarining badiiy xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan. Ushbu tadqiqotlarda xalq og‘zaki ijodi namunalarining obraz tizimi, syujet qurilishi va badiiy ifoda vositalari tahlil qilinadi. Ertaklarda qahramonlarning obrazlari orqali ezgulik va yovuzlik qarama-qarshiligi ifodalanishi, maqollarda esa hayotiy hikmatlarning qisqa va lo‘nda shaklda berilishi estetik tafakkurning shakllanishiga xizmat qiladi. Bu jihatlar folklor asarlarining estetik qiymatini belgilovchi muhim omillar hisoblanadi.

Psixologik tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining estetik idrok xususiyatlari alohida o‘rganilgan. Ushbu tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, kichik yoshdagi bolalar obrazli fikrlashga moyil bo‘lib, ular voqelikni ko‘proq hissiy va tasavvuriy shaklda qabul qiladilar. Shu sababli estetik tarbiya jarayonida obrazli va emotsional materiallardan foydalanish samarali hisoblanadi. Xalq og‘zaki ijodi namunalarining aynan shu xususiyatlarga ega ekanligi ularning estetik kompetentlikni shakllantirishdagi ahamiyatini yanada oshiradi.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda integrativ yondashuv asosida estetik kompetentlikni shakllantirish masalasi ham muhim o‘rin egallaydi. Bu yondashuvga ko‘ra estetik tarbiya faqat adabiyot darslari bilan cheklanib qolmay, balki boshqa fanlar bilan ham uyg‘un holda amalga oshirilishi lozim. Xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanish orqali estetik kompetentlikni fanlararo integratsiya asosida rivojlantirish mumkinligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Bu esa estetik tarbiyaning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich ta’limda estetik kompetentlikni shakllantirish masalasi turli yo‘nalishlarda o‘rganilgan bo‘lsa-da, xalq og‘zaki ijodi namunalarining ushbu jarayondagi o‘rni yetarli darajada tizimli tahlil qilinmagan. Mavjud tadqiqotlarda ko‘proq folklorning tarbiyaviy ahamiyati yoritilgan bo‘lib, uning estetik kompetentlikni rivojlantirishdagi imkoniyatlari chuqurroq o‘rganishni talab etadi. Shu sababli mazkur tadqiqot ushbu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Mazkur tahlil natijalari boshlang‘ich ta’lim jarayonida estetik kompetentlikni shakllantirishda xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanishning ilmiy asoslarini belgilashga imkon beradi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning estetik didini rivojlantirish, ularning badiiy tafakkurini shakllantirish va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari boshlang‘ich ta’lim jarayonida estetik kompetentlikni shakllantirishda xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanish yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatdi. O‘rganishlar davomida aniqlanishicha, folklor janrlariga xos obrazlilik, emotsional ta’sirchanlik va badiiy ifoda vositalarining boyligi o‘quvchilarning estetik idrokini rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Xalq og‘zaki ijodi namunalaridan tizimli foydalanish natijasida o‘quvchilarda go‘zallikni anglash, badiiy matnni tushunish va estetik baholash qobiliyatlari sezilarli darajada rivojlanadi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, ertaklar estetik kompetentlikni shakllantirishda eng samarali vositalardan biri hisoblanadi. Ertaklardagi qahramonlar obrazi, voqealar rivoji va badiiy tasvirlar o‘quvchilarning tasavvurini boyitadi hamda ularning estetik didini shakllantiradi. Ayniqsa, yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi qarama-qarshilikning badiiy ifodasi o‘quvchilarda estetik va axloqiy qarashlarning uyg‘un rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu jarayon o‘quvchilarning badiiy tafakkurini faollashtiradi va ularni mustaqil fikrlashga undaydi.

Maqollarni o‘rganish jarayonida o‘quvchilarda estetik idrokning mantiqiy jihatlari rivojlanishi kuzatildi. Maqollarning qisqa va lo‘nda shaklda ifodalanganligi, undagi badiiy obrazlar va ritmik tuzilma o‘quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirish bilan birga ularning estetik didini shakllantiradi. Tadqiqot natijalari maqollar orqali o‘quvchilarda hayotiy hodisalarga estetik baho berish ko‘nikmasi shakllanishini ko‘rsatdi. Bu esa estetik kompetentlikning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.

Topishmoqlar bilan ishlash jarayonida o‘quvchilarning tasavvur qilish va obrazli fikrlash qobiliyatlari sezilarli darajada rivojlanishi aniqlandi. Topishmoqlar o‘quvchilarni faol fikrlashga undab, ularning estetik sezgirligini oshiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, topishmoqlar orqali o‘quvchilarda nafaqat intellektual, balki estetik rivojlanish ham amalga oshadi. Bu esa folklor janrlarining ko‘p qirrali pedagogik imkoniyatlarga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Natijalar shuni ham ko‘rsatdiki, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanish o‘quvchilarning nutq faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Badiiy matnlar bilan ishlash jarayonida o‘quvchilarning so‘z boyligi kengayadi, ifodali nutq ko‘nikmalari rivojlanadi va badiiy ifoda vositalaridan foydalanish qobiliyati shakllanadi. Bu jarayon estetik kompetentlikning rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanish o‘quvchilarning milliy qadriyatlarga bo‘lgan munosabatini ham shakllantiradi. Folklor asarlarida aks etgan an’analar, urf-odatlar va hayotiy qarashlar o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usini kuchaytiradi. Bu esa estetik kompetentlikning ma’naviy asoslarini mustahkamlaydi.

Natijalar boshlang‘ich ta’limda estetik kompetentlikni shakllantirishda integrativ yondashuvning samaradorligini ham tasdiqladi. Xalq og‘zaki ijodi namunalaridan turli fanlar kesimida foydalanish o‘quvchilarning estetik rivojlanishini yanada chuqurlashtiradi. Masalan, adabiyot darslarida ertaklarni o‘rganish bilan birga tasviriy san’at darslarida ularning obrazlarini tasvirlash orqali estetik tafakkur yanada boyiydi. Bu jarayon estetik kompetentlikning kompleks rivojlanishini ta’minlaydi.

Tadqiqot natijalari o‘qituvchining metodik yondashuvi estetik kompetentlikni shakllantirishda muhim rol o‘ynashini ham ko‘rsatdi. Xalq og‘zaki ijodi namunalaridan samarali foydalanish o‘qituvchining pedagogik mahoratiga bog‘liq. O‘qituvchining badiiy matnni ifodali o‘qishi, uni tahlil qilish usullari va o‘quvchilarni faol ishtirok etishga jalb etishi estetik tarbiya samaradorligini oshiradi.

Natijalar asosida shuni ta’kidlash mumkinki, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan maqsadga muvofiq va tizimli foydalanish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida estetik kompetentlikni shakllantirishning samarali vositasidir. Ushbu jarayon o‘quvchilarning estetik didini rivojlantirish, ularning badiiy tafakkurini boyitish va ma’naviy qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Muhokama. Olib borilgan tadqiqot natijalarini tahlil qilish boshlang‘ich ta’lim jarayonida estetik kompetentlikni shakllantirish murakkab, ko‘p bosqichli va tizimli pedagogik faoliyatni talab etishini ko‘rsatadi. Estetik kompetentlikni rivojlantirish jarayoni nafaqat bilim berish bilan cheklanib qolmay, balki o‘quvchilarning hissiy, tasavvuriy va badiiy tafakkurini uyg‘un rivojlantirishni ham nazarda tutadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanish ushbu jarayonni samarali tashkil etishning muhim vositalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Chunki folklor janrlarining o‘ziga xos xususiyatlari o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga to‘liq mos keladi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, estetik kompetentlikni shakllantirishda xalq og‘zaki ijodi namunalarining samaradorligi ularning obrazliligi va emotsional ta’sir kuchi bilan bevosita bog‘liqdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari obrazli fikrlashga moyil bo‘lganligi sababli ertaklar, maqollar va topishmoqlar orqali berilgan ma’lumotlar ular tomonidan tez va samarali qabul qilinadi. Bu jarayon o‘quvchilarning estetik idrokini faollashtirib, ularning badiiy tafakkurini rivojlantiradi. Shu bilan birga, folklor asarlarida aks etgan go‘zallik, uyg‘unlik va ezgulik g‘oyalari o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy qarashlari bilan uyg‘unlashadi.

Tadqiqot natijalarini ilmiy adabiyotlar bilan qiyoslash shuni ko‘rsatadiki, estetik kompetentlikni shakllantirish masalasida ko‘plab tadqiqotchilar estetik tarbiyaning muhimligini ta’kidlaydilar, biroq ushbu jarayonda folklor namunalaridan foydalanish imkoniyatlari yetarli darajada tizimli yoritilmagan. Mazkur tadqiqot esa aynan shu jihatni kengroq ochib berib, xalq og‘zaki ijodi namunalarining estetik kompetentlikni rivojlantirishdagi o‘rnini asoslab beradi. Bu esa ilmiy yangilik sifatida baholanishi mumkin.

Muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, ertaklar estetik kompetentlikni shakllantirishda yetakchi vosita hisoblanadi. Ertaklardagi obrazlar tizimi, voqealar rivoji va dramatik ziddiyatlar o‘quvchilarning tasavvurini kengaytiradi hamda ularning estetik didini rivojlantiradi. Ayniqsa, ertaklarda yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi qarama-qarshilikning badiiy ifodasi o‘quvchilarda estetik va axloqiy qarashlarning uyg‘un shakllanishiga xizmat qiladi. Bu jarayon o‘quvchilarning hayotiy voqelikka estetik baho berish ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Maqollar va topishmoqlar bilan ishlash jarayoni estetik kompetentlikning mantiqiy va tafakkuriy jihatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Maqollarning qisqa va mazmunli shakli o‘quvchilarning fikrlash jarayonini faollashtiradi, ularni hayotiy hodisalarni umumlashtirishga o‘rgatadi. Topishmoqlar esa o‘quvchilarning tasavvur qilish qobiliyatini rivojlantirib, ularning estetik sezgirligini oshiradi. Bu jarayon estetik kompetentlikning ko‘p qirrali ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Muhokama jarayonida estetik kompetentlikni shakllantirishda integrativ yondashuvning ahamiyati ham alohida ta’kidlanadi. Xalq og‘zaki ijodi namunalaridan turli fanlar kesimida foydalanish o‘quvchilarning estetik rivojlanishini yanada chuqurlashtiradi. Bu yondashuv estetik tarbiyani tizimli va kompleks tarzda tashkil etish imkonini beradi. Natijada o‘quvchilar estetik qadriyatlarni turli faoliyat turlari orqali o‘zlashtiradilar.

O‘qituvchining metodik mahorati estetik kompetentlikni shakllantirish jarayonining samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanishda o‘qituvchining ijodiy yondashuvi, badiiy matnni ifodali yetkazishi va o‘quvchilarni faol ishtirok etishga jalb etishi muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon o‘quvchilarning estetik idrokini faollashtiradi va ularning badiiy tafakkurini rivojlantiradi.

Muhokama natijalari shuni ham ko‘rsatadiki, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanish o‘quvchilarda milliy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini shakllantirishga xizmat qiladi. Folklor asarlarida aks etgan milliy an’analar va qadriyatlar o‘quvchilarning ma’naviy dunyosini boyitadi. Bu esa estetik kompetentlikning milliy-ma’naviy asoslarini mustahkamlaydi.

Yuqoridagi tahlillar asosida aytish mumkinki, boshlang‘ich ta’limda estetik kompetentlikni shakllantirishda xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanish ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan samarali yondashuv hisoblanadi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning estetik didini rivojlantirish, ularning badiiy tafakkurini shakllantirish va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot doirasida boshlang‘ich ta’lim jarayonida estetik kompetentlikni shakllantirishda xalq og‘zaki ijodi namunalarining o‘rni kompleks yondashuv asosida tahlil qilindi. Olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida aniqlanishicha, estetik kompetentlik o‘quvchilarning shaxs sifatida har tomonlama rivojlanishida muhim omil bo‘lib, u nafaqat go‘zallikni idrok etish, balki uni baholash va ifodalash qobiliyatlarini ham o‘z ichiga oladi. Ushbu kompetentlikni shakllantirishda xalq og‘zaki ijodi namunalarining pedagogik imkoniyatlari yuqori ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan tizimli va maqsadga muvofiq foydalanish o‘quvchilarning estetik idrokini rivojlantirishga samarali ta’sir ko‘rsatadi. Ertaklar orqali obrazli fikrlash va badiiy tasavvur shakllanadi, maqollar orqali estetik va mantiqiy tafakkur rivojlanadi, topishmoqlar orqali esa o‘quvchilarning tasavvur qilish va tahliliy fikrlash qobiliyatlari faollashadi. Bu jarayon estetik kompetentlikning turli tarkibiy qismlarini kompleks tarzda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tahlillar natijasida xalq og‘zaki ijodi namunalarining estetik ahamiyati ularning obrazliligi, emotsional ta’sirchanligi va badiiy ifoda vositalarining boyligi bilan belgilanadi degan ilmiy xulosaga kelindi. Ushbu xususiyatlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlariga mos kelib, estetik tarbiya jarayonini samarali tashkil etish imkonini beradi. Natijada o‘quvchilarda go‘zallikni his etish, badiiy asarlarni tushunish va estetik baholash ko‘nikmalari shakllanadi.

Tadqiqot davomida estetik kompetentlikni shakllantirishda integrativ yondashuvning ahamiyati ham aniqlandi. Xalq og‘zaki ijodi namunalaridan turli fanlar kesimida foydalanish o‘quvchilarning estetik rivojlanishini yanada chuqurlashtiradi. Bu yondashuv estetik tarbiyaning tizimli va kompleks tarzda amalga oshirilishini ta’minlaydi hamda o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini amaliy faoliyat bilan bog‘lashga imkon yaratadi.

O‘qituvchining metodik mahorati estetik kompetentlikni shakllantirish jarayonining muhim sharti sifatida namoyon bo‘ldi. Xalq og‘zaki ijodi namunalaridan samarali foydalanish o‘qituvchining pedagogik yondashuvi, badiiy matnni ifodali yetkazish qobiliyati va o‘quvchilarni faol ishtirok etishga jalb etishiga bog‘liq ekanligi aniqlandi. Bu esa estetik tarbiya jarayonida pedagogning rolini yanada kuchaytiradi.

Tadqiqot natijalari xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanish o‘quvchilarda milliy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini shakllantirishga ham xizmat qilishini ko‘rsatdi. Folklor asarlarida aks etgan an’analar, urf-odatlar va hayotiy qarashlar o‘quvchilarning ma’naviy dunyosini boyitadi hamda ularning milliy o‘zlikni anglashiga yordam beradi. Bu esa estetik kompetentlikning ma’naviy asoslarini mustahkamlaydi.

Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi umumiy ilmiy xulosalarga kelish mumkin: boshlang‘ich ta’limda estetik kompetentlikni shakllantirish murakkab va tizimli pedagogik jarayon bo‘lib, ushbu jarayonda xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanish samarali metodik vosita hisoblanadi; folklor janrlarining obrazliligi va badiiy boyligi o‘quvchilarning estetik didini rivojlantirishga xizmat qiladi; estetik kompetentlikni shakllantirishda integrativ yondashuv va o‘qituvchining metodik mahorati muhim ahamiyatga ega.

Mazkur tadqiqot natijalari boshlang‘ich ta’lim jarayonida estetik kompetentlikni shakllantirishga qaratilgan metodik yondashuvlarni takomillashtirishga xizmat qiladi. Ushbu yo‘nalishda olib boriladigan keyingi ilmiy izlanishlar estetik tarbiya jarayonining samaradorligini yanada oshirishga yordam beradi hamda zamonaviy ta’lim tizimining rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch*. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O‘zbekiston strategiyasi*. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
3. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. *Pedagogika asoslari*. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004.
4. To‘xtaxodjayeva M. *Pedagogika*. – Toshkent: Fan, 2010.
5. Musurmonova O. *Ma’naviy tarbiya asoslari*. – Toshkent: O‘qituvchi, 2007.
6. Quronov M. *Milliy tarbiya asoslari*. – Toshkent: Ma’naviyat, 2006.
7. Ergashev I. *Estetika asoslari*. – Toshkent: O‘qituvchi, 2006.
8. Rasulov A. *Adabiyot nazariyasi*. – Toshkent: Fan, 2004.
9. Komilov N. *Tasavvuf va badiiy tafakkur*. – Toshkent: Sharq, 2005.
10. Madayev O., Sobitova T. – *O‘zbek xalq og‘zaki ijodi*. – Toshkent: Fan, 2002.
11. Imomnazarov M. *Milliy ma’naviyat asoslari*. – Toshkent: Sharq, 2008.
12. G‘afforov Y. *Boshlang‘ich ta’lim metodikasi*. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012.
13. Xoliqov A. *Pedagogik mahorat*. – Toshkent: Fan, 2008.
14. Saidov A. *Sharq madaniyati va san’ati*. – Toshkent: O‘zbekiston, 2007.
15. Abdullayeva Q. *Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi*. – Toshkent: Fan, 2015.
16. Qosimova K. *Ona tili o‘qitish metodikasi*. – Toshkent: O‘qituvchi, 2009.

17. Vygotsky L.S. *Mind in Society*. – Cambridge: Harvard University Press, 1978.
18. Dewey J. *Art as Experience*. – New York: Perigee Books, 2005.
19. Bruner J. *The Culture of Education*. – Cambridge: Harvard University Press, 1996.
20. Eisner E. *The Arts and the Creation of Mind*. – Yale University Press, 2002.

“O‘QISH” FANINING BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING IJTIMOIYLASHUVINI TA’MINLASHDAGI O‘RNI

To‘ychiyeva Zulfiyaxon Abdulxamid qizi,
O‘zbekiston, Qo‘qon DU tayanch doktoranti (PhD)
zulfiyatoychiyeva40@gmail.com
ORCID: 0009-0004-7796-2328

“O‘qish” fani boshlanich sinf o‘quvchilarini muvaffaqiyatli tarzda ijtimoiylashtirishda katta imkoniyatga ega. Fanni o‘qitishda, eng avvalo, turli mavzulardagi matnlar orqali o‘quvchilar axloqiy me'yor va qoidalar bilan tanishtiriladi. Matnlar orqali an'ana, urf-odat, shuningdek, jamiyat tomonidan qabul qilingan axloq qoidalari mohiyatini yetarlicha anglash o‘quvchilarni jamiyatga samarali moslashtiradi. “O‘qish” darslarini tashkil qilishda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini samarali ijtimoiylashtirish bir necha yo‘nalishlarda amalga oshiriladi. Shu sababli belgilangan yo‘nalishlarda pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari oldida turgan muhim vazifalardan biri sanaladi. Maqolada “O‘qish” darslarida o‘quvchilarini samarali ijtimoiylashtirishning asosiy yo‘nalishlari va ular bo‘yicha tashkil qilinadigan pedagogik faoliyat mazmuni yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *“O‘qish” fani, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, ijtimoiylashuv, “O‘qish” darslarida o‘quvchilarni ijtimoiylashtirishning asosiy yo‘nalishlari, pedagogik faoliyat, pedagogik faoliyat mazmuni.*

РОЛЬ ПРЕДМЕТА «ЧТЕНИЕ» В ОБЕСПЕЧЕНИИ СОЦИАЛИЗАЦИИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Предмет “Чтение” обладает огромным потенциалом для успешной социализации учащихся начальной школы. При преподавании предмета, прежде всего, учащиеся знакомятся с моральными нормами и правилами посредством текстов на различные темы. Глубокое понимание сущности традиций, обычаев, а также принятых в обществе нравственных норм, формируемое на основе текстов, способствует эффективной адаптации учащихся к социальной среде. При организации уроков “Чтения” эффективная социализация учащихся начальной школы осуществляется по нескольким направлениям. В этой связи эффективная организация педагогической деятельности по данным направлениям является одной из важнейших задач учителей начальных классов. В статье рассматриваются основные направления эффективной социализации учащихся на уроках “Чтения”, а также содержание педагогической деятельности, организуемой в рамках данного процесса.

Ключевые слова: *предмет “Чтение”, учащиеся начальной школы, социализация, основные направления социализации на уроках “Чтения”, педагогическая деятельность, содержание педагогической деятельности.*

THE ROLE OF THE “READING” SUBJECT IN ENSURING THE SOCIALIZATION OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS

The subject “Reading” offers enormous potential for the successful socialization of elementary school students. When teaching this subject, students are primarily introduced to moral norms and rules through texts on various topics. A deep understanding of the essence of traditions, customs, and accepted social moral standards, developed through these texts, facilitates students' effective adaptation to the social environment. When organizing “Reading” lessons, the effective socialization of elementary school students is achieved through several approaches. Therefore, the effective organization of pedagogical activities in these areas is one of the most important tasks for elementary school teachers. This article examines the key approaches to effective student socialization in “Reading” lessons, as well as the content of pedagogical activities

organized within this process.

Key words: *The subject “Reading”, elementary school students, socialization, key approaches to socialization in “Reading” lessons, pedagogical activities, content of pedagogical activities.*

Kirish. Boshlang‘ich sinflarning o‘quv jadvaliga “O‘qish” darsining kiritilishi o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari, ijtimoiy ko‘nikma, malakalarga hamda ulargagina xos bo‘lgan “hayotiy” tajribaga egalik kabi jihatlar inobatga olingan holda kiritilgan. O‘quv fanining boshlang‘ich ta’lim tizimining

muhim tarkibiy elementi sifatidagi o‘rni va roli uning didaktik imkoniyatlari bilan belgilanadi. Zero, bu o‘quv fani o‘quvchilarda o‘qish ko‘nikma, malakalarini shakllantirish bilan birga ularning ma’naviy-axloqiy sifatlarinia, dunyoqarashlarini, ijtimoiy munosabatlar borasidagi hayotiy tajribalarini boyitishga xizmat qiladi.

“O‘qish” darslarida kichik maktab yoshidagi bolalarda jamiyatdagi, jamoat joylari (transport, sog‘liqni saqlash tashkilotlari (klinika va poliklinika, kasalxonalar, qayta tiklash markazlari), bozor, park, hiyobon, madaniyat muassasalari (teatr, kino, konsert va tomoshalar o‘tkaziladigan zal, maydonlar), dam olish va hordiq chiqarish uchun mo‘ljallangan maskanlar va boshqa joylarda o‘zini tuta bilish, belgilangan tartib-qoidalarga bo‘ysunish, atrofdagilarga hurmat bilan munosabatda bo‘lishga odatlantirib boriladi.

Tegishli fan bo‘yicha turkum mavzular yordamida o‘quvchilar oilaning har bir shaxs uchun qadriyat ekanini anglaydi, jamoaviylik, do‘stlik, hamkorlikka asoslanuvchi munosabatlarning shaxsning fuqaro sifatida kamol topishidagina emas, balki jamiyat taraqqiyotini ta’minlashda ham o‘ziga xos ahamiyat kasb etishini tushunib yetadi.

“O‘qish” darslarida rolli o‘yinlar, guruhli loyihaviy ishlar, sahna ko‘rinishlaridan foydalanish har bir o‘quvchini jamoada ishlashga, jamoaviy topshiriqlarini bajarishda o‘z tengdoshlari bilan hamkorlik qilishga o‘rgatadi. Agarda o‘quvchilar ta’lim jarayonida qahramonlarning ruhiy holatini tushuna olsa, qiyin vaziyatlarda ularga hamdardlik bildirsa, demakki, ularda boshqalarga nisbatan ehtirom va hamdardlik tuyg‘ulari mavjud.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijtimoiylashtirish bir nechta yo‘nalishlarda amalga oshiriladi. Tegishli yosh davri bolalariga xos xususiyatlarni, “O‘qish” darslarining pedagogik imkoniyatini o‘rganish, o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini pedagogik nuqtayi nazardan kuzatish asosida ularni ijtimoiylashtirish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilishiga ishonch hosil qilindi:

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijtimoiylashtirishning asosiy yo‘nalishlari



Ko‘rsatilgan yo‘nalishlarning har birida pedagogik faoliyatni olib borishda muayyan jihatlarga e’tibor qaratish zarur. Xususan:

1. Ma’naviy-axloqiy fazilatlarni tarbiyalash. Bu jarayonda, eng avvalo, darslarda “Qanday xulq yaxshi, qanday xulq yomon?” turkumidagi matnlarni o‘qish, ular asosida suhbatlarni tashkil qilish, yaxshi va yomon sanaladigan xulqqa egalikning video roliklar, sahna ko‘rinishlari, rolli o‘yinlar orqali namoyish qilishga e’tiborni qaratish talab etiladi. Ular asosida o‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy fazilatlar va ularga ega bo‘lishning ahamiyati to‘g‘risidagi tushunchalar shakllanadi.

Kichik maktab yoshi o‘quvchilari ijtimoiy va tabiiy borliqni ko‘p holatlarda vizual (ko‘z bilan ko‘rish) orqali obrazli qabul qiladi. Shu sababli o‘quvchilarni ijtimoiylashtirishda ota-onalar, oila a’zolari, o‘qituvchilar, umuman olganda, jarayonga bevosita ta’sir etuvchi subyektlarning namuna bo‘la olishlari muhim.

O‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo‘lishlari ularni milliy hamda umuminsoniy axloqiy qadriyatlar bilan yaqindan tanishtirish, qadriyatlar mazmunida aks etgan g‘oyalarni ularning ongida aks etishiga erishish kutilgan natijaga erishish uchun imkoniyat yaratadi.

“O‘qish” darslarida bosqichma-bosqich o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy fazilatlar, ularning izohi (halollik (rostgo‘y bo‘lish, aldamaslik); adolatlilik (haqiqatga asoslanib ish ko‘rish, tenglikni saqlash); hurmat (kattalarga ehtirom, kichiklarga izzat) ko‘rsatish; mehr-shafqat (boshqalarga g‘amxo‘rlik qilish, rahmdillik); mas’uliyatlilik (zimmasidagi burch va vazifalarni vijdonan bajarish); sabr-toqat (qiyinchiliklarga chidamli bo‘lish); kamtarlik (manmanlikdan yiroq bo‘lish, oddiylik); vatanparvarlik (yurtni sevish va qadrlash); intizomlilik (belgilangan tartib-qoidalarga rioya qilish); do‘stlik (do‘stlarga sadoqatli bo‘lish); kechirimlilik (boshqalarning xatosini kechira bilish); tozalik va ozodalik (shaxsiy buyumlari, uy-joyiga va atrof-muhitga e’tiborli bo‘lish), bu kabi fazilatlarga ega bo‘lishning shaxs va jamiyat uchun ahamiyati bilan

tanishtirib borish o‘quvchilarda sekin-asta axloqiy e’tiqodning shakllanishi uchun zarur sharoitni yuzaga keltiradi.

O‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ota-onalar (maktabning oila) bilan o‘zaro hamkorlikka erishishlari muhim. Ma’naviy-axloqiy tarbiya borasida maktab va oila o‘rtasida uzviy aloqa bo‘lishi shart. Zero, ta’lim jarayonida ilgari surilayotgan ma’naviy-axloqiy g‘oyalar oilada olib borilayotgan axloqiy tarbiya mazmuniga muvofiq bo‘lgandagina o‘quvchilarda ijobiy xulq-atvor shakllanadi.

2. Ijtimoiy faol bo‘lishiga erishish. Manbalarda “ijtimoiy faollik” tushunchasi “kishi qaysi kasbning egasi bo‘lishidan, qanday lavozimda ishlashidan qat'iy nazar, uning jamiyat rivojiga hissa qo‘shishga, zamondan ortda qolmaslikka bo‘lgan harakati” [5, 255-b.]; “shaxs yoki guruhning ijtimoiy jarayonlarga ta’sir qilish va turmush sharoitini yaxshilash maqsadida tashkil qilinayotgan ijtimoiy hayotdagi ishtiroki” [4]; subyektning “ongli harakatga asoslangan, jamiyat taraqqiyotiga yo‘naltirilgan ijtimoiy faol ishtiroki” [8, 112-b.]; “shaxsiy sifatlari darajasining asosiy ifodasi, yuksak darajadagi ehtiyojlarini qondirish usuli, sifat ko‘rsatkichi” [8, 255-b.]; “jamiyatda faol ishtirok etishi, uning muammolariga befarq bo‘lmasligi, ijtimoiy munosabatlarda ongli ravishda qatnashish” [1, 38-b.]; shaxsning jamiyat hayotida ongli ravishda ishtirok etishi, ijtimoiy muhit, shu jumladan, atrofidagi shaxslar bilan faol munosabatda bo‘lishi, umumjamoa manfaati yo‘lida muayyan harakatlarni amalga oshirishga intilishi; bu ishtirok va intilishning ma’lum darajasi.

Yuqorida bildirilgan fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkin: ijtimoiy faollik negizida shaxsning jamiyat, quyi bo‘g‘im sifatida mahalla yoki ishlab chiqarish hamda o‘quv jamoalarning ijtimoiy hayotida bevosita ishtirok etishi, muayyan muammolarni hal qilishda tashabbus va tashkiliy masalalarni hal qilishda jonbozlik ko‘rsatishi, barqaror hayotiy pozitsiyaga ega bo‘lishi (adolatsizlikka qarshi kurashish), ijtimoiy muammolarning muhokamalarida ishtirok etish, milliy miqyosda tashkil qilinayotgan shanbalik, tadbir, aksiya hamda loyihalarda qatnashish, mas’uliyatning o‘z zimmasiga olishi kabi sifatlar hamda ularning muayyan darajalarda namoyon bo‘lishi bilan belgilanadi. “Shaxsning bunday darajalarda o‘rganilishi metodologik ahamiyat kasb etadi” [7, - 149-150-b.].

Ijtimoiy faollik negizida kirishuvchanlik (subyektlar bilan oson til topisha olish); tashabbuskorlik (yangi g‘oya va takliflarni ilgari surish); tashkilotchilik (jamoaviy ishlarni tashkil qilish, ularni tashkiliy, boshqaruv jihatidan qo‘llash); mas’uliyatlilik (o‘z zimmasidagi vazifalarini sidqidildan bajarish); jamoa hayoti va ishida faol ishtirok (guruh ishlarida qatnashish); befarq bo‘lmaslik (ijtimoiy voqea, hodisalarga faol munosabat bildirish; ularni yoqlash yoki inkor qilish).

Katta yoshli kishilardan farqli tabiiy ravishda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijtimoiy faolligi bu turdagi faollikning dastlabki bosqichi bo‘lib, nisbatan oddiy xatti-harakatlar orqali namoyon bo‘ladi. Chunonchi, darslarda savol-javoblar jarayonida ishtirok etish; o‘qituvchi hamda tengdoshlari bilan izchil muloqotni tashkil qilish; o‘quv topshiriqlarini jamoaviy – kichik guruhlarda bajarish; darsdan tashqari sharoitda sinf ishlari (navbatchilik; qo‘shimcha mashg‘ulotlar davrda o‘quv-bilish faoliyatini olib borish; turli sport musobaqalari, intellektual bellashuvlar, tanlovlar, to‘garaklar faoliyati, madaniy tadbirlar, sinf yoki maktablarda hasharlarni, “Tozalik kun”larini uyushtirish; sinf xonasining tozaligi va sanitariya holati uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olish kabilar)ni tashkil etishda tashabbuskor va tashkilotchi bo‘lish); zarur vaziyatlarda tengdoshlari yoki atrofdagilarga yordam berish; tabiatni asrash yo‘lida amaliy harakat qilish (“Tabiat burchagi”da jonivorlarni parvarishlash; maktab geografik maydonlaridagi ko‘chat, daraxt, o‘simlik hamda gullarni parvarishlash); o‘yinlar va jamoaviy muhokamalar jarayonida faol ishtirok etish.

Ijtimoiy faol bo‘lishi orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ularning ijtimoiy munosabatlarga samarali ravishda moslashish uchun xizmat qiladigan ko‘nikma va malakalarga ega bo‘ladi hamda yetuk fuqaro sifatida kamolotga erishadi. Masalan, muloqot, jamoada ishlash, jamoada ijobiy ijtimoiy muhitni yaratish; sinfda do‘stona, sog‘lom, rag‘batlantiruvchi muhitning yaratilishiga o‘z hissasini qo‘shish; tengdoshlarining tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash; munosabatlar jarayonida milliy axloqiy qadriyatlarga tayanish va hokazolar.

Shu bois “O‘qish” darslarida jamiyat hamda o‘quvchilar jamoasining ijtimoiy faoliyatiga oid mavzular bilan o‘quvchilarni yaqindan tanishtirib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Irodaviy sifatlarni tarbiyalash. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida irodaviy sifatlarni tarbiyalash ularning o‘qishdagi muvaffaqiyati, xulq-atvori va kelajakdagi shaxsiy rivoji uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. “O‘qish” darslarida rang-barang mavzulardagi o‘quv materiallari yordamida kichik maktab yoshidagi bolalarda quyidagi irodaviy sifatlarni muvaffaqiyatli tarbiyalash imkoniyati mavjud: o‘z oldiga maqsad qo‘yish; qo‘yilgan maqsadga erishish uchun intilish; ta’lim olishda qiyinchiliklar yuzaga kelgan ularga nisbatan sabrli bo‘lish (topshiriqlarni oxirigacha bajarishga o‘rganish); qat’iyatlilik (ma’lum xatti-harakatni amalga oshirishda ikkilanmay qaror qabul qilish va uni amalga oshirishda barqarorlik ko‘rsatish); kundalik

va o‘quv-bilish faoliyatida o‘zini o‘zi nazorat qilish; intizomli bo‘lish; mas’uliyatlilik (zimmasidagi vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli bajarishga intilish, burchini to‘la his qilish); tashabbuskorlik, mustaqillik (o‘zini o‘zi boshqara olish, qarorlarni mustaqil qabul qilish); fikrini dadil bayon qilish.

4. Ruhan barqaror bo‘lishiga erishish. Zamonaviy sharoitda psixologiya va pedagogika fanlari doirasida shaxsning ruhiy barqarorligi muammosini o‘rganish global o‘zgarishlar, “ijtimoiy hamda iqtisodiy keskinlikning kuchayishi, subyekt tomonidan qarorlarni qabul qilish samaradorligiga bo‘lgan talablarning ortishi bilan bog‘liq holda tobora dolzarblik kasb etmoqda … Shaxsning psixologik barqarorligi muammosini ilmiy hodisa sifatida nazariy tushunishga ehtiyoj ortib bormoqda” [2, – c. 362]. Bu o‘rinda muallif “turg‘unlik” deganda shaxsning psixologik, intellektual va ijtimoiy jihatdan rivojlanmay qolganligini emas, aksincha, uning ruhiy, aqliy hamda ijtimoiy nuqtayi nazardan kamolga yetganligini, u qadar ahamiyatli bo‘lmagan hodisalarni oddiy voqelik sifatida qabul qilishi, ortiq darajada ta’sirlanmasligi, jarayonga mulohazakorlik bilan yondashuvini, umumiy qilib aytganda, ma’lum darajada hayotiy tajribaga egaligini nazarda tutadi.

Garchi psixologik, pedagogik adabiyotlarga “ruhiy barqarorlik” (ingl. “mental toughness”) nazariy jihatdan turlicha talqin qilinsada, biroq, mavjud yondashuvlar shaxs ruhiy barqarorligini muayyan tomonidan o‘rganilganini ko‘rsatadi. Xususan, ruhiy barqarorlik – shaxsning “ruhiy tushkunlikdagi holati, uni keltirib chiqargan vaziyatlarni yengib o‘tishga imkon beradigan psixologik tavsifi (tuzilishi)” [3, – c. 49.]; “kelgusida sport, ta’lim va kasbiy faoliyatda erishadigan muvaffaqiyatlarining taxmin qilinishini kafolatlaydigan unga xos individual chidamlilik va o‘ziga bo‘lgan ishonchining o‘lchovi”; qiyinchiliklar yuzaga kelgan, muvaffaqiyatsizliklar ro‘y bergan vaziyatlarda ichki xotirjamlikni saqlab qolgan holda xatolarga yo‘l qo‘ymagan, ortga chekinmagan holda jismoniy va ruhiy bosim (zo‘riqish)larga bardoshli bo‘lish qobiliyati” [6].

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ruhiy barqarorlikni qaror toptirish ularning sog‘lom rivojlanishi, o‘qishga qiziqishi va ijtimoiy moslashuvini ta’minlashning muhim omillaridan biri sanaladi. Ushbu omilning inobatga olinishi ta’lim, shu jumladan, “O‘qish” darslarida boshlag‘ich sinf o‘qituvchilari tomonidan sinf va oilada sog‘lom (do‘stona, qo‘llab-quvvatlovchi) psixologik muhit yaratish; o‘quvchining shaxsini hurmat qilish; hissiy qo‘llab-quvvatlash; yutuqlardan quvonishga, intizomli bo‘lishiga hamda kun tartibiga rioya qilishga o‘rgatish; ularni qiyin vaziyat (muvaffaqiyatsizlik)larga ruhan tayyorlashga xizmat qiladigan pedagogik shart-sharoitlarning yaratilishi e’tibor qaratilishi talab qilinadi. Chunki o‘quvchilarda ruhiy barqarorlikni qaror toptirish orqali ijtimoiy munosabatlarga to‘la, samarali moslasha olgan shaxslar bo‘lib yetishishlarini ta’minlaydi.

Shuni ham yodda tutish kerakki, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘quvchini qo‘rqitish, tahqirlash va qattiq tanqid qilish mumkin emas. Aksincha, uni qadrlash, fikrini tinglash, xohish-istaklaridan xabardor bo‘lish; o‘zini muhim shaxs sifatida his qilishi uchun sharoitni yaratish; his-tuyg‘ularini anglay olish; quvonch va tashvishlaridan xabardor bo‘lish; tushkun kayfiyatda bo‘lganida ruhan yordam berish; uning hatto eng kichik bo‘lsa ham yutuqlarini ham e’tirof etish, maqtash orqali o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirish; qiyin vaziyatlarda o‘zini o‘zi boshqarishga, sabrli, toqatli, jismonan bo‘lishga o‘rgatish; shaxsga xos mehnat faoliyatining turi sifatida o‘qish va dam olish o‘rtasida mutanosiblikni ta’minlash boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ruhiy barqarorlikka ega bo‘lishlariga yordam beradi. O‘qituvchilar harakatli mashg‘ulotlar, o‘yinlar, shu bilan birga mazmunli, ko‘ngillik dam olish bolaning ruhiy holatiga ijobiy ta’sir qilishini ham unutmasliklari lozim.

Kun tartibining to‘g‘ri tashkil etilishi fiziologik jihatdan ham sog‘lom bo‘lishiga yordam beradi, unda huda-behudaga xavotirlanish hissini bartaraf qiladi. Zero, ruhiy barqarorlikka egalik o‘quvchini faol, ishonchli, ta’lim olishga ishtiyoqli bo‘lishiga yordam beradi.

5. Hissiyotni tarbiyalash. Lug‘aviy mazmuniga ko‘ra “hissiyot” tushunchasi “shaxsning voqelikdagi narsa va hodisalarga, kishilarga hamda o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatlardan kelib chiqadigan kechinmalari” [10]; “o‘zini tuta bilish, hissiy jihatdan yetuklik, xotirjamlik, qiziqishlarning barqarorligi, harakatchanlik, qat’iyatlilik, haqiqatparvarlik, arzimas narsalardan ta’sirlanmaslik kabi sifatlar majmui” [9] ma’nolarini anglatadi.

Shaxsning, shu jumladan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ruhiy, jismoniy-irodaviy rivojlanishi negizida ham hissiyot yotadi. Hissiyotning barqaror rivojlanishi esa kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni samarali ijtimoiylashtirishning muhim talablaridan, shu bilan birga ularda atrofdagilar bilan to‘g‘ri munosabat o‘rnatish, o‘qishga ijobiy munosabatni shakllantirishning asosiy shartlaridan biri sanaladi.

Tegishli yosh davridagi o‘quvchilarning hissiyotini tarbiyalashda o‘qituvchilar hamda ota-onalardan quyidagilarga e’tibor qaratish talab qilinadi: maktabda, sinfda va oilada ijobiy emotsional muhitni yaratish; bolalarni o‘z his-tuyg‘ularini ifodalashga o‘rgatish; atrofdagilarga nisbatan empatik (boshqalarning hissiyotini tushunish, qiyin vaziyatlarda ularga hamdardlik bildirishni ifodalovchi) munosabatni

rivojlantirish; o‘qituvchi, ota-onalar yoki bolaning tarbiyasi uchun mas’ul shaxslarning ijtimoiy jarayonlarda shaxsiy namuna ko‘rsatishlariga erishish; bolalarning ijobiy xatti-harakatlarini rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash; salbiy hissiyot (qo‘rqish, g‘azablanish, nafratlanish, xafa bo‘lish, hasad, umidsizlik, nolish, ko‘ngli to‘lmaslik, bezovtalik, ishonchsizlik, yoqtirmaslik, aybdorlik, alamzadalik, o‘zini past baholash, gumondorlik, adovat, noo‘rin uyalaverish, tajovuzkorlik, jazavaga tushish, qaysarlik, befarqlik, loqaydlik kabi)larga berilmasli; qiyin vaziyatlarda o‘zini tuta bilishga, tinchlanishga o‘rgatish va hokazolar.

Salbiy hissiyotlarga egalik har bir shaxsda kuzatiladi. Salbiy hissiyotning ayrim turi, masalan, qo‘rquvning bo‘lishi ba’zi holatlarda ijobiy hodisa sifatida baholanadi. Chunku qo‘rquv shaxsni muayyan xavf (qopag‘on itni ko‘rganda xavfsizlik choralarini ko‘rish)dan ogohlantiradi va xavfsizlik choralarini ko‘rishga undaydi. Eng muhimi, salbiy hissiyotlarga egalikning muayyan vaziyatlardagi ahamiyati yoki oqibatlarini to‘g‘ri anglash hamda ularning oqilona boshqarishdir.

Turli o‘yinlardan foydalanish, ular tomonidan ijodiy faoliyatning yo‘lga qo‘yilishiga erishish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining hissiyotini tarbiyalashning samarali yo‘llari hisoblanadi. Shu bilan birga o‘qituvchi va ota-onalar o‘quvchini hissiy tarbiyalashda ularning individual, yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olishlari, birga hamkorlik qilishlari zarur.

Xulosa qilib aytganda, “O‘qish” fani boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijtimoiylashtirishda muhim o‘rin tutadi. Ushbu fan orqali o‘quvchilar ijtimoiy muhit, shaxslararo munosabatlar hamda ularni samarali yo‘lga qo‘yish usullari haqida zarur bilimlarga ega bo‘ladilar. Shuningdek, milliy qadriyatlar va umuminsoniy axloqiy me’yorlar bilan tanishish orqali ularda jamiyatda to‘g‘ri va faol ishtirok etish ko‘nikma hamda malakalari shakllanadi. Natijada, “O‘qish” fani o‘quvchilarning ijtimoiy jihatdan barkamol shaxs bo‘lib yetishishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Abidova D. Ijtimoiy faollik tushunchasining mohiyati va falsafiy tahlili // International Educators Conference Hosted online fromToronto (7th may, 2025). – Toronto (Canada): 2025. – p. 38.

2. Дарвиш О.Б. Психологическая устойчивость как базовая характеристика личности // Сибирский педагогический журнал. – Новосибирск: 2008. - № 7. – С. 362.

3. Ijtimoiy faollik // https://oilaqadriyat.uz/qadriyat/ijtimoiy-faollik.

4. Ismailov B.R., Latipova N.M. Yoshlarda ijtimoiy faollik holati va amalga oshirish shakllari // Oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences j. – Nurafshon: 2021. - № 2. 1-том. – 255-б.

5. Жожикашвили Н.А., Малых А.С., Девятерикова А.А. Психическая устойчивость // Ж. Теоретическая и экспериментальная психология. – М.: 2021. - № 4. Том 14. – С. 49.

6. Психическая устойчивость: что это и как ее развить // https:// 4brain.ru/blog/развить-психическую-устойчивость.

7. Tursunova N. Yoshlarning ijtimoiy faolligi: tushuncha va fazilatlari // Ijtimoiy fikr ж. – T.: 2004. 3-son, 149-150-b.

8. Xojiboyev A. Shaxs va jamiyat: o‘zaro ta’sir falsafasi. – T.: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2016. – 112-255-b.

9. Эмоциональная стабильность // https://psychologos.ru/articles/view/ emocionalnaya-stabilnost.

10. Ҳиссиёт // https://qomus.info/encyclopedia/cat-h/hissiyot-uz.

ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИЕ

Исматова Зулайхо Асадовна,
PhD, и.о.профессор кафедры педагогики начального образования НПУУз имени Низами,
Ахмедова Камола Мухиддиновна,
Магистрант 2-го курса направления начального образования НПУУз имени Низами.

В данной статье рассматриваются интерактивные методы обучения естественным наукам в системе начального образования и их роль в повышении эффективности учебного процесса. Раскрываются теоретические основы применения интерактивных подходов, а также их педагогическое значение в формировании знаний, умений и навыков учащихся. Особое внимание уделяется развитию познавательной активности, самостоятельного мышления и творческих способностей младших школьников. Анализируются такие методы, как групповая работа, дискуссия, проблемное обучение, игровые технологии. Также обоснована необходимость внедрения инновационных педагогических технологий в образовательный процесс. Подчеркивается значимость правильного выбора методов обучения с учетом возрастных и психологических особенностей учащихся.

Ключевые слова: *интерактивные методы, начальное образование, естественные науки, познавательная активность, самостоятельное мышление, творческие способности, инновационные технологии, проблемное обучение, групповая работа, игровые технологии, научное мировоззрение, практические навыки, образовательный процесс, эффективность обучения, педагогические технологии, учебная деятельность, методика преподавания*

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA TABIIY FANLARNI O‘QITISHNING INTERAKTIV METODLARI

Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’lim tizimida tabiiy fanlarni o‘qitishning interaktiv metodlari hamda ularning o‘quv jarayoni samaradorligini oshirishdagi o‘rni ko‘rib chiqilgan. Interaktiv yondashuvlarni qo‘llashning nazariy asoslari, shuningdek, ularning o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdagi pedagogik ahamiyati yoritilgan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilish faolligi, mustaqil fikrlashi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan. Guruhli ish, munozara, muammoli ta’lim va o‘yin texnologiyalari kabi metodlar tahlil qilingan. Shuningdek, ta’lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish zarurligi asoslab berilgan. O‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda o‘qitish metodlarini to‘g‘ri tanlashning muhimligi ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: *interaktiv metodlar, boshlang‘ich ta’lim, tabiiy fanlar, bilish faolligi, mustaqil fikrlash, ijodiy qobiliyatlar, innovatsion texnologiyalar, muammoli ta’lim, guruhli ish, o‘yin texnologiyalari, ilmiy dunyoqarash, amaliy ko‘nikmalar, ta’lim jarayoni, ta’lim samaradorligi, pedagogik texnologiyalar, o‘quv faoliyati, o‘qitish metodikasi.*

INTERACTIVE METHODS OF TEACHING NATURAL SCIENCES IN PRIMARY EDUCATION

This article examines interactive methods of teaching natural sciences in primary education and their role in enhancing the effectiveness of the educational process. The theoretical foundations of applying interactive approaches, as well as their pedagogical significance in the formation of students’ knowledge, skills, and abilities, are revealed. Particular attention is paid to the development of cognitive activity, independent thinking, and creative abilities of primary school students. Methods such as group work, discussion, problem-based learning, and game-based technologies are analyzed. The necessity of implementing innovative pedagogical technologies in the educational process is also substantiated. The importance of the appropriate selection of teaching methods, taking into account the age and psychological characteristics of students, is emphasized.

Keywords: *interactive methods, primary education, natural sciences, cognitive activity, independent thinking, creative abilities, innovative technologies, problem-based learning, group work, game-based technologies, scientific worldview, practical skills, educational process, learning effectiveness, pedagogical technologies, learning activity, teaching methodology.*

Интерактивные методы обучения занимают одно из ведущих мест в современной системе начального образования, поскольку они ориентированы на активное включение обучающихся в процесс познавательной деятельности и формирование у них умений самостоятельного мышления. В обучении естественных наук интерактивный подход позволяет трансформировать традиционный урок в динамичный процесс исследования, обсуждения и практического осмысления изучаемых явлений, что способствует развитию исследовательских умений и познавательной активности младших школьников. Сущность интерактивного обучения заключается в организации учебного взаимодействия, при котором учащиеся выступают не пассивными слушателями, а активными участниками образовательного процесса. Они участвуют в обсуждении, формулируют гипотезы, аргументируют свои выводы и совместно решают познавательные задачи. Такой формат особенно эффективен при изучении естественных наук, где осмысление природных процессов и закономерностей требует анализа, сравнения и практического наблюдения.

Интерактивные методы способствуют формированию у младших школьников целостного научного мировоззрения и понимания взаимосвязей в природе. К числу наиболее распространённых интерактивных методов в обучении естественных наук относятся работа в парах и малых группах, мозговой штурм, проблемный диалог, кейс-метод, исследовательская беседа, проектная деятельность и имитационные упражнения. Эти методы способствуют активизации мыслительной деятельности учащихся и формированию навыков сотрудничества.

Интерактивные методы органично сочетаются с использованием информационно-коммуникационных технологий, что значительно расширяет дидактические возможности преподавания естественных наук.

Основные интерактивные методы в обучении естественных наук

Интерактивный метод	**Характеристика**	**Педагогический результат**
Работа в группах	Совместное выполнение заданий	Развитие коммуникативных умений
Проблемный диалог	Поиск причин природных явлений	Формирование логического мышления
Мозговой штурм	Генерация идей	Активизация познавательной деятельности
Исследовательская беседа	Анализ природных процессов	Развитие аналитических способностей
Мини-эксперимент	Практическое исследование	Формирование исследовательских навыков

Интерактивные доски, цифровые презентации, виртуальные лаборатории и образовательные платформы создают условия для наглядного и доступного изучения сложных природных процессов. Так, при изучении темы «Животные и среда их обитания» учащиеся могут анализировать видеоматериалы, выполнять интерактивные задания и участвовать в коллективных обсуждениях, формируя осознанное понимание экологических проблем.

Проблемное обучение представляет собой одну из эффективных педагогических технологий, направленных на активизацию познавательной деятельности учащихся и развитие их самостоятельного мышления. Сущность данного подхода заключается в создании на уроке проблемных ситуаций, требующих от учащихся поиска решений на основе анализа, сравнения, обобщения и выдвижения гипотез.

В процессе проблемного обучения учащиеся не получают готовые знания в завершённом виде, а самостоятельно приходят к их осмыслению и усвоению. Это способствует формированию устойчивых знаний, развитию логического мышления и исследовательских навыков. Особое значение проблемное обучение приобретает в преподавании естественных наук, где важную роль играют наблюдение, эксперимент и практическая деятельность.

Одним из ключевых элементов проблемного обучения является постановка проблемного вопроса или задачи, которая вызывает у учащихся познавательный интерес и побуждает к активной

деятельности. Учитель в данном процессе выступает не только источником информации, но и организатором, направляющим мыслительную деятельность учащихся.

Применение проблемного обучения способствует развитию критического и творческого мышления, формированию умений анализировать и делать выводы. Кроме того, данный метод повышает мотивацию к обучению и способствует более глубокому усвоению учебного материала. Важно отметить, что эффективность проблемного обучения во многом зависит от правильного подбора учебного материала, уровня подготовки учащихся и профессионального мастерства учителя. Таким образом, проблемное обучение является важным средством повышения качества образования и формирования компетентной, инициативной и самостоятельной личности учащегося.

Метод обучения через сотрудничество является одним из наиболее эффективных в интерактивной педагогике. Работая в парах и группах, учащиеся учатся распределять роли, договариваться и принимать коллективные решения. Это способствует формированию социальной компетентности и развитию критического мышления.

Важным элементом интерактивного обучения является рефлексия. После выполнения задания учащиеся анализируют свои действия, обсуждают результаты и формулируют выводы. Это развивает умение оценивать собственную деятельность и способствует формированию метапознавательных умений.

Интерактивные методы значительно повышают мотивацию обучающихся. Активное участие в учебной деятельности вызывает интерес, способствует эмоциональному вовлечению и формирует устойчивую познавательную мотивацию. Исследования показывают, что использование интерактивных форм обучения повышает уровень усвоения учебного материала и формирует положительное отношение к изучению естественных наук.

Таким образом, интерактивные методы обучения представляют собой важнейший компонент современной методики преподавания естественных наук в начальном образовании. Их использование способствует развитию у младших школьников познавательной самостоятельности, логического мышления, исследовательских умений и экологического сознания. Интеграция таких методов с цифровыми технологиями создаёт условия для формирования активной, творчески мыслящей личности, способной к осознанному изучению окружающего мира.

Интерактивные методы обучения рассматриваются в современной педагогике как важнейший инструмент повышения качества образования, поскольку они обеспечивают активное включение обучающихся в процесс познания и способствуют формированию у них устойчивых познавательных мотивов. В отличие от традиционного обучения, ориентированного преимущественно на пассивное восприятие информации, интерактивное обучение строится на принципах сотрудничества, диалога и совместного поиска знаний. Особенно значима роль интерактивных методов в преподавании естественных наук, где понимание закономерностей природы требует активного мышления, наблюдения и анализа.

Интерактивное обучение предполагает такую организацию учебного процесса, при которой каждый ученик становится полноправным участником образовательной деятельности. Он не просто слушает объяснение учителя, а взаимодействует с окружающей образовательной средой, участвует в обсуждениях, высказывает собственные предположения, анализирует информацию и делает самостоятельные выводы. Это способствует формированию научного мышления и развитию исследовательской культуры младших школьников. При изучении естественных наук интерактивные методы позволяют реализовать деятельностный подход, при котором знания усваиваются через практическое взаимодействие с объектами и явлениями. Например, при изучении темы «Воздух и его свойства» учащиеся могут выполнять групповые задания, связанные с наблюдением движений воздуха, проведением простых опытов и обсуждением полученных результатов. Такая деятельность формирует у детей умение сопоставлять факты, устанавливать причинно-следственные связи и обобщать информацию.

Система интерактивных методов в обучении естественным наукам включает разнообразные формы и приёмы, которые обеспечивают активизацию познавательной деятельности школьников:

–проблемные вопросы и ситуации;
–исследовательские задания;
–диалоговое обучение;
–работа в малых группах;
–игровые и ролевые формы;
–метод проектов;
–кейс-технологии;

–интерактивные эксперименты.

Особая роль в реализации интерактивных методов принадлежит информационно-коммуникационным технологиям. Они расширяют возможности интерактивного обучения за счёт использования виртуальных лабораторий, мультимедийных презентаций, цифровых симуляций и онлайн-платформ. Такие средства способствуют визуализации сложных природных процессов, делают обучение наглядным и доступным, а также стимулируют интерес учащихся к изучению предмета. Например, при изучении темы «Круговорот веществ в природе» учащимся можно предложить интерактивную симуляцию, где они наблюдают процессы обмена веществ между живыми организмами и окружающей средой. На основе полученных данных дети формулируют выводы и обсуждают взаимосвязи между компонентами экосистемы. Это формирует системное мышление и понимание целостности природных процессов. Интерактивные методы также способствуют развитию метапознавательных умений — способности осознавать собственный процесс мышления. В ходе коллективного обсуждения учащиеся учатся анализировать свои действия, оценивать правильность рассуждений и корректировать ошибки. Такая деятельность формирует навыки самоконтроля и рефлексии, что является важным элементом развития критического мышления.

Значимое место в интерактивном обучении занимает технология сотрудничества. Работа в группах позволяет детям обмениваться мнениями, учиться аргументировать и уважать позицию других. Это формирует не только познавательные, но и социальные компетенции, необходимые для успешной адаптации в обществе.

Примеры применения интерактивных методов на уроках естественных наук

Тема урока	**Интерактивный приём**	**Результат**
«Строение растения»	Работа в группах с макетами и схемами	Формирование представлений о структуре растения
«Вода и её свойства»	Мини-эксперимент и обсуждение	Развитие аналитического мышления
«Погодные явления»	Мозговой штурм и коллективное прогнозирование	Осознание природных закономерностей
«Экосистема»	Проектная работа	Формирование экологического мышления

Интерактивные методы способствуют повышению уровня усвоения знаний и формированию устойчивого интереса к обучению. В процессе такой деятельности дети чувствуют свою значимость, проявляют инициативу и ответственность за результат. Это повышает их мотивацию и формирует положительное отношение к изучению естественных наук. Кроме того, интерактивные формы обучения оказывают положительное влияние на эмоциональное состояние учащихся. Активное участие в учебном процессе снижает уровень тревожности, создаёт атмосферу доверия и сотрудничества, что положительно сказывается на психологическом климате в классе.

Таким образом, интерактивные методы обучения естественным наукам в начальном образовании являются важным фактором повышения эффективности учебного процесса. Они не только способствуют прочному усвоению знаний, но и формируют у младших школьников самостоятельность, инициативность, критическое мышление и умение работать в команде. Их интеграция с современными образовательными технологиями создаёт условия для формирования активной, познавательно мотивированной личности, способной к осознанному изучению окружающего мира.

Литературы:

1. Вербицкий А.А. Активные и интерактивные методы обучения. — М.: Юрайт, 2021.
2. Полат Е.С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. — М.: Академия, 2021.
3. Хуторской А.В. Интерактивное обучение в современной школе. — М.: Просвещение, 2020.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI TARBIYALASHDA MAKTAB VA OILA HAMKORLIGINI TASHKIL ETISH METODIKASI XUSUSIDA

Navruzova Muyassar G‘aybullayevna,
f.f.f doktori (PhD), dotsent
Avezova Surayyo Mirg‘olibovna,
Osiyo xalqaro universiteti magistranti

Mazkur ilmiy maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida, xususan, boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarning ijtimoiy xususiyatlarini shakllantirishda maktab o‘qituvchilari va ota-onalar o‘rtasidagi hamkorlikning nazariy-metodologik va amaliy asoslari tadqiq qilingan. Ushbu tahliliy ishda xorijiy, MDH va milliy pedagog olimlarning qarashlari qiyosiy tahlilga tortilgan, “Men qanday ota-onaman”, “Mening bolam kim” singari diagnostik metodikalar asosida shakllantirilgan innovatsion yondashuvlarning natijalari bayon etilgan. Shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish (Telegram, Zoom) va qattiqqo‘llik sindromidan voz kechish vositasida oila instituti va ta’lim muassasalarining o‘zaro ishonchga asoslangan modelini yaratish yuzasidan o‘ziga xos shaxsiy fikr-mulohazalar ham ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy xususiyatlar, maktab va oila hamkorligi, innovatsion ta’lim, Redjio-Emilia yondashuvi, kompetensiya, ijtimoiy munosabat, an'anaviy ta’lim, interaktiv metodika.*

ON THE METHODOLOGY OF ORGANIZING SCHOOL AND FAMILY COOPERATION IN THE EDUCATION OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS

This scientific article investigates the theoretical, methodological, and practical foundations of cooperation between school teachers and parents in shaping the social characteristics of students in general secondary schools, particularly at the primary education stage. In this analytical work, the views of foreign, CIS, and national pedagogical scientists are subjected to comparative analysis, and the results of innovative approaches formed on the basis of diagnostic methodologies such as “What kind of parent am I” and “Who is my child?” are presented. Furthermore, specific personal opinions and reflections are put forward regarding the creation of a mutually trust-based model of the family institution and educational establishments through the use of modern information technologies (Telegram, Zoom) and the abandonment of the strictness syndrome.

Keywords: *social characteristics, school and family cooperation, innovative education, Reggio Emilia approach, competence, social relations, traditional education, interactive methodology.*

О МЕТОДИКЕ ОРГАНИЗАЦИИ СОТРУДНИЧЕСТВА ШКОЛЫ И СЕМЬИ В ВОСПИТАНИИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

В данной научной статье исследуются теоретико-методологические и практические основы сотрудничества между школьными учителями и родителями в формировании социальных качеств учащихся в общеобразовательных школах, в частности, на этапе начального образования. В этой аналитической работе проводится сравнительный анализ взглядов зарубежных, национальных ученых-педагогов и ученых стран СНГ, а также излагаются результаты инновационных подходов, сформированных на основе таких диагностических методик, как «Какой я родитель?», «Кто мой ребенок?». Кроме того, выдвигаются оригинальные личные мнения и соображения по созданию основанной на взаимном доверии модели взаимодействия института семьи и образовательных учреждений посредством использования современных информационных технологий (Telegram, Zoom) и отказа от синдрома излишней строгости.

Ключевые слова: *социальные качества, сотрудничество школы и семьи, инновационное образование, подход Реджио-Эмилия, компетенция, социальные отношения, традиционное образование, интерактивная методика.*

Kirish. Bugungi global sotsial-iqtisodiy gumburlashlar sharoitida o‘sib kelayotgan yosh avlodning faqatgina ma’lum fanlarni o‘zlashtirishi emas, balki ularda mustahkam “Men” konsepsiyasi, atrofdagilar bilan hamkorlik, axloqiy barqarorlik va ruhan mutanosib jamiyat a’zosi xususiyatlarining (sotsializatsiya) shakllanishi birinchi galdagi masaladir. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha tuzilmasi (YUNESKO) tomonidan barqaror rivojlanish maqsadlari hamda 2030-yilgacha

mo‘ljallangan ta’lim konsepsiyasida bilimning mustahkam poydevoriga ega bo‘lish uchun aynan oila va ta‘lim muassasasining uzviyligi ustuvor omil sifatida ko‘rsatiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2024-yil 5-fevral kungi videoselektor yig‘ilishida qattiq ta’kidlaganidek, hozirgi jamiyatda oilalar va ta’lim tashkilotlari o‘rtasida chuqur ishonch tamoyilining yo‘qligi sababli tarbiya oqsoqligi, axloq qoidalarini buzishga moyillik ortmoqda. Bugungi kundagi aksariyat maktablar va ota-onalar “Senga bolamni berdim, o‘qitish sharting, tarbiya ham sening ishing”, degan yanglish stereotip qolipiga tushib qolgan. Vaholanki, bola 6-7 yoshga qadar fundamental “ko‘rish-qilish” (empirik yozish) instinktlarini yuz foiz oiladan oladi. Xalqimizdagi “Qush uyasida ko‘rganini qiladi” maqoli bugungi neyropsixologiya nuqtai nazaridan to‘liq asoslangan farazdir. Binobarin, maktab pedagogikasi aynan ana shu poydevor bilan raqobatga emas, balki chuqur hamkorlikka asoslangandagina sifat kafolatlanadi.

Tadqiqotning bosh maqsadi– umumiy o‘rta ta’lim maktablarining boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va oila (ota-ona) bilan hamkorlik ishlarini tashkil etish texnologiyalarini rivojlantirish hamda ijtimoiy malakalarni tarbiyalashdagi innovatsion metodikalar samarasini ilmiy jihatdan tahlil qilish, shu asosda kengaytirilgan tavsiyalar majmuasini ishlab chiqishdan iborat. Bu maqsad yo‘lida an’anaviy, passiv (faktologik) yig‘ilishlardan tortib raqamli innovatsiyalarga tayanuvchi ochiq tizimga o‘tish mexanizmlari ilmiy-nazariy va pragmatik izohlab beriladi.

Adabiyotlar tahlili. Maktab va oila o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni mustahkamlash muammosi asrlar davomida mumtoz pedagogikaning va bugungi zamonaviy fan falsafasining yetakchi tadqiqot mavzularidan biri bo‘lib kelmoqda. Jahon fani hamda milliy amaliyotimizda bu masalaning fundamental xususiyatlari yuzasidan turli yondashuvlar isbotlangan.

Xorijiy ilmiy tadqiqotlarda J.L. Epstein, S.M. Sheridan va T.R. Kratochwill kabi olimlar ta’lim sohasi uzoq muddatli qamroviga ega deb hisoblab, ota-onalarni ta’lim muassasasining ichki jarayoniga kirituvchi ko‘p bosqichli hamkorlik dasturlarini taklif etgan. Ayniqsa, L.S. Vygotskiyning “proksimal rivojlanish zonasi” va ta’limga ijtimoiy-madaniy yondashuvi yordamida har qanday bolaning ijtimoiy konseptsiya ko‘lami faqat o‘qituvchi vositasi bilangina emas, oiladagi “faol e'tibor” orqali eng yuqori natijaga erishishi isbotlangan. Loris Malaguzzining Redjio-Emilia yondashuvida maktab bu jamiyat va oilaning ochiq davomidir. Italiyancha ushbu metod ota-onalarni maktab hayotidagi jarayonning o‘qituvchi bilan teng huquqli vakili deb bilib, maktab muhitini shakllantirishda ularning hissasini kafolatlaydi. Buyuk Chex pedagogi Y.A. Komenskiy ham ta’lim dargohining muqaddasligini, ammo oilaning o‘zgartirib bo‘lmas o‘rnini o‘n yettinchi asrdayoq o‘zining “Buyuk didaktika” asarida alohida bobga ajratgan edi. M. Montessori o‘z tajribalarida bolaning atrof-olamni idrok qilishida, tartibga o‘rganishida sinf devorlari va oilaviy muhit garmoniyada bo‘lishi kerakligiga urg‘u berdi. D.R. Powell va K.E. Diamondning ko‘plab zamonaviy izlanishlarida bolalar huquqi, ota-onaning axborot qabul qiluvchi emas, balki bilimlarni ishlab chiquvchi ijodkor rolini ko‘rishimiz mumkin.

MDH (Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi) sferasini olganda, ulug‘ ta’limotchi V.A. Suxomlinskiy o‘zining “Bolalarga beraman jonimni” singari betakror ruhdagi bitiklarida ota-ona savodxonligi past oiladagi bola baribir ijtimoiy tarbiyada oqsoqlanishi farazini birinchilardan asoslagan. N.E. Shukurova, O.L. Zvereva, L. Gilmanova, I.B. Firsova kabi olimlarning tadqiqotlari shu narsani oydinlashtirdiki, zamonaviy ota-onalar farzand tarbiyasiga oid bilimlarga juda muhtoj, biroq xalq orasida tarqalgan nazariy ma’lumotlar ota-onaning ehtiyojini qondirmaydi, chunki ular amaliy xarakterga ega emas.

O‘zbekiston sharoitida o‘qituvchi va ongli oila modelining ixtisoslashuvini Z.F. Azizova, G.A. Berdialiyeva, A.A. Azimov, M.M. Berdiyeva, A.E. Xo‘jaqulov, G.O. Najmiddinova hamda N.S. Mo‘minova kabi taniqli tadqiqotchilar izchil o‘rganib chiqqanlar. Biroq ushbu milliy metodologiyalarni raqamli transformasiya sharoitida qo‘llash, hamda interfaol shaxsiyatdagi oila-pedagog aloqasini zamonaviy shaklda tahlil qilish borasida katta ilmiy bo‘shliq saqlanib kelmoqda. Yuqorida zikr etilgan adabiyotlar tahlilidan ma’lum bo‘ladiki, jahon tarbiyaviy tajribasi asosan joriy xatolarni to‘g‘irlash ustida borgan bo‘lsa, endigi davr – oldini oluvchi texnologiyalarni (diagnostika, qadriyat o‘tkazish, hamjihatlikni rivojlantirish) amaliyotga chuqur tadbiq etishni taqozo qilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot kompleks pedagogik va ijtimoiy muammoni yechishga qaratilganligi bois bo‘lib, uning doirasida miqdoriy va sifat tahlillarining (mixed-methods research methodology) gibrid modifikatsiyasidan foydalanildi. Ta’lim tizimi sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan ijtimoiy masalalarni aniqlash, o‘rta maktab amaliyotida oila-maktab korporativ harakatlarini kuzatish jarayonida quyidagi amaliy-sotsiologik yondashuvlar faol sinovdan o‘tkazildi:

1. **Pedagogik kuzatish va individual suhbatlar:** Buxoro viloyatidagi turli hududiy tuzilmalar asosidagi maktablarning boshlang‘ich sinf ta’limidagi dars mashg‘ulotlari hamda ota-onalar yig‘ilishlari monitoringi olib borildi.

2. **Kognitiv va sotsial psixologik anketa (So‘rovnoma):** Ota-onalar va boshlang‘ich o‘qituvchilar doirasida ularning o‘zaro talab, ishonch va muammoning ildiziga bo‘lgan yondashuvlarini bilish maqsadida ochiq hamda yopiq savollardan iborat so‘rovnomalar tizimi tashkil etildi. Natijalarning ishonchliligi (reliabillity) ko‘rsatkichini orttirish maqsadida metodikalarning bir-birini to‘ldiruvchi guruhlari: “Men ota-onaman” hamda “Mening bolam kim” farazi qandaydiagnostika modellari ota-onalarning pedagogik layoqatini aniqlab berdi. Bundan tashqari, guruh muhitidagi moslashishni (ijtimoiy orientatsiyani) tahlil etuvchi “4 ta burchak” nomli vaziyatli o‘yin metodikasi sinf rahbarlari hamda o‘quvchi-ota-ona uchligi asosida tatbiq qilindi.

3. **Tajriba-sinov maydonchasi (Eksperiment)ning iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyati:** Eksperimet qatnashchilari nazorat qilinuvchi hamda kuzatiluvchi turlarga ajratildi. Tajriba hududi sifatida tanlab olingan maktablarda yagona an’anaviy yopiq ota-onalar yig‘ilishi tartibidan butunlay voz kechilib, uning o‘rniga “ota-onani baholovchi emas, balki metodik qutqaruvchi, ekskursiya ishtirokchisi” maqomini beruvchi texnologiyalar amaliy tarzda sinov operatsiyalaridan o‘tkazildi.

Eksperimental natijalarni tahlil qilish uchun olingan empirik ko‘rsatkichlarga matematik-statistik ishlov berish apparati qo‘llanilgan. Tadqiqotning obyekti etib boshlang‘ich yoshdagi maktab o‘quvchilari (7-10 yosh oralig‘i) va ularning oilaviy ijtimoiy xulqlanish jarayonlari, munosabat subyekti etib esa ta‘lim beruvchilar va oila a’zolarining hamkorlikdagi ijtimoiy rollari belgilangan.

Tadqiqot natijalari. Kompleks empirik izlanishlar maktab hududini tor yopiq ta’lim muassasasi chegarasidan chiqarib, oila va ta’lim tarmoqlarining chinakam hamkorlik makoniga aylantirishning asosiy mexanizmlari qator guruhlangan bosqichlarni talab etishini aniqlab berdi.

O‘zaro hamkorlikni tashkil etishning innovatsion va nostandart mexanizmlari.

Tadqiqotning amaliy bosqichlaridan kelib chiqib, maktab va ota onalar o‘rtasidagi hamkorlik aloqalarini rivojlantiruvchi muqobil yo‘llar majmuasi (usullari) ishlab chiqildi va ularning ustuvor samaradorlik darajalari tasdiqlandi. Bunda innovatsion usullar ro‘yxatiga quyidagilar yetakchi sifatida baholandi:

1. **Loyiha faoliyati (Project-based Activity).** Bu faoliyat asnosida ota-onalar maktab hayotining passiv tomoshabinidan faol o‘yinchi va tahlilchisiga aylanadi. Bolalarni rivojlantirish uchun kerakli shaxsiy loyihalar (uy yordamchilari burchagi, tabiiy gerbariylar to‘plash, fan-klub)ni ishlab chiqish hamda uni amalga oshirish funksiyasi to‘g‘ridan to‘g‘ri ota-onaga ijodiy hamkorlik vazifasi o‘laroq yuklatiladi.

2. **Mahorat darslari (Master classes).** Ota-onalar ichidan iqtidori va sohasi turli xil bo‘lgan mutaxassislarning o‘qituvchi bilan birgalikda muayyan amaliy tajribalarini “o‘quvchilar va ularning farzandlariga” ko'rgazmali ulashish sessiyalari amalga oshirilganda, o‘quvchilardagi ijtimoiy motivatsiya hamda qiziqish an’anaviy darslarga qaraganda deyarli 42% ga ortganligi (matematik test va xotira nazorati orqali) sezildi.

3. **Interaktiv shakldagi yig'ilish tizimi:** Sobiq davr muassasalaridan qolgan “ota-onalarni ayblash yoki jazolash” usulidagi majlislardan tamomila farq qiluvchi suhbatlar zanjiri (munozara va debatlar, ochiq mikrofonlar) ta’sis etildi. O‘yin metodlari (“Mening yoshligim”, “Agar men o'qituvchi bo'lsam”) orqali ota-onalar mas’uliyatni teran idrok qildilar.

4. **Masofaviy va onlayn muloqot formati:** Bugungi telekommunikatsiya voqeligidan ko‘z yumish fojiadir. Tajribada Telegram bazasidagi kengaytirilgan guruh va kanallarni tashkil etish asnosida yuzaga keltirilgan videokonferensiyalar (Zoom ulanish, online streaming) metodologiyasi yo‘qolib yotgan, ishchi jadvali tig‘iz ota-onalarning qariyb 70% dan ko‘pini doimiy xabardor qatlamga aylantirishga yordam berdi. O‘qituvchilarning “Kun tartibini qanday nazorat qilasiz?”, “Uyqu va badiiy o‘qish reytingi” kabi so‘rovnomalarni masofadan tezkor o‘tkazishi boladagi ehtiyojlarni xatosiz aniqlashni isbotladi.

Izlanishlarda ijtimoiy-pedagogik kuzatuv obyekti bo‘lmish ota-onalar va o‘qituvchilarning ideal birlashuv nuqtasini hosil qilish uchun 4 katta baza yotishi ko‘rinib qoldi:

O‘zaro ishonch (Mutual Trust): Ishonchsiz qilingan barcha sa’y-harakatlar deyarli samarasizdir. Ishonchni yo‘lga qo‘yish uchun o‘qituvchi halol, oshkora va hurmat prinsiplarini avval o‘zida isbotlashi kerak.

O‘zaro tushunish: Faol tinglash metodi. O‘qituvchi bir xil formatda hammaga yondasha olmaydi, bolaning individual va xarakterologik shartlarini qabul qila olish, ota-ona tomonidan ham maktabning ichki resurslarini “qo‘lidan kelgancha” mehnati ekanini anglash jarayoni.

Hamkorlik: Ishchi guruhlarini doimiy jalb qilish, resurs va g‘oyalarni bitta umumiy maqsad – shaxs ijtimoiy kamoloti atrofida birlashtirish.

Birgalikdagi javobgarlik: Ko‘pchilik amaliyotlarda “Bahosiga faqat muallim javobgar” ko‘rinishli javobgarlik cheklab qo‘yilardi. Tadqiqot so‘ngida oilaviy tahlil, bolalardagi xatti-harakat uchun oilaning rolidagi yukni adolatli taqsimlash muvaffaqiyat garovi sifatida mustahkamlandi.

Shuningdek, eksperiment o‘qituvchilardan alohida kompetensiyalarni faol talab qilishini isbotladi: his eta olish, moslashuvchanlik, ziddiyatlarni bosiqlik bilan hal etish texnikalari, turli ijtimoiy qatlam, din va iqtisodiy sinfdan chiquvchilar bilan teng huquqli sharoitdagi kommunikatsiya munosabatlari — professional o‘qituvchining ajralmas yuzi bo‘lishi ekanligi amaliy ravishda ochib berildi.

Muhokama va shaxsiy fikrlar. Ilmiy adabiyotlarda ochiqlab berilgan pedagog va oila “oltin o'rtaligi” modeli amaliyotda har doim ham osonlikcha kechmaydi. Yuqorida yoritilgan empirik izlanishlar natijalari o‘laroq, xulosa qilinadigan asosiy muhokamalar, joriy davrdagi ijtimoiy muammolar haqida shaxsiy kuzatuvlar, taklif va mulohazalarim quyidagicha guruhlanadi:

Kuzatuvlar orasida e’tiborimni torgan eng fundamental kamchiliklardan biri shuki, tarbiyada doimiy ravishda “maksimal perfektsionizm” (eng a’lo, betakror bo‘lish bosimi) o‘zbek ota-onalari orasida keskin saqlanib turibdi. Masalan, 8-9 yoshli maktab qizalog‘i ilk marotaba ijodiy yondashib xonasini tartiblagisi yoki maktabdan kelib idish yuvishga urinib ko‘rgisi kelsa, ona beixtiyor: “Sindirasan, aralashmay tura qol” iborasini qaytaradi. Ana shu iboraning orqasida bolaning ijtimoiy faollik ildiziga qaqshatqich bolta urilayotgani qoladi. Negaki bola shu asnoda intilish – inkor etiladigan subyekt deb psixologik signal oladi va bir necha yil o‘tib o‘z oilasidagi ijtimoiy vazifaga daxldorlik hissini to‘xtatadi. Sabab oddiy, biz kattamiz. Amalda o‘zimizga oddiy va ortiqcha xatosiz ko‘ringan jarayonlar farzand ongida hal etilishi nihoyatda og‘ir bo‘lgan logistika ekanligini his qila bilmaymiz. Bolaga bosqichma-bosqich ishonch emas, to‘g‘ridan to‘g‘ri mukammal avtomat bo‘lishini talab etamiz. Muvaffaqiyat ortida xatolar o‘rmoni yotishini tan olish tarbiyaning birinchi asosidir. Ilmiy xulosalarimdan jiddiy shuki: Bola mukammal tug‘ilmagan va mukammal bo‘lishiga majbur ham emas! Unga o‘z xatosisidan yechim topish (analytical problem solving) qobiliyatini meros qoldirishning o‘zi eng oliy investitsiyadir.

Ota-onalar muhokamalarida tez-tez tilga olinadigan navbatdagi paradoks – bu qattiqqo‘llikni tarbiyaning asosi deb bilishdir. Aksar ota-onalar jismoniy yoki og‘ir psixologik ohangda jazo qo‘llashni (masalan: kaltaklash, tahdid, boshqalarning oldida izza qilish, qo‘pollik) ta’limdagi intizom vositasi deb himoya qiladilar. Aslida bu mudofaa – ojizlik, sabrning tugashi va kattalarning kichikroq, kuchsizroq subyektga amaldagi manipulyatsiyasidan boshqa narsa emas. Tarbiya bo‘yicha hech qaysi global fan manbasi bolani urib psixologik barkamol shaxs qilish mumkinligini tasdiqlamagan va oqlamagan. Ko‘chatni o‘sishi qiyin ekan deb yonidan bolta urib bo‘lmaydi axir. Qattiqqo‘llik tashqaridan go‘yoki samara beradigandek tuyuladi, sababi zo‘ravonlik qarshisida bola muvaqqat vaqt og‘riyotgani uchun tinchiydi, lekin miyasining emotsional bo‘lagida ota-onaga nisbatan doimiy, yechilib bo‘lmas chuqur psixologik isyon, qo‘rquv paydo bo‘ladi. U keyinchalik yoki qulfe’l makkorga yoki jamiyatdan qasos oluvchi shaxsga aylanib ketadi. Maktab o‘qituvchilari ana shunday jiddiy asab buzilishi diagnostika qilingan farzandlarning oilasini kechikib bo‘lsa ham professional ravishda terapevtik bilimlarga yo‘naltirishi, davra stollarini onlayn o‘tkazishi juda muhimdir.

Oila mikromakoni ichida qarama-qarshi fikrlar bolada ma’nan asabbuzarlikni (kognitiv dissonans) keltiradi. Tabiatan odam kim o‘zi tarafga yon bossa, o‘shanga og‘adi. Otasi maktab tartibiga, jamoat ishlariga yordamlashishini aytib turgan mahal onasi uning haraktini to‘sib ko‘cha changitish deb qoralasa, bu er-xotin uydagi siyosatni muvozanat qila olmagani bilan xarakterlanib, bolada fojiaviy makkorlik ildizlarini otishiga sabab bo‘ladi. Xuddi shunday kelishmovchilik holatlari maktab darajasiga o‘tganda ikki karra xavfli bo‘ladi. Bugun O‘zbekiston ta’limida muhim nuqta: ota-onaning pedagogning vakolatlariga noto‘g‘ri intervensiya (daxldorlik) qilishi yoxud o‘qituvchining oiladagi avtoritetdan o‘z o‘rnini ustun qo‘yishi har qanday sharoitda murojaat tilga ko‘chgan mahal – o‘qituvchi ota-onalar yig‘ilishi “sudyasi”ga aylanmasligi, har bir qilingan ayblov “Sizning bolangiz doim shunday yomon” qabilida shaxsiyatga tegmasligа lozim. Munosabat doim diagnostik, maslahat va sir saqlanuvchi, “qanday qilib yordam berishimiz mumkin, nimanidir kutmayapmizmi” qabilidagi iliq ko‘rinishda hal etilmog‘i darkor. Shunchaki formal raqamlarni uzatish – muallim degani emas. Bugungi pedagog psixolog, IT mutaxassis, notiq va diplomat kabi funksiyalarga ega supermen sifatida bozor talabiga to‘la javob berishi lozim.

Shaxsiy pozitsiyam sifatida aytmoqchimanki, axborotga global ta’sir o‘tkazish kuchiga ega tarmoqlarni va virtual resurslardan ochiq maktab modeli formati uchun xizmatsiz vosita sifatida foydalanish barcha umumiy o‘rta ta’lim tizimlarining standart metodikasi qatoriga kiritilishi davr talabidir. Biz endi muammoni qidirib yig‘ilishlar asrida emasmiz. Har kungi dinamik vaziyat bolani tarbiyalashi kerak. Qancha ochiq tajriba-sinov maydonchalari ishlayversa, ishonch shuncha yuqori darajada turg‘unlashadi, ota-onalar farzand bilimiga qo‘rqmasdan ongli investitsiya (pul, vaqt, mehnat) tika boshlaydilar. Va umid qilamanki, kelgusida bugungi bolaga tikilgan eng mustahkam e’tibor va sarmoya sivilizatsiyaga ulkan natijalar olib keladi.

Xulosa. Shaxsning maktab ostonasidan boshlab egallaydigan bilimlari, akademik faolligi faqatgina fan o‘qituvchilarining mexanik harakatiga emas, avvalo, oilaning “axborot poydevori”, kundalik kuzatuv

qoidalariga kuchli bog‘liq. Kognitiv faollikni ham, psixologik ixtiyoriy motivatsiyani ham 70% hollarda dastlabki yoshlardagi do‘stona muhit belgilab beradi.

Zamonaviy qator amaliy metodikalar, ekskursiya, konferentsiyalar, axborot-tanishish guruhlari (Ochiq eshiklar kuni, ota-onalar ishtirokidagi loyihalar tajribasi) ularni qo‘llashdagi nazariy rejalashtirishning muvaffaqiyatiga mos bo‘lsagina isbotini topadi. Ya’ni oddiy savol, quruq nazariy ma’ruzaga ota-onaning toqati, vaqti hamda ehtiyoji mutlaqo mavjud emas, demak uni ko‘rgazmali va onlayn masofaviy instrumentlar bazasida har kungi oddiy muloqot stixiyasiga singdirish kerak.

Istiqboldagi faoliyat va jarayonlar monitoringi bo‘yicha amaliy takliflarimiz:

Maktab psixologlari va sinf rahbarlariga maxsus “ijtimoiy sotsizm hamda oilaviy daxldorlik xatti-harakatlari” kursi o‘qitilishini amaliy majburiy ko‘nikma darajasiga ko‘tarish, aynan yuzaga keladigan ijtimoiy mojaroli vaziyatlardan professional darajada muammosiz chiqib ketish treninglarini ta’limga ko‘paytirish.

Boshlang‘ich sinf maktab muassasalarida doimiy raqamli tizim: maslahat botlari, har chorakda bitta “Pedagogik farzand ko‘rish mo‘jizasi” motivatsion seminarlarini bevosita Oliy ta’lim professorlari hamda pediatr shifokorlar bilan yelkama-yelka turib ommaviy translyatsiya qilinishiga moddiy-texnik sarmoya (subsidiyalar) kiritish maqsadga tayyor natija olib kiradigan yo‘ldir.

Eng avvalo , har bir pedagogning ilmiy bilimidan ham qimmatli ijtimoiy statusi bo‘lishi – uning avtoritar buyruqboz subyekt emas, balki fidoyi, oilada har qanday g‘oya uchun do‘st bo‘la olish hissiyot manbai ekanini chuqur yetkazish shart.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim tizimini rivojlantirishga oid farmon va qarorlari. – Toshkent, 2019–2024.
2. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining umumta’lim maktablarida ota-onalar bilan hamkorlikni tashkil etish bo‘yicha metodik tavsiyalari. – Toshkent, 2022.
3. Abdullayeva Q. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: Fan, 2021.
4. Jo‘rayev R., Turg‘unov S. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
5. To‘xtaxodjayeva M. Pedagogika. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2019.
6. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. – Toshkent: Tafakkur, 2022.
7. Karimova V. Oila psixologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
8. Musurmonova O. Oila pedagogikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
9. Nurmatov A. “Maktab va oila hamkorligining o‘quvchi tarbiyasidagi o‘rni”. – *Pedagogik mahorat jurnali*, 2021, №3.

MUSTAQIL MUTOLAA MALAKASINI SHAKLLANTIRISH

Azimov Yunus Yusupovich,
Buxoro davlat pedagogika instituti,
Boshlang`ich ta`lim kafedrasi professori, filologiya fanlari nomzodi
azimov_yunus@buxdpi.uz

Ushbu maqolada boshlang`ich ta`limni o`quvchilariga mustaqil mutolaa malakasini shakllantirishning to`rt usuli (har bir sinfda kitoblar burchagini tashkil etish; bolalarga ko`proq she’riy kitoblarni o’qishni tavsiya etish; bolalarning mutolaa qilgan asarini sahna ko`rinishida tashkil etish; o’quvchilarni kutubxona bilan doimiy aloqada bo’lishini ta’minlash) borasida mulohaza yuritiladi. Ta`kidlangan mustaqil mutolaa malakasini shakllantirishning har bir usuli borasida juda ishonchli fikr-mulohazalar bildirilgan. Xulosa va tavsiyalar ilgari surilgan.

***Kalit so`zlar:*** *mutolaa, mustaqil mutolaa, kitoblar burchagi, she’riy kitoblar, asarining sahna ko`rinishi, sinf kutubxonasi, kutubxona mudiri (mudirasi), qoloq o’quvchi, “O’qish daftari”.*

ФОРМИРОВАНИЕ НАВЫКОВ САМОПОДОБНОГО ЧТЕНИЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

В этой статье рассматриваются четыре способа развития навыков самостоятельного чтения у учеников начальной школы (создание книжного уголка в каждом классе; поощрение детей к чтению большего количества поэтических сборников; организация детских чтений; обеспечение постоянного контакта учеников с библиотекой). Приводятся весьма убедительные аргументы в отношении каждого из рассмотренных методов развития навыков самостоятельного чтения. Представлены выводы и рекомендации.

Ключевые слова: *чтение, самостоятельное чтение, книжный уголок, поэтические сборники, театральное представление, классная библиотека, директор библиотеки, отстающий ученик, «Читательский дневник».*

DEVELOPING SELF-LIKE READING SKILLS IN PRIMARY SCHOOLS

This article discusses four ways to develop independent reading skills in elementary school students (creating a book corner in each classroom; encouraging children to read more poetry collections; organizing children's readings; ensuring that students have regular contact with the library). Compelling arguments are presented for each of the methods considered for developing independent reading skills. Conclusions and recommendations are presented.

Key words: *reading, independent reading, book corner, poetry collections, theatrical performance, class library, library director, struggling student, "Reader's Diary".*

Kirish. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning asosiy talablaridan biri inson omiliga e’tiborni kuchaytirmoqdir. Insonda mustaqil fikrlash, xulosa chiqarish va mustaqil amal qilish qobiliyati zamona va uning taraqqiyotiga mos tarzda shakllanmas ekan, uning har qanday turdagi faoliyatining natijasiyu samarasi ham talab darajasida bo’lmaydi. Chunki jamiyat taraqqiyoti mislsiz darajada ilgarilab bormoqda va bu hodisa insoniyat oldiga katta vazifalarni, keng qamrovli faoliyatni hamda uning yelkasiga cheksiz mas’uliyat yukini yuklamoqda. Bu esa insonni tezkor, tadbirkor va har qanday vaziyatda to’g’ri hamda aniq xulosa chiqarib, amal qilish qobiliyatiga ega shaxs bo’lishga undamoqda. Shunday ekan, inson tabiatiga shu xislatlarni yoshligidanoq sistemali tarzda singdirib, uni bosqichma-bosqich takomillashtirib borish maqsadga muvofiq.

Tahlillar va natijalar. Ko’pincha yoshlarimiz juda kam kitob o’qishadi, ularning mutolaa doiralari nihoyatda mahdud, deb noliymiz. Darhaqiqat, shunday. Hatto oliy o’quv yurtlarida testdan yuqori ball to’plab, talaba degan sharafli nomga musharraf bo’layotgan ko’pchilik talabalarimizning ham kitobga mehrlari ibrat olgulik darajada emas. Shular orasida umumiy o’rta ta’lim maktablarini bitirib, o’ntacha kitob o’qimaganlari ham topiladi. Natijada o’quvchi oliy o’quv yurti talabasi bo’lgandan keyin yelkasiga tushadigan yukni tortolmay qoladi. Kuzatishlarimizdan xulosa qilib aytish mumkinki, ushbu nuqsonning kelib chiqish sabablaridan biri o’quvchilarda mustaqil mutolaa qilish malakasini shakllanmaganligidadir. Agar bu ish boshlang’ich sinflardan boshlab ta’lum bir tizim va me’yor asosida yo’lga qo’yilsa, samarasi

ham ko’ngildagiday bo’ladi. Ta`kidlash joizki, bolalarda kitobga mehr va qiziqish uyg`otish ishi asosan, oilada boshlanadi va maktabda esa bolada kitob o`qishga muhabbat hissini, bilim olishga havas tuyg`usini orttirib borishga erishiladi. Mashhur rus pedagogi N.K.Krupskaya aytganidek, bolalarni mumkin qadar barvaqt kitobdan foydalanishga odatlantirish kitobdan o`zlariga zarur bo`lgan bilimlarni olishlariga erishishdan iborat bo`lishi kerak. Yoshlikda o`qigan kitoblar kishida juda yaxshi tassurot qoldiradi, chunki yoshlikda xotira juda kuchli bo`ladi, bola o`qiganlarini bevosita uqib oladi, uni uzoq yillar yodida saqlaydi. “Asar mutolaasi muammosi kecha yoki bugun o„rtaga tushayotgani yo„q. Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Husayn Voiz Koshifiy, Alisher Navoiy, Munis, Ogahiy, keyinchalik Mahmudhoja Behbudiy, Abdulla Avloniy va Hamza asarlarida “o„qish, o„qiganni uqish hamda unga amal qilish” inson ma“naviy kamoloti bilan bog„liq mutolaaning tub mohiyatini tashkil etishi qayta-qayta tilga olinishi bejiz emas” (9.5). Mushohada va kuzatishlarimiz shuni ko’rsatdiki, boshlang’ich sinf o’quvchilarining o’qish ko’nikmalari va mustaqil mutolaa malakasini shakllantirish uchun quyidagi ish usullaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq.

Birinchidan, har bir sinfda kitoblar burchagi (kichik sinf kutubxonasi)ni tashkil qilish lozim. O’quvchi qancha ko’p kitob olami bilan bog’liq bo’lsa va uning ta’sirida yursa, u bilan har kuni bevosita va bilvosita muloqot qilsa, ularga bo’lgan mehri shuncha ortadi. Buxoro shahrining bazi umumiy o’rta ta’lim maktablarida ota-onalar va maktab ma’muriyati yordamida tajriba sifatida o’zlari dars beradigan sinflarda sinf kutubxonalarini tashkil etganlar. Sinf kutubxonasi uchun har o’n besh kunda o’quvchilardan kutubxona mudiri (mudirasi) tayinlanadi. Kimning davrida o’quvchilar ko’proq kitob o’qisalar, o’sha yangi kitob bilan rag’batlantiriladi. Eng ko’p kitob o’qigan bola ham kutubxonadan o’ziga yoqqan kitobni olish imtiyoziga ega bo’ladi. Bu usul juda yaxshi samara bermoqda. Ayni damda bunday sinflarda qoloq o’quvchi yo’q.

Ko’pincha o’qituvchilarimiz kitoblar burchagini nomigagina tashkil etib qo’yadilar. Unda uch-to’rtta kitob rasmiyat uchun qo’yiladi. Aslida ana shunday befarq munosabat va mas’uliyatsizlik o’quvchilarning kitobga bo’lgan mehrlarini so’ndiradi. O’qituvchi ishining samarasini ko’rmoqchi bo’lsa, kitoblar burchagini har oyda yangi kitoblar bilan to’ldirib borishi kerak. Burchak yonida har bir sinf o’quvchisi o’qishi shart bo’lgan hamda o’qituvchi tavsiya etgan kitoblar ro’yxati osib qo’yilishi lozim. Bundan tashqari, burchakda (yo kichik sinf kutubxonasida) “O’qish daftari” (o’quvchilarning mutolaa qilgan kitoblarini hisobga olish daftari)ning ham bo’lishi o’qituvchi ishini ancha yengillashtiradi. Daftar o’qituvchi tayinlagan mutasaddi talaba tomonidan to’ldirib boriladi. Har ikki oyda eng ko’p kitob mutolaa qilgan o’quvchilarning rasmlari maxsus burchakda namuna va ibrat sifatida chiqarilib qo’yiladi.

Ikkinchidan, boshlang’ich sinf o’quvchilariga ko’proq bolalarga bag’ishlangan she’riy kitoblarni o’qish tavsiya etilsa, maqsadga erishish osonroq bo’ladi. Chunki bolalarga bag’ishlangan she’rlar ohangdor va ravon o’qiladi, satrlar (misralar) qisqaligi sababli ular tez o’qilib, bolani zeriktirmaydi, uni yod olish va takrorlash oson, kitob sahifasida belgilar (harflar) miqdori oz bo’lganligi sababli bola ko’zini toliqtirmaydi, she’rlarni o’qish va yodlash jarayonida bolalarning bog’lanishli nutqi rivojlanadi, eshitish va qabul qilish sezgilari, yod olish va yoddan aytish qobiliyati shakllanadi. Biz bu bilan boshlang’ich sinf o’quvchilari nasriy asarlarni o’qimasin demoqchi emasmiz. Imkon qadar afsona, masal, hikoya kabi janrlarning nazmiy shakllaridan ko’proq foydalanilsa, samarasi ham shu qadar ko’zga ko’rinarli bo’lishini yana bir karra ta’kidlamoqchimiz, xolos.

O`quvchilarga kitob tavsiya etishda ularning Yoshi, qiziqishi va o`zlashtirishiga e`tibor berish kerak. Badiiy adabiyotlardagi rang-barang rasmlar yosh o`quvchilarni kitobga havasini kun sayin oshiradi. Birinchi sinfdagi dastlabki tanishuv kitobdagi rasmlarni ko`rish va bolalarning bir-birlari bilan shu rasm haqida zavqlanib so`zlashlari bilan o`tadi. Keyin rasmlarda nimalar ifodalanganligi haqida savollar berilib, ularni “gapirish”ga o`rgatiladi. Kitob bilan tanishtirib, eng qiziq o`rinlarini ifodali o`qib beriladi.

Uchinchidan, bolalarning mutolaa qilgan asarini so’zlab berishini to’g’ri yo’lga qo’yish zarur. Agar o’quvchi mutolaa etgan she’riy masal yo afsonani mustaqil hikoya qilish malakasini egallasa, uning atrofidagilar bilan muloqot chegarasi ham kengayadi.

Bolalar nutqini o`stirish, diqqat va estetik didlarini tarbiyalashda yod oldirishning roli beqiyosdir. Sherni asarlarni yod oldirish bolalarni badiiy matnlarni ravon, chiroyli, ohangdor va ta`sirchan qilib o`qishga tayyorlaydi. Nazmiy asarlarni yod oldirishda o`quvchining oldida ikki asosiy vazifa turadi: biri bolalarning yod olgan she`rlarini esda saqlashlariga erishish, ikkinchisi esa ularning she`rni ifodali o`qish qobiliyatlarini o`stirishdir. Bu ikki vazifa bir vaqtda amalga oshirilishi kerak: bola bir misrani yod oldimi, shu vaqtning o`zidayoq uni ifodali takrorlasin, agar faqat yod olishga berilib, pala-partish o`qiybersa, bu o`qish unga odat bo`lib qoladi va u ifodali o`qishga e`tibor bermay qo`yadi.

Hozirgi vaqtda turli xil hayvonlarning maska (rasm qolipi)si, insonlar qiyofasi maskalari magazinlarda sotilmoqda. O’qituvchi ana shulardan foydalanib bolalar o’qigan afsonalar asosida sahna ko’rinishlari tashkil etsa, rollarni ham o’quvchilarning o’zlari ijro etishsa, ularning kitobga bo’lgan munosabatlari ham ijobiy

tomonga o’zgaradi. Ikkinchidan, o’zlari o’qigan asarni sahna ko’rinishda ko’rib, uning mazmun-mohiyatini yanada teranroq anglash, uqib olish imkoniyatiga ega bo’ladilar. Shu bilan birga, ularda mustaqil o’qish ko’nikmasi rivojlanadi, o’zlariga bo’lgan ishonch mustahkamlanadi. Natijada u ko’proq kitob o’qish, bilim va tafakkur doirasini kengaytirishga harakat qiladi. O’qituvchi ehtiyotkorlik bilan o’quvchining bu xohish va maylini ham nazorat qilishi va rag’batlantirib borishi lozim. Ana shundagina kutilgan natijaga erishish osonroq bo’ladi.

To’rtinchidan, o’qituvchi birinchi sinfdan boshlab o’quvchilarni kutubxona bilan doimiy aloqada bo’lishini ta’minlashi va nazorat qilib borishi zarur. Bu jarayon jamoa bo’lib kutubxonaga borish, uning faoliyati va ishlash tartibi bilan tanishishdan boshlanadi. O’qituvchi o’z sinf jamoasini tantanali ravishda kutubxonaga olib boradi va kitoblar olamining o’ziga xos xususiyatlari borasida kutubxonachi yordamida o’quvchilarga qiziqarli hikoyalar aytib beradi, kitob olish va topshirish qoidalari bilan yaqindan tanishtiradi, yangi nashr etilgan bolalar adabiyotidan namunalar ko’rsatib, ularni o’qishga da’vat etadi. Bolalarga faqat maktab kutubxonasi haqidagina ma’lumotlarni berib, cheklanmaslik kerak. Ular yashaydigan shahar (tuman) kutubxonalari, ular joylashgan manzillar, ularning kitob fondi, ishlash vaqtlariyu u yerdagi tartib qoidalar, mazkur kitobxonadagi o’qish zallari borasida ham ma’lumotlar berish lozim. Agar imkoni bo’lsa shunday kitobxonalarga ekskursiyalar tashkil etilsa nur ustiga a’lo nur bo’lar edi. Bunday tadbirlar o’quvchilarning kitobga bo’lgan qiziqishini yanada oshiradi. Bu ishlar bosqichma-bosqich amalga oshirilsa yanada yaxshiroq samara beradi. O’quvchi o’zi bilmagan holda kitoblar olamiga kirib boradi va uning sehrli olamiga maftun bo’lganini sezmay qoladi.

Bolalar kitobxonadan yangi kitobni olganda u bilan muomala qila bilishni, undan o`qiydigan asarini izlab topishni, mundarija, asar muallifi, nomini aniqlagach, so`ngra uning rasmlarini ko`zdan kechirib, nima haqda yozilganini taxminan aniqlashga ham shu erda o`rgatiladi.

Masalan, o`quvchilarga Q. Muhammadiyning „Qanotli do‘stlar“ kitobini bergach, uning muqovasini tomosha qilishini, muallifning nomini o`qishni, kitobni asta varaqlab ko`rishni, rasmlarga qarab mazmunini taxminan aniqlash o`rgatilishi kerak.

Yosh o`quvchilar kitob muqovasi, varaq, bet kabi so`zlarni nutqda ishlatishni amaliy ravishda o`rganishlari lozim.

Xulosa. Yuqorida aytilgan taklif va mulohazalar o’qish darslari bilan, ayniqsa sinfdan tashqari o`qish darslari bilan mantiqiy bog’liqlikda va ma’lum tizim asosida muntazam amalga oshirilib borilsa, boshlang’ich sinf o’quvchilarining mustaqil mutolaa malakasini shakllantirish muammolari kamaygan va bolalar kitobxonligi ancha rivojlangan bo’lur edi.

Adabiyotlar:

1. Azizova N.K., Uvarova V.Y. Alifbe. Umumiy o`rta maktablarning 1-sinfi uchun darslik. -Toshkent: “Novda Edutainment”, 2025. -88 b.
2. Aydarova U.B., Azizova N.K. O`qish savodxonligi. Umumiy o`rta maktablarning 1-sinfi uchun darslik. I qism. -Toshkent: “Novda Edutainment”, 2024. -80 b.
3. Aydarova U.B. O`qish savodxonligi. Umumiy o`rta maktablarning 1-sinfi uchun darslik. II qism. -Toshkent: “Novda Edutainment”, 2024. -80 b.
4. Aydarova U.B. Ona tili. Umumiy o`rta maktablarning 1-sinfi uchun darslik. -Toshkent: “Novda Edutainment”, 2025. -208 b.
5. Aydarova U.B. O`qish savodxonligi. Umumiy o`rta maktablarning 2-sinfi uchun darslik. I qism. -Toshkent: “Novda Edutainment”, 2023. -80 b.
6. Aydarova U.B. O`qish savodxonligi. Umumiy o`rta maktablarning 2-sinfi uchun darslik. II qism. -Toshkent: “Novda Edutainment”, 2023. -80 b.
7. Aydarova U.B. O`qish savodxonligi. Umumiy o`rta maktablarning 2-sinfi uchun darslik. III qism. -Toshkent: “Novda Edutainment”, 2023. -80 b.
8. Aydarova U.B. O`qish savodxonligi. Umumiy o`rta maktablarning 2-sinfi uchun darslik. IV qism. -Toshkent: “Novda Edutainment”, 2023. -80 b.
9. Kambarova S.I. Mustaqil tahlil va adabiy nahlil. -Toshkent: Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2016. -140 b.
10. Mahmudova M., Erxonova N., Ro`ziyeva Z. O`qituvchi kitobi (boshlang`ich sinflar uchun). Metodik qo`llanma. -Toshkent: Evrika nashriyot-matbaa uyi, 2023. -160 b.
11. Normurodova Z. Boshlang`ich ta`lim metodikasi. -Toshkent: Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2021.

12. Toirova M.E. O`qish savodxonligi. Umumiy o`rta maktablarning 1-sinfi uchun mashq daftari. -Toshkent: “Novda Edutainment”, 2025. -72 b.

13. Toirova M.E. O`qish savodxonligi. Umumiy o`rta maktablarning 3-sinfi uchun darslik. I qism. -Toshkent: “Novda Edutainment”, 2023. -80 b.

14. Toirova M.E. O`qish savodxonligi. Umumiy o`rta maktablarning 4-sinfi uchun darslik. I qism. -Toshkent: “Novda Edutainment”, 2023. -80 b.

15. G`ofurova N. va boshqalar. Boshlang`ich sinflarda o`qish savodxonligini rivojlantirish. -Toshkent: Ilm ziyo, 2022.

16. Xolboyeva D., Turg‘unboyeva M. “Boshlang‘ich sinflarda o‘qish va yozuv darslari metodikasi”. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019. -209 b.

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA O'QITUVCHILARNING INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI

Axmedova Zamira Shirinovna,
Buxoro shahar 2-umumta’lim maktab direktori

Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qituvchilarning innovatsion faoliyat samaradorligini baholash muammosi ko'rib chiqiladi. Innovatsion ta'lim muhitida o'qituvchi faoliyatini obyektiv va to'liq baholash tizimini shakllantirish zarurati ilmiy asoslanadi. Maqolada baholash mezonlarining nazariy va amaliy asoslari, ularning pedagogik amaliyotdagi o'rni, shuningdek, xorijiy va mahalliy tadqiqotlar asosida samarali baholash modellarining xususiyatlari tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: *innovatsion faoliyat, baholash mezonlari, o'qituvchi kompetentligi, pedagogik innovatsiya, ta'lim sifati, umumiy o'rta ta'lim, samaradorlik ko'rsatkichlari.*

КРИТЕРИИ ОЦЕНКИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧИТЕЛЕЙ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ

В данной статье рассматривается проблема оценки эффективности инновационной деятельности учителей в общеобразовательных школах. Научно обосновывается необходимость формирования объективной и комплексной системы оценки педагогической деятельности в условиях инновационной образовательной среды. В статье анализируются теоретические и практические основы критериев оценки, их место в педагогической практике, а также особенности эффективных моделей оценивания на основе зарубежных и отечественных исследований. Результаты исследования завершаются научными выводами по разработке и совершенствованию системы критериев, применяемых при оценке инновационной деятельности учителей.

Ключевые слова: *инновационная деятельность, критерии оценки, компетентность учителя, педагогические инновации, качество образования, общее среднее образование, показатели эффективности.*

CRITERIA FOR EVALUATING THE EFFECTIVENESS OF TEACHERS’ INNOVATIVE ACTIVITIES IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS

This article examines the problem of evaluating the effectiveness of teachers' innovative activity in general secondary education schools. The necessity of developing an objective and comprehensive system for assessing pedagogical activity within an innovative educational environment is scientifically substantiated. The article analyses the theoretical and practical foundations of evaluation criteria, their role in pedagogical practice, as well as the characteristics of effective assessment models based on foreign and domestic research. The findings of the study conclude with scientific recommendations for the development and improvement of the criteria system used in evaluating teachers' innovative activity.

Keywords: *innovative activity, evaluation criteria, teacher competence, pedagogical innovation, quality of education, general secondary education, effectiveness indicators.*

Kirish. Zamonaviy jamiyatning jadal rivojlanishi va bilimlar iqtisodiyotiga o'tish sharoitida ta'lim tizimi oldida sifat jihatidan yangi talablar paydo bo'lmoqda. Ushbu talablarning markazida o'qituvchi shaxsi va uning kasbiy faoliyatining innovatsion xususiyati turadi. O'zbekiston Respublikasida ta'limni isloh qilish jarayonlari, xususan, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan "Ta'lim tizimini rivojlantirish" konsepsiyasi doirasida o'qituvchining innovatsion faoliyati alohida davlat ahamiyatiga ega masala sifatida tan olingan [1]. Shu munosabat bilan o'qituvchi faoliyatini faqat an'anaviy ko'rsatkichlar — dars sifati, o'quvchi muvaffaqiyati, intizom darajasi — orqali emas, balki innovatsion salohiyat va ijodiy yondashuvni o'lchash imkonini beruvchi maxsus mezonlar tizimi orqali baholash dolzarb ilmiy masalaga aylanmoqda. Pedagogika fani bu yo'nalishda muhim qadam tashlagan bo'lsa-da, baholash mezonlarining tarkibi, uslubiyati va amaliy qo'llanilishi masalasida yagona ilmiy konsensus hali shakllanmagan. Xorijiy tadqiqotlar, jumladan, Evropa ta'lim agentliklari va AQSh pedagogika markazlarining materiallari shuni ko'rsatadiki, o'qituvchi innovatsion faoliyatini baholashga yondashuvlar mamlakat va ta'lim tizimining xususiyatlariga qarab sezilarli darajada farqlanadi [2]. Rossiya pedagogikasida bu masala "professional standart" tushunchasi atrofida tizimlashtirilgan bo'lib, unga ko'ra o'qituvchining innovatsion kompetentligi kasbiy faoliyatning majburiy

komponenti sifatida belgilanadi [3]. O'zbekiston kontekstida esa bu soha hali o'zining yetarlicha ilmiy-metodologik asosini kutmoqda, bu esa mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligini va amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.

Metodologiya va adabiyotlar tahlili. Tadqiqot chog'ida adabiyotlar tahlili metodi, qiyosiy-tahliliy yondashuv hamda ilmiy tizimlashtirish usullari qo'llanildi. Shaxsiy tahlil bazasini shakllantirish uchun o'n ta asosiy manba qiyosiy usulda ko'rib chiqildi va ulardan olingan kontseptual g'oyalar sintez qilindi. Innovatsion faoliyat samaradorligini baholash masalasi pedagogika fanining nisbatan yangi, ammo jadal rivojlanayotgan yo'nalishi hisoblanadi. Bu yo'nalishning nazariy poydevori A.I. Prigojin, V.I. Slobodchikov va boshqa rus olimlarining asarlarida yaratilgan bo'lib, ular innovatsiyani pedagogik tizimning tashqi va ichki omillari ta'sirida ro'y beradigan sifatiy o'zgarishlar jarayoni sifatida talqin etishgan [3]. Mazkur talqinga ko'ra innovatsion faoliyat — bu oddiy yangilikka intilish emas, balki o'qituvchining pedagogik muammolarni hal etishda yangi yondashuvlar, texnologiyalar va usullarni maqsadli qo'llash orqali ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan ongli va tizimli harakat.

Xorijiy pedagogika fanida, xususan, Finn ta'lim tizimini o'rganuvchi Sahlberg va Darling-Hammond tadqiqotlarida, o'qituvchi faoliyatini baholashda raqamli va sifatli ko'rsatkichlarni birlashtirgan "ko'p qirrali baholash" (multi-dimensional assessment) kontsepsiyasi ilgari surilgan [4]. Bu kontsepsiyaga ko'ra, o'qituvchining innovatsion salohiyatini yagona mezon — masalan, faqat o'quvchilar ko'rsatkichlari — orqali baholash metodologik jihatdan to'g'ri emas, chunki innovatsion faoliyat nafaqat natijada, balki jarayon, ijodiy qaror va kasbiy refleksiya darajasida namoyon bo'ladi. Darling-Hammond o'qituvchining innovatsion qobiliyatini baholashda uning darslarni loyihalash uslubi, pedagogik muammolarga yondashuvi, hamkasblari bilan kasbiy hamkorlik darajasi kabi sifatiy parametrlarga e'tibor qaratish lozimligini alohida ta'kidlaydi [5]. Ushbu g'oya OECD tashkilotining TALIS tadqiqotlari tomonidan ham qo'llab-quvvatlanib, o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi va innovatsiyaga intilishini baholashda faqat chiqish natijalari emas, balki kasbiy o'sish dinamikasi ham asosiy mezon bo'lishi kerakligi asoslanadi [6].

Rossiya pedagogikasida Xutorskoy, Slastenin va Podlasiy innovatsion faoliyatni o'qituvchining umumiy kasbiy kompetentligi tarkibida alohida komponent sifatida ajratib ko'rsatishgan [7]. Xutor'skoy innovatsion kompetentlikni o'qituvchining yangi g'oyalarni qabul qilish, ularni o'z pedagogik faoliyatiga moslash va zarur o'zgarishlarni amalga oshirish qobiliyati deb ta'riflaydi. Bu ta'rifdan kelib chiqib, baholash mezonlari innovatsiyaga shaylik, moslashuvchanlik, refleksivlik va pedagogik ijodkorlik tarkibiy qismlarini o'z ichiga olishi lozim. Slastenin esa innovatsion faoliyatni baholashda o'qituvchining darsdan tashqari kasbiy hayoti — ilmiy-metodologik ishlanmalari, kasbiy jamiyatlardagi ishtiroki, hamkasblarga ustozlik qilishi — kabi ko'rsatkichlarni ham hisobga olish zarurligini uqtiradi [8].

O'zbek pedagogikasida bu mavzu borasida Yo'ldoshev, Nishonova va Hasanov kabi olimlarning ishlari alohida ahamiyatga ega [9]. Yo'ldoshev o'qituvchining innovatsion faoliyatini milliy ta'lim an'analari bilan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni sintezlash jarayoni sifatida talqin etadi va bu jarayon muvaffaqiyatini o'lchashda mahalliy ta'lim madaniyatining o'ziga xosligini hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va davlat ta'lim standartlari o'qituvchilarning innovatsion faoliyatini qonunchilik darajasida tartibga soluvchi hujjatlar sifatida alohida o'rin tutadi [1]. Shuningdek, UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan "O'qituvchilar uchun ICT kompetentligi doirasi" hujjati innovatsion faoliyatni texnologik, pedagogik va tashkiliy o'lchamlar kesimida baholash uchun asos bo'la oladi [10].

Yuqoridagi adabiyotlarning qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, innovatsion faoliyat samaradorligini baholash mezonlari uch asosiy guruhga ajratiladi: birinchisi — jarayon mezonlari (o'qituvchi innovatsion yondashuvni qanchalik tizimli va maqsadli qo'llaydi); ikkinchisi — natija mezonlari (o'quvchilarning o'quv natijalari va kasbiy kompetentlik dinamikasi); uchinchisi — rivojlanish mezonlari (o'qituvchining kasbiy o'sish dinamikasi, refleksiv qobiliyat, hamkorlik va ijodkorlik). Bu uch guruhning har biri mustaqil, ammo bir-birini to'ldiradigan baholash darajalari sifatida ishlaydi.

Natijalar va muhokama. Adabiyotlar sintezi natijasida o'qituvchilarning innovatsion faoliyat samaradorligini baholash mezonlarining yaxlit tizimi shakllantirildi. Ushbu tizim uchta asosiy o'lcham — jarayonli, natijaviy va refleksiv-rivojlantiruvchi — ni o'z ichiga oladi va ularning har biri o'zining aniq, o'lchanishi mumkin bo'lgan ko'rsatkichlari bilan qo'llab-quvvatlanadi.

Jarayonli o'lchamda innovatsion faoliyat samaradorligi avvalo o'qituvchining darslarni loyihalash uslubida namoyon bo'ladi. Agar o'qituvchi an'anaviy dars rejasidan farqli ravishda muammoli yondashuv, loyihaviy ta'lim, flepped classroom yoki differensiatsiyalashgan o'qitish texnologiyalaridan maqsadli va tizimlashtirilgan tarzda foydalansa, bu innovatsion faoliyatning amaliy belgisi hisoblanadi [4]. Shu bilan birga, o'quvchilarni dars jarayonida faollashtirish darajasi, ularning o'quv jarayoniga mustaqil sub'ekt sifatida ishtirok etishini ta'minlash qobiliyati ham jarayonli mezonlar qatoriga kiradi. Xorijiy tadqiqotlar shuni

ko'rsatadiki, innovatsion o'qituvchi nafaqat yangi usul qo'llaydi, balki har qanday yangi usulni o'z pedagogik kontekstiga moslashtirib, uning samaradorligini doimiy ravishda kuzatib, zarur holatlarda tuzatishlar kiritib boradi [5]. Aynan mana shu pedagogik adaptivlik — innovatsion faoliyatning eng muhim jarayon mezonlaridan biridir. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiyalash darajasi ham muhim jarayon ko'rsatkichi sifatida ajralib turadi: UNESCO doirasi o'qituvchini texnologik kompetentlik bo'yicha uch darajaga — imkoniyatlardan foydalanish, chuqurlashuv va ijod — bo'lib, innovatsion faoliyatni aks ettiruvchi darajalar sifatida ikkinchi va uchinchi bosqichlarni belgilaydi [10].

Natijaviy o'lchamda baholash mezonlari ikki yo'nalishda joylashadi: o'quvchi natijalarining o'zgarishi va o'qituvchining kasbiy ta'sirchanligi. O'quvchilar natijalari deganda faqat akademik ko'rsatkichlar emas, balki o'quvchilarning mustaqil fikrlash, muammoni hal etish, ijodiy yondashuv qobiliyatlarining rivojlanishi tushunilishi kerak [6]. Bu ko'rsatkichlar standartlashtirilgan testlar orqali emas, balki portfolio, loyiha natijasi va o'quv jarayonidagi faollik dinamikasi orqali aniqlanishi maqsadga muvofiq. O'qituvchining kasbiy ta'sirchanligi esa uning hamkasblari o'rtasida bilim va tajriba tarqatishga qo'shgan hissasi — uslubiy ishlanmalar, ochiq darslar, kasbiy seminar va treninglarda faollik — ko'rsatkichlari orqali baholanadi [8]. Rossiya tajribasida bu ko'rsatkich "kasbiy multiplikativlik" atamasi bilan nomlanadi va o'qituvchining faqat o'z sinfida emas, balki butun maktab muhitida innovatsiyani tarqatish qobiliyatini aks ettiradi [7].

Refleksiv-rivojlantiruvchi o'lcham zamonaviy pedagogika fanida eng ko'p muhokama qilinadigan, ammo amaliyotda eng kam hisobga olinadigan baholash yo'nalishi hisoblanadi. Mazkur o'lcham o'qituvchining o'z faoliyatini tanqidiy tahlil qila olish qobiliyati — pedagogik refleksiya — ni asosiy mezon sifatida ilgari suradi. Darling-Hammond ta'biricha, haqiqiy innovatsion o'qituvchi o'z tajribasidan o'rganuvchan, muvaffaqiyatsizlikni ham ma'lumot manbai sifatida qabul qiluvchi va kasbiy o'sishga doimiy intiluvchi shaxs hisoblanadi [5]. Bu mezonni o'lchash uchun o'qituvchining kasbiy portfolio yuritishi, o'z-o'zini baholash hisobotlari, ilmiy-metodologik maqola yoki ishlanmalarning mavjudligi kabi ob'ektiv ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin. Bundan tashqari, o'qituvchining kasbiy hamjamiyat faoliyatiga qo'shilishi, xalqaro va mahalliy tajriba almashish platformalarida ishtiroki ham ushbu o'lchamning muhim tarkibiy qismidir [9].

Shunday qilib, mazkur tadqiqot jarayonida innovatsion faoliyatni baholash mezonlarining "uch o'lcham — to'qqiz ko'rsatkich" modeli shakllantirildi. Jarayonli o'lchamda: innovatsion texnologiyalardan maqsadli foydalanish; pedagogik adaptivlik; raqamli kompetentlik darajasi — uch ko'rsatkich ajratildi. Natijaviy o'lchamda: o'quvchilarning yuqori tartibli ko'nikmalar rivojlanishi; kasbiy multiplikativlik; uslubiy ishlanmalar va ochiq darslar soni — yana uch ko'rsatkich belgilandi. Refleksiv-rivojlantiruvchi o'lchamda esa: pedagogik refleksiya madaniyati; kasbiy portfolio va ilmiy faollik; hamjamiyat va xalqaro hamkorlikda ishtiroki — oxirgi uch ko'rsatkich sifatida aniqlandi. Bu model mavjud xorijiy va mahalliy baholash tizimlari bilan qiyoslaganda ikki jihatdan farqlanadi: birinchidan, refleksiv o'lchamni mustaqil va teng huquqli baholash sohasi sifatida ajratganligi; ikkinchidan, har bir ko'rsatkichni faqat sifatiy emas, balki aniq, hujjatlashtirilgan dalillar asosida o'lchashga yo'naltirganligi.

Muhokama nuqtai nazaridan ta'kidlash kerakki, taklif etilgan mezonlar tizimi universal bo'lsa-da, uni har bir maktabning o'ziga xos sharoitiga — resurs imkoniyatlari, o'quvchilar kontingenti, joylashuv — moslashtirib qo'llash zarur. O'zbekiston maktablarida innovatsion faoliyatni baholash tizimini joriy etishda uning raqobatbardosh emas, balki rivojlantiruvchi xarakter kasb etishi muhim shartdir [1]. Ya'ni, baholash natijasi o'qituvchini jazolash yoki rag'batlantirishning mexanik asosi emas, balki uning kasbiy o'sishi uchun tashxis va yo'naltiruvchi vosita bo'lishi kerak. Bu tamoyil zamonaviy "formative assessment" yondashuvi bilan uyg'un bo'lib, OECD tadqiqotlari ham shu xulosaga kela oladi [6].

Xulosa. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qituvchilarning innovatsion faoliyat samaradorligini baholash mezonlari masalasi nazariy va amaliy jihatdan bir-birini to'ldiruvchi uch o'lchamli tizim orqali hal etilishi mumkin: jarayonli, natijaviy va refleksiv-rivojlantiruvchi. Adabiyotlar tahlili va shaxsiy ilmiy tahlil asosida shakllantirilgan "uch o'lcham — to'qqiz ko'rsatkich" modeli o'qituvchi innovatsion faoliyatini faqat tashqi natijalari bo'yicha emas, balki uni yaratuvchi jarayon, rivojlantiruvchi dinamika va refleksiv salohiyat nuqtai nazaridan ham baholash imkonini beradi. Bu yondashuv bir tomondan xorijiy zamonaviy pedagogika ta'limotlari bilan hamohang bo'lsa, ikkinchi tomondan O'zbekiston milliy ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari va dolzarb islohotlariga muvofiqdir. Kelajakda ushbu mezonlar tizimini mahalliy ta'lim standartlari doirasida rasmiylashtirish, maktab rahbarlari, metodistlar va o'qituvchilarning o'zi tomonidan qo'llanishi uchun amaliy vositaga aylantirish ilmiy jihatdan asosli va ijtimoiy jihatdan muhim yo'nalish bo'lib qolmoqda.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlar bazasi, 2020.
2. European Commission. Supporting teacher competence development for better learning outcomes. — Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2013. — 76 p.
3. Пригожин А.И. Нововведения: стимулы и препятствия. — М.: Политиздат, 1989. — 271 с.
4. Sahlberg P. Finnish Lessons 2.0: What Can the World Learn from Educational Change in Finland? — New York: Teachers College Press, 2015. — 231 p.
5. Darling-Hammond L. The Flat World and Education: How America's Commitment to Equity Will Determine Our Future. — New York: Teachers College Press, 2010. — 394 p.
6. OECD. TALIS 2018 Results: Teachers and School Leaders as Lifelong Learners. — Paris: OECD Publishing, 2019. — 212 p.
7. Хуторской А.В. Педагогическая инноватика: учебное пособие. — М.: Академия, 2008. — 256 с.
8. Сластенин В.А., Подымова Л.С. Педагогика: инновационная деятельность. — М.: Магистр, 1997. — 308 с.
9. Yo'ldoshev J.G'. O'qituvchi innovatsion faoliyatining nazariy asoslari. — Toshkent: O'qituvchi, 2012. — 184 b.
10. UNESCO. ICT Competency Framework for Teachers. Version 3.0. — Paris: UNESCO, 2018. — 68 p.

KICHIK YOSHDAGI MAKTAB TA’LIMIDA SHAXSIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISHDA MUMTOZ ADABIYOTDAN FOYDALANISH MAZMUNI

Ahmadova Mahbuba Shavkat qizi,
Buxoro davlat innovatsiyalar universiteti pedagogika psixologiya va sport kafedrasi o’qituvchisi

Mazkur maqolada kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda shaxsiy sifatlarni shakllantirishda mumtoz adabiyot asarlaridan foydalanishning mazmuni va pedagogik imkoniyatlari tahlil etiladi. Maqola adabiyotlar sharhi va nazariy tahlilga asoslanib, mumtoz badiiy matnlarning axloqiy, kognitiv va emotsional ta’sir mexanizmlari ko‘rib chiqiladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, to‘g‘ri tanlangan mumtoz asarlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mehnatsevarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik va adolat tuyg‘ularini shakllantirishga bevosita ko‘maklashadi.

Kalit so‘zlar: *mumtoz adabiyot, boshlang‘ich ta’lim, shaxsiy sifatlar, axloqiy tarbiya, badiiy matn, kichik maktab yoshi, ma’naviy-axloqiy tarbiya.*

THE CONTENT OF USING CLASSICAL LITERATURE IN THE FORMATION OF PERSONAL QUALITIES IN PRIMARY SCHOOL EDUCATION

This article analyzes the content and pedagogical possibilities of using classical literary works in the formation of personal qualities in primary school students. Based on a literature review and theoretical analysis, the article examines the mechanisms of moral, cognitive and emotional impact of classical literary texts. The results show that correctly selected classical works directly contribute to the formation of feelings of diligence, patriotism, humanity and justice in primary school students.

Keywords: *classical literature, primary education, personal qualities, moral education, literary text, primary school age, spiritual and moral education.*

СОДЕРЖАНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ КЛАССИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ В ФОРМИРОВАНИИ ЛИЧНОСТНЫХ КАЧЕСТВ В НАЧАЛЬНОМ ШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

В данной статье анализируются содержание и педагогические возможности использования классических литературных произведений в формировании личностных качеств учащихся начальной школы. На основе обзора литературы и теоретического анализа рассматриваются механизмы морального, познавательного и эмоционального воздействия классических литературных текстов. Результаты показывают, что правильно подобранные классические произведения напрямую способствуют формированию у учащихся начальной школы чувств трудолюбия, патриотизма, гуманности и справедливости.

Ключевые слова: *классическая литература, начальное образование, личностные качества, нравственное воспитание, литературный текст, начальный школьный возраст, духовно-нравственное воспитание.*

Kirish. Boshlang‘ich ta’lim davri - bolaning shaxsiy sifatlari eng intensiv shakllanadigan hayot bosqichi hisoblanadi. Aynan 7—11 yoshda bolaning qadriyatlar tizimi, axloqiy mezonlari va ijtimoiy munosabatlarga nisbatan munosabati asosan belgilanadi. Bu jarayonda adabiy ta’lim, xususan mumtoz adabiyot asarlaridan maqsadli foydalanish, pedagogikaning uzoq tarixga ega yo‘nalishlaridan biri bo‘lib kelgan. Shu bilan birga, zamonaviy ta’lim tizimida raqamli vositalar va yangi o‘quv texnologiyalarining keng joriy etilishi fonida mumtoz adabiyotning tarbiyaviy salohiyati ko‘pincha ikkinchi planga o‘tib qolmoqda. Ushbu holat mazkur masalani qayta ko‘rib chiqishni va mumtoz adabiyotdan foydalanishning mazmuni hamda pedagogik asoslarini nazariy jihatdan aniqlashtirni taqozo etadi.

Mumtoz adabiyotning tarbiyaviy roli masalasi pedagogika va psixologiya fanlarida uzoq vaqtdan beri muhokama qilinib keladi. K.D. Ushinskiy ona tilida o‘qitishni milliy tarbiyaning asosi sifatida baholab, xalq og‘zaki ijodi va klassik adabiyot asarlarini boshlang‘ich ta’limning ajralmas qismiga kiritishni tavsiya etgan [1]. V.A. Suxomlinskiy esa kichik yoshdagi o‘quvchilarga mo‘ljallangan adabiy asarlar bolaning qalbida yaxshilik va go‘zallik hissini uyg‘otishi, bola shaxsining ichki dunyosini boyitishi lozimligini ta’kidlagan [2]. O‘zbek pedagogikasida ham bu masalaga alohida e’tibor qaratilgan bo‘lib, xalq pedagogikasi an'analari va mumtoz o‘zbek adabiyotining tarbiyaviy imkoniyatlari ilmiy asoslab berilgan [3]. Mazkur maqolaning

maqsadi — kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar shaxsini shakllantirishda mumtoz adabiyotdan foydalanishning mazmunini nazariy tahlil etish, uning tarkibiy komponentlarini aniqlash hamda pedagogik samaradorligini belgilovchi omillarni ko‘rsatib berishdir.

Metodologiya va adabiyotlar tahlili. Maqola nazariy-tahliliy metodologiyaga asoslanadi: mavzu bo‘yicha o‘zbek, rus va xorij tillarida chop etilgan ilmiy manbalar, monografiyalar, o‘quv qo‘llanmalar va dasturiy hujjatlar tahlil qilindi. Shaxsni shakllantirish jarayonining psixologik mexanizmlarini tushuntirishda L.S. Vigotskiyning yaqin rivojlanish zonasi nazariyasi [4] va J. Brunerning narrativ tafakkur konsepsiyasi [5] asosiy nazariy tayanch sifatida qabul qilindi. Ta’limning axloqiy o‘lchovi nuqtai nazaridan L. Rozenblatning tranzaksional o‘qish nazariyasi [6] tahlilga jalb etildi, ushbu nazariya o‘quvchi va badiiy matn o‘rtasidagi munosabatni dinamik va ikki tomonlama jarayon sifatida talqin etadi. O‘zbek ta’lim kontekstida S. Mirvaliyevning xalq pedagogikasi tadqiqotlari [3] va O. Nishonovaning boshlang‘ich sinflardagi axloqiy tarbiyaga oid ishlari [7] muhim metodologik manba bo‘ldi.

Mumtoz adabiyotning tarbiyaviy imkoniyatlarini o‘rganishda mavjud adabiyotlar bir necha jihatdan farqlanuvchi pozitsiyalarni ifodalaydi. Birinchi yo‘nalish — axloqiy-mazmuniy yondashuv bo‘lib, bunda asarning tematik va g‘oyaviy qatlami tarbiyaviy ta’sirning asosiy manbai hisoblanadi. Bu yo‘nalish vakillari fikricha, o‘quvchi adabiy qahramon bilan tanishish orqali uning axloqiy tanlovlarini baholaydi, yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi chiziqni anglaydi, o‘zi uchun namuna topadi [1, 8]. Ikkinchi yo‘nalish — psixologik-emotsional yondashuv bo‘lib, bu holda asosiy urg‘u empatianing rivojlanishiga qo‘yiladi. Vigotskiy ta’lim va rivojlanishning uzviy birligini asoslagan holda badiiy adabiyot o‘qishni bolaning his-tuyg‘ular madaniyatini boyitishning eng samarali yo‘li sifatida ta’riflagan [4]. Uchinchi yo‘nalish — kognitiv-lingvistik yondashuv bo‘lib, mumtoz asarlar o‘quvchining so‘z boyligi, tafakkur ko‘lami va og‘zaki hamda yozma nutqini rivojlantirish vositasi sifatida ko‘riladi. Brunerning ta’kidlashicha, narrativ tafakkur insonga o‘z hayotini mazmunli tartibga solishga yordam beradigan asosiy kognitiv mexanizmdir va bu mexanizm bolada badiiy matnlar bilan muloqot orqali shakllanadi [5].

O‘zbek mumtoz adabiyoti — Alisher Navoiy, Bobur, Ogahiy asarlari — boshlang‘ich ta’limda qo‘llanilganda o‘ziga xos qo‘shaloq vazifani bajaradi: bir tomondan, u milliy o‘zlikni anglashni, til va madaniy merosga sadoqatni tarbiyalaydi; ikkinchi tomondan, universalinsoniy qadriyatlar — do‘stlik, rostgo‘ylik, ilmga intilish, kattalarni hurmat qilish — ni o‘quvchi ongiga singdiradi [3, 8]. Shu jihatdan O‘zbekiston ta’lim sohasidagi davlat hujjatlarida ham milliy adabiyot namunalaridan boshlang‘ich sinflarda foydalanish masalasiga alohida e’tibor qaratilgan [9]. Xorij tajribasi tahlili shuni ko‘rsatadiki, Shimoliy Amerika va Yevropa mamlakatlarida ham boshlang‘ich sinf o‘qish dasturlarini klassik asarlar asosida shakllantirishga intilish kuchaymoqda, chunki bu asarlar o‘quvchida chuqur refleksiya va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi [6].

Mavjud adabiyotlarning tahlili yana bir muhim masalani yuzaga chiqaradi: mumtoz asarlar bilan ishlash metodikasi ko‘pincha formal xarakter kasb etadi, ya’ni o‘quvchi asarni o‘qib chiqadi va savollar javobini topadi, ammo matnga nisbatan shaxsiy, emotsional munosabat shakllanmaydi. Rozenblatning tranzaksional nazariyasi bu muammoni aniq ifodalaydi: o‘qish jarayonida o‘quvchi faqat ma’lumot qabul qiluvchi emas, balki matn bilan faol muloqotga kirishuvchi sub'ektdir [6]. Demak, mumtoz adabiyotdan foydalanishning mazmuni nafaqat asarlar to‘plamini, balki o‘qituvchi tomonidan tashkil etiladigan pedagogik muloqot sifatini ham o‘z ichiga olishi kerak.

Natijalar va muhokama. Adabiyotlar tahlili asosida kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda shaxsiy sifatlarni shakllantirishda mumtoz adabiyotdan foydalanishning mazmuni bir necha o‘zaro bog‘liq komponentlardan iborat ekani aniqlanadi. Birinchi komponent — asarlar tanlovi me’zonidir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi uchun mo‘ljallangan mumtoz asar bir qator talablarga javob berishi lozim: uning syujeti bolaning hayotiy tajribasiga yaqin bo‘lishi, til va uslub qabul qiluvchi yoshga moslashtirilgan bo‘lishi, axloqiy muammo aniq va bir ma’noli tarzda ifodalangan bo‘lishi kerak. P. Qodirov o‘zbek mumtoz adabiyoti namunalarini boshlang‘ich ta’limga tatbiq etishda ularning g‘oyaviy teranligini saqlab qolgan holda matn murakkabligini moslashtirishni tavsiya etadi [8]. Bu talabga to‘liq javob beruvchi asarlarga Navoiyning dostonlaridagi alohida epizodlar, Bobur baytlari, shuningdek o‘zbek xalq ertaklari va maqollari kiradi, chunki ular mumtoz fikrlash tarzini bolabop shakl orqali yetkazadi.

Ikkinchi komponent — shaxsiy sifatlar tizimini maqsadli belgilashdir. Boshlang‘ich ta’lim bosqichida shakllantirilishi mo‘ljallangan shaxsiy sifatlar pedagogik adabiyotda turlicha tasnif qilingan. Umumlashtirish asosida quyidagi asosiy guruhlarni ajratish mumkin: axloqiy-irodaviy sifatlar (halollik, mehnatsevarlik, mas'uliyatlilik), ijtimoiy-munosabat sifatlari (hamkorlik, hamdardlik, hurmatlilik), kognitiv-manaviy sifatlar (qiziquvchanlik, bilimga intilish, tanqidiy fikrlash) va milliy-madaniy sifatlar (vatanparvarlik, til va merosga ehtirom). Suxomlinskiy ta’kidlaganidek, ushbu sifatlar bir-biridan ajralgan holda shakllanmaydi: yaxshi inson bo‘lish uchun bola bir vaqtning o‘zida barcha bu sifatlarning o‘zaro uyg‘unligini his etishi kerak [2].

Mumtoz adabiyot bu uyg‘unlikni bir asarning o‘zida namoyish eta oladi, chunki klassik qahramon ko‘pincha kompleks shaxs sifatida tasvirlanadi.

Uchinchi komponent — pedagogik vositachilik sifatidir. Adabiyot ta’limida o‘qituvchi oddiy axborot uzatuvchidan ko‘ra ko‘proq — o‘quvchi va matn o‘rtasidagi muloqotni tashkil etuvchi vositachi rolini o‘ynaydi. Vigotskiyning yaqin rivojlanish zonasi nazariyasi nuqtai nazaridan bu vositachilik o‘quvchining hozirgi tushunish darajasidan bir qadam oldinroq joylashgan muammolarni qo‘yishi, lekin bu muammolarni o‘quvchi o‘zi hal qila oladigan tarzda tuzishi lozimligini bildiradi [4]. Amalda bu shuni anglatadiki, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi mumtoz asar ustida ishlashda bolaga oddiy savollar o‘rniga refleksiv savollar — "Bu qahramon sening o‘rninda bo‘lsa nima qilardi?", "Siz bu vaziyatda qanday his qilgan bo‘lar edingiz?" — ni berishi tarbiyaviy ta’sirni sezilarli darajada oshiradi.

To‘rtinchi komponent — kontekstual integratsiyadir. Mumtoz adabiyot asarlari boshlang‘ich ta’limda izolyatsiya qilingan o‘quv materiali sifatida emas, balki bolaning butun hayotiy va o‘quv tajribasiga integratsiya qilingan holda taqdim etilganda samaraliroq bo‘ladi. Nishonova o‘z tadqiqotida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy sifatlarning shakllanishi ko‘proq adabiy va hayotiy tajribani sintez qilish natijasida yuz berishini ko‘rsatadi [7]. Demak, o‘qituvchi mumtoz asar qahramonining xatti-harakatini o‘quvchining kundalik munosabatlari, oila, sinf jamoasi, jamiyat bilan bog‘lay olsa, asarning tarbiyaviy ta’siri uzoq muddatli va barqaror bo‘ladi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, mumtoz adabiyotdan foydalanishning mazmuni davr talablariga muvofiq yangilanib turishi zarur. Bu nafaqat asarlar tanlovi masalasidir — balki ularni taqdim etish usuli va ular orqali ko‘tariladigan muammolarning bugungi bolalar hayotiga dahldorligini ta’minlash masalasidir. O‘zbek milliy o‘quv dasturlari mazkur masalaga e’tibor qaratgan bo‘lsa-da [9], amaliyotda mumtoz asarlar ko‘pincha an'anaviy, formalroq yo‘l bilan o‘tiladi. Xorij tajribasi, xususan Bruner va Rozenblatning ishlari asosida ishlab chiqilgan o‘qitish tizimlari [5, 6], mumtoz asarlar bilan ishlashning yangi imkoniyatlarini ko‘rsatib bermoqda va o‘zbek ta’lim amaliyoti uchun ham bu tajribalarni moslashtirilgan holda qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Ushbu tahlilning umumiy xulosasi shundan iboratki, mumtoz adabiyotning boshlang‘ich ta’limdagi tarbiyaviy salohiyati hali to‘liq ro‘yobga chiqmagan. Bu salohiyatni ro‘yobga chiqarish uchun asarlar to‘plamini boyitish, pedagogik vositachilik sifatini oshirish, o‘quvchining shaxsiy refleksiyasini rag‘batlantiruvchi metodlarni joriy etish va mumtoz matnni bolaning zamonaviy hayotiy tajribasiga ko‘prik qurish orqali bog‘lash zarur.

Beshinchi komponent sifatida mumtoz adabiyotning lisoniy-estetik ta’sirini alohida ko‘rib chiqish zarur. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi mumtoz asar matnini idrok etayotganda nafaqat axloqiy, balki estetik tajriba ham o‘tkazadi. Klassik asarlarga xos bo‘lgan yuksak uslub, obrazli til, ritmik qurilma va metaforalar bolaning nutq madaniyatiga, so‘z boyligiga va go‘zallik hissiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bu estetik ta’sir shaxsiy sifatlarni shakllantirishda ko‘pincha etarlicha baholanmaydi, holbuki sezgirlik, noziklik va go‘zallikni his qila olish — o‘z-o‘zidan axloqiy yetuklikning belgisidir. Insonning go‘zallikka, she’riyatga, so‘z san'atiga nisbatan sezgir bo‘lishi uning boshqa odamlarga, tabiatga va atrofidagi olamga nisbatan munosabatini ham yaxlit ravishda yoqimli yo‘nalishda shakllantirib boradi. Aynan shu ma’noda mumtoz asarlar bilan ishlash — bu nafaqat axloqiy tarbiya, balki to‘laqonli inson tarbiyasidir.

Oltinchi komponent — sinf jamoasida mumtoz asarlar ustida olib boriladigan umumiy muhokamaning tarbiyaviy ahamiyatidir. Bola adabiy asarni o‘zi yolg‘iz o‘qib tahlil qilishi bilan uni tengdoshlari bilan birgalikda muhokama qilishi o‘rtasida sifat jihatidan katta farq mavjud. Jamoa muhokamasi jarayonida har bir o‘quvchi o‘z fikrni ifodalashga, boshqalar nuqtai nazarini eshitishga va zarur bo‘lsa o‘z pozitsiyasini qayta ko‘rib chiqishga majbur bo‘ladi. Bu jarayon nafaqat o‘quvchining badiiy asarni chuqurroq anglab yetishiga, balki uning ijtimoiy ko‘nikmalarini — fikrni himoya qilish, boshqalarni tinglash, murosaga kelish — rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Mumtoz asarlar bu jihatdan ayniqsa qimmatlidir, chunki ulardagi axloqiy vaziyatlar ko‘p qirrali bo‘lib, turli xil talqinlarga yo‘l qo‘yadi va shu bois sinf ichida mazmunli pedagogik muloqot yuzaga kelishi uchun qulay zamin yaratadi.

Xulosa. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda shaxsiy sifatlarni shakllantirishda mumtoz adabiyotdan foydalanishning mazmuni ko‘p qirrali pedagogik hodisa bo‘lib, u asarlar tanlovi, maqsadli sifatlar tizimi, pedagogik vositachilik sifati va kontekstual integratsiya kabi o‘zaro bog‘liq komponentlarni o‘z ichiga oladi. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mumtoz asarlar faqat axloqiy-mazmuniy ta’sir o‘tkazuvchi vosita sifatida emas, balki emotsional rivojlanish, kognitiv o‘sish va milliy-madaniy kimlikni shakllantirish vositasi sifatida ham katta imkoniyatga ega. Mazkur imkoniyat pedagogik jarayonda to‘liq amalga oshirilishi uchun o‘qituvchi an'anaviy formal yondashuvdan chiqib, refleksiv va tranzaksional o‘qitish tamoyillariga asoslangan metodlarni qo‘llashi lozim. Kelajak tadqiqotlarda ushbu nazariy xulosalarni

boshlang‘ich sinf amaliyotiga tatbiq etishning o‘ziga xos yo‘llari va turli yosh guruhlariga mos mumtoz asarlar mezonlarini ishlab chiqish muhim istiqbol sifatida qaralishi kerak.

Adabiyotlar:

1. Ушинский К.Д. Педагогические сочинения: в 6 т. Т. 2 / К.Д. Ушинский. — М.: Педагогика, 1988. — 496 с.
2. Сухомлинский В.А. Сердце отдаю детям / В.А. Сухомлинский. — Киев: Радянська школа, 1974. — 288 с.
3. Мирвалиев С. Ўзбек халқ педагогикаси / С. Мирвалиев. — Тошкент: Ўқитувчи, 1995. — 224 б.
4. Выготский Л.С. Педагогическая психология / Л.С. Выготский; под ред. В.В. Давыдова. — М.: Педагогика, 1991. — 480 с.
5. Bruner J. The Culture of Education / J. Bruner. — Cambridge: Harvard University Press, 1996. — 224 p.
6. Rosenblatt L.M. Literature as Exploration / L.M. Rosenblatt. — 5th ed. — New York: Modern Language Association, 1995. — 321 p.
7. Нишонова О. Бошланғич синф ўқувчиларида маънавий-ахлоқий сифатларни шакллантириш / О. Нишонова. — Тошкент: Фан, 2018. — 176 б.
8. Қодиров П. Ўзбек адабиёти тарихи: ўқув қўлланма / П. Қодиров. — Тошкент: Шарқ, 2009. — 384 б.
9. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Boshlang‘ich ta’lim davlat ta’lim standarti. — Toshkent, 2017. — 64 b.
10. Abdullayeva M. Boshlang‘ich sinflarda adabiy ta’lim metodikasi / M. Abdullayeva. — Toshkent: O‘qituvchi, 2020. — 248 b.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDAN O‘RTA BO‘G‘INGA O‘TISH DAVRIDA O‘QUVCHILARNING MAKTABGA MOSLASHUVI: NAZARIY TAHLIL

Berdiyeva Mohloroyim Mirzohid qizi,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti magistranti

Maqolada boshlang‘ich ta’limdan o‘rta maktabga o‘tish jarayonining psixologik-pedagogik xususiyatlari nazariy tahlil asosida ko‘rib chiqiladi. 10–12 yoshdagi o‘quvchilarda moslashuv jarayoni, kognitiv va shaxsiy o‘zgarishlar hamda unga ta’sir etuvchi omillar yoritiladi. Shaxsiy tayyorgarlik, oilaviy munosabatlar(motivatsiya, ixtiyoriy xulq, o‘z-o‘zini baholash, kommunikativ ko‘nikmalar) moslashuvning asosiy omili sifatida asoslanadi.

Kalit kalit: *o‘rta bo‘g‘inga moslashuv, o‘tish bosqichi, dezadaptatsiya, psixologik-pedagogik xususiyatlar, shaxsiy tayyorgarlik, o‘quv motivatsiyasi, xulq-atvor ixtiyoriyligi, o‘z-o‘zini baholash, kommunikativ ko‘nikmalar.*

АДАПТАЦИЯ УЧАЩИХСЯ К ШКОЛЕ В ПЕРИОД ПЕРЕХОДА ОТ НАЧАЛЬНОГО К СРЕДНЕМУ ЗВЕНУ ОБРАЗОВАНИЯ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

В статье на основе теоретического анализа рассматриваются психолого-педагогические особенности процесса перехода от начального к среднему звену школы. Освещаются процессы адаптации, когнитивные и личностные изменения у учащихся 10–12 лет, а также факторы, влияющие на них. Обосновывается, что личностная готовность и семейные отношения (мотивация, произвольное поведение, самооценка, коммуникативные навыки) являются ключевыми факторами адаптации.

Ключевые слова: *адаптация к среднему звену, переходный этап, дезадаптация, психолого-педагогические особенности, личностная готовность, учебная мотивация, произвольность поведения, самооценка, коммуникативные навыки.*

STUDENTS’ SCHOOL ADAPTATION DURING THE TRANSITION FROM PRIMARY TO LOWER SECONDARY EDUCATION: A THEORETICAL ANALYSIS

This article examines the psychological and pedagogical characteristics of the transition process from primary to lower secondary education based on a theoretical analysis. It highlights adaptation processes, cognitive and personal changes in students aged 10–12, as well as the factors influencing them. Personal readiness and family relationships (motivation, self-regulation of behavior, self-esteem, and communication skills) are substantiated as key factors of adaptation.

Keywords: *adaptation to lower secondary education, transition stage, maladaptation, psychological and pedagogical characteristics, personal readiness, learning motivation, behavioral self-regulation, self-esteem, communication skills.*

Kichik maktab yoshi tugab, bolalar 5-sinfga o‘tishgach, ularda qator psixologik o‘zgarishlar yuzaga kela boshlaydi. Shu sababli bu bosqich “o‘tish bosqichi” deb ataladi. Bu o‘zgarishlarga asosiy sabablardan biri bolaning o‘rta maktab bosqichiga o‘tishi hisoblanadi. Bola boshlang‘ich maktabda tayyor bilimlarni olishi kelar edi, endi o‘rta maktabda mustaqil fikrlab, o‘zining ham izlanishi talab qilinadi. Boshlang‘ich sinfda bolaga o‘qish qiziq tuyulgan bo‘lsa, endi bu shaxsiylashadi, ya’ni “o‘qish menga nimaga kerak?” savoli tug‘iladi. Bu yoshdan boshlab bola ma’lumotlarni shunchaki qabul qilmaydi, balki baho bera boshlaydi.

O‘rta maktabga moslashuv muammosi kichik maktabga moslashuvga nisbatan kamroq o‘rganilgan. O‘rta maktab bosqich boladan yanada yuqoriroq tayyorgarlikni talab qiladi. Endi u boshlang‘ich sinfdagi kabi bir yoki ikki dona o‘qituvchi bilan emas, ko‘plab farqli o‘qituvchilar bilan munosabatga kirishishi kerak bo‘ladi. Ular tomonidan yangi fanlar doirasida yangi talablar qo‘yiladi. Albatta fanlarning ko‘payishi bilan o‘quv yuklamalari ham yanada ortadi, bu esa bolada moslashuv buzilishi xavfini yuzaga keltirishi mumkin.[1] Bola ushbu bosqichda faol harakat qilib darslarni o‘zlashtirishga harakat qilsa unda moslashuv mexanizmlari tez shakillanib, maktabga moslashuvi osonlashadi. Bola individual ishlarni bajarish usullarini o‘zlashtira boshlaydi, intelektual hamda bilish jarayonlarining faolligi oshadi. Oldin diqqatini bir nuqtaga qaratishda qiynalgan bola, endi ixtiyoriy diqqatini ancha shakillantirgan bo‘ladi. Agar bolada moslashuv jarayonida muammolar kuzatilsa, salbiy deviant xulq-atvor belgilari kuzatilishi mumkin. O‘zini nazorat qilishda qiyinchiliklar, sinfdoshlar va o‘qituvchilar bilan munosabatlarda tushunmovchiliklar, muloqot

jarayonida muammolarga duch kela boshlaydi. Bunday o‘quvchilar maktabga borishni istamaydi, darslardan ortda qoladi, doimiy tushkun kayfiyatda yuradi. O‘qituvchi moslashuv jarayonini muvaffaqiyatli kechishiga erishish uchun o‘quvchilarning individual psixologik hamda yoshga doir xususiyatlarini e’tiborga olishi lozim. O‘qituvchining bu jarayondagi asosiy vazifasi, moslashuvni og‘riqsiz va yengil kechishini ta’minlashdan iborat. Maktabga moslashuv-adaptatsiya va maktabga moslasha olmaslik-dezadaptatsiya jarayoni bitta jarayonning ikki tomoni hisoblanadi. 5-sinf moslashuvi tengdoshlari bilan ijtimoiy munosabatlarning muvaffaqiyati, maktabdagi o‘zaro ta’sir vaziyatlarida o‘ziga ishonch, emotsiyalar va xulq-atvorni nazorat qila olish bilan bog‘liq[2].

J. Veliborn va J.Konner aniqlashicha, o‘quvchilarning o‘qishdagi muvaffaqiyati va maktabga moslashuvi quyidagi uchta shart bajarilganda yaxshilanadi:

1. O‘quvchilar o‘zaro shaxslararo qo‘llab-quvvatlashni his qiladilar, bu ularga o‘zlariga va o‘z imkoniyatlariga ishonish imkonini beradi.
2. O‘quvchilarda o‘zlariga nisbatan ijobiy hissiyotlar shakllangan bo‘ladi.
3. O‘quvchilar maktab jarayoniga qiziqish va ishtiyoq bilan yondashadilar[3]. Mana shu xususiyatlar bolada kuzatilsa maktabga muvaffaqiyatli moslashgan desak bo‘ladi.

V. N. Belkina fikriga ko‘ra, psixologik moslashuv deganda “insonning shaxs sifatida boshqa odamlar jamiyatida mavjud bo‘lishi, ya’ni jamiyat talablari hamda shaxsiy ehtiyojlar, motivlar va qiziqishlarga muvofiq ravishda moslashuvi” tushuniladi.[4]. Moslashuv jarayonida bolalar ikki xil holatni namoyish etishadi. Ba’zilar haddan tashqari faol, quvnoq, beqaror bo‘lishsa, ba’zilarda tortinchoqlik, muloqotning yo‘qligi, xavotir, ichkariga yo‘nalganlik kuzatiladi. Ilmiy tadqiqotlarda beshinchi sinf o‘quvchisining moslashuvi quyidagicha talqin etiladi: bu — o‘quvchi rivojlanishning yangi ijtimoiy vaziyatiga kirib borishining ko‘p tomonlama faol jarayoni bo‘lib, u obyektiv va subyektiv omillar bilan belgilanadi hamda ta’lim muhiti talablariga mos xulq-atvor usullarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur jarayon o‘quv faoliyatini ijtimoiy ahamiyatga ega faoliyat sifatida egallashga, o‘quvchi uchun yangicha bo‘lgan ijtimoiy muhit bilan samarali o‘zaro ta’sirni yo‘lga qo‘yishga, shuningdek, uning keyingi shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini belgilashga yo‘naltirilgan[5]. Bolaning maktabga moslashuvini tahlil qilish maqsadida tadqiqot o‘tkazilganda, sinf raxbarlari tomonidan moslashuvga ta’sir etuvchi omil sifatida- o‘qishga bo‘lgan istak ko‘rsatilgan. “Shunday bolalar borki, ularning ko‘zida “uchqun” yonib turadi. Ularning o‘quv jarayonidagi faolligi darhol seziladi. Maktab jarayoniga tayyor bolalar yozadi, o‘qiydi, masalalarni yechadi, doskada javob beradi va baho oladi. Tayyor bo‘lmagan bolalar esa ko‘proq tanaffus paytlariga, maktabga kelish va ketish holatlariga, o‘qituvchi bilan salomlashishga e’tibor qaratadi”[6]. Bundan kelib chiqadiki, bolaga ta’sir etilgan tashqi ta’sir motivatsiyadan tashqari bolaning ichki motivatsiyasi ham uning moslashuv jarayonida yuqori ahamiyat kasb etadi. Maktabga muvaffaqiyatli moslashgan 5-sinf o‘quvchisi doimiy darsga borishni xoxlaydi, kun davomida kayfiyati yaxshi, jamoat ishlarida faol, o‘qituvchilar bilan ijobiy munosabatda, o‘quv ko‘rsatkichlari 4-sinf darajasida yoki yuqori bo‘ladi. Agar bolada maktabdagi turli muammolarni hali ham ota-onasi yordamida hal qilsa, o‘qituvchilar tomonidan qo‘yilgan baholarga kuchli hissiy reaksiyalar bildirsa, kayfiyati doimiy tushkun bo‘lib, maktabga borishni istamasa hamda maktabda doim boshlang’ich sinf o‘qituvchisiga murojaaat qilsa, demak bu bolada moslashuv muvaffaqiyatsiz amalga oshayotganligini belgisi hisoblanadi[7]. Boshlang‘ich maktabdan o‘rta maktabga o‘tish bolalardagi avvaldan mavjud bo‘lgan, lekin ota-ona va o‘qituvchilarga ochiqlanmagan muammolarning kuchayishiga olib keladi. Ushbu muammolarning vaqtida aniqlanmasligi hamda korreksiya qilinmasligi natijasida faqat o‘quvchilarning o‘quv materiallarini o‘zlashtira olmasliklari bilan cheklanib qolmasdan balki bolalarning psixosotsial rivojlanishida buzilishlar hamda qator xulqiy og‘ishlariga sabab bo‘lishi mumkin.

Taqdidotlarga ko‘ra, moslashuvdagi jinsiy farqlar fan yo‘nalishiga bog‘liq. Qizlar o‘tish davrida do‘stlardan va maktab qo‘llab-quvvatlashidan kamroq qoniqish bildiradi, o‘g‘il bolalar esa maktab muammolari ko‘payganini aytadi. Maktab faoliyati o‘tish davrida o‘g‘il bolalar uchun qizlarga nisbatan qiyinroq kechadi, qizlar esa yangi do‘stlar orttirishda ko‘proq qiynaladi. Ko‘pchilik bolalar o‘rta maktabga o‘tishni yangi imkoniyatlar, erkinlik, yangi fanlar va yangi do‘stlar orttirish imkoniyati sifatida ijobiy kutib oladi[8]. Umuman olganda, qizlar o‘rta sinfga o‘tish jarayoniga o‘g‘il bolalarga qaraganda osonroq moslashadi. Oila va maktab hamkorligi o‘tish jarayoniga kuchli ta’sir qiladi. Ota-onaning ishtiroki, qo‘llab-quvvatlashi va nazorati o‘quv natijalarini yaxshilaydi. To‘liq oilada (ota-ona bilan birga yashash) o‘quvchilar o‘tish jarayonini kamroq tashvish bilan boshdan kechiradi

Belarus maktablarida o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasiga e’tibor qaratsak, o‘rta sinfda bolaning o‘zlashtirish ko‘rsatkichining pasayishi bir qator sabablar tufayli ekanligi ko‘riladi. Ulardan asosiylari sifatida, 5-sinf o‘quv dasturining nisabatan murakkabligi, o‘quvchiga yuklamaning ko‘p berilishi ko‘rsatiladi. O‘qituvchilarning ta’kidlashicha, boshlang‘ich maktabda bolalarning so‘z boyligi yetarli darajada shakillantirilmagan, ba’zilarda fikrlash, xulosalash qobiliyatlari past darajada hamda mustaqil

faoliyat olib borish ko‘nikmalari shakillantirilmagan. Ularda faqat oson va oddiy vazifalarni bajarish ko‘nikmasigina shakillantirilgan xolos deyishadi. O‘zlaridagi kamchiliklariga to‘xtalib, o‘smirlik davri psixologik xususiyatlari haqida yetarli ko‘nikmalarga ega emasliklari, ular bilan hamkorlik munosabatlarini o‘rnatishda qator muammolarga duch kelishlari haqida gapirishadi. Ularning fikricha bu yosh davridagi moslashuvdagi qiyinchiliklarning yana bir sababi, fan o‘qituvchilar tomonidan vazifaning ko‘p berilishi, talablarning yuqoriligi hisoblanadi

D. A. Eroshina ta’kidlaganidek, “o‘rta maktabga o‘tish jarayoni maktabgacha ta’lim muassasasidan umumta’lim maktabining birinchi sinfiga o‘tishga o‘xshaydi — bolalar ham xuddi shunday tarzda yangi ta’lim muhiti sharoitlariga moslashadilar, ular uchun yangi bo‘lgan jamoada ijtimoiylashishga harakat qiladilar”[9]. Bu davrda o‘quvchilar anchayin erkinroq hamda mas’uliyat darajasi ham oldingi yillardagiga nisbatan ko‘proq bo‘ladi. Shu bilan birga bolalarda moslashuvning muvaffaqiyatsiz yakuni- dezadaptatsiya kuzatilishi mumkin. Maktabdagi dezadaptatsiya bir qator shakillarda namoyon etilishi mumkin: xulq-atvor, o‘quv ko‘rsatkichlaridagi buzilish,munosabatlardagi nizolar, turli kasalliklar yoki xavotirlanish darajasining oshishi, shaxs rivojlanishidagi turli buzilishlar bo‘lishi mumkin. Ba’zi olimlarning fikricha dezadaptatsiya agressivlik, ortiqcha faollik, xayolparastlik, qaramlik, o‘zini qadrsizlantirish, ortiqcha qo‘rquv, sergirlikning oshishi, diqqatning jamlanmasligi, hissiy notinchlik shaklida bo‘lishi mumkin ekan. Dezadaptatsiya natijasida inson xulqida buzilishlar tobora ortmoqda, ba’zan klinik yoki jinoiy hatti-harakat darajasiga ham yetayotganligi, maktabdagi dezadaptatsiyani muhim muammo ko‘rinishiga keltirdi va bu muammoni amaliy hal etish zarur deb qaraladi. So‘ggi paytlarda ushbu atama adabiyotlarda keng qo‘llanilmoqda. Ba’zilar uni kasallik desa, ba’zilar xarakterdagi o‘zgarish yoki ta’sirlar natijasi deydi va yana ayrimlar nevrozga yaqin holat deb ta’riflaydi. I.G. Bespalko fikricha, har bir inson individual- har birining o‘ziga xos tuzilishi mavjud(psixologik, jismoniy) hamda har biri ta’shqi muhitdan keluvchi stressli vaziyatlarni turlicha qabul qiladi, turlicha reaksiya qaytaradi. Dezadaptatsiya insonda shakillangan ruhiy, jismoniy muammolarni yanada kuchaytiradi va qator og‘ishlarga olib belishi mumkin.

Umuman olganda 5-sinf o‘quvchilarining maktabga moslashuvida yuzaga keladigan qiyinchiliklarga sabab quyidagilar bo‘lishi mumkin:

O‘qish sharoitidagi tafovutlar: O‘qituvchlar soning oshganligi, darslarning turli xonalarda o‘tilishi, ba’zan esa bolaning yangi maktab yoki sinfga o‘tishi kabi. Aynan shu sabablar: yangi o‘qituvchini tanib olish, xonalarni ajratish, har bir yangi o‘zgarishga alohida moslashish bolada xavotirni yuzaga keltirishi mumkin.

Talablarning o‘zgarganligi: Turli fan o‘qituvchilarining talablaridagi tafovutlar, ba’zi o‘qituvchilar yashil ruchka, ba’zilari qalam vahakazo singari. Nazoratning pasayishi- Ya’ni bola boshlang‘ich sinfda doimiy o‘qituvchining nazoratida edi, endi esao‘qituvchilar soni ko‘p va ular hammani birdek kuzatishga ulgurmaydi. Natijada bola o‘zini keraksizdek his qilishi mumkin. Bu esa ularda ma’suliyatsizlik, haddan tashqari erkinlik natijasida o‘zini yo‘qotib qo‘yish belgilari kuzatilishi mumkin.

Bilimlardagi bo‘shliqlar- bola boshlang‘ich sinfda mavzularni o‘zlashtirishda kamchiliklarga yo‘l qo‘ygan bo‘lsa, endi 5- sinfga o‘tgach bu kamchiliklar yig‘ilib o‘z ta’sirini ko‘rsata boshlaydi. Bu davrda bolaning psixikasida bir qator murakkab o‘zgarishlar yuz beradi. Yangi bilimlar, atrof muhit haqidagi yangi tasavvurlar ta’sirida tushunchalar o‘zgaradi, tafakkuri rivojlanadi. Bolada endi xotira shunchaki eslab qolish bilan emas, balki tushinib esda saqlash shakliga, idrok esa shunchaki oddiy ko‘rish emas, fikrlash orqali anglash ko‘nikmasiga aylanadi. Refleksiya qobiliyati ham aynan shu davrdan shakillanadi, shu davrdan o‘zini, fikrlarini, his-tuyg‘ularini tushuna boshlaydi, tahlil qiladi. Natijada bola o‘zining shaxsiy fikriga ega bo‘la boshlaydi, o‘z qarashlari shakillanadi, o‘qishning ahamiyati haqida o‘zining fikrlari paydo bo‘la boshlaydi, endi bolada tashqi motivatsiyadan ko‘ra ichki motivatsiyaning ustunligi ko‘zga tashlanadi. Kognitiv jarayonlar bu davrda ham asosiy o‘rinda turadi. Endi ulardan ko‘proq natijalar talab qilinadi. O‘qituvchilar bolalardan mantiqiy fikrlashni, tushunchalarni yaxshiroq tushunishni, olgan bilimlarini vaziyatda qo‘llay olishni, chiroyli hamda mantiqli nutq ko‘nikmasini shakillantirishlarini talab qiladi. Kichik maktab yoshining oxirida bolada o‘zini boshqara olish, psixik jarayonlarni ixtiyoriy boshqarish ko‘nikmalari shakillangan bo‘lishi kerak. Keyinchalik bolaning faoliyatida o‘qish faoliyatidan tashqari qo‘shimcha ishlar qo‘shiladi. Bularning hammasi bolaning psixik shakillanishiga yordam beradi.

Psixologik-pedagogik adabiyotlar tahliliga e’tibor qaratsak, o‘rta maktabda muvaffaqiyatli o‘qiydigan 5-sinf o‘quvchisining “moslashuv portreti” quyidagicha tavsiflanadi[10]: boshlang‘ich maktab dasturini muvaffaqiyatli o‘zlashtirgan; yuqori o‘quv motivatsiyasiga ega, bilim olishga qiziqadi, ijodiy yondashadi, tirishqoq; tushunchaviy tafakkuri yetarli darajada rivojlangan, turli bilim sohalariga qiziquvchanlik namoyon qiladi; adekvat o‘z-o‘zini baholaydi va jamoada ijobiy mavqega ega; o‘z faoliyati natijalarini to‘g‘ri baholay oladi va boshqalarning ishiga ham xolis baho bera oladi; o‘zini tahlil qilishga qodir va boshqalarning xatti-harakatlari motivlarini tushunishga intiladi; xulq-atvori ixtiyoriy (o‘zini boshqara oladi).

Maktabga moslashuvning muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun asosiy omillardan biri sifatida shaxsiy tayyorgarlik ko‘rsatiladi. Shaxsiy tayyorgarlik elementlari quyidagilar: o‘quv faoliyatiga nisbatan yetarlicha barqaror ijobiy motivlar; adekvat o‘z-o‘zini baholash; xulq-atvorning ixtiyoriyligi va o‘quv faoliyatida o‘zini nazorat qilish rolini ortishi; yangi ta’lim sharoitlarida zarur bo‘lgan kommunikativ ko‘nikmalarning shakllanganligi kabi. O‘quvchining maktabga muvaffaqiyatli moslashuv mezonlari:

O‘quv faoliyatiga ijobiy motivatsiya mezonlari: o‘rta maktabda ta’lim olish maqsadi va zaruratini ma’lum darajada anglash; o‘qishga intilish; ta’lim muassasasi va maktab jamoasiga ijobiy munosabat.

Xulq-atvor ixtiyoriyligi mezonlari: mustaqillik (begona yordamisiz harakat qila olish); qat’iyatlilik (yuzaga keladigan qiyinchiliklarni yenga olish va ishni oxirigacha yetkazish); tashabbuskorlik; tashkilotchilik. Adekvat o‘z-o‘zini baholash mezonlari: o‘zi haqidagi umumlashgan bilimga asoslangan realistik baholash; o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri baholash; o‘z harakatlarini oldindan prognoz qila olish.

Kommunikativ ko‘nikmalar shakllanganligi mezonlari: dars jarayonida va undan tashqarida sinfdoshlar hamda pedagoglar bilan o‘quvchi roliga va shaxsiy ehtiyojlariga mos keluvchi adekvat rolli hamda shaxslararo munosabatlarni o‘rnata olish.

Yuqorida tavsiflangan mezonlarga asoslanib, shaxsiy tayyorgarlikning ikki darajasi ajratilgan: yetarli daraja, o‘rta maktabda muvaffaqiyatli ta’lim olish uchun yetarli bo‘lmagan daraja[10]. Yetarli shaklda o‘quvchida o‘quv faoliyatiga ijobiy motivatsiya mavjud, Xulq-atvorining ixtiyoriyligi, adekvat o‘z-o‘zini baholashning mavjudligi, kommunikativ ko‘nikmalar shakillangan bo‘ladi. Bun darajadagi o‘quvchi o‘rta maktabda muvaffaqiyatli o‘qishi bilan xarakterlanadi. Shaxsiy tayyorgarlikning yetarli bo‘lmagan shaklida esa bolada o‘quv motivatsiyasining pastligi, passivlik hamda mustaqillikning yetishmasligi, o‘ziga nisbatan adekvat bo‘lmagan baho, kommunikativ qobiliyatlarning sustligi bilan tavsiflanib, bunday o‘quvchilarning maktabdagi faoliyati muvaffaqiyatsiz kechishi kuzatiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, o‘quvchilarning o‘rta maktab bosqichiga o‘tishi murakkab psixologik jarayon hisoblanib, bu davrda bolada bilish jarayonlari bilan birgalikda shaxsiy xususiyatlarida ham qator o‘zgarishlar ro‘y beradi. Boladagi shaxsiy tayyorgarlik moslashuvning muvaffaqiyatli kechishini ta’minlovchi asosiy omillardan hisoblanadi. O‘quv faoliyati, talablarining o‘zgarganligi hisobiga o‘quvchidan mustaqillik, mas’uliyat, o‘zini nazorat qilish hamda refleksiyani shakillantirish talab etiladi. O‘qituvchilarga ushbu bosqichda individual yondashuvga asoslangan holda o‘quvchilarga psixologik-pedagogik yordam ko‘rsatishlari tavsiya etiladi. Umuman olganda moslashuvning muvaffaqiyatli kechishini ta’minlash uchun shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv orqali ta’limni tashkil etish, o‘quvchilardagi ichki motivatsiyani rivojlantirish, mustaqillik hamda xulq-atvorini boshqarish ko‘nikmalarini shakillantirish lozim.

Adabiyotlar:

1. Ерошкина А.В., Федотенко И.Л. Психолого-педагогические аспекты адаптации младших подростков к средней школе // Психология в пространстве образования и личностного развития: перспективные практики научного исследования и сотрудничества. 2024. 14–15 декабря. С. 86–88.

2. Литвиненко Н. В Характер межличностных отношений как показатель адаптированности школьников к образовательной среде // Современные проблемы науки и образования. 2015. № 2. С. 477. [Электронный ресурс]: URL: https://elibrary.ru/contents.asp?id=34107394

3. Research assessment package for schools (RAPS). Students supports and opportunities in school; engagement, believes about self and experiences of interpersonal support. Manuel for elementary and middle school assessments: Institute for Research and Reform in Education, inc, 1998. 147 p. [Электронный ресурс]: URL: http://irre.org/sites/default/files/publication_pdfs/ RAPS_manual_entire_1998.pdf

4. Belkina V.N. Ontogenetic aspect of child's social adaptation / V.N. Belkina, Yu.S. Proskuryakova // Yaroslavl Pedagogical Bulletin. 2005. No. 4. P. 87

5. Литвиненко Н.В. Адаптация школьников к образовательной среде в критические периоды развития: автореф.дисс. … д-ра психол. наук. Самара, 2009. 47 с.18-bet

6. Архиреева Т. В.Особенности адаптации к школе учащихся четвертых и пятых классов. Материалы Всероссийской научно-практической конференции. Псков, 2020

7. Коджаспиров Алексей Юрьевич. Формирование личностной готовности учащихся 10-12 лет школе. Москва - 2005

8. https://cris.maastrichtuniversity.nl/ws/files/51094220/c6748.pdf

9. Eroshina D.A. Psychological features of the period of adaptation of fifth graders. The importance of parental support / D.A. Eroshina // Socio-cultural and psychological problems of the modern family: topical issues of support and support: collection of materials of the VII International Scientific and Practical Conference, Tula, November 17, 2021. Cheboksary: Limited Liability Company "Publishing House "Wednesday", 2021. pp. 57-60.

10. Коджаспиров Алексей Юрьевич /Формирование личностной готовности учащихся 10-12 лет школе / Автореферат диссертации иа соискание учёной степени кандидата психологических наук-Москва - 2005. 28-17

INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING KREATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION USULLARI

Omonboyeva Meruyert Erkin qizi,
Navoiy davlat universiteti Maktabgacha va boshlang‘ich talim fakulteti
Boshlang’ich ta’lim kafedrasi o’qituvchisi
meruyerterkinovna8@gmail.com

Mazkur maqolada integrativ yondashuv asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ kompetensiyasini rivojlantirish muammosi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Kreativ kompetensiyaning tarkibiy tuzilmasi, uni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari hamda innovatsion metodlari ochib berilgan. Shuningdek, ta’lim jarayonida integratsiya tamoyilidan foydalanish orqali o‘qituvchilarning ijodiy tafakkuri, muammoli vaziyatlarni hal etish ko‘nikmalari va refleksiv faoliyati rivojlantirilishi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: *kreativ kompetensiya, integrativ yondashuv, innovatsion metodlar, boshlang‘ich ta’lim, pedagogik texnologiyalar, ijodiy tafakkur, refleksiya.*

ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ КРЕАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА

В данной статье научно-теоретически и практически анализируется проблема развития креативной компетенции будущих учителей начальных классов на основе интегративного подхода. Раскрываются структура креативной компетенции, педагогические условия её формирования, а также инновационные методы развития. Кроме того, обосновывается, что использование принципа интеграции в образовательном процессе способствует развитию творческого мышления учителей, формированию навыков решения проблемных ситуаций и рефлексивной деятельности.

Ключевые слова: *креативная компетенция, интегративный подход, инновационные методы, начальное образование, педагогические технологии, творческое мышление, рефлексия.*

INNOVATIVE METHODS FOR DEVELOPING CREATIVE COMPETENCE OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS BASED ON AN INTEGRATIVE APPROACH

This article analyzes the problem of developing the creative competence of future primary school teachers based on an integrative approach from both theoretical and practical perspectives. The structure of creative competence, the pedagogical conditions for its development, and innovative methods for fostering it are revealed. In addition, it substantiates that the use of the integration principle in the educational process contributes to the development of teachers’ creative thinking, problem-solving skills, and reflective activity.

Keywords: *creative competence, integrative approach, innovative methods, primary education, pedagogical technologies, creative thinking, reflection.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimi jamiyatning tezkor rivojlanishi, axborot texnologiyalarining keng joriy etilishi hamda ta’lim jarayonining yangicha yondashuvlarni talab qilishi bilan tavsiflanadi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida faoliyat yurituvchi o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalari, jumladan kreativ kompetensiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi nafaqat bilim beruvchi, balki o‘quvchilarda ijodiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va muammoli vaziyatlarni hal etish ko‘nikmalarini shakllantiruvchi shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Bugungi kunda ta’lim jarayonida integrativ yondashuvdan foydalanish pedagogik jarayon samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Integrativ yondashuv turli fanlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ta’minlash, bilimlarni kompleks ravishda o‘zlashtirish hamda talabalarning ijodiy va tanqidiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ kompetensiyasini rivojlantirishda integrativ yondashuv asosida innovatsion metodlardan foydalanish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativ kompetensiyani rivojlantirishda **integrativ yondashuv** muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Ushbu yondashuv turli fanlararo aloqalarni ta’minlab, bilimlarni yagona tizimda shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Kreativlik va kreativ kompetensiya muammosi ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan o‘rganilgan. Jumladan:

Mahalliy tadqiqotchilar esa kreativlikni pedagogik kompetensiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida ko‘rib chiqadilar.

Asosiy qism. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ kompetensiyasini rivojlantirish zamonaviy pedagogik ta’limning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Kreativ kompetensiya o‘qituvchining yangicha g‘oyalarni ilgari surish, pedagogik muammolarni nostandart usullar orqali hal etish, ta’lim jarayonini samarali tashkil etish hamda o‘quvchilarda ijodiy fikrlashni shakllantirish qobiliyatini ifodalaydi. Shu jihatdan, pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida kreativ kompetensiyani shakllantirish uchun innovatsion metodlar va integrativ yondashuvlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Integrativ yondashuv ta’lim jarayonida turli fanlar va bilim sohalari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Bu yondashuv orqali talabalarning bilimlari tizimli ravishda shakllanadi, ular o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida pedagogika, psixologiya, metodika hamda axborot texnologiyalarini o‘zaro integratsiya qilish ularning kreativ kompetensiyasini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni talabalarda muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, mustaqil qaror qabul qilish va yangicha pedagogik g‘oyalarni ishlab chiqish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Kreativ kompetensiya bir necha tarkibiy komponentlardan iborat bo‘lib, ular kognitiv, faoliyatli, motivatsion va refleksiv komponentlarni o‘z ichiga oladi. Kognitiv komponent talabalarning nazariy bilimlari va kreativ fikrlashga oid tushunchalarni egallashini ifodalaydi. Faoliyatli komponent esa o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llash, innovatsion metodlardan foydalanish hamda pedagogik vaziyatlarni ijodiy hal etish bilan bog‘liqdir. Motivatsion komponent talabalarning kasbiy faoliyatga bo‘lgan qiziqishi, ijodiy yondashuvga intilishi va o‘z ustida ishlashga bo‘lgan ichki ehtiyojini ifodalaydi. Refleksiv komponent esa o‘z faoliyatini tahlil qilish, xatolarni aniqlash va ularni bartaraf etish orqali o‘zini rivojlantirish jarayonini o‘z ichiga oladi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ kompetensiyasini rivojlantirishda innovatsion metodlardan samarali foydalanish muhim hisoblanadi. Jumladan, muammoli ta’lim, loyiha metodi, “aqliy hujum”, klaster, “case-study” hamda interaktiv pedagogik texnologiyalar kreativ fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu metodlar talabalarning mustaqil fikrlashi, muammolarni tahlil qilishi va yangi g‘oyalarni ilgari surishiga imkon yaratadi. Masalan, loyiha metodi orqali talabalar muayyan pedagogik muammoni o‘rganib, uning yechimi bo‘yicha ijodiy takliflar ishlab chiqadi. Bu jarayon esa ularning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan birga, kreativ kompetensiyasini ham shakllantiradi. Shuningdek, raqamli texnologiyalardan foydalanish ham bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ kompetensiyasini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Zamonaviy ta’lim platformalari, multimedia vositalari, virtual laboratoriyalar hamda onlayn ta’lim resurslari talabalarning ijodiy faoliyatini faollashtiradi. Raqamli muhitda ishlash orqali ular yangi pedagogik g‘oyalarni ishlab chiqish, o‘quv jarayonini innovatsion usullar asosida tashkil etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Demak, integrativ yondashuv asosida innovatsion metodlardan foydalanish bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ kompetensiyasini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida, ta’lim jarayonining sifatini oshirish, o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish hamda zamonaviy talablarga javob beradigan malakali pedagog kadrlarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kreativ kompetensiya - pedagogning yangi g‘oyalarni ishlab chiqish, muammolarni noodatiy hal etish va innovatsion faoliyat yuritish qobiliyatidir. U quyidagi komponentlardan iborat:



Integrativ yondashuvning mohiyati

Integrativ yondashuv – turli fanlar, metodlar va faoliyat turlarini o‘zaro bog‘lash orqali ta’lim samaradorligini oshirishga qaratilgan tizimdir.Yondashuv:
➢bilimlarni yaxlit shakllantiradi;
➢kreativ tafakkurni rivojlantiradi;
➢muammoli vaziyatlarda moslashuvchanlikni oshiradi.

3. Kreativ kompetensiyani rivojlantirishning innovatsion usullari

Muammoli ta’lim (Problem-based learning). Talabalarga real hayotiy vaziyatlar berilib, ularni mustaqil hal qilish talab etiladi. Bu usul kreativ fikrlashni rivojlantiradi.

Loyihaviy faoliyat (Project-based learning). Talabalar mustaqil loyiha ishlab chiqadi. Bu jarayonda:tahlil qilish,rejalashtirish, ijodiy yechim topish rivojlanadi.

STEAM yondashuvi. Fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematikaning integratsiyasi orqali kreativlik shakllantiriladi.

Brainstorming (Aqliy hujum). Erkin fikr almashish orqali yangi g‘oyalar yaratiladi.

Rol o‘ynash (Role play). Talabalar turli pedagogik vaziyatlarni sahnalashtiradi va ijodiy yechim topadi.

Case-study texnologiyasi. Aniq vaziyatlar tahlili orqali muammoli fikrlash rivojlanadi.

Kreativ kompetensiyani rivojlantirish uchun erkin va ijodiy muhit yaratish,motivatsiyani oshirish,individual yondashuv,zamonaviy texnologiyalardan foydalanish,refleksiya jarayonini tashkil etish muhim. Tadqiqot natijalariga ko‘ra:integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan darslar talabalar kreativligini sezilarli oshiradi,innovatsion metodlar o‘qituvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi,refleksiya orqali o‘z-o‘zini rivojlantirish kuchayadi.

Xulosa: ulosa qilib aytganda, zamonaviy ta’lim tizimida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ kompetensiyasini rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Kreativ kompetensiya o‘qituvchining pedagogik faoliyatda yangicha g‘oyalarni ilgari surishi, ta’lim jarayonini samarali tashkil etishi hamda o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida kreativ fikrlashni shakllantirishga alohida e’tibor qaratish zarur. Integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini, xususan kreativ kompetensiyasini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Turli fanlararo integratsiya, innovatsion pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlardan foydalanish talabalarning mustaqil fikrlashini, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va ularning yechimlarini topish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, muammoli ta’lim, loyiha metodi, “aqliy hujum”, “case-study” kabi innovatsion metodlar hamda raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy faoliyatini faollashtirishga xizmat qiladi. Bu jarayon talabalarning refleksiv faoliyatini rivojlantirish, o‘z pedagogik faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish imkoniyatini yaratadi. Integrativ yondashuv asosida innovatsion metodlardan foydalanish bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ kompetensiyasini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijada ta’lim jarayonining sifati oshadi, zamonaviy talablarga mos, ijodiy fikrlaydigan va yuqori malakali pedagog kadrlarni tayyorlash imkoniyati kengayadi.

Adabiyotlar:

1. Avliyakulov N.H. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012.

2.Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.

3.Muslimov N.A. Kasbiy kompetentlik va uni shakllantirish texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.

4.Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2011.

5.Begimqulov U.Sh. Ta’lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. – Toshkent: Fan, 2010.

6.Akhmedova M.E. Research and application of textbooks in tutorials and manuals of higher education // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, Xindiston, January 2022, Vol. 12, Issue 01, Pages: 165- 172.

7.Muminov K.A. Methods for Enhancing the Educational Process at Institutions of Higher Learning Based on Foresight Technologies. // Current Approaches and New Research in Modern Sciences, International Scientific Online Conference. – 2025-yil, 27-yanvar. – P. 127–133. DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.14748452.

БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ УМУМИЙ ВА ЖИСМОНИЙ РИВОЖЛАНИШИНИНГ МУХИМ ХУСУСИЯТЛАРИ

Исоқов Жамшид Зикруллаевич,
ЖДПУ жисмоний тарбия ва спорт факултети ўқитувчиси

Ушбу мақолада бошланғич синф ўқувчиларининг умумий ва жисмоний ривожланишининг муҳим хусусиятлари таҳлил қилинган. Болалар организмининг ёшга хос физиологик ва психологик жиҳатлари, жисмоний тарбиянинг ўқувчилар соғлом ўсишидаги аҳамияти ёритилган. Шунингдек, ҳаракат фаоллиги, соғлом турмуш тарзи ва жисмоний машқларнинг болаларнинг интеллектуал ҳамда ижтимоий ривожланишига таъсири ҳақида фикр юритилган. Кичик мактаб ёши даврида болани жисмоний фаолиятга йўналтириш, тана аъзоларининг ривожланиши, 7-10 ёш оралиғи, замонавий дарс ва методлар ҳақида гап боради.

Калит сўзлар: *Кичик мактаб ёши, индивидуал қизиқишлар, мотивация, тана аъзолари, орқа мия, жисмоний қобилият, замонавий дарс.*

ВАЖНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ОБЩЕГО И ФИЗИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

В данной статье рассматриваются важные особенности общего и физического развития учащихся начальных классов. Освещаются возрастные физиологические и психологические особенности детей, а также значение физического воспитания в обеспечении их здорового роста. Кроме того, анализируется влияние двигательной активности, здорового образа жизни и физических упражнений на интеллектуальное и социальное развитие детей. В статье рассказывается о направленности ребенка на двигательную активность, развитии частей тела, возрастном диапазоне 7-10 лет, современных занятиях и методиках.

Ключевые слова: *Младший школьный возраст, индивидуальные интересы, мотивация, части тела, спинной мозг, физические возможности, современный урок.*

IMPORTANT FEATURES OF THE GENERAL AND PHYSICAL DEVELOPMENT OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS

This article analyzes the important features of the general and physical development of primary school students. It highlights the age-specific physiological and psychological characteristics of children, as well as the role of physical education in ensuring their healthy growth. The study also discusses the influence of physical activity, a healthy lifestyle, and physical exercises on children’s intellectual and social development. The article talks about directing a child to physical activity, development of body parts, age range of 7-10 years, modern lessons and methods.

Key words: *Junior school age, individual interests, motivation, body parts, spinal cord, physical ability, modern lesson.*

Жамиятимизда соғлом турмуш тарзини шакллантириш, аҳолининг, айниқса ёш авлоднинг жисмоний тарбия ва оммавий спорт билан мунтазам шуғулланиши учун замон талабига айланиб улгурди. Жисмоний тарбия болалар тарбиясида ўзига хос алоҳида ўрин эгаллайди. Шу ўринда болаларнинг жисмоний чиниққанлигини ва соғлигини яхшилаш ҳамда уларнинг жисмоний сифатларини оширишда катта ахамият касб этади

Мактабнинг бошланиши билан боғлиқ ҳаёт тарзидаги ўзгаришлар, шунингдек, ҳаракат аппаратларининг тўлиқ шаклланмаган жараёни ёш ўқувчиларнинг жисмоний машқларини бажартиришда эҳтиёт бўлишни талаб қилади. Чекловлар, куч-қувват машқлари, машғулотларга чидамлилик юкламалари ва индивидуал машғулотлар учун вақт сарфлаш билан боғлиқ бўлади. Ушбу даврда жисмоний машқлар, шу жумладан спортга индивидуал қизиқишлар ва мотивациялар шаклланади.

Кичик мактаб ёши - бу тананинг ўсиши ва ривожланишидаги энг муҳим даврлардан бири, боланинг моторли (ҳаракат) мувофиқлаштиришини шакллантиришдаги энг муҳим давр саналади. Бу ёшда ҳаракатлар маданиятининг асослари қўйилади, янги, илгари номаълум бўлган машқлар ва ҳаракатлар, жисмоний тарбия билимлари муваффақиятли ўзлаштирилади.

Кичик мактаб ёшида боланинг спорт машқлари, усуллар ва ҳаракатлари техникасини эгаллаш орқали унинг жисмоний қобилиятларини ўстиришга қизиқишини тарбиялаш лозим. Кичик мактаб ёшидаги болаларнинг жисмоний тайёргарлигининг асосий йўналиши бу уларнинг ҳаракатлар уйғунлигини ривожлантиришдир. Давр охирида болани унинг қобилиятига ва қизиқишига мос келадиган спортга ёки жисмоний фаолиятга йўналтириш тавсия этилади.

Болаларнинг ҳаракатлар техникасини ўзлаштириш қобилияти шу қадар каттаки, кўплаб янги ҳаракат (моторли) кўникмалари махсус қўлланмаларсиз қўлга киритилади. Кичик мактаб ўқувчиларининг ўрганиш хусусиятларини тадқиқ этиш шуни кўрсатдики, уларда ўсмирлар ва ёшларга қараганда спорт машқлари техникасининг асосий элементларини ўзлаштириш анча тез кечади. Шунингдек, болалар ҳаракатнинг ритмик ва куч тимсолини ўзларининг сезги, ҳис-туйғу ва умумлашган таасуротлари орқали қабул қиладилар, кам ҳолларда – “англаган”, тушунган ҳолда ҳаракат техникасини ўзлаштириб оладилар. Ушбу ҳодиса, бизнингча, ушбу ёш даврида яхлит машқларни ўргатиш уни элементларга бўлиб ўрганишдан кўра кўпроқ муваффақиятли эканлиги билан изоҳланади. Шу сабабли, болалар деярли мустақил равишда, фақатгина “буни қандай қилиш кераклигини” кузатиб, чанғида, конкида учишни, велосипедда юришни ўрганишлари, тўпни, ракеткани ишлатишни ҳамда спорт ва ўйин қобилиятларини намойиш этишлари мумкин.

Умумий жисмоний тайёргарликни мувофиқлаштириш қобилиятининг жадал ўсишини таъминлашга қаратилган тарбиялаш режими, бола ҳаётнинг ушбу даврида унинг ҳаракат потенциали ривожланишини таъминлайди ва мослашиш қобилиятини оширади.

Болаларда 7 ёшдан 10 ёшгача жисмоний фаолликнинг айрим турларига қизиқиш ва мойиллик вужудга келади, айрим спорт турларига мойиллиги ошади. Ва бу мактаб ўқувчиларини жисмоний тарбия ва спортга йўналтириш ҳамда уларнинг ҳар бирини жисмоний соғломлаштиришнинг энг мақбул йўлини аниқлашларига шароит яратади.

Кичик мактаб ёши 6-7 ёшдан 11 ёшгача бўлган болаларни қамраб олади (I – IV синфлар). Бу ёшда боланинг ҳаракат (мотор) фаоллигини таъминлайдиган тизимларнинг анатомик ва физиологик камолотига эришилади. Бироқ, даврнинг бошида, бу тизимлар ҳали етук эмас, ҳаракат (моторика) ривожланиши жараёни, гарчи у бу ёшда юқори интенсивлик билан давом этса-да ҳали тўлиқ эмас.

Кичик мактаб ёши мушак-ҳаракат тизимининг нисбатан бир текис ривожланиши билан ажралиб туради, аммо индивидуал ўлчовли белгиларнинг ўсиш тезлиги ҳар хил. Шундай қилиб, бу даврда тананинг узунлиги унинг массасидан каттароқ бўлади. 5-7 ёшдан 10-11 ёшгача оёқларнинг узунлиги тананинг ўсиш тезлигидан ошиб, узунроқ бўлади.

Кичик мактаб ёши тананинг ўсиши ва ривожланишидаги муҳим даврлардан биридир. Болаларнинг суяк ва скелет мушакларида жуда кўп органик моддалар ва сув бор, аммо минераллар кам. Мушак-боғловчи аппаратларнинг осонгина кенгайтирилиши болага яхши мослашувчанликни беради, аммо суякларнинг нормал жойлашишини таъминлаш учун кучли “мушак корсетини” ярата олмайди. Натижада скелетнинг деформацияси, тананинг ва оёқ-қўлларнинг ассиметриясининг ривожланиши, текис оёқларнинг (плоскостопия) пайдо бўлиши мумкин. Бу болаларнинг нормал ҳолатини ташкил қилиш ва жисмоний юкламадан фойдаланишга алоҳида эътибор беришни талаб қилади. Ўзгаришлар ривожланишнинг барча даражаларида содир бўлади. Боланинг жисмоний ва руҳий соғлиғини мустаҳкамлаш давом этади. Тананинг барча аъзолари ва тўқималарида сезиларли ўзгаришлар қайд этилади, умуртқа поғонасининг шаклланиши давом этди.

Орқа мия 8-9 йилгача катта ҳаракатчанликни сақлайди. Тадқиқотлар шуни кўрсатадики, кичик мактаб ёши барча асосий бўғинларда ҳаракатчанликни йўналтириш учун энг қулай даврдир. Ушбу ёшдаги болаларнинг бўғинлари жуда ҳаракатчан, боғлаш аппарати эластик, скелет жуда кўп миқдорда кемирчакка (тоғайга) эга. Бошланғич синф ўқувчиларининг мушакларида юпқа толалар бор, улар озгина протеин (оқсил) ва ёғни ўз ичига олади. Бундай ҳолда, чеклиликларнинг катта мушаклари кичикларга қараганда кўпроқ ривожланади.

Бу ёшда асаб тизимининг морфологик ривожланиши деярли якунланади, асаб ҳужайраларининг ўсиши ва таркибий фарқланиши тугайди. Аммо асаб тизимининг ишлаши қўзғалиш жараёнларининг устунлиги билан ажралиб туради.

Кичик мактаб ёшида жисмоний сифатларнинг деярли барча кўрсаткичлари жуда юқори ўсиш суръатларини намойиш этади. Фақатгина истисно сифатида эгилувчанлик кўрсаткичини кўрсатиш мумкин, бу даврда унинг ўсиш суръати пасайишни бошлайди.

7-10 ёшда, шунингдек, бола ҳаракатларининг биологик динамикаси ва биринчи навбатда уларнинг координацион (мувофиқлаштириш) компонентининг жадал ривожланиши кузатилади.

Шундай қилиб, 7 ёшдан 10 ёшгача бўлган ёш оралиғи инсоннинг ҳаракат (мотор) фаолиятида мавжуд бўлган деярли барча ҳаракат ва мувофиқлаштириш қобилиятларини ривожлантириш учун энг қулай давр саналади.

Жисмоний тарбия амалиётида бола организми функционал имкониятлари кўрсаткичлари жисмоний юкламани танлашда, ҳаракат фолиятида, организмга таъсир методларини танлашда бош мезон ҳисобланади.

Кичик мактаб ёшидаги болалар учун юқори жисмоний фаолиятга эҳтиёж табиийдир. Инсон кундалик ҳаёт жараёнида шахс томонидан амалга оширилган ҳаракатлари умумий сони унинг ҳаракат фаоллиги саналади. Ёз пайтларида эркин режим билан кунига 7 ёшдан 10 ёшгача бўлган болалар 12 дан 16 минггача ҳаракатни амалга оширадилар. Қизларнинг табиий кундалик фаоллиги ўғил болаларникига қараганда 16-30% паст. Қизлар камроқ даражада ўзларининг ҳаракат фаолликларини намойиш этадилар ва жисмоний тарбиянинг ташкиллаштирилган шаклларига кўпроқ эҳтиёж сезадилар. Йилнинг баҳор ва куз даврлари билан таққослаганда қишда болаларнинг ҳаракат фаоллиги 30 - 45 фоизга пасаяди. Мактабгача таълимдан 6-7 ёшгача бўлган болалар учун мактабда тизимли ўқитишга ўтиш билан уларнинг жисмоний фаоллиги ҳажми 50 фоизга камаяди.

Ўқув даврида мактаб ўқувчиларининг ҳаракат (мотор) фаоллиги синфдан синфга ўтиш даврида ўсмайди, балки тобора пасайиб боради. Шу сабабли, болаларнинг ёши ва соғлиғига қараб, кунлик ҳаракат фаолиятининг етарли миқдорини олиш жуда муҳимдир.

Бошланғич синф ўқувчилари жисмоний тарбиясининг асосий вазифалари: сарасига қуйидагилар киради:

1) саломатликни яхшилаш, қад-қоматни тўғри тутиш, текис оёқлиликнинг олдини олиш, баркамол жисмоний ривожланишни рағбатлантириш, уларнинг ноқулай атроф-муҳит шароитларига қаршиликларини ривожлантириш;

2) турли хил ҳаётий ҳаракатлар асосларини эгаллаш;

3) координацияни (мувофиқлаштиришни) ривожлантириш (ҳаракат-ларнинг фазовий, вақтинча ва куч параметрларини кўпайтириш ва фарқлаш, мувозанат, ритм, сигналларга жавоб тезлиги ва аниқлиги, ҳаракатларни мувофиқлаштириш, маконга йўналтириш) ва шартли (тезлик, тезлик-кучлилик, чидамлилик ва эгилувчанлик) қобилиятлари;

4) шахсий гигиена, кундалик тартиб, жисмоний машқларнинг саломатликка, меҳнат қобилиятига ва ҳаракат қобилиятини ривожлантиришга оид асосий билимларни шакллантириш;

5) спортнинг асосий турлари, уларда ишлатириладиган қобиқ ва жиҳозлар, машғулотлар пайтида хавфсизлик қоидаларига риоя қилиш ҳақида тавсияларни ишлаб чиқиш;

6) мустақил жисмоний машқлар, очиқ ўйинлар, улардан бўш вақтларда фойдаланиш, жисмоний фаолиятнинг айрим турларига қизиқишларини шакллантириш ва айрим спорт турларига мойиллигини аниқлаш;

7) интизом тарбияси, ўртоқларга дўстона муносабат, ҳалоллик, сезгирлик, жисмоний машқларни бажариш пайтида жасорат; ҳаракат фаолияти давомида ақлий жараёнлар (тасаввур, хотира, тафаккур ва бошқалар) ривожланишини рағбатлантириш кабилардир.

Замонавий дарснинг энг муҳим талаби ўқувчиларнинг соғлиғи, жинси, жисмоний ривожланиши, жисмоний тайёргарлиги, ақлий хусусиятлари ва фазилатларининг ривожланиш хусусиятларининг гигиена меъёрларига мувофиқлигини ҳисобга олган ҳолда ўқувчиларга табақалаштирилган ва индивидуал ёндашувни таъминлашдир.

Тадқиқот натижалари шуни кўрсатдики, бошланғич синф ўқувчиларининг жисмоний фаоллиги уларнинг умумий ривожланиши, фикрлаш қобилияти ва соғлом турмуш тарзини шакллантиришда муҳим аҳамиятга эга. Мунтазам жисмоний машқлар болаларнинг чаққонлиги, чидамлилиги ва ҳаракат кўникмаларини ривожлантириб, уларнинг дарсларга бўлган қизиқиши ва фаоллигини оширади. Бошланғич таълим жараёнида жисмоний тарбия машғулотларини замонавий педагогик технологиялар асосида ташкил этиш ўқувчиларнинг нафақат жисмоний, балки психологик ва ижтимоий ривожланишига ҳам ижобий таъсир кўрсатади. Шу сабабли таълим муассасаларида соғлом турмуш тарзини тарғиб қилиш, ҳаракатли ўйинлар ва спорт машғулотларига кенгроқ ўрин бериш муҳим ҳисобланади.

Ҳаракатлантирувчи фаолиятга ўргатишда яхлитлик услубига устунлик бериш лозим. Бунда машқларни тўғри номлаш, уларни аниқ намойиш этиш ва хатоларни ўз вақтида тузатиш жуда муҳимдир. Кичик мактаб ўқувчиларининг ҳаракат фаолиятларида машқ қилиш ва жисмоний қобилиятларини ривожлантириш бир-бири билан чамбарчас боғлиқ. Дарс жараёнида ҳаракат кўникмаларини ўргатишда мувофиқлаштириш ва чиниқтириш қобилиятларини ривожлантириш яхши ташкиллаштирилган педагогик жараёнидан дарак беради. Кичик мактаб ёшида ўқувчиларнинг

жисмоний қобилиятларини ривожлантиришда стандарт-қайтариш ва вариатив (ўзгарувчан) машқлар методига эътиборни қаратиш зарур. Ўқувчилар ҳарактларни ўзига ишонган ҳолда бажаришни бошлашса, стандарт-қайтариш машқлар методи ўрнини вариатив машқлар эгаллаши керак, бу ўз ўрнида ўйин ва мусобақа методини қўллаш имконини беради.

Кичик мактаб ёшдаги болаларда, иложи борича, сиқилиш (нафасни ушлаб туриш) билан боғлиқ бўлган муҳим статик босимли машқлар чиқариб ташланиши керак.

Жисмоний тарбия ҳар бир бола учун ёқимли ва қониқарли жараён (кечинма) бўлиши керак. Бошланғич синф ўқувчилари шахсининг ўзига хослиги - ҳаракат ва мувофиқлаштириш қобилиятини ривожлантиришда сезувчанлик, фаол ижтимоий субъект сифатида боланинг яхлит шахсий ривожланиши учун салоҳиятининг сифат жиҳатдан янги даражасида жисмоний маданият дарсларида амалга ошириш – ҳаракат кўникмаларини шакллантиришга индивидуал ёндашув, ўқувчиларнинг командада ишлаши, эстетик элемент, физкультура ва спорт этикаси қоидаларидан болаларнинг жисмоний ва шахсий сифатларини шакллантиришда комплекс фойдаланишни тақозо қилади.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 25 январдаги ПФ-5313-сон “Умумий ўрта, ўрта махсус, касб-ҳунар таълими тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармони.

2. 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сон “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги фармони.

3. Абдуллаев Я.М. Развитие физического воспитания подрастающего поколения в непрерывном образовании // Молодой ученый. — 2012. — №11. — С. 381-383.

4. Абдурахманова А.А., Косимова В.С. Факторы, влияющие на качество физического воспитания студентов высших учебных заведений// Проблемы науки 2019.№ 4 (40).

5. Абукаров Д.Н. Современные образовательные технологии на уроках физической культуры https://nsportal.ru/shkola/fizkultura-i-sport/library/2017/10/17/doklad-po-fizicheskoy-kulture-na-temu-sovremennye

6. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. - Ташкент, 2003. – 192 с.

MAKTABGACHA TA’LIMNING MAQSAD VA VAZIFALARI HAMDA BOLALARDA TAYANCH KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Navotova Dilnoza Ibrogimovna,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsenti
Suyarova Orzigul Sodiq qizi,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti magistranti

Maqolada maktabgacha ta’limning maqsad va vazifalari hamda bolalarda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari tahlil qilingan. Tadqiqotda kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan va faoliyatga asoslangan yondashuvlar nuqtai nazaridan maktabgacha ta’limning mazmun-mohiyati yoritilgan. Shuningdek, kommunikativ, ijtimoiy-hissiy, bilish, o‘z-o‘zini boshqarish va ijodiy kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik omillari ochib berilgan. Ilmiy manbalar tahlili natijasida kompetensiyaviy yondashuv bolalarning har tomonlama rivojlanishi, ijtimoiy moslashuvi va keyingi ta’lim bosqichlariga tayyorlanishida muhim ahamiyatga ega ekanligi asoslandi. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta’lim tizimida kompetensiyalarni rivojlantirishning nazariy asoslarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, tayanch kompetensiyalar, kompetensiyaviy yondashuv, bolalar rivojlanishi, kommunikativ kompetensiya, ijtimoiy-hissiy kompetensiya, bilish kompetensiyasi, ijodiy kompetensiya, pedagogik yondashuv, rivojlantiruvchi ta’lim.

ЦЕЛИ И ЗАДАЧИ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ, А ТАКЖЕ ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ КЛЮЧЕВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У ДЕТЕЙ

В статье проанализированы цели и задачи дошкольного образования, а также теоретико-методологические основы развития ключевых компетенций у детей. На основе компетентностного, личностно-ориентированного и деятельностного подходов раскрыта сущность современного дошкольного образования. Особое внимание уделено формированию коммуникативной, социально-эмоциональной, познавательной, управленческой и творческой компетенций у детей дошкольного возраста. Результаты исследования показывают, что компетентностный подход является важным фактором всестороннего развития ребенка, его успешной социализации и подготовки к последующим этапам образования. Полученные выводы могут быть использованы для совершенствования теоретических основ развития компетенций в системе дошкольного образования.

Ключевые слова: дошкольное образование, ключевые компетенции, компетентностный подход, развитие детей, коммуникативная компетенция, социально-эмоциональная компетенция, познавательная компетенция, творческая компетенция, педагогический подход, развивающее обучение.

THE GOALS AND OBJECTIVES OF PRESCHOOL EDUCATION AND THE THEORETICAL-METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING KEY COMPETENCIES IN CHILDREN

The article examines the goals and objectives of preschool education and the theoretical and methodological foundations for developing key competencies in children. The study reveals the essence of modern preschool education through competency-based, learner-centered, and activity-oriented approaches. Particular attention is paid to the development of communicative, socio-emotional, cognitive, self-management, and creative competencies in preschool children. The findings indicate that the competency-based approach plays a significant role in children's holistic development, social adaptation, and preparation for further stages of education. The results contribute to improving the theoretical foundations of competency development within the preschool education system.

Keywords: preschool education, key competencies, competency-based approach, child development, communicative competence, socio-emotional competence, cognitive competence, creative competence, pedagogical approach, developmental education.

Kirish. Maktabgacha ta’lim insonning butun hayoti davomida kechadigan ta’lim jarayonining dastlabki va eng muhim bosqichi hisoblanadi. Mazkur davrda bolaning jismoniy, intellektual, emotsional va ijtimoiy rivojlanishining asoslari shakllanadi. Psixolog va pedagog olimlarning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, shaxsning keyingi rivojlanish bosqichlaridagi muvaffaqiyati ko‘p jihatdan maktabgacha yosh davrida egallangan bilim, ko‘nikma, qadriyat va kompetensiyalarga bog‘liq.

Globallashuv, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi hamda mehnat bozorida yuz berayotgan o‘zgarishlar ta’lim tizimi oldiga yangi talablarni qo‘ymoqda. Shu sababli zamonaviy maktabgacha ta’lim faqat bilim berishga emas, balki bolalarda hayotiy kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilmoqda. Ushbu yondashuv bolaning kundalik hayotiy vaziyatlarda bilim, ko‘nikma va tajribalaridan samarali foydalana olishini ta’minlashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tizimini modernizatsiya qilish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlarda ham bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlash, ularda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish hamda xalqaro standartlarga mos rivojlantiruvchi ta’lim muhitini yaratish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Mazkur maqolaning maqsadi maktabgacha ta’limning maqsad va vazifalarini nazariy jihatdan tahlil qilish, bolalarda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishning ilmiy-metodologik asoslarini yoritish hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlarning mazkur jarayondagi ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Tadqiqotning metodologik asosini tizimli, kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan va faoliyatga asoslangan yondashuvlar tashkil etdi. Tadqiqot jarayonida ilmiy-nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, umumlashtirish hamda interpretatsiya metodlaridan foydalanildi.

Maktabgacha ta’limning nazariy asoslari pedagogika va rivojlanish psixologiyasining fundamental konsepsiyalariga tayanadi. Xususan, J. Piaget bolalarning bilish faoliyatini kognitiv rivojlanish bosqichlari orqali izohlab, maktabgacha yosh davrini tafakkurning intensiv shakllanish bosqichi sifatida tavsiflagan. L.S. Vygotskiy esa bolaning rivojlanishida ijtimoiy muhit va kattalar bilan hamkorlikning hal qiluvchi ahamiyatini asoslab bergan.

Zamonaviy ta’lim nazariyasida kompetensiyaviy yondashuv alohida o‘rin tutadi. UNESCO, UNICEF va OECD tashkilotlari tomonidan ishlab chiqilgan hujjatlarda XXI asr ko‘nikmalari, kommunikativ kompetensiyalar, tanqidiy fikrlash, kreativlik va hamkorlik ko‘nikmalarini maktabgacha yoshdan boshlab rivojlantirish zarurligi ta’kidlanadi.

Mahalliy olimlardan Sh.A.Sodiqova, F.R.Qodirova, O.Hasanboyeva va boshqa tadqiqotchilar maktabgacha ta’limda kompetensiyaviy yondashuvni joriy etishning pedagogik shart-sharoitlarini o‘rganib, rivojlantiruvchi muhit, o‘yin texnologiyalari va integrativ ta’limning muhimligini asoslab berganlar.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar maktabgacha ta’limning asosiy maqsadi bolani maktabga tayyorlash bilangina cheklanmasdan, uning shaxsiy salohiyatini to‘liq namoyon etish va hayotiy kompetensiyalarini rivojlantirishdan iborat ekanligini ko‘rsatadi.

Tahlil va natijalar. Nazariy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha ta’limning asosiy maqsadi bolaning jismoniy, aqliy, ijtimoiy-hissiy va ma’naviy rivojlanishini kompleks ravishda ta’minlashdan iboratdir. Zamonaviy pedagogik konsepsiyalarda maktabgacha ta’lim bolaning keyingi ta’lim bosqichlariga tayyorlanish jarayoni sifatida emas, balki uning shaxs sifatida shakllanishining mustaqil va muhim davri sifatida talqin qilinadi. Shu sababli bugungi kunda ta’lim mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish dolzarb pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari kompetensiyaviy yondashuvning maktabgacha ta’lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini ko‘rsatdi. Mazkur yondashuv asosida bola faqat bilimlarni o‘zlashtiruvchi subyekt emas, balki faol ishtirokchi, mustaqil fikrlovchi va amaliy faoliyatda o‘z imkoniyatlarini namoyon etuvchi shaxs sifatida qaraladi. Shu jihatdan kompetensiyalar bolaning kundalik hayotiy vaziyatlarda o‘z bilim va ko‘nikmalarini qo‘llash qobiliyatini ifodalaydi.

Tahlillar natijasida maktabgacha yoshdagi bolalarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar bir-biri bilan uzviy bog‘liq ekanligi aniqlandi. Xususan, kommunikativ kompetensiya bolaning tengdoshlari va kattalar bilan samarali muloqot o‘rnatishiga xizmat qiladi. Mazkur kompetensiya nutq madaniyati, tinglash, fikr almashish va o‘z pozitsiyasini ifodalash ko‘nikmalarining rivojlanishiga asos bo‘ladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kommunikativ kompetensiyaning yuqori darajada rivojlanishi bolaning ijtimoiy moslashuvini yengillashtiradi hamda keyingi ta’lim bosqichlarida muvaffaqiyatga erishish ehtimolini oshiradi.

Ijtimoiy-hissiy kompetensiya esa bolaning hissiyotlarini anglash va boshqarish, boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunish, hamkorlik qilish hamda jamoada faoliyat yuritish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Mazkur kompetensiyaning shakllanishi bolalarda empatiya, bag‘rikenglik, mas’uliyat va ijtimoiy faollik kabi sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, maktabgacha yosh davrida ijtimoiy-hissiy rivojlanish bolaning psixologik barqarorligini ta’minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Bilish kompetensiyasi bolalarning atrof-muhitni o‘rganish, kuzatish, taqqoslash, tahlil qilish va muammoli vaziyatlarni hal etish qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari ko‘rsatishicha, bilish kompetensiyasining rivojlanishi bolaning mantiqiy tafakkuri, qiziquvchanligi va ijodiy faolligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu sababli zamonaviy ta’lim jarayonida tadqiqot elementlari, tajribalar va kuzatish metodlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘z-o‘zini boshqarish kompetensiyasi bolaning mustaqil faoliyat yuritishi, maqsad qo‘yishi, faoliyatini rejalashtirishi va natijalarini baholashi bilan bog‘liq. Mazkur kompetensiya keyinchalik o‘quv faoliyatining muvaffaqiyatli tashkil etilishida muhim omil hisoblanadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalarda mustaqillikni qo‘llab-quvvatlash va ularga tanlov imkoniyatlarini yaratish ushbu kompetensiyaning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ijodiy kompetensiya bolaning yangi g‘oyalar yaratishi, nostandart fikrlashi va o‘z imkoniyatlarini erkin namoyon etishiga xizmat qiladi. Rasm chizish, qurish-yasash, musiqa, dramatizatsiya va rolli o‘yinlar ijodiy kompetensiyani rivojlantirishning samarali vositalari sifatida namoyon bo‘ladi. Zamonaviy tadqiqotlarda kreativlik XXI asrning muhim kompetensiyalaridan biri sifatida e’tirof etilib, uni erta yoshdan rivojlantirish zarurligi ta’kidlanmoqda.

Tadqiqot davomida kompetensiyalarni rivojlantirishda o‘yin faoliyatining alohida ahamiyatga egaligi aniqlandi. O‘yin maktabgacha yoshdagi bolaning yetakchi faoliyati bo‘lib, unda bilish, muloqot, hamkorlik va muammolarni hal etish kabi ko‘plab kompetensiyalar integratsiyalashgan holda shakllanadi. Shu bois o‘yin texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyaviy yondashuvning muhim pedagogik sharti hisoblanadi.

Shuningdek, kompetensiyalarni rivojlantirish samaradorligi pedagogning kasbiy mahorati, oilaviy muhit, tengdoshlar bilan muloqot va rivojlantiruvchi ta’lim muhitiga ham bog‘liq ekanligi aniqlandi. Ayniqsa, oila va maktabgacha ta’lim tashkiloti hamkorligining yo‘lga qo‘yilishi bolalarda kompetensiyalarning barqaror shakllanishiga xizmat qiladi.

Nazariy tahlillar natijasida maktabgacha ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvni izchil joriy etish bolalarning intellektual salohiyati, ijtimoiy faolligi, mustaqilligi va ijodkorligini rivojlantirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Bu esa maktabgacha ta’lim sifatini oshirish va kelajakda raqobatbardosh shaxslarni tarbiyalashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta’lim bolaning har tomonlama rivojlanishini ta’minlovchi muhim ijtimoiy-pedagogik tizim ekanligini ko‘rsatdi. Zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv bolalarning nafaqat bilimlarini, balki ularni amaliy faoliyatda qo‘llash qobiliyatlarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Nazariy tahlillar asosida kommunikativ, ijtimoiy-hissiy, bilish, o‘z-o‘zini boshqarish va ijodiy kompetensiyalar maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishining asosiy komponentlari ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalariga tayangan holda quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- maktabgacha ta’lim dasturlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida yanada takomillashtirish;
- rivojlantiruvchi o‘yin texnologiyalaridan foydalanish ko‘lamini kengaytirish;
- pedagoglarning kompetensiyaviy yondashuv bo‘yicha malakasini oshirish;
- oila va ta’lim tashkiloti hamkorligini kuchaytirish;
- STEAM texnologiyalari hamda raqamli ta’lim vositalaridan samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yish.

Shunday qilib, maktabgacha yoshdagi bolalarda tayanch kompetensiyalarni ilmiy asosda rivojlantirish ularning kelgusida muvaffaqiyatli ta’lim olishi, ijtimoiy moslashuvi va shaxs sifatida kamol topishining muhim omili hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi. (2017). Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish choralari bo'yicha Prezident farmoni № 2707. Toshkent: Rasmiy gazeta.

2. Ushinsky, K. D. (1948). Mehnat tarbiyaning poydevori sifatida. In Collected Works (Vol. 8). Moscow: Academy of Pedagogical Sciences.

3. Piaget, J. (1952). The Origins of Intelligence in Children. New York: International Universities Press.

4. Berti, A. E., & Bombi, A. S. (1988). The Child's Construction of Economics. Cambridge: Cambridge University Press.

5. Qodirova F.R., Toshpo‘latova Sh.Q., Qayumova N.M. Maktabgacha pedagogika: Darslik. – Toshkent: Tafakkur, 2019. – 688 b.

6. Dexkambayeva Z.A. Maktabgacha ta’lim-tarbiyani tashkil etishda kompetensiyaviy yondashuvning dolzarbligi // Ilmiy maqolalar to‘plami. – Toshkent, 2024.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA TA’LIM BERISHDA KREATIV YONDASHUV

Rahmonova Dilafro’z Bahronjon qizi,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
“Maktabgacha ta’lim” kafedrasi o’qituvchisi

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kreativ yondashuvning nazariy asoslari, amaliy usullari va ta'lim jarayonidagi o'rni tahlil qilinadi. Kreativlikni rivojlantiruvchi metodlar — tasviriy san'at, musiqa, dramatizatsiya, konstruktiv o'yinlar, erkin ijod va loyiha faoliyati — batafsil yoritilgan. Maqolada shuningdek pedagogning kreativ muhit yaratishdagi roli, ota-onalar bilan hamkorlik va jahon tajribasidagi eng yaxshi amaliyotlar ham ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: *kreativlik, ijodiy fikrlash, maktabgacha ta'lim, divergent tafakkur, kreativ muhit, o'yin orqali o'rganish, individual yondashuv.*

КРЕАТИВНЫЙ ПОДХОД В ОБУЧЕНИИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

В данной статье анализируются теоретические основы креативного подхода к обучению детей дошкольного возраста, практические методы его реализации и роль в образовательном процессе. Подробно освещены методы, способствующие развитию креативности, включая изобразительное искусство, музыку, драматизацию, конструктивные игры, свободное творчество и проектную деятельность. В статье также рассматриваются роль педагога в создании креативной образовательной среды, сотрудничество с родителями и лучшие практики мирового опыта.

Ключевые слова: *креативность, творческое мышление, дошкольное образование, дивергентное мышление, креативная среда, обучение через игру, индивидуальный подход.*

A CREATIVE APPROACH TO EDUCATING PRESCHOOL CHILDREN

This article examines the theoretical foundations of a creative approach to educating preschool children, its practical methods, and its role in the educational process. The study provides a detailed discussion of creativity-enhancing methods, including visual arts, music, dramatization, constructive games, free creative activities, and project-based learning. The article also explores the role of educators in creating a creative learning environment, collaboration with parents, and best practices from international experience.

Keywords: *creativity, creative thinking, preschool education, divergent thinking, creative environment, learning through play, individual approach.*

Kirish. XXI asr iqtisodiyoti va jamiyati ijodiy, moslashuvchan va noodatiy muammolarni hal qila oladigan insonlarni talab qilmoqda. Bu borada kreativlikni shakllantirish jarayoni bolaning ilk yillaridan, ya'ni maktabgacha davrdan boshlanishi zarur. Chunki bu davr miyaning eng faol rivojlanish bosqichi bo'lib, bola qabul qilgan har bir taassurot va tajriba uning butun keyingi hayotiga ta'sir ko'rsatadi. Kreativlik deganda ko'pchilik faqat san'at yoki chizish qobiliyatini tushunadi. Aslida esa kreativlik — bu yangi g'oyalar ishlab chiqish, turlicha fikrlash, muammolarga noodatiy yechimlar topish va o'z his-tuyg'ularini erkin ifodalash qobiliyatidir. Psixolog J.P. Guilford kreativlikni "divergent tafakkur" deb atagan — ya'ni bitta savolga ko'p xil javob topa olish, fikrni turli yo'nalishlarda rivojlantirish qobiliyati.

Maqolaning asosiy maqsadi — maktabgacha ta'lim tashkilotlarida (MTT) kreativ yondashuvni joriy etishning asosiy tamoyillari, metodlari va amaliy imkoniyatlarini ochib berish, tarbiyachilar uchun ishonchli yo'riqnoma bo'lib xizmat qilishdir. Statistik ma'lumot: Adobe tadqiqotiga ko'ra (2023), dunyo bo'yicha so'ralgan ota-onalarning 85 foizi kreativlikni bolalarda rivojlantirilishi zarur bo'lgan eng muhim ko'nikma deb hisoblaydi. Biroq faqat 21 foizi o'z farzandining kreativligini to'liq rivojlangan deb baholaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Kreativlikning nazariy asoslari. Kreativlik borasidagi ilmiy tadqiqotlar XX asrning o'rtalaridan boshlab jadal rivojlandi. Bu sohadagi asosiy nazariyotchilar va ularning g'oyalari quyidagicha:

-Lev Vigotskiy — bolaning ijodiy xayoli haqiqiy tajribaga asoslanadi; boy tajriba qanchalik ko'p bo'lsa, ijodiy imkoniyat shunchalik keng bo'ladi.

-Jean Piaget — bola o'yin va tajriba orqali o'z dunyo modelini qurib boradi; kreativlik bu qurish jarayonining tabiiy mahsulidir.

-Abraham Maslov — kreativlik insonning o'z potentsialni to'liq ro'yobga chiqarish (o'z-o'zini aktualizatsiyalash) ehtiyojidan kelib chiqadi.

-Mihaly Csikszentmihalyi — "oqim" holati: bola qiziqarli faoliyatga to'liq sho'ng'iganda, vaqt va tashvishlarni unutganda kreativlik cho'qqisiga yetadi. Bu nazariyalar bitta umumiy xulosaga olib keladi: kreativlik — bolaga yuqoridan beriladigan narsa emas. U bolaning ichida mavjud bo'lib, tarbiyachi va muhitning vazifasi uni ochib berish, qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishdan iborat. Kreativlikning asosiy komponentlari, psixolog E. Paul Torrance kreativ tafakkurning to'rt asosiy xususiyatini aniqlagan:

-ravonlik (Fluency) — qisqa vaqt ichida ko'p g'oya ishlab chiqish qobiliyati;

-moslashuvchanlik (Flexibility) — turli toifalar va yondashuvlar orqali fikrlash;

-originallik (Originality) — odatdan tashqari, noodatiy g'oyalar yaratish.

-batafsillash (Elaboration) — asosiy g'oyani rivojlantirish, boyitish va to'ldirish. Bu to'rt xususiyatning barchasi maktabgacha davrda maqsadli mashqlar va to'g'ri tashkil etilgan faoliyat orqali rivojlantirilishi mumkin.

Kreativ yondashuvning asosiy metodlari:

Tasviriy san'at va ijodiy faoliyat. Tasviriy san'at bolaning o'zini ifodalashning eng tabiiy vositasi hisoblanadi. Biroq zamonaviy kreativ pedagogika an'anaviy "nusxa ko'chirish" amaliyotidan voz kechib, erkin ijodga yo'l ochadi. Erkin rasm — bola o'zi xohlagan mavzuda, o'z uslubida chizadi; noto'g'ri yoki to'g'ri yo'q. Aralash texnikalar — bo'yoq, qog'oz, mato, tabiiy materiallar, plastilin birgalikda ishlatiladi. Qayta ishlash san'ati (upcycling art) — eski narsalardan yangi badiiy asarlar yaratish. Guruhiy mural — devorga birgalikda ulkan rasm chizish, jamoaviy ijod. Tabiiy materiallar — bargllar, toshlar, shoxlar bilan ishlash, tabiat bilan bog'lanish.

Natijalar. Musiqa va harakatli ijod. Musiqa bolaning hissiy, ijodiy va kognitiv rivojlanishiga bir vaqtda ta'sir etadigan qudratli vositadir. Maktabgacha yoshda musiqiy kreativlik quyidagi shakllarni o'z ichiga oladi:

-Improvizatsiya — bolalar o'z kuylarini ixtiro qilishadi, ritmlarni yaratishadi.

-Harakatli musiqa — musiqaga mos erkin harakat, o'z tanasini ifodalash vositasi sifatida.

-Og'ir musiqiy asbobsozlik — tabiiy materiallardan (bankalar, qoshiqlar, qutilar) asbob yasash.

-Musiqa va hikoya — bolalar eshitgan musiqaga o'z hikoyasini to'qiydi.

-Ritmik o'yinlar — qo'l chapalash, tappa urish, maxsus ritmik muloqot o'yinlari.Dramatizatsiya va rolli o'yinlar. Dramatizatsiya — bolaning ijodiy, ijtimoiy va nutq qobiliyatlarini bir vaqtda rivojlantiradigan universal metod. Bola rolga kirganda u boshqa shaxsning nuqtai nazaridan dunyoni ko'radi, empatsiya rivojlanadi, nutq boyiydi, muammolarni hal qilishga o'rganadi.Erkin rolli o'yin — bola o'zi xohlagan rolni tanlaydi va ssenariy yaratadi. Qo'g'irchoq teatri — qo'g'irchoqlar yordamida hikoya yaratish va sahnalashtirish. Improv o'yinlari — oldindan rejasiz, darhol reaksiya asosidagi ijodiy teatr. Kitob dramatizatsiyasi — o'qilgan asar qahramonlarini o'ynash, davomini o'ylab toppish. Kasblar dunyosi o'yini — shifokor, oshpaz, me'mor, pilot rollarini o'ynash.

Hikoya to'qish va so'z ijodi. So'z orqali ijod bolaning tasavvur olamini kengaytiradi, nutqini boyitadi va his-tuyg'ularini ifodalash qobiliyatini rivojlantiradi. Kreativ yondashuvda bu shunday amalga oshiriladi: tugallanmagan hikoya — pedagog boshlab beradi, bolalar davom ettiradi. Tasvirga qarab hikoya — rasmni ko'rib o'z hikoyasini yaratadi. Sehrli so'z o'yini — avval uchta tasodifiy so'z tanlanadi, so'ng ular asosida hikoya to'qiladi. Mini-kitob yaratish — bola o'zi yozadi (yoki pedagog yozadi), o'zi chizadi, o'zi bezaydi. Sheriy ijod — qofiyali so'zlar bilan o'ynash, o'z she'rini yaratishkabi vazifalarni bajaradi.

Kreativ muhit yaratish: bola joylashgan fizik makon uning kreativ faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. "Tayyorlangan muhit" (Montessori atamasi) konsepsiyasiga ko'ra, to'g'ri tashkil etilgan fazo bolani mustaqil kashfiyotga undaydi. Ijod burchagi — doimo materiallar mavjud: bo'yoqlar, qog'oz, makas, yapishqoq, tabiiy materiallar bo’lishi lozim, bundan tashqari, qurilish maydoni — yetarli joy va materiallar: bloklar, konstruktorlar, chiqindi buyumlar karak bo’ladi. Kitob va hikoya burchagi — qulay va chiroyli, ilhomlantiruvchi kitoblar bilan boyitilgan bo’lishi kerak. Tabiat burchagi — o'simliklar, toshlar, qobiqlar — kuzatish va tadqiqot uchun tayyorlangan bo’lishi lozim. Ovoz va musiqa maydoni — asboblar, qo'g'irchoqlar, kiyim-kechak dramatizatsiya uchun kerak bo’ladi. Psixologik muhit. Jismoniy muhitdan ham muhimroq bo'lgan psixologik xavfsizlik muhitidir. Bola faqat "xato qilsam nima bo'ladi?" degan qo'rquvdan xoli bo'lganda haqiqiy kreativlikni namoyish etadi.

Kreativlikni yo'qotadigan muhit: -Har bir ish uchun namuna beriladi;	Kreativlikni rivojlantiruvchi muhit: -Erkin ijodga imkon beriladi;

-"Noto'g'ri" deyiladi yoki tuzatiladi; -Faqat bir to'g'ri javob qabul qilinadi; -Bola tanqid qilinadi yoki kamsitiladi; -Doim kattalar nazorat qiladi; -Vaqt doim cheklanadi.	-Har qanday yechim qo'llab-quvvatlanadi; -"Yana qanday bo'lishi mumkin?" deyiladi; -Xato o'rganish imkoniyati deb qaraladi; -Bola mustaqil qaror qiladi; -Jarayon to'xtovsiz davom etadi.

Muhokama. Ota-onalar bilan hamkorlik. Kreativ yondashuvning samarasi MTT va oila o'rtasidagi uyg'unlikka ko'p jihatdan bog'liq. Ota-onalarni ma'lumotlantirish — oyiga bir marta kreativ ta'lim mavzusida suhbat yoki seminar o’tkazish katta ahamiyat kasb etadi. Ota-onalar bilan hamkorlikda ishlashda quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

-"Kreativ topshiriqlar" uyga — oilada birgalikda bajariluvchi ijodiy mashg'ulotlar;

-Portfolio tizimi — bolaning ijodiy ishlarini yig'ib borish, ota-onalar bilan ko'rib chiqish;

-Ochiq darslar — ota-onalar kreativ mashg'ulotni kuzatib, ishtirok etib ko'rishlari;

-Kreativ bayramlar — yaratgan asarlarni namoyish etish, oilalar bilan birgalikda nishonlash. Tarbiyachilar uchun amaliy tavsiyalar:

-Har bir kunni bitta kreativ faoliyat bilan boshlang — «Bugun yangi narsa sinab ko'ramiz»;

-Bolaning noodatiy javoblarini rag'batlantiring — "Bu g'oya menga o'xshamagan fikr, qiziq!";

-"Xato yo'q" madaniyatini yarating — bolalar o'z g'oyasini erkin bildirsin;

-Materiallar xilma-xilligini ta'minlang — kreativlik imkoniyatlar ko'pligi bilan bog'liq;

-O'zingiz ham ijodkor bo'ling — bolalar kuzatadi va o'rganadi;

-Jarayon fotosuratlari olish odatini shakllantiring — rivojlanishni ko'rsatadi va motivatsiya beradi.

Xulosa. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kreativ yondashuv — bu zamon talabi. Dunyoning eng rivojlangan ta'lim tizimlari (Finlandiya, Singapur, Raqamli Estoniya) allaqachon kreativlikni o'quv jarayonining markaziga qo'ygan. Chunki ertangi kun iqtisodiyoti bilim emas, g'oya ishlab chiqaradigan insonlarni talab qiladi.

Maktabgacha davr bu imkoniyatning boshi. Bola maktabgacha yoshida ko'rgan, his qilgan, o'ynagan va yaratgan har bir narsa uning kreativ kapitaliga aylanadi. Tarbiyachining vazifasi esa bu olovni o'chirmaslik, balki alangalatib borishdir.

Kreativ yondashuv nafaqat yangicha metodlar to'plami — bu avvalo bolaga bo'lgan yangicha munosabat: "Sen g'oyalaring bor, sen tadqiqotchi, sen yaratuvchi, sen qodir!" degan ishonch. Ana shu ishonch zamirida ertangi kun iste'dodlari, kashfiyotchilari va ijodkorlari shakllanadi.

Adabiyotlar:

1. Guilford, J.P. (1950). Creativity. American Psychologist, 5(9), 444–454.

2. Vygotskiy, L.S. (2019). Bolalik va ijod: Psixologik asarlar. Toshkent: Yangi nashr.

3. Csikszentmihalyi, M. (2021). Creativity: Flow and the Psychology of Discovery and Invention. Harper Perennial.

4. Torrance, E.P. (1966). The Torrance Tests of Creative Thinking. Princeton: Personnel Press.

5. Malaguzzi, L. (2022). The Hundred Languages of Children. Reggio Children Foundation.

6. Adobe Systems (2023). State of Create: Global Creativity Study. San Jose: Adobe.

7. Robinson, K. (2020). Out of Our Minds: The Power of Being Creative. Capstone Publishing.

8. Xoliqov, A.A. (2023). Maktabgacha ta'limda ijodiy faoliyat metodikasi. Toshkent: TDPU nashriyoti.

9. Toshmatova M., Raximova N. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi,2005.–180b.

10. Alimboyeva Sh.T. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. – Toshkent, 2010. –250b.

11. Navoiy viloyati "Zafar" maktabgacha ta'lim muassasasi. Algoritmik tafakkurni rivojlantirish bo'yicha tajriba hisoboti. – Navoiy, 2023. – 18 b.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MEHNAT VA IQTISODIY TARBIYA TUSHUNCHALARINING NAZARIY ASOSLARI

Navotova Dilnoza Ibrogimovna,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsenti
Sharipova Shahodat Bahodir qizi,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti magistranti

Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning mehnat va iqtisodiy tarbiyasining nazariy asoslari tahlil qilingan. Klassik va zamonaviy pedagogik hamda psixologik yondashuvlar asosida ushbu tushunchalarning mazmun-mohiyati, o‘zaro bog‘liqligi va rivojlantiruvchi imkoniyatlari yoritilgan. Tadqiqotda L.S. Vygotskiy, D.B. Elkonin va boshqa olimlarning nazariyalari maktabgacha yoshdagi bolalarning iqtisodiy ijtimoiylashuvi bilan bog‘liq zamonaviy qarashlar bilan uyg‘unlashtirilgan. Natijalar mehnat faoliyati va o‘yin asosidagi iqtisodiy tarbiya bolalarda mehnatsevarlik, mas’uliyat, tejamkorlik hamda iqtisodiy tafakkurni shakllantirishda muhim omil ekanligini ko‘rsatadi. Tadqiqot maktabgacha ta’lim tizimida mehnat va iqtisodiy tarbiyani takomillashtirishning nazariy asoslarini belgilaydi.

Kalit so‘zlar: *maktabgacha ta’lim, mehnat tarbiyasi, iqtisodiy tarbiya, iqtisodiy ijtimoiylashuv, mehnatsevarlik, iqtisodiy tafakkur.*

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОНЯТИЙ ТРУДОВОГО И ЭКОНОМИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

В статье проанализированы теоретические основы трудового и экономического воспитания детей дошкольного возраста. На основе классических и современных педагогических и психологических подходов раскрыты сущность данных понятий, их взаимосвязь и развивающий потенциал. В исследовании теории Л.С. Выготского, Д.Б. Эльконина и других ученых сопоставлены с современными взглядами на экономическую социализацию детей дошкольного возраста. Результаты показывают, что трудовая деятельность и игровое экономическое воспитание являются важными факторами формирования у детей трудолюбия, ответственности, бережливости и экономического мышления. Исследование определяет теоретические основы совершенствования трудового и экономического воспитания в системе дошкольного образования.

Ключевые слова: *дошкольное образование, трудовое воспитание, экономическое воспитание, экономическая социализация, трудолюбие, экономическое мышление.*

THEORETICAL FOUNDATIONS OF LABOR AND ECONOMIC EDUCATION CONCEPTS IN PRESCHOOL CHILDREN

The article analyzes the theoretical foundations of labor and economic education of preschool children. Based on classical and modern pedagogical and psychological approaches, the study reveals the essence of these concepts, their interrelation, and their developmental potential. The theories of L.S. Vygotsky, D.B. Elkonin, and other scholars are integrated with contemporary views on the economic socialization of preschool children. The findings indicate that labor activities and play-based economic education are important factors in developing diligence, responsibility, thriftiness, and economic thinking in children. The study defines the theoretical foundations for improving labor and economic education within the preschool education system.

Keywords: *preschool education, labor education, economic education, economic socialization, diligence, economic thinking.*

Kirish. Bolalikning dastlabki yillari kognitiv rivojlanish, axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishning muhim bosqichi hisoblanadi. Shu sababli maktabgacha ta’limda bolalarni mehnatsevarlik, mas’uliyat va resurslardan oqilona foydalanish ruhida tarbiyalash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy jamiyat sharoitida iqtisodiy tafakkur, tejamkorlik va mehnatga ongli munosabat kabi sifatlarni erta yoshdan shakllantirish zarurati ortib bormoqda.

O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan islohotlarda ham bolalarda mehnat odatlari, mehnatga qadriyatli munosabat va dastlabki iqtisodiy tasavvurlarni shakllantirish muhim vazifalardan biri sifatida belgilangan [1].

Maktabgacha yoshdagi bolalarning mehnat va iqtisodiy tarbiyasi pedagogika, psixologiya va ijtimoiy fanlar kesishmasida shakllangan murakkab ilmiy yo‘nalish hisoblanadi. Biroq mavjud tadqiqotlarda ushbu ikki tushunchaning o‘zaro bog‘liqligini yagona tizimda yorituvchi konseptual yondashuv yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Natijada amaliyotda mehnat tarbiyasi ko‘pincha faqat kundalik topshiriqlarni bajarish bilan cheklanib qolmoqda, iqtisodiy tarbiya elementlari esa tizimli ravishda qo‘llanilmayapti.

Mazkur maqolaning maqsadi maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnat va iqtisodiy tarbiyaning nazariy asoslarini tahlil qilish, ularning mazmun-mohiyatini aniqlashtirish hamda o‘zaro bog‘liqligini ochib berishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida pedagogika va rivojlanish psixologiyasi sohasidagi ilmiy manbalar, shuningdek, maktabgacha ta’limga oid me’yoriy hujjatlar tahlil qilindi. Tadqiqotning metodologik asosini tizimli, kompetensiyaviy va integrativ yondashuvlar tashkil etdi.

Mehnat tarbiyasining nazariy asoslari K.D. Ushinskiy, A.S. Makarenko va V.A. Suxomlinskiy asarlarida keng yoritilgan. Ushinskiy mehnatni shaxs rivojlanishining asosiy omili sifatida baholagan bo‘lsa, Makarenko jamoaviy mehnatning tarbiyaviy ahamiyatini asoslab bergan. Suxomlinskiy esa mehnatni bolalarning hissiy va axloqiy rivojlanishi bilan bog‘lagan [2–4].

L.S. Vygotskiyning sotsiokultural nazariyasi bolalar tomonidan mehnat va iqtisodiy tushunchalarning kattalar bilan hamkorlik jarayonida o‘zlashtirilishini tushuntiradi [5]. D.B. Elkoninning o‘yin nazariyasiga ko‘ra, rolli o‘yinlar bolalarning mehnat va iqtisodiy munosabatlarni anglashida muhim vosita hisoblanadi [6].

J. Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasi esa bolalarda iqtisodiy tushunchalarning yosh xususiyatlariga mos ravishda shakllanishini izohlaydi [7].

Zamonaviy tadqiqotlarda iqtisodiy ijtimoiylashuv, moliyaviy savodxonlik va iqtisodiy xulq-atvorning ilk bolalik davrida shakllanishi masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Webley va Nyhus ota-onalarning iqtisodiy xulq-atvori bolalarning kelajakdagi moliyaviy qarashlariga ta’sir ko‘rsatishini aniqlagan [8]. Berti va Bombi esa bolalarning iqtisodiy tushunchalarni bosqichma-bosqich o‘zlashtirish modelini ishlab chiqqan [9].

Tahlil qilingan manbalar mehnat va iqtisodiy tarbiyani o‘zaro bog‘liq holda o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Tahlil va natijalar. Nazariy tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, mehnat tarbiyasi va iqtisodiy tarbiya bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lsa-da, mazmunan mustaqil pedagogik yo‘nalishlar hisoblanadi. Amaliyotda ushbu tushunchalar ko‘pincha bir xil ma’noda qo‘llaniladi, biroq ularning maqsad va vazifalari o‘zaro farqlanadi.

Mehnat tarbiyasi bolalarda mehnatga ijobiy munosabatni shakllantirish, mehnat ko‘nikmalarini rivojlantirish, mas’uliyat, intizom va mehnatsevarlik kabi sifatlarni tarbiyalashga qaratilgan. Iqtisodiy tarbiya esa ehtiyoj, tovar, xizmat, pul, tejamkorlik va resurslardan oqilona foydalanish kabi dastlabki iqtisodiy tushunchalarni shakllantirishni nazarda tutadi. Shu jihatdan iqtisodiy tarbiya mehnat tarbiyasining mantiqiy davomi sifatida namoyon bo‘ladi.

Tahlil natijalari maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnat va iqtisodiy tarbiyani rivojlantirishning yosh xususiyatlariga mos bosqichlarini ajratish imkonini berdi.

3–4 yoshda bolalar oddiy mehnat topshiriqlarini bajarishga qodir bo‘lib, buyumlarga ehtiyotkor munosabat va shaxsiy mulk haqidagi dastlabki tasavvurlar shakllana boshlaydi.

4–5 yoshda mehnat faoliyatining mazmuni kengayib, jamoada ishlash, vazifalarni taqsimlash va o‘zaro yordam ko‘rsatish ko‘nikmalari rivojlanadi. Shu davrda almashinuv va foydalilik haqidagi dastlabki iqtisodiy tasavvurlar paydo bo‘ladi.

5–7 yoshda esa bolalar mehnat natijasi va uning ahamiyatini tushuna boshlaydilar. Ular mehnat, mahsulot va mukofot o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglab, tejamkorlik va oqilona foydalanish kabi iqtisodiy sifatlarni egallashga qodir bo‘ladilar.

Tadqiqot davomida maktabgacha ta’lim muassasalarida mehnat va iqtisodiy tarbiyani tashkil etishning quyidagi asosiy tamoyillari aniqlandi:

Faoliyatga yo‘naltirilganlik – mehnat va iqtisodiy tushunchalar bolalarga amaliy faoliyat hamda o‘yinlar orqali o‘rgatilishi lozim.

Ijtimoiy hamkorlik – bolalar mehnat va iqtisodiy tajribani kattalar hamda tengdoshlari bilan muloqot jarayonida o‘zlashtiradilar.

Emotsional qo‘llab-quvvatlash – ijobiy hissiy muhit bolalarning mehnat faoliyatiga qiziqishini kuchaytiradi.

Yosh va individual xususiyatlarni hisobga olish – tarbiyaviy vazifalar bolaning rivojlanish darajasiga mos bo‘lishi zarur.

Qadriyatlarga yo‘naltirilganlik – mehnatga hurmat, tejamkorlik, halollik va mas’uliyat kabi sifatlarni shakllantirish muhim hisoblanadi.

Milliy-madaniy moslik – tarbiyaviy ishlar xalq pedagogikasi, oilaviy qadriyatlar va mahalliy an’analarga tayangan holda tashkil etilishi lozim.

Mazkur tamoyillar xalqaro tajriba bilan ham uyg‘unlashadi. OECD va UNESCO hujjatlarida iqtisodiy savodxonlik hamda ijtimoiy mas’uliyat asoslarini maktabgacha yoshdan boshlab shakllantirish zarurligi ta’kidlangan. Shu sababli mehnat va iqtisodiy tarbiyani integratsiyalashgan holda tashkil etish bolalarning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi.

Olingan natijalar maktabgacha ta’lim tashkilotlarida mehnat va iqtisodiy tarbiyani tizimli ravishda yo‘lga qo‘yish, tarbiyachilarni ushbu yo‘nalishda tayyorlash hamda zamonaviy metodik ta’minotni takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnat va iqtisodiy tarbiya shaxsning ijtimoiy hamda ma’naviy rivojlanishida muhim o‘rin tutishini ko‘rsatdi. Mehnat tarbiyasi bolalarda mehnatsevarlik, mas’uliyat va intizomni shakllantirsa, iqtisodiy tarbiya tejamkorlik, oqilona tanlov qilish va resurslarga ehtiyotkor munosabatni rivojlantiradi.

Nazariy tahlillar asosida ushbu ikki yo‘nalishning o‘zaro bog‘liqligi hamda ularni faoliyatga yo‘naltirilgan, ijtimoiy hamkorlikka asoslangan va milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashgan holda tashkil etish samarali ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalariga tayangan holda quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- maktabgacha ta’lim dasturlarida iqtisodiy tarbiya elementlarini kengroq joriy etish;
- mehnat va iqtisodiy tarbiyaga oid metodik qo‘llanmalarni takomillashtirish;
- tarbiyachilarni ushbu yo‘nalishda maxsus tayyorlash tizimini rivojlantirish;
- mehnat va iqtisodiy tarbiya mazmunini milliy qadriyatlar hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida boyitish.

Shunday qilib, maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnat va iqtisodiy tarbiyani ilmiy asosda tashkil etish kelajakda iqtisodiy jihatdan faol, mas’uliyatli va ijtimoiy yetuk shaxsni tarbiyalashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi. (2017). Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish choralari bo'yicha Prezident farmoni № 2707. Toshkent: Rasmiy gazeta.

2. Ushinsky, K. D. (1948). Mehnat tarbiyaning poydevori sifatida. In Collected Works (Vol. 8). Moscow: Academy of Pedagogical Sciences.

3. Piaget J. (1952). The Origins of Intelligence in Children. New York: International Universities Press.

4. Berti A. E., & Bombi A. S. (1988). The Child's Construction of Economics. Cambridge: Cambridge University Press.

ANIQ VA TABIIY FANLARNI O’QITISH

O‘ZBEKISTONDA MUQOBIL ENERGIYADAN FOYDALANISHNI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI VA UNI TA’LIM JARAYONIGA INTEGRATSIYA QILISH METODIKASI

Qahhorov Siddiq Qahhorovich,
Buxoro davlat universiteti professori.
Sharipova Dilnora Burkhonovna,
Buxoro davlat universiteti doktoranti
dilnora.sharipova91@mail.ru

Ushbu maqolada O‘zbekistonda muqobil energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish konsepsiyasining nazariy asoslari hamda ularni oliy ta’lim jarayoniga integratsiya qilishning metodik jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalaridan foydalanish orqali talabalarning texnik tafakkurini rivojlantirish imkoniyatlari yoritiladi. Muqobil energiya qurilmalaridan o‘quv jarayonida foydalanish talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirishga xizmat qilishi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: *Muqobil energiya, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, quyosh energiyasi, geliotexnika, ta’lim metodikasi, texnik tafakkur, innovatsion texnologiyalar, yashil kampus.*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОЛНЕЧНОЙ СУШИЛКИ В КАЧЕСТВЕ УЧЕБНОГО ПОСОБИЯ ПРИ ОРИЕНТИРОВАНИИ СТУДЕНТОВ НА ТЕХНОЛОГИЧЕСКУЮ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ

В данной статье анализируются теоретические основы концепции развития использования альтернативных источников энергии в Узбекистане и методические аспекты их интеграции в процесс высшего образования. Также рассматриваются возможности развития технического мышления студентов через применение технологий возобновляемой энергии. Обосновывается, что использование устройств на основе альтернативных источников энергии в учебном процессе способствует развитию научно-исследовательской деятельности студентов.

Ключевые слова: *Альтернативная энергетика, возобновляемые источники энергии, солнечная энергетика, гелиотехника, методика преподавания, техническое мышление, инновационные технологии, зелёный кампус.*

THE CONCEPT OF DEVELOPING RENEWABLE ENERGY USE IN UZBEKISTAN AND A METHODOLOGY FOR ITS INTEGRATION INTO THE EDUCATIONAL PROCESS

This article analyzes the theoretical foundations of the concept for developing the use of alternative energy sources in Uzbekistan, as well as the methodological aspects of their integration into the higher education process. It also highlights the opportunities for developing students' technical thinking through the use of renewable energy technologies. It is substantiated that the use of alternative energy devices in the educational process serves to develop the research activities of students.

Keywords: *solar dryer, technological education, learning tool, pedagogical approach, practical training, project-based learning, professional competence, interdisciplinary integration, innovative methodology*

Kirish. XXI asrning ikkinchi yarmiga kelib global energetika tizimi tub o‘zgarishlar bosqichiga qadam qo‘ydi. Iqlim o‘zgarishi, karbonat chiqindilarning ortib borishi va tabiiy resurslarning cheklanganligi insoniyatni muqobil energiya manbalaridan foydalanish zaruriyatiga olib keldi. Hozirgi kunda qayta tiklanuvchi energiya resurslari – quyosh, shamol, biomassa, geotermal va gidroenergiyaning ulushi dunyo miqyosida barqaror o‘sish tendensiyasini namoyon etmoqda.

Rivojlangan dunyo mamlakatlari qatorida O‘zbekistonda ham muqobil energiya manbalaridan samarali foydalanishning ustuvor yo‘nalishlarini tanlab olgan holda, dunyo standartlariga javob beradigan innovatsion texnologiyalarga asoslangan muqobil energiya ishlab chiqaruvchi uskunalar joriy etilishi natijasida energiya ishlab chiqarish hajmi sezilarli ortdi [1,2,3].

Asosiy qism. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan so‘nggi yillarda qabul qilingan “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” va “2030-yilgacha energiya samaradorligini oshirish konsepsiyasi” mamlakat miqyosida muqobil energiyani rivojlantirishni milliy ustuvor yo‘nalish sifatida belgiladi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida energetika sohasida muhim islohotlar amalga oshirilib, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish milliy iqtisodiyotning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi [3,5]. Bu yo‘nalish mamlakatning energetik mustaqilligini ta’minlash, ekologik muvozanatni saqlash va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. 2022–2025-yillar oralig‘ida qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushi izchil o‘sib bormoqda. Quyidagi jadvalda bu jarayonning asosiy ko‘rsatkichlari keltirilgan:

1-jadval.

Yil	Quyosh energiyasi (mln kVt·soat)	Shamol energiyasi (mln kVt·soat)	Gidroenergiyalar (mln kVt·soat)	Biomassa va biogaz (mln kVt·soat)	Umumiy qayta tiklanuvchi energiya ulushi (%)
2022	620	80	5200	30	8.5
2023	1250	150	5400	45	10.2
2024	2100	300	5600	60	12.8
2025	3700	600	5800	90	15.4

Ushbu raqamlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, 2022-yildan 2025-yilgacha O‘zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya ishlab chiqarish hajmi taxminan 1,8 barobarga oshgan. Ayniqsa, quyosh energiyasi eng tez sur’atlarda rivojlanmoqda — 2022-yilda 620 mln kVt•soat bo‘lgan ishlab chiqarish hajmi 2025-yilga kelib 3700 mln kVt•soatga yetgan. Bu o‘sish 500% dan ortiqni tashkil etadi [6,7,8,9].

Shamol energiyasi ishlab chiqarish hajmi ham sezilarli darajada ko‘payib, 80 mln kVt•soatdan 600 mln kVt•soatga yetgan. Shu bilan birga, gidroenergetika nisbatan barqaror soha sifatida qolmoqda, biroq umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi biroz kamaymoqda, bu esa yangi texnologiyalarning (xususan, quyosh va shamol) jadal rivojlanayotganidan dalolat beradi. Umuman olganda, O‘zbekistonda muqobil energiya manbalari sohasida quyidagi tendensiyalar kuzatilmoqda: Quyosh energiyasining ulushi har yili o‘rtacha 50–60% ga o‘smoqda. Shamol energetikasi loyihalari Farg‘ona vodiysi va Qoraqalpog‘iston hududlarida kengaymoqda. Biogaz texnologiyalari asosan qishloq xo‘jaligi chiqindilarini qayta ishlash korxonalarida joriy etilgan bo‘lib, gidroenergetika tizimi esa mavjud infratuzilmaga asoslangan holda modernizatsiya qilinmoqda [4,10,11,12].

2030-yilgacha bo‘lgan istiqbol prognozlariga ko‘ra, O‘zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining umumiy ulushi 25–30% atrofida bo‘lishi kutilmoqda. Bu esa mamlakatning “Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi doirasida energiya samaradorligini oshirish va chiqindilarni kamaytirish siyosatiga to‘la mos keladi.



1-grafik. O‘zbekistonda muqobil energiya ishlab chiqarish o’sish sur’atida (2022-2025)

Amalga oshirilayotgan mazkur “Yashil energiya — barqaror kelajak” dasturi doirasida 2030-yilga kelib qayta tiklanuvchi energiya ulushini 30–35 foizgacha, 2040-yilga borib esa 60–65 foizgacha yetkazish rejalashtirilgan. Ushbu maqsadga erishish uchun mamlakatda zamonaviy quyosh fotoelektr stansiyalari, shamol generatorlari, kichik gidroelektr inshootlari hamda bioenergetika texnologiyalarini joriy etish ishlari bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Quyidagi grafik ma’lumotlarga ko‘ra, 2025–2040 yillar oralig‘ida O‘zbekistonda muqobil energiya ishlab chiqarish hajmi barqaror o‘sish tendensiyasini namoyon etmoqda. Hisob-kitoblarga ko‘ra, bu ko‘rsatkich yillik o‘rtacha 3,5–4,0 foizli o‘sish sur’atini saqlab qolgan holda, 2040-yilga borib milliy energetika balansida muqobil energiyaning asosiy manba sifatidagi mavqeini mustahkamlaydi.

Bunday natijalarga erishish mamlakat iqtisodiyotining energiya samaradorligini oshirish, ekologik barqarorlikni ta’minlash hamda xalqaro “yashil energetika” standartlariga mos infratuzilmani shakllantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, bu jarayon ilmiy-tadqiqot institutlari va oliy ta’lim muassasalarida energiya tejovchi texnologiyalarni ishlab chiqish, muqobil energiya tizimlari bo‘yicha ilmiy maktablar tashkil etish va kadrlar tayyorlash jarayonini yanada faollashtirmoqda [9,11,12,13].

Shunday qilib, 2040-yilgacha bo‘lgan prognoz shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda muqobil energiya manbalari ulushi ikki baravardan ko‘proqqa ortadi. Bu esa mamlakatning energetik xavfsizligini mustahkamlash, iqlim o‘zgarishlariga qarshi kurashish va barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.



2-grafik. O‘zbekistonda muqobil energiya ishlab chiqarish istiqbollari: 2040-yilgacha prognoz tahlili

“Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish konsepsiyasida muhim o‘rin egallaydi. Ushbu strategiya mamlakat oldiga yangi avlod mutaxassislarini tayyorlash, ilmiy-texnik tafakkurni rivojlantirish va energiya samaradorligini oshirish kabi ustuvor vazifalarni qo‘ydi. Ayniqsa, muqobil energiya ishlab chiqish va undan oqilona foydalanish madaniyatini shakllantirish, ekologik ta’limni kuchaytirish hamda innovatsion laboratoriyalarni joriy etish bugungi ta’lim tizimi uchun dolzarb masalaga aylandi [13,14,15].

O‘zbekiston Respublikasi ham muqobil energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratmoqda. Mamlakatimiz hududining iqlim sharoiti, ayniqsa quyosh radiatsiyasining yuqori darajada bo‘lishi quyosh energetikasini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

Shu bilan birga, muqobil energiya texnologiyalarini rivojlantirish faqat texnik yoki iqtisodiy masala bo‘lib qolmasdan, ta’lim tizimida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Oliy ta’lim muassasalarida ushbu texnologiyalarni o‘qitish orqali talabalarning ilmiy tafakkuri, muhandislik fikrlashi va innovatsion faoliyatga bo‘lgan qiziqishini rivojlantirish mumkin.

Hozirgi kunda dunyo energetika balansida qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushi tobora ortib bormoqda. Xususan, rivojlangan davlatlarda quyosh va shamol energetikasi asosiy energiya manbalaridan biriga aylanib bormoqda.

O‘zbekiston hududida yil davomida quyosh nurlanishining davomiyligi o‘rtacha 2800–3000 soatni tashkil etadi. Bu esa quyosh energiyasidan samarali foydalanish uchun qulay sharoit yaratadi. Shuning uchun

mamlakatimizda quyosh panellari, quyosh kollektorlar, quyosh quritgichlari kabi geliotexnik qurilmalarni joriy etish istiqbolli yo‘nalishlardan biri hisoblanadi [13,15,16]..

Muqobil energiya texnologiyalarining rivojlanishi quyidagi muhim vazifalarni hal etishga xizmat qiladi:

energiya resurslaridan samarali foydalanish;

ekologik muvozanatni saqlash;

energiya mustaqilligini ta’minlash;

iqtisodiy samaradorlikni oshirish.

Shu bilan birga, ushbu texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish orqali talabalarning texnik bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Muqobil energiya texnologiyalarini o‘qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Xususan, muammoli ta’lim, loyiha metodi, modellashtirish va tajriba asosidagi o‘qitish metodlari talabalarning faol o‘quv faoliyatini tashkil etishda samarali hisoblanadi.

Muammoli ta’lim metodida talabalarga real texnik muammolar taqdim etiladi va ular mustaqil ravishda yechim izlashga undaladi. Bu esa talabalarning analitik fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Loyiha metodi esa talabalarni mustaqil tadqiqot faoliyatiga jalb etadi. Masalan, talabalar kichik guruhlarda quyosh qurilmalari, mini fotoelektr stansiyalar yoki quyosh quritgichlari loyihalarini ishlab chiqish orqali nazariy bilimlarini amaliyot bilan bog‘laydi.

Bundan tashqari, modellashtirish metodi yordamida turli energetik jarayonlarni vizual tarzda tushuntirish mumkin. Bu metod ayniqsa texnik yo‘nalishdagi fanlarni o‘qitishda samarali hisoblanadi.

Geliotexnika elementlariga asoslangan qurilmalar ta’lim jarayonida muhim didaktik vosita sifatida xizmat qiladi. Bunday qurilmalar yordamida talabalar energiya konversiyasi, issiqlik almashinuvi hamda quyosh radiatsiyasi kabi fizik jarayonlarni amaliy tajribalar orqali o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Masalan, quyosh energiyasiga asoslangan qurilmalar yordamida quyidagi tajribalarni o‘tkazish mumkin:

quyosh radiatsiyasining intensivligini aniqlash;

issiqlik almashinuvi jarayonlarini kuzatish;

energiya samaradorligini baholash.

Bunday amaliy tajribalar talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Talabalarning texnik tafakkurini rivojlantirish maqsadida geliotexnika elementlariga asoslangan quyosh quritgich qurilmasi o‘quv jarayonida samarali didaktik vosita sifatida qo‘llanilishi mumkin [15,16,17].

Quyosh quritgich qurilmasi yordamida talabalarga quyidagi jarayonlarni o‘rganish imkoniyati yaratiladi:

quyosh energiyasining issiqlik energiyasiga aylanishi;

havo aylanishi va konveksiya jarayonlari;

quritish texnologiyasining samaradorligini aniqlash.

Bunday qurilmalar bilan ishlash jarayonida talabalar nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlaydi, balki muhandislik va konstruktorlik ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

Adabiyotlar:

1. Sharipova D.B. “Muqobil energiya manbalari asosida ishlaydigan meva quritgichni yaratish va tadqiq qilish”, Magistrlik dissertatsiyasi, 2024.
2. Jalilov S.J. “Quyosh energiyasi asosida qurilmalar loyihalash”, Samarqand: Ilm ziyo, 2021.
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining metodik tavsiyalari, 2022.
4. Xolmatov O. “Innovatsion pedagogik texnologiyalar”, Toshkent, 2021.
5. Solihova Z. “Kasbiy kompetensiyalar va texnik ta’lim integratsiyasi”, Andijon, 2023.
6. Tursunov A. “Muqobil energiya manbalari va texnologiyalari”, Toshkent, 2022.
7. O‘zbekiston Milliy kutubxonasi elektron resurslari, 2023.
8. Ibragimov B.A. “Fanlararo integratsiya metodikasi”, Toshkent, 2022.
9. .Qahhorov S.Q. Ta’lim va tarbiya metodikasi: texnika fanlari yo‘nalishida o‘qitish tajribalari. – Buxoro, 2020.
10. Abedin T., Khandaker M. Design and performance analysis of a solar dryer for rural applications / T. Abedin, M. Khandaker//Journal of Renewable Energy Studies. – 2019. Vol. 3, No. 2. – P. 45–52.

11. Kumar A. Application of solar energy devices in education and agriculture / A. Kumar // International Journal of Green Energy and Education. – 2018. – Vol. 5, No. 1. – P. 18–26.

12. Нишонова Т.А. Дидактические основы профориентации через использование солнечных энергетических устройств в обучении технологии: дис. PhD пед. наук/Ташкент: 2020. –147 с.

13. Qahhorovich, Q. S., & Burkhonovna, S. D. (2025). THE USE OF HELIOTECHNICAL TOOLS IN Education and innovative approaches. yangi renessansda ilm-fan taraqqiyoti, 1(1), 8-11.

14. Burxonovna, S. D., & Axrorovna, A. G. (2023). New Options For Solar Dryers Based On Alternative Energy Sources. American Journal of Pedagogical and Educational Research, 9, 37-40.

15. Erkin, D. S., & Qahhorovich, Q. S. (2026). Sun’iy intellekt texnologiyalari asosida raqamlashtirilgan muhitida tibbiyot talabalari kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish. media va sun’iy intellekt integratsiyasining ilmiy asoslari va zamonaviy muammolari, 1(1), 339-345.

16. Qahhorovich, Q. S., & Burkhonovna, S. D. (2025). The Use Of Heliotechnical tools in education and innovative approaches. yangi renessansda ilm-fan taraqqiyoti, 1(1), 8-11.

17. Qahhorov, S. Q., Karimova, O. A., & Karimova, N. A. Pedagogik-psixologik yondashuv orqali o ‘quvchilarning kreativ tafakkurini faollashtirish. Psixologiya Учредители: Бухарский государственный университет, (2), 26-31.

SUN’IY INTELLEKT, RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA INKLYUZIV YONDASHUVLAR ASOSIDA MATEMATIKA O‘QITISH METODIKASINI YANGILASH

Abduraxmanova Nozima Akbar qizi,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Matematika yo‘nalishi talabasi
abduraxmonovanozima908@gmail.com

Ushbu maqola matematika ta’limi metodikasini sun’iy intellekt, raqamli texnologiyalar va inklyuziv yondashuvlar asosida yangilash muammolari va imkoniyatlarini keng qamrovli tahlil qiladi. Tadqiqotda an’anaviy ta’lim tizimidagi asosiy metodologik muammolar — abstrakt tushunchalar o‘qitilishidagi bo‘shliq, matematik tashvish, differensiatsiyaning yetishmasligi va bilim uzilishi — aniqlanib, ularni bartaraf etish uchun GeoGebra, Desmos, AR/VR texnologiyalar, gamifikatsiya, adaptiv AI platformalari kabi zamonaviy vositalarni maqbul integratsiya qilish modeli taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, raqamli texnologiya, matematika metodikasi, inklyuziv ta’lim, GeoGebra, gamifikatsiya, adaptiv o‘qitish, matematik tashvish, differensiatsiya, STEAM.*

UPDATING THE METHODOLOGY OF TEACHING MATHEMATICS BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE, DIGITAL TECHNOLOGIES, AND INCLUSIVE APPROACHES

This article presents a comprehensive analysis of the problems and opportunities in updating the methodology of mathematics teaching based on artificial intelligence, digital technologies and inclusive approaches. The study identifies key methodological problems in the traditional education system — gaps in teaching abstract concepts, mathematical anxiety, lack of differentiation and knowledge discontinuity — and proposes an optimal model for integrating modern tools such as GeoGebra, Desmos, AR/VR technologies, gamification and adaptive AI platforms to address them.

Keywords: *artificial intelligence, digital technology, mathematics methodology, inclusive education, GeoGebra, gamification, adaptive learning, math anxiety, differentiation, STEAM.*

ОБНОВЛЕНИЕ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ МАТЕМАТИКИ НА ОСНОВЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА, ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ИНКЛЮЗИВНЫХ ПОДХОДОВ

В данной статье представлен комплексный анализ проблем и возможностей обновления методики преподавания математики на основе искусственного интеллекта, цифровых технологий и инклюзивных подходов. В исследовании выявляются ключевые методологические проблемы традиционной системы образования и предлагается оптимальная модель интеграции современных инструментов: GeoGebra, Desmos, AR/VR-технологий, геймификации и адаптивных AI-платформ.

Ключевые слова: *искусственный интеллект, цифровые технологии, методика математики, инклюзивное образование, GeoGebra, геймификация, адаптивное обучение, математическая тревожность, дифференциация, STEAM.*

Kirish. Zamonaviy dunyoda raqamli inqilob ta’lim tizimining barcha sohalarini tubdan o‘zgartirmoqda. Matematika — eng universal va fundamental fanlardan biri sifatida — bu o‘zgarishlardan chetda qolishi mumkin emas. Biroq tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, dunyo bo‘ylab matematika o‘qitish metodikasida jiddiy muammolar mavjud: PISA-2022 ma’lumotlariga ko‘ra, 15 yoshli o‘quvchilarning 69% matematikani “qiyin va foydasiz” deb hisoblaydi, matematikadan pasayish tendensiyasi kuzatilmoqda O‘zbekistonda ham vaziyat shunga o‘xshash: 2023-yil milliy testlari natijalariga ko‘ra, o‘rta maktab bitiruvchilarining yarmidan ko‘pi matematikadan minimal ball bilan o‘tadi. Bu holat o‘qitish metodikasini tizimli ravishda yangilash zarurligini ko‘rsatadi. Ayni paytda sun’iy intellekt (AI), kengaytirilgan haqiqat (AR), adaptiv o‘qitish platformalari va gamifikatsiya kabi texnologiyalar matematika ta’limini tubdan o‘zgartirish imkoniyatini bermoqda. Bir qator xalqaro tadqiqotlar (Hattie, 2023; OECD, 2022; UNESCO, 2023) raqamli yondashuvlarning an’anaviy metodlar bilan samarali integratsiyasi o‘quv natijalarini 30–50% yaxshilashini isbotlagan. Shu bilan birga, barcha o‘quvchilar — maxsus ehtiyojlilar, iste’dodlilar, chet tilida o‘quvchilar — uchun inklyuziv muhit yaratish masalasi dolzarbligicha qolmoqda . Ushbu maqolaning maqsadi matematika o‘qitish metodikasidagi hozirgi muammolarni tizimli tahlil qilish va sun’iy intellekt,

raqamli texnologiyalar hamda inklyuziv tamoyillar asosida yangilangan metodologik model taklif etishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi va tadqiqot holati. Matematika ta’limini raqamlashtirish sohasida so‘nggi o‘n yil ichida katta hajmdagi ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Hattie va Timperley (2007) o‘tkazgan meta-tahlil 800 dan ortiq tadqiqotni qamrab olib, texnologiya orqali qayta aloqa (feedback) o‘quv samaradorligini o‘rtacha 0.73 standart og‘ishmaga oshirishini isbotlagan GeoGebra dinamik geometriya dasturining samaradorligini o‘rganishda Hohenwarter va Jones (2007) ning tadqiqoti muhim asos bo‘ldi: ular GeoGebra yordamida o‘qitilgan o‘quvchilar geometriya bo‘limida 42% yuqori natija ko‘rsatganini aniqladilar. Keyinchalik Zengin va boshq. (2017) ham shunga o‘xshash xulosalarga kelishdi Sun’iy intellekt va adaptiv o‘qitish sohasida Bloom (1984) ning “2 sigma muammosi” muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi: u individual o‘qitish guruhli o‘qitishga nisbatan o‘quv natijalarini 2 standart og‘ishmaga oshirishini ko‘rsatdi. Hozirgi AI adaptiv tizimlar (Khan Academy's Khanmigo, Carnegie Learning) ushbu bo‘shliqni qisman to‘ldirmoqda. VanLehn (2011) o‘tkazgan meta-tahlil intellektual o‘qitish tizimlari samaradorligi o‘rtacha 0.76–1.0 sigma ekanligini tasdiqladi

Matematik tashvish (mathematics anxiety) sohasida Ashcraft va Kirk (2001), Beilock va Maloney (2015) ning tadqiqotlari katta e'tibor qozondi: ular matematik tashvish ish xotirasini (working memory) bloklab qo‘yishi va bu to‘sqinlikni gamifikatsiya va formativ baholash orqali kamaytirish mumkinligini ko‘rsatdi Inklyuziv matematika ta’limi sohasida Universal Design for Learning (UDL) tamoyillari (CAST, 2018) keng qo‘llanilmoqda. Iste’dodli o‘quvchilar uchun matematik boyitish dasturlari (Renzulli, 2012), diskalkulsiya bilan o‘quvchilar uchun moslashtirilgan metodlar (Butterworth & Yeo, 2004) alohida ilmiy yo‘nalish sifatida rivojlanmoqda. O‘zbekiston kontekstida bu soha hali yetarlicha tadqiq etilmagan. Mavjud tadqiqotlar (Xo‘jayev, 2021; Karimov, 2022) asosan an’anaviy metodikaga bag‘ishlangan bo‘lib, raqamli integratsiya va AI yondashuvlarini maqsadli o‘rganuvchi ishlar kam. Bu ushbu tadqiqotning yangiligi va amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.



1-rasm. Matematika ta’limida AI va raqamli texnologiyalar integratsiya modeli

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot quyidagi metodlarni birlashtirgan kompleks metodologik yondashuv asosida amalga oshirildi: Tahliliy-sintetik metod: 2015–2024-yillar davomida chop etilgan 180 dan ortiq xalqaro ilmiy maqola, hisobot va meta-tahlillar ko‘rib chiqildi. WoS, Scopus, ERIC va Google Scholar ma’lumotlar bazalaridan foydalanildi. Qiyosiy tahlil: An’anaviy va raqamli metodlarning o‘quv natijalari 47 ta tadqiqot (umumiy n = 12,400 o‘quvchi) ma’lumotlari asosida taqqoslandi. Amaliy kuzatuv: O‘zbekistondagi 3 ta maktab va 1 ta oliy o‘quv yurtida raqamli vositalar kiritilgandan keyin natijalar monitoring qilindi (2022–2024). Ekspert baholash: 12 nafar matematika o‘qituvchisi va 5 nafar ta’lim texnologiyasi mutaxassisi bilan chuqur intervyu o‘tkazildi.

An’anaviy matematika ta’limidagi asosiy muammolar. Tadqiqot davomida an’anaviy matematika o‘qitish metodikasida bir necha tizimli muammo aniqlanadi. Bu muammolarning bir-biri bilan chambarchas bog‘liqligini va kompleks yechim talab qilishini alohida ta’kidlash lozim. Abstrakt tushunchalar metodologik bo‘shliq. Ko‘pgina o‘quvchilar limit, integral, kompleks son kabi abstrakt matematik tushunchalarni faqat

mexanik formula sifatida yod oladilar, lekin ularning mohiyatini tushunmaydilar. Sternberg (2020) ning tadqiqotida 11-sinf o‘quvchilarining 78% hosilaning geometrik ma’nosini tushuntira olmasligi aniqlangan. Bu muammoning asosiy sababi — vizualizatsiya va dinamik namoyish imkoniyatlarining cheklanganligi. Matematik tashvish (Math Anxiety). PISA-2022 ma’lumotlariga ko‘ra, o‘rta maktab o‘quvchilarining 43% o‘zini “matematikadan qo‘rqaman” deb ta’riflaydi. Bu psixologik holat nafaqat matematik o‘zlashtirish sifatini, balki keyinchalik fan va texnologiyaga yo‘nalishni ham salbiy ta’sir etadi. Neyrovizualizatsiya tadqiqotlari (Lyons & Beilock, 2012) matematik tashvish og‘riq bilan bog‘liq miya hududlarini faollashtirishi — ya’ni matematik muammo hal qilish haqiqiy og‘riqqa o‘xshash reaksiya hosil qilishini ko‘rsatgan. Differensiatsiyaning yetishmasligi. An’anaviy darsda o‘qituvchi o‘rtacha o‘quvchiga yo‘naltirilgan yagona dars rejasini qo‘llaydi. Bu holat bir tomondan zaif o‘quvchilarni qolib ketishiga, ikkinchi tomondan iste’dodli o‘quvchilarning o‘z salohiyatini to‘liq namoyon qilolmasligiga olib keladi. Bloom’s mastery learning tadqiqotlariga ko‘ra, maqbul differensiatsiya o‘quv natijalarini 25–30% yaxshilaydi. Vertikal bilim uzilishi. Boshlang‘ich, o‘rta va yuqori sinflar orasida matematika kontentida izchillik yo‘qligi kuzatiladi. Masalan, ko‘plab o‘quvchilar 9-sinfda algebraik ifodalar bilan ishlashda 5–6-sinf kasr amallarini bilmasliklari tufayli to‘siqqa duch keladi. Bu uzilish kümülatif ta’sir qilib, keyingi sinflarda matematikadan ortda qolish ehtimolini sezilarli oshiradi.

2-rasm. Matematika o'qitishdagi muammolar va zamonaviy yechimlar matritsasi

Muammo	Sababi	Zamonaviy yechim	Kutilgan natija
Abstrakt tushunchalar	Vizualizatsiya yetishmasligi	GeoGebra, AR texnologiyalar	Kontseptual tushunish +40%
Matematik tashvish	Baholash qo'rquvi	Gamifikatsiya, formativ baholash	Motivatsiya +35%
Differentsiat-siya yo'qligi	Yagona dars rejasi	AI adaptiv o'qitish	Individual natija +50%
Bilim uzilishi	Vertikal aloqa zaifligi	Spiral dastur, digital platforma	Izchillik +30%
Isbotlash ko'nikmasi	Formal yondashuv	Collaborative problem solving	Mantiqiy tafakkur +45%

2-rasm. Matematika o‘qitishdagi muammolar va zamonaviy yechimlar matritsasi

Raqamli texnologiyalar: imkoniyatlar va natijalar. GeoGebra 2002-yilda Markus Hohenwarter tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, hozirda 100 dan ortiq mamlakatda 100 million foydalanuvchiga ega. U algebraik ifodalar, geometrik shakllar, statistik ma’lumotlar va 3D vizualizatsiyani bitta interaktiv muhitda birlashtiradi. O‘quvchi “Formula kiritaman va uning grafigi darhol ko‘rinadi” tamoyili asosida mavhumliklarni konkret holda ko‘radi. Zengin va boshq. (2017) tomonidan o‘tkazilgan tajriba natijalariga ko‘ra, GeoGebra yordamida trigonometriya o‘qitilgan sinf nazorat sinfiga nisbatan 38% yuqori natija ko‘rsatgan. Muhimi — bu farq 6 oydan keyin ham saqlanib qolgan, ya’ni texnologiya chuqur tushunishga olib kelgan. Zamonaviy AI adaptiv platformalar (Khan Academy Khanmigo, Carnegie Learning MATHia, DreamBox) har bir o‘quvchining o‘zlashtirish darajasini real vaqtda tahlil qilib, individual yo‘naltirilgan topshiriqlar taqdim etadi. Bu Bloom'ning “2 sigma” muammosini qisman hal qiladi — individual e’tibor olgan o‘quvchi sinfda guruh bilan ishlagan o‘quvchiga nisbatan 2 standart og‘ishma yuqori natija ko‘rsatadi. Carnegie Learning MATHia platformasining 8-sinf algebra kursidagi samaradorligini o‘rganishda (Pane va boshq., 2014; n = 1134 o‘quvchi) 40% ko‘proq o‘quv sifati oshgani aniqlandi. Platforma o‘quvchi xatolarini aniq tahlil qilib, noto‘g‘ri tushunchaning qayerdan kelib chiqqanini (misconception source) ko‘rsata oladi.

Gamifikatsiya — o‘yin elementlari (ball, yutuq nishonlari, reyting, daraja oshish)ni o‘quv jarayoniga kiritish — matematika darslarida motivatsiyani sezilarli oshirishini ko‘rsatadi. Prodigy Math platformasida o‘tkazilgan tadqiqot (n = 4,719 o‘quvchi) platformadan foydalanadigan o‘quvchilar matematika o‘qishga kuniga o‘rtacha 43 daqiqa ko‘proq vaqt sarflashini aniqladi. Biroq gamifikatsiyani haddan oshirish — faqat ball va reytingga e'tibor qaratish — ichki motivatsiyani so‘ndirib, tashqi motivatsiyaga qaramlikni kuchaytirishi mumkin (Deci & Ryan, 2000). Shuning uchun gamifikatsiyani mazmunli va maqsadli qo‘llash — jumladan, o‘quvchilarga o‘yin mexanizmlarini o‘zlari loyihalash imkonini berish — muhimdir. AR texnologiyalar, jumladan Microsoft HoloLens va oddiy smartfon ilovalari (GeoAR, Desmos AR) orqali 3D geometrik shakllarni “ushlab ko‘rish” , fazoviy tasavvurni rivojlantirish mumkin. Huang va boshq. (2019) ning tadqiqotida AR bilan ishlagan o‘quvchilarda fazoviy tafakkur 34% yaxshilanishi qayd etilgan. Ayniqsa stereogeometriya va vektorlar mavzularida AR samaradorligi yuqori.



3-rasm. An’anaviy va raqamli metodlar asosidagi o‘quv natijalarini solishtirish (%)

1-jadval. Asosiy raqamli vositalarning qiyosiy tavsifi

Vosita	Yo‘nalish	Yosh guruhi	Samaradorlik	Narx
GeoGebra	Geometriya, Algebra	10–18 yosh	+38–42%	Bepul
Khan Academy	Barcha bo‘limlar	6–18 yosh	+25–35%	Bepul
Carnegie MATHia	Algebra, Kalkulus	13–18 yosh	+40%	To‘lov
Desmos	Grafik, Funksiya	12–18 yosh	+30%	Bepul
Prodigy Math	Boshlang‘ich mat.	6–12 yosh	+43% mot.	Freemium

Inklyuziv ta’lim shunchaki maxsus ehtiyojli o‘quvchilarni sinflarga qo‘yish emas — bu barcha o‘quvchilar uchun to‘laqonli o‘qitish muhiti yaratishdir. Universal Design for Learning (UDL) tamoyillari (CAST, 2018) inklyuziv matematika ta’limining asosiy metodologik çerçevesini tashkil etadi. Diskalkulsiya — matematik ko‘nikmalarni o‘zlashtirishda neyrobiologik to‘siq — bolalarning 5–7% ni qamrab oladi (Butterworth, 2019). Bunday o‘quvchilar uchun vizual-manipulyativ yondashuvlar (Algebra tiles, fraction bars), multi-sensorli o‘qitish va moslashtirilgan AI vositalar (Numbershark, Dybuster Calcularis) samarali bo‘ladi. Iste’dodli o‘quvchilar an’anaviy darsda tez zerikadilar va salohiyatlari to‘la namoyon bo‘lmaydi. Ular uchun enrichment (boyitish) dasturlari — matematik olimpiadalar, open-ended muammolar, computational thinking loyihalari — maqbul. AI adaptiv tizimlar bu o‘quvchilarni real vaqtda yuqori darajadagi materiallarga yo‘naltirishi mumkin. Formativ baholash (xato qilishga xavfsiz muhit), growth mindset (Carol Dweck, 2006) yondashuvi va o‘yin-asosli o‘qitish matematik tashvishni kamaytiradi. Ayniqsa jamoaviy muammo yechish va o‘quvchilar matematik xatolarini birga tahlil qilishi (error analysis) ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.



4-rasm. Matematika ta’limida inklyuziv yondashuv piramidasi

Tadqiqot natijalari asosida matematika o‘qitish metodikasini yangilash uchun uch qatlamli integratsiya modeli taklif etiladi:

I qatlam — Infratuzilma va o‘qituvchi tayyorgarligi. Raqamli transformatsiya muvaffaqiyati birinchi navbatda o‘qituvchi kompetensiyasiga bog‘liq. Tadqiqotimiz shuni ko‘rsatdiki, raqamli vositalarni o‘zlashtirishdagi asosiy to‘siq texnologiyaning o‘zi emas, balki o‘qituvchining u bilan ishlashga tayyormasligi (pedagogical content knowledge + technological knowledge). O‘qituvchi tayyorgarligi tizimi: (1) asosiy raqamli vositalarni o‘zlashtirish (GeoGebra, Desmos, kahoot.it); (2) AI asosida dars rejalashtirish; (3) formativ baholash texnologiyalari; (4) inklyuziv muhit yaratish ko‘nikmasi.

II qatlam — Mazmun va metodika. Spiral dastur asosida tuzilgan, vertikal izchillik ta’minlangan o‘quv reja zarur. Har bir mavzu uchun: (a) konkret-vizual bosqich (GeoGebra, manipulativ), (b) kontseptual-analitik bosqich (muammo yechish), (c) amaliy-loyiha bosqich (real kontekst) ketma-ketligi qo‘llanilishi kerak.

III qatlam — Baholash va feedback. An’anaviy yig‘ma baholash (summative) dan formativ baholashga o‘tish zarur. AI vositalar real vaqtda har bir o‘quvchining o‘sish dinamikasini kuzatib borishi, o‘qituvchiga analitika taqdim etishi va individual feedback berishga imkon yaratadi.

5-rasm. Raqamli davrda matematika o‘qituvchisi kompetensiyalari profile

O‘zbekiston Respublikasida 2017-yildan boshlab ta’limni raqamlashtirish bo‘yicha bir qator muhim qarorlar qabul qilingan. “Ta’lim to‘g‘risida”gi yangi qonun (2020), “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasi va ta’lim standartlarini yangilash ishlari bu yo‘nalishda muhim asos bo‘ldi. Ammo matematika metodikasini raqamli texnologiyalar va inklyuziv yondashuvlar bilan tizimli birlashtirish hali to‘liq amalga oshirilmagan.

Xulosa. Ushbu tadqiqot matematika o‘qitish metodikasini yangilash zarurligi va imkoniyatlarini keng qamrovli tahlil qildi. Quyidagi asosiy xulosalar chiqarildi: Birinchidan, an’anaviy metodikadagi muammolar — abstrakt tushuncha o‘qitilishidagi bo‘shliq, matematik tashvish, differensiatsiyaning yo‘qligi va bilim uzilishi — o‘zaro bog‘liq bo‘lib, kompleks yechim talab qiladi. Ularni alohida-alohida hal qilishga urinish samarali bo‘lmaydi. Ikkinchidan, zamonaviy raqamli texnologiyalar — GeoGebra, AI adaptiv tizimlar, gamifikatsiya, AR/VR — o‘quv natijalarini 30–50% yaxshilash imkoniyatini beradi, lekin ular faqat vosita bo‘lib, metodologik asossiz qo‘llanilsa samara bermaydi. Texnologiya metodikani almashtirmaydi — uni kuchaytiradi. Uchinchidan, inklyuziv ta’lim printsipi — barcha o‘quvchilar uchun, har qanday qobiliyat va xususiyatda — zamonaviy metodikaning ajralmas qismi bo‘lishi kerak. Universal Design for Learning (UDL) çerçevesi O‘zbekiston maktablariga ham moslashtirib tatbiq etish mumkin. To‘rtinchidan, hamma o‘zgarishlar markazida o‘qituvchi turadi. Eng zamonaviy texnologiya ham samaradorlikka erishishi uchun malakali, motivatsiyali va qo‘llab-quvvatlangan o‘qituvchi zarur. Shuning uchun o‘qituvchi tayyorgarligi va professional rivojlanish investitsiyasi — metodikani yangilashning birinchi va eng muhim qadamidir.

Adabiyotlar:

1. Karimov B.X. O‘zbekiston maktablarida matematika ta’limini takomillashtirish muammolari // Pedagogik ta’lim. – 2022. – № 3. – B. 45–52.
2. Xo‘jayev N.T. Ta’lim texnologiyalari va ularni amaliyotga tatbiq etish. – Toshkent: "Innovatsion rivojlanish" nashriyoti, 2021. – 180 b.
3. UNESCO. Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education. – Paris: UNESCO, 2021. – 186 p.
4. VanLehn K. The relative effectiveness of human tutoring, intelligent tutoring systems, and other tutoring systems // Educational Psychologist. – 2011. – Vol. 46(4). – P. 197–221.
5. Nafisa, Nashvanova. "Til o‘rganishda raqamli vositalarning samaradorligi." *Tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g‘oyalar* 1.8 (2025): 57-63.
6. Madadjon, O‘ktamov. "Translation problems and literary translation in uzbek literature: the role of information technology in the education system."*Tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g‘oyalar”* 1.7 (2025): 571-574.
7. O‘ktamov Madadjon "Translation Problems and Literary Translation in Uzbek literature: research, problems and solution." *Tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g‘oyalar* 1.7 (2025): 326-331.

INFORMATIKA FANINI INTEGRATIV O‘QITISHNING ZAMONAVIY METODLARI VA XORIJIY TAJRIBALAR

Ahmedova Zebixon Siddiqovna,
Qo‘qon davlat universiteti
“Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt” kafedrasi katta o‘qituvchisi
zebohonahmedova7@gmail.com

Mazkur maqolada informatika fanini integrativ yondashuv asosida o‘qitishning dolzarbligi, zamonaviy metodlari hamda ilg‘or xorijiy tajribalar tahlil qilinadi. Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta’lim tizimidan fanlararo integratsiyani kuchaytirishni talab etmoqda. Informatika fani boshqa fanlar bilan uzviy bog‘liq holda o‘qitilganda o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashi, muammolarni hal qilish ko‘nikmalari va ijodiy yondashuvi sezilarli darajada rivojlanadi. Integrativ o‘qitishda loyiha asosida ta’lim (project-based learning), muammoli ta’lim, STEAM yondashuvi, raqamli platformalardan foydalanish kabi zamonaviy metodlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu metodlar orqali o‘quvchilar nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash imkoniyatiga ega bo‘ladilar hamda turli fanlar kesishmasida kompleks bilimlarni egallaydilar. Maqolada informatika fanini integrativ yondashuv asosida o‘qitish haqida to‘liq ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: *ta’lim, ta’lim tizimi, informatika, fanlararo aloqadorlik, integrativ yondashuv, o‘qitish, xorijiy tajribalar, raqamli texnologiyalar, ijodiy yondashuv, integrativ ta’lim, muammoli ta’lim.*

СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ИНТЕГРАТИВНОГО ОБУЧЕНИЯ ИНФОРМАТИКЕ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ.

В данной статье рассматриваются актуальность обучения информатике на основе интегративного подхода, современные методы, а также анализируется передовой зарубежный опыт. В настоящее время стремительное развитие цифровых технологий требует усиления междисциплинарной интеграции в системе образования. При обучении информатике в тесной взаимосвязи с другими предметами значительно развиваются логическое мышление учащихся, навыки решения проблем и творческий подход. В интегративном обучении важное значение имеют современные методы, такие как проектно-ориентированное обучение (project-based learning), проблемное обучение, подход STEAM, а также использование цифровых платформ. С помощью этих методов учащиеся получают возможность связывать теоретические знания с практикой и осваивать комплексные знания на стыке различных дисциплин. В статье представлена подробная информация об обучении информатике на основе интегративного подхода.

Ключевые слова: *образование, система образования, информатика, междисциплинарные связи, интегративный подход, обучение, зарубежный опыт, цифровые технологии, творческий подход, интегративное обучение, проблемное обучение.*

MODERN METHODS OF INTEGRATIVE TEACHING OF COMPUTER SCIENCE AND FOREIGN EXPERIENCE.

This article examines the relevance of teaching informatics based on an integrative approach, explores modern methods, and analyzes advanced foreign experience. In the context of the rapid development of digital technologies, there is a growing need to strengthen interdisciplinary integration within the education system. Teaching informatics in close connection with other subjects significantly enhances students’ logical thinking, problem-solving skills, and creative approach. In integrative education, modern methods such as project-based learning, problem-based learning, the STEAM approach, and the use of digital platforms play an important role. These methods enable students to connect theoretical knowledge with practice and to acquire comprehensive knowledge at the intersection of various disciplines. The article provides detailed information on teaching informatics based on an integrative approach.

Keywords: *education, education system, informatics, interdisciplinary connections, integrative approach, teaching, foreign experience, digital technologies, creative approach, integrative education, problem-based learning.*

Kirish. Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim tizimiga qo‘yilayotgan talablar tubdan o‘zgarib bormoqda. Ayniqsa, informatika fani zamonaviy jamiyatning asosiy tayanch yo‘nalishlaridan biri sifatida nafaqat mustaqil fan, balki boshqa fanlar bilan uzviy bog‘liq holda o‘qitilishini talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, informatika fanini integrativ yondashuv asosida o‘qitish masalasi dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Integrativ ta’lim o‘quvchilarda turli fanlarga oid bilimlarni o‘zaro bog‘lash, ularni kompleks tarzda qo‘llash hamda real hayotiy muammolarni hal etishda samarali foydalanish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Informatika fanining matematika, fizika, texnologiya, iqtisodiyot va boshqa yo‘nalishlar bilan integratsiyasi o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini, ijodkorligini va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda ta’lim jarayonida loyiha asosida o‘qitish, muammoli ta’lim, STEAM yondashuvi, raqamli texnologiyalar va interaktiv metodlardan keng foydalanilmoqda. Shuningdek, rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi informatika fanini integratsiyalashgan holda o‘qitish orqali yuqori natijalarga erishish mumkinligini ko‘rsatmoqda. Ushbu tajribalarni o‘rganish va milliy ta’lim tizimiga moslashtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur ishning maqsadi informatika fanini integrativ o‘qitishning zamonaviy metodlarini tahlil qilish hamda ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish asosida samarali pedagogik yondashuvlarni aniqlashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Fanlararo aloqadorlik talabalar o‘quv faoliyatini faollashtirishning, o‘quv yurtlarida fan asoslarini chuqurroq va har tomonlama o‘zlashtirishning, mustaqil bilim olish, anglash-tushunishni shakllantirishning didaktik sharti va vositasi deb hisoblagan N.B.G‘ofurov, I.D.Zvereva, A.V.Usova va boshqalarning tadqiqotlari mazkur muammoni o‘rganishga o‘z hissasini qo‘shganlar. Olimlarning hisoblashiga ko‘ra, fanlararo aloqadorlik nafaqat o‘quv-tarbiyaviy jarayonni optimallashtirishning zaruriy sharti bo‘lib, balki unga “fanlararo komponentlar” tushunchasini kiritish bilan alohida o‘quv fanlari bo‘yicha ta’lim berish mazmunini qurish manbasi bo‘lib ham sanaladi. Bu, birinchi navbatda, bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning samarali texnologiyalari hamda ulardan foydalanishning optimal pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish bilan bog‘liq.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur ishning obyekti umumiy o‘rta ta’lim maktablari va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida informatika fanini integrativ yondashuv asosida o‘qitish jarayoni hisoblanadi. Xususan, informatika fanining boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqlikda o‘qitilishi, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini shakllantirish jarayonlari tadqiqot markazida turadi. Tadqiqot predmeti esa informatika fanini integrativ o‘qitishning zamonaviy metodlari, vositalari va pedagogik texnologiyalari hamda ularning samaradorligini ifodalaydi.

Ushbu jarayonda quyidagi ilmiy-pedagogik metodlardan foydalanildi:

- **Nazariy tahlil** – mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, xorijiy va mahalliy tadqiqotlarni o‘rganish va umumlashtirish;
- **Taqqoslash metodi** – turli davlatlar ta’lim tizimidagi integrativ o‘qitish tajribalarini solishtirish;
- **Kuzatish metodi** – informatika darslarida integrativ yondashuvning qo‘llanilishini tahlil qilish;
- **So‘rovnoma va suhbat** – o‘qituvchi va o‘quvchilarning fikr-mulohazalarini aniqlash.

Tahlillar va natijalar. Mazkur jarayonda informatika fanini integrativ yondashuv asosida o‘qitishning samaradorligi o‘rganildi va bir qator muhim natijalarga erishildi. Jumladan, informatika fanini matematika, fizika, texnologiya va boshqa fanlar bilan uzviy bog‘liq holda o‘qitish o‘quvchilarning bilimlarni yaxlit holda qabul qilishiga hamda ularni amaliy vaziyatlarda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi aniqlandi. Natijalarga ko‘ra, loyiha asosida o‘qitish, muammoli ta’lim va STEAM yondashuvi kabi metodlar qo‘llanilganda o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishi ortdi, mustaqil fikrlash darajasi va ijodiy yondashuvi sezilarli darajada oshdi. Ayniqsa, fanlararo bog‘liqlik asosida tashkil etilgan darslarda o‘quvchilar murakkab masalalarni hal etishda turli fanlarga oid bilimlardan kompleks foydalanishni o‘rgandilar.

Xorijiy tajribalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, rivojlangan davlatlarda informatika fanini integratsiyalashgan holda o‘qitish o‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalarini, xususan, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, jamoada ishlash va raqamli savodxonlikni shakllantirishda yuqori samaradorlikka ega. Ushbu tajribalarni milliy ta’lim tizimiga moslashtirish orqali ta’lim sifatini oshirish mumkinligi asoslab berildi. Shuningdek, tadqiqot natijalari integrativ yondashuvni samarali joriy etish uchun o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirish, zamonaviy axborot - kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish hamda o‘quv dasturlarini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatdi. Tahlillar asosida shunday xulosaga kelindiki, informatika fanini integrativ o‘qitish o‘quvchilarning bilim darajasini oshirish bilan birga, ularni zamonaviy jamiyat talablariga mos, raqobatbardosh kadrlar sifatida shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Xorijiy tajribalar, xususan, rivojlangan davlatlar ta’lim tizimida informatika fanini matematika,

fizika, texnologiya va hatto san’at bilan integratsiyalashgan holda o‘qitish samarali natijalar berayotganini ko‘rsatadi.

Shunday yondashuvlardan biri informatika fanin fanlararo aloqadorlik prinsiplari asosida o‘qitishdan iborat. Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyot tarmoqlarida malakali mutaxassislarga talabning ortib borishi ta’lim jarayonlarini zamon talabiga mos holda tashkil etish zaruratini keltirib chiqardi. Shuning uchun ham mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish uchun fanlarni o‘qitish amaliyotida yangicha yondashuvlarni izlab topish va ta’lim jarayoniga tatbiq etish muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiyot yo‘nalishidagi kasb-hunar kollejlarida ham maxsus fanlarni o‘qitishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri sifatida fanlararo aloqadorlikning mazmun-mohiyatini o‘rganish va ta’lim jarayonida bu imkoniyatlardan foydalanish uchun jarayonning ilmiy asoslangan modelini ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish malakali mutaxassislarni tayyorlash samaradorligini oshirishning nazariy asosi sifatida e’tirof etilishi mumkin. Fanlararo aloqadorlik talabalarning bilim darajasini oshirishda muhimligi tufayli mutaxassislik fanlarini integrativ tarzda o‘qitishning didaktik modelini yaratish bo‘lajak mutaxassislar tayyorlash sifatini oshiradi. Barcha ta’lim muassasalarida ham ta’lim berish jarayoni ma’lum bir didaktik qonuniyatlar asosida tashkil etilib, ularni bilish o‘qituvchiga ta’lim berishning samarali yo‘llari va usullarini topishga, o‘quv jarayonini to‘g‘ri tashkil etishga yordam beradi.

Bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirishda fanlararo aloqadorlikning o‘rnini o‘rganish bo‘yicha bir qator tadqiqotlar olib borilgan va fanlararo aloqadorlik muammosining keng ko‘lamli tahlili, fanlararo aloqadorlik prinsiplaridan foydalanishning izchil didaktik tizimi ishlab chiqilgan emas. Ko‘p hollarda bir fanni o‘qitish materiali boshqa pedagog tomonidan faqat illyustratsiya ko‘rinishida, qo‘shimcha yoki tarixiy ma’lumotnoma sifatida foydalanilmoqda.

Fanlararo aloqadorlik talabalarda bo‘lajak kasbiy faoliyati haqida to‘la tasavvurni shakllantiradigan hamda butun hayoti va faoliyati davomida mustaqil bilim olishlariga qaratilgan dialektik fikrlashni rivojlantiruvchi, ilm-fan sohalari orasidagi ob’ektiv mavjud aloqalarni tushunish asosida dunyoqarashni kengaytirishga zamin yaratadi.

Ta’limning bunday yondashuvida talabalarning bilimi va ko‘nikmalari kelgusi faoliyatda faqat sof predmet ko‘rinishida – fizik, kimyoviy, biologik, matematik, texnik va hokazo ko‘rinishlardagina namoyon bo‘ladi. O‘qituvchi fanlararo aloqadorlikka tayangan holda o‘z fani vositalari yordamida talabalarda nafaqat bir o‘quv fani doirasida, balki fanlararo aloqadorlik asosida to‘liq bilish va fikrlash qobiliyatini shakllantira olishi zarurdir.

Kuzatuvlar va tadqiqotlar natijalari asosida fanlararo aloqadorlikdan foydalanish modeli tavsiya qilinadi:

-talabalarda bilimlarni fanlararo biridan-biriga o‘tkazish hisobiga kelgusi kasbiy faoliyat haqida to‘la tasavvurni shakllantirish;

-fanlararo aloqadorlik vositasida maxsus fanlarni o‘qitish jarayonida modulli o‘qitishni tashkil etish;

-fanlararo aloqadorlikning asosiy mexanizmi sifatida dialektik fikrlash va refleksiya hisoblanuvchi mustaqil bilim olish jarayonini asosliligini ta’minlanishi.

Fanlararo aloqadorlikdan foydalanish modeli o‘quvchini tayyorlash sifatini ta’minlash va buning natijasida bo‘lajak mutaxassisning butun hayot faoliyati davomida mustaqil ta’limni o‘zlashtirishi bu faoliyatning yo‘lga qo‘yilishini tavsiflaydi. Shunga bog‘liq holda vaqt bo‘yicha bu modelning rivojlanishidagi muhim belgi bo‘lib, uning dinamikasi sanaladi va bu fanlararo aloqadorlik asosda mutaxassislarni tayyorlashda sifat darajalarini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Fanlararo aloqadorlik qonuniyatlaridan foydalanish modelining muhim bloklaridan biri – mazmuniy blok fanlararo aloqadorlik mazmunini ochib beradi. Bu blok informatika, matematika, iqtisodiyot kabi bir nechta fanlar negizida fanlararo aloqadorlikni amalga oshirishni nazarda tutadi. Fanlararo aloqadorlik yordamida maxsus o‘quv fanlaridagi tushunchalar ortadi, talabalarning dunyoqarashi kengayadi, kasbiy faoliyat haqida to‘laroq tasavvur shakllanadi.

Motivatsion blok o‘z ichiga ichki va tashqi komponentlarni olib, ular 4 ta funksiyani bajaradi. Bular maqsadni belgilovchi funksiya, tashkiliy, tarbiyaviy va kommunikativ funksiyalardir. Bu funksiyalarning har biri kasb-hunar kolleji o‘quvchilarini tayyorlash sifatini oshirishni ta`minlash borasida o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Modulning ta`lim sifatini oshiruvchi bloki ichki va tashqi komponentlar faoliyatini, umummadaniy va umumkasbiy kompetentsiyalar darajasini, shuningdek, model ishi natijalarini tahlil qiladi. Shuni ham e’tiborga olish zarurki, fanlararo aloqadorlikdan foydalanish modelining ichki va tashqi komponentlari bir qator funksiyalar bilan mustahkamlangan. O‘quvchilar faoliyatida maqsadni belgilash funksiyasining alohida ko’rsatilishi bilimlardan o‘quv fanlariaro foydalanishni ko‘rib chiqadigan ta`lim mazmuni, shakl va vositalarning rivojlanishi bilan asoslanadi. Mazkur funksiyaning amalga oshirilishi o‘quvchilarning

bilimlarini fanlararo aloqadorlikdagi bir butun tuzilmasini shakllantirishni ko‘zda tutadi. Bu bilimlarni bir tizimga birlashtirish o‘quvchiga fan va amaliyotning o‘zaro bo‘g’liqligiga asoslangan holda kelgusi kasbiy faoliyatning ko‘plab jihatlarini oldindan ko‘ra bilishga, kasbiy masalalarni hal qilish uchun bilimlarni egallash va ulardan foydalanishga, istiqboldagi professional faoliyatda yordam beradi.

Tashkiliy funksiya bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatbardosh kadr tayyorlashning muhim komponenti – ularda tashabbuskorlik va tadbirkorlik kabi kasbiy sifatlarni shakllantirishga yo‘naltiriladi hamda ishlab chiqarish amaliyotida kasbiy majburiyatlarni bajarish orqali yuzaga chiqadi.

Kommunikativ funksiya korporativ madaniyat asosida kasbiy muloqot yuritishda xulqiy moslashuvchanlikni, kasbiy muhim bo‘lgan o‘z-o‘zini to‘g‘rilash mahoratlarini egallashga qaratilib, jamoada ishlay olish va bir-biriga yordam berish qobiliyati sifatida o‘zaro hamkorlik va muloqotga kirishish vositasida amalga oshiriladi. Kommunikativ funksiya emotsional darajada muloqot jarayonida namoyon bo‘ladi va kasbiy muhitda maqsadga muvofiq o‘zaro munosabatlarning o‘rnatilishiga yordam beradi.

Metodik blok quiydagilardan iborat:

1. Munozara, trening, didaktik va ijodiy o‘yinlar, aqliy hujum kabi o‘qitishning faol shakllari.
2. Interfaol usullar – jamoaviy fikrlash faoliyati (loyihaviy faoliyat).
3. Modulli o‘qitish.

Mazkur blok bo‘lajak mutaxassislarning umummadaniy (tashkiliy, kommunikativ, refleksiv) va umumkasbiy (ijtimoiy-kasbiy, maxsus kasbiy) kompetentsiyalarini rivojlantirishga qaratilgan.

Xulosalar. Informatika fanini integrativ yondashuv asosida o‘qitish ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri ekanligi aniqlandi. Fanlararo integratsiya o‘quvchilarga bilimlarni alohida-alohida emas, balki o‘zaro bog‘liq holda o‘zlashtirish imkonini yaratadi, bu esa ularning mantiqiy fikrlashi, tahlil qilish va muammolarni hal etish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Zamonaviy pedagogik metodlar, xususan, loyiha asosida o‘qitish, muammoli ta’lim, STEAM yondashuvi hamda raqamli texnologiyalardan foydalanish informatika fanini samarali o‘qitishda muhim ahamiyat kasb etishi asoslab berildi. Ushbu metodlar o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ularni mustaqil fikrlashga undaydi va amaliy ko‘nikmalarni shakllantiradi. Xorijiy tajribalar tahlili esa informatika fanini integratsiyalashgan holda o‘qitish orqali yuqori natijalarga erishish mumkinligini ko‘rsatdi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasini o‘rganish va ularni milliy ta’lim tizimiga moslashtirish orqali o‘qitish sifatini yanada oshirish imkoniyati mavjud.

Umuman olganda, informatika fanini integrativ o‘qitish o‘quvchilarning zamonaviy kompetensiyalarini rivojlantirish, ularni raqamli jamiyat talablariga mos tayyorlash hamda ta’lim tizimini takomillashtirishda muhim yo‘nalish sifatida e’tirof etiladi. Xulosa qilib aytganda, informatika fanini integrativ asosda o‘qitish ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirish va ularni zamonaviy jamiyat talablariga mos ravishda tayyorlashda muhim omil hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Yuldashev U.Yu., Boqiev R.R., Zokirova.F.M. Informatika va axborot texnologiyalari. Elektron o‘quv qo‘llanma. - T, 2004.

2. Aripov M. Informatika va informatsion texnologiyalar. Oliy o‘quv yurti talabalari uchun darslik T. 2005 y.

3. Xoshimova M.K. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. (Ma’ruzalar matni). T.:TDIU.- 2012.- 50 bet.

4. Ochilov M. "Yangi pedagogik texnologiyalar",Qarshi, 2012.

5. Golish L.V."Zamonaviy pedagogik texnologiyalar"., M. 2012

6. Ishmuhammmedov R. Ta’limda innovatsiya. – Toshkent:«Fan», 2010.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O‘ZGARMAS TOK QONUNLARINI O‘QITISHDA TALABALARNING METAPROFESSIONAL KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Bakayeva Mexriniso Izatovna,
Osiyo xalqaro universiteti
“Umumtexnik fanlar”kafedrasi o‘qituvchisi

Ushbu maqolada raqamli texnologiyalar yordamida o‘zgarmas tok qonunlarini o‘qitishda talabalarning metaprofessional kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari o‘rganilgan. Maqolada raqamli laboratoriyalar, simulyatsiyalar va interfaol o‘quv vositalari orqali fizik jarayonlarni vizualizatsiya qilishning ta’lim samaradorligiga ta’siri ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, talabalarda tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, ijodiy yondashuv va mustaqil o‘rganish kabi metaprofessional ko‘nikmalarni shakllantirish metodikasi yoritilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish talabalarning bilim, ko‘nikma va umumiy kompetensiyalarini sezilarli darajada oshiradi hamda zamonaviy ta’lim muhitida o‘qitish jarayonining sifatini yaxshilaydi.

Kalit so‘zlar: *raqamli texnologiyalar, o‘zgarmas tok qonunlari, metaprofessional kompetensiyalar, fizika ta’limi, simulyatsiya, interfaol ta’lim.*

РАЗВИТИЕ МЕТАПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ В ПРЕПОДАВАНИИ ЗАКОНОВ ПОСТОЯННОГО ТОКА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

В данной статье рассматриваются вопросы развития метапрофессиональных компетенций студентов при преподавании законов постоянного тока с использованием цифровых технологий. В статье показано влияние визуализации физических процессов с помощью цифровых лабораторий, симуляций и интерактивных учебных инструментов на эффективность обучения. Также рассматривается методология развития у студентов таких метапрофессиональных навыков, как критическое мышление, решение проблем, творческий подход и самостоятельное обучение. Результаты исследования показывают, что интеграция цифровых технологий значительно повышает знания, навыки и общие компетенции студентов и улучшает качество учебного процесса в современной образовательной среде.

Ключевые слова: *цифровые технологии, законы постоянного тока, метапрофессиональные компетенции, физическое образование, симуляция, интерактивное обучение.*

DEVELOPING STUDENTS’ METAPROFESSIONAL COMPETENCIES IN TEACHING THE LAWS OF CONSTANT CURRENT BASED ON DIGITAL TECHNOLOGIES

This article examines the development of students' metaprofessional competencies when teaching the laws of direct current using digital technologies. It demonstrates the impact of visualizing physical processes using digital laboratories, simulations, and interactive learning tools on learning effectiveness. It also explores a methodology for developing students' metaprofessional skills such as critical thinking, problem solving, creativity, and independent learning. The study's results demonstrate that the integration of digital technologies significantly enhances students' knowledge, skills, and general competencies, improving the quality of the learning process in a modern educational environment.

Keywords: *digital technologies, laws of direct current, metaprofessional competencies, physics education, simulation, interactive learning.*

Kirish. Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim tizimida sifat va samaradorlikni oshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy jamiyatda mutaxassisdan nafaqat chuqur nazariy bilim, balki turli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish, muammolarni hal etish, tanqidiy va tizimli fikrlash kabi metaprofessional kompetensiyalarni egallashi talab, oliy ta’lim muassasalarida fizika fanlarini, xususan, o‘zgarmas tok qonunlarini o‘qitish jarayonini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. O‘zgarmas tok qonunlari fizikaning asosiy bo‘limlaridan biri bo‘lib, u nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Ushbu mavzuni an’anaviy

usullarda o‘qitish ko‘pincha talabalarning faolligini yetarli darajada oshirmaydi va bilimlarning chuqur o‘zlashtirilishini ta’minlay olmaydi. Shu sababli, raqamli texnologiyalar – virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar, interfaol platformalar va multimediali vositalardan foydalanish o‘quv jarayonini yanada samarali va qiziqarli tashkil etish imkonini beradi [1].

Raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan o‘quv muhiti talabalarning mustaqil ishlashini rag‘batlantiradi, ularning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi hamda nazariy bilimlarni amaliyot bilan integratsiya qilishga xizmat qiladi. Ayniqsa, elektr zanjirlari, tok kuchi, kuchlanish va qarshilik kabi tushunchalarni modellashtirish orqali o‘rganish talabalarda chuqur va barqaror bilimlarni shakllantiradi. Bu esa o‘z navbatida metaprofessional kompetensiyalarning – kommunikativlik, axborot bilan ishlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va yechim topish ko‘nikmalarining rivojlanishiga olib keladi.

Raqamli texnologiyalar ta’limda o‘rganishning yangi usul va vositalarini taqdim etadi. Bu interaktivlik va o‘zlashtirishi (uyga vazifalar, sinovlar), ish birikmalarini tahlil qilish (katta hajmdagi ma’lumotlar) va aralashma amaliyot (online platformalar, izohlar, forumlar) kabi imkoniyatlarni o‘z ichiga oladi. Raqamli texnologiyalar o‘quvchilar uchun o‘zlarining mustaqil ta’limdan olgan bilimlarini mustahkamlash uchun qo‘llanadi. Onlayn darslar, interaktiv kompyuter darsliklari, dasturlar va mobil ilovalar orqali o‘quvchilar o‘zlarining fikrlarini tartibga soladi, harakatlanishlarini baholaydi va o‘zlashtiruvchi amaliyotlar orqali o‘zlashtirishlarini oshirishadi [3]. Raqamli texnologiyalar asosida o‘zgarmas tok qonunlarini o‘qitish orqali talabalarning metaprofessional kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali usul va vositalarini aniqlash hamda ularni ta’lim jarayoniga joriy etishning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqishdan iborat.

Zamonaviy ta’lim tizimi raqamlashtirish jarayonida talabalarning nafaqat kasbiy, balki universal kompetensiyalarini ham rivojlantirishni talab etadi. O‘zgarmas tok qonunlarini o‘qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali metaprofessional kompetensiyalarni shakllantirish masalasi ilmiy va amaliy jihatdan muhim hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar zamonaviy kompyuterlar va boshqa ilg‘or texnik vositalar yordamida axborotni kodlangan impulslar va signallar shaklida ma’lum ketma-ketlik hamda chastotada qayd etish, uzatish, saqlash va qayta ishlashga asoslangan texnologiyalar majmuasini anglatadi.

Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida mutaxassis tayyorlash jarayonida nafaqat fanlar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, balki talabalarning metaprofessional kompetensiyalarini rivojlantirish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Metaprofessional kompetensiyalar shaxsning kasbiy faoliyatidan qat’i nazar, har qanday sohada muvaffaqiyatli faoliyat yuritishini ta’minlovchi umumiy kompetensiyalar majmuasini ifodalaydi. Raqamli bilim va ko‘nikmalar ko‘plab kasbiy soha vakillari uchun muhim kompetensiyalar sifatida e’tirof etiladi. Ayniqsa, keyingi davr tajribasi o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun AKT sohasidagi yetarli bilim va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lish zarurati nihoyatda dolzarb ekanligini namoyon etdi.

Hozirgi kunda pedagoglarning raqamli kompetensiya darajasi nafaqat jamoatchilik, balki ta’lim muassasalari bilan bog‘liq manfaatdor tomonlar hamda media pedagogika yo‘nalishidagi mutaxassislar tomonidan ham faol o‘rganilmoqda. Raqamli kompetensiyalar – bu pedagogning zamonaviy texnologiyalarni samarali qo‘llash, elektron resurslar yaratish, onlayn platformalarda ishlash hamda o‘quv jarayonini raqamli muhitda tashkil etish qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi. Hozirgi kunda global miqyosda ta’lim sifatini oshirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda pedagoglarning raqamli savodxonligi va innovatsion texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish qobiliyati hal qiluvchi omil sifatida qaralmoqda [4].

Fizika fanini, xususan o‘zgarmas tok qonunlarini o‘qitishda raqamli texnologiyalarni qo‘llash ushbu kompetensiyalarni rivojlantirish uchun qulay pedagogik muhit yaratadi.

Raqamli texnologiyalar o‘zgarmas tok qonunlarini o‘qitishda nihoyatda muhim ahamiyatga ega, chunki ular simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalar orqali ta’lim jarayonini interaktiv, ko‘rgazmali hamda amaliy yo‘naltirilgan shaklga keltiradi. Shuningdek, ular o‘yinlashtirish va avtomatlashtirilgan test sinovlari yordamida talabalar faolligini oshiradi, bilimlarni nazorat qilish jarayonini soddalashtiradi hamda murakkab mavzularni tuzilgan raqamli resurslar orqali yanada tushunarli qiladi. Shu bilan birga, talabalarda muammoni hal etish ko‘nikmalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

O‘zgarmas tok qonunlari (Om qonuni, Kirxgof qonunlari, elektr zanjirlarining ishlash prinsiplari) an’anaviy ta’limda ko‘pincha nazariy tushunchalar va formulalar asosida o‘rganiladi. Raqamli texnologiyalar, jumladan, virtual laboratoriyalar, kompyuter simulyatsiyalari, interaktiv dasturlar va onlayn platformalar yordamida ushbu mavzularni vizual va amaliy tarzda tushuntirish imkoniyati kengayadi. Natijada talabalar elektr zanjirlarida sodir bo‘ladigan jarayonlarni real vaqt rejimida kuzatish, parametrlarni o‘zgartirish va natijalarni tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.





Virtual laboratoriyalar sizga turli xil sxemalar va komponentlar bilan xavf yoki xarajatsiz tajriba o‘tkazish, sxemalarni yig'ish va tahlil qilish ko‘nikmalaringizni real dunyoda bo‘lgani kabi mashq qilish imkonini beradi [2]. Interaktiv o‘yinlar va ta’limiy ilovalar o‘rganish formulalari va nazariyalarini qiziqarli qiladi, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilishni rag'batlantiradi. Tezkor fikr-mulohazaga ega testlar o‘quvchilarga xatolarni tezda aniqlashga va o‘qituvchilarning vaqtini tejash bilan birga, bilimlarini qayerda yaxshilashlari kerakligini tushunishga yordam beradi. Raqamli platformalar video darsliklar, maqolalar va materiallarga qulay formatda kirish imkonini beradi va mustaqil o‘rganishni osonlashtiradi. Raqamli vositalar va simulyatorlar bilan ishlash tajribasi talabalarni raqamli texnologiyalar muhim rol o‘ynaydigan zamonaviy sanoat tizimlaridan foydalanishga tayyorlaydi.

Raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar talabalarda quyidagi metaprofessional kompetensiyalarni rivojlantiradi:

Tanqidiy va mantiqiy fikrlash – simulyatsiya va modellashtirish jarayonida talaba muammoni tahlil qiladi va xulosalar chiqaradi;

Muammoli vaziyatlarni hal etish – elektr zanjirlaridagi nosozliklarni aniqlaydi va yechim topadi;

Axborot bilan ishlash kompetensiyasi – raqamli manbalar, grafiklar va natijalarni tahlil qiladi;

Kommunikativ va jamoada ishlash ko‘nikmalari – guruhli virtual laboratoriya ishlari va muhokamalar orqali kommunikativ va jamoada ishlash ko‘nikmalar rivojlanadi;

O‘z-o‘zini rivojlantirish va refleksiya – mustaqil topshiriqlar va raqamli baholash vositalari yordamida ta’lim jarayonida raqamli vositalardan foydalanadi.

O‘zgarmas tok qonunlarini o‘qitishda PhET, Crocodile Physics, Multisim kabi dasturiy vositalardan foydalanish tavsiya etiladi.

PhET simulation dasturi o‘qitishda bir qancha qulaylik va o‘quvchi uchun reallikni ta`minlaydi. O‘quv darsligidagi murakkab jumlalarni tushunmasa ham virtual laboratoriyani ko‘rib, o‘quvchida real voqelikni ko‘rish va shu orqali darslikdagi yangi atama va qonuniyatlarni o‘rganish juda ham qulay bo‘ladi.

Crocodile Physics dasturi fizik jarayonlarni modellashtirish va fizikaning mexanika, Elektr zanjirlar, Optika va To‘lqin hodisalari bo‘limlariga oid tajribalar yaratish va kuzatish imkoniyatini beruvchi dasturdir. Bu kuchli dastur fizik hodisalarni kuzatish, tajribalar o‘tkazish va turli murakkablik darajasidagi jarayonlarni modellashtirish imkoniyatini beradi. [5].

Ushbu vositalar yordamida talabalarga mustaqil tajribalar o‘tkazish, natijalarni solishtirish va nazariy bilimlarini amaliyot bilan bog‘lash imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, elektron testlar va onlayn baholash tizimlari talabalarning bilim darajasini tezkor va obyektiv aniqlashga xizmat qiladi.

Fizika ta’limida axborot va kompyuter texnologiyasini qo‘llanishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri bu fizikaviy jarayonlarni va tajribalarni kompyuterda modellashtirish hisoblanadi. Kompyuter modellari bu an’anaviy va noan’anaviy darsjarayonlarini faollashtiradi va o‘qituvchining dars o‘tishiga ko‘pgina yengilliklar tug‘diradi, fizikaviy jarayonlarni oydinlashtiradi [6].

O‘zgarmas tok qonunlarini raqamli texnologiyalar asosida o‘qitish talabalarning nafaqat fan bo‘yicha bilimlarini chuqurlashtiradi, balki ularning metaprofessional kompetensiyalarini samarali rivojlantirishga imkon yaratadi. Bu esa zamonaviy ta’limning asosiy talablaridan biri bo‘lgan raqobatbardosh, mustaqil fikrlovchi va innovatsion yondashuvga ega mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Simulatsiyalar va yaxshi ishlab chiqilgan pedagogik metodologiyaning kombinatsiyasi nafaqat an’anaviy fizika o‘qitish muammolarini hal qiladi, balki ta’lim innovatsiyalari uchun yangi yo‘llarni ham ochadi. Simulatsiya va innovatsion pedagogika orqali fizika ta’limining evolutsiyasi doimiy rivojlanayotgan

dunyo muammolarini hal qilishga tayyor ilmiy savodli va ijodiy shug‘ullanadigan shaxslar avlodini yaratish yo‘lidagi muhim qadamdir [7].

Raqamli texnologiyalarning paydo bo‘lishi va ularning jamiyat hayotida ustuvor mavqega ega bo‘lib borishi yangi, yanada ilg‘or texnologiyalarning shakllanishiga zamin yaratmoqda. Bu jarayon zamonaviy jamiyat rivojini jadallashtirish bilan birga, axborotni izlash, qayta ishlash va undan samarali foydalanish jarayonlarini sezilarli darajada soddalashtirmoqda. Raqamli transformatsiya natijasida nafaqat alohida texnik qurilmalar, balki butun infratuzilmalar, jumladan, shaharlar ham “aqlli” tizimlar asosida faoliyat yurita boshlamoqda. Ma’lumotlar strategik resurs darajasiga ko‘tarilmoqda, axborot xavfsizligi esa jamiyat barqaror rivojlanishining muhim shartiga aylanmoqda.

Adabiyotlar:

1. Yusupov E. Raqamli simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalar. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 2024, 1(12), 155-157.
2. Rustamov M. Virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar va elektron o‘quv resurslaridan foydalanish mexanizmlari. Ta’lim, tarbiya va innovatsiyalar jurnali, 2025, vol 2. No 2, 41-46.
3. Fayzullayeva M. Raqamli texnologiyalarga asoslangan mustaqil ta’limning talabalarga ijobiy va salbiy ta’sir etuvchi omillarni o‘rganish. Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика), no. 5, 2023, pp. 143-150.
4. Xaydarova O. Pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish zarurati. Ilg‘or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar 2026, yanvar, 3(1):24-29
5. Muydinova M. Fanni o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish. Science and innovation, international scientific journal, 2022 № 2, 325-328.
6. Mamatkulov B., Zayniddinova N. “O‘zgarmas tok qonun”lari ni PhET dasturida o‘qitish metodikasi. International Conference on Educational Discoveries and Humanities, 2025-06-17, 331-335.
7. Qodirov S., Davletov I. Umumta’lim maktablarida fizika fanini simulatsiyalardan foydalanib o‘qitish orqali o‘quvchilarda tasavvur qilish qobiliyatini oshirish, Ilm sarchashmalari, Ilmiy-nazariy, metodik jurnal,2024, 1-son, 129-135.

TABIIY FANLARNI O‘QITISHDA EKOLOGIK, HUDUDIY VA IJTIMOIY-IQTISODIY YONDASHUVLARNING PEDAGOGIK MOHIYATI

Ibragimov Lutfullo Ziyadullayevich,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, Geografiya fanlari doktori (DSc),
Elamonova Munisa Axmad qizi,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, Pedagogika nazariyasi va tarixi 1 -bosqich magistranti

Mazkur maqolada tabiiy fanlarni o‘qitish jarayonida ekologik, hududiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy yondashuvlarning nazariy asoslari va pedagogik mohiyati yoritiladi. Ushbu yondashuvlarning ta’lim mazmunini boyitish, o‘quvchilarda tizimli fikrlashni shakllantirish hamda barqaror rivojlanish g‘oyalarini singdirishdagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Shuningdek, integrativ ta’lim modeli doirasida mazkur yondashuvlarni qo‘llashning metodik jihatlari, ularning o‘quv jarayonidagi samaradorligi hamda fanlararo integratsiyani ta’minlashdagi o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari ushbu yondashuvlar tabiiy fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarning ekologik tafakkuri, hududiy bilimlari va ijtimoiy mas’uliyatini rivojlantirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi hamda ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga yordam berishini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: *tabiiy fanlar, ekologik yondashuv, ijtimoiy-iqtisodiy yondashuv, pedagogik integratsiya, ta’lim metodologiyasi.*

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ, РЕГИОНАЛЬНЫХ И СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ В ПРЕПОДАВАНИИ ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК

В данной статье рассматриваются теоретические основы и педагогическая сущность экологического, территориального и социально-экономического подходов в процессе преподавания естественных наук.Научно обоснована важность этих подходов для обогащения образовательного контента, развития системного мышления у учащихся и привития идей устойчивого развития.Кроме того, в рамках модели интегративного образования анализируются методологические аспекты использования этих подходов, их эффективность в образовательном процессе и их роль в обеспечении междисциплинарной интеграции.Результаты исследования показывают, что данные подходы к преподаванию естественных наук способствуют развитию экологического мышления, региональных знаний и социальной ответственности учащихся, а также оправдывают их вклад в повышение эффективности образовательного процесса.

Ключевые слова: *Естественные науки, экологический подход, социально-экономический подход, педагогическая интеграция, методика преподавания.*

PEDAGOGICAL ESSENCE OF ECOLOGICAL, REGIONAL AND SOCIO-ECONOMIC APPROACHES IN TEACHING NATURAL SCIENCES

This article discusses the theoretical foundations and pedagogical essence of ecological, territorial, and socio-economic approaches in the process of teaching natural sciences.The importance of these approaches in enriching educational content, developing systematic thinking in students, and instilling the ideas of sustainable development is scientifically substantiated.Also, within the framework of the integrative education model, the methodological aspects of using these approaches, their effectiveness in the educational process, and their role in ensuring interdisciplinary integration are analyzed.The results of the study demonstrate that these approaches to teaching natural sciences serve to develop students' ecological thinking, regional knowledge, and social responsibility, and justify their contribution to increasing the effectiveness of the educational process.

Keywords: *natural sciences, ecological approach, socio-economic approach, pedagogical integration, educational methodology.*

Kirish. Tabiiy fanlarni o‘qitish zamonaviy ta’lim tizimida shaxsning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, tabiat va jamiyat o‘rtasidagi murakkab o‘zaro bog‘liqlikni anglash hamda global muammolarga nisbatan ongli munosabatni rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. XXI asr sharoitida ekologik muammolar, iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligi hamda hududlar

o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarning kuchayishi ta’lim mazmunini yangicha metodologik asosda tashkil etishni talab etmoqda. An’anaviy ta’lim modeli asosan fakt va qonuniyatlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, zamonaviy pedagogik yondashuv o‘quvchilarda tizimli fikrlashni shakllantirish, sabab-oqibat bog‘liqligini aniqlash, murakkab tabiiy jarayonlarni tushunish hamda inson faoliyatining atrof-muhitga ta’sirini ilmiy asosda baholash ko‘nikmalarini rivojlantirishni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi. Shu sababli tabiiy fanlarni o‘qitishda mazmun, metod va natijalarni o‘zaro uyg‘unlashtirgan, real hayot bilan bog‘liq integrativ ta’lim yondashuvlarini qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtayi nazardan ekologik, hududiy va ijtimoiy-iqtisodiy yondashuvlarni tabiiy fanlar mazmuniga integratsiyalash zamonaviy ta’limning dolzarb ilmiy-metodik masalalaridan biri hisoblanadi. Mazkur yondashuvlar o‘quv materialini real hududiy sharoit, mahalliy tabiiy resurslar, ijtimoiy jarayonlar hamda iqtisodiy omillar bilan bog‘lash imkonini beradi. Natijada o‘quvchilarning nazariy bilimlari amaliy hayotiy jarayonlar bilan uyg‘unlashib, ularning mazmuni yanada boyiydi. Ekologik yondashuv o‘quvchilarda tabiatga ongli munosabat, ekologik mas’uliyat hamda barqaror rivojlanish g‘oyalarini shakllantirishga xizmat qilsa, hududiy yondashuv tabiiy jarayonlarning makoniy xususiyatlarini tushunishga yordam beradi. Ijtimoiy-iqtisodiy yondashuv esa tabiiy resurslardan foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlari va iqtisodiy rivojlanish o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni anglashga imkon yaratadi.

Mazkur yondashuvlarning uyg‘un qo‘llanilishi tabiiy fanlarni o‘qitish samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning analitik va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish hamda ularni ekologik va ijtimoiy jihatdan mas’uliyatli shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Fanlararo integratsiya asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarda kompleks bilimlar tizimini shakllantirib, tabiat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni chuqur anglash imkonini beradi. Natijada o‘quvchilar nafaqat nazariy bilimlarni egallaydilar, balki ularni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llash ko‘nikmalariga ham ega bo‘ladilar. Shu bois tabiiy fanlarni o‘qitishda ekologik, hududiy va ijtimoiy-iqtisodiy yondashuvlarni tizimli ravishda qo‘llash ta’lim sifatini oshirish, ekologik tafakkurni rivojlantirish hamda barqaror rivojlanish tamoyillarini yosh avlod ongiga singdirishda muhim ilmiy-pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili. Tabiiy fanlarni o‘qitishda ekologik, hududiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy yondashuvlarni qo‘llash masalasi zamonaviy pedagogika va didaktika sohasida keng o‘rganilgan ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Xususan, barqaror rivojlanish ta’limi konsepsiyasi doirasida ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy omillarning o‘zaro bog‘liqligini anglash ta’limning muhim vazifalaridan biri sifatida talqin etiladi. Ushbu konsepsiya o‘quv jarayonini nafaqat bilim berish vositasi, balki shaxsning ekologik ongini, ijtimoiy mas’uliyatini hamda kelajak avlodlar manfaatlarini hisobga olgan holda qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiruvchi tizim sifatida ko‘rib chiqadi. Xususan, D.Tilbury barqaror rivojlanish ta’limini global ekologik va ijtimoiy chaqiriqlarga javob beruvchi transformativ pedagogik yo‘nalish sifatida izohlaydi hamda ta’lim jarayonini qadriyatlar, mas’uliyat va faol fuqarolik pozitsiyasiga asoslangan ijtimoiy o‘zgarish mexanizmi sifatida talqin qiladi [5]. Uning fikricha, ta’lim tizimi ekologik muammolarni anglay oladigan va ularning yechimida faol ishtirok etadigan shaxsni shakllantirishga xizmat qilishi lozim.

Barqaror rivojlanish ta’limi g‘oyalarini rivojlantirgan olimlardan biri S. Sterling bo‘lib, u “barqaror ta’lim” konsepsiyasini ilgari suradi. Olim ta’lim mazmunini tizimli fikrlash asosida qayta tashkil etish zarurligini ta’kidlab, bilimlarni alohida faktlar yig‘indisi sifatida emas, balki o‘zaro bog‘langan yaxlit tizim sifatida talqin qilish lozimligini asoslab beradi [6]. Bu yondashuv o‘quvchilarda murakkab ekologik va ijtimoiy jarayonlarni o‘zaro bog‘liqlikda tushunish imkonini yaratadi. Ekologik tafakkurni shakllantirish, shaxsiy qadriyatlar hamda ekologik mas’uliyat masalalari M. Bonnett tomonidan ham keng yoritilgan bo‘lib, u barqarorlikni inson tafakkurining muhim shakli sifatida talqin qiladi hamda ekologik madaniyatni rivojlantirish ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri ekanligini ta’kidlaydi [4]. Shu bilan birga, D. Kolb tomonidan ishlab chiqilgan tajribaviy o‘qitish nazariyasida bilimlarni real muhit bilan bog‘lashning ahamiyati alohida ko‘rsatib o‘tilgan. Olimning fikricha, o‘quvchilar ekologik va ijtimoiy jarayonlarni amaliy faoliyat orqali o‘rganganlarida bilimlarni chuqurroq anglaydilar hamda ularni real vaziyatlarda qo‘llash ko‘nikmasi shakllanadi [7].

Hududiy komponentni o‘quv jarayoniga integratsiyalash masalasi geografik ta’lim metodikasida alohida o‘rin egallaydi. Ilmiy tadqiqotlarda mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olish bilimlarning hayotiyligini ta’minlashi, o‘quvchilarda o‘z hududining tabiiy resurslari, ekologik muammolari hamda ijtimoiy jarayonlariga nisbatan ongli munosabatni shakllantirishi ta’kidlanadi [3]. Bunday yondashuv o‘quvchilarning o‘z yashash hududi bilan bog‘liq ekologik jarayonlarni chuqurroq anglashiga yordam beradi hamda ularda tabiatga nisbatan mas’uliyatli munosabatni shakllantiradi. Hududiy yondashuv ayniqsa tabiiy fanlarni o‘qitishda muhim ahamiyat kasb etib, o‘quvchilarga nazariy bilimlarni mahalliy tabiiy sharoitlar va real ekologik jarayonlar bilan bog‘lash imkonini beradi. Natijada o‘quvchilar tabiat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni yaxlit tizim sifatida tushunishga erishadilar.

Fanlararo integratsiya masalasi ham zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda keng o‘rganilgan. Xususan, H.Jacobs integratsiyalashgan o‘quv dasturi murakkab jarayonlarni yaxlit anglash imkonini berishini ta’kidlab, turli fanlar doirasida berilgan bilimlarni o‘zaro bog‘lash orqali tizimli tafakkur shakllanishini asoslab bergan [8]. Fanlararo integratsiya o‘quvchilarga ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni bir-biri bilan bog‘liq holda tushunish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, bunday yondashuv o‘quvchilarning analitik va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirib, nazariy bilimlarni real hayotiy jarayonlar bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi.

Mahalliy pedagogik tadqiqotlarda ham tabiiy fanlarni o‘qitish jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, nazariy bilimlarni real ijtimoiy va tabiiy muhit bilan uyg‘unlashtirishning samaradorligi alohida ta’kidlangan [1; 2]. Ushbu tadqiqotlarda o‘quvchilarda ekologik tafakkur, resurslardan oqilona foydalanish madaniyati hamda ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishda integrativ yondashuvlarning muhimligi qayd etiladi. Shuningdek, pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, ularni muammoli vaziyatlarni tahlil qilishga o‘rgatish hamda ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qilishi ko‘rsatib o‘tilgan.

Shunday qilib, mavjud ilmiy manbalar tahlili ekologik, hududiy va ijtimoiy-iqtisodiy yondashuvlarning nazariy asoslari yetarlicha ishlab chiqilganini ko‘rsatadi. Biroq ushbu yondashuvlarni tabiiy fanlar ta’limi mazmuniga kompleks va tizimli ravishda integratsiyalash, ularni o‘quv jarayonida samarali qo‘llashning metodik mexanizmlarini ishlab chiqish hamda fanlararo integratsiya asosida o‘quvchilarda tizimli fikrlashni shakllantirish masalalari hali ham dolzarb ilmiy-amaliy vazifa bo‘lib qolmoqda. Mazkur tadqiqot aynan shu muammoni hal etishga qaratilgan bo‘lib, tabiiy fanlarni o‘qitishda ekologik, hududiy va ijtimoiy-iqtisodiy yondashuvlarning integrativ modelini ishlab chiqish hamda uning pedagogik samaradorligini asoslashni maqsad qilib oladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot tabiiy fanlarni o‘qitishda ekologik, hududiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy yondashuvlarning pedagogik samaradorligini aniqlash va ularni o‘quv jarayoniga integrativ model asosida joriy etish imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslashga qaratildi. Tadqiqotning metodologik asosini tizimli, integrativ hamda kompetensiyaviy yondashuvlar tashkil etdi. Tadqiqot jarayonida muammo yaxlit pedagogik tizim sifatida ko‘rib chiqilib, o‘quv mazmuni, didaktik vositalar, ta’lim metodlari hamda kutilayotgan natijalar o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganildi. Nazariy bosqichda ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy-tahliliy yondashuv, mantiqiy umumlashtirish va konseptual modellashtirish usullaridan foydalanildi. Mazkur bosqichda ekologik, hududiy va ijtimoiy-iqtisodiy komponentlarning o‘zaro aloqadorligini aks ettiruvchi integrativ model ishlab chiqildi hamda ularning tabiiy fanlar ta’limi mazmuniga integratsiyalash imkoniyatlari asoslab berildi.

Tadqiqotning amaliy bosqichida pedagogik kuzatish, so‘rovnoma, suhbat va tajriba-sinov metodlari qo‘llanildi. Ishlab chiqilgan metodik model tajriba guruhida joriy etilib, nazorat va tajriba guruhlari o‘rtasida qiyosiy tahlil o‘tkazildi. Samaradorlik mezonlari sifatida o‘quvchilarning tizimli fikrlash darajasi, sabab-oqibat aloqalarini aniqlash ko‘nikmasi hamda real vaziyatlarni kompleks tahlil qilish qobiliyati belgilandi. Olingan natijalar miqdoriy va sifat tahlili asosida qayta ishlanib, oddiy statistik usullar yordamida umumlashtirildi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘llanilgan metodlarning o‘zaro uyg‘unligi, nazorat va tajriba natijalarining taqqoslanishi hamda tajriba jarayonida kuzatilgan ijobiy pedagogik dinamikaga asoslanib ta’minlandi.

Natijalar va ularning tahlili. Tajriba-sinov ishlari jarayonida ishlab chiqilgan metodik model asosida ekologik, hududiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy yondashuvlar tabiiy fanlarni o‘qitish jarayoniga bosqichma-bosqich integratsiyalandi. Tadqiqot davomida nazorat va tajriba guruhlari o‘rtasida qiyosiy pedagogik kuzatish va tahlil ishlari olib borilib, o‘quvchilarning bilim darajasi, tizimli fikrlash ko‘nikmalari hamda o‘rganilayotgan mavzularni kompleks anglash darajasi baholandi. Dastlabki diagnostika natijalari har ikki guruhda o‘quvchilarning bilim ko‘rsatkichlari va analitik fikrlash darajasi deyarli teng ekanligini ko‘rsatdi. Bu esa tajriba-sinov jarayonini ilmiy jihatdan obyektiv tashkil etish imkonini yaratdi. Metodik model joriy etilgandan so‘ng tajriba guruhida o‘quvchilarning mavzularni chuqurroq anglash, sabab-oqibat bog‘liqligini aniqlash, tabiiy va ijtimoiy jarayonlarni o‘zaro aloqadorlikda tushunish hamda real vaziyatlarni ilmiy asosda baholash ko‘nikmalarida sezilarli ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Xususan, tizimli fikrlash darajasi yuqori bo‘lgan o‘quvchilar ulushi sezilarli darajada ortib, o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan yuqoriroq natijalarni qayd etdi. Bu holat ishlab chiqilgan integrativ metodik modelning pedagogik va didaktik samaradorligini amaliy jihatdan tasdiqlaydi. Mazkur modelning asosiy tarkibiy komponentlari hamda ularning o‘zaro bog‘liqligi quyidagi integrativ modelda aks ettirilgan (1-rasm).

1-rasm.

Manba: *muallif tomonidan ishlab chiqildi.*

Hududiy materiallar bilan boyitilgan mashg‘ulotlar o‘quvchilarning nazariy bilimlarini real hayotiy jarayonlar bilan bog‘lash imkoniyatini kengaytirdi. O‘quv jarayonida mahalliy tabiiy resurslar, hududiy ekologik muammolar hamda mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga oid misollardan foydalanish o‘quvchilarda o‘rganilayotgan mavzularning hayotiy ahamiyatini chuqurroq anglashga yordam berdi. Ekologik mazmundagi topshiriqlar o‘quvchilarda atrof-muhitga nisbatan mas’uliyatli munosabat, ekologik madaniyat hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qildi. Shu bilan birga, ijtimoiy-iqtisodiy komponentlarning o‘quv jarayoniga kiritilishi tabiiy resurslardan foydalanish jarayonini ko‘p omilli tahlil qilish, iqtisodiy faoliyatning ekologik oqibatlarini baholash hamda barqaror rivojlanish tamoyillarini anglash imkoniyatini yaratdi. Bunday yondashuv o‘quvchilarning nafaqat nazariy bilimlarini boyitdi, balki ularning ijtimoiy mas’uliyat, ekologik ong va mustaqil fikrlash qobiliyatini ham rivojlantirdi.

Olingan natijalar barqaror rivojlanish ta’limi doirasida tizimli fikrlashni shakllantirish zarurligi haqidagi ilmiy qarashlar bilan uyg‘unlashadi [5; 6] hamda integrativ ta’lim murakkab muammolarni yaxlit va kompleks anglash imkonini berishi haqidagi ilmiy xulosalarni tasdiqlaydi [8]. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ekologik, hududiy va ijtimoiy-iqtisodiy yondashuvlarning o‘zaro uyg‘un holda qo‘llanishi tabiiy fanlarni o‘qitish jarayonining samaradorligini oshiradi, o‘quvchilarning analitik va tizimli fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi hamda ularni tabiat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni chuqur anglay oladigan shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, ishlab chiqilgan metodik model tabiiy fanlar ta’limi mazmunini boyitish, fanlararo integratsiyani kuchaytirish hamda zamonaviy ta’lim talablariga mos ravishda o‘quv jarayonini takomillashtirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligi asoslandi.

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari tabiiy fanlarni o‘qitishda ekologik, hududiy va ijtimoiy-iqtisodiy yondashuvlarni integratsiyalash ta’lim jarayonining mazmuniy va metodik samaradorligini oshirishini tasdiqladi. Mazkur yondashuvlar o‘quvchilarda tizimli fikrlashni rivojlantirish, sabab-oqibat aloqalarini aniqlash, real jarayonlarni kompleks tahlil qilish hamda atrof-muhitga ongli va mas’uliyatli munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi. Integrativ asosda tashkil etilgan darslar nazariy bilimlarning amaliy ahamiyatini kuchaytirib, ularni real hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lash imkonini yaratadi hamda o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarining barqaror o‘sishini ta’minlaydi.

Shuningdek, hududiy materiallar va ijtimoiy-iqtisodiy omillarni o‘quv mazmuniga kiritish ta’limning hayotiyligini oshiradi, o‘quvchilarning fuqarolik mas’uliyati, mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Tadqiqot natijalari ekologik, hududiy va ijtimoiy-iqtisodiy yondashuvlarni tabiiy fanlar mazmuniga kompleks va tizimli ravishda integratsiyalash pedagogik jihatdan asosli hamda barqaror rivojlanish tamoyillarini shakllantirish nuqtayi nazaridan istiqbolli yo‘nalish ekanini ko‘rsatdi. Shu bois mazkur yondashuvlarni ta’lim amaliyotiga bosqichma-bosqich joriy etish hamda metodik jihatdan takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar:

1. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O‘qituvchi, 2009.

2. Avliyakulov N.X, N.N.Musayeva. Pedagogik texnologiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.

3. Vaxobov H Geografiya ta’limi metodikasi. – Toshkent- 2007.

4. Bonnett, M. (2002). Education for sustainability as a frame of mind. Environmental Education Research, 8(1), 9–20.

5. Tilbury, D. (2011). Education for Sustainable Development: An Expert Review of Processes and Learning. Paris: UNESCO.

6. Sterling, S. (2001). Sustainable Education: Re-visioning Learning and Change. Totnes: Green Books.

7. Kolb D. A. (1984). Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall.

8. Jacobs, H. H. (1989). Interdisciplinary Curriculum: Design and Implementation. Alexandria, VA: ASCD.

UO’K 1.37.50.53.

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA TERMODINAMIKA QONUNLARINI O‘QITISHDA RAQAMLI TA’LIM MUHITINI TASHKIL ETISH

Avulova Zamira Tursunmurodovna,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi,
ORCID: 0009-0003-7560-006X
zamiraavulova@gmail.com
Murtazayev Zohid Murtazayevich,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti asssistant o‘qituvchi,
zohidmurtazayev706@gmail.com
ORCID: 0009-0006-6942-3548
Eshbo‘riyev Quvonchbek Zokir o‘g‘li,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti,
Fizika va astronomiya yo‘nalishi 4-bosqich talabasi

Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalarida termodinamika qonunlarini o‘qitishda raqamli ta’lim muhitini tashkil etishning nazariy-metodik asoslari va amaliy mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi raqamli transformatsiya sharoitida fizika ta’limi mazmunini modernizatsiya qilish zarurati bilan belgilanadi. Ishda termodinamik jarayonlarni o‘qitishda virtual laboratoriyalar, kompyuter simulyatsiyalari, interaktiv modellar va masofaviy ta’lim platformalaridan foydalanish imkoniyatlari o‘rganildi. Tadqiqot jarayonida tahlil, pedagogik kuzatuv, tajriba-sinov va taqqoslash metodlaridan foydalanildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, raqamli ta’lim muhiti asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar talabalarning nazariy bilimlarini chuqurlashtirish, abstrakt tushunchalarni vizuallashtirish hamda mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, raqamli vositalar termodinamikaning murakkab matematik modellarini tushunishni yengillashtiradi va o‘quv jarayonining interaktivligini oshiradi. Xulosa sifatida, oliy ta’lim tizimida termodinamika qonunlarini samarali o‘qitish uchun integratsiyalashgan raqamli ta’lim muhitini yaratish zarurligi asoslab berildi.

Kalit so‘zlar: *termodinamika qonunlari, raqamli ta’lim muhiti, oliy ta’lim, virtual laboratoriya, kompyuter simulyatsiyasi, interaktiv modellashtirish, fizika ta’limi, innovatsion pedagogika.*

ОРГАНИЗАЦИЯ ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ ПРИ ОБУЧЕНИИ ЗАКОНАМ ТЕРМОДИНАМИКИ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

В статье рассматриваются теоретико-методические основы и практические механизмы организации цифровой образовательной среды при преподавании законов термодинамики в высших учебных заведениях. Актуальность исследования обусловлена необходимостью модернизации содержания физического образования в условиях цифровой трансформации общества. В работе проанализированы возможности использования виртуальных лабораторий, компьютерного моделирования, интерактивных моделей и дистанционных образовательных платформ при изучении термодинамических процессов. В ходе исследования применялись методы анализа, педагогического наблюдения, экспериментальной проверки и сравнительной оценки. Полученные результаты свидетельствуют о том, что внедрение цифровой образовательной среды способствует углублению теоретических знаний студентов, визуализации абстрактных понятий и развитию навыков самостоятельного обучения. Кроме того, цифровые инструменты облегчают понимание сложных математических моделей термодинамики и повышают уровень интерактивности учебного процесса. В заключение обоснована необходимость создания интегрированной цифровой образовательной среды для повышения эффективности преподавания законов термодинамики в системе высшего образования.

Ключевые слова: *законы термодинамики, цифровая образовательная среда, высшее образование, виртуальная лаборатория, компьютерное моделирование, интерактивные технологии, обучение физике, инновационная педагогика.*

ORGANIZATION OF A DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT IN TEACHING THE LAWS OF THERMODYNAMICS IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

This article analyzes the theoretical and methodological foundations, as well as practical mechanisms, for organizing a digital educational environment in teaching the laws of thermodynamics in higher education institutions. The relevance of the study is determined by the need to modernize the content of physics education in the context of digital transformation. The study explores the possibilities of using virtual laboratories, computer simulations, interactive models, and distance learning platforms in teaching thermodynamic processes. The research methods included analysis, pedagogical observation, experimental work, and comparative methods. The results showed that classes organized on the basis of a digital educational environment contribute to deepening students' theoretical knowledge, visualizing abstract concepts, and developing independent learning skills. In addition, digital tools facilitate the understanding of complex mathematical models of thermodynamics and enhance the interactivity of the educational process. In conclusion, the necessity of creating an integrated digital educational environment for the effective teaching of the laws of thermodynamics in higher education is substantiated.

Keywords: *laws of thermodynamics, digital educational environment, higher education, virtual laboratory, computer simulation, interactive modeling, physics education, innovative pedagogy.*

Kirish. Globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta’lim tizimi oldida turgan ustuvor vazifalardan biri ta’lim mazmunini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida takomillashtirishdan iboratdir. Ayniqsa, tabiiy fanlar yo‘nalishida, xususan, fizikaning murakkab va nazariy jihatdan yuqori abstraktsiyaga ega bo‘lgan bo‘limlarini o‘qitishda an’anaviy metodlarning o‘zi yetarli samaradorlikni ta’minlay olmaydi. Termodinamika qonunlari energiya almashinuvi, issiqlik jarayonlari, entropiya, izotermik va adiabatik jarayonlar kabi murakkab tushunchalarni o‘z ichiga olgani sababli talabalardan yuqori darajadagi mantiqiy tafakkur va matematik tayyorgarlikni talab etadi. Shu bois mazkur bo‘limni o‘qitishda raqamli ta’lim muhitini shakllantirish masalasi dolzarb ilmiy-metodik muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Oliy ta’lim muassasalarida fizika fanini o‘qitish jarayonini modernizatsiya qilish davlat ta’lim siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Raqamli ta’lim muhitini tashkil etish nafaqat o‘quv materiallarini elektron shaklga o‘tkazish, balki interaktiv platformalar, virtual laboratoriyalar, simulyatsion dasturlar hamda masofaviy nazorat tizimlarini integratsiyalashgan holda qo‘llashni nazarda tutadi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlarga ko‘ra, ta’lim jarayonida vizuallashtirish va modellashtirish metodlari murakkab nazariy tushunchalarni o‘zlashtirish samaradorligini sezilarli oshiradi. Xususan, “Fizika o‘qitish metodikasi” asarida fizik hodisalarni modellashtirish va tajribaviy namoyish etish talabalarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning muhim omili ekani ta’kidlangan. Mazkur ilmiy qarash raqamli ta’lim muhitini yaratish zaruratini metodik jihatdan asoslab beradi.

Bugungi kunda termodinamika qonunlarini o‘qitishda asosiy muammolardan biri – nazariy formulalar va real jarayonlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni talaba ongida aniq tasavvur hosil qilishdir. Masalan, termodinamikaning birinchi qonuni energiyaning saqlanish va aylanish qonunining xususiy ko‘rinishi sifatida qaraladi, biroq uning matematik ifodasi va fizik mazmuni ko‘pincha formulaviy yondashuv doirasida cheklanib qoladi. Shuningdek, entropiya tushunchasi ehtimollik va statistik talqinlar bilan bog‘liq bo‘lgani sababli abstrakt xarakter kasb etadi. Shu jihatdan, kompyuter modellashtirish va grafik animatsiyalar yordamida issiqlik jarayonlarini dinamik tasvirlash talabalarning konseptual tafakkurini rivojlantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Pedagogik adabiyotlarda qayd etilishicha, axborot texnologiyalaridan foydalanish o‘quv jarayonining interaktivligini ta’minlaydi, mustaqil ta’lim ulushini oshiradi va bilimlarni nazorat qilishning obyektiv mexanizmlarini yaratadi. Bu esa oliy ta’lim muassasalarida kredit-modul tizimi sharoitida, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki mazkur tizim talabadan mustaqil ishlash, tahlil qilish va natijalarni baholash ko‘nikmalarini talab etadi. Raqamli ta’lim muhiti esa elektron resurslar, masofaviy topshiriqlar va avtomatlashtirilgan test tizimlari orqali ushbu jarayonni samarali tashkil etish imkonini beradi.

Termodinamika qonunlarini o‘qitishda raqamli muhitni tashkil etishning yana bir muhim jihati – virtual laboratoriya mashg‘ulotlarini joriy etishdir. An’anaviy laboratoriya ishlari ko‘pincha moddiy-texnik baza cheklanganligi sababli to‘liq amalga oshirilmaydi yoki tajribalar soddalashtirilgan shaklda o‘tkaziladi. Virtual laboratoriyalar esa real tajribalarni xavfsiz va takroriy tarzda bajarish, parametrlarni o‘zgartirib natijalarni solishtirish imkonini beradi. Bu jarayonda talaba passiv kuzatuvchi emas, balki faol tadqiqotchi sifatida ishtirok etadi. Natijada nazariy bilim bilan amaliy tajriba o‘rtasidagi integratsiya kuchayadi.

Shu bilan birga, raqamli ta’lim muhitini joriy etish metodik asoslanganlikni talab qiladi. Faqat texnologiyani qo‘llashning o‘zi yetarli emas, balki u didaktik maqsad, o‘quv natijalari va baholash mezonlari bilan uzviy bog‘langan bo‘lishi lozim. Termodinamika mavzularini o‘qitishda raqamli resurslardan foydalanish talabaning nazariy bilimini chuqurlashtirish, matematik modellarni tushunish hamda muammoli

vaziyatlarni hal etish kompetensiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilishi zarur. Mazkur yondashuv oliy ta’lim tizimida kompetensiyaviy ta’lim tamoyillariga mos keladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, oliy ta’lim muassasalarida termodinamika qonunlarini o‘qitishda raqamli ta’lim muhitini tashkil etish nafaqat zamonaviy pedagogik ehtiyoj, balki ta’lim sifatini oshirishning strategik omili sifatida qaralishi lozim. Tadqiqotning dolzarbligi fizika ta’limini raqamlashtirish jarayonida metodik yondashuvlarni takomillashtirish zarurati bilan belgilanadi. Mazkur maqolada termodinamika qonunlarini o‘qitishda raqamli ta’lim muhitining tarkibiy komponentlari, ularni joriy etish bosqichlari hamda pedagogik samaradorligi ilmiy-nazariy jihatdan asoslab beriladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot oliy ta’lim muassasalarida termodinamika qonunlarini o‘qitishda raqamli ta’lim muhitini tashkil etish jarayonining nazariy va amaliy asoslarini aniqlashga qaratildi. Tadqiqot metodologiyasi pedagogik hodisalarni tizimli, faoliyatga yo‘naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuvlar asosida o‘rganishga tayandi. Ish jarayonida umumilmiy va maxsus pedagogik metodlar majmuasi qo‘llanildi. Jumladan, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, modellashtirish, pedagogik kuzatuv, so‘rovnoma, tajriba-sinov ishlari hamda statistik qayta ishlash usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida ta’lim jarayonini yaxlit tizim sifatida talqin qiluvchi didaktik konsepsiyalar hamda zamonaviy raqamli pedagogika tamoyillari qabul qilindi.

Termodinamika qonunlarini o‘qitish metodikasini takomillashtirishda, avvalo, mavjud o‘quv dasturlari, ishchi fan dasturlari va o‘quv-metodik majmualar kontent-tahlil qilindi. Tahlil jarayonida mavzularning mantiqiy ketma-ketligi, nazariy va amaliy mashg‘ulotlar nisbatlari, laboratoriya ishlarining mazmuni hamda raqamli vositalardan foydalanish darajasi o‘rganildi. Olingan natijalar asosida raqamli ta’lim muhitini integratsiyalashgan model ko‘rinishida loyihalash zarurati aniqlandi. Model tarkibiga elektron o‘quv kursi, virtual laboratoriya modullari, simulyatsion dasturlar, onlayn test tizimi va mustaqil ta’lim platformasi kiritildi.

Tadqiqotning empirik bosqichida pedagogik tajriba-sinov ishlari tashkil etildi. Tajriba-sinov ishlari ikki bosqichda olib borildi: aniqlovchi va shakllantiruvchi bosqich. Aniqlovchi bosqichda talabalarning termodinamika qonunlari bo‘yicha boshlang‘ich bilim darajasi, raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalari hamda fan bo‘yicha motivatsiyasi diagnostika qilindi. Bunda test topshiriqlari, ochiq savollar va kuzatuv kartalaridan foydalanildi. Shakllantiruvchi bosqichda esa ishlab chiqilgan raqamli ta’lim muhiti asosida dars mashg‘ulotlari tashkil etildi. Tajriba va nazorat guruhlari shakllantirilib, ularda o‘qitish jarayoni turli metodik yondashuvlar asosida amalga oshirildi.

Raqamli ta’lim muhitini tashkil etishda interaktiv modellashtirish usuli asosiy metod sifatida qo‘llanildi. Termodinamik tizimlarning izotermik, izobarik va adiabatik jarayonlari kompyuter simulyatsiyasi yordamida vizuallashtirildi. Talabalar issiqlik almashinuvi, ichki energiya o‘zgarishi va ish bajarish jarayonlarini grafik va animatsion ko‘rinishda kuzatish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Bu esa abstrakt nazariy tushunchalarning ongli ravishda o‘zlashtirilishiga xizmat qildi. Ta’lim jarayonida modellashtirish metodining samaradorligi haqida pedagogik adabiyotlarda ta’kidlanganidek, u murakkab jarayonlarning mohiyatini ochib berishda muhim didaktik vosita hisoblanadi.

Shuningdek, tadqiqotda masofaviy ta’lim elementlari ham integratsiya qilindi. Elektron platformada ma’ruza matnlari, video darslar, virtual laboratoriya topshiriqlari va onlayn baholash tizimi joylashtirildi. Talabalarning mustaqil ishlari LMS tizimi orqali monitoring qilindi. Olingan natijalar matematik-statistik metodlar yordamida qayta ishlanib, o‘rtacha ko‘rsatkichlar, foiz nisbatlari va dispersiya tahlili asosida umumlashtirildi. Natijalar tajriba guruhida o‘zlashtirish darajasi va fan bo‘yicha qiziqish sezilarli oshganligini ko‘rsatdi.

Metodologik jihatdan tadqiqot kompetensiyaviy yondashuv tamoyillariga ham tayandi. Chunki zamonaviy oliy ta’lim jarayonida bilimni faqat nazariy o‘zlashtirish emas, balki uni amaliy vaziyatlarda qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirish ustuvor vazifa hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, raqamli ta’lim muhiti talabalarda axborot bilan ishlash, tahlil qilish, muammoni modellashtirish va mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirildi. Pedagogik tadqiqot metodologiyasiga oid manbalarda qayd etilishicha, tajriba-sinov ishlari ilmiy farazni tekshirishning eng muhim bosqichi bo‘lib, u nazariy xulosalarning amaliy tasdig‘ini beradi.

Tadqiqotning ishonchliligi va haqqoniyligini ta’minlash maqsadida natijalar bir necha marotaba takroriy o‘lchov asosida tekshirildi. Statistik tahlilda Styudent kriteriyasi va foizli taqqoslash usuli qo‘llanildi. Shuningdek, ekspert baholash metodi orqali o‘qituvchilarning fikrlari ham inobatga olindi. Bu esa olingan natijalarning obyektivligini ta’minladi.

Umuman olganda, tadqiqot metodologiyasi nazariy tahlil va amaliy tajriba uyg‘unligiga asoslanib, oliy ta’lim muassasalarida termodinamika qonunlarini o‘qitishda raqamli ta’lim muhitini samarali tashkil etish imkoniyatlarini ilmiy asosda aniqlashga xizmat qildi.

Tahlil va natijalar. Oliy ta’lim muassasasida “Termodinamika” bo‘limini o‘qitishda raqamli ta’lim muhitini tashkil etish bo‘yicha olib borilgan tajriba-sinov ishlari natijalari mazkur metodik yondashuvning samaradorligini tasdiqladi. Tadqiqot 2024–2025 o‘quv yili davomida fizika yo‘nalishi 2-bosqich talabalarining 2 ta akademik guruhida amalga oshirildi. Tajriba guruhida o‘quv jarayoni virtual laboratoriyalar, interaktiv simulyatsiyalar va raqamli test modullari asosida tashkil etilgan bo‘lsa, nazorat guruhida an’anaviy ma’ruza-amaliy mashg‘ulot shakli saqlab qolindi. Dastlabki diagnostik nazorat natijalari har ikki guruhda bilim darajasi deyarli teng ekanligini ko‘rsatdi. Yakuniy baholash jarayonida esa tajriba guruhida o‘zlashtirish ko‘rsatkichi sezilarli darajada yuqori bo‘ldi.

Raqamli ta’lim muhiti asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda talabalar issiqlik mashinalari samaradorligi, Karno sikli, ichki energiya o‘zgarishi va entropiya tushunchalarini modellashtirish orqali vizual ravishda kuzatish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Ayniqsa, abstrakt jarayonlarning grafik va animatsion tasviri murakkab nazariy formulalarning mazmunini chuqurroq anglashga yordam berdi. Pedagogik kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, talabalarning mustaqil ishlash faolligi oshdi, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish ko‘nikmalari shakllandi va mantiqiy xulosa chiqarish darajasi rivojlandi. Bu jarayon fizika ta’limida nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlash muhim omil ekanligi haqidagi ilmiy qarashlar bilan hamohangdir.

Tajriba guruhida o‘tkazilgan oraliq nazorat natijalariga ko‘ra, talabalarning 68 foizi yuqori darajadagi tahliliy savollarga to‘liq va asosli javob bera oldi, nazorat guruhida esa bu ko‘rsatkich 42 foizni tashkil etdi. Shuningdek, raqamli platformada tashkil etilgan test tizimi talabalar bilimini tezkor va obyektiv baholash imkonini berdi. Natijalar statistik tahlil qilinib, o‘rtacha ball ko‘rsatkichi tajriba guruhida 18–22 foizga yuqori ekanligi aniqlandi. Mazkur ko‘rsatkich raqamli vositalarning didaktik samaradorligini isbotlaydi.

Tadqiqot jarayonida talabalar bilan o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari ham muhim ahamiyat kasb etdi. Respondentlarning 81 foizi raqamli modellashtirish murakkab fizik jarayonlarni tushunishni yengillashtirishini ta’kidladi. 76 foiz talaba esa virtual laboratoriya mashg‘ulotlari real tajriba sharoitiga yaqin muhit yaratishini bildirdi. Bu holat, o‘z navbatida, zamonaviy pedagogik texnologiyalar o‘quv motivatsiyasini oshirishga xizmat qilishi haqidagi nazariy xulosalarni tasdiqlaydi.

Raqamli ta’lim muhiti sharoitida o‘qitish jarayonining muhim natijalaridan biri – talabalarning refleksiv fikrlash ko‘nikmalarining rivojlanishi bo‘ldi. Interaktiv topshiriqlar orqali talabalar nafaqat tayyor formuladan foydalanish, balki fizik jarayonni bosqichma-bosqich tahlil qilish, parametrlar o‘zgarishining oqibatini oldindan prognozlash imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Bu esa ularning ilmiy tafakkurini shakllantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Shuningdek, tajriba jarayonida vaqt tejalishi va o‘quv resurslaridan samarali foydalanish holatlari kuzatildi. An’anaviy laboratoriya sharoitida murakkab tajribalarni tashkil etish uchun ko‘p vaqt va moddiy resurs talab etilsa, raqamli muhitda ushbu jarayon qisqa muddatda va xavfsiz tarzda amalga oshirildi. Bu esa ta’lim jarayonining optimallashtirilgan modelini shakllantirish imkonini berdi.

Yakuniy tahlillar shuni ko‘rsatdiki, raqamli ta’lim muhiti asosida tashkil etilgan o‘qitish jarayoni nafaqat bilim sifati, balki kompetensiyaviy yondashuvni rivojlantirish nuqtayi nazaridan ham samarali hisoblanadi. Talabalarda axborot bilan ishlash, raqamli texnologiyalardan foydalanish va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalari shakllandi. Statistik va sifat tahlillari natijalari tadqiqot gipotezasining to‘liq tasdiqlanganligini ko‘rsatdi. Shu asosda oliy ta’lim muassasalarida termodinamika qonunlarini o‘qitishda integratsiyalashgan raqamli ta’lim muhitini joriy etish maqsadga muvofiq degan xulosaga kelindi.

Taklif va xulosalar. Tadqiqot natijalari oliy ta’lim muassasalarida termodinamika qonunlarini o‘qitishda raqamli ta’lim muhitini tashkil etish nafaqat texnologik yangilanish, balki didaktik tizimning sifat jihatdan transformatsiyasi ekanligini ko‘rsatdi. An’anaviy ma’ruza-amaliy mashg‘ulot shaklida termodinamik jarayonlarning mazmuni ko‘pincha formulalar va matematik ifodalar orqali tushuntiriladi, bu esa talabalarda tushunchalarning abstrakt qabul qilinishiga sabab bo‘ladi. Raqamli muhitda esa issiqlik almashinuvi, ichki energiya o‘zgarishi, entropiya ortishi kabi jarayonlar vizual modellar va dinamik simulyatsiyalar yordamida ifodalanib, nazariy bilimlarning obrazli tafakkur bilan integratsiyasini ta’minlaydi. Ayniqsa, yopiq va ochiq termodinamik tizimlar holatini bosqichma-bosqich ko‘rsatish imkoniyati talabalarda sabab-oqibat bog‘lanishlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Oliy ta’lim pedagogikasida ta’lim jarayonini raqamlashtirish masalasi o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish bilan chambarchas bog‘liq ekani ta’kidlanadi. Mazkur yondashuvdan kelib chiqib, termodinamika qonunlarini o‘qitishda raqamli platformalardan foydalanish talabalarning bilish faolligini oshirishi, mustaqil izlanish ko‘nikmalarini shakllantirishi hamda refleksiv tahlil qobiliyatini rivojlantirishi aniqlashtirildi. Tajriba-sinov natijalarida raqamli vositalar qo‘llanilgan guruhlarda nazorat guruhiga nisbatan o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari barqaror yuqori bo‘lgani kuzatildi. Bu esa o‘quv jarayonida interaktivlik va ko‘rgazmalilik darajasining ortishi bilan izohlanadi.

Shuningdek, termodinamik qonunlarning mohiyatini tushuntirishda kompyuter modellashtirish usuli alohida ahamiyat kasb etadi. Modellashtirish talabalarga ideal gaz modeli, Karno sikli yoki izoprotsesslarni real vaqt rejimida kuzatish imkonini beradi. Bunday jarayonda matematik tenglamalarning fizik mazmuni yanada aniqlashadi, formulalar esa abstrakt belgilar majmuasidan mantiqiy tizimga aylanadi. Pedagogik nuqtayi nazardan, modellashtirish usuli muammoli ta’lim elementlarini ham o‘z ichiga oladi, chunki talabalar parametrlarni o‘zgartirish orqali natijaviy ko‘rsatkichlarga mustaqil ta’sir ko‘rsatadi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, raqamli ta’lim muhitini samarali tashkil etish faqat texnik vositalar mavjudligi bilan emas, balki metodik loyihalash darajasi bilan belgilanadi. Ya’ni elektron resurslar o‘quv dasturining mantiqiy tuzilmasiga mos ravishda integratsiyalashgan bo‘lishi zarur. Fizika fanini o‘qitish metodikasida ta’kidlanishicha, ko‘rgazmalilik tamoyili murakkab fizik tushunchalarni anglashda asosiy didaktik vositalardan biridir. Shu bois raqamli muhitda yaratilgan animatsion jarayonlar va grafik modellar aynan mazkur tamoyilni yangi bosqichda amalga oshiradi.

Biroq tadqiqot davomida ayrim muammoli jihatlar ham aniqlandi. Jumladan, raqamli vositalardan foydalanishda pedagoglarning axborot-kommunikatsiya kompetensiyasi yetarli darajada shakllanmagan holatlar uchradi. Bu esa texnologiyalarning to‘liq didaktik imkoniyatlaridan foydalanishga to‘sqinlik qiladi. Shuningdek, ayrim hollarda talabalar vizual tasvirlarga haddan tashqari tayanib, matematik asoslarni chuqur tahlil qilishga yetarlicha e’tibor qaratmasligi kuzatildi. Mazkur holat raqamli ta’lim muhitini an’anaviy nazariy tahlil bilan muvozanatli uyg‘unlashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Muhokama natijalariga ko‘ra, raqamli ta’lim muhiti termodinamika qonunlarini o‘qitishda quyidagi ustunliklarni ta’minlaydi: birinchidan, murakkab jarayonlarni vizual va dinamik shaklda namoyish etish; ikkinchidan, mustaqil va masofaviy ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish; uchinchidan, nazariy va amaliy bilimlar o‘rtasida uzviy bog‘lanish hosil qilish; to‘rtinchidan, talabalar motivatsiyasini oshirish. Shu bilan birga, metodik jihatdan asoslangan raqamli kontent ishlab chiqish va pedagoglarni maxsus tayyorlash jarayoni tizimli ravishda tashkil etilishi lozim.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari oliy ta’lim muassasalarida termodinamika qonunlarini o‘qitishda raqamli ta’lim muhitini yaratish konseptual va metodik jihatdan asoslangan bo‘lishi zarurligini ko‘rsatadi. Raqamli texnologiyalar ta’lim samaradorligini oshiruvchi vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda, biroq ularning ta’siri pedagogik maqsadga muvofiq qo‘llanilgandagina yuqori natija beradi. Shu bois kelgusida raqamli platformalar asosida integrativ o‘quv modullarini ishlab chiqish hamda ularning didaktik samaradorligini kompleks baholash dolzarb ilmiy yo‘nalish sifatida qaralishi maqsadga muvofiqdir.

Ayniqsa, energiyaning saqlanish qonuni, entropiya tushunchasi va issiqlik mashinalarining ishlash prinsiplari kabi abstrakt mavzularni vizual modellar asosida tushuntirish o‘quv materialining mazmunan yaxlit o‘zlashtirilishiga xizmat qiladi. Tajriba-sinov ishlari natijalariga ko‘ra, raqamli muhitda tashkil etilgan mashg‘ulotlarda ishtirok etgan talabalarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichi nazorat guruhiga nisbatan yuqoriroq bo‘lib, ularning mustaqil fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal etish ko‘nikmalari rivojlanganligi kuzatildi.

Shuningdek, raqamli ta’lim muhiti o‘quv jarayonining moslashuvchanligini ta’minlab, individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirish imkonini beradi. Bu esa talabalarning bilim darajasi, qiziqishi va tayyorgarlik bosqichidan kelib chiqib differensial yondashuvni amalga oshirishga sharoit yaratadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, raqamli vositalardan maqsadli va metodik jihatdan asoslangan foydalanish pedagogik samaradorlikni oshiradi, biroq ularni o‘qitish jarayoniga mexanik tarzda joriy etish kutilgan natijani bermaydi. Shu bois raqamli ta’lim muhitini yaratishda didaktik tamoyillar, fan mazmuni va o‘quv maqsadlari o‘zaro uyg‘un holda rejalashtirilishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, termodinamika qonunlarini o‘qitishda integratsiyalashgan raqamli ta’lim muhitini shakllantirish zamonaviy oliy ta’lim tizimining muhim strategik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. U nafaqat ta’lim sifatini oshirish, balki talabalarning ilmiy tafakkurini rivojlantirish, analitik fikrlashini mustahkamlash va amaliy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Kelgusida mazkur yo‘nalishda raqamli platformalar imkoniyatlarini kengaytirish, adaptiv o‘qitish texnologiyalarini joriy etish hamda sun’iy intellekt asosidagi baholash tizimlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasini oshirish va metodik ta’minotni takomillashtirish ushbu jarayonning barqarorligini ta’minlaydigan asosiy omil sifatida e’tirof etiladi.

Adabiyotlar:

1. R. Ishmuhamedov. Fizika o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018. – 112-bet.
2. N. Muslimov. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017. – 56-bet.

3. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2006. – 112-bet.
4. Nishonaliyev U.N. Pedagogik tadqiqot metodologiyasi va metodlari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2014. – 87-bet.
5. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – 145-bet.
6. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Istiqlol, 2014. – 98-bet.
7. Nishonaliyev U.N. Oliy ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018. – 214-bet.
8. Xoliqov A.A. Fizika o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. – 132-bet.

FIZIKA O‘QITISHNING TAJRIBA-FAOLIYATLI MODELINI AMALGA OSHIRISH BOSQICHLARI VA O‘QUV MATERIALINI REJALASHTIRISH

Eshtemirov Axror Nurmaxmatovich,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, Tabiiy fanlar kafedrasi mudiri

Ushbu maqolada o‘rta maktabda fizika fanini o‘qitishning tajriba-faoliyatli modelini bosqichma-bosqich amalga oshirish metodikasi tahlil qilingan. O‘quvchilarning faoliyatli rivojlanish jarayoni uchta bosqichga - yettinchi, sakkizinchi va to‘qqizinchi sinflar - bo‘lib ko‘rsatilgan va har bir bosqichda shakllantirilishi zarur bo‘lgan ko‘nikmalar tizimi aniqlangan. Taqqoslash, kuzatish va birlamchi gipoteza bilan ishlashni o‘rgatishning faoliyatga asoslangan rejalashtirish jadvallar orqali asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish uchun eng samarali davr yettinchi sinfdan to‘qqizinchi sinfgacha bo‘lgan o‘rta maktab davridir. Aynan shu davrda fizika bo‘yicha fanga oid bilimlar, zarur ko‘nikmalar va kompetensiyalarni shakllantirish bo‘yicha maqsadli ishlar amalga oshirilishi kerak.

Kalit so‘zlar: *tajriba-faoliyatli model, ko‘nikmalar bosqichlari, yettinchi sinf, sakkizinchi sinf, to‘qqizinchi sinf, taqqoslash ko‘nikmasi, kuzatish ko‘nikmasi, gipoteza bilan ishlash, faoliyatli rejalashtirish.*

ЭТАПЫ РЕАЛИЗАЦИИ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНО-ДЕЯТЕЛЬНОСТНОЙ МОДЕЛИ ОБУЧЕНИЯ ФИЗИКЕ И ПЛАНИРОВАНИЕ УЧЕБНОГО МАТЕРИАЛА

В данной статье анализируется методика поэтапной реализации экспериментально-деятельностной модели обучения физике в средней школе. Процесс деятельностного развития учащихся представлен в трёх этапах - 7-й, 8-й и 9-й классы - с определением системы умений, формируемых на каждом этапе. Деятельностное планирование обучения сравнению, наблюдению и работе с первичной гипотезой обосновано с помощью таблиц. Результаты исследования показывают, что наиболее эффективным периодом для формирования умений и навыков является период обучения в средней школе - с 7-го по 9-й класс.

Ключевые слова: *экспериментально-деятельностная модель, этапы формирования умений, 7-й класс, 8-й класс, 9-й класс, умение сравнивать, умение наблюдать, работа с гипотезой, деятельностное планирование.*

IMPLEMENTATION STAGES OF THE EXPERIMENTAL-ACTIVITY PHYSICS TEACHING MODEL AND CURRICULUM PLANNING

This article analyzes the methodology for the staged implementation of the experimental-activity model of physics instruction in secondary school. The process of students’ activity-based development is presented in three stages - seventh, eighth, and ninth grades - with identification of the system of skills to be developed at each stage. Activity-based planning for teaching comparison, observation, and work with initial hypotheses is substantiated through instructional planning tables. The findings demonstrate that the most effective period for developing skills and competencies is the secondary school phase, from the seventh through the ninth grade, during which targeted work on the formation of essential physics knowledge, skills, and competencies must be systematically carried out.

Keywords: *experimental-activity model, skill development stages, seventh grade, eighth grade, ninth grade, comparison skill, observation skill, hypothesis work, activity-based planning.*

Kirish. O‘rta maktabda fizika fanini o‘qitish yettinchi sinfdan o‘n birinchi sinfgacha davom etadi. Dunyo haqidagi bilimlarni egallash jarayoni uzluksizdir. Shu bilan birga, bir necha yillik tajriba, bolaning faoliyatli rivojlanishi bo‘yicha adabiyotlarni tahlil qilish bizni maktab o‘quvchilarida umumo‘quv, tajriba va boshqa ko‘nikmalarni shakllantirish uchun eng samarali davr yettinchi sinfdan to‘qqizinchi sinfgacha, ya’ni o‘rta maktabda o‘qish davri bo‘ladi, degan xulosaga keltirdi. Aynan shu davrda fizika bo‘yicha fanga oid bilimlar, zarur ko‘nikmalar va kompetensiyalarni shakllantirish bo‘yicha maqsadli ishlar amalga oshirilishi kerak.

Maktab o‘quvchilarini o‘qitish va rivojlantirish uchun taklif qilinayotgan metodika tizimi asta-sekin quriladi va bir necha bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu tizim doirasida o‘rta maktabda fizika fanini o‘qitish davrida o‘quvchilarning faoliyatli rivojlanishi jarayoni uch bosqichga bo‘lingan [1].

O’zbek ta’lim tizimida 7-9-sinf davri o’quvchining shaxsini shakllantirish, ilmiy tafakkurini rivojlantirish va kasbiy yo’alishini belgilash uchun eng muhim davr hisoblanadi. D.B.Elkonin va V.V.Davidovning tadqiqotlari ko’rsatadiki, aynan shu yoshda - 12-15 yosh - abstrakt-nazariy tafakkur shakllanishining eng qulay sharoiti vujudga keladi. Shuning uchun aynan shu davrda tajriba-faoliyatli modelni izchil qo’llash o’quvchilarning keyingi butun ta’lim yo’iga ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

L.S.Vigotskiyning yaqin rivojlanish zonasi tushunchasi o’quvchining hozirgi imkoniyatlari va o’qituvchi yordami bilan erisha oladigan imkoniyatlari o’rtasidagi farqni ifodalaydi. Tajriba-faoliyatli modelning har bir bosqichi - 7, 8, 9-sinf - yaqin rivojlanish zonasi tamoyiliga muvofiq qurilgan: oldingi bosqichda o’qituvchi yordami bilan o’glashtirilgan ko’nikma keyingi bosqichda mustaqil bajarilishi kutiladi. Bu tamoyil doimiy rivojlanishni ta’minlaydigan spiral tuzilmani hosil qiladi [6].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Faoliyat nazariyasi shuni ta’kidlaydiki, faoliyat dastlab hamkorlikdagi faoliyat sifatida rivojlanadi va shundan keyingina u individual ravishda o‘zlashtiriladi. Guruhda o‘quvchilar g‘oyalar va harakatlar almashadilar, vazifani bajarish uchun ishlarni taqsimlaydilar, zarur kompetensiyalarga ega bo‘ladilar. Guruh ishi axborot va faoliyatga asoslangan ko‘nikmalarni egallashni rag‘batlantiradi. Shunga ko‘ra, o‘quvchilarda guruhlarda ishlash zaruriyatini tarbiyalash muhimdir, chunki aynan guruhlarda hamkorlikdagi harakatlar sodir bo‘ladi, bu esa shaxsiy rivojlanishning keyingi sharti hisoblanadi.

A.V.Usova va A.A. Bobrov tomonidan o‘quv ko‘nikmalari sifatida mualliflar fanlarning asoslarini o‘rganish jarayonida shakllanadigan va fanlarni yanada chuqurroq o‘rganish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni ajratib ko‘rsatishadi. Bilish usullarini egallash va ularni amalda bir vaqtning o‘zida qo‘llash orqali o‘quvchilar ma’lum tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

R.I. Malafeev fizika darslarida guruhli ishni to’g’ri tashkil etish o’quvchilarning muammo yechishiga bo’gan qiziqishini 2.3 barobar oshirishini eksperimental tarzda isbotlagan. Guruhli faoliyat o’quvchilarda nafaqat bilim va ko’nikmalarni, balki muloqot, mas’uliyat va boshqalarga hurmat kabi hayotiy ko’nikmalarni ham rivojlantiradi. Shuning uchun 7-sinfdanoq guruhli ishlash madaniyatini shakllantirish keyingi barcha bosqichlar uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Xalqaro pedagogika tajribasi ham ko’rsatadiki, ko’nikmalarga yo’naltirilgan o’qitish Finlandiya, Singapur va Janubiy Koreya kabi ta’limda yetakchi mamlakatlarda keng qo’laniladi. Bu mamlakatlarda o’quvchilarning ko’nikmalarini bosqichma-bosqich shakllantiruvchi tizimli yondashuv PISA tadqiqotlarida doimiy ravishda yuqori natijalar berib kelmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda o‘rta maktablarda fizika o‘qitish tajribasi, bosqichma-bosqich ko‘nikmalar shakllanishiga oid ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. Tomsk shahri va Tomsk tumanidagi bir nechta maktablarda o‘qitishning faoliyatga yo‘naltirilgan modelini amalga oshirish bo‘yicha pedagogik kuzatuvlar va tajriba-sinov darslari o‘tkazildi. Har bir bosqich uchun shakllantirilishi zarur bo‘lgan ko‘nikmalar ro‘yxati aniqlandi va ularga erishish usullari ishlab chiqildi.

Har bir bosqich uchun shakllanganlik darajasini baholash uchun uch sathli tizim qo’lanildi: 1-sath - namuna bo’yicha bajaradi (reproduktiv); 2-sath - o’xshash vaziyatda mustaqil bajaradi (produktiv); 3-sath - yangi vaziyatda mustaqil bajaradi (ijodiy). Har chorakda o’quvchilarning asosiy ko’nikmalari bo’yicha ushbu sathlardagi tarqalishi kuzatib borildi.

O’zbek maktab o’qituvchilari orasida o’kazilgan so’rovnoma (47 nafar ishtirok etdi) shuni ko’rsatdiki, ularning 78 foizi kuzatish ko’nikmasini shakllantirish uchun alohida darslar rejalashtirmasligini, 83 foizi faoliyat refleksiyasiga darsda vaqt ajratmasligini ta’idladi. Bu raqamlar metodika tizimining zaruriyligini yana bir bor isbotlaydi.

O‘rta maktablarda fizika fanini o‘qitishning ishlab chiqilgan tajriba-faoliyatli modelini amalga oshirish uchun o‘quv dasturini rejalashtirishga ba’zi o‘zgarishlar kiritilishi kerak. Mavzuni rejalashtirishga ko‘nikmalarni shakllantirishga bag‘ishlangan alohida darslarni kiritish orqali erishish mumkin. Har bir dars uchun tajriba topshiriqlari ishlab chiqilishi mumkin, bu o‘qituvchiga o‘quv dasturi materialini o‘rganish bilan birga zarur ko‘nikmalarni bir vaqtning o‘zida shakllantirish imkonini beradi.

Tahlil va natijalar. Ko‘nikmalarni rivojlantirish bosqichlari quyidagicha taqsimlanadi. 1-bosqich (7-sinf): fizika darslarida dasturiy bilimlarni shakllantirish, alohida tajriba, faoliyatli, muammoli va axborot ko‘nikmalarini, shuningdek, birgalikda yangi bilim va faoliyat usullarini egallash ko‘nikmalariga o‘rgatish sodir bo‘ladi. Shakllantiriladigan asosiy harakatlar (ko‘nikmalar): kuzatish, o‘lchash, tajriba o‘tkazish. Shu bilan birga, o‘quvchilar o‘qituvchi bilan birgalikda yangi bilimlarni va faoliyatning yangi usullarini mustaqil egallash usullarini ishlab chiqish uchun hamkorlikdagi faoliyat bilan shug‘ullanadilar.

2-bosqich (8-sinf): dasturiy bilimlarni egallash ham amaliy topshiriqlarni bajarish orqali faol sodir bo‘ladi. O‘quvchilar kuzatish va o‘lchash ko‘nikmalarini mustaqil ravishda qo‘llaydilar va muayyan harakatlarni bajarishda modellashtirishni o‘rganadilar. Amaliy topshiriqlarni bajarish jarayonida o‘quvchilar

faoliyatning tuzilishi: maqsad, usullar va natijalar bilan tanishadilar. Ular faoliyat usuli uchun algoritm yaratishni va faoliyatni algoritmga muvofiq bajarishni o‘rganadilar.

3-bosqich (9-sinf): dasturiy bilimlarni o‘rgatishda o‘qituvchi o‘quvchilarning mustaqil faoliyatiga yanada ko‘proq tayanadi, ularning tajriba o‘tkazish, kuzatish, ma’lumotlarni tashkil qilish va muammolarni hal qilish uchun guruhda hamkorlik qilish ko‘nikmalaridan foydalanadi. O‘quvchilar umuman faoliyat refleksiyasi, maqsad va natija o‘rtasidagi moslikni, faoliyat usuli va maqsad o‘rtasidagi moslikni anglashga o‘rganadilar.

7-sinf bosqichida kuzatish ko’nikmasi fizika ta’limidagi eng asosiy ko’nikma hisoblanadi. Kuzatish - bu tasodifiy ko’rib o’ish emas, balki maqsadli, reja asosida olib boriladigan jarayon. O’quvchi kuzatishda nima izlayotganini, qanday o’chayotganini va nima uchun o’chayotganini aniq bilishi kerak. O’qituvchi har bir kuzatish oldidan maqsadni og’aaki ifodalashni va kuzatish yakunida natijalarni muhokama qilishni tashkil etishi zarur.

8-sinf bosqichida o’quvchilar faoliyat algoritmini mustaqil tuzishni o’ganadilar. Bu ko’nikma keyingi barcha o’qitish bosqichlari uchun asos bo’ib xizmat qiladi. Algoritm tuzish qobiliyati o’quvchiga nafaqat fizikada, balki boshqa fanlarni o’ganishda va kundalik hayotda murakkab vazifalarni ketma-ket bajarishda katta yordam beradi. Tadqiqot natijalari ko’rsatadiki, algoritm tuzishni o’tgan 8-sinf o’quvchilari 9-sinfda yangi mavzularni 35 foiz tezroq o’zlashtirgan.

9-sinf bosqichida o’quvchilar yakka tartibda ham, guruhda ham to’liq mustaqil tadqiqot o’tkazishga tayyor bo’ladilar. Bu bosqichda o’qituvchining roli tobora kamayib, maslahatchi va yo’altiruvchi roliga o’tadi. O’quvchilar o’zlari gipoteza ilgari surib, o’zlari tajriba rejasini tuzib, o’zlari natijalarni tahlil qilib xabar beradilar. Bunday to’iq tadqiqot sikli o’quvchilarni OTMga kirish va u yerda muvaffaqiyatli o’qish uchun tayyorlaydi.

Faoliyatli rejalashtirish natijasida o’qituvchilar dars rejalarini ikki qatlamda tuzishni o’rgandilar: birinchi qatlam - o’quv dasturiy bilimlar, ikkinchi qatlam - ko’nikma shakllanishi. Bu ikki qatlam birgalikda ishlaganda dars samaradorligi sezilarli oshadi. Bunday rejalashtirish metodikasi tajriba-faoliyatli modelning amaliy asosini tashkil etadi.

Tajriba maktablar va nazorat maktablar o’rtasidagi taqqoslama tahlil quyidagi natijalarni berdi: tajriba-faoliyatli model qo’llangan maktablarda o’quvchilarning yillik yakuniy baholari o’rtacha 1.2 ball yuqori bo’gan. Shuningdek, ushbu maktablar o’quvchilari olimpiadalarda ham yaxshiroq natijalar ko’rsatgan: olimpiada g’oliblarining 71 foizi tajriba maktablardan chiqqan.

1-jadval.

Taqqoslashga o‘rgatish bosqichlari

Harakatni shakllantirish bosqichlari	**Fizikadan material**	**Amaliy ish**
1. Harakat haqida tushunchani kiritish, algoritmni birgalikda ishlab chiqish	Modda tuzilishi	Mayda o‘lchamdagi jismlarni turli belgilar bo‘yicha taqqoslash
2. Harakat algoritmini o‘zlashtirish va qo‘llash	Moddalarning agregat holatlari	Qattiq jism, suyuqlik, gaz xususiyatlarini taqqoslash
3. Harakatni o‘zlashtirishni nazorat qilish	Tekis va notekis harakat	Harakatning turli xarakteriga ega jismlarning harakat grafiklarini taqqoslash

2-jadval.

Kuzatishga o‘rgatish bosqichlari

Harakatni shakllantirish bosqichlari	**Fizikadan material**	**Amaliy ish**
1. Harakat haqida tushunchani kiritish, algoritmni birgalikda ishlab chiqish	Mexanik harakat	Hisoblashning turli tizimlarida jism harakatini kuzatish
2. Harakat algoritmini o‘zlashtirish va qo‘llash	Harakat traektoriyasi	Hisoblashning turli tizimlarida g‘ildirak to‘g‘inida nuqta harakatini chizish
3. Harakatni o‘zlashtirishni nazorat qilish	Jismlarning o‘zaro ta’siri	Ikkita o‘zaro ta’sir qiluvchi aravachalar tezliklari o‘zgarishining ta’sirini aniqlash

3-jadval.

Birlamchi gipoteza (versiya) bilan ishlashni o‘rgatish

Harakatni shakllantirish bosqichlari	Fizikadan material	Amaliy ish
1. Harakat haqida tushunchani kiritish, algoritmni birgalikda ishlab chiqish	Ichki energiyani o‘zgartirish usullari	Ichki energiyaning o‘zgarishi sabablarini aniqlash: 1) issiq suvli idishga solamiz; 2) bukamiz va ochamiz
2. Harakat algoritmini o‘zlashtirish va qo‘llash	Issiqlik o‘tkazuvchanlik	Uchta metall namunalarda issiqlik o‘tkazuvchanlik jarayonini kuzatish
3. Harakatni o‘zlashtirishni nazorat qilish	Turli moddalarning issiqlik o‘tkazuvchanligi	Suyuqlik va gazlarda issiqlik o‘tkazuvchanlik jarayonini kuzatish

Biluv ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan faoliyatli rejalashtirish, shuningdek, teg ishli metodika O.V. Bulaeva bilan birgalikda birinchi variantga muvofiq ishlab chiqilgan [3]. Shunga ko‘ra, o‘quv dasturi bo‘yicha bilimlarni egallashga bag‘ishlangan darslardan tashqari, fizikadan bilimlariga asoslanib, yuqorida aytib o‘tilgan kuzatish, o‘lchash va boshqa ko‘nikmalarini maqsadli ravishda shakllantiriladigan darslar ham kiritilgan.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar chiqarildi. Tajriba-faoliyatli modelni amalga oshirishda uchta bosqich - 7, 8 va 9-sinflarda - ketma-ket va mantiqan bog‘liq holda tashkil etilishi zarur. Har bir bosqichda o‘quvchilarning faoliyat mustaqilligi asta-sekin oshiriladi: birgalikdagi faoliyatdan individual mustaqil faoliyatga o‘tish ta’minlanadi. O‘quv materialini rejalashtirish ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan maqsadli darslarni dasturiy bilimlarni o‘rganish bilan organik birlashtirishni nazarda tutadi.

Amaliy tavsiyalar: birinchidan, har bir sinfda shakllantirilishi zarur bo‘lgan ko‘nikmalar ro‘yxatini aniq belgilash; ikkinchidan, kuzatish, taqqoslash va gipoteza bilan ishlash ko‘nikmalarini uch bosqichli algoritm asosida o‘rgatish; uchinchidan, guruhli ishlash shakllarini doimiy qo‘llash; to‘rtinchidan, har bir o‘quv choragida o‘quvchilarning ko‘nikma darajasini diagnostika qilish. Ushbu tizimli yondashuv fizika ta’limida o‘quvchilarning ilmiy tafakkurini va tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Булаева О.В. Деятельностное планирование уроков физики. Томск: ТГПУ, 2001. - 78 с.
2. Малафеев Р.И. Проблемное обучение физике в средней школе. М.: Просвещение, 1993. - 192 с.
3. Усова А.В., Бобров А.А. Формирование учебных умений и навыков. Челябинск: ЧГПИ, 1982. - 86 с.
4. Сауров Ю.А. Методология школьного физического эксперимента. Киров: ВГПУ, 1999. - 174 с.
5. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. М.: Политиздат, 1975. - 304 с.
6. Давыдов В.В. Теория развивающего обучения. М.: ИНТОР, 1996. - 544 с.
7. Разумовский В.Г. Научное мышление в обучении физике. М.: Педагогика, 1978. - 112 с.

FIZIKA DARSLARIDA FAKT INTERFAOL METODIDAN FOYDALANISH ORQALI TEXNIK YO‘NALISH TALABALARI TEXNIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

G‘oibova Nargiza Ziyoxonovna,
Namangan davlat universiteti
goibova_nargiza82@mail.ru

Ushbu maqolada texnik yo‘nalishdagi talabalarning texnik qobiliyatlarini rivojlantirishda fizika darslarida FAKT interfaol metodidan foydalanishning pedagogik ahamiyati yoritilgan. FAKT interfaol metodi asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar talabalarning o‘quv faolligini oshirish, jihozlar bilan ishlash, tahliliy fikrlash va texnik masalalarni yechish qobiliyatlarini oshirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslangan. Tadqiqot jarayonida kuzatuv, taqqoslash va pedagogik tajriba-sinov usullaridan foydalanilgan. Olingan natijalar FAKT interfaol metodining fizika darslarida qo‘llanilishi talabalarning texnik qobiliyatlarini samarali rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: *FAKT interfaol metodi, fizika ta’limi, texnik qobiliyat, texnika yo‘nalishi talabalari, interfaol o‘qitish, pedagogik strategiyalar, amaliy ko‘nikmalar, texnik tafakkur, muammoli vaziyatlar, talabalar faolligi, ta’lim samaradorligi, o‘quv metodikasi.*

DEVELOPING THE TECHNICAL ABILITIES OF ENGINEERING STUDENTS THROUGH THE USE OF THE FACT INTERACTIVE METHOD IN PHYSICS CLASSES

This article highlights the pedagogical significance of using the FAKT interactive method in physics classes to develop the technical competencies of engineering students. Lessons organized based on the FAKT interactive method are shown to enhance students’ learning engagement, ability to work with factual information, analytical thinking, and problem-solving skills. Observational, comparative, and pedagogical experimental methods were employed in the study. The results demonstrate that applying the FAKT interactive method in physics classeshas a positive effect on the development of students’ technical abilities.

Key words: *interactive FAKT method, physical education, technical skills, students of technical specialties, interactive learning, pedagogical strategies, practical skills, technical thinking, problem situations, student activity, learning effectiveness, teaching methods.*

РАЗВИТИЕ ТЕХНИЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ СТУДЕНТОВ ТЕХНИЧЕСКОГО НАПРАВЛЕНИЯ ПОСРЕДСТВОМ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНТЕРАКТИВНОГО МЕТОДА FACT НА УРОКАХ ФИЗИКИ

В данной статье подчеркивается педагогическое значение использования интерактивного метода FAKT на уроках физики для развития технических компетенций студентов инженерных специальностей. Показано, что занятия, организованные на основе интерактивного метода FAKT, повышают вовлеченность студентов в процесс обучения, их способность работать с фактической информацией, аналитическое мышление и навыки решения проблем. В исследовании использовались методы наблюдения, сравнительного анализа и педагогического эксперимента. Результаты показывают, что применение интерактивного метода FAKT на уроках физики оказывает положительное влияние на развитие технических навыков студентов.

Ключевые слова: *интерактивный метод FAKT, физическое образование, технические навыки, студенты технических специальностей, интерактивное обучение, педагогические стратегии, практические навыки, техническое мышление, проблемные ситуации, активность студентов, эффективность обучения, методика преподавания.*

Kirish. Dunyoda rivojlanish sur’ati jadal ketayotgan bir vaqtda O‘zbekiston Respublikasida ham ilm fanga e’tibor juda keng ko‘lamda ishlar olib borilmoqda. Yoshlarni xalqaro talablarga mos ravishda yetuk kadr qilib tayyorlash masalasi hammavaqt dolzarb bo‘lib kelgan. Ta’lim sifatini oshorish mutaxassislar sifatida muhim ahamiyatga egaligi sir emas. Shu maqsadda ta’lim samaradorligini oshiruvchi didaktik o‘yinlar ta’lim jarayonida muhim o‘rin tutadi. Uzluksiz ta’lim tizimida oliy ta’lim alohida o‘rinni egallaydi. O‘qituvchi mutaxassisligidan tashqari mahoratli pedagog sifatida dars jarayonini mazmunli, qiziqarli va mukammal tarzda tashkil qilishi har tomonlama uning salohiyatiga va ijodkorligiga bog‘liq. Bu jarayonning asosiy qismini ta’lim metodlari orqali amalga oshirishi lozim bo‘ladi.

Maqsad. Ma’lumki, dars samaradorligini yanada oshirish uchun olib borilayotgan ilmiy izlanishlar talaygina. Biroq texnik va aniq fanlarni takomillashtirib o‘qitish haqidagi ilmiy izlanishlar yetarli emasligi yangi o‘qitishning samarali metodini izlab topishni taqozo qiladi. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarida muhandislik-texnik fanlarni, xususan fizika fanini o‘qitish samaradorligini oshirish ushbu talabni o‘rtaga olib chiqadi.

Muammo. Ta’lim tizimidagi har doim dolzarb va izlanishga undaydigan muammolardan biri ta’lim samaradorligini oshirish hamda kadrlar sifatini yaxshilash muammosi bo‘lib qolaveradi. Doimiy izlanishlar muammoning samarali yechimini topishga asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Yechim. Ushbu maqolada ta’lim sifatini oshirish vositasi hisoblangan metodik o‘yin taklif qilingan va u har qanday fanni o‘qitishga moslashtirib qo‘llanilishi mumkin. Taklif qilinayotgan metod bir qator afzalliklarga ega bo‘lib, u hamma fanlarni o‘qitishda xususan, fizika fanini o‘qitishda juda samarali bo‘lib, ma’ruza, amaliyot darslari hamda tajriba darslarida qo‘llanilsa, darsda ko‘zlangan maqsadga erishilishini orttiradi. Texnik qobiliyatni oshirish muhandislik sohasining asosiy masalasi bo‘lib, har qanday holatda texnik qobiliyat va muhandislik sohasini bir birisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Texnika oliy o‘quv yurti talabalarining texnik qobiliyatini oshirishda taklif qilinayotgan ushbu metod fizika darslarida tajriba sifatida qo‘llanilib, o‘zining samaradorligini ko‘rsatdi.

Metodlar. Taklif qilinayotgan FAKT interfaol metodi har bir dars turida (ma’ruza, amaliy hamda tajriba) hamda o‘rinli qo‘llanilganda har bir fanni o‘qitishda o‘z samarasini betrishi mumkin. Yana shuni ta’kidlash lozimki, ushbu metodning faqat o‘zinigina qo‘llab qolmay, boshqa interfaol metodlar bilan uyg‘unlikda ham qo‘llash mumkin. Misol sifatida ushbu FAKT metodi muammoli ta’lim, aqliy hujum, keys-study metodlari bilan birgalikda qo‘llanildi. Endi FAKT metodi haqida so‘z yuritsak. Yangi sodda va samarali bo‘lgan metodik o‘yin FAKT. FAKT (F-fizik jihoz, A-afzalliklari, K-kamchiliklari, T-taklif/tuzatishlar) o‘yini texnika yo‘nalishidagi OTM talabalari uchun mo‘ljallangan **tahliliy-muhandislik modeli** bo‘lib, u fizika darslarida texnik fikrlashni faollashtirish orqali texnik qobiliyatni oshirishga xizmat qiladi. FAKT o‘yini haqiqatdan ham yangi, sodda lekin juda samarali metod hisoblanadi. Uni metodik jihatdan mukammalashtiramiz.



O‘yinning asosiy maqsadi

O‘yin qanday o‘tkaziladi?

Talabalarga to‘rt ustundan iborat jadval beriladi. O‘qituvchi shu dars mavzusiga mos bir yoki bir nechta fizik jihoz tanlaydi.

Masalan: Turli muhitlarda elektr toki mavzusini olaylik.

Jihozlar galvanometr, elektroliz vannasi, neon lampa, multimetr, rezistor moduli, yarimo‘tkazgichli diod, talabalar guruhlarda jadvalni to‘ldiradilar.

O‘yin jarayoni(bosqichma-bosqich)

Bosqichlar	Jarayon	Vaqt	Bajariladigan ishlar mazmuni
1-bosqich:	Jihoz tanlash	(1 daqiqa)	O‘qituvchi jihozni tanlaydi yoki guruhlarga taqsimlaydi
2-bosqich:	F ustunga jihoz yozish	(1-daqida)	Har bir guruh jadvalining F ustuniga o‘z jihozining nomini yozadi
3-bosqich:	A ustuni afzalliklarni tahlil qilish	(3 daqiqa)	Talabalar quyidagilarni aniqlaydilar: -jihozning qulay jihatlari -darsdagi o‘rni -aniq o‘lchaydigan xususiyatlari -amaliy qo‘llanilishi
4-bosqich:	K ustuni – kamchiliklarni tahlil qilish	(3-daqiqa)	Talabalar: -jihozdagi texnik cheklovlar -aniqlik xatolari -ishlatishdagi noqulayliklar -konstruktiv muammolarni yozadilar
5-bosqich:	Taklif va takomillashtirish - T ustuni	(3 daqiqa)	Bu qism texnik qobiliyatni aynan oshiradigan qism: -yaxshilash bo‘yicha g‘oya -zamonaviy variantini taklif qilish -qaysi elementini yangilash mumkinligi -muammolarni texnik yechim bilan bartaraf etish
6-bosqich:	Himoya	(2 daqiqa)	Har guruh qisqacha o‘z jadvalini tushuntiradi

Metodning samarasini mavzu haqida qisqa muddatda tushunish orqali ko‘rishimiz mumkin. Misol tariqasida to‘ldirilgan FAKT jadvali

F-fizik jihoz	A-afzalliklar	K-kamchiliklar	T-takliflar
Neon lampa	Gazlarda tok o‘tishini ko‘rgazmali ko‘rsatadi	Shish malakasi past bo‘lsa darz ketadi	Material sifatini yaxshilash
	Kuchlanish bo‘lganda darhol yonadi	Bir xil yorqinlik bermasligi mumkin	Kuchlanish stabilizatori bilan ishlash
	Kam energiya sarfi	Kuchlanishning aniq darajasi kerak	LED-neon gibrid variantini yaratish

Ilmiy yangilik

1. FAKT interfaol tahliliy-metodik o‘yini fizika fanini o‘qitishda birinchi marta texnik qobiliyatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan maxsus texnologiya sifatida taklif etildi. Ushbu metodda fizik jihozlar va texnik obyektlarni “F-fizik jihoz, A-afzalliklari va amaliy qo‘llanilishi, K-kamchiliklari, T-takomillashtirish takliflari” tamoyili asosida to‘rt bosqichli tizimni tahlil qilish mexanizmi ishlab chiqildi. Texnika oliy o‘quv yurtlari talabalarida texnik tafakkur, texnik tasavvur va konstruktiv fikrlarni o‘lchashga mo‘ljallangan yangi diagnostik mezonlar ishlab chiqildi. (Mezonlar: tahlil aniqligi, funksional yechim taklif qilish qobiliyati, konstruktiv o‘zgartirish darajasi, dizayn-muhandislik fikrlashi). Fizika darslarida turli texnik jihozlardan foydalangan holda talabalar fikrlash faoliyatining strukturaviy modeli ishlab chiqildi. Model “idrok-tahlil-muhandislik fikri-taklif-texnik yechim” ketma-ketligi asosida qurildi. Ma’ruza darsini aqliy hujum va FAKT o‘yini integratsiyasi asosida tashkil etishning yangi didaktik algoritmi yaratildi. Algoritm talabalarda faollik, tezkor fikrlash, texnik vaziyatni tahlil qilish va taklif ishlab chiqish malakalarini uyg‘un rivojlantiradi. Elektr toki texnik muhitlar va qurilmalarning real konstruktiv xususiyatlarini tahlil qilish orqali talabalar texnik qobiliyatining oshishi eksperimental ravishda isbotlandi.

Xulosa. Shunday qilib, xalqaro va mahalliy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, interfaol yondashuvlar fizikani o‘qitishda an’anaviy ma’ruzadan samaraliroq bo‘lib, talabalar texnik tafakkur, muammoli fikrlash, amaliy ko‘nikmalar va konseptual bilimlarni sezilarli darajada yaxshilashga xizmat qiladi. Bu ilmiy natijalar FAKT metodini pedagogik innovatsiya sifatida joylashtirish uchun mustahkam nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020 - yil 23-sentyabrdagi O‘RQ-637-sonli “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.// www.lex.uz.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash t o‘g‘risida”gi Farmoni. //2019-yil 8-oktyabr. www.lex.uz.

3. Sadriddinov, A.Rahimov, A. Mamadaliyev, Z.Jamolova. Fizika o‘qitish uslubi asoslari // o‘quv qo‘llanma . –T.: “O‘zbekiston”, 2006

4. M.Ochilov, N. Ochilova. Oliy maktab pedagogikasi // –T.: “Aloqachi”, 2008.

5. N.Z.G‘oibova, S.S. Qahharov “Fizika o‘qitish samaradorligini belgilovchi omillar” // NamDU-2021, 1-son, 312-316-b.

6. Planida S.I. Приемы и средства формирования у студентов с вуза.

конструктивно-технических способностей // Методический поиск: проблемы и решения. - № 4. -2008.- 31-32-b.

7. N.Z.G‘oibova, D.H. Mahmudova “Fizika darslarida talabalarning texnik qobiliyatlarini rivojlantirishda tabiiy fanlarning o‘zaro aloqadorlik va uzviylik masalalari” //“Obrazovaniye i nauka v XXI veke” №34, январь, 2023, 225-233b.

8. N.Z.G‘oibova “Fizika darslarida bo‘lajak muhandislarning texnik qobiliyatlarini takomillashtirishda foydalaniladigan usullar tahlili”,//“ILM SARCHASHMALARI” ilmiy-nazariy, metodik jurnal, Urganch – 2023, 72-75-b.

9. N.Z.G‘oibova “The importance of using innovative pedagogikalmethods in physics classes in the development of technical abilities of students og the technical higher educational institution”, //Research Focus International Scientific Journal, Uzbekistan https://refocus.uz/,2023 (Google Scholar)

10. J. Yo‘ldoshev, S.Usmonov “Pedagogik texnologiya asoslari” //qo‘llanma Toshkent, “O‘qituvchi”-2004//www.ziyouz.com kutubxonasi, /5-bet.

UO’K 1.37.50.53.

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA ISHQALANISH KUCHLARINI O‘QITISHDA GRAFIK TASHKIL ETUVCHILARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Avulova Zamira Tursunmurodovna,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Ilmiy rahbar: Katta o‘qituvchi
ORCID: 0009-0003-7560-006X
zamiraavulova@gmail.com
Murtazayev Zohid Murtazayevich,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti Assistant o‘qituvchi
zohidmurtazayev706@gmail.com
ORCID: 0009-0006-6942-3548
Gulmurodova Sevara Qobiljon qizi,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti Fizika va astronomiya yo‘nalishi 4-bosqich talabasi

Mazkur maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida fizika fanining muhim bo‘limlaridan biri hisoblangan ishqalanish kuchlarini o‘qitishda grafik tashkil etuvchilardan foydalanish metodikasi yoritilgan. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, o‘quvchilarda murakkab fizik tushunchalarni samarali shakllantirishda vizual vositalarning ahamiyati ortib bormoqda. Maqolada grafik tashkil etuvchilarning turlari, ularning didaktik imkoniyatlari hamda dars jarayonida qo‘llash usullari tahlil qilingan. Shuningdek, ishqalanish kuchlari mavzusini o‘rganishda diagrammalar, konseptual xaritalar va grafik modellar orqali o‘quvchilarning bilimini mustahkamlash yo‘llari ko‘rsatib berilgan. Tadqiqot davomida eksperimental va nazariy usullardan foydalanilib, grafik vositalarning o‘quvchilarning tushunish darajasi va mustaqil fikrlashiga ijobiy ta’siri aniqlangan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, grafik tashkil etuvchilar asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning fanga qiziqishini oshiradi hamda ularning analitik fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Mazkur metodika amaliyotga joriy etish uchun samarali vosita sifatida tavsiya etiladi.

Kalit so‘zlar: *ishqalanish kuchi, grafik tashkil etuvchilar, fizika o‘qitish metodikasi, vizual ta’lim, konseptual xaritalar, diagramma, o‘quv jarayoni, didaktik vositalar.*

МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ГРАФИЧЕСКИХ ОРГАНАЙЗЕРОВ ПРИ ОБУЧЕНИИ СИЛАМ ТРЕНИЯ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ

В данной статье рассматривается методика использования графических организаторов при обучении силам трения в общеобразовательных школах. Актуальность исследования обусловлена необходимостью повышения эффективности усвоения сложных физических понятий посредством визуальных средств обучения. В работе проанализированы виды графических организаторов, их дидактические возможности и особенности применения в учебном процессе. Особое внимание уделено использованию диаграмм, концептуальных карт и графических моделей при изучении темы силы трения. На основе теоретического анализа и педагогического эксперимента выявлено, что применение графических средств способствует более глубокому пониманию материала, развитию логического мышления и формированию устойчивых знаний у учащихся. Полученные результаты показывают, что внедрение графических организаторов в процесс обучения повышает интерес учащихся к предмету и активизирует их познавательную деятельность. Предложенная методика может быть эффективно использована в практике преподавания физики в школах.

Ключевые слова: *сила трения, графические организаторы, методика обучения физике, визуальное обучение, концептуальные карты, диаграммы, учебный процесс, дидактические средства.*

METHODOLOGY OF USING GRAPHIC ORGANIZERS IN TEACHING FRICTIONAL FORCES IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS

This article discusses the methodology of using graphic organizers in teaching frictional forces, which is one of the important topics of physics in general secondary education schools. The relevance of the study lies in the increasing importance of visual tools in effectively forming students’ understanding of complex physical concepts. The article analyzes the types of graphic organizers, their didactic potential, and methods

of their application in the teaching process. In addition, ways of reinforcing students’ knowledge through diagrams, concept maps, and graphical models in teaching the topic of frictional forces are presented. During the research, experimental and theoretical methods were used, and it was found that graphic tools have a positive impact on students’ level of understanding and independent thinking skills. The results show that lessons organized based on graphic organizers increase students’ interest in the subject and develop their analytical thinking abilities. This methodology is recommended as an effective tool for practical implementation.

Keywords: *frictional force, graphic organizers, physics teaching methodology, visual learning, concept maps, diagram, educational process, didactic tools.*

Kirish. Hozirgi globallashuv va raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan davrda umumiy o‘rta ta’lim tizimida ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish hamda ularni zamonaviy bilim va ko‘nikmalar bilan qurollantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, fizika fanini o‘qitishda nazariy bilimlarni amaliy tushunchalar bilan uyg‘unlashtirish, murakkab jarayon va hodisalarni o‘quvchilarga sodda va tushunarli shaklda yetkazish dolzarb masala sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ishqalanish kuchlari mavzusi fizikaning asosiy tushunchalaridan biri bo‘lib, uni o‘rganish orqali o‘quvchilar kundalik hayotda uchraydigan ko‘plab fizik hodisalarning mohiyatini anglay boshlaydilar.

Ma’lumki, ishqalanish kuchlari mexanikaning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, jismlarning o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga keladi va ularning harakatiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu tushunchani o‘zlashtirish o‘quvchilardan nafaqat nazariy bilimlarni, balki tasavvur qilish, tahlil etish va umumlashtirish ko‘nikmalarini ham talab etadi. Shu sababli an’anaviy o‘qitish usullari doirasida bu mavzuni samarali o‘zlashtirish har doim ham yuqori natija bermasligi mumkin. Pedagogik tajriba shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning aksariyati ishqalanish kuchlarining mohiyatini faqat formulalar orqali emas, balki vizual va grafik ifodalar yordamida yaxshiroq anglaydilar.

Zamonaviy ta’lim yondashuvlarida vizual vositalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Grafik tashkil etuvchilar – diagrammalar, sxemalar, jadval va konseptual xaritalar – o‘quvchilarning bilimlarini tizimlashtirish, murakkab axborotni soddalashtirish va o‘zaro bog‘liqliklarni aniqlash imkonini beradi. Ayniqsa, fizik jarayonlarni grafik shaklda ifodalash o‘quvchilarning abstrakt tafakkurini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Shu jihatdan, grafik tashkil etuvchilarni ta’lim jarayoniga joriy etish o‘quvchilarning bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishiga xizmat qiladi. Bu borada ta’kidlanishicha, vizual ta’lim vositalari o‘quvchilarning tafakkur faoliyatini faollashtiradi va ularning bilimlarni mustaqil ravishda tahlil qilishiga yordam beradi.

Bugungi kunda ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv ustuvor yo‘nalish sifatida qaralmoqda. Bu esa o‘quvchilarning faqat bilim olishiga emas, balki ularni amaliyotda qo‘llay olishiga ham e’tibor qaratishni talab etadi. Ishqalanish kuchlarini o‘qitishda grafik tashkil etuvchilardan foydalanish aynan shu yondashuvga mos keladi, chunki bu metod o‘quvchilarning nazariy bilimlarini vizual modellar orqali mustahkamlash imkonini beradi. Masalan, ishqalanish kuchining normal kuchga bog‘liqligini grafik orqali ifodalash o‘quvchilarga formulaning mazmunini chuqurroq anglash imkonini beradi. Shuningdek, turli sirtlar orasidagi ishqalanish koeffitsiyentlarini taqqoslash diagrammalari orqali o‘quvchilarning tahliliy fikrlashi rivojlanadi.

Shu bilan birga, grafik tashkil etuvchilardan foydalanish o‘qituvchining darsni samarali tashkil etishiga ham xizmat qiladi. Chunki bu usul orqali o‘quvchilarning diqqatini jalb etish, ularning faol ishtirokini ta’minlash va o‘zlashtirish darajasini oshirish mumkin. Pedagogik tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, vizual vositalar asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning eslab qolish darajasini sezilarli darajada oshiradi hamda ularning bilimlarni uzoq muddat saqlab qolishiga yordam beradi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ishqalanish kuchlarini o‘qitishda grafik tashkil etuvchilardan foydalanishning metodik asoslarini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot doirasida grafik tashkil etuvchilarning didaktik imkoniyatlari, ularni dars jarayonida qo‘llash usullari hamda o‘quvchilarning bilimini oshirishdagi samaradorligi o‘rganiladi. Shuningdek, ushbu metodikaning amaliy natijalari tahlil qilinib, ta’lim jarayoniga joriy etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Natijada, grafik tashkil etuvchilar asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini oshirishi, ularning mustaqil fikrlash va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishi hamda bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishiga xizmat qilishi kutilmoqda. Shu boisdan, mazkur yondashuvni ta’lim amaliyotiga keng joriy etish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ishqalanish kuchlarini o‘qitishda grafik tashkil etuvchilardan foydalanish metodikasini ishlab chiqish va uning samaradorligini aniqlash maqsadida kompleks yondashuv asosida ilmiy-pedagogik metodlar majmuasidan

foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi nazariy va amaliy bosqichlarni o‘z ichiga olib, ularning o‘zaro uyg‘unligi asosida tashkil etildi.

Tadqiqotning nazariy asosini fizika o‘qitish metodikasi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar hamda vizual ta’lim konsepsiyalariga oid ilmiy qarashlar tashkil etdi. Dastlab, ishqalanish kuchlari mavzusining o‘quv dasturidagi o‘rni, mazmuni va o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilish darajasi tahlil qilindi. Bu jarayonda darsliklar, metodik qo‘llanmalar va ilg‘or pedagogik tajribalar o‘rganildi. Shuningdek, grafik tashkil etuvchilarning didaktik imkoniyatlarini aniqlash maqsadida ularning turlari –diagrammalar, klasterlar, konseptual xaritalar va jadval ko‘rinishlari – ilmiy jihatdan tahlil etildi. Shu asosda ishqalanish kuchlarini o‘qitishda eng samarali grafik vositalar tanlab olindi.

Nazariy tahlil jarayonida ta’limda vizual vositalardan foydalanish o‘quvchilarning bilimni qabul qilish va qayta ishlash jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan. Xususan, grafik tashkil etuvchilar orqali axborotni tizimlashtirish o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantiradi va murakkab tushunchalarni oson anglash imkonini beradi. Shu sababli tadqiqotda grafik tashkil etuvchilarni nafaqat qo‘shimcha vosita, balki asosiy didaktik element sifatida qo‘llash konsepsiyasi ishlab chiqildi.

Amaliy bosqichda esa pedagogik eksperiment o‘tkazildi. Tadqiqot umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinflarida olib borildi, chunki aynan shu bosqichda o‘quvchilar mexanika bo‘limi, jumladan ishqalanish kuchlari bilan tanishadilar. Tajriba jarayonida o‘quvchilar ikki guruhga – nazorat va tajriba guruhlariga ajratildi. Nazorat guruhida an’anaviy o‘qitish usullari qo‘llanilgan bo‘lsa, tajriba guruhida grafik tashkil etuvchilar asosida ishlab chiqilgan metodika joriy etildi.

Tajriba guruhida darslar maxsus ishlab chiqilgan metodik model asosida tashkil etildi. Ushbu model uch bosqichni o‘z ichiga oldi: motivatsiya bosqichi, asosiy faoliyat bosqichi va yakuniy tahlil bosqichi. Motivatsiya bosqichida o‘quvchilarga ishqalanish hodisasining kundalik hayotdagi namunalari grafik tasvirlar orqali ko‘rsatildi. Bu esa ularning mavzuga qiziqishini oshirishga xizmat qildi. Asosiy faoliyat bosqichida o‘quvchilar ishqalanish kuchining turlari, xossalari va formulalarini grafik tashkil etuvchilar yordamida o‘rgandilar. Masalan, ishqalanish kuchining normal kuchga bog‘liqligi grafik chizma orqali tushuntirildi, turli sirtlar uchun ishqalanish koeffitsiyentlari esa jadval va diagrammalar yordamida taqqoslandi.

Yakuniy bosqichda o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi baholandi hamda ular tomonidan tuzilgan grafik modellar tahlil qilindi. Bu bosqichda o‘quvchilarning mustaqil ishlash ko‘nikmalari, tahlil qilish qobiliyati va bilimlarni umumlashtirish darajasi aniqlashga alohida e’tibor qaratildi. Shuningdek, o‘quvchilarning dars jarayonidagi faolligi va qiziqish darajasi kuzatuv metodi orqali qayd etildi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi: kuzatish, suhbat, test sinovlari, pedagogik eksperiment va statistik tahlil. Kuzatish metodi orqali o‘quvchilarning dars jarayonidagi faoliyati va ishtiroki o‘rganildi. Suhbat metodi yordamida esa o‘quvchilarning grafik tashkil etuvchilar haqidagi fikrlari va ularning o‘rganishga ta’siri aniqlashtirildi. Test sinovlari orqali nazorat va tajriba guruhlaridagi bilim darajalari solishtirildi. Olingan natijalar matematik-statistik usullar yordamida qayta ishlanib, metodikaning samaradorligi ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta’minlash maqsadida tajriba bir necha bosqichda takrorlandi va olingan ma’lumotlar o‘zaro solishtirildi. Shuningdek, natijalarni tahlil qilishda foiz ko‘rsatkichlari, o‘rtacha qiymatlar va taqqoslash usullaridan foydalanildi. Bu esa olingan xulosalarning aniqligini oshirishga xizmat qildi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, grafik tashkil etuvchilardan foydalanish o‘quvchilarning bilimlarni faqat eslab qolishiga emas, balki ularni tushunish va qo‘llay olishiga ham yordam beradi. Chunki grafik modellar orqali o‘quvchilar fizik hodisalar o‘rtasidagi bog‘liqliklarni aniq ko‘ra oladilar. Bu esa ularning analitik va mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Pedagogik manbalarda qayd etilishicha, ta’lim jarayonida interaktiv va vizual metodlardan foydalanish o‘quvchilarning bilim olish samaradorligini oshiradi va ularning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Bundan tashqari, grafik tashkil etuvchilardan foydalanish o‘qituvchining pedagogik mahoratini ham oshiradi, chunki bu usul orqali darsni yanada qiziqarli va samarali tashkil etish mumkin. Shu jihatdan, mazkur metodika nafaqat o‘quvchilar, balki o‘qituvchilar uchun ham amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, grafik vositalardan foydalanilgan darslarda o‘quvchilarning faolligi sezilarli darajada ortadi hamda ular murakkab tushunchalarni tezroq o‘zlashtiradilar.

Umuman olganda, tadqiqot metodologiyasi kompleks yondashuv asosida ishlab chiqilib, unda nazariy tahlil va amaliy tajriba uyg‘unligi ta’minlandi. Bu esa grafik tashkil etuvchilardan foydalanish metodikasining samaradorligini ilmiy asosda baholash imkonini berdi.

Tahlil va natijalar. Mazkur tadqiqot doirasida umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ishqalanish kuchlarini o‘qitishda grafik tashkil etuvchilardan foydalanish metodikasining samaradorligi tajriba-sinov

ishlari orqali aniqlab olindi. O‘tkazilgan pedagogik eksperiment natijalari shuni ko‘rsatdiki, grafik tashkil etuvchilardan foydalanilgan darslar o‘quvchilarning bilim darajasini oshirishda an’anaviy o‘qitish usullariga nisbatan sezilarli ustunlikka ega.

Tajriba boshida nazorat va tajriba guruhlaridagi o‘quvchilarning bilim darajasi deyarli bir xil ekanligi aniqlanib, dastlabki diagnostika natijalari o‘zaro yaqin ko‘rsatkichlarni qayd etdi. Bu esa keyingi natijalarni solishtirishda obyektivlikni ta’minlashga xizmat qildi. Tajriba yakunida esa tajriba guruhidagi o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi sezilarli darajada oshgani kuzatildi. Xususan, ular ishqalanish kuchining mohiyatini, uning turlari va qonuniyatlarini aniqroq tushunib, masalalarni yechishda grafik tasvirlardan samarali foydalana boshladilar.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, grafik tashkil etuvchilar yordamida o‘qitilgan o‘quvchilar mavzuni nafaqat eslab qolish, balki tushunish va qo‘llash bosqichlarida ham yuqori natijalarga erishganlar. Bu esa ta’lim jarayonida vizual vositalardan foydalanishning yuqori samaradorligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, ishqalanish kuchining normal kuchga bog‘liqligini grafik orqali tushuntirish o‘quvchilarda mavzuga nisbatan chuqurroq anglashni shakllantirdi. Shu bilan birga, turli sirtlar uchun ishqalanish koeffitsiyentlarini diagrammalar orqali solishtirish o‘quvchilarning tahliliy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qildi.

Tajriba davomida o‘quvchilarning dars jarayonidagi faolligi ham kuzatildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, grafik tashkil etuvchilardan foydalanilgan darslarda o‘quvchilar faolroq ishtirok etib, savollarga javob berish, mustaqil topshiriqlarni bajarish va muammoli vaziyatlarni hal qilishda yuqori faollik ko‘rsatdilar. Bu holat o‘quvchilarning ichki motivatsiyasi oshganini va darsga bo‘lgan qiziqishining ortganini ko‘rsatadi. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning faol ishtiroki esa bilimlarni samarali o‘zlashtirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Shuningdek, grafik tashkil etuvchilardan foydalanish o‘quvchilarning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatgani aniqlandi. Tajriba guruhidagi o‘quvchilar berilgan topshiriqlarni bajarishda grafik modellarni mustaqil ravishda tuzish, ularni tahlil qilish va xulosalar chiqarishda yuqori natijalarga erishdilar. Bu esa ularning bilimlarni faqat tayyor shaklda qabul qilmasdan, balki mustaqil ravishda shakllantirishga o‘rganganini ko‘rsatadi.

Olingan natijalar statistik tahlil asosida ham tasdiqlandi. Tajriba va nazorat guruhlarining yakuniy test natijalari solishtirilganda, tajriba guruhida yuqori ball olgan o‘quvchilar soni sezilarli darajada ko‘p bo‘lgani aniqlandi. O‘rtacha ko‘rsatkichlar ham tajriba guruhida yuqoriroq ekanligi qayd etildi. Bu esa ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligini ilmiy jihatdan asoslash imkonini berdi.

Natijalar muhokamasi jarayonida shuni ta’kidlash joizki, grafik tashkil etuvchilardan foydalanish nafaqat bilimlarni o‘zlashtirish darajasini oshiradi, balki o‘quvchilarning kognitiv faoliyatini ham rivojlantiradi. Chunki grafik vositalar orqali axborotni vizual tarzda qabul qilish va qayta ishlash jarayoni o‘quvchilarning tafakkur faoliyatini faollashtiradi. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, vizual ta’lim vositalari o‘quvchilarning mantiqiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Shu bilan birga, tadqiqot davomida ayrim muammolar ham aniqlandi. Jumladan, barcha o‘quvchilar ham grafik tashkil etuvchilarni dastlab bir xil darajada tushunib ololmasligi, ayrim hollarda ularni tuzishda qiyinchiliklarga duch kelishi kuzatildi. Bu esa o‘qituvchidan qo‘shimcha tushuntirish va individual yondashuvni talab qiladi. Shuningdek, grafik vositalarni samarali qo‘llash uchun o‘qituvchining metodik tayyorgarligi ham muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi.

Umuman olganda, o‘tkazilgan tadqiqot natijalari grafik tashkil etuvchilardan foydalanish metodikasi ishqalanish kuchlarini o‘qitishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatdi. Ushbu metodika o‘quvchilarning bilim darajasini oshirish, ularning mustaqil fikrlashini rivojlantirish va dars jarayonining samaradorligini ta’minlashda muhim vosita sifatida xizmat qilishi mumkin.

Xulosa va takliflar: Mazkur tadqiqot doirasida umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ishqalanish kuchlarini o‘qitishda grafik tashkil etuvchilardan foydalanish metodikasining nazariy asoslari ishlab chiqildi hamda uning amaliy samaradorligi tajriba-sinov ishlari orqali asoslab berildi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, fizika fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlardan, xususan grafik tashkil etuvchilardan foydalanish o‘quvchilarning bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishiga, ularning mustaqil fikrlash va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga sezilarli darajada ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, ishqalanish kuchlari kabi murakkab fizik tushunchalarni o‘rganishda an’anaviy o‘qitish usullari ko‘pincha o‘quvchilarning faqat nazariy bilimlarni eslab qolishiga xizmat qiladi, biroq ularning mazmunini chuqur anglash darajasi yetarli bo‘lmasligi mumkin. Grafik tashkil etuvchilar esa ushbu jarayonni samarali tashkil etishga imkon berib, o‘quvchilarga fizik hodisalarni vizual tarzda tasavvur qilish, ular o‘rtasidagi bog‘liqliklarni aniqlash va umumlashtirish imkonini yaratadi. Natijada o‘quvchilarning bilimlari tizimli shakllanadi va ular o‘zlashtirgan bilimlarini amaliy vaziyatlarda qo‘llay olish darajasiga erishadilar.

Tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, grafik tashkil etuvchilar asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ularning dars jarayonidagi faolligini kuchaytiradi hamda bilimlarni o‘zlashtirish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ayniqsa, ishqalanish kuchining turlari, uning normal kuchga bog‘liqligi va turli sirtlar orasidagi farqlarni grafik modellar orqali tushuntirish o‘quvchilarning mavzuni chuqurroq anglashiga xizmat qiladi. Bu esa o‘quvchilarning nafaqat bilim darajasini, balki ularning analitik va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini ham rivojlantiradi.

Shuningdek, tadqiqot davomida grafik tashkil etuvchilardan foydalanish o‘quvchilarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishda ham muhim omil ekanligi aniqlandi. O‘quvchilar grafik modellarni mustaqil ravishda tuzish, ularni tahlil qilish va xulosalar chiqarish jarayonida faol ishtirok etib, o‘z bilimlarini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Bu esa zamonaviy ta’lim tizimida muhim ahamiyat kasb etuvchi kompetensiyaviy yondashuv talablariga to‘liq mos keladi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi xulosalarga kelindi: birinchidan, grafik tashkil etuvchilar fizika fanini o‘qitishda samarali didaktik vosita hisoblanadi va ularni dars jarayoniga joriy etish o‘quvchilarning bilimlarni chuqur o‘zlashtirishiga xizmat qiladi; ikkinchidan, ishqalanish kuchlarini o‘qitishda grafik vositalardan foydalanish o‘quvchilarning abstrakt tushunchalarni aniq va ravshan tasavvur qilishiga yordam beradi; uchinchidan, grafik tashkil etuvchilar o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va umumlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi; to‘rtinchidan, ushbu metodika dars jarayonining samaradorligini oshirish bilan birga o‘qituvchining pedagogik faoliyatini ham takomillashtiradi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi: umumiy o‘rta ta’lim maktablarida fizika fanini o‘qitishda grafik tashkil etuvchilardan keng foydalanish; ishqalanish kuchlari mavzusini o‘rganishda diagramma, jadval va konseptual xaritalardan tizimli ravishda foydalanish; o‘quvchilarning mustaqil ishlashini rag‘batlantirish maqsadida ularga grafik modellarni tuzish bo‘yicha topshiriqlar berish; o‘qituvchilar uchun grafik tashkil etuvchilardan foydalanish bo‘yicha metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish; dars jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni grafik vositalar bilan uyg‘unlashtirish.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot natijalari grafik tashkil etuvchilardan foydalanish metodikasi umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ishqalanish kuchlarini o‘qitishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatdi. Ushbu metodika o‘quvchilarning bilim darajasini oshirish, ularning mustaqil fikrlashini rivojlantirish va ta’lim sifatini yaxshilashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Shu bois, uni ta’lim amaliyotiga keng joriy etish va yanada takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri sifatida qaraladi.

Adabiyotlar:

1. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. *Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot*. – Toshkent: Fan, 2012. – 145-bet.
2. Nishonaliyev U. *Fizika o‘qitish metodikasi*. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010. – 98-bet.
3. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. *Pedagogik innovatsiyalar asoslari*. – Toshkent: O‘qituvchi, 2014. – 132-bet.
4. Azizxo‘jayeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2006. – 87-bet.
5. Xoliqov A. *Fizika o‘qitish metodikasi*. – Toshkent: Universitet, 2012. – 156-bet.
6. Egamberdiyev A. *Umumiy pedagogika asoslari*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. – 112-bet.
7. Ro‘ziyev N. *Ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlar*. – Toshkent: Tafakkur, 2018. – 94-bet.

EKOLOGIK VA GEOGRAFIK SAVODXONLIK TUSHUNCHASINING MAZMUNI VA PEDAGOGIK MOHIYATI

Marasulova Umida Norquziyevna,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsenti
Saidmurodova Ozoda Saidmurod qizi,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti 1 - kurs magistranti

Ushbu maqolada ekologik va geografik savodxonlik tushunchalarining mazmuni hamda ularning pedagogik mohiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda ekologik savodxonlik shaxsda tabiatga nisbatan ongli va mas’uliyatli munosabatni shakllantiruvchi muhim ta’limiy omil sifatida asoslanadi. Geografik savodxonlik esa tabiiy va ijtimoiy jarayonlarni makoniy tahlil qilish, hududiy tafakkurni rivojlantirish va ekologik muammolarni to‘g‘ri baholash imkonini beruvchi bilim va ko‘nikmalar majmui sifatida talqin etiladi. Shuningdek, ekologik va geografik savodxonlikning o‘zaro uzviy bog‘liqligi ochib berilib, ularning integratsiyasi ta’lim jarayonida shaxsning ekologik madaniyatini va barqaror rivojlanishga yo‘naltirilgan dunyoqarashini shakllantirishda muhim pedagogik ahamiyatga egaligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar. *ekologik savodxonlik, geografik savodxonlik, ekologik ong, ekologik madaniyat, makoniy tafakkur, barqaror rivojlanish, pedagogik integratsiya, fanlararo yondashuv.*

СОДЕРЖАНИЕ И ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ СУТЬ КОНЦЕПЦИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ И ГЕОГРАФИЧЕСКОЙ ГРАМОТНОСТИ

В данной статье с научной и теоретической точки зрения анализируется содержание понятий экологической и географической грамотности и их педагогическая сущность. Исследование подтверждает, что экологическая грамотность является важным образовательным фактором, формирующим у человека осознанное и ответственное отношение к природе.Географическая грамотность понимается как совокупность знаний и навыков, позволяющих проводить пространственный анализ природных и социальных процессов, развивать территориальное мышление и правильно оценивать экологические проблемы.Это также выявляет взаимосвязь экологической и географической грамотности и обосновывает важное педагогическое значение их интеграции в образовательный процесс для формирования экологической культуры и мировоззрения человека, ориентированного на устойчивое развитие.

Ключевые слова: *экологическая грамотность, географическая грамотность, экологическое сознание, экологическая культура, пространственное мышление, устойчивое развитие, педагогическая интеграция, междисциплинарный подход.*

CONTENT AND PEDAGOGICAL ESSENCE OF THE CONCEPT OF ECOLOGICAL AND GEOGRAPHICAL LITERACY

This article analyzes the content of the concepts of ecological and geographical literacy and their pedagogical essence from a scientific and theoretical perspective. The study establishes environmental literacy as an important educational factor that forms a conscious and responsible attitude towards nature in an individual. Geographic literacy is interpreted as a set of knowledge and skills that allow for spatial analysis of natural and social processes, the development of territorial thinking, and correct assessment of environmental problems. It also reveals the interconnectedness of ecological and geographical literacy, and justifies the important pedagogical importance of their integration in the educational process in forming an individual's ecological culture and worldview oriented towards sustainable development.

Keywords: *ecological literacy, geographical literacy, ecological awareness, ecological culture, spatial thinking, sustainable development, pedagogical integration, interdisciplinary approach.*

Kirish. Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti sharoitida global ekologik muammolarning keskinlashuvi inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarni yangicha ilmiy yondashuvlar asosida qayta ko‘rib chiqishni talab etmoqda. Iqlim o‘zgarishi, biosfera muvozanatining buzilishi, atrof-muhitning texnogen ifloslanishi hamda tabiiy resurslarning cheklanganligi ekologik xavfsizlikni ta’minlashni strategik ustuvor yo‘nalishga aylantirmoqda. Ushbu murakkab jarayonlarda shaxsning ekologik va geografik savodxonligi muhim metodologik va amaliy ahamiyat kasb etib, u orqali insonning tabiatga nisbatan ongli, mas’uliyatli va

prognozlashga asoslangan munosabati shakllanadi. Shu nuqtai nazardan, ta’lim tizimida ekologik va geografik bilimlarni uyg‘un rivojlantirish nafaqat bilim berish jarayoni, balki shaxsning barqaror rivojlanish tamoyillariga mos dunyoqarashini shakllantiruvchi muhim pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Ekologik va geografik savodxonlik tushunchalari shaxsda tabiat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlarning murakkab tizimini anglash, tabiiy va ijtimoiy jarayonlarni makoniy va funksional jihatdan tahlil qilish hamda ekologik muammolarga ilmiy asoslangan yondashuvni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ekologik savodxonlik atrof-muhitga nisbatan qadriyatli munosabat, ekologik ong va amaliy xulq-atvor birligini shakllantirsa, geografik savodxonlik hududiy tafakkur, makoniy tahlil va geografik qonuniyatlarni real jarayonlar bilan bog‘lash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Mazkur ikki yo‘nalishning integratsiyasi esa shaxsning tafakkurida tabiat va jamiyat jarayonlarini yaxlit tizim sifatida idrok etish imkonini yaratib, ekologik muammolarni hududiy kontekstda baholash va ularga samarali yechimlar ishlab chiqish kompetensiyasini shakllantiradi.

Shu bilan birga, ekologik va geografik savodxonlikni ta’lim jarayoniga tizimli ravishda integratsiya qilish pedagogik samaradorlikni oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Fanlararo yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko‘nikmalarni, analitik fikrlashni va ijtimoiy-ekologik mas’uliyatni rivojlantiradi. Natijada, ta’lim oluvchilarda ekologik madaniyat, hududiy ong va barqaror rivojlanishga yo‘naltirilgan dunyoqarash shakllanib, ular zamonaviy global muammolarni chuqur anglaydigan va ularga ongli munosabat bildiradigan shaxs sifatida kamol topadi. Shu jihatdan ekologik-geografik savodxonlikni rivojlantirish ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri sifatida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili. Ekologik va geografik savodxonlik masalasi zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda barqaror rivojlanish, ekologik xavfsizlik hamda ta’limning ijtimoiy mas’uliyati bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganib kelinmoqda. Xorijiy ilmiy adabiyotlarda ekologik savodxonlik shaxsda atrof-muhitga ongli munosabatni shakllantiruvchi bilim, qadriyat va xulq-atvor birligi sifatida talqin qilinadi. Tadqiqotlarda ekologik savodxonlik faqat nazariy bilimlar majmui emas, balki real ekologik vaziyatlarni tahlil qilish va ularga mos qarorlar qabul qilish qobiliyatini ifodalovchi kompleks kompetensiya ekanligi asoslanadi [1, 2].

Geografik savodxonlik masalasi ilmiy manbalarda makoniy tafakkur, hududiy tahlil va geografik bilimlardan foydalanish ko‘nikmalari bilan bog‘liq holda yoritiladi. Tadqiqotchilar geografik savodxonlikni tabiiy va ijtimoiy jarayonlarni fazoviy yondashuv asosida anglash, geografik qonuniyatlarni real voqelik bilan bog‘lash hamda hududiy farqlarni tushuntirish imkonini beruvchi muhim ta’limiy natija sifatida baholaydilar. Ayrim ishlarda geografik savodxonlik ekologik muammolarni aniqlash va ularning hududiy xususiyatlarini baholashda muhim ilmiy asos bo‘lishi ta’kidlanadi [4].

So‘nggi yillarda olib borilgan ilmiy izlanishlarda ekologik va geografik savodxonlikning o‘zaro bog‘liqligiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Tadqiqotlarda ekologik jarayonlarning muayyan geografik makon bilan chambarchas bog‘liqligi, ekologik muammolarning esa hududiy sharoitga qarab turlicha namoyon bo‘lishi ilmiy jihatdan asoslanadi. Shu sababli ekologik va geografik savodxonlikni integratsiyalashgan holda shakllantirish ta’lim samaradorligini oshiruvchi muhim pedagogik omil sifatida e’tirof etiladi [3, 4].

Mahalliy ilmiy adabiyotlarda ekologik-geografik savodxonlik masalasi ta’lim jarayonini takomillashtirish, yosh avlodda ekologik mas’uliyatni rivojlantirish va hududiy tafakkurni shakllantirish nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Ushbu tadqiqotlarda fanlararo yondashuv va amaliy mashg‘ulotlarning ekologik hamda geografik savodxonlikni rivojlantirishdagi ahamiyati alohida ta’kidlanadi [7, 8].

Ayrim ilmiy yondashuvlarda savodxonlik masalasi kengroq ijtimoiy rivojlanish kontekstida talqin qilinadi. Xususan, ta’lim va savodxonlik inson imkoniyatlarini kengaytiruvchi, jamiyat taraqqiyotining sifat ko‘rsatkichlarini belgilovchi muhim omil sifatida baholanadi. Ushbu yondashuv ekologik va geografik savodxonlikni shaxsning ijtimoiy mas’uliyati hamda barqaror rivojlanish bilan bog‘liq kompetensiyalar tizimi sifatida asoslash imkonini beradi [5, 6].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot ekologik va geografik savodxonlik tushunchalarining mazmunini tizimli tahlil qilish hamda ularning pedagogik mohiyatini ilmiy asosda yoritishga qaratilgan. Tadqiqotning nazariy asosini ekologik ta’lim konsepsiyalari, geografik tafakkur nazariyalari hamda barqaror rivojlanish paradigmasi tashkil etadi. Shu bilan birga, fanlararo integratsiya tamoyili asosida ekologik va geografik bilimlarning o‘zaro uyg‘unligi pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilindi. Metodologik yondashuv sifatida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv hamda tizimli-funksional tahlil konsepsiyalari qabul qilindi, bu esa tadqiqot natijalarining ilmiy izchilligi va amaliy ahamiyatini ta’minlashga xizmat qildi.

Tadqiqot jarayonida umumilmiy metodlar majmuasi qo‘llanildi. Jumladan, tahlil va sintez usuli orqali ekologik va geografik savodxonlikka oid ilmiy qarashlar ajratib olindi va umumlashtirildi; qiyosiy tahlil yordamida ushbu tushunchalarning tarkibiy komponentlari (ekologik ong, qadriyatlar, xulq-atvor hamda

makoniy tafakkur, hududiy tahlil ko‘nikmalari) o‘zaro solishtirildi; tizimli yondashuv asosida esa ular yagona pedagogik tizim sifatida qaraldi. Shuningdek, kontent-tahlil usuli orqali ilmiy adabiyotlar va pedagogik manbalardagi asosiy g‘oyalar saralandi va strukturaviy jihatdan tahlil qilindi.

Bundan tashqari, tadqiqotda amaliy-pedagogik yondashuv elementlari ham qo‘llanilib, ekologik va geografik savodxonlikni shakllantirishga xizmat qiluvchi ta’lim metodlari va vositalari tahlil qilindi. Mazkur jarayonda fanlararo integratsiya, muammoli o‘qitish, loyiha asosida o‘qitish hamda interfaol metodlarning samaradorligi ilmiy jihatdan asoslab berildi. Natijada ekologik va geografik savodxonlikni rivojlantirishning nazariy modeli shakllantirilib, uning ta’lim jarayonidagi pedagogik ahamiyati va qo‘llash imkoniyatlari bo‘yicha umumlashtirilgan ilmiy xulosalar ishlab chiqildi.

Natijalar va ularning tahlili. Tadqiqot natijalari ekologik va geografik savodxonlik tushunchalarining ta’lim jarayonidagi funksional o‘rni va pedagogik ahamiyatini chuqurlashtirib aniqlash imkonini berdi. O‘rganilgan ilmiy manbalar tahlili asosida ekologik savodxonlik shaxsda atrof-muhitga nisbatan ongli, mas’uliyatli va prognozlashga yo‘naltirilgan munosabatni shakllantiruvchi kompleks kompetensiya sifatida namoyon bo‘lishi asoslandi [1]. Aniqlanishicha, ekologik bilimlar qadriyatlar tizimi va amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashgandagina samarali natija beradi, ya’ni ekologik savodxonlik faqat bilim darajasi emas, balki ekologik ong, mas’uliyat va xulq-atvor birligida namoyon bo‘ladigan yaxlit tizim hisoblanadi. Bu holat ta’lim jarayonida ekologik madaniyatni shakllantirishda faol, muammoli va amaliy yo‘naltirilgan metodlarning ustuvor ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.Mazkur tadqiqot natijalari asosida ekologik va geografik savodxonlikning o‘zaro bog‘liqligi tizimli ravishda umumlashtirilib, ularning integratsiyalashgan pedagogik modeli ishlab chiqildi.

Jadval.

Ekologik va geografik savodxonlikning integrativ modeli

№	Savodxonlik turi	Tarkibiy komponentlar	Pedagogik natija
1	Ekologik savodxonlik	Ekologik ong, ekologik qadriyatlar, ekologik xulq-atvor	Tabiatga ongli va mas’uliyatli munosabat
2	Geografik savodxonlik	Makoniy tafakkur, hududiy tahlil, fazoviy tasavvur	Hududiy jarayonlarni anglash va tahlil qilish
3	Integrativ natija	Ekologik va geografik bilimlar uyg‘unligi	Ekologik madaniyat, hududiy mas’uliyat va barqaror rivojlanish dunyoqarashi

Manba: muallif tomonidan tuzildi.

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, ekologik va geografik savodxonlik komponentlarining o‘zaro uyg‘unligi natijasida shaxsda ekologik madaniyat va hududiy mas’uliyat shakllanadi. Ushbu integratsiya ta’lim jarayonida bilim, qadriyat va amaliy faoliyatning birligini ta’minlab, barqaror rivojlanishga yo‘naltirilgan kompleks dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiladi.

Geografik savodxonlikka oid tahlillar uning makoniy tafakkurni rivojlantirish va hududiy jarayonlarni tizimli anglashdagi muhim rolini ochib berdi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, geografik bilimlar asosida tabiiy va ijtimoiy hodisalarni hududiy jihatdan tahlil qilish, ularning o‘zaro bog‘liqligini aniqlash hamda rivojlanish tendensiyalarini baholash imkoniyati shakllanadi [4]. Shu bilan birga, geografik savodxonlik ekologik muammolarning hududiy differensiallashuvini tushuntirish, ularning sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash hamda muayyan makon doirasida samarali yechimlar ishlab chiqishda ilmiy asos bo‘lib xizmat qilishi aniqlandi. Mazkur natijalar geografik bilimlarning ekologik tafakkurni rivojlantirishdagi instrumental ahamiyatini tasdiqlaydi.

Olingan natijalar asosida ekologik va geografik savodxonlikning integratsiyalashgan modeli ishlab chiqildi. Ushbu modelga ko‘ra, ekologik savodxonlik (ekologik ong, qadriyatlar, xulq-atvor) va geografik savodxonlik (makoniy tafakkur, hududiy tahlil, fazoviy tasavvur) komponentlarining o‘zaro uyg‘unligi natijasida integrativ natija – ekologik madaniyat, hududiy mas’uliyat va barqaror rivojlanishga yo‘naltirilgan dunyoqarash shakllanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, mazkur integratsiya ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshirib, o‘quvchilarda kompleks fikrlash, muammolarni tizimli tahlil qilish va amaliy qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantiradi. Shu asosda ekologik-geografik savodxonlikni ta’lim jarayoniga tizimli va uzluksiz joriy etish pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq va ilmiy asoslangan yo‘nalish sifatida e’tirof etildi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot ekologik va geografik savodxonlik tushunchalarining mazmunini tizimli ravishda yoritish hamda ularning pedagogik mohiyatini ilmiy asoslash imkonini berdi. Tadqiqot natijalari ekologik savodxonlik shaxsda atrof-muhitga nisbatan ongli, mas’uliyatli va faol munosabatni shakllantiruvchi kompleks kompetensiya ekanligini ko‘rsatdi. Geografik savodxonlik esa tabiiy va ijtimoiy

jarayonlarni makoniy jihatdan anglash, hududiy tafakkurni rivojlantirish hamda ekologik muammolarni ilmiy asosda baholash imkonini beruvchi muhim ta’limiy omil sifatida asoslandi. Shu jihatdan mazkur ikki savodxonlik turi shaxsning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda o‘zaro uzviy bog‘liq tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot davomida ekologik va geografik savodxonlikning integratsiyalashgan holda shakllantirilishi ta’lim samaradorligini oshiruvchi muhim pedagogik shart ekanligi aniqlandi. Ushbu yondashuv bilim, qadriyat va amaliy faoliyatning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlab, ta’lim oluvchilarda ekologik madaniyat, hududiy mas’uliyat hamda barqaror rivojlanishga yo‘naltirilgan tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada, o‘quvchilarda global va hududiy muammolarni tizimli tahlil qilish, ularni baholash va asoslangan qarorlar qabul qilish kompetensiyalari rivojlanadi.

Shu asosda ekologik-geografik savodxonlikni ta’lim tizimiga izchil va tizimli ravishda joriy etish, uni fanlararo integratsiya asosida rivojlantirish hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan boyitish zaruriyati asoslab berildi. Mazkur yo‘nalish ta’lim sifatini oshirish, shaxsning ijtimoiy-ekologik mas’uliyatini kuchaytirish va barqaror rivojlanish tamoyillariga mos avlodni shakllantirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Palmer J. A. Environmental Education in the 21st Century: Theory, Practice, Progress and Promise. - London: Routledge, 1998.
2. Orr D. W. Earth in Mind: On Education, Environment, and the Human Prospect. - Washington, DC: Island Press, 2004.
3. Sterling S. Sustainable Education: Re-visioning Learning and Change. - Totnes: Green Books, 2001.
4. Bednarz S. W., Heffron S., Huynh N. T. A Road Map for 21st Century Geography Education. - Washington: National Geographic Society, 2013.
5. Sen A. Development as Freedom. - Oxford: Oxford University Press, 1999.
6. Haq M. ul. Reflections on Human Development. - New York: Oxford University Press, 1995.
7. Shodimetov Yu. *Ekologik ta’lim va tarbiya* moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. - Toshkent, 2023.
8. Abduvohidov S. N., Ganiyev Z. A. *Geografiya ta’limi metodikasi: o‘quv qo‘llanma*. - Samarqand, 2021.

INTEGRAL TENGLAMALAR VA TENGLAMALAR SISTEMALARINING YECHISH USULLARI

Merajova Shahlo Berdiyevna,
Buxoro davlat universiteti
“Differensial tenglamalar” kafedrasi dotsenti,
f.-m.f.f.d. (PhD)
s.b.merajova@buxdu.uz, shsharipova@mail.ru
Sultanova Dilafro‘z Xolmurzayevna,
Buxoro davlat universiteti
“Differensial tenglamalar” kafedrasi o‘qituvchisi
d.x.sultanova@buxdu.uz
Raximova Zilola Zavqiddinovna,
Tillar fakulteti tyutori Buxoro davlat pedagogika instituti
zilolaraximova12@gmail.com

Ushbu maqolada ilm-fan sohasida keng tatbiqqa ega bo‘lgan integral tenglamalar va integral tenglamalar sistemalari haqida qisqacha ma’lumotlar keltirilgan bo‘lib, bunda asosiy e’tibor ularni yechishning analitik usullariga qaratilgan. Integral tenglamalar va ularning sistemalari amaliy xarakterga ega. Ko‘p hollarda differensial tenglamalar uchun qo‘yilgan chegaraviy masalalar integral tenglamalar ko‘rinishiga keltiriladi, chunki integral operatorlar differensial operatorlarga qaraganda turg‘unroq hisoblanadi.

Maqolada taqdim etilgan ma’lumotlardan ilmiy tadqiqot faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tadqiqotchilar, shuningdek, "Matematika" yo‘nalishi bakalavrlari, magistrlari va ushbu mavzuga qiziquvchi barcha shaxslar foydalanishlari mumkin.

Kalit so‘zlar: *integral tenglamalar, integral tenglamalar sistemasi, Laplas almashtirishlari, o‘rama, ketma-ket yaqinlashish usuli, differensial tenglamalar, Laplas almashtirishlari jadvali.*

МЕТОДЫ РЕШЕНИЯ ИНТЕГРАЛЬНЫХ УРАВНЕНИЙ И СИСТЕМ УРАВНЕНИЙ

В данной статье представлены краткие сведения об интегральных уравнениях и системах интегральных уравнений, широко используемых в науке. При этом основное внимание уделено аналитическим методам их решения. Интегральные уравнения и системы интегральных уравнений имеют прикладной характер. Во многих случаях краевые задачи для дифференциальных уравнений сводятся к виду интегральных уравнений, так как интегральные операторы считаются более устойчивыми по сравнению с дифференциальными операторами.

Информация, представленная в статье, может быть использовано исследователями, ведущими научно-исследовательскую деятельность, может быть полезно для студентов-бакалавров и магистров направления "математика", а также для всех, кто интересуется данной темой.

Ключевые слова: *интегральные уравнения, система интегральных уравнений, преобразования Лапласа, свёртка, метод последовательного приближения, дифференциальные уравнения, таблица преобразования Лапласа.*

METHODS FOR SOLVING INTEGRAL EQUATIONS AND SYSTEMS OF EQUATIONS

This article provides a brief overview of integral equations and systems of integral equations, which are widely utilized in various scientific fields. The primary focus is directed toward analytical methods for their solution. Integral equations and their systems are inherently applied in nature. In many instances, boundary value problems for differential equations are transformed into integral equations, as integral operators are considered to be more stable than differential operators.

The information presented in this article can be utilized by researchers engaged in scientific activities and may prove beneficial for undergraduate and graduate students majoring in Mathematics, as well as for anyone interested in the subject.

Keywords: *integral equations, system of integral equations, Laplace transforms, convolution, method of successive approximations, differential equations, Laplace transform table.*

Kirish. Integral tenglamalar - noma’lum funksiya integral belgisi ostida qatnashgan tenglamalardir. Agar differensial tenglamalar jarayonlarning lokal o‘zgarishini (tezlik, tezlanish) tavsiflasa, integral tenglamalar jarayonning ma’lum bir vaqt oralig‘idagi yoki fazoviy sohadagi umumiy holatini, ya’ni "yig‘indi" effektini ifodalaydi. Integral tenglamalar va tenglamalar sistemalarini yechishda qo‘llaniladigan usullarni shartli ravishda uchta guruhga bo‘lish mumkin:

Analitik usullar: Ketma-ket yaqinlashish usuli (Pikar iteratsiyasi): Bu usul yechimning mavjudligi va yagonaligini isbotlashda fundamental ahamiyatga ega. *Differensial tenglamaga keltirish usuli:* Ma’lum shartlar ostida integral tenglamani differensiallash orqali mos differensial tenglama yoki sistemaga keltirib yechish mumkin. *Laplas almashtirishlari:* Ayniqsa, o‘rama tipli integral tenglamalarni algebraik ko‘rinishga keltirib yechishda juda samarali.

Sonli va variatsion usullar: Murakkab yadroli tenglamalar uchun kvadratur formula usullari yoki chekli ayirmalar usuli qo‘llaniladi.

Integral tenglamalar haqida ma’lumotni [1]-[5] adabiyotlardan olishingiz mumkin. Integral tenglamalar sistemalari biologik sistemalar muvozanati, yopishqoq elastiklik nazariyasi va kvant mexanikasidagi ba’zi masalalarini o‘rganishda asosiy apparat bo‘lib xizmat qiladi. Ko‘p hollarda differensial tenglamalar uchun qo‘yilgan chegaraviy masalalar integral tenglama ko‘rinishiga o‘tkaziladi, chunki integral operatorlar differensial operatorlarga qaraganda turg‘unroq hisoblanadi. Masalan [6],[7] maqolalarda o‘rganilgan masalalar ekvivalent integral tenglamalarga va integral tenglamalar sistemasiga keltiriladi va tadqiq etiladi.

Ushbu maqolada integral tenglamalar va tenglamalar sistemasi haqida qisqacha ma’lumot berilgan bo‘lib, ularni yechishning analitik usuliga to‘xtaldik. Maqolada keltirilgan ma’lumotlardan ilmiy tadqiqot faoliyatini olib borayotgan tadqiqotchilar va “Matematika” ta’lim yo‘nalishi talabalari va magistrlar foydalanishlari mumkin.

This article provides a scientific-theoretical and practical substantiation of a methodology for developing students’ analytical thinking through modeling oscillatory processes in physics lessons. The relevance of the study is determined by the need to develop students’ logical thinking, their ability to identify cause-and-effect relationships, and to analyze processes within the context of modern education. The paper reveals the mechanisms for forming analytical thinking through the use of the mathematical model of oscillatory motion, computer simulations, and virtual laboratory tools. In the course of the research, pedagogical experimental work was conducted, and the effectiveness of lessons organized on the basis of modeling was compared with traditional methods. The results showed a significant improvement in students’ ability to deeply understand the relationship between formulas and graphs, draw independent conclusions, and systematically analyze physical processes. In conclusion, it is proven that modeling of oscillatory processes is an effective pedagogical tool for the development of analytical thinking.

Keywords: *oscillatory processes, modeling, analytical thinking, physics education, pedagogical methodology, simulation, virtual laboratory.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida talabalarning analitik tafakkurini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Analitik tafakkur — bu insonning ma’lumotlarni tahlil qilish, ularni tarkibiy qismlarga ajratish, sabab-oqibat bog‘lanishlarini aniqlash, umumlashtirish hamda mantiqiy xulosalar chiqarish qobiliyatidir. Analitik fikrlash jarayonida shaxs muammoni chuqur o‘rganadi, mavjud fakt va dalillarni solishtiradi, tizimli ravishda baholaydi va eng maqbul yechimni topishga intiladi. Shu bois ta’lim jarayonida analitik tafakkurni shakllantirish talabalarning mustaqil fikrlashi, ilmiy mushohada yuritishi va murakkab masalalarni yechish qobiliyatini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Ayniqsa, fizika fanini o‘qitishda nazariy tushunchalarni chuqur anglash, matematik ifodalarni fizik mazmun bilan uyg‘unlashtirish hamda jarayonlarni tizimli tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Tebranma jarayonlar bo‘limi fizikaning mexanika, molekulyar fizika va elektromagnetizm qismlari bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, u talabalarda funksional bog‘lanishlar, davriylik, amplituda, faza, energiya almashinuvi kabi tushunchalarni kompleks ravishda idrok etish imkonini beradi. Shu bois mazkur mavzuni samarali o‘qitish nafaqat predmet bilimlarini mustahkamlash, balki mantiqiy va analitik tafakkurni rivojlantirish nuqtayi nazaridan ham dolzarb hisoblanadi.

Fizik jarayonlarni modellashtirish o‘quv jarayonida abstrakt nazariyani vizuallashtirish, murakkab bog‘lanishlarni soddalashtirilgan tizim orqali ifodalash va tajriba natijalarini bashorat qilish imkonini beradi. Modellashtirish jarayoni talabalarda kuzatish, taqqoslash, umumlashtirish va xulosa chiqarish kabi tafakkur operatsiyalarini faollashtiradi. Tebranma harakatning matematik modeli — differensial tenglama asosidagi ifodalar, sinusoidal grafiklar va energiya almashinuvi diagrammalari — analitik fikrlashni rivojlantirish uchun qulay didaktik asos yaratadi. Fizika kurslarida tebranma harakatning nazariy asoslari keng yoritilgan bo‘lib, unda tebranishning davri, chastotasi va fazasi o‘rtasidagi bog‘lanishlar ilmiy asosda izohlanadi.[1]

Bugungi kunda raqamli ta’lim muhitining rivojlanishi modellashtirish jarayonini yangi bosqichga olib chiqdi. Kompyuter simulyatsiyalari, virtual laboratoriyalar va interaktiv grafik dasturlar orqali talabalar real tajribani xavfsiz va ko‘p marotaba takrorlash imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Bu esa nazariy bilimlarni mustahkamlash bilan birga, jarayonlarning ichki mexanizmini tahlil qilishga sharoit yaratadi. Modellashtirish asosida tashkil etilgan darslarda talaba passiv tinglovchidan faol tadqiqotchiga aylanadi, u parametrlarni o‘zgartirib natijalarni kuzatadi, sabab-oqibat bog‘lanishlarini aniqlaydi va o‘z xulosalarini asoslaydi.[2] Pedagogik adabiyotlarda fizik jarayonlarni o‘qitishda modellashtirish usulining ahamiyati alohida ta’kidlanib, u tafakkur mustaqilligini shakllantirish omili sifatida baholanadi.

Shu bilan birga, an’anaviy o‘qitish usullarida ko‘pincha formulalarni yodlash va standart masalalarni yechish ustuvor bo‘lib qolmoqda. Natijada talaba fizik hodisaning mohiyatini chuqur anglash o‘rniga, algoritmik yondashuv bilan cheklanib qolishi mumkin. Tebranma jarayonlarni modellashtirish esa nazariya va amaliyotni integratsiyalashgan holda o‘qitish imkonini beradi. Masalan, matematik model parametrlarini o‘zgartirish orqali amplituda va chastotaning energiyaga ta’sirini grafik ko‘rinishda kuzatish talabaning analitik tafakkurini sezilarli darajada faollashtiradi. Bu jarayonda u nafaqat tayyor bilimni qabul qiladi, balki uni mustaqil ravishda qayta ishlaydi, tahlil qiladi va umumlashtiradi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi oliy ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning kuchayishi bilan ham izohlanadi. Zamonaviy mutaxassisdan faqat nazariy bilim emas, balki muammoni tahlil qilish, modellashtirish va optimal yechim topish qobiliyati talab etiladi. Tebranma jarayonlar bo‘limi aynan shunday ko‘nikmalarni shakllantirish uchun qulay metodik imkoniyatlarga ega. Shuningdek, modellashtirish asosida tashkil etilgan o‘quv faoliyati talabalarda ilmiy dunyoqarashni kengaytiradi, matematik va fizik tafakkur uyg‘unligini ta’minlaydi.

Tadqiqotning maqsadi — fizika darslarida tebranma jarayonlarni modellashtirish orqali talabalarning analitik tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan metodik tizimni ishlab chiqish va uning samaradorligini aniqlashdan iborat. Mazkur maqsadga erishish uchun tebranma jarayonlarning nazariy asoslari tahlil qilinadi, modellashtirish vositalarining didaktik imkoniyatlari aniqlanadi hamda tajriba-sinov ishlari orqali natijalar baholanadi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda tebranma jarayonlarni o‘qitishda modellashtirish analitik tafakkurni rivojlantirishning tizimli vositasi sifatida asoslab beriladi va amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Shunday qilib, tebranma jarayonlarni modellashtirish fizika ta’limida analitik tafakkurni shakllantirishning samarali omili sifatida namoyon bo‘ladi. U nazariy bilimlarni chuqurlashtirish, grafik va matematik tasvirlar o‘rtasidagi bog‘lanishni anglash hamda mustaqil ilmiy xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa zamonaviy oliy ta’lim talablariga mos ravishda yuqori intellektual salohiyatga ega mutaxassislarni tayyorlashga zamin yaratadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda fizika darslarida tebranma jarayonlarni modellashtirish asosida talabalarning analitik tafakkurini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish va tajriba-sinovdan o‘tkazish ko‘zda tutildi. Tadqiqot metodologiyasi pedagogik tizimlilik, ilmiylik, faoliyatga yo‘naltirilganlik hamda kompetensiyaviy yondashuv tamoyillariga tayangan holda qurildi. Ishning nazariy asosini fizika ta’limi metodikasi, bilish jarayonining psixologik mexanizmlari hamda modellashtirishning didaktik imkoniyatlari haqidagi ilmiy qarashlar tashkil etdi. Jumladan, modellashtirish o‘quv jarayonida obyekt va hodisalarni soddalashtirilgan shaklda aks ettirish orqali ularning mohiyatini chuqurroq anglash imkonini berishi haqidagi ilmiy xulosalar metodologik tayanch sifatida qabul qilindi. [3]

Tadqiqot obyekti sifatida oliy ta’lim muassasasida fizika fanini o‘qitish jarayoni, predmeti sifatida esa tebranma jarayonlarni modellashtirish orqali analitik tafakkurni rivojlantirish metodikasi belgilandi. Tadqiqotda nazariy (tahlil, sintez, umumlashtirish, taqqoslash), empirik (kuzatish, suhbat, test, pedagogik tajriba) hamda matematik-statistik metodlardan foydalanildi.

Metodologik jarayon uch bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqichda tebranma harakatning fizik va matematik modeli (garmonik tebranish tenglamasi, davr, chastota, amplituda tushunchalari) mazmunan tahlil qilinib, ularning analitik tafakkur bilan bog‘liqligi aniqlashtirildi. Bu bosqichda talabalarning formulalar va grafik tasvirlar o‘rtasidagi bog‘lanishni anglash darajasi diagnostik testlar orqali o‘lchandi. Ikkinchi bosqichda modellashtirishga asoslangan o‘quv mashg‘ulotlari ishlab chiqildi. Dars jarayonida kompyuter simulyatsiyalari, grafik animatsiyalar va virtual laboratoriya vositalaridan foydalanildi. Modellashtirish jarayoni talabalarning kuzatish, faraz ilgari surish, natijani tahlil qilish va xulosa chiqarish faoliyatini bosqichma-bosqich tashkil etish asosida olib borildi. Uchinchisi – tajriba-sinov bosqichida eksperimental va nazorat guruhlari shakllantirilib, bir semestr davomida o‘qitish ishlari olib borildi.

Analitik tafakkur darajasini aniqlash mezonlari sifatida quyidagilar belgilandi: mantiqiy izchillik, sabab-oqibat bog‘lanishlarini aniqlash qobiliyati, matematik ifodalarni grafik shaklga o‘tkaza olish, fizik jarayonni modellashtirish asosida tushuntirib berish hamda mustaqil xulosa chiqarish ko‘nikmasi. Baholash 100 ballik reyting tizimi asosida amalga oshirildi. Tajriba yakunida olingan natijalar matematik-statistik tahlil qilinib, o‘rtacha ko‘rsatkichlar farqi Styudent mezoni orqali tekshirildi.

Tadqiqot metodologiyasida modellashtirish jarayoni talabalarning bilish faoliyatini faollashtiruvchi vosita sifatida talqin qilindi. Chunki model orqali real jarayonni tahlil qilish, parametrlarni o‘zgartirish va natijani kuzatish imkoniyati talabalarda abstrakt fikrlashni rivojlantiradi. Fizik jarayonlarni o‘qitishda nazariya va amaliyot birligi tamoyili muhim ahamiyat kasb etishi ta’kidlanadi[4]. Shu bois mashg‘ulotlar jarayonida nazariy formulalar grafik va kompyuter modeli bilan uyg‘unlashtirildi.

Tajriba-sinov natijalari modellashtirish asosida tashkil etilgan darslarda talabalarning analitik tafakkuri ko‘rsatkichlari sezilarli darajada oshganini ko‘rsatdi. Xususan, eksperimental guruhda sabab-oqibat bog‘lanishlarini aniqlash ko‘rsatkichi 18–22 foizga yuqori bo‘ldi. Statistik tahlil natijalari farqning ishonchlilik darajasi $p<0,05$ ekanligini tasdiqladi.

Shunday qilib, tadqiqot metodologiyasi tizimli, bosqichma-bosqich va ilmiy asoslangan holda ishlab chiqildi hamda u tebranma jarayonlarni modellashtirish orqali analitik tafakkurni rivojlantirish samaradorligini empirik jihatdan isbotlash imkonini berdi.

Tahlil va natijalar. O‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari fizika darslarida tebranma jarayonlarni modellashtirish asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarning talabalarning analitik tafakkurini rivojlantirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini tasdiqladi. Tadqiqot jarayonida nazorat va tajriba guruhlari shakllantirilib, har ikkala guruhda boshlang‘ich diagnostika o‘tkazildi. Boshlang‘ich natijalar talabalarning tebranma harakat tenglamalarini tahlil qilish, grafik interpretatsiya qilish va fizik kattaliklar o‘rtasidagi funksional bog‘lanishni aniqlash ko‘nikmalari yetarli darajada shakllanmaganini ko‘rsatdi. Xususan, talabalar ko‘pchiligi garmonik

tebranish tenglamasidagi parametrlarning fizik mazmunini izohlashda va amplituda, davr hamda chastota orasidagi bog‘liqlikni mantiqiy asoslashda qiyinchilikka duch keldi.

Tajriba guruhida o‘quv jarayoni matematik modellashtirish, kompyuter simulyatsiyalari va dinamik grafik tasvirlar asosida tashkil etildi. Tebranma jarayonlarning differensial tenglamalari dasturiy muhitda bosqichma-bosqich modellashtirilib, parametrlar o‘zgarganda tizim xatti-harakatining qanday o‘zgarishi vizual ko‘rinishda namoyish etildi. Bu yondashuv talabalar tomonidan formulalarning abstrakt ko‘rinishdan chiqib, real jarayon bilan bog‘lanishini ta’minladi. Natijada, tajriba guruhidagi talabalar fizik model va matematik ifoda o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni mustaqil ravishda tahlil qila boshladi. Analitik tafakkur ko‘rsatkichlari sifat va miqdoriy mezonlar asosida baholandi: mantiqiy izchillik, sabab-oqibatni aniqlash, grafikdan formulaga o‘tish, umumlashtirish va xulosa chiqarish ko‘nikmalari alohida indikatorlar sifatida o‘lchandi.

Yakuniy diagnostika natijalari tajriba guruhida yuqori darajadagi analitik tafakkur ko‘rsatkichi nazorat guruhiga nisbatan sezilarli oshganini ko‘rsatdi. Xususan, grafik tahlil asosida tebranish fazasini aniqlash topshirig‘ini to‘g‘ri bajargan talabalar ulushi nazorat guruhida o‘rtacha darajada qolgan bo‘lsa, tajriba guruhida bu ko‘rsatkich ancha yuqori natijani qayd etdi. Shuningdek, matematik model asosida prognoz qilish va natijani fizik mazmun bilan izohlash ko‘nikmasi tajriba guruhida barqaror shakllandi. Bu holat modellashtirish jarayonida talabalar nafaqat tayyor formulani qo‘llashi, balki uning kelib chiqish mexanizmini tushunishi bilan izohlanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, tebranma jarayonlarni modellashtirish asosida tashkil etilgan darslarda talabalar differensial tenglamaning yechimini fizik jarayon bilan bog‘lashda yuqori darajadagi tafakkur faoliyatini namoyon etdi. Ayniqsa, fazoviy diagrammalar va energiya almashinuvi grafigini birgalikda tahlil qilish jarayoni analitik fikrlashni chuqurlashtirdi. Tebranish energiyasining kinetik va potensial tarkibiy qismlarini vaqt bo‘yicha taqqoslash orqali talabalar tizimning yopiq xarakterini asoslab bera oldi. Bu esa analitik tafakkurning integrativ xususiyatini namoyon etdi.

Natijalar shuningdek, modellashtirish asosida tashkil etilgan o‘quv faoliyati talabalarning mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatini rivojlantirganini ko‘rsatdi. Tajriba guruhidagi talabalar masala shartini tahlil qilishda avval model tuzish, keyin matematik ifodalash va oxirida fizik talqin qilish bosqichlarini izchil amalga oshirdi. Bunday bosqichlilik analitik tafakkurning tarkibiy elementlari sifatida pedagogik adabiyotlarda ham qayd etilgan. [5] Nazorat guruhida esa ko‘proq algoritmik yondashuv ustun bo‘lib, chuqur tahlil darajasi pastroq bo‘ldi.

Shuningdek, o‘quv jarayonida qo‘llanilgan vizual modellar talabalarning abstrakt tafakkurini konkret tasavvur bilan uyg‘unlashtirdi. Tebranma harakat tenglamasining grafik tasviri bilan bir vaqtda animatsion modelni kuzatish natijasida talabalar faza siljishi va amplituda o‘zgarishining fizik mohiyatini aniq anglab yetdi. Bu esa bilimning mustahkamligini ta’minladi. Fizika ta’limida jarayonlarni modellashtirish orqali bilimni chuqurlashtirish zarurligi ilmiy manbalarda ham ta’kidlangan.[6]

Umuman olganda, tajriba natijalari modellashtirish asosidagi metodika analitik tafakkurning rivojlanishiga tizimli ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi. Talabalarda nazariy bilimni amaliy vaziyatga tatbiq etish, parametrlar o‘zgarishini bashorat qilish va natijani mantiqiy asoslash ko‘nikmalari shakllandi. Statistik qayta ishlash natijalari ham tajriba guruhida o‘sish dinamikasi barqaror va ishonchli ekanini tasdiqladi. Shunday qilib, fizika darslarida tebranma jarayonlarni modellashtirish asosida tashkil etilgan o‘quv faoliyati talabalarning analitik tafakkurini rivojlantirishning samarali metodik vositasi ekanligi tajriba-sinov ishlari orqali isbotlandi.

Xulosa va takliflar. Olib borilgan tadqiqot natijalari fizika darslarida tebranma jarayonlarni modellashtirish asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni talabalarning analitik tafakkurini rivojlantirishda sezilarli pedagogik samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatdi. Tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasida o‘tkazilgan qiyosiy tahlil modellashtirishga asoslangan mashg‘ulotlarda ishtirok etgan talabalarning masala yechish jarayonida formulalar, grafik tasvirlar va fizik mazmun o‘rtasidagi bog‘lanishni chuqurroq anglay boshlaganini tasdiqladi. Ayniqsa, garmonik tebranish tenglamasini grafik ko‘rinishda talqin qilish, amplituda va chastota parametrlarining o‘zgarishini dinamik model orqali kuzatish hamda faza siljishini vizual tahlil qilish talabalarda abstrakt tushunchalarning konkret tasavvur bilan mustahkamlanishiga xizmat qildi.

Tebranma jarayonlarni o‘qitishda matematik model va kompyuter simulyatsiyasini uyg‘unlashtirish natijasida talabalarda sabab-oqibat bog‘lanishlarini aniqlash, o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi funksional munosabatni tahlil qilish va umumlashtirilgan xulosa chiqarish ko‘nikmalari shakllandi. Bu jarayon analitik tafakkurning asosiy komponentlari – tahlil, sintez va mantiqiy umumlashtirish mexanizmlarining faollashuvi bilan izohlanadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, an’anaviy dars shaklida talabalar asosan formulani qo‘llashga yo‘naltirilgan bo‘lsa, modellashtirish asosidagi mashg‘ulotlarda ular jarayon mohiyatini anglashga, natijani prognoz qilishga va parametrlar o‘zgarishining oqibatini oldindan baholashga intildilar.

Shuningdek, tajriba guruhida mustaqil ishlash jarayonida talabalar tomonidan yaratilgan kichik modellar va grafik tahlillar ularda refleksiv fikrlashni rivojlantirganligi kuzatildi. Talabalar tebranma harakat tenglamasidagi har bir parametrning fizik ma’nosini izohlashga urinib, matematik ifodani real jarayon bilan bog‘lashga harakat qildilar. Bu esa nazariy bilimning amaliy qo‘llanishini ta’minladi. Fizik jarayonlarni modellashtirish o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiruvchi muhim didaktik vosita ekanligi pedagogika fanida ham e’tirof etilgan bo‘lib, “bilimni faol o‘zlashtirish jarayoni o‘quvchining mustaqil fikrlashi va tahlil qilish faoliyati bilan chambarchas bog‘liq”[7] degan ilmiy qarashlar bilan hamohangdir.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, modellashtirish metodikasi qo‘llanilganda talabalar nazariy formulalarni mexanik yodlashdan ko‘ra, ularning kelib chiqish asoslarini tushunishga harakat qiladilar. Ayniqsa, mexanik va elektromagnit tebranishlarni taqqoslab o‘rganish jarayonida analogiyalar asosida tahlil qilish ko‘nikmasi shakllandi. Bu esa analitik tafakkurning muhim belgilaridan biri bo‘lgan o‘xshash va farqli jihatlarni aniqlash malakasini rivojlantirdi. Tajriba-sinov ishlari yakunida o‘tkazilgan diagnostik topshiriqlar natijalariga ko‘ra, tajriba guruhidagi talabalar murakkab masalalarni bosqichma-bosqich tahlil qilishda yuqori natija ko‘rsatdi. Ular grafikni o‘qish, funksional bog‘lanishni aniqlash va jarayonni matematik ifodalashda izchillik namoyon etdilar.

Muhokama jarayonida aniqlangan muhim jihatlardan biri shundaki, modellashtirish darsning motivatsion komponentini ham kuchaytiradi. Talabalar virtual muhitda parametrlarni o‘zgartirish orqali natijani darhol kuzatish imkoniga ega bo‘lgach, jarayonga qiziqish ortadi. Bu holat o‘quv faoliyatining ichki rag‘batini kuchaytirib, bilish jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Zamonaviy fizika o‘qitish metodikasida “ko‘rgazmalilik va modellashtirish fizik tushunchalarning mazmunini chuqurroq ochib berish vositasi sifatida qaraladi” [8] degan yondashuv mavjud bo‘lib, mazkur tadqiqot natijalari ushbu nazariy qarashni amaliy jihatdan tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, muhokama davomida ayrim metodik cheklovlar ham kuzatildi. Jumladan, modellashtirish jarayonini samarali tashkil etish uchun o‘qituvchining axborot texnologiyalari bo‘yicha yetarli kompetensiyaga ega bo‘lishi zarur. Aks holda, texnik vosita maqsad emas, balki vosita sifatida qo‘llanish tamoyili buzilishi mumkin. Bundan tashqari, modellashtirish jarayonida talabalarning individual tayyorgarlik darajasi inobatga olinmasa, kuchli va sust o‘zlashtiruvchi talabalar o‘rtasidagi tafovut ortib ketishi ehtimoli mavjud. Shu sababli metodikani joriy etishda differensial yondashuvni qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, olingan natijalar tebranma jarayonlarni modellashtirish asosida o‘qitish analitik tafakkurni rivojlantirishning samarali pedagogik mexanizmi ekanligini ko‘rsatdi. Tajriba-sinov ma’lumotlari modellashtirishga asoslangan darslarda talabalarning mantiqiy izchillik, tahliliy yondashuv va umumlashtirish ko‘nikmalari sezilarli darajada rivojlanganini tasdiqladi. Demak, fizika ta’limida modellashtirish metodikasini tizimli ravishda joriy etish talabalarning ilmiy tafakkurini shakllantirishga xizmat qiladi hamda ularni murakkab fizik jarayonlarni chuqur anglashga tayyorlaydi. Olib borilgan tadqiqot natijalari fizika darslarida tebranma jarayonlarni modellashtirish asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni talabalarning analitik tafakkurini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatdi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, an’anaviy tushuntirish-uslubiga asoslangan darslarda talabalar asosan tayyor formulalarni qo‘llash bilan cheklanib qolsa, modellashtirishga asoslangan yondashuvda ular fizik jarayonning ichki mexanizmini tahlil qilish, parametrlar o‘zgarishi natijasida tizim holatining qanday almashinishini prognoz qilish hamda nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlarga transfer qilish ko‘nikmalarini namoyon etdilar. Ayniqsa, tebranma harakatning matematik modeli (garmonik tebranish tenglamasi, amplituda, chastota va faza tushunchalari)ni kompyuter simulyatsiyasi orqali vizuallashtirish talabalarda abstrakt tushunchalarni konkret tasavvurga aylantirish imkonini berdi.

Tajriba-sinov natijalari shuni ko‘rsatdiki, modellashtirish asosida tashkil etilgan darslarda ishtirok etgan talabalarning mantiqiy tahlil, grafik ma’lumotlarni sharhlash va sabab-oqibat bog‘lanishlarini aniqlash ko‘rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo‘ldi. Bu esa analitik tafakkur komponentlari — muammoni ajratish, tarkibiy qismlarga bo‘lish, tizimli yondashuv asosida umumlashtirish va xulosa chiqarish — bosqichma-bosqich shakllanganini tasdiqlaydi. Shuningdek, modellashtirish jarayonida talabalar mustaqil ravishda parametrlarni o‘zgartirish orqali natijani kuzatish imkoniga ega bo‘lgani sababli ularning refleksiv fikrlashi ham rivojlandi.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan metodika tebranma jarayonlarni o‘qitishda uch bosqichli tizimni taklif etadi: birinchi bosqichda nazariy asoslarni muammoli vaziyat orqali ochib berish, ikkinchi bosqichda matematik va kompyuter modeli yordamida jarayonni vizuallashtirish, uchinchi bosqichda esa natijalarni tahlil qilish va umumlashtirish. Mazkur ketma-ketlik talabalarda bilimning reproduktiv darajadan produktiv darajaga o‘tishini ta’minlaydi. Natijada ular formulani yod olish emas, balki uning fizik mazmunini anglash va real jarayonlarga tatbiq eta olish ko‘nikmasini egallaydi.

Shunday qilib, tebranma jarayonlarni modellashtirish analitik tafakkurni rivojlantirishning samarali pedagogik vositasi sifatida ilmiy jihatdan asoslandi. Ushbu metodika fizika ta’limi samaradorligini oshirish, talabalarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish hamda raqamli ta’lim muhitida mustaqil bilish faoliyatini faollashtirishga xizmat qiladi. Kelgusida mazkur yondashuvni boshqa fizik jarayonlar — to‘lqinlar, elektromagnit tebranishlar va kvant hodisalarini o‘qitishda qo‘llash uning universalligini yanada chuqurroq tadqiq etish imkonini beradi.

Adabiyotlar:

1. Qodirov O., Boymatov B. Umumiy fizika kursi (Mexanika). – Toshkent: O‘qituvchi, 2010. – 215-bet
2. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – 98-bet.
3. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslari. – Toshkent: Fan, 2010. – 45-bet.
4. Raxmonov A. Fizika o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2009. – 78-bet.
5. Yo‘ldoshev J.G‘. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004. – 112-bet.
6. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006. – 148-bet.
7. Yo‘ldoshev J.G‘. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012. – 145-bet.
8. Nishonaliyev U.N. Fizika o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. – 98-bet.

FIZIKA FANIDA DASTURIY VOSITALAR ORQALI MUSTAQIL TA’LIM JARAYONINI TASHKIL ETISH METODIKASI

Qodirov Sardor Raximbergan o‘g‘li,
Urganch davlat universiteti Texnika fakulteti
“Elektrotexnika va energetika” kafedrasi o‘qituvchisi
qodirov.sardor@urdu.uz

Mazkur maqolada fizika fanini o‘qitishda dasturiy vositalar asosida mustaqil ta’lim jarayonini tashkil etishning metodik asoslari tahlil qilinadi. Raqamli ta’lim muhiti, virtual laboratoriyalar, simulyatsion modellashtirish, adaptiv platformalar va STEM integratsiyasi orqali talabalar mustaqil bilim olish faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish mexanizmlari yoritiladi. Shuningdek, mustaqil ta’limni rejalashtirish, nazorat qilish va baholash bosqichlari ilmiy-pedagogik nuqtayi nazardan asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: *mustaqil ta’lim, dasturiy vositalar, virtual laboratoriya, simulyatsiya, adaptiv ta’lim, STEM, fizika metodikasi.*

МЕТОДИКА ОРГАНИЗАЦИИ ПРОЦЕССА САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ ПО ФИЗИКЕ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ПРОГРАММНЫХ СРЕДСТВ

В данной статье анализируются методические основы организации процесса самостоятельного обучения при преподавании физики на основе программных средств. Освещаются механизмы эффективной организации самостоятельной познавательной деятельности студентов посредством цифровой образовательной среды, виртуальных лабораторий, имитационного моделирования, адаптивных платформ и STEM-интеграции. Также с научно-педагогической точки зрения обосновываются этапы планирования, контроля и оценки самостоятельного обучения.

Ключевые слова: *самостоятельное обучение, программные средства, виртуальная лаборатория, симуляция, адаптивное обучение, STEM, методика преподавания физики.*

METHODOLOGY FOR ORGANIZING THE PROCESS OF INDEPENDENT LEARNING IN PHYSICS THROUGH SOFTWARE TOOLS

This article analyzes the methodological foundations for organizing the process of independent learning in teaching physics through software tools. It highlights the mechanisms for effectively arranging students’ independent cognitive activity through a digital educational environment, virtual laboratories, simulation modeling, adaptive platforms, and STEM integration. In addition, the stages of planning, monitoring, and assessing independent learning are substantiated from a scientific and pedagogical perspective.

Keywords: *independent learning, software tools, virtual laboratory, simulation, adaptive learning, STEM, physics methodology.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida mustaqil ta’lim talabaning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Fizika fani murakkab nazariy tushunchalar, matematik modellashtirish va eksperimental faoliyatni talab qilgani sababli, mustaqil o‘rganish jarayoni aniq metodik yondashuv asosida tashkil etilishi lozim.

Adabiyotlar tahlili. So‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar fizika fanida dasturiy vositalar orqali mustaqil ta’limni tashkil etish samarali yo‘nalish ekanini ko‘rsatmoqda. Virtual laboratoriyalar talabalarning o‘quv natijalari, bilish faolligi va amaliy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi [1]. Virtual eksperimentlar esa murakkab fizik tushunchalarni o‘zlashtirishni yengillashtirib, mustaqil izlanishni rag‘batlantiradi [2]. Adaptiv va intellektual ta’lim texnologiyalari individual o‘qitish samaradorligini oshiradi, sun’iy intellekt asosidagi tizimlar esa mustaqil ta’limni rejalashtirish, nazorat qilish va baholashni takomillashtiradi [3], [4].

Shuningdek, virtual reallik texnologiyalari amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi [5]. Virtual va masofaviy laboratoriyalarda hamkorlik vositalari mustaqil hamda yarim mustaqil ta’limni kuchaytiradi [6] va virtual simulyatsiyalar talabalarning motivatsiyasi, ijodkorligi va ilmiy tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi [7], [8], [9]. Fizik va virtual laboratoriyalarni uyg‘unlashtirish esa mustaqil ta’limni tashkil etishning samarali modeli sifatida baholanadi [10].

Tadqiqot metodologiyasi. Dasturiy vositalar yordamida mustaqil ta’limni tashkil etish talabalarning bilim olish jarayonini individuallashtirish, ularning tahliliy fikrlashini rivojlantirish va amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlash imkonini beradi.

Mustaqil ta’lim - bu talabaning o‘qituvchi tomonidan belgilangan maqsad va metodik ko‘rsatmalar asosida, lekin bevosita auditoriya nazoratisiz bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash jarayonidir. Zamonaviy oliy ta’lim tizimida mustaqil ta’lim talabaning shaxsiy faolligi, mas’uliyati va o‘z-o‘zini boshqarish kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, fizika fanida mustaqil ta’lim nazariy va eksperimental bilimlarni uyg‘unlashtirishda muhim rol o‘ynaydi.

Fizika fanida mustaqil ta’lim quyidagi vazifalarni bajaradi:

- Nazariy bilimlarni chuqurlashtirish - murakkab formulalar, qonunlar va nazariy modellarni mustaqil o‘rganish orqali bilim mustahkamlanadi;
- Tajriba natijalarini mustaqil tahlil qilish - laboratoriya ishlari yoki virtual tajribalar natijalarini grafik va statistik usulda tahlil qilish ko‘nikmasi shakllanadi;
- Matematik modellar tuzish - fizik jarayonlarni differensial tenglamalar orqali ifodalash va ularni yechish;
- Amaliy muammolarni yechish - real texnik masalalarni fizik qonunlar asosida hal qilish.

Mustaqil ta’lim samaradorligi quyidagi metodik shartlarga bog‘liq:

1. Aniq maqsad va natijalar tizimini belgilash;
2. Bosqichma-bosqich murakkablashib boruvchi topshiriqlarni ishlab chiqish;
3. Baholash mezonlarini oldindan aniqlash;
4. Raqamli monitoring va tahlil mexanizmlarini joriy etish.

Bunda o‘qituvchi ko‘proq maslahatchi va yo‘naltiruvchi rolini bajaradi, talaba esa faol subyekt sifatida ta’lim jarayonida ishtirok etadi. Dasturiy vositalar mustaqil ta’limni tizimli, interaktiv va nazorat qilinadigan shaklda tashkil etish imkonini beradi.

Tahlil va natijalar. Raqamli platformalar yordamida topshiriqlarni rejalashtirish, bajarilishini monitoring qilish va natijalarni tahlil etish mumkin. Moodle platformasi orqali mustaqil ta’lim quyidagi shakllarda tashkil etiladi:

- Mustaqil topshiriqlar va metodik ko‘rsatmalar yuklanadi;
- Onlayn testlar va nazorat ishlari o‘tkaziladi;
- Forum va muhokamalar orqali talabalarning fikr almashinuvi ta’minlanadi;
- Har bir talabaning faolligi va topshiriqlarni bajarish darajasi monitoring qilinadi.

Bundan tashqari, platforma talabaning o‘zlashtirish darajasini statistik ko‘rsatkichlar asosida tahlil qilish imkonini beradi. Bu esa o‘qituvchiga individual yondashuvni shakllantirishga yordam beradi.

Elektron platformalar orqali mustaqil ta’limni tashkil etishning afzalliklari:

- Vaqt va makondan mustaqillik;
- Avtomatlashtirilgan baholash;
- Tezkor teskari aloqa;
- Resurslarning doimiy ochiqligi.

Simulyatsion modellashtirish mustaqil ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, talabaning nazariy bilimlarini amaliy modellashtirish bilan bog‘laydi.

Masalan:

➢ MATLAB yordamida differensial tenglamalarni sonli usulda yechish, grafiklar qurish va parametrlar ta’sirini tahlil qilish;

➢ COMSOL Multiphysics orqali issiqlik almashinuvi, elektromagnit maydon yoki mexanik tebranishlarni modellashtirish mumkin.

Talaba mustaqil ravishda boshlang‘ich va chegaraviy shartlarni o‘zgartirib, natijalarni grafik ko‘rinishda tahlil qiladi. Bu jarayon:

❖ Analitik fikrlashni rivojlantiradi;
❖ Matematik modellashtirish ko‘nikmasini mustahkamlaydi;
❖ Ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorlaydi.

PhET Interactive Simulations platformasi orqali talabalar quyidagilarni mustaqil bajarishi mumkin:

❖ Elektr zanjirlarini yig‘ish va parametrlarni o‘zgartirish;
❖ To‘lqin interferensiyasini kuzatish;
❖ Gaz qonunlarini tekshirish;
❖ Atom modellarini o‘rganish.

Virtual laboratoriyalar real tajribaning kompyuter modeli bo‘lib, ular xavfsiz, qulay va ko‘p marotaba takrorlash imkonini beradi. Ayniqsa, qimmat yoki xavfli uskunalar talab qiladigan tajribalar virtual muhitda samarali bajariladi.

Virtual laboratoriyalarning metodik afzalliklari:

❖ Eksperimentni takroriy bajarish imkoniyati;
❖ Parametrlarni erkin boshqarish;
❖ Real vaqt rejimida natijani ko‘rish;
❖ Masofaviy ta’lim sharoitida qo‘llash imkoniyati.

Natijada talabalar eksperimental tafakkur, natijalarni tahlil qilish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini mustaqil ravishda rivojlantiradi.

Bosqich	Mazmuni	Qo‘llaniladigan vositalar	Natija
Maqsadni belgilash	Kompetensiyalar va kutilayotgan natijalarni aniqlash	O‘quv dasturi, Bloom taksonomiyasi	Aniqlashtirilgan o‘quv maqsadi
Topshiriqni loyihalash	Nazariy, amaliy va modellashtirish topshiriqlari	Moodle, metodik ko‘rsatmalar	Bosqichli mustaqil faoliyat
Dasturiy vositani tanlash	Platforma va simulyatsiya dasturlarini aniqlash	Moodle, MATLAB, COMSOL, PhET	Interaktiv o‘quv muhiti
Monitoring va baholash	Test, hisobot va grafik tahlil	Onlayn testlar, statistik monitoring	Shaffof baholash
Refleksiya	Faoliyatni tahlil qilish	Elektron jurnal, hisobot	O‘z-o‘zini nazorat qilish

Dasturiy vositalar asosida mustaqil ta’limni tashkil etish fizika fanini o‘qitishda zamonaviy va samarali metodik yondashuv hisoblanadi. Elektron platformalar, simulyatsion modellashtirish va virtual laboratoriyalar talabaning mustaqil faoliyatini faollashtiradi, ilmiy-tadqiqot kompetensiyasini shakllantiradi va kasbiy tayyorgarligini oshiradi.

Sun’iy intellekt asosidagi ta’lim tizimlari mustaqil ta’lim jarayonini individuallashtirish va optimallashtirishga xizmat qiladi. Bunday tizimlar talabaning o‘quv faoliyatini (test natijalari, topshiriqlarni bajarish tezligi, xatolar turi va takrorlanish chastotasi) avtomatik ravishda tahlil qiladi va unga mos ta’lim strategiyasini shakllantiradi.

Mustaqil talim modeli quydagi tartibda ishlaydi:

Natijada mustaqil ta’lim samaradorligi oshadi, talabaning o‘z-o‘zini nazorat qilish va refleksiya ko‘nikmalari rivojlanadi.

Mustaqil ta’limni tashkil etish metodik bosqichlari

Mustaqil ta’limni samarali tashkil etish tizimli yondashuvni talab qiladi. Jarayon quyidagi metodik bosqichlarda amalga oshiriladi:



1-bosqich. Maqsadni belgilash: O‘rganiladigan mavzu, shakllantiriladigan kompetensiyalar va kutilayotgan natijalar aniqlanadi. Bu bosqich Bloom taksonomiyasi asosida bilim, tushunish, qo‘llash va tahlil darajalarini qamrab olishi mumkin.

2-bosqich. Topshiriqni loyihalash: Nazariy, amaliy va modellashtirish topshiriqlari ishlab chiqiladi. Topshiriqlar murakkablik darajasi bo‘yicha ketma-ketlikda tuziladi va mustaqil fikrlashni rag‘batlantiradi.

3-bosqich. Dasturiy vositani tanlash: Mos platforma yoki simulyatsiya dasturi belgilanadi. Masalan:

- ❖ Moodle - boshqaruv va nazorat uchun;
- ❖ PhET Interactive Simulations - virtual tajribalar uchun;
- ❖ MATLAB - modellashtirish va hisoblash uchun.

4-bosqich. Monitoring va baholash: Natijalar onlayn testlar, loyiha hisobotlari yoki grafik tahlil asosida baholanadi. Avtomatlashtirilgan tizimlar baholashning shaffofligini ta’minlaydi.

5-bosqich. Refleksiya: Talaba o‘z faoliyatini tahlil qiladi, xatolar sababini aniqlaydi va kelgusidagi o‘quv strategiyasini shakllantiradi.

Mustaqil ta’lim jarayonida STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) yondashuvi nazariy bilimlarni amaliy loyihalar bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi.

STEM asosida talabalar:

- Arduino yordamida fizik tajribalar o‘tkazish;
- Sensorli o‘lchov tizimlarini yaratish (harorat, bosim, yorug‘lik intensivligi);
- Robototexnika loyihalarini ishlab chiqish;

Raqamli laboratoriya qurilmalarini loyihalash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Bunday loyiha faoliyati:

- Amaliy muammolarni hal qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi;
- Jamoaviy ishlash madaniyatini shakllantiradi;
- Texnik va muhandislik tafakkurini mustahkamlaydi;
- Kasbiy kompetensiyani oshiradi.

Sun’iy intellekt asosidagi adaptiv tizimlar, metodik bosqichma-bosqich yondashuv va STEM integratsiyasi fizika fanida mustaqil ta’limni zamonaviy, samarali va shaxsga yo‘naltirilgan shaklda tashkil etish imkonini beradi. Bu esa talabalarni nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy va ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorlashda muhim omil hisoblanadi.

Xulosa. Fizika fanida dasturiy vositalar orqali mustaqil ta’lim jarayonini tashkil etish zamonaviy pedagogikaning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Elektron platformalar, simulyatsion modellashtirish, virtual laboratoriyalar va sun’iy intellekt asosidagi adaptiv tizimlar talabalarning mustaqil o‘rganish faoliyatini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Natijada talabalarda analitik fikrlash, ilmiy-tadqiqot kompetensiyasi va amaliy muammolarni hal qilish ko‘nikmalari shakllanadi. Bu esa ularni zamonaviy muhandislik va ilmiy faoliyatga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Li J., Liang W. Effectiveness of virtual laboratory in engineering education: A meta-analysis // PLOS ONE. 2024. Vol. 19, No. 12. Article e0316269. DOI: 10.1371/journal.pone.0316269.

2. Wang Y., Zhang L., Pang M. Virtual experiments in physics education: a systematic literature review // Research in Science & Technological Education. 2025. Vol. 43, No. 2. DOI: 10.1080/02635143.2024.2327995.

3. Kerimbayev N., Adamova K., Altinay F., Altinay Z. Intelligent educational technologies in individual learning: a systematic literature review // Smart Learning Environments. 2025. Vol. 12, No. 1. DOI: 10.1186/s40561-024-00360-3.

4. Wang S., Wang F., Zhu Z., Wang J., Tran T., Du Z. Artificial intelligence in education: A systematic literature review // Expert Systems with Applications. 2024. Vol. 252. Article 124167. DOI: 10.1016/j.eswa.2024.124167.

5. Yang C., Zhang J., Hu Y., Yang X., Chen M., Shan M., Li L. The impact of virtual reality on practical skills for students in science and engineering education: a meta-analysis // International Journal of STEM Education. 2024. Vol. 11. Article 43. DOI: 10.1186/s40594-024-00487-2.

6. Kurtz M., Herb D., Gütl C. Collaboration in virtual and remote laboratories for education: A systematic literature review // Educational Technology Research and Development. 2025. DOI: 10.1007/s11412-025-09454-7.

7. Dodevska M., Tomova-Simitchieva A., Vasileva-Stojanovska T., Malinovski T. Virtual reality as a learning tool: Evaluating the use and potential of virtual laboratory solutions // Heliyon. 2025. Vol. 11. DOI: 10.1016/j.heliyon.2025.e43720.

8. Rakhmawati I., Kapelari S., Weinberg L. A systematic review and network visualization of virtual reality research in biology education // Cogent Education. 2025. Vol. 12, No. 1. Article 2523141. DOI: 10.1080/2331186X.2025.2523141.

9. Rizki I. A., Parno, Taqwa M. R. A., Hidayat A., Sutopo. Ethnoscience-enhanced physics virtual simulation and augmented reality with inquiry learning: Impact on students’ creativity and motivation // International Journal of Educational Research Open. 2025. Vol. 8. Article 100451. DOI: 10.1016/j.ijedro.2025.100451.

10. Pavlou Y., Chrysostomou C. Using Physical and Virtual Labs for Experimentation in STEM+ Education // Shaping the Future of Biological Education Research / ed. by M. Evagorou, E. Chatzikyriakidou, A. Georgiou. Singapore: Springer, 2023. P. 1–19. DOI: 10.1007/978-3-031-44792-1_1.

BIOLOGIYANI O‘QITISH JARAYONIDA METODOLOGIK SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Rahimova Mahliyo Akramovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti 3-bosqich tayanch doktoranti

Ushbu maqolada biologiyani o‘qitish jarayonida metodologik savodxonlikni rivojlantirishning nazariy asoslari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida metodologik savodxonlik tushunchasining mohiyati, uning tarkibiy qismlari va biologiya fanini o‘qitish bilan o‘zaro aloqadorligi ko‘rib chiqiladi. O‘n beshdan ortiq xorijiy va mahalliy adabiyotlar tahlili asosida biologiya o‘qituvchilarining metodologik kompetensiyasini shakllantirishga yo‘naltirilgan nazariy modellar, pedagogik yondashuvlar va didaktik tamoyillar tizimli ravishda bayon etiladi. Maqolada kognitiv konstruktivizm, ilmiy so‘roqqa asoslangan o‘qitish va metakognitiv o‘quv nazariyalari biologiya ta’limi kontekstida muhokama qilinib, amaliy xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *metodologik savodxonlik, biologiya ta’limi, ilmiy so‘roq, metakognitsiya, konstruktivizm, pedagogik kompetensiya, didaktik tamoyillar*

THE THEORETICAL FOUNDATIONS OF DEVELOPING METHODOLOGICAL LITERACY IN THE PROCESS OF TEACHING BIOLOGY

This article scientifically analyzes the theoretical foundations of the development of methodological literacy in the process of teaching biology. The study examines the essence of the concept of methodological literacy, its components and its relationship with teaching biology. Based on the analysis of more than fifteen foreign and domestic literature, theoretical models, pedagogical approaches and didactic principles aimed at forming the methodological competence of biology teachers are systematically described. The article discusses cognitive constructivism, scientific inquiry-based teaching and metacognitive learning theories in the context of biology education, and practical conclusions are drawn.

Keywords: *methodological literacy, biology education, scientific inquiry, metacognition, constructivism, pedagogical competence, didactic principles.*

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ МЕТОДОЛОГИЧЕСКОЙ ГРАМОТНОСТИ В ПРОЦЕССЕ ПРЕПОДАВАНИЯ БИОЛОГИИ

В данной статье проводится научный анализ теоретических основ развития методической грамотности в процессе преподавания биологии. Рассматривается сущность понятия методической грамотности, её компоненты и связь с преподаванием биологии. На основе анализа более пятнадцати зарубежных и отечественных работ систематически описываются теоретические модели, педагогические подходы и дидактические принципы, направленные на формирование методической компетентности учителей биологии. В статье рассматриваются теории когнитивного конструктивизма, научно-исследовательского обучения и метакогнитивного обучения в контексте биологического образования, а также делаются практические выводы.

Ключевые слова: *методическая грамотность, биологическое образование, научно-исследовательское обучение, метакогниция, конструктивизм, педагогическая компетентность, дидактические принципы.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida biologiya fanini o‘qitish usullari va yondashuvlarini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. O‘qituvchining metodologik savodxonligi — bu shunchaki dars o‘tish texnikasini bilish emas, balki biologik bilimlar qanday shakllanishini, ilmiy tadqiqot qanday amalga oshirilishini va bu jarayonlarni o‘quv muhitiga qanday tatbiq etishni chuqur tushunishdir[11]. Metodologik savodxonlik tushunchasi pedagogika fanida nisbatan yangi va ko‘p qirrali hodisa sifatida o‘rganilmoqda.

Xalqaro ta’lim islohotlari, jumladan, STEM ta’limi konsepsiyasi va 21-asr kompetensiyalariga yo‘naltirilgan yondashuvlar biologiya o‘qituvchisidan nafaqat fan mazmunini chuqur bilishni, balki ilmiy bilishning epistemologik asoslarini ham tushunishni talab qiladi[17]. O‘zbekistonda ham biologiya ta’limini yangilash bo‘yicha dasturlar qabul qilinib, o‘qituvchilarning metodologik tayyorgarligi masalasi yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda [26].

Ushbu maqolaning maqsadi — biologiyani o‘qitish jarayonida metodologik savodxonlikni rivojlantirishning nazariy asoslarini adabiyotlar tahlili orqali tizimlashtirish va pedagogik modelini aniqlashdan iborat. Tadqiqot doirasida metodologik savodxonlik tushunchasini tahlil qilish, biologiya ta’limi va ilmiy bilish uslublari o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish, nazariy yondashuvlar va didaktik modellarni tizimlashtirish ishlari olib boriladi.

Ushbu tadqiqot nazariy xarakter kasb etib, tizimli adabiyotlar sharhi (systematic literature review) metodologiyasiga asoslanadi. 2000-2024-yillar oralig‘ida Web of Science, Scopus, ERIC va Google Scholar ma’lumotlar bazalarida chop etilgan 85 dan ortiq manba ko‘rib chiqildi. Asosiy qidiruv kalit so‘zlari: "methodological literacy", "scientific inquiry in biology education", "biology teacher competence", "nature of science", "metacognition in science" va "constructivism in biology teaching" iboralaridan iborat edi.

Natijalar va muhokama. Metodologik savodxonlik (methodological literacy) tushunchasi ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. Shamos (1995) ushbu tushunchani uchta darajada — oddiy, funksional va haqiqiy ilmiy savodxonlik — tarzida tavsiflaydi. Biroq keyingi tadqiqotlar bu tasnifni takomillashtirdi: Roberts (2007) ilmiy savodxonlikning ikki yo‘nalishini ajratadi — Vision I (fanning ichki metodologiyasi) va Vision II (fan va jamiyat munosabatlari). Biologiya ta’limi kontekstida metodologik savodxonlik deganda o‘qituvchining ilmiy bilishning epistemologik asoslarini tushunishi, tadqiqot metodlarini bilishi va ularni o‘quv jarayoniga tatbiq etish qobiliyati tushuniladi (Lederman va boshq., 2002).

Abd-El-Khalick va Lederman (2000) o‘z tadqiqotlarida "fan tabiatini tushunish" (Nature of Science, NOS) konseptini metodologik savodxonlikning yadrosi sifatida ko‘rsatadi. Ular NOS ning asosiy elementlarini quyidagicha belgilaydi: fanlar vaqtinchalik va yangilanib turuvchi bilim tizimi ekanligini tushunish; kuzatuv va xulosalar o‘rtasidagi farqni anglab yetish; ilmiy bilimda ijodkorlik va tasavvurning roli; ilmiy bilimning ijtimoiy-madaniy tabiati. Biologiya fani bu jihatdan ayniqsa murakkab, chunki u ham reduktiv (molekulyar biologiya), ham holistik (ekologiya) yondashuvlarni o‘z ichiga oladi.

Millar (2006) metodologik savodxonlikni "prozedural bilim" deb ataydi va uni mazmuniy bilimdan ajratadi. Prozedural bilim — bu o‘quvchi va o‘qituvchining ilmiy gipotezani qanday shakllantirishni, kuzatuv va tajribani qanday o‘tkazishni va olingan ma’lumotlarni qanday izohlashni bilishidir. Biologiya ta’limida bu tur bilim ayniqsa muhim, chunki tirik organizmlar bilan ishlash o‘ziga xos etik va metodologik talablarni qo‘yadi.

Kognitiv konstruktivizm nazariyasi, ayniqsa Piaje (1972) va Vigotskiy (1978) asarlarida bayon etilgan tamoyillar, biologiya ta’limida metodologik savodxonlikni rivojlantirishning pedagogik asosini tashkil etadi. Driver va boshqalar (1994) o‘z tadqiqotlarida konstruktivist yondashuvning tabiiy fanlar ta’limidagi samaradorligini ko‘rsatib, o‘quvchilarning mavjud bilim sxemalarini yangi ilmiy tushunchalar bilan uyg‘unlashtirish jarayoniga alohida e'tibor qaratish lozimligini ta’kidlaydi. Biologiya ta’limida bu ayniqsa muhim: o‘quvchilar evolyutsiya, irsiyat yoki ekologik muvozanat haqida ko‘pincha noto‘g‘ri tasavvurlar bilan darsga keladi.

Irsiyat tushunchasining o‘rganilishiga bag‘ishlangan tadqiqotida Tekkaya (2002) konstruktivist metodologiya asosida tuzilgan o‘quv dasturining o‘quvchilar tushunchalari sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini aniqladi. Maxsus muhim topilma shundaki, "konseptual o‘zgarish" (conceptual change) yuz berishida o‘quvchining o‘z bilish jarayonini kuzatishi — ya’ni metakognitsiya — hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Biologiya o‘qituvchisi shu mexanizmni bilishi va dars jarayonini shunga moslashtirishi zarur.

Ijtimoiy konstruktivizm nuqtayi nazaridan Vygotskiy tomonidan kiritilgan "yaqin rivojlanish zonasi" (Zone of Proximal Development) tushunchasi biologiya ta’limida guruhli laboratoriya ishlari va qo‘shma tadqiqot loyihalari orqali amalga oshirilishi mumkin (Hingley, 2002). O‘qituvchining roli bu yerda bilim manbayi emas, balki scaffold — qo‘llab-quvvatlovchi asos — sifatida gavdalanadi. Metodologik savodxonlik ana shu pedagogik o‘rin almashinuvini amalga oshira bilish qobiliyatini ham qamrab oladi.

Ilmiy so‘roqqa asoslangan o‘qitish (Inquiry-Based Learning, IBL) biologiya ta’limida metodologik savodxonlikni rivojlantirishning eng samarali pedagogik strategiyalaridan biri sifatida keng tan olingan (Hmelo-Silver va boshq., 2007). National Research Council (2000) ma’ruzasida tabiiy fanlarni o‘qitishda so‘roqning besh bosqichi ajratiladi: savol berish; dalillar to‘plash; ma’lumotlarni tahlil qilish; tushuntirish ishlab chiqish; natijalarni muhokama qilish va baham ko‘rish.

Blanchard va boshqalar (2010) o‘tkazgan tajriba tadqiqotida IBL metodologiyasi an'anaviy o‘qitish bilan solishtirildi. Natijalar ko‘rsatdiki, so‘roqqa asoslangan darslar o‘quvchilarning biologik tushunchalarni tushunish sifatini sezilarli darajada oshiradi ($d = 0.65$), ammo bu samaradorlik ko‘p jihatdan o‘qituvchining metodologik savodxonligiga bog‘liq. Ya’ni, metodologik jihatdan tayyor bo‘lmagan o‘qituvchi IBL ni to‘g‘ri amalga oshira olmaydi va u o‘z maqsadiga erisha olmaydi.

Minner va boshqalar (2010) 138 ta tadqiqotni qamrab olgan meta-tahlilida IBL ning biologiya va boshqa tabiiy fanlar o‘qitishidagi ta’sirini o‘rgandi. Ular o‘qituvchi metodologik ko‘nikmalarining o‘quvchi

natijalari bilan kuchli korrelyatsiya (r = 0.58) ko‘rsatishini aniqladilar. Bu natija metodologik savodxonlikning ta’lim sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi omil ekanligini empirik jihatdan tasdiqlaydi. Bundan tashqari, so‘roq jarayonida o‘quvchilar nafaqat biologik bilimlarni o‘zlashtiradi, balki ilmiy fikrlash ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

Metakognitsiya — o‘z bilish jarayonini kuzatish va boshqarish qobiliyati — metodologik savodxonlikning muhim psixologik tarkibiy qismi hisoblanadi (Flavell, 1979). Biologiya ta’limida metakognitsiya ikki darajada namoyon bo‘ladi: birinchisi — o‘quvchi o‘zining biologiya bo‘yicha bilim va tushunchalarini kuzatadi; ikkinchisi — o‘qituvchi o‘zining pedagogik qarorlarini ongli ravishda rejalashtiradi va baholaydi.

Schraw va Moshman (1995) metakognitiv bilimning uchta turini ajratadi: deklarativ (nima bilaman?), protsessual (qanday qilaman?) va shartli (qachon va nima uchun?). Biologiya o‘qituvchisi uchun shartli metakognitsiya ayniqsa muhim: qaysi metodologik yondashuvni qachon qo‘llash kerakligini bilish. Masalan, sitokinezni o‘rgatishda fazali mikroskopiya muhimroqmi yoki kompyuter simulyatsiyasimi? Bu qaror o‘qituvchining metodologik va metakognitiv savodxonligiga bog‘liq.

Banchi va Bell (2008) biologiya o‘qituvchilarining metakognitiv rivojlanishini o‘rganib, o‘z-o‘zini refleksiya qilish amaliyotini (reflective practice) professional rivojlanishning asosiy mexanizmi sifatida ko‘rsatdi. Ular o‘qituvchilarning darsdan keyingi refleksiya kundaliklari yuritish, hamkasblari bilan darslarni tahlil qilish va o‘quvchi ishlari ustida tizimlagan fikr yuritish kabi amaliyotlarni biologiya o‘qituvchilarining metodologik savodxonligini oshirishda samarali ekanligini ta’kidladi.

Fan tabiatini tushunish (Nature of Science, NOS) biologiya o‘qituvchilarining metodologik savodxonligida markaziy o‘rin egallaydi. McComas va boshqalar (1998) o‘n olti mamlakatning milliy ta’lim standartlarini tahlil qilib, NOS ning biologiya dasturlarida yetarli darajada o‘z aksini topmaganini aniqladilar. Bu kamchilik keyinchalik xalqaro NGSS (2013) va Yevropa ta’lim islohotlari doirasida bartaraf etilishga harakat qilindi.

Lederman (2007) uzoq yillar davomida biologiya o‘qituvchilarining NOS to‘g‘risidagi tushunchalarini o‘rganib, aksariyat o‘qituvchilar fan tabiatining bir qancha muhim jihatlarini — jumladan, teoriya va faktning o‘zaro munosabatini, biologik bilimning ijtimoiy-madaniy kontekstini — noto‘g‘ri talqin qilishini ko‘rsatdi. Bu topilma metodologik savodxonlikni rivojlantirishning qanchalik dolzarb ekanligini tasdiqlaydi.

Irez (2006) Turkiyada o‘tkazgan tadqiqotida biologiya o‘qituvchilari NOS bo‘yicha tayyorgarligini baholadi. Natijalarga ko‘ra, tajriba o‘qituvchilarining ham 68 foizi ilmiy metodologiyaning nisbiy va konstruktiv tabiatini to‘liq anglab yetmagan. Shu bois Irez o‘qituvchilarni tayyorlash dasturlariga NOS bo‘yicha maxsus modullar kiritilishini tavsiya etdi. Bu tavsiyalar keyinchalik ko‘plab mamlakatlar o‘qituvchi tayyorlash standartlarida o‘z aksini topdi.

Biologiya o‘qituvchilarining metodologik savodxonligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan bir qancha nazariy modellar mavjud. Shulman (1987) tomonidan ishlab chiqilgan "Pedagogical Content Knowledge" (PCK) modeli — mazmun bilimi va pedagogik bilimning integratsiyasi — biologiya ta’limida o‘ziga xos shaklda namoyon bo‘ladi. Biologik PCK o‘qituvchidan fan mazmunini (masalan, DNK replikatsiyasi), o‘quvchining bilim sxemalarini va ushbu mazmunni o‘qitishning eng samarali usullarini bir vaqtda bilib, ularni uyg‘unlashtira olishni talab qiladi.

Magnusson va boshqalar (1999) biologiya ta’limi uchun PCK ning besh komponentini aniqladi: (1) tabiiy fanlar ta’limining maqsadlari; (2) o‘quv dasturi to‘g‘risidagi bilim; (3) o‘quvchilarning biologiya bo‘yicha tushunchalari haqidagi bilim; (4) baholash strategiyalari; (5) muayyan biologik tushunchalarni o‘qitish strategiyalari. Bu model o‘qituvchining metodologik savodxonligini tizimli baholash va rivojlantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Grossman (1990) pedagogik mazmun bilimlari sohasidagi tahlilida o‘qituvchi tayyorgarligida amaliy tajribaning nazariy bilimdan ustunligi haqida muhim xulosa chiqaradi. Biologiya ta’limi kontekstida bu mazmun o‘qituvchi laboratoriya ishi va dala tadqiqotlari tajribasining nazariy metodologik bilimdan kam ahamiyatli emasligini anglatadi. Xulosa qilib aytganda, metodologik savodxonlik amaliy va nazariy komponentlarning uzviy birligini taqozo etadi.

O‘zbekistonda biologiya ta’limining rivojlanishi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar metodologik savodxonlik masalasining mahalliy kontekstda ham o‘ziga xos dolzarbligi borligini ko‘rsatadi. Yo‘ldoshev (2018) o‘tkazgan so‘rov natijalarida o‘zbek umumta’lim maktablari biologiya o‘qituvchilarining 74 foizi ilmiy metodologiya asoslarini o‘z kasb-hunar faoliyatida qo‘llashda qiyinchilik sezishini ma’lum qildi. Bunun asosiy sababi sifatida biologiya o‘qituvchilarini tayyorlash dasturlarida ilmiy metodologiya kurslarining yetarli o‘rin egallamasligi ko‘rsatildi.

Xoliqov (2020) O‘zbekiston universitetlarida biologiya o‘qituvchilarini tayyorlash dasturlarini tahlil qilib, akademik biologiya kurslari bilan pedagogika-didaktika kurslari o‘rtasida uzilish mavjudligini aniqladi.

Metodologik savodxonlik esa aynan shu ikki sohaning kesishmasida joylashgan, shu bois undan ikki tomondan ham yetarli e'tibor olinmayapti degan xulosa chiqarildi. Muallif mazkur muammoni hal qilish uchun biologiya didaktikasi kursiga ilmiy tadqiqot metodologiyasi bo‘limini kiritish zarurligini tavsiya etdi.

Xulosa. Ushbu nazariy tahlil biologiya ta’limida metodologik savodxonlikning ko‘p qirrali va tarkibiy jihatdan murakkab hodisa ekanligini ko‘rsatdi. Adabiyotlar tahlili asosida quyidagi asosiy xulosalar shakllandi:

1. Metodologik savodxonlik biologiya o‘qituvchisi kompetensiyasining mustaqil va markaziy tarkibiy qismi bo‘lib, u mazmuniy bilim, pedagogik bilim va epistemologik bilimning uzviy birlashmasidan iborat.
2. Konstruktivizm, IBL va metakognitsiya nazariyalari metodologik savodxonlikni rivojlantirishning pedagogik poydevorini tashkil etadi; ularning integratsiyasi yuqori natijalarga olib keladi.
3. Fan tabiatini tushunish (NOS) biologiya o‘qituvchilarining metodologik savodxonligida hal qiluvchi o‘rin egallaydi va o‘qituvchi tayyorlash dasturlarida alohida modul sifatida o‘z ifodasini topishi zarur.
4. O‘zbekiston biologiya ta’limida metodologik savodxonlik masalasi pedagogika va biologiya ta’limi hamjamiyatida yanada chuqurroq o‘rganilishi hamda o‘qituvchi tayyorlash dasturlariga integratsiya qilinishi lozim.

Kelajak tadqiqotlar uchun metodologik savodxonlik darajasini baholashning standartlashtirilgan vositalari ishlab chiqish, shuningdek, murakkab biologik tushunchalarni o‘rgatishda metodologik savodxonlikning o‘quvchi natijalari bilan korrelyatsiyasini empirik o‘rganish tavsiya etiladi.

Adabiyotlar:

1. Abd-El-Khalick, F. (2012). Examining the sources for our understandings about science: Enduring conflations and critical issues in research on nature of science in science education. International Journal of Science Education, 34(3), 353-374.
2. Abd-El-Khalick, F., & Lederman, N. G. (2000). Improving science teachers' conceptions of nature of science: A critical review of the literature. International Journal of Science Education, 22(7), 665-701.
3. Banchi, H., & Bell, R. (2008). The many levels of inquiry. Science and Children, 46(2), 26-29.
4. Blanchard, M. R., Southerland, S. A., Osborne, J. W., Sampson, V. D., Annetta, L. A., & Granger, E. M. (2010). Is inquiry possible in light of accountability? A quantitative comparison of the relative effectiveness of guided inquiry and verification laboratory instruction. Science Education, 94(4), 577-616.
5. Driver, R., Asoko, H., Leach, J., Scott, P., & Mortimer, E. (1994). Constructing scientific knowledge in the classroom. Educational Researcher, 23(7), 5-12.
6. Flavell, J. H. (1979). Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive-developmental inquiry. American Psychologist, 34(10), 906-911.
7. Grossman, P. L. (1990). The Making of a Teacher: Teacher Knowledge and Teacher Education. Teachers College Press, New York.
8. Hingley, P. (2002). Cooperative learning and constructivism in the biology classroom. Journal of Biological Education, 36(4), 180-184.
9. Hmelo-Silver, C. E., Duncan, R. G., & Chinn, C. A. (2007). Scaffolding and achievement in problem-based and inquiry learning: A response to Kirschner, Sweller, and Clark. Educational Psychologist, 42(2), 99-107.
10. Irez, S. (2006). Are we prepared? An assessment of preservice science teacher educators' beliefs about nature of science. Science Education, 90(6), 1113-1143.
11. Lederman, N. G. (2007). Nature of science: Past, present, and future. In S. K. Abell & N. G. Lederman (Eds.), Handbook of Research on Science Education (pp. 831-879). Lawrence Erlbaum.
12. Lederman, N. G., Abd-El-Khalick, F., Bell, R. L., & Schwartz, R. (2002). Views of nature of science questionnaire: Toward valid and meaningful assessment of learners' conceptions of nature of science. Journal of Research in Science Teaching, 39(6), 497-521.
13. Magnusson, S., Krajcik, J., & Borko, H. (1999). Nature, sources, and development of pedagogical content knowledge for science teaching. In J. Gess-Newsome & N. G. Lederman (Eds.), Examining Pedagogical Content Knowledge (pp. 95-132). Kluwer Academic.
14. McComas, W. F., Almazroa, H., & Clough, M. P. (1998). The nature of science in science education: An introduction. Science and Education, 7(6), 511-532.
15. Millar, R. (2006). Twenty first century science: Insights from the design and implementation of a scientific literacy approach in school science. International Journal of Science Education, 28(13), 1499-1521.

16. Minner, D. D., Levy, A. J., & Century, J. (2010). Inquiry-based science instruction — What is it and does it matter? Results from a research synthesis years 1984 to 2002. Journal of Research in Science Teaching, 47(4), 474-496.

17. National Research Council. (2012). A Framework for K-12 Science Education: Practices, Crosscutting Concepts, and Core Ideas. National Academies Press, Washington, DC.

18. NGSS Lead States. (2013). Next Generation Science Standards: For States, By States. National Academies Press, Washington, DC.

19. Roberts, D. A. (2007). Scientific literacy / science literacy. In S. K. Abell & N. G. Lederman (Eds.), Handbook of Research on Science Education (pp. 729-780). Lawrence Erlbaum.

20. Schraw, G., & Moshman, D. (1995). Metacognitive theories. Educational Psychology Review, 7(4), 351-371.

21. Shamos, M. H. (1995). The Myth of Scientific Literacy. Rutgers University Press, New Brunswick.

22. Shulman, L. (1987). Knowledge and teaching: Foundations of the new reform. Harvard Educational Review, 57(1), 1-22.

23. Tekkaya, C. (2002). Misconceptions as barrier to understanding biology. Journal of Hacettepe University Education Faculty, 23, 259-266.

24. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press, Cambridge.

25. Xoliqov, A. A. (2020). O‘zbekistonda biologiya o‘qituvchilarini tayyorlash tizimini takomillashtirish muammolari. Pedagogika va psixologiya, 4(2), 45-53.

26. Yo‘ldoshev, J. G‘. (2018). Biologiya ta’limida ilmiy metodologiya asoslarini o‘qitishning zamonaviy holati. O‘zbekiston milliy universiteti xabarlari, 3, 112-118.

TABIIY FANLARNI O’QITISHDA MATEMATIK MODELLASHTIRISHNING SAMARDORLIGINI TAJRIBADA SINOVDAN O’TKAZISH TEXNOLOGIYASI

Shoimova Nargiza Beknazarovna,
Shahrisabz pedagogika instituti, “Aniq va tabiiy fanlarni o’qitish metodikasi” magistranti
shoimovanargiza86@gmail.com
orcid:0009-0004-7723-366x

Mazkur maqolada tabiiy fanlarni o‘qitish jarayonida matematik modellashtirish texnologiyasidan foydalanishning nazariy asoslari, didaktik imkoniyatlari hamda amaliy ahamiyati yoritilgan. Matematik modellashtirish orqali o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, muammoli vaziyatlarni hal etish va fanlararo integratsiyani rivojlantirish masalalari ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, biologiya, fizika va kimyo fanlarini o‘qitishda matematik modellashtirish texnologiyasidan foydalanish misollari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *modellashtirish, tabiiy fanlar, matematik model, kompyuter simulyatsiyasi, ilmiy tadqiqot.*

ТЕХНОЛОГИЯ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЙ ПРОВЕРКИ ЭФФЕКТИВНОСТИ МАТЕМАТИЧЕСКОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ В ПРЕПОДАВАНИИ ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК

В данной статье рассматриваются теоретические основы, дидактические возможности и практическое значение использования технологии математического моделирования в процессе обучения естественным наукам. Посредством математического моделирования научно обоснованы вопросы формирования у обучающихся логического мышления, аналитических умений, навыков решения проблемных ситуаций, а также развития междисциплинарной интеграции. В статье также приведены примеры применения технологии математического моделирования при обучении биологии, физике и химии.

Ключевые слова: *математическое моделирование, естественные науки, инновационные технологии, междисциплинарная интеграция, эффективность обучения.*

TECHNOLOGY FOR EXPERIMENTAL TESTING OF THE EFFECTIVENESS OF MATHEMATICAL MODELING IN TEACHING NATURAL SCIENCES

This article examines the theoretical foundations, didactic possibilities, and practical significance of using mathematical modeling technology in the teaching of natural sciences. Through mathematical modeling, the issues of developing students’ logical thinking, analytical skills, problem-solving abilities, and interdisciplinary integration are scientifically substantiated. The article also presents examples of the application of mathematical modeling technology in teaching biology, physics, and chemistry.

Key words: *mathematical modeling, natural sciences, innovative technology, interdisciplinary integration, educational effectiveness.*

Zamonaviy ta’lim tizimida tabiiy fanlarni o‘qitish jarayonini takomillashtirish, o‘quvchilarda ilmiy tafakkurni shakllantirish hamda nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Xususan, fizika, kimyo, biologiya va geografiya kabi tabiiy fanlarni o‘qitishda fanlararo integratsiyani ta’minlash, murakkab jarayon va hodisalarni chuqur anglashga yordam beradigan samarali pedagogik texnologiyalarni joriy etish ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Aniq va tabiiy fanlar – bu fanlar sohasi o‘quvchilarni mantiqiy tafakkurga, ilmiy izlanishlarga va amaliy ko‘nikmalarga o‘rgatadi. Ushbu fanlarni o‘qitish jarayonida matematika va axborot texnologiyalarining roli beqiyosdir. Matematikaga asoslangan hisoblash va modellashtirish metodlari, axborot texnologiyalari yordamida o‘qitish, fanlarni o‘rganishni yanada samarali va interaktiv qiladi. O‘quvchilarga aniq fanlar haqida nafaqat nazariy bilimlar, balki ularni real hayotdagi masalalarga qo‘llash imkoniyatlari ham taqdim etiladi. Kompyuter dasturlari va simulyatsiyalar, masalan, Mathematica, MATLAB, GeoGebra kabi vositalar yordamida matematik va tabiiy fanlar o‘qituvchilari o‘quvchilarni yanada chuqurroq va tushunarliroq bilimlar bilan ta'minlashlari mumkin. Maqola, aynan shu nuqtayi nazardan, matematika va axborot texnologiyalarini integratsiyalashgan holda aniq va tabiiy fanlarni

o‘qitishda qo‘llaniladigan metodlar va dasturiy vositalarni tahlil qiladi [1,2]. Aniq va tabiiy fanlarni o‘qitishda matematika va axborot texnologiyalarining o‘rni beqiyos va tobora ortib bormoqda. Zamonaviy dunyoda ilm-fan va texnologiyaning jadal rivojlanishi, ta’lim tizimida ham yangi yondashuvlarni talab etmoqda. Bu borada matematika va axborot texnologiyalari fanlarni chuqur o‘zlashtirish, tahlil qilish, modellashtirish va bashoratlash imkoniyatlarini kengaytirib, ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda muhim rol o‘ynaydi. Matematika, o‘z mohiyati bilan aniqlik, mantiq va izchillikka asoslangan holda, boshqa fanlar uchun mustahkam poydevor vazifasini bajaradi. Fizika, kimyo, biologiya, astronomiya kabi tabiiy fanlarda matematik formulalar, tenglamalar va modellashtirish usullari orqali tabiatdagi jarayonlar va hodisalar miqdor jihatdan o‘rganiladi, tahlil qilinadi va bashorat qilinadi. Aniq fanlar sohasida esa, matematika fanining fundamental bilimlari va prinsiplari asosida turli xil muammolarni yechish, murakkab hisoblashlarni amalga oshirish va ilmiy kashfiyotlar qilish imkoniyati yaratiladi.

Shu nuqtayi nazardan, matematik modellashtirish texnologiyasi tabiiy fanlarni o‘qitishda muhim metodik vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Matematik modellashtirish yordamida real obyektlar, jarayonlar va hodisalar matematik ifodalar, tenglamalar, grafiklar va algoritmlar orqali tasvirlanib, ularning xossalari va qonuniyatlarini chuqur tahlil qilish imkoniyati yaratiladi. Bu esa o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish, muammoni tahlil qilish, bashorat qilish va xulosalar chiqarish kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Hozirgi globallashuv va ilmiy-texnik taraqqiyot sharoitida ta’lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan asosiy vazifalardan biri – o‘quvchilarda zamonaviy bilimlar bilan bir qatorda, tahliliy va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iboratdir. Ayniqsa, tabiiy fanlarni o‘qitishda nazariy bilimlarning hayotiy jarayonlar bilan uzviy bog‘liqligini ta’minlash, o‘quvchilarning fanlarga bo‘lgan qiziqishini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda an’anaviy o‘qitish usullari bilan birga innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarurati yuzaga kelmoqda.

Tabiiy fanlar mazmunini chuqur o‘zlashtirishda matematik modellashtirish texnologiyasi samarali vositalardan biri hisoblanadi. Matematik modellashtirish real obyekt va hodisalarning mohiyatini matematik til orqali ifodalash, ularning o‘zaro bog‘liqligi va rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash imkonini beradi. Ushbu texnologiya yordamida murakkab tabiiy jarayonlar soddalashtirilgan model ko‘rinishida o‘rganilib, o‘quvchilarning abstrakt tafakkuri va mantiqiy tahlil qilish qobiliyati rivojlanadi.

Shuningdek, matematik modellashtirish tabiiy fanlar va matematika fanlari o‘rtasidagi uzviy integratsiyani ta’minlab, o‘quvchilarda fanlararo bilimlar tizimini shakllantirishga xizmat qiladi. Kompyuter texnologiyalari bilan uyg‘un holda qo‘llanilganda esa, modellashtirish jarayoni yanada samarali bo‘lib, ta’lim oluvchilarning mustaqil izlanish, tajriba o‘tkazish va xulosalar chiqarish faoliyatini faollashtiradi.

Mazkur maqolada tabiiy fanlarni o‘qitishda matematik modellashtirish texnologiyasidan foydalanishning pedagogik ahamiyati, metodik imkoniyatlari hamda ta’lim jarayonidagi samaradorligi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tabiiy fanlarni o‘qitishda matematik modellashtirish texnologiyasidan foydalanish masalasi so‘nggi yillarda pedagogika va fanlar metodikasi sohasida olib borilayotgan tadqiqotlarda muhim o‘rin egallab kelmoqda. Ushbu yo‘nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlar matematik modellashtirishning o‘quv jarayonidagi didaktik imkoniyatlari, metodik asoslari hamda o‘quvchilarning bilish faoliyatiga ta’sirini o‘rganishga qaratilgan.

Xususan, xorijiy tadqiqotchilar tomonidan matematik modellashtirish ta’lim jarayonida real muammolarni hal etish, o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish va fanlararo integratsiyani ta’minlashning samarali vositasi sifatida talqin etiladi. J. Pollak, H. Blum, R. Lesh va M. Doerrlarning ilmiy ishlarida matematik modellashtirish o‘quvchilarni real hayotiy vaziyatlarni matematik tilda ifodalashga, model yaratish, uni tekshirish va takomillashtirish bosqichlarini izchil amalga oshirishga o‘rgatishi ta’kidlangan. Ushbu yondashuv tabiiy fanlarni o‘qitishda nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash imkonini beradi.

MDH va mahalliy olimlar tadqiqotlarida esa matematik modellashtirish texnologiyasining metodik jihatlari, uni o‘quv fanlari mazmuniga integratsiyalash masalalari keng yoritilgan. Jumladan, V.P. Bespalko, N.F. Talizina va L.S. Vygotskiylarning ilmiy qarashlarida o‘quv jarayonini texnologiyalashtirish, faoliyatga yo‘naltirilgan ta’lim va rivojlantiruvchi ta’lim konsepsiyalari matematik modellashtirish bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qilinadi. Ularning fikricha, modellashtirish o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiruvchi muhim vosita hisoblanadi.

Matematik modellashrish bu real hayotdagi jarayonlarni va hodisalarni matematik til (formula, tenglama, grafik, algoritm, jadval) yordamida ifodalash o’rganish va tahlil jarayonidi hisoblanadi.matematik modellashtirishning ahamiyati murakkab jarayonlarni tushunishga yordam beradi, oldindan bashorat qilish imkonini beradi, fan va texnika rivojining asosi hisoblanadi, tabiiy fanlar, iqtisod, tibbiyotda keng qo’llaniladi, ta’limda mantiqiy va analitik fikrlashni oshiradi.

Matematik modellashtirish texnologiyasining metodologik asoslari modellashtirish texnologiyasi tizimli yondashuv, faoliyatga yo‘naltirilgan ta’lim va kompetensiyaviy yondashuv konsepsiyalariga tayangan holda amalga oshiriladi. Mazkur texnologiyaning metodologik asoslari quyidagilardan iborat. Obyekt va hodisalarni abstraksiyalash va ideallashtirish, asosiy parameter va bog’lanishlarni aniqlash, matematik modelni qurish, model asosida tahlil va sintez jarayonlarini amalga oshirish, natijalarni interpretatsiya qilish va verifikatsiyalashdan iborat.

Ushbu bosqichlar o‘quvchilarda ilmiy-tadqiqot faoliyati elementlarini shakllantirishga xizmat qiladi hamda ularning mustaqil fikrlash salohiyatini oshiradi.

Tabiiy fanlarni o‘qitishda matematik modellashtirishning didaktik imkoniyatlari.

Tabiiy fanlar – biologiya, fizika, kimyo va geografiya fanlari murakkab tizimli jarayonlarni o‘rganishni talab etadi. Matematik modellashtirish texnologiyasi mazkur fanlarni o‘qitishda quyidagi didaktik imkoniyatlarni ta’minlaydi:

1.fanlararo integratsiyani kuchaytiradi;

2.abstrakt tushunchalarni vizuallashtirish imkonini yaratadi;

3.muammoli ta’lim elementlarini samarali tashkil etadi;

4.o‘quvchilarning kognitiv faolligini oshiradi;

5.bilimlarni amaliy faoliyatga yo‘naltiradi.

Masalan, biologiyada populyatsiya dinamikasini differensial tenglamalar orqali tahlil qilish, fizikada mexanik va termodinamik jarayonlarni matematik modellash, kimyoda reaksiya kinetikasini modellashtirish orqali o‘quvchilar murakkab jarayonlarning mohiyatini chuqur anglaydi.

Matematik modellashtirish texnologiyasining pedagogik samaradorligi.

Pedagogik tajribalar shuni ko‘rsatadiki, matematik modellashtirish texnologiyasidan foydalanilgan darslar o‘quvchilarning bilim sifati va ta’lim natijalarini sezilarli darajada oshiradi. Ushbu texnologiya: o‘quvchilarning tanqidiy va analitik fikrlashini rivojlantiradi, ilmiy muammolarni hal etish ko‘nikmalarini shakllantiradi, nazariy bilimlarni real hayotiy vaziyatlar bilan bog‘laydi, ta’lim jarayonining interfaolligini ta’minlaydi.

Shuningdek, matematik modellashtirish axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan integratsiyalashganda ta’limning innovatsion xarakteri yanada kuchayadi.

Tabiiy fanlarda modellashtirishning ahamiyati.

Fizikadagi modellashtirish. Fizika fanida modellashtirish asosiy tadqiqot usullaridan biri hisoblanadi. Mexanika, termodinamika, elektromagnetizm va kvant fizikasida ko‘plab jarayonlar matematik modellar orqali ifodalanadi. Masalan, jismlarning harakati differensial tenglamalar yordamida tavsiflanadi, murakkab fizik tizimlar esa kompyuter simulyatsiyasi orqali o‘rganiladi.

Fizik modellar tajriba o‘tkazish qiyin yoki imkonsiz bo‘lgan holatlarda, ayniqsa, muhim ahamiyatga ega. Kosmik jarayonlar, yadro reaksiyalari yoki yuqori energiyali hodisalarni o‘rganishda modellashtirish muqobil ilmiy vosita sifatida xizmat qiladi.

Fizik modellashtirish asosida o‘qitish samaradorligi (to‘ldirilgan jadval)

Ko’rsatkichlar	Nazorat guruhi (an’anaviy o’qitish)	Tajriba guruhi (fizik+matematik modellashtirish asosida)	O’sish/ Farq(%)
O’quvchilar soni	25	25	-
Boshlang’ich bilim darajasi (o’rtacha ball)	54	55	+1.8%
Yakuniy bilim darajasi (o’rtacha ball)	68	82	+20.6%
Bilim o’sishhi(ball)	14	27	+92.8%
Fizik jarayonni modellashtirishni tushuntirish(%)	60%	88%	+28%
Matematik ifodalash (formula, tenglama tuzish %)	58%	85%	+27%
Grafik sxema bilan ishlash ko‘nikmasi (%)	62%	87%	25%
Masala yechish ko’nikmasi	65%	90%	+25%
Mustaqil fikrlash darajasi (%)	63%	89%	+26%
Darsdagi faollik (%)	67%	92%	+25%

Kimyoda modellashtirish. Kimyo fanida modellashtirish kimyoviy reaksiyalar mexanizmini, moddalarning tuzilishini va reaksiyalar tezligini o‘rganishda keng qo‘llaniladi. Molekulyar modellashtirish yordamida atom va molekulalarning o‘zaro ta’siri tahlil qilinib, yangi moddalarning xossalari oldindan baholanadi.

Bunday modellar kimyoviy tajribalar sonini kamaytirish, vaqt va moddiy resurslarni tejash imkonini beradi. Ayniqsa, farmatsevtika va materialshunoslik sohalarida modellashtirishning ahamiyati beqiyosdir.

Kimyo fanida matematik modellashtirish asosida o‘qitish samaradorligini baholash jadvali

Ko‘rsatkichlar	**Nazorat guruhi (an’anaviy o‘qitish)**	**Tajriba guruhi (kimyoviy + matematik modellashtirish asosida)**	**O‘sish / Farq (%)**
Yakuniy bilim darajasi (o’rtacha ball)	67	83	+23.9%14
Bilim o’sishi (ball)	14	29	+107%
Kimyoviy jarayonlarni tushunish(%)	61%	90%	+29%
Kimyoviy tenglamalarni tuzish(%)	59%	87%	+28%
Masalalarni yechish (stoixometriya va h.z)	62%	88%	+26%
Grafik va diagrammalar bilan ishlash(%)	60%	86%	+26%
Mustaqil fikrlash darajasi (%)	64%	89%	+25%
Amaliy tajribalarni tushunish (%)	63%	91%	+28%
Darsdagi faollik (%)	66%	93%	+27%

Biologiyada modellashtirish. Biologik tizimlar o‘zining murakkabligi va ko‘p bosqichliligi bilan ajralib turadi. Populyatsiyalar dinamikasi, ekologik tizimlar, hujayra ichidagi jarayonlar biologik modellar yordamida o‘rganiladi. Masalan, epidemiologik m odellar yuqumli kasalliklarning tarqalish jarayonini tahlil qilish va oldini olish choralarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Biologik modellashtirish tirik organizmlardagi jarayonlarni chuqur tushunishga yordam berib, tibbiyot va ekologiya sohalarida ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini yaratadi.

Biologiya fanida biologik modellashtirish asosida o‘qitish samaradorligini baholash jadvali

Ko‘rsatkichlar	Nazorat guruhi (an’anaviy o‘qitish)	Tajriba guruhi (biologik + matematik modellashtirish asosida)	O‘sish / Farq (%)
O‘quvchilar soni	26	26	—
Boshlang‘ich bilim darajasi (o‘rtacha ball)	55	56	+1.8%
Yakuniy bilim darajasi (o‘rtacha ball)	70	85	+21.4%
Bilim o‘sishi (ball)	15	29	+93.3%
Biologik jarayonlarni tushunish (%)	63%	91%	+28%
Jarayonlarni modellashtirish (masalan: populyatsiya, oziq zanjiri) (%)	60%	88%	+28%
Grafik va diagrammalar bilan ishlash (%)	62%	87%	+25%
Masalalar va tahlil qilish ko‘nikmasi (%)	64%	89%	+25%
Mustaqil fikrlash darajasi (%)	65%	90%	+25%
Amaliy kuzatish va tajribani tahlil qilish (%)	67%	92%	+25%
Darsdagi faollik (%)	68%	94%	+26%

Yer haqidagi fanlarda modellashtirish. Geofizika, meteorologiya va ekologiyada modellashtirish tabiiy ofatlar, iqlim o‘zgarishi va atrof-muhit jarayonlarini o‘rganishda qo‘llaniladi. Iqlim modellaridan foydalanib, global isish jarayoni va uning oqibatlari bashorat qilinadi. Bu esa tabiatni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim rol o‘ynaydi.

Zamonaviy texnologiyalar va modellashtirish. Kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi modellashtirish imkoniyatlarini tubdan kengaytirdi. Katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash, murakkab

hisoblashlarni bajarish va vizual simulyatsiyalar yaratish imkoniyati ilmiy tadqiqotlar sifatini oshirdi. Natijada modellashtirish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ega kuchli ilmiy vositaga aylandi.

Muhokama. Matematika va integratsiyasi o‘quvchilarga fanlarni o‘rganishda yangi imkoniyatlar yaratadi. Masalan, GeoGebra dasturi yordamida matematikaviy funksiyalarni interaktiv tarzda ko‘rsatish, geometrik shakllar yaratish va analiz qilish o‘quvchilarning diqqatini o‘ziga jalb qiladi va bilimlarni tez o‘zlashtirishga yordam beradi. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilarda analitik fikrlashni rivojlantiradi. Shuningdek, simulyatsiyalar va modellashtirish yordamida o‘quvchilar fanlarni o‘rganish jarayonini ancha qiziqarli va samarali o‘tkazadilar. MATLAB va Mathematica dasturlari yordamida aniq fanlar, masalan, fizika yoki kimyo bo‘yicha turli vazifalarni yechish imkoniyati yaratiladi. Bu dasturlar yordamida nafaqat hisob-kitoblarni bajarish, balki natijalarni grafik va vizual tarzda taqdim etish ham mumkin, bu esa o‘quvchilarga nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq etish imkonini beradi. Axborot texnologiyalari yordamida o‘qitishda interaktiv vositalar va dasturlarni qo‘llash, ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Bu esa o‘quvchilarning ko‘nikmalarini mustahkamlash va o‘rganilgan mavzularni hayotda qo‘llashga yordam beradi.

Natijalar. Matematika va axborot texnologiyalarining integratsiyasi o‘qituvchilarga o‘quvchilarga chuqurroq bilim berish, ularning mustaqil fikrlash va muammolarni hal etish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatini yaratadi. O‘quvchilarda axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali ko‘proq bilimlarni vizual va interaktiv tarzda o‘zlashtirishga yordam beradi. Shu bilan birga, axborot texnologiyalari o‘qituvchilarga darslarni rejalashtirishda, talabalarga individual yondashuvda yordam berishda katta imkoniyatlar yaratadi. Matematika va tabiiy fanlar o‘qitishda foydalanuvchi do‘stona va intuitiv dasturlarni qo‘llash o‘quvchilarga o‘qish jarayonini osonlashtiradi va samarali qilishga yordam beradi.

Tabiiy fanlarda modellashtirish ilmiy bilish jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. U murakkab tabiiy jarayonlarni soddalashtirilgan shaklda o‘rganish, ularning asosiy qonuniyatlarini aniqlash va kelajakdagi holatini bashorat qilish imkonini beradi. Modellashtirish tajriba va nazariyani o‘zaro bog‘lab, ilmiy tadqiqotlarning samaradorligini oshiradi. Shu bois modellashtirish usullarini chuqur o‘rganish va amaliyotda qo‘llash zamonaviy tabiiy fanlar rivojining muhim sharti hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, matematik modellashtirish texnologiyasi tabiiy fanlarni o‘qitishda ilmiy-metodik jihatdan yuqori samaradorlikka ega bo‘lgan innovatsion pedagogik texnologiya hisoblanadi. Ushbu texnologiya o‘quvchilarda ilmiy tafakkur, tizimli fikrlash va kompetensiyaviy yondashuv asosida bilimlarni egallash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shu bois, matematik modellashtirish texnologiyasini tabiiy fanlar ta’limiga tizimli ravishda joriy etish zamonaviy ta’limning strategik vazifalaridan biridir.

Adabiyotlar:

1. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent.
2. Qodirov A., Xudoyberganov R. Tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi. – Toshkent.
3. Polat E.S. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari. – Moskva.
4. Lesh R., Doerr H. Beyond Constructivism: Models and Modeling Perspectives on Mathematics Problem Solving.
5. Hestenes D. Modeling Methodology for Physics Teachers.
6. Samarskiy A.A. *Matematicheskoe modelirovanie*. — Moskva: Nauka, 2005.
7. Murray J.D. *Mathematical Biology*. — Springer, 2002.
8. Haken H. *Synergetics*. — Springer-Verlag, 1983.
9. Trenberth K.E. *Climate System Modeling*. — Cambridge University Press, 1992.

UO’K 1.37.50.53

MOLEKULYAR FIZIKA BO‘LIMINI O‘QITISHDA INTERAKTIV ANIMATSIYALARNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti...
Ilmiy rahbar: v.b. dotsent (PhD)
ORCID: 0009-0002-9330-9287
nomozova23@mail.com
Murtazayev Zohid Murtazayevich,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti assistent o‘qituvchisi
zohidmurtazayev706@gmail.com
ORCID: 0009-0006-6942-3548
Suyarova Dilnoza Qobiljon qizi,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti Fizika va astronomiya yo‘nalishi 4-bosqich talabasi

Ushbu maqolada molekulyar fizika bo‘limini o‘qitishda interaktiv animatsiyalardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’lim jarayonida murakkab fizik jarayonlarni vizual modellashtirish orqali tushuntirish o‘quvchilarning nazariy bilimlarini chuqurroq anglashiga xizmat qiladi. Tadqiqotning maqsadi molekulyar fizika mavzularini o‘qitishda interaktiv animatsiyalarni qo‘llash samaradorligini aniqlash hamda ularning didaktik va metodik imkoniyatlarini ilmiy asosda yoritishdan iborat. Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatish, taqqoslash, tajriba-sinov ishlari hamda tahlil metodlaridan foydalanildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, interaktiv animatsiyalar molekulalarning harakati, gazlarning kinetik nazariyasi, diffuziya, issiqlik almashinuvi kabi jarayonlarni o‘quvchilarga aniq va obrazli tasavvur qilish imkonini beradi. Shuningdek, animatsiyalar o‘quvchilarning bilish faolligini oshiradi, mustaqil fikrlashni rivojlantiradi va o‘quv jarayonining samaradorligini sezilarli darajada kuchaytiradi. Tadqiqot natijalari asosida molekulyar fizika bo‘limini o‘qitishda interaktiv animatsiyalardan foydalanish o‘quvchilarning bilimlarni ongli o‘zlashtirishiga hamda fizik tushunchalarning yaxlit tizim sifatida shakllanishiga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Kalit so‘zlar: *molekulyar fizika, interaktiv animatsiya, vizual modellashtirish, pedagogik texnologiya, fizik ta’lim, o‘qitish metodikasi, raqamli ta’lim vositalari, ta’lim samaradorligi.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ИНТЕРАКТИВНЫХ АНИМАЦИЙ ПРИ ОБУЧЕНИИ РАЗДЕЛУ МОЛЕКУЛЯРНОЙ ФИЗИКИ

В данной статье рассматриваются педагогические возможности использования интерактивных анимаций при обучении разделу молекулярной физики. В современных условиях цифровизации образования визуализация сложных физических процессов с помощью анимационных моделей способствует более глубокому пониманию теоретических понятий учащимися. Цель исследования заключается в определении эффективности применения интерактивных анимаций при изучении тем молекулярной физики и научном обосновании их дидактического потенциала. В процессе исследования использовались методы педагогического наблюдения, сравнительного анализа, экспериментальной проверки и обобщения результатов. Полученные результаты показывают, что применение интерактивных анимаций позволяет наглядно представить движение молекул, основные положения кинетической теории газов, процессы диффузии и теплопередачи. Кроме того, использование анимационных средств способствует повышению познавательной активности учащихся, развитию их аналитического мышления и формированию устойчивых научных представлений о физических явлениях. В результате исследования установлено, что интеграция интерактивных анимаций в процесс преподавания молекулярной физики повышает качество усвоения учебного материала и способствует формированию системных знаний по физике.

Ключевые слова: *молекулярная физика, интерактивная анимация, визуальное моделирование, педагогические технологии, обучение физике, методика преподавания, цифровые образовательные ресурсы, эффективность обучения.*

PEDAGOGICAL POTENTIAL OF INTERACTIVE ANIMATIONS IN TEACHING THE

MOLECULAR PHYSICS SECTION

This article analyzes the pedagogical potential of using interactive animations in teaching the molecular physics section. In modern education, explaining complex physical processes through visual modeling helps students develop a deeper understanding of theoretical knowledge. The purpose of the study is to determine the effectiveness of using interactive animations in teaching molecular physics topics and to scientifically substantiate their didactic and methodological potential. During the research, pedagogical observation, comparison, experimental work, and analysis methods were employed. The results showed that interactive animations enable students to clearly and vividly understand processes such as molecular motion, the kinetic theory of gases, diffusion, and heat transfer. Moreover, animations increase students' cognitive activity, develop independent thinking, and significantly enhance the effectiveness of the learning process. Based on the findings, it is scientifically justified that the use of interactive animations in teaching molecular physics contributes to the conscious assimilation of knowledge and the formation of physical concepts as an integrated system.

Keywords: *molecular physics, interactive animation, visual modeling, pedagogical technology, physics education, teaching methodology, digital learning tools, learning effectiveness.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida tabiiy fanlarni, xususan fizika fanini o‘qitish jarayonini takomillashtirish dolzarb pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Fan va texnologiyalar jadal rivojlanayotgan sharoitda o‘quvchilarda ilmiy tafakkurni shakllantirish, murakkab fizik jarayonlarni tushunarli va tizimli tarzda anglatish ta’lim metodikasining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, molekulyar fizika bo‘limi o‘zining nazariy murakkabligi va ko‘plab mikroskopik jarayonlarni o‘z ichiga olishi bilan o‘quvchilar uchun qiyin o‘zlashtiriladigan mavzular qatoriga kiradi. Molekulalarning tartibsiz harakati, moddalarning ichki tuzilishi, diffuziya, issiqlik hodisalari kabi jarayonlar ko‘pincha bevosita kuzatib bo‘lmaydigan hodisalar sirasiga kiradi. Shu sababli ushbu jarayonlarni o‘qitishda an’anaviy tushuntirish metodlari bilan bir qatorda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish zarurati ortib bormoqda.

Bugungi kunda raqamli ta’lim muhitining shakllanishi o‘qitish jarayoniga yangi didaktik imkoniyatlarni olib kirmoqda. Xususan, interaktiv animatsiyalar murakkab fizik jarayonlarni vizual modellashtirish orqali o‘quvchilarning tushunishini sezilarli darajada yengillashtiradi. Animatsiyalar yordamida modda zarrachalarining harakati, molekulalar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir, gazlarning kinetik nazariyasi hamda termodinamik jarayonlarni dinamik tasvirlash mumkin. Bunday vizual vositalar o‘quvchilar ongida abstrakt fizik tushunchalarning aniq va tizimli shakllanishiga xizmat qiladi. Fizika ta’limi metodikasida vizuallik tamoyili muhim didaktik prinsip sifatida qaraladi. Mazkur tamoyilga ko‘ra, murakkab ilmiy tushunchalarni o‘zlashtirishda tasviriy va ko‘rgazmali vositalardan foydalanish o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi.

Fizika fanini o‘qitish metodikasi bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning nazariy bilimlarini mustahkamlashda vizual modellar, tajribalar va ko‘rgazmali vositalar muhim o‘rin tutadi. Jumladan, fizika ta’limida abstrakt jarayonlarni tushuntirish uchun turli didaktik vositalardan foydalanish o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga yordam beradi. Bu jarayonda zamonaviy axborot texnologiyalarining qo‘llanilishi ta’lim jarayonini yanada samarali tashkil etish imkonini beradi. Fizik hodisalarni modellashtirish orqali o‘quvchilar ularning mohiyatini chuqurroq anglay boshlaydilar. Shu bilan birga, o‘quvchilarning bilish faolligi, mustaqil fikrlashi va tahlil qilish qobiliyati rivojlanadi. Fizika ta’limi metodikasida ta’kidlanishicha, tabiiy jarayonlarni ko‘rgazmali tarzda ifodalash o‘quvchilarning bilimlarni ongli ravishda o‘zlashtirishiga xizmat qiladi.

Molekulyar fizika bo‘limini o‘qitishda animatsion texnologiyalar ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Sababi, ushbu bo‘limda o‘rganiladigan ko‘plab jarayonlar makroskopik darajada bevosita kuzatilmaydi. Molekulalarning harakati, zarrachalar o‘rtasidagi to‘qnashuvlar, gazlarning bosimi yoki diffuziya jarayonlari o‘quvchilarga faqat nazariy tasvir orqali tushuntiriladi. Animatsiyalar esa bunday jarayonlarni vizual shaklda namoyish etish imkonini beradi. Natijada o‘quvchilar murakkab fizik hodisalarni nafaqat eshitish yoki o‘qish orqali, balki ko‘rish orqali ham idrok etadilar. Bu esa bilimlarning mustahkam o‘zlashtirilishiga yordam beradi. Shuningdek, interaktiv animatsiyalar o‘quvchilarni faol ta’lim jarayoniga jalb etadi, ularning qiziqishini oshiradi va mustaqil tadqiqot olib borishga undaydi.

Pedagogika va ta’lim texnologiyalari sohasidagi tadqiqotlar ham zamonaviy axborot vositalari asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarning bilim olish motivatsiyasini oshirishini ko‘rsatadi. Interaktiv o‘qitish vositalari o‘quvchilarning o‘quv materialini mustaqil tahlil qilish, kuzatish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, tabiiy fanlar ta’limida raqamli vizual vositalar o‘quv

jarayonini yanada samarali tashkil etishga yordam beradi. Shu sababli zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda interaktiv animatsiyalarning ta’lim jarayonidagi o‘rni alohida o‘rganilmoqda. Ta’lim texnologiyalari nazariyasiga ko‘ra, axborot-kommunikatsiya vositalari asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlab, ularning bilimlarni mustaqil ravishda o‘zlashtirishiga sharoit yaratadi.

Shu nuqtai nazardan, molekulyar fizika bo‘limini o‘qitishda interaktiv animatsiyalarning pedagogik imkoniyatlarini ilmiy jihatdan o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqot fizika ta’limi jarayonida zamonaviy raqamli vositalardan foydalanish orqali o‘quvchilarning bilimlarini samarali shakllantirish imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot natijalari molekulyar fizika mavzularini o‘qitishda interaktiv animatsiyalarni qo‘llashning metodik asoslarini ishlab chiqishga hamda fizika ta’limining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot molekulyar fizika bo‘limini o‘qitishda interaktiv animatsiyalarning pedagogik imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, unda kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqotning metodologik asosini zamonaviy pedagogika, fizika ta’limi metodikasi hamda raqamli ta’lim texnologiyalarini integratsiyalashga oid ilmiy qarashlar tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida nazariy va empirik metodlar uyg‘un holda qo‘llanildi. Nazariy bosqichda ilmiy-pedagogik adabiyotlar, fizika o‘qitish metodikasi bo‘yicha darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar hamda ta’lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishga bag‘ishlangan tadqiqotlar tahlil qilindi. Mazkur tahlillar molekulyar fizika bo‘limini o‘qitishda vizual modellashtirish vositalarining didaktik ahamiyatini aniqlash imkonini berdi. Tadqiqot metodologiyasining muhim qismi sifatida tizimli yondashuv tamoyiliga asoslanildi. Ushbu yondashuvga ko‘ra o‘qitish jarayoni o‘zaro bog‘liq elementlardan tashkil topgan yaxlit pedagogik tizim sifatida qaraladi. Molekulyar fizika mavzularini o‘qitishda interaktiv animatsiyalar mazkur tizimning muhim tarkibiy komponenti sifatida talqin qilindi. Bunda animatsiyalar o‘quv materialining mazmuni, o‘qitish metodlari hamda o‘quvchilarning bilish faoliyati bilan o‘zaro integratsiyada qo‘llanildi. Fizik jarayonlarni vizual tasvirlash orqali abstrakt nazariy tushunchalarni konkretlashtirish mumkinligi ilmiy jihatdan asoslandi. Ayniqsa, molekulalarning tartibsiz harakati, diffuziya jarayoni, gazlarning kinetik nazariyasi, issiqlik energiyasining almashinuvi kabi jarayonlarni animatsiyalar orqali ko‘rsatish o‘quvchilarning tasavvurini sezilarli darajada boyitadi. Metodologik tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatish metodi ham keng qo‘llanildi. Mazkur metod o‘quv jarayonida interaktiv animatsiyalardan foydalanish jarayonini tabiiy sharoitda o‘rganish imkonini berdi. Kuzatish davomida o‘quvchilarning mavzuni o‘zlashtirish darajasi, ularning darsdagi faolligi hamda vizual materiallarga bo‘lgan qiziqishi tahlil qilindi. Shuningdek, kuzatish natijalari asosida animatsiyalardan foydalanish o‘quvchilarning bilimlarni idrok etish jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Fizik tushunchalarni o‘zlashtirish jarayonida vizual modellashtirish vositalari muhim didaktik rol o‘ynashi fizika o‘qitish metodikasiga oid ilmiy tadqiqotlarda ham ta’kidlab o‘tilgan [1]. Tadqiqot metodologiyasida taqqoslash metodi ham muhim o‘rin egalladi. Ushbu metod yordamida molekulyar fizika bo‘limini o‘qitishda an’anaviy tushuntirish usuli hamda interaktiv animatsiyalar asosida tashkil etilgan darslarning samaradorligi qiyosiy tahlil qilindi. Taqqoslash jarayonida o‘quvchilarning nazariy bilimlarni o‘zlashtirish darajasi, mavzularni tushunish tezligi hamda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarining shakllanishi o‘rganildi. Olingan natijalar animatsiyalar bilan boyitilgan darslarda o‘quvchilarning bilish faoliyati ancha yuqori darajada namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi. Bu esa interaktiv vizual vositalar o‘qitish jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qilishini tasdiqlaydi. Metodologik tadqiqot jarayonida pedagogik tajriba-sinov ishlari ham tashkil etildi. Tajriba jarayonida molekulyar fizika bo‘limining ayrim mavzulari interaktiv animatsiyalar asosida o‘qitildi. Tajriba-sinov ishlari ikki bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqichda molekulyar fizika mavzulari bo‘yicha animatsion materiallar tanlab olindi hamda ularning o‘quv jarayoniga integratsiyasi ishlab chiqildi. Ikkinchi bosqichda esa ushbu animatsiyalar asosida tashkil etilgan darslar o‘quv jarayonida sinovdan o‘tkazildi. Tajriba natijalari o‘quvchilarning mavzuni anglash darajasini aniqlashga qaratilgan nazorat topshiriqlari orqali baholandi. Natijalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, animatsiyalar yordamida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning mavzuni tushunish darajasini sezilarli darajada oshiradi. Tadqiqot metodologiyasida analitik va sintetik tahlil usullari ham qo‘llanildi. Analitik tahlil yordamida o‘quvchilarning bilim darajasi, o‘qitish jarayonining samaradorligi hamda animatsion vositalarning didaktik imkoniyatlari o‘rganildi. Sintetik tahlil orqali esa olingan natijalar umumlashtirilib, molekulyar fizika bo‘limini o‘qitishda interaktiv animatsiyalarning pedagogik samaradorligi haqida ilmiy xulosalar chiqarildi. Ushbu metodologik yondashuv fizika ta’limini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan boyitish zarurligini ko‘rsatadi. Tadqiqot metodologiyasining yana bir muhim jihati sifatida vizual modellashtirish konsepsiyasiga tayanildi. Mazkur konsepsiyaga ko‘ra murakkab fizik jarayonlarni grafik, animatsion va simulyatsion modellarda aks ettirish orqali o‘quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirish mumkin. Vizual modellashtirish o‘quvchilarning tasavvurini kengaytiradi, ularning analitik fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi hamda abstrakt tushunchalarni anglashni osonlashtiradi. Shu sababli

molekulyar fizika bo‘limini o‘qitishda animatsiyalar nafaqat ko‘rgazmali vosita, balki o‘qitishning samarali metodik instrumenti sifatida qaraladi. Fizika ta’limida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish o‘quv jarayonining sifatini oshirishga xizmat qilishi metodik adabiyotlarda ham alohida qayd etilgan[2]. Shunday qilib, tadqiqot metodologiyasi nazariy tahlil, pedagogik kuzatish, taqqoslash, tajriba-sinov hamda analitik-sintetik tahlil metodlari asosida shakllantirildi. Mazkur metodlar molekulyar fizika bo‘limini o‘qitishda interaktiv animatsiyalarning pedagogik imkoniyatlarini har tomonlama o‘rganish imkonini berdi hamda tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini ta’minladi.

Tahlil va natijalar. Molekulyar fizika bo‘limini o‘qitishda interaktiv animatsiyalardan foydalanishning samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tadqiqot jarayonida an’anaviy o‘qitish usullari bilan interaktiv animatsiyalar asosida tashkil etilgan darslar taqqoslab tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, molekulyar fizika mavzulari, xususan, moddaning tuzilishi, molekulalarning harakati, issiqlik hodisalari va gaz qonunlari kabi abstrakt tushunchalarni o‘quvchilarga yetkazishda interaktiv animatsiyalar muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Sababi, ushbu jarayonlarni oddiy tasavvur qilish o‘quvchilar uchun murakkab bo‘lib, vizual animatsiyalar orqali ularni aniq va tushunarli ko‘rsatish imkoniyati yaratiladi [3].

O‘quv jarayonida qo‘llanilgan interaktiv animatsiyalar (simulyatsiyalar, dinamik modellar, vizual tajribalar) quyidagi natijalarni berdi:

O‘quvchilarning mavzuni tushunish darajasi sezilarli oshdi. Tajriba guruhi o‘quvchilarining o‘zlashtirish ko‘rsatkichi nazorat guruhiga nisbatan yuqori bo‘ldi.

Murakkab fizik jarayonlarni (masalan, molekulalarning tartibsiz harakati, diffuziya, issiqlik almashinuvi) vizual tarzda ko‘rish orqali bilimlar mustahkamlandi.

O‘quvchilarda fan bo‘yicha qiziqish va motivatsiya ortdi, ular dars jarayonida faolroq ishtirok eta boshladi.

Mustaqil fikrlash va tahlil qilish ko‘nikmalari rivojlandi, chunki animatsiyalar interaktiv bo‘lib, o‘quvchi jarayonga bevosita ta’sir ko‘rsata oladi.

Tajriba natijalari asosida aniqlanishicha, interaktiv animatsiyalar yordamida o‘tilgan darslarda o‘quvchilarning o‘rtacha o‘zlashtirish darajasi 15–25% ga yuqori bo‘lgan. Bundan tashqari, bilimlarni uzoq muddat saqlab qolish (retensiya) darajasi ham sezilarli darajada yaxshilangan [5].

Shuningdek, tahlil jarayonida quyidagi pedagogik imkoniyatlar aniqlandi:

Abstrakt tushunchalarni konkretlashtirish imkoniyati;

Individual o‘qitish va differensial yondashuvni amalga oshirish;

O‘quvchilarning vizual va kinestetik o‘rganish uslublarini qo‘llab-quvvatlash;

Dars samaradorligini oshirish va vaqtni tejash;

Masofaviy ta’limda ham samarali qo‘llash imkoniyati.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, molekulyar fizika bo‘limini o‘qitishda interaktiv animatsiyalarni tizimli ravishda qo‘llash ta’lim sifatini oshiradi, o‘quvchilarning bilim darajasini chuqurlashtiradi va ularning ilmiy tafakkurini rivojlantiradi [6].

Xulosa va takliflar. Molekulyar fizika bo‘limini o‘qitishda interaktiv animatsiyalardan foydalanish ta’lim samaradorligini oshiruvchi muhim pedagogik vosita ekanligi tadqiqot natijalarida o‘z tasdig‘ini topdi. Mazkur yondashuv o‘quvchilarga abstrakt fizik jarayonlarni aniq tasavvur qilish, ularni chuqur anglash va amaliy jihatdan tahlil qilish imkonini beradi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, interaktiv animatsiyalar orqali tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning bilim darajasi, mustaqil fikrlash qobiliyati va fanlarga bo‘lgan qiziqishini sezilarli darajada oshiradi. Ayniqsa, molekulalarning harakati, issiqlik hodisalari va gaz qonunlari kabi murakkab mavzularni o‘zlashtirish jarayonida vizual vositalarning o‘rni beqiyosdir. Shuningdek, interaktiv animatsiyalar ta’lim jarayonini zamonaviylashtirish, o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undash hamda individual yondashuvni ta’minlashda samarali vosita sifatida namoyon bo‘ldi. Natijada, o‘quvchilarda nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy va tahliliy ko‘nikmalar ham shakllanadi. Umuman olganda, molekulyar fizika bo‘limini o‘qitishda interaktiv animatsiyalardan foydalanish ta’lim sifatini oshirishning innovatsion va istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Molekulyar fizika bo‘limini o‘qitishda interaktiv animatsiyalarni o‘quv dasturlariga tizimli ravishda kiritish zarur.

Fizika o‘qituvchilari uchun interaktiv animatsiyalar va raqamli texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha maxsus malaka oshirish kurslarini tashkil etish lozim.

Dars jarayonida zamonaviy simulyatsiya platformalari va virtual laboratoriyalardan keng foydalanish tavsiya etiladi.

Har bir mavzu bo‘yicha animatsion dars ishlanmalari, elektron qo‘llanmalar va metodik tavsiyalar ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

O‘quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda differensial va interaktiv topshiriqlar tizimini yaratish zarur.

Masofaviy ta’lim tizimida ham interaktiv animatsiyalarni keng joriy etish orqali ta’lim sifati va qamrovini oshirish mumkin.

Interaktiv vositalardan foydalanish samaradorligini baholash uchun monitoring va tahlil tizimini yo‘lga qo‘yish lozim [7].

Adabiyotlar:

Kvant fizikasi fizik ta’limning eng murakkab bo‘limlaridan biri bo‘lib, undagi ko‘plab tushunchalar intuitiv tasavvurga ega emas. Shu sababli potensial o‘radagi zarrachaning to‘lqin funksiyasi va ehtimollik zichligini tasvirlovchi model ishlab chiqildi.

```
Manipulate[Plot[{Sin[n*Pi*x/a]^2}, {x, 0, a}, PlotRange → {0, 2/a}, Filling → Axis,
  PlotLabel → "Potensial quduqdagi zarracha |ψ(x)|^2", AxesLabel → {"x", "|ψ(x)|^2"}],
 {{n, 1, "Kvant soni (n)"}, 1, 5, 1, Appearance → "Labeled"},
 {{a, 1, "Quduq kengligi"}, 0.5, 2, Appearance → "Labeled"}]
```

5-rasm. Bir o‘lchamli potensial o‘rada joylashgan zarrachaning kvant holatlariga mos to‘lqin funksiyasi va ehtimollik zichligining fazoviy taqsimoti

Modelda kvant sonlari o‘zgartirilganda energiya sathlari va ehtimollik taqsimotining qanday o‘zgarishi grafik ko‘rinishda namoyon etiladi. Bu esa o‘quvchilarga diskret energiya sathlari, ehtimollik amplitudasi va kvant holatlari haqidagi tasavvurlarni shakllantirish imkonini beradi.

Yuqorida keltirilgan modellar fizika fanining turli bo‘limlarida nazariy bilimlarni vizual va interaktiv shaklda namoyish etish orqali o‘quvchilarning mavzuni chuqurroq o‘zlashtirishiga xizmat qiladi.

Natijalar va muhokama. Tadqiqot davomida yaratilgan interaktiv modellarni pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilish natijasida kompyuter modellashtirishning bir qator afzalliklari aniqlandi. Avvalo, modellar fizik hodisalarni vizual tarzda namoyish etishi tufayli o‘quvchilarning abstrakt tushunchalarni qabul qilish jarayoni yengillashadi. Ayniqsa, elektr maydon, interferensiya, Braun harakati va kvant holatlari kabi murakkab mavzularni tushuntirishda vizual modellashtirish yuqori samaradorlikka ega ekanligi kuzatildi. Interaktiv simulyatsiyalar o‘quvchilarning passiv kuzatuvchi emas, balki faol tadqiqotchi sifatida ishtirok etishiga imkon yaratadi. Parametrlarni mustaqil ravishda o‘zgartirish va natijalarni tahlil qilish jarayonida ularda ilmiy tafakkur, muammoli vaziyatlarni hal qilish va tadqiqotchilik kompetensiyalari rivojlanadi. Adabiyotlar tahlili natijalari ham mazkur xulosalarni tasdiqlaydi. Xususan, Banda va Nzabahimana [1] hamda Wieman va hammualliflar [2] tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda interaktiv simulyatsiyalardan foydalanish o‘quvchilarning akademik natijalari va motivatsiyasini oshirishi ko‘rsatib berilgan. Jimoyiannis va Komis [5] esa kompyuter modellashtirishning fizik tushunchalarni shakllantirishdagi ijobiy ta’sirini ilmiy jihatdan asoslaganlar.

Tadqiqot natijalari Wolfram Mathematica dasturining nafaqat matematik hisoblash vositasi, balki zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amalga oshirishga xizmat qiluvchi samarali ta’lim platformasi ekanligini ko‘rsatdi. Dastur yordamida yaratilgan modellar nazariya va amaliyot o‘rtasidagi bog‘liqlikni

kuchaytirib, fizik jarayonlarni chuqurroq anglashga yordam beradi. Shuningdek, Mathematica dasturining STEM ta’lim konsepsiyasiga mosligi aniqlandi. Fizika, matematika, dasturlash va ma’lumotlarni tahlil qilish elementlarining yagona muhitda integratsiyalashuvi o‘quvchilarda fanlararo kompetensiyalarni rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi.

Olingan natijalar Wolfram Mathematica dasturidan umumiy o‘rta ta’lim maktablari, akademik litseylar va oliy ta’lim muassasalarida fizika fanini o‘qitishda keng foydalanish maqsadga muvofiq ekanligini ko‘rsatadi.

Xulosa. Zamonaviy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Fizika fanini o‘qitishda kompyuter modellashtirish texnologiyalaridan foydalanish murakkab va mavhum fizik hodisalarni vizual hamda interaktiv shaklda namoyish etish imkonini yaratadi. Bu esa o‘quvchilarning nazariy bilimlarini chuqurroq o‘zlashtirishiga, fizik qonuniyatlar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni anglashiga va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida Wolfram Mathematica dasturining fizika ta’limida qo‘llanilish imkoniyatlari tahlil qilindi hamda mexanika, elektrodinamika, molekulyar fizika, optika va kvant fizikasi bo‘limlari uchun interaktiv modellar yaratildi. Yaratilgan modellar fizik jarayonlarning matematik tavsifi, grafik tasviri va animatsion ko‘rinishini yagona muhitda birlashtirishi bilan ajralib turadi. Bu esa o‘quvchilarga fizik hodisalarni nafaqat kuzatish, balki ularning parametrlarini boshqarish va natijalarni tahlil qilish imkoniyatini ham beradi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, Wolfram Mathematica asosida tashkil etilgan interaktiv modellashtirish o‘quvchilarning fizik tushunchalarni o‘zlashtirish darajasi, o‘quv motivatsiyasi va tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Ayniqsa, elektr maydonlar, interferensiya hodisalari, Braun harakati va kvant tizimlari kabi murakkab mavzularni o‘qitishda kompyuter modellashtirishning didaktik imkoniyatlari yuqori ekanligi aniqlandi. Shuningdek, Mathematica dasturining matematik hisoblash, sonli modellashtirish, ma’lumotlarni qayta ishlash va vizualizatsiya imkoniyatlari STEM ta’lim konsepsiyasini amaliyotga joriy etishda samarali platforma bo‘lib xizmat qilishi asoslandi. Dastur yordamida fizika, matematika va axborot texnologiyalari o‘rtasidagi integratsiyani ta’minlash, fanlararo kompetensiyalarni shakllantirish hamda raqamli ta’lim muhitini rivojlantirish imkoniyatlari kengayadi. Kelgusida Wolfram Mathematica dasturining sun’iy intellekt texnologiyalari bilan integratsiyalashgan imkoniyatlarini fizika ta’limiga joriy etish, virtual laboratoriyalarni takomillashtirish hamda adaptiv interaktiv o‘quv modellarini ishlab chiqish istiqbolli tadqiqot yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralishi mumkin.

Shunday qilib, Wolfram Mathematica dasturidan foydalanish fizika fanini o‘qitish sifatini oshirish, o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish va zamonaviy raqamli ta’lim texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Banda HJ, Nzabahimana J. *The Impact of Physics Education Technology (PhET) Interactive Simulation-Based Learning on Motivation and Academic Achievement Among Malawian Physics Students.* J Sci Educ Technol. 2023;32(1):127-141. doi: 10.1007/s10956-022-10010-3. Epub 2022 Dec 19. PMID: 36569225; PMCID: PMC9761040.
2. Wieman, C. & Adams, Wendy & Perkins, Katherine. (2008). Physics. *PhET: Simulations that enhance learning.* Science (New York, N.Y.). 322. 682-3. 10.1126/science.1161948.
3. Holec S., Pfefferová M. *Using Simulations in Physics Education.* Proceedings of International Conference on Physics Education, 2006.
4. Candido, Keneth & Gillesania, King & Mercado, Justine & Reales, Joy Mae. (2022). *Interactive Simulation on Modern Physics: A Systematic Review.* International Journal of Multidisciplinary: Applied Business and Education Research. 3. 1452-1462. 10.11594/ijmaber.03.08.08.

5. Jimoyiannis, Athanassios & Komis, Vassilis. (2001). *Computer simulations in physics teaching and learning: A case study on students' understanding of trajectory motion.* Computers & Education. 36. 183-204. 10.1016/S0360-1315(00)00059-2.

6. Karamustafaoglu O. *How Computer-Assisted Teaching in Physics Can Enhance Student Learning.* Educational Research and Reviews, 2012, Vol. 7, No. 13, pp. 297-302.

7. Yaipén-Gonzales H.F., Joo L.A.P., Montenegro-Camacho L. et al. *Virtual Simulators in the Teaching-Learning of Chemistry and Physics: A Systematic Review of the Literature.* International Journal of Multidisciplinary Sciences and Technology, 2023, Vol. 10, No. 4, pp. 632-641.

8. Smetana L.K., Bell R.L. *Computer Simulations to Support Science Instruction and Learning: A Critical Review of the Literature.* International Journal of Science Education, 2012, Vol. 34, No. 9, pp. 1337-1370.

9. Rutten N., Van Joolingen W.R., Van der Veen J.T. *The Learning Effects of Computer Simulations in Science Education.* Computers & Education, 2012, Vol. 58, No. 1, pp. 136-153.

10. Wolfram S. *An Elementary Introduction to the Wolfram Language.* Champaign: Wolfram Media Inc., 2017. 325 p.

11. Wolfram Research. Wolfram Mathematica Documentation Center. Champaign, Illinois, USA, 2025.

12. Bybee R.W. *The Case for STEM Education: Challenges and Opportunities.* Arlington, Virginia: NSTA Press, 2013. 120 p.

TILLARNI O’QITISH TEXNOLOGIYALARI

JAMOAT SALOMATLIGI TEXNIKUMLARI O‘QUVCHILARIDA INGLIZ TILI LEKSIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA “CONTEXT-BASED LEARNING” METODINING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Karimov Yunus Mamaroliyevich,
SamDChTI mustaqil tadqiqotchisi
yunus19851329@gmail.com

Mazkur maqolada jamoat salomatligi texnikumlari o‘quvchilarida ingliz tili leksik kompetensiyasini rivojlantirishda “Context-Based Learning” (kontekstga asoslangan o‘qitish) metodining pedagogik imkoniyatlari kompleks va tizimli yondashuv asosida ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Tadqiqot kasbiy yo‘naltirilgan ta’lim sharoitida chet tilini o‘qitish jarayonining o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda olib borildi. Jamoat salomatligi sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislar xalqaro protokollar, epidemiologik hisobotlar, ilmiy maqolalar va amaliy tavsiyalar bilan ishlashi zarur bo‘lganligi sababli, ingliz tilida kasbiy terminologiyani puxta egallash ularning kasbiy tayyorgarligining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu bois mazkur maqolada leksik kompetensiyani shakllantirish jarayoni umumiy til o‘rgatishdan farqli ravishda kasbiy kommunikatsiya bilan uzviy bog‘liq holda talqin etiladi. Shunday qilib, maqolada “Context-Based Learning” metodining jamoat salomatligi texnikumlarida ingliz tili leksik kompetensiyasini rivojlantirishdagi pedagogik salohiyati ilmiy jihatdan asoslab beriladi va u kasbiy yo‘naltirilgan chet tilini o‘qitish samaradorligini oshirishning muhim vositasi sifatida e’tirof etiladi.

Kalit so‘zlar: *leksik kompetensiya, kontekstga asoslangan o‘qitish, kasbiy ingliz tili, jamoat salomatligi, kommunikativ yondashuv, terminologiya, kompetensiyaviy yondashuv, konstruktivizm.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ МЕТОДА «ОБУЧЕНИЯ НА ОСНОВЕ КОНТЕКСТА» В РАЗВИТИИ ЛЕКСИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ У СТУДЕНТОВ КОЛЛЕДЖЕЙ ОБЩЕСТВЕННОГО ЗДРАВООХРАНЕНИЯ

В данной статье на основе комплексного и систематического подхода научно обосновывается педагогический потенциал метода «Контекстное обучение» в развитии лексической компетенции английского языка у студентов технических училищ общественного здравоохранения. Исследование проводилось с учетом специфики процесса обучения иностранному языку в профессионально-ориентированной образовательной среде. Поскольку специалистам, работающим в области общественного здравоохранения, приходится иметь дело с международными протоколами, эпидемиологическими отчетами, научными статьями и практическими рекомендациями, освоение профессиональной терминологии на английском языке является важной составляющей их профессиональной подготовки. Поэтому в данной статье процесс формирования лексической компетенции интерпретируется неразрывно с профессиональной коммуникацией, в отличие от общего языкового обучения. Таким образом, статья научно обосновывает педагогический потенциал метода «Контекстное обучение» в развитии лексической компетенции английского языка в технических училищах общественного здравоохранения и признает его важным инструментом повышения эффективности профессионально-ориентированного обучения иностранному языку.

Ключевые слова: *лексическая компетенция, контекстно-ориентированное обучение, профессиональный английский, общественное здравоохранение, коммуникативный подход, терминология, компетентностный подход, конструктивизм.*

PEDAGOGICAL POSSIBILITIES OF THE “CONTEXT-BASED LEARNING” METHOD IN DEVELOPING ENGLISH LEXICAL COMPETENCE IN PUBLIC HEALTH COLLEGES STUDENTS

This article scientifically substantiates the pedagogical potential of the “Context-Based Learning” method in developing English lexical competence in public health technical schools students based on a comprehensive and systematic approach. The study was conducted taking into account the specific features of the process of teaching a foreign language in a professionally oriented educational environment. Since

specialists working in the field of public health need to work with international protocols, epidemiological reports, scientific articles and practical recommendations, mastering professional terminology in English is an important component of their professional training. Therefore, in this article, the process of forming lexical competence is interpreted in an inextricably linked way with professional communication, unlike general language teaching. Thus, the article scientifically substantiates the pedagogical potential of the “Context-Based Learning” method in developing English lexical competence in public health technical schools and recognizes it as an important tool for increasing the effectiveness of professionally oriented foreign language teaching.

Keywords: *lexical competence, context-based learning, professional English, public health, communicative approach, terminology, competency-based approach, constructivism.*

Kirish. Zamonaviy kasbiy ta’lim tizimida chet tilini o‘qitish jarayoni umumiy lingvistik bilimlarni shakllantirish bilan cheklanib qolmay, balki o‘quvchilarning kasbiy faoliyatiga mos kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishni ham nazarda tutadi. Jamoat salomatligi texnikumlari o‘quvchilari kelajakda tibbiy xizmat ko‘rsatish, sanitariya nazorati, epidemiologiya, profilaktika va sog‘liqni saqlash sohalarida faoliyat yuritishi bois, ingliz tilidagi kasbiy terminologiyani chuqur o‘zlashtirishi zarur. Tibbiyot va sog‘liqni saqlash sohasida xalqaro ilmiy hamkorlik, xorijiy manbalardan foydalanish va global tajriba almashinuvi tobora kuchayib borayotgan sharoitda leksik kompetensiya kasbiy tayyorgarlikning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda.

An’anaviy o‘qitish usullarida leksik birliklar ko‘pincha alohida ro‘yxat shaklida, kontekstdan ajratilgan holda o‘rgatiladi. Bunday yondashuv o‘quvchilarda so‘zning ma’nosini mexanik yodlashga olib keladi, biroq uning real nutq jarayonidagi funksional qo‘llanilishini ta’minlay olmaydi. Shu bois kontekstga asoslangan o‘qitish metodini joriy etish zarurati yuzaga keladi. “Context-Based Learning” metodi leksik birliklarni real yoki modellashtirilgan kasbiy vaziyatlar doirasida o‘rganishni nazarda tutadi va so‘z ma’nosini uning kommunikativ muhitida anglashni ta’minlaydi.

Mazkur maqolaning maqsadi — jamoat salomatligi texnikumlari o‘quvchilarida ingliz tili leksik kompetensiyasini rivojlantirishda kontekstga asoslangan o‘qitish metodining pedagogik imkoniyatlarini aniqlash va ilmiy asoslashdan iborat.

Adabiyotlar sharhi. Til o‘qitish metodikasi masalalari zamonaviy lingvodidaktikaning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu borada Richards J.C. va Rodgers T.S. tomonidan yaratilgan Approaches and Methods in Language Teaching asari muhim nazariy manba sifatida e’tirof etiladi. Mualliflar unda til o‘qitishning tarixiy va zamonaviy metodlarini – Grammar-Translation, Direct Method, Audio-Lingual Method, Communicative Language Teaching (CLT), Task-Based Learning kabi yondashuvlarni tizimli tahlil qiladilar. Asarda metod va yondashuv tushunchalari o‘zaro farqlanib, ularning nazariy asoslari hamda amaliy qo‘llanilishi ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, Harmer J. ning How to Teach English asari o‘qituvchilar uchun amaliy qo‘llanma sifatida katta ahamiyatga ega. Unda darsni rejalashtirish, nutq faoliyati turlari, o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish hamda interaktiv metodlardan foydalanish masalalari yoritilgan.

Nazariy jihatdan mustahkam yondashuv esa Brown H.D. ning Principles of Language Learning and Teaching asarida bayon qilingan. Muallif til o‘rganishning psixologik va pedagogik asoslarini, kommunikativ kompetensiya tushunchasini hamda individual farqlar omilini tahlil qiladi.

Task-based yondashuvning ilmiy asoslari esa Ellis R. ning Task-Based Language Learning and Teaching asarida chuqur o‘rganilgan. Muallif topshiriqqa asoslangan o‘qitish modelining nazariy asoslari, vazifa (task) tushunchasi va uning til kompetensiyasini rivojlantirishdagi o‘rnini izohlaydi.

Leksik kompetensiya til o‘rganish jarayonining markaziy komponentlaridan biri hisoblanadi. Bu borada Nation I.S.P. ning Learning Vocabulary in Another Language asari fundamental tadqiqot sifatida tan olinadi. Muallif lug‘at o‘rgatishning to‘rtta asosiy yo‘nalishini (meaning-focused input, meaning-focused output, language-focused learning, fluency development) ajratib ko‘rsatadi va ularning o‘zaro muvozanatiga e’tibor qaratadi. Shuningdek, Schmitt N. ning Vocabulary in Language Teaching asari leksik birliklarni o‘rgatish strategiyalari, kollokatsiyalar, so‘z boyligini baholash mezonlari hamda xotira mexanizmlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Muallif lug‘atni o‘zlashtirishda kontekstning ahamiyatini alohida ta’kidlaydi.

Mazkur manbalar asosida leksik kompetensiyani rivojlantirishning samarali usullari – kontekstual o‘qitish, kollokatsion yondashuv, ko‘p martalik uchrashuv (multiple exposure) va kommunikativ vazifalar orqali mustahkamlash zarurligi ilmiy jihatdan asoslanadi.

Zamonaviy ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv ustuvor yo‘nalish sifatida qaraladi. Bu borada Zimnyaya I.A. ning Kompetentnostnyy podxod v obrazovanii (2004) asarida kompetensiya va kompetentlik tushunchalarining nazariy tahlili berilgan. Muallif kompetensiyani bilim, ko‘nikma va shaxsiy sifatlarning integrativ majmui sifatida talqin qiladi.

Milliy miqyosda esa O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvni joriy etishning huquqiy asosini belgilaydi. Ushbu hujjatda ta’lim jarayonining natijadorligi o‘quvchilarning amaliy kompetensiyalarini shakllantirish bilan bog‘liq ekani ta’kidlangan.

Xalqaro darajada esa Common European Framework of Reference for Languages (CEFR) chet tillarni o‘qitish va baholashning yagona mezonlarini belgilab beradi. CEFR kommunikativ kompetensiyani lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik komponentlarga ajratadi hamda til darajalarini (A1–C2) aniq tavsiflaydi.

Mahalliy metodik tajriba nuqtai nazaridan Xudoyberdiyev M. ning Chet tillarni kasbiy yo‘naltirilgan o‘qitish metodikasi (2019) asari kasbiy ta’lim sharoitida chet tilini o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlarini yoritadi. Muallif kasbiy kontekstda til birliklarini o‘rgatish, terminologik lug‘atni shakllantirish hamda kommunikativ vaziyatlarga asoslangan mashg‘ulotlarni tashkil etish metodikasini ishlab chiqadi.

Tahlil qilingan manbalar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy til o‘qitish metodikasi kommunikativ va topshiriqqa asoslangan yondashuvlar bilan uyg‘unlashgan holda, kompetensiyaviy model asosida rivojlanmoqda. Leksik kompetensiya til egallash jarayonining markaziy elementi bo‘lib, uni shakllantirish kontekstual, funksional va kommunikativ tamoyillar asosida amalga oshirilishi lozim.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida kompetensiyaviy, kommunikativ, faoliyatga yo‘naltirilgan va kontekstual yondashuvlar asos sifatida qo‘llanildi. Kompetensiyaviy yondashuv leksik kompetensiyani bilim, ko‘nikma va nutqiy tajribaning integrativ tizimi sifatida talqin qilish imkonini berdi. Kommunikativ yondashuv esa til birliklarini real muloqot jarayonida qo‘llashga yo‘naltirilgan metodlarni tanlashga asos bo‘ldi.

Kontekstual yondashuv asosida tibbiy terminlar va kasbiy iboralar real sog‘liqni saqlash vaziyatlari (masalan, bemor qabul qilish, epidemiologik hisobot tuzish, sanitariya nazorati bo‘yicha maslahat berish) doirasida o‘rgatildi. Tadqiqot davomida matn tahlili, kuzatish, pedagogik tajriba va natijalarni solishtirma tahlil qilish metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va tadqiqot natijalari. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, kontekstga asoslangan o‘qitish metodi jamoat salomatligi texnikumi o‘quvchilarida leksik kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega. Mazkur metod nafaqat termin va iboralarni yod olishni, balki ularni kasbiy nutqda ongli, maqsadga muvofiq va vaziyatga mos ravishda qo‘llashni ta’minlaydi.

Leksik birliklarning chuqur semantik o‘zlashtirilishiga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, Birinchidan, leksik birliklarning real kasbiy vaziyatlar kontekstida o‘rganilishi o‘quvchilarda so‘z ma’nosini chuqur anglash mexanizmini faollashtiradi. An’anaviy yodlash usulidan farqli ravishda, kontekstual o‘qitishda har bir termin muayyan kommunikativ vaziyat, kasbiy muammo yoki amaliy topshiriq doirasida taqdim etiladi. Masalan, “disease prevention”, “infection control”, “public health monitoring” kabi iboralar epidemiologik vaziyatni tahlil qilish, profilaktika rejasini tuzish yoki sanitariya nazorati jarayonini tasvirlash orqali o‘rganilganda, ularning semantik maydoni kengayadi. O‘quvchi mazkur iboralarni alohida so‘z birikmasi sifatida emas, balki kasbiy jarayonning tarkibiy qismi sifatida idrok etadi.

Kontekst so‘zning:

- asosiy va ko‘chma ma’nolarini,
- sinonimik va antonimik aloqalarini,
- kollokatsion xususiyatlarini,
- funksional-stilistik jihatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Natijada leksik birliklar uzoq muddatli xotirada mustahkamlanadi va ularni faol nutqda qo‘llash imkoniyati ortadi.

Nutqiy faollik va kommunikativ qiymatning oshishi o‘quvchilarning leksik kompetensiyasini oshishiga xizmat qiladi. Shuningdek, kasbiy terminologiyaning mantiqiy bog‘liqlik asosida o‘rganilishi o‘quvchilarning nutqiy faolligini sezilarli darajada oshiradi. Kontekstual metodda leksik birliklar izolyatsiyada emas, balki muayyan mavzu doirasida tizimli ravishda taqdim etiladi. Masalan, “infection control” iborasi sanitariya qoidalari, dezinfeksiya usullari, epidemiologik xavfsizlik kabi tushunchalar bilan birgalikda o‘rganiladi.

Bu esa quyidagi natijalarni beradi:

- terminlar o‘rtasidagi semantik va mantiqiy bog‘lanish shakllanadi;
- mavzuga oid nutq qurish ko‘nikmasi rivojlanadi;
- kasbiy dialog va monolog tuzish malakasi mustahkamlanadi.

Real vaziyatga asoslangan topshiriqlar – masalan, sog‘liqni saqlash bo‘yicha axborot berish, profilaktik suhbat o‘tkazish yoki statistik ma’lumotlarni sharhlash – terminlarning kommunikativ qiymatini ochib beradi. Natijada o‘quvchilar terminlarni mexanik takrorlash emas, balki ma’lum kommunikativ maqsadga xizmat qiluvchi vosita sifatida qo‘llay boshlaydilar.

Mustaqil fikrlash va kasbiy tafakkurning rivojlanishi borasida so‘z ketadigan bo‘lsa, kontekstga asoslangan o‘qitish metodida interaktiv topshiriqlar, rolli o‘yinlar, keys-stadi (case-study) va muammoli vaziyatlardan foydalanish o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiri alohida e’tirof etilishi lozim.

Masalan:

- epidemiologik holatni tahlil qilish,
- kasallik tarqalishining oldini olish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish,
- sanitariya nazorati jarayonini modellashtirish kabi vazifalar o‘quvchini faol fikrlashga undaydi. Bu jarayonda leksik kompetensiya faqat terminlarni bilish darajasida qolmaydi, balki ularni mantiqan bog‘lash, vaziyatga moslashtirish va kasbiy nutqda to‘g‘ri qo‘llash qobiliyatiga aylanadi. Shunday qilib, leksik kompetensiya kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismi sifatida shakllanadi. O‘quvchi terminni biladi, uning ma’nosini tushunadi va uni zarur vaziyatda mustaqil qo‘llay oladi.

Motivatsiya va kasbiy identifikatsiyaning kuchayishida kontekstual o‘qitish metodining yana bir muhim pedagogik afzalligi – o‘quvchilarning ichki motivatsiyasini oshirishidir. Til o‘rganish jarayoni kasbiy faoliyat bilan bevosita bog‘langanda, o‘quvchi tilni abstrakt fan sifatida emas, balki kelajak kasbining ajralmas vositasi sifatida qabul qiladi. Jamoat salomatligi sohasida terminologik aniqlik, nutqiy savodxonlik va tezkor kommunikatsiya muhim ahamiyat kasb etadi. Shifokor, feldsher yoki sanitariya xodimi kasallik haqida aniq va tushunarli ma’lumot bera olishi, profilaktika choralari yuzasidan tavsiyalarni izchil ifodalay olishi lozim. Kontekstga asoslangan o‘qitish ana shu ehtiyojni hisobga olgan holda tashkil etiladi.

Leksik va kommunikativ kompetensiya integratsiyasi mazkur metod leksik kompetensiyani kommunikativ kompetensiya bilan integratsiyalash imkonini beradi. Ya’ni:

- termin → ibora → gap → matn → kasbiy nutq zanjiri shakllanadi;
- lug‘aviy birliklar funksional qo‘llanish doirasida mustahkamlanadi;
- o‘quvchi kasbiy muloqot modelini amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘zlashtiradi.

Natijada o‘quvchilarda nafaqat so‘z boyligi ortadi, balki kasbiy nutq madaniyati ham shakllanadi.

Tadqiqot natijalari kontekstga asoslangan o‘qitish metodining jamoat salomatligi texnikumi o‘quvchilarida leksik kompetensiyani rivojlantirishda samarali pedagogik vosita ekanligini tasdiqladi. Mazkur metod:

- leksik birliklarning chuqur va barqaror o‘zlashtirilishini ta’minlaydi;
- nutqiy faollikni oshiradi;
- mustaqil va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi;
- kasbiy motivatsiyani kuchaytiradi;
- kommunikativ kompetensiya bilan integratsiyani ta’minlaydi.

Shu bois kontekstual o‘qitish metodini kasbiy yo‘naltirilgan chet tili ta’limida tizimli ravishda joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa. Jamoat salomatligi texnikumlari o‘quvchilarida ingliz tili leksik kompetensiyasini rivojlantirishda “Context-Based Learning” metodi yuqori pedagogik salohiyatga ega. U leksik birliklarni real kasbiy vaziyatlarda o‘rgatish orqali o‘quvchilarning lug‘at boyligini, kommunikativ faolligini va terminologik aniqligini oshiradi. Mazkur metodni tizimli ravishda joriy etish kasbiy yo‘naltirilgan chet tilini o‘qitish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Adabiyotlar:

1. Richards J.C., Rodgers T. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge: CUP, 2014.
2. Nation I.S.P. Learning Vocabulary in Another Language. – Cambridge: CUP, 2001.
3. Schmitt N. Vocabulary in Language Teaching. – Cambridge: CUP, 2000.
4. Brown H.D. Principles of Language Learning and Teaching. – New York: Pearson, 2007.
5. Harmer J. How to Teach English. – London: Longman, 2007.
6. Zimnyaya I.A. Kompetentnostnyy podxod v obrazovanii. – Moskva, 2004.
7. Ellis R. Task-Based Language Learning and Teaching. – Oxford: OUP, 2003.
8. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
9. CEFR. Common European Framework of Reference for Languages. – Council of Europe, 2020.
10. Xudoyberdiyev M. Chet tillarni kasbiy yo‘naltirilgan o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 2019.

DIDACTIC MODEL OF TEACHING TRANSLATION FROM ENGLISH IN HIGHER EDUCATION: CONTENT, METHODS AND ASSESSMENT CRITERIA

Masharibova Sayyora Ahmedovna,
Teacher at “Yangi Asr” University

This article develops a didactic model for teaching translation from English in higher education institutions based on a systemic approach. The model is designed to ensure the integrity and coherence of the educational process by integrating objectives, content, teaching methods, and assessment strategies into a unified framework. Such an approach allows translation teaching to be viewed not as a set of isolated activities, but as a structured and dynamic system aimed at the comprehensive development of students’ professional competencies.The content structure of translation competence, methods of its formation, and assessment criteria are substantiated from both theoretical and practical perspectives. In particular, translation competence is analyzed as a multi-component construct that includes linguistic, cultural, strategic, and technological elements. The study also identifies effective pedagogical methods for developing these components, such as task-based learning, problem-solving activities, and the use of authentic translation materials. Assessment criteria are formulated to ensure objective evaluation of students’ progress and to support continuous improvement in their translation performance.

Keywords: *translation didactics, translation competence, higher education, English language, assessment criteria, competence-based approach.*

ДИДАКТИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ ОБУЧЕНИЯ ПЕРЕВОДУ С АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ: СОДЕРЖАНИЕ, МЕТОДЫ И КРИТЕРИИ ОЦЕНКИ

В данной статье разрабатывается дидактическая модель обучения переводу с английского языка в высших учебных заведениях на основе системного подхода. Модель направлена на обеспечение целостности и согласованности образовательного процесса посредством интеграции целей, содержания, методов обучения и стратегий оценивания в единую систему. Такой подход позволяет рассматривать обучение переводу не как совокупность разрозненных действий, а как структурированную и динамичную систему, ориентированную на всестороннее развитие профессиональных компетенций студентов.

Структура содержания переводческой компетенции, методы её формирования и критерии оценивания обоснованы как с теоретической, так и с практической точек зрения. В частности, переводческая компетенция рассматривается как многокомпонентная конструкция, включающая лингвистические, культурные, стратегические и технологические элементы. В исследовании также определены эффективные педагогические методы развития этих компонентов, такие как обучение на основе заданий, проблемно-ориентированная деятельность и использование аутентичных переводческих материалов. Критерии оценивания разработаны для обеспечения объективной оценки прогресса студентов и поддержки непрерывного совершенствования их переводческой деятельности.

Ключевые слова: *дидактика перевода, переводческая компетенция, высшее образование, английский язык, критерии оценивания, компетентностный подход.*

OLIY TA’LIMDA INGLIZ TILIDAN TARJIMANI O‘QITISHNING DIDAKTIK MODELI: MAZMUNI, METODLARI VA BAHOLASH MEZONLARI

Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida ingliz tilidan tarjima qilishni o‘qitishning tizimli yondashuvga asoslangan didaktik modeli ishlab chiqilgan. Model ta’lim jarayonining yaxlitligi va izchilligini ta’minlash maqsadida maqsadlar, mazmun, o‘qitish metodlari hamda baholash strategiyalarini yagona tizimga integratsiya qiladi. Bunday yondashuv tarjimani o‘qitishni alohida faoliyatlar yig‘indisi sifatida emas, balki talabalar kasbiy kompetensiyalarini har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiluvchi tuzilmaviy va dinamik tizim sifatida ko‘rib chiqishga imkon beradi.

Tarjima kompetensiyasining mazmuniy tuzilmasi, uni shakllantirish metodlari va baholash mezonlari nazariy hamda amaliy jihatdan asoslab berilgan. Xususan, tarjima kompetensiyasi lingvistik, madaniy, strategik va texnologik komponentlarni o‘z ichiga olgan ko‘p tarkibli tuzilma sifatida tahlil qilinadi. Tadqiqotda ushbu komponentlarni rivojlantirishning samarali pedagogik usullari, jumladan, vazifaga

asoslangan ta’lim, muammoli topshiriqlar va autentik tarjima materiallaridan foydalanish usullari aniqlangan. Baholash mezonlari talabalarning rivojlanishini xolisona baholash hamda ularning tarjima faoliyatini muntazam takomillashtirib borishni qo‘llab-quvvatlash maqsadida ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *tarjima didaktikasi, tarjima kompetensiyasi, oliy ta’lim, ingliz tili, baholash mezonlari, kompetensiyaviy yondashuv.*

Introduction. In the context of globalization, translation activity is becoming one of the most important and strategic tools of international communication. The expansion of economic integration, scientific and technological cooperation, rapid development of digital technologies, and intensification of intercultural relations at the global level require efficient and high-quality information exchange between different languages. From this perspective, translation is recognized not only as a linguistic process but also as a socio-cultural, communicative, and cognitive activity. In particular, the global status of the English language strengthens its role in translation processes and necessitates special attention to this field within higher education systems.

Currently, the process of teaching translation from English in higher education institutions is being reconsidered on the basis of modern competence-based, communicative, and integrative approaches, moving away from traditional methods. Translation teaching is no longer limited to the development of grammatical and lexical knowledge; rather, it aims to prepare students as professionals capable of making independent decisions in real communicative situations, understanding intercultural differences, and effectively applying translation strategies. Therefore, translation teaching is interpreted as a multi-component didactic system.

State policy aimed at modernizing and aligning the education system of the Republic of Uzbekistan with international standards further increases the relevance of this field. In particular, Presidential Decree No. PF-5847 emphasizes the need to enhance foreign language teaching, introduce advanced pedagogical technologies, and improve the quality of specialist training [1]. Furthermore, the “Uzbekistan–2030” strategy highlights improving education quality, implementing innovative teaching methods, and training competitive professionals as key priorities [2]. These normative documents underline the necessity of fundamentally improving translation teaching methodologies in higher education.

Modern scientific research shows that translation teaching cannot be limited to linguistic knowledge alone, but requires a complex system of skills and competencies [3]. Translation is considered a complex cognitive activity that integrates language, culture, context, and communicative situations. In this process, the translator must not only transfer a text from one language to another, but also adequately convey its meaning, style, pragmatic load, and cultural features. Therefore, translation competence is interpreted as the integration of linguistic, cultural, strategic, and technological components.

At the same time, several challenges persist in teaching translation in higher education. These include the dominance of traditional teaching methods, insufficient organization of practical translation training, limited use of modern translation technologies, lack of clearly defined assessment criteria, and difficulties in developing students’ independent translation competence. In some cases, translation teaching remains overly theoretical and insufficiently adapted to real communicative contexts, negatively affecting graduates’ readiness for professional activity.

Another important issue is the incomplete implementation of the competence-based approach in translation teaching. Students often learn to translate grammatically correctly but fail to consider pragmatic meaning, stylistic features, and cultural context adequately. This leads to a decrease in translation quality. Additionally, the lack of unified assessment standards and the prevalence of subjectivity negatively affect the quality of education.

These circumstances highlight the necessity of developing a scientifically grounded didactic model for teaching translation from English in higher education. Such a model should systematically define the content of translation competence, methods of its formation, and assessment criteria. Therefore, the development of a didactic model for translation teaching is recognized as both a theoretical and practical scientific problem.

Methods. This study was conducted based on the integration of systemic, competence-based, and activity-oriented approaches, which together provide a holistic framework for analyzing translation teaching in higher education. The methodological foundation of the research is grounded in modern pedagogy, translation didactics, and applied linguistics, ensuring both theoretical validity and practical relevance. In particular, the research design reflects contemporary trends in translator training, where interdisciplinary integration and learner-centered instruction play a crucial role.

The competence-based approach considers translation teaching as a result-oriented didactic system, where the integration of students’ knowledge, skills, and abilities is the key objective. Within this

framework, learning outcomes are defined not only in terms of theoretical understanding but also through the development of professional translation competence. This includes the ability to analyze source texts, select appropriate translation strategies, and produce contextually adequate target texts. The approach emphasizes measurable outcomes, continuous assessment, and the alignment of teaching methods with expected competencies.

The activity-based approach interprets translation as a real communicative activity, bringing students closer to authentic professional situations. In this regard, translation is not viewed merely as a linguistic exercise but as a purposeful, problem-solving process that occurs within specific social and cultural contexts. Students are engaged in task-based learning, role-play activities, and project work that simulate real-life translation tasks. This allows them to develop not only technical skills but also critical thinking, decision-making, and reflective abilities.

Additionally, a systemic approach was applied to ensure that translation teaching is understood as an interconnected process involving multiple components, including objectives, content, methods, tools, and assessment. This approach allows for the identification of relationships between different elements of the educational process and supports the development of a coherent didactic model.

Theoretical analysis was used to examine both national and international scientific literature on translation didactics. In particular, the works of the PACTE research group, D. Kelly, A. Hurtado Albir, J. House, and P. Newmark served as key methodological foundations [3]. These scholars conceptualize translation competence as a multi-dimensional construct and provide valuable insights into the design of translator training programs. The analysis of these sources enabled a deeper understanding of translation teaching as a multi-component system that integrates cognitive, linguistic, and socio-cultural dimensions.

Comparative analysis was applied to identify differences between traditional and modern approaches to translation teaching. Traditional methods, which often focus on grammar-translation techniques and teacher-centered instruction, were contrasted with modern approaches that emphasize communicative competence, learner autonomy, and the use of digital tools. This comparison made it possible to highlight the advantages of innovative methodologies and justify their implementation in higher education contexts.

Modeling was used to develop a didactic model for teaching translation in higher education. The proposed model includes several interconnected components, such as goals, content, teaching methods, learning activities, and assessment criteria. It also incorporates innovative elements such as interpretative and reflective approaches, which aim to enhance students’ analytical and self-evaluative skills.

Generalization allowed the systematization of research findings and the formulation of theoretical conclusions. Through this method, the study synthesized various theoretical perspectives and empirical observations into a coherent framework that can be applied in practice. It also helped to identify key principles and strategies for improving translation teaching.

Translation competence was analyzed as an integration of linguistic, cultural, strategic, and technological components. Linguistic competence involves mastery of source and target languages, including grammar, vocabulary, and stylistic nuances. Cultural competence includes understanding intercultural differences and the ability to adapt translations to specific cultural contexts. Strategic competence relates to problem-solving, decision-making, and the selection of appropriate translation techniques. Technological competence involves using modern translation tools such as CAT systems, terminology management software, and digital corpora [3].

Furthermore, the research incorporated elements of reflective practice, encouraging students to analyze their own translation processes and outcomes. This reflective dimension contributes to the development of autonomous learning skills and continuous professional growth.

Overall, the combination of these methodological approaches ensures a comprehensive analysis of translation teaching and provides a solid basis for improving pedagogical practices in higher education.

Results. The study resulted in the development of a scientifically grounded didactic model for teaching translation from English in higher education institutions. This model is based on a systemic approach and reflects the integration of all components of the educational process.

The content component defines the structure of translation competence, including linguistic knowledge, lexical-semantic skills, grammatical transformations, stylistic analysis, and understanding of cultural and pragmatic context. Research confirms that translation competence involves contextual thinking and strategic decision-making beyond linguistic knowledge alone [4]. The operational component includes effective teaching methods such as communicative approach, task-based learning, case studies, parallel text analysis, and real translation projects. These methods integrate theory with practice and enhance students’ ability to function in real communicative situations.

The assessment component includes criteria such as adequacy, accuracy, stylistic appropriateness, terminological correctness, and communicative effectiveness [5]. These criteria align with international translation quality standards.

Experimental results showed that students trained under the proposed model demonstrated significantly higher levels of translation competence, including improved analytical skills, strategic thinking, and independent decision-making abilities.

Discussion. The findings of this study clearly indicate that traditional translation teaching methods, which primarily focus on grammatical correctness and lexical equivalence, are insufficient to meet the complex demands of contemporary higher education and the professional translation market. In contrast, a competence-based approach provides a more comprehensive framework that emphasizes not only knowledge acquisition but also the development of practical skills, critical thinking, and professional readiness. This approach allows students to engage actively in the learning process, apply theoretical knowledge in real-life contexts, and develop the ability to solve translation problems independently.

Moreover, the study highlights the growing importance of integrating modern information and communication technologies into translation teaching. The use of Computer-Assisted Translation (CAT) tools, such as translation memory systems, terminology management software, and machine translation post-editing tools, plays a crucial role in enhancing translation quality, ensuring terminological consistency, and increasing productivity [6]. The findings suggest that students who are trained to use such technologies demonstrate higher efficiency and adaptability, which are essential competencies in the contemporary translation industry. Therefore, incorporating technological training into the curriculum is not only desirable but necessary for aligning educational outcomes with labor market expectations.

Another significant finding of the study is the critical role of cultural competence in the translation process. Translation is not merely a mechanical transfer of linguistic units from one language to another; rather, it is a complex act of intercultural communication that requires deep understanding of the socio-cultural, historical, and pragmatic contexts of both the source and target languages [7]. Students who developed strong cultural awareness were more successful in interpreting implicit meanings, handling culturally specific elements such as idioms, metaphors, and realia, and producing translations that are both accurate and culturally appropriate. This confirms that cultural competence should be considered a central component of translation training and systematically integrated into teaching practices.

In addition, the study revealed that effective translation teaching requires a balanced combination of theoretical knowledge and practical application. While theoretical frameworks provide essential conceptual understanding, practical tasks such as real translation projects, case studies, and collaborative assignments enable students to internalize and apply this knowledge in authentic contexts. The interaction between theory and practice contributes to the formation of holistic translation competence and enhances students’ confidence in their professional abilities.

Furthermore, the findings point to the necessity of improving assessment practices in translation teaching. The lack of standardized and objective evaluation criteria often leads to subjectivity and inconsistency in assessing students’ performance. The implementation of clearly defined criteria—such as adequacy, accuracy, stylistic appropriateness, terminological correctness, and communicative effectiveness—can significantly enhance the reliability and validity of assessment processes. This, in turn, contributes to more transparent and fair evaluation, as well as to better feedback for students.

Overall, the discussion confirms that the transformation of translation teaching in higher education requires a multidimensional approach that integrates pedagogical innovation, technological advancement, and intercultural awareness. The proposed didactic model addresses these requirements by providing a structured and flexible framework that supports the development of comprehensive translation competence and prepares students for the challenges of professional translation practice.

Conclusion. In conclusion, the development and implementation of a scientifically grounded didactic model for teaching translation from English in higher education represent a significant step toward improving the overall quality, consistency, and effectiveness of translator training. The findings of this study confirm that traditional approaches to translation teaching are no longer sufficient to meet the demands of modern educational systems and the rapidly evolving global labor market, where translators are expected to demonstrate flexibility, intercultural awareness, and technological proficiency.

Instead, the integration of systemic, competence-based, and activity-oriented approaches is essential for ensuring that students acquire not only theoretical knowledge but also practical, transferable skills required for professional translation activity. These approaches collectively contribute to the formation of a learner-centered educational environment, in which students actively participate in the learning process, engage in real-life translation tasks, and develop the ability to reflect on their own performance.The proposed

didactic model, which is structured around the integration of content, operational, and assessment components, provides a comprehensive framework for organizing the translation teaching process as a holistic and dynamic system. This model facilitates the development of key components of translation competence, including linguistic, cultural, strategic, and technological skills.

By aligning teaching objectives with learning outcomes and assessment criteria, the model ensures coherence and effectiveness in the educational process.

Moreover, the inclusion of interpretative and reflective approaches within the model enhances students’ ability to analyze source texts critically, make informed translation decisions, and evaluate the quality of their own work. This contributes to the development of higher-order thinking skills, such as analysis, synthesis, and evaluation, which are essential for professional translators.

The study also highlights the importance of integrating modern digital tools and technologies into translation training. The use of computer-assisted translation (CAT) tools, online corpora, and terminology management systems not only increases students’ efficiency but also prepares them for real working conditions in the translation industry. In this context, technological competence becomes an integral part of overall translation competence.

Another important outcome of the research is the identification of the role of intercultural competence in translation teaching. Effective translation requires not only linguistic accuracy but also sensitivity to cultural nuances, context, and audience expectations. Therefore, the didactic model emphasizes the development of intercultural awareness as a key component of translator training.

Furthermore, the results of the study demonstrate that the implementation of innovative teaching methods, such as task-based learning, project-based activities, and collaborative work, significantly increases student engagement and motivation. These methods create a more interactive and supportive learning environment, which способствует deeper understanding and more effective skill development.

hafizovamuharram98@gmail.com

Ushbu maqola inson tanasidagi skelet mushaklarining lotincha nomlarining etimologik ildizlarini, ularning qadimiy Yunon-Rim tibbiyoti davridan boshlab zamonaviy Terminologia Anatomica (TA) standartigacha bo‘lgan rivojlanish tarixini va anatomik tibbiyotdagi chuqur ahamiyatini har tomonlama yoritadi. Mushak nomlari asosan shakl, o‘lcham, joylashuv, tolalar yo‘nalishi, boshlar soni, biriktirilish joylari va bajaradigan harakat mezonlariga asoslanadi. Maqolada bu mezonlar bo‘yicha batafsil tahlil qilinadi, ko‘plab konkret misollar keltiriladi hamda nomlarning qadimgi olimlar (Galen, Vesalius) tomonidan shakllanishi va keying standartlashtirish jarayonlari (Basle Nomina Anatomica 1895, Nomina Anatomica reviziyalari, TA 1998 va 2019) ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, lotincha nomlarning etimologiyasini chuqur tushunish anatomic bilimlarni osonlashtirish bilan birga jarrohlik, nevrologiya, travmatologiya, sport tibbiyoti va reabilitatsiya sohalarda aniq diagnostika, operativ xavfsizlik va samarali davolashni ta’minlaydi. Maqola tibbiy ta’lim va amaliyot uchun amaliy qo‘llanma sifatida xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *mushak nomlari, musculus etimologiyasi, lotincha anatomic terminologiya, Terminologia Anatomica, mushak nomlash mezonlari, klinik anatomiya, jarrohlik terminologiyasi, nevrologik diagnostika.*

ЛАТИНСКОЕ ПРОИСХОЖДЕНИЕ НАЗВАНИЙ МЫШЦ (MUSCULUS) И ИХ ЗНАЧЕНИЕ В КЛИНИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ

В данной статье всесторонне освещаются этимологические корни латинских названий скелетных мышц человека, история их развития от античной греко-римской медицины до современного стандарта Terminologia Anatomica (TA), а также их глубокое значение в анатомической медицине. Названия мышц в основном основываются на таких критериях, как форма, размер, расположение, направление мышечных волокон, количество головок, места прикрепления и выполняемые функции. В статье проводится подробный анализ этих критериев, приводится множество конкретных примеров, а также рассматриваются процессы формирования названий древними учёными (Гален, Везалий) и их последующей стандартизации (Basle Nomina Anatomica 1895, ревизии Nomina Anatomica, TA 1998 и 2019). Результаты исследования показывают, что глубокое понимание этимологии латинских названий облегчает усвоение анатомических знаний, а также обеспечивает точную диагностику, безопасность хирургических вмешательств и эффективное лечение в таких областях, как хирургия, неврология, травматология, спортивная медицина и реабилитация. Статья может служить практическим пособием для медицинского образования и практики.

Ключевые слова: *названия мышц, этимология musculus, латинская анатомическая терминология, Terminologia Anatomica, критерии наименования мышц, клиническая анатомия, хирургическая терминология, неврологическая диагностика.*

LATIN ORIGIN OF MUSCLE (MUSCULUS) NAMES AND THEIR SIGNIFICANCE IN CLINICAL TERMINOLOGY

This article comprehensively explores the etymological roots of the Latin names of human skeletal muscles, tracing their historical development from ancient Greco-Roman medicine to the modern Terminologia Anatomica (TA) standard, and highlighting their profound significance in anatomical medicine. Muscle names are primarily based on criteria such as shape, size, location, fiber direction, number of heads, attachment sites, and function. The article provides a detailed analysis of these criteria, presents numerous specific examples, and examines the formation of these names by ancient scholars (Galen, Vesalius) as well as their subsequent standardization (Basle Nomina Anatomica 1895, revisions of Nomina Anatomica, TA 1998 and 2019). The findings indicate that a deep understanding of the etymology of Latin terms facilitates the learning of anatomical knowledge and ensures accurate diagnosis, surgical safety,

and effective treatment in fields such as surgery, neurology, traumatology, sports medicine, and rehabilitation. The article serves as a practical guide for medical education and practice.

Keywords: *muscle names, musculus etymology, Latin anatomical terminology, Terminologia Anatomica, criteria for muscle naming, clinical anatomy, surgical terminology, neurological diagnostics.*

Kirish. Inson tanasida 600 dan ortiq skelet mushaklari mavjud bo‘lib, ular harakat, statika va metabolizmda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu mushaklarning nomlanishi qadimiy davrlardan boshlab shakllangan va bugungi kunda ham xalqaro tibbiy aloqa vositasi sifatida lotin tilida saqlanib qolgan. “Mushak” so‘zining o‘zi lotincha “*musculus*”dan kelib chiqqan bo‘lib, bu “kichik sichqoncha” degan ma’noni bildiradi. Qadimgi rimliklar mushakning qisqarishi vaqtida teri ostida sichqoncha harakatlanayotgandek ko‘rinishini kuzatib, shunday nom berganlar. Yunon tilida “*mŷs*” so‘zi ham “sichqoncha”, ham “mushak” ma’nolarini bildirgan, bu esa tibbiy terminologiyadagi “*myo-*” prefiksi (miotsit, miopatiya, miokard)ning kelib chiqishini tushuntiradi. Anatomik terminologiyaning rivojlanishi Gippokrat (miloddan avvalgi 460–377 yillar), Galen (130–200 yillar) va Andreas Vesalius (1514–1564) kabi buyuk olimlarning asarlari bilan bog‘liq. Vesaliusning *“De humani corporis fabrica”* (1543) asari mushak tizimini batafsil tasvirlab, ko‘plab nomlarni joriy etgan. XIX asr oxirida nemis anatomlar jamiyati tomonidan yaratilgan Basle Nomina Anatomica (BNA, 1895) birinchi xalqaro standart bo‘ldi va unda taxminan 5000 ta atama birlashtirildi, eponimlar minimallashtirildi. Keyinchalik bir necha bor qayta ko‘rib chiqilgan bu terminologiya 1998 yilda Federative Committee on Anatomical Terminology (FCAT) tomonidan Terminologia Anatomica (TA) ga aylandi. TA ning ikkinchi nashri (2019) klinik anatomiyaga yanada ko‘proq e’tibor qaratib, ba’zi nomlarni soddalashtirdi (masalan, *“musculus flexor carpi radialis”* o‘rniga *“flexor radialis carpi”*). Lotincha nomlarning klinik ahamiyati shundaki, ular mushakning topografiyasi, funktsiyasi va potentsial xavf-xatarlarini darhol bildiradi. Jarrohlik operatsiyalarida noto‘g‘ri nom tushunishi qon tomir, nerv yoki boshqa tuzilmalarning shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Ushbu maqola asosiy qismda nomlarning kelib chiqish mezonlarini chuqur tahlil qiladi, tadqiqot natijalarida esa klinik misollar va amaliy ahamiyatni keng yoritadi.

Asosiy qism. Mushak nomlari bir nechta asosiy mezonlarga ko‘ra shakllangan. Bu mezonlar qadimgi anatomlar tomonidan mushakning o‘ziga xos xususiyatlarini ilmiy va tavsifiy tarzda ifodalash uchun ishlab chiqilgan. Asosiy mezonlarni quyidagicha batafsil guruhlash mumkin:

1. Joylashuvga (topografiyaga) ko‘ra nomlanish

Ko‘p mushaklar tananing ma’lum qismiga nisbatan nom olgan. *“Pectoralis major”* (katta ko‘krak mushagi) —*“pectus”* (ko‘krak) so‘zidan. *“Gluteus maximus”* (katta dumba mushagi) — *“gluteus”* (dumba) ildizidan. Qo‘l mushaklari uchun *“brachii”* (“brachium” — qo‘l), oyoq mushaklari uchun *“femoris”* (“femur” — son) qo‘shimchalari qo‘llaniladi. Boldir mushaklari: *“tibialis anterior”* (“tibia” — boldir suyagi). Bo‘yin mushaklari: *“cervicis”*, ko‘krak qismi: *“thoracis”*, bel: *“lumborum”*. Bu nomlar mushakning topografik joylashuvini darhol ko‘rsatib, palpatsiya, ultra tovush yoki MRT da identifikatsiyani osonlashtiradi. Masalan, *“musculus sternocleidomastoideus”* nomidagi *“sterno-”* (sternum), *“cleido-”* (clavicula) va *“mastoideus”* (mastoid jarayoni) uning biriktirilish joylarini aniq belgilaydi.

2. Shakl va tuzilishga ko‘ra

Shakl mushak nomida muhim o‘rin tutadi. *“Deltoideus”* — yunoncha Δ (delta) harfiga o‘xshash uchburchak shaklidan. *“Trapezius”* — trapetsiya shaklidagi to‘rtburchakdan. *“Orbicularis oculi”* va *“orbicularis oris”* — *“orbiculus”* (kichik doira)dan, chunki ular doira shaklida qisqaradi va ko‘z/qovoq yoki og‘izni yopadi. *“Serratus anterior”* — tishlarga o‘xshash chetlaridan (“serratus” — tishsimon). *“Rectus”* (to‘g‘ri mushak) — to‘g‘ri tolalar yo‘nalishidan. *“Latissimus dorsi”* — “latissimus” (eng keng) orqa mushagining kengligini bildiradi. *“Teres”* (dumaloq) yoki *“rhomboideus”* (romb shaklida) kabi nomlar mushakning visual va mexanik xususiyatlarini aks ettiradi.

3. O‘lcham va nisbatga ko‘ra

O‘lcham uchun *“maximus”* (eng katta), *“medius”* (o‘rta), *“minimus”* (eng kichik), *“longus”* (uzun), *“brevis”* (qisqa), *“magnus”* (katta), *“vastus”* (keng, ulkan) so‘zlari ishlatiladi. Klassik misol — gluteal guruh: *“gluteus maximus”* (eng katta, kuchli ekstensor), *“gluteus medius”* (o‘rta, abductor va stabilizator), *“gluteus minimus”* (kichik). Son mushaklari tarkibida *“vastus lateralis”*, *“vastus medialis”*, *“vastus intermedius”* (quadriceps femoris tarkibida). Bu nomlar mushakning kuch va hajmini ko‘rsatib, sport tibbiyoti, fizioterapiya va reabilitatsiyada muhimdir. Masalan, *“gluteus maximus”* zaifligi bel og‘rig‘i, yurish buzilishi yoki tos suyagi beqarorligiga olib kelishi mumkin.

4. Boshlar soni va kelib chiqish nuqtalari

“Biceps” (ikki boshli — “bi-” + “caput”), *“triceps”* (uch boshli), *“quadriceps”* (to‘rt boshli). *“Biceps brachii”* — ikki boshli yelka mushagi (uzun bosh scapula supraglenoid tubercle dan, qisqa bosh coracoid

process dan). *“Triceps brachii”* — uch boshli, humerus va scapuladan. *“Quadriceps femoris”* — to‘rt boshli son mushagi (rectus femoris + uchta vastus). Bu nomlar mushakning biriktirilish joylarini va umumiy kuchini aniq belgilaydi, travma diagnostikasida (masalan, biceps tendon rupturasi) va jarrohlik rejalashtirishda yordam beradi.

5. Funktsiya va bajaradigan harakatga ko‘ra

Eng ko‘p uchraydigan mezon. “*Flexor”* (“flectere” — bukilmoq), *“extensor”* (yozmoq), *“abductor”* (“ab-” + “ducere” — uzoqlashtirmoq), *“adductor”* (yaqinlashtirmoq), *“levator”* (ko‘tarmoq), *“depressor”* (tushirmoq), *“pronator”*, *“supinator”*, *“tensor”* (taranglashtirmoq). Misollar: *“flexor carpi radialis”* (radius tomonidagi bilak bukuvchi), *“abductor digiti minimi”* (kichik barmoqni uzoqlashtiruvchi), *“levator scapulae”* (kurak suyagini ko‘taruvchi), *“supinator”* (tashqariga buruvchi). TA ning yangi versiyasida funktsional nomlarda “musculus” so‘zi ba’zan olib tashlanadi (masalan, *“flexor radialis carpi”*). Bu nomlar mushakning asosiy harakatini darhol bildirib, nevrologik tekshiruvlarda (parez, falaj) va fizioterapiya mashqlarini tanlashda qo‘llaniladi.

6. Biriktirilish joylari, tolalar yo‘nalishi va boshqa xususiyatlar

“Musculus sternocleidomastoideus” — sternum, clavicula va mastoidga biriktirilishi bilan. *“Sartorius”* (tikuvchi mushak) — uzunligi va harakati bilan mashhur, oyoqni kesib o‘tirganda tikuvchilar holatini eslatadi. *“Gastrocnemius”* (ikkinchi oshqozon mushagi) — *“gaster”* (oshqozon) + “kneme” (oyoq), boldirning “qorin” qismiga o‘xshashi uchun. *“Soleus”* — sandal shaklidagi yassi mushak. *“Piriformis”* — nok shaklidagi (“pirum” — nok). Tolalar yo‘nalishi: *“obliquus”* (qiyshiq), *“transversus”* (ko‘ndalang). Ba’zi nomlar metaforik: *“buccinator”* (yuz puflovchi, chunki ovqatni saqlashda yordam beradi). Tarixiy jihatdan, Vesalius davrida nomlar erkinroq bo‘lgan, XVII–XVIII asrlarda aniqlashtirilgan, 1895 yildagi BNA da esa rasmiylashtirilgan. Musil va boshqalar tadqiqotida (2015) 32 ta mushakning etimologiyasi tahlil qilingan bo‘lib, ba’zilari Vesaliusdan beri o‘zgarmagan, boshqalari keying asrlarda qabul qilingan. TA da nomlar qisqa, aniq va klinik jihatdan qulay bo‘lishi talab etiladi.

Tadqiqot natijalari. Etimologik tahlil tibbiy ta’lim samaradorligini sezilarli oshiradi. Lumen Learning va boshqa manbalarda keltirilgan jadvallarda lotin ildizlari (ab-, ad-, duct-, digitus, carpi, radialis vah.k.) tushuntirilgan bo‘lib, talabalar nomlarni 30–50% tezroq va chuqurroq eslab qolishadi. Klinik jihatdan, lotincha nomlarni bilish jarrohlikda muhim: “hernia inguinalis” operatsiyasida “obliquus externus abdominis” aponevrozi va uning tuzilishini hisobga olish kerak, aks holda qon tomir yoki nerv shikastlanishi mumkin. Nevrologiyada *“nervus facialis”* zararlanishida *“orbicularis oculi”* falaji Bell falajiga olib keladi — ko‘z yopilmaydi, quruqlik va keratit xavfi ortadi. Travmatologiyada “rupture musculi biceps brachii” (uzun bosh tendon rupturasi) tashxisi nomning o‘zidan kelib chiqadi va “Popeye” deformatsiyasini keltirib chiqaradi. Reabilitatsiyada “quadriceps femoris” kuchini tiklash uchun to‘rt boshni alohida baholash va mashq qilish zarur. Zamonaviy tadqiqotlarda (Musil V., 2015) mushak nomlarining ko‘pchiligi lotin va yunon ildizlariga asoslangani, ba’zilari esa poeziya va metafora bilan bog‘liqligi tasdiqlangan. Klinik terminologiyada lotincha nomlar xalqaro aloqani ta’minlaydi: ingliz, rus, fransuz yoki o‘zbek shifokorlari bir xil atamani tushunadilar. Masalan, *“infarctus myocardii”* da *“myo-”* mushakni, “card-” yurakni bildiradi. *“Piriformis”* sindromida nerv siqilishi “piriformis” mushagining spazmi yoki gipertrofiyasi bilan bog‘liq — bu nom sindromning mohiyatini darhol ochib beradi. O‘zbekistonda tibbiy ta’limda lotincha terminlar asosiy o‘rin tutadi. Etimologiyani o‘rganish talabalarda klinik fikrlashni rivojlantiradi va xatolarni kamaytiradi. *“Latissimus dorsi”* nomidagi “latissimus” kengligini, “dorsi” orqa joylashuvini bildirib, bel og‘rig‘I sindromida (masalan, og‘ir ko‘tarishda) muhim rol o‘ynaydi. *“Masseter”* (chaynash mushagi) temporomandibular bo‘g‘im kasalliklarida, “iliopsoas” esa yurish va o‘tirish funktsiyasida asosiy hisoblanadi. Qo'shimcha misollar: *“tensor fasciae latae”* — son fasciasini taranglashtiruvchi, yurishda pelvisni stabilizatsiya qiladi; *“popliteus”* — tizza bo‘g‘imi ichki mushagi, fleksiyada yordam beradi; *“multifidus”* — orqa qismida ko‘p bo‘lakli, segmentar stabilizatsiya uchun. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, etimologik yondashuv bilan o‘qitilgan mutaxassislar klinik stajirovkada yaxshiroq natija ko‘rsatadi va bemor xavfsizligini oshiradi. TA ning yangi o‘zgarishlari (masalan, funktsional nomlarda *“musculus”*ni qisqartirish) klinik aloqani yanada soddalashtirishga qaratilgan.

Xulosa. Mushak nomlarining lotincha kelib chiqishi qadimiy tibbiyotning boy merosidir. Ularning tavsifiy tabiati mushakning funksional, topografik va mexanik xususiyatlarini aniq ifodalaydi. Klinik terminologiyada bu nomlar xalqaro aloqa, aniq diagnostika, jarrohlik xavfsizligi va reabilitatsiya samaradorligining asosini tashkil etadi. Zamonaviy tibbiyotda Terminologia Anatomica standartiga rioya qilish va etimologiyani chuqur o‘rganish kelajak avlod shifokorlarini yuqori malakali mutaxassis sifatida tayyorlashda muhimdir. Natijada, anatomic bilimlar nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham yuqori darajada bo‘lib, bemorlar salomatligini sezilarli yaxshilaydi.

Adabiyotlar:

1. Musil V, Suchomel Z, Malinova P, Stingl J, Vlcek M, Vacha M. The history of Latin terminology of human skeletal muscles (from Vesalius to the present). Surg Radiol Anat. 2015;37(1):33-41.
2. Kachlík D, Baca V, Bozdechova I, Cech P, Musil V. Anatomical terminology and nomenclature: past, present and highlights. Surg Radiol Anat. 2008;30(6):459-66.
3. Agrawal A. Musculoskeletal etymology: What's in a name? J Clin Orthop Trauma. 2018;9(Suppl 1):S1-S4.
4. Pretterklieber ML. Nomina anatomica-undevenient et quo vaditis? Clin Anat. 2024;37(5):512-520.
5. Chmielewski PP. New Terminologia Anatomica highlights the importance of clinical anatomy. Folia Morphol (Warsz). 2020;79(1):1-12.
6. Waschke J. Terminologia anatomica: evolution but not revolution. Ann Anat. 2024;255:152-158.
7. Terminologia Anatomica. International Anatomical Terminology. 2nd ed. Federative International Programme for Anatomical Terminology. Stuttgart: Thieme; 2019. p. 1-300.
8. Betts JG, et al. Anatomy and Physiology. 2nd ed. OpenStax; 2023. p. 400-520.
9. Lumen Learning. Naming Skeletal Muscles. Anatomy & Physiology course materials. 2023. p. 300-350.
10. Galic BS. Clinical Relevance of Official Anatomical Terminology. Int J Morphol. 2018; 36(4):1168-1175.
11. Sakai T. Historical evolution of anatomical terminology from ancient to modern. Anat Sci Int. 2007; 82(2):65-81.
12. Bahodirov F. Odam anatomiyasi. Toshkent: O‘qituvchi; 2011. p. 200-320.
13. Nematilloyevna, X. M., & Saloxiddinovna, X. Y. (2024). Turli tibbiy terminlarning yasalish usullari. Modern education and development, 16(7), 68-78.
14. Nematilloyevna, X. M. (2024). Farmatsevtik terminologiyada ma’noli qismlar. Modern education and development, 16(9), 232-243.
15. Nematillaevna, K. M. (2024). The role of latin in medical terminology. IMRAS, 7(12), 104-110.
16. Khafizova, M. (2025). The use of segments of frequency in the names of medicines in the pharmaceutical terminology. Modern Science and Research, 4(2), 708-714.
17. Khafizova, M. (2025). Important classification of medical terminology. Modern Science and Research, 4(3), 743-751.
18. Khafizova, M. (2025). The terminological system of modern medicine in latin. Modern Science and Research, 4(4), 1893-1902.
19. Xafizova, M. (2025). Farmatsevtik terminologiyada ma’noli qismlar. Modern Science and Research, 4(5), 1642-1648.
20. Nematillaevna, K. M. (2026). Study of the skull bone names in medical terminology. Shokh Articles Library, 1(1).
21. Nematilloevna, K. M. (2025). The study of the vocabulary forms of nouns, adjectives, numerals and verbs in the latin language and medical terminology. SHOKH LIBRARY, 1(13).

LEKSIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA KORPUS TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

Toshova Sabinabonu Rustamovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti
Xorijiy til va adabiyot yo‘nalishi magistranti

Ushbu maqolada korpus texnologiyalari yordamida o‘quvchilarning leksik kompetensiyasini rivojlantirishning samarali usullari ko‘rib chiqilgan. Korpus lingvistikasining asosiy tushunchalari, uning ta’lim jarayonida qo‘llanilishi va lug‘at boyligini oshirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, korpus ma’lumotlaridan foydalangan holda o‘quvchilarni yangi so‘zlar bilan tanishtirish va ularni kontekstda ishlatishni o‘rgatishning pedagogik strategiyalari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *korpus texnologiyalari, leksik kompetensiya, lug‘at boyligi, ta’lim jarayoni, pedagogik strategiyalar*

ЗНАЧЕНИЕ КОРПУСНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ ЛЕКСИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ

В статье рассмотрены эффективные методы развития лексической компетенции учащихся с использованием корпусных технологий. Проанализированы основные понятия корпусной лингвистики, её применение в образовательном процессе и значение для расширения словарного запаса. Также представлены педагогические стратегии знакомства учащихся с новыми словами и их использования в контексте с помощью корпусных данных.

Ключевые слова: *корпусные технологии, лексическая компетенция, словарный запас, образовательный процесс, педагогические стратегии*

THE ROLE OF CORPUS TECHNOLOGIES IN DEVELOPING LEXICAL COMPETENCE

The article explores effective methods for developing students’ lexical competence through corpus technologies. It analyzes the main concepts of corpus linguistics, its application in the educational process, and its significance in enhancing vocabulary. Furthermore, pedagogical strategies for introducing students to new words and teaching them to use these words in context based on corpus data are discussed.

Keywords: *corpus technologies, lexical competence, vocabulary, educational process, pedagogical strategies*

Kirish. Leksik kompetensiya – bu til foydalanuvchisining lug‘atni tushunish, so‘zlarni kontekstda to‘g‘ri qo‘llash va ularni kommunikativ maqsadlarda samarali ishlata olish qobiliyatidir. Zamonaviy til o‘qitish metodikalarida leksik kompetensiyani rivojlantirishning samarali vositalaridan biri – korpus texnologiyalaridan foydalanishdir. Korpus texnologiyalari – bu til ma’lumotlarining elektron bazalari bo‘lib, ular til birliklarini statistik va kontekstual tahlil qilish imkonini beradi.

Korpus lingvistikasi so‘nggi yillarda ta’lim jarayonida keng qo‘llanilmoqda. U lug‘at boyligini oshirish, so‘zlarni kontekstda ishlatish qobiliyatini rivojlantirish va o‘quvchilarning tilni tushunish darajasini oshirishga yordam beradi.

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda globallashuv jarayoni va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim tizimiga ham yangi talablarni qo‘ymoqda. Xususan, chet tillarini o‘qitishda o‘quvchilarning leksik kompetensiyasini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki tilni samarali o‘zlashtirish, avvalo, yetarli lug‘at boyligiga ega bo‘lish va so‘zlarni turli kommunikativ vaziyatlarda to‘g‘ri qo‘llay olish qobiliyatiga bog‘liqdir. An’anaviy lug‘at o‘rgatish usullari ko‘pincha so‘zlarning real kontekstda qo‘llanilishini yetarli darajada aks ettira olmaydi.

Shu sababli zamonaviy tilshunoslikda korpus lingvistikasi va korpus texnologiyalaridan foydalanish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Korpus texnologiyalari real nutq namunalariga asoslangan katta hajmdagi elektron matnlar bazasini taqdim etib, so‘zlarning ishlatilish chastotasi, konteksti va kollokatsiyalarini o‘rganish imkonini beradi. Bu esa o‘quvchilarga til birliklarini tabiiy nutq muhitida o‘rganish, ularni to‘g‘ri va samarali qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Shu nuqtai nazardan, leksik kompetensiyani rivojlantirish jarayonida korpus texnologiyalarining imkoniyatlarini o‘rganish va ularni ta’lim jarayoniga tatbiq etish ilmiy hamda amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi – korpus texnologiyalaridan foydalanish orqali o‘quvchilarning leksik kompetensiyasini rivojlantirish imkoniyatlarini o‘rganish hamda ularni ta’lim jarayonida qo‘llashning samarali pedagogik usullarini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

- Korpus lingvistikasi va korpus texnologiyalarining nazariy asoslarini o‘rganish.
- Leksik kompetensiya tushunchasi va uning til o‘qitish jarayonidagi ahamiyatini tahlil qilish.
- Korpus texnologiyalarining turlari va ularning ta’lim jarayonida qo‘llanilish imkoniyatlarini aniqlash.
- Korpus ma’lumotlari asosida o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirishga xizmat qiluvchi metod va mashqlarni tahlil qilish.
- Korpus texnologiyalaridan foydalanish orqali o‘quvchilarning so‘zlarni kontekstda to‘g‘ri qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirish yo‘llarini ko‘rsatish.

Korpus texnologiyalarining mohiyati va turlari. Korpus texnologiyalari – bu katta hajmdagi matnlarni yig‘ish, ularni elektron formatda saqlash va tahlil qilish usullaridir. Asosiy maqsad – til birligini real kontekstda o‘rganish va ularning ishlatilish statistikalarini aniqlash. Korpuslarning turlari-korpus lingvistikasida korpuslar maqsadi, tuzilishi va qo‘llanish sohasiga ko‘ra bir necha turlarga ajratiladi. Har bir korpus turi leksik kompetensiyani rivojlantirishda o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘lib, ta’lim jarayonida turlicha vazifalarni bajaradi.

1. Umumiy korpuslar. Umumiy korpuslar tilning keng qamrovli va universal namunalarini o‘z ichiga oladi. Bunday korpuslarda turli janrlar (badiiy adabiyot, publitsistika, ilmiy matnlar, kundalik nutq, rasmiy hujjatlar va boshqalar) jamlangan bo‘ladi. Ular tilning umumiy leksik tarkibini, grammatik tuzilmalarini va so‘zlarning real ishlatilish chastotasini o‘rganishga xizmat qiladi. Misollar:

British National Corpus (BNC) – ingliz tilidagi 100 milliondan ortiq so‘zlarni o‘z ichiga olgan yirik korpus bo‘lib, zamonaviy ingliz tilining real holatini aks ettiradi. Ushbu korpus orqali o‘quvchilar so‘zlarning kundalik va yozma nutqda qanday qo‘llanilishini o‘rganishlari mumkin.

Russian National Corpus (RNC) – rus tilining tarixiy va zamonaviy shakllarini qamrab olgan korpus bo‘lib, unda badiiy, ilmiy va publitsistik matnlar mavjud.

Ta’limdagi ahamiyati shundan iboratki, umumiy korpuslar yordamida o‘quvchilar:

- eng ko‘p ishlatiladigan so‘z va iboralarni aniqlaydi;
- sinonim va antonimlarning kontekstual farqlarini tushunadi;
- so‘zlarning stilistik xususiyatlarini real misollar asosida o‘rganadi.

2. Maxsus (soha) korpuslar. Maxsus korpuslar ma’lum bir fan yoki soha doirasidagi matnlarni o‘z ichiga oladi. Bunday korpuslar terminologiyani, professional leksikani va sohaviy nutq xususiyatlarini chuqur o‘rganishga mo‘ljallangan. Misollar:

Tibbiyot korpuslari – tibbiy maqolalar, klinik hisobotlar va ilmiy izlanishlar asosida tuzilgan korpuslar.

Huquqiy korpuslar – qonun hujjatlari, sud qarorlari va huquqiy matnlarni o‘z ichiga oladi.

Biznes va iqtisodiy korpuslar – biznes hujjatlari, moliyaviy hisobotlar va marketing matnlariga asoslanadi.

Ta’limdagi ahamiyati esa, maxsus korpuslar:

- sohaviy terminlarning aniq ma’nosini tushunishga;
- terminlarning kontekstda qanday ishlatilishini o‘rganishga;
- kasbiy nutqni shakllantirishga yordam beradi.

Masalan, ingliz tilini maxsus maqsadlar uchun (ESP) o‘qitishda iqtisodiy korpuslardan foydalanish talabalar uchun juda samarali hisoblanadi.

3. Ta’lim korpuslari. Ta’lim korpuslari maxsus pedagogik maqsadlarda yaratiladi va o‘quvchilarning yoshi, til darajasi hamda o‘quv ehtiyojlariga moslashtiriladi. Bu korpuslar odatda soddalashtirilgan matnlar, o‘quvchilar yozgan ishlar yoki o‘quv jarayoniga moslashtirilgan nutq namunalari asosida tuziladi. Misollar:

- **Learner Corpora** (o‘rganuvchilar korpusi) – til o‘rganuvchilarning yozma va og‘zaki nutq namunalarini o‘z ichiga oladi.
- **ICLE (International Corpus of Learner English)** – ingliz tilini o‘rganuvchilarning insholari asosida tuzilgan xalqaro korpus.

Ta’limdagi ahamiyati, ta’lim korpuslari:

- o‘quvchilarning lug‘at xatolarini tahlil qilishga;
- leksik xatolarning sabablarini aniqlashga;
- individual va differensial yondashuv asosida mashqlar ishlab chiqishga imkon beradi.

Bunday korpuslar yordamida o‘qituvchi o‘quvchilarning real muammolariga mos mashqlarni ishlab chiqishi va leksik kompetensiyani bosqichma-bosqich rivojlantirishi mumkin.

Leksik kompetensiyani rivojlantirishdagi korpus texnologiyalarining roli

Korpus texnologiyalari leksik kompetensiyani rivojlantirishda bir nechta asosiy vazifalarni bajaradi:

12. Kontekstni o‘rganish. Korpus ma’lumotlari so‘zlarning real kontekstlarda qanday ishlatilishini ko‘rsatadi. Bu o‘quvchiga so‘zni o‘zi ishlatish va to‘g‘ri kontekstdagi ma’nosini tushunishga yordam beradi.
13. Sinonim va antonimlarni aniqlash. Korpus tahlili yordamida so‘zlarning sinonim va antonimlarini aniqlash mumkin. Bu esa lug‘at boyligini oshirish va so‘z tanlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.
14. Idiomatik iboralarni o‘rganish. Ko‘plab so‘z birikmalari va idiomalar faqat kontekst orqali tushuniladi. Korpus ma’lumotlari o‘quvchilarga idiomalarni real kontekstda ko‘rish va ularni to‘g‘ri ishlatishni o‘rgatadi.
15. So‘z tezligi va foydalanish chastotasini tahlil qilish. Korpuslar yordamida so‘zlarning foydalanish chastotasi aniqlanadi. O‘quvchilar eng ko‘p ishlatiladigan so‘zlar bilan boshlashlari mumkin, keyin esa kamroq ishlatiladigan, lekin kerakli so‘zlarga o‘tishadi.
16. Pedagogik strategiyalarni qo‘llash

Korpus ma’lumotlaridan foydalangan holda o‘quvchilar uchun interaktiv mashqlar, lug‘at kartochkalari, matn tahlillari va kontekstual topshiriqlar ishlab chiqish mumkin. Bu o‘quvchilarning mustaqil ishlash va tilni amaliy qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Korpus texnologiyalarining ta’lim jarayonida qo‘llanilishi

Matn tahlili mashqlari. O‘quvchilar korpusdagi matnlarni tahlil qilib, yangi so‘zlar va ularning ishlatilish kontekstlarini aniqlaydilar.

So‘z birikmalari va kollokatsiyalarni o‘rganish. Korpuslar so‘zlar qaysi so‘zlar bilan birga ishlatilishini aniqlash imkonini beradi. Bu o‘quvchilarga tabiiy nutq va yozuvni shakllantirishda yordam beradi.

Mashq va testlar yaratish. O‘qituvchilar korpuslardan olingan ma’lumotlar asosida so‘zlar va iboralar bo‘yicha mashqlar va testlar tuzishlari mumkin.

Lingvistik tadqiqotlarni amalga oshirish

Korpus texnologiyalari o‘quvchilarga so‘zlarning semantik va funksional xususiyatlarini o‘rganish imkonini beradi. Masalan, ingliz tili darsida o‘quvchilar “make” so‘zi bilan bog‘liq kollokatsiyalarni o‘rganishadi. Korpus ma’lumotlari orqali ular:

make a decision
make a mistake
make progress

kabi tabiiy so‘z birikmalarini tahlil qiladi va mashqlar yordamida bu iboralarni o‘z nutqlarida ishlatishni o‘rganadi. Shuningdek, o‘quvchilar so‘zlarning ma’nosi, sinonim va antonimlarini ham kontekst orqali o‘rganadilar. Bu metodik yondashuv lug‘at boyligini tez va samarali oshiradi.

Xulosa. Korpus texnologiyalari leksik kompetensiyani rivojlantirishda muhim vositadir. U:

- so‘zlarning real kontekstda ishlatilishini o‘rganishga,
- lug‘at boyligini kengaytirishga,
- tilni amaliy qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Shuning uchun zamonaviy ta’lim jarayonida korpus texnologiyalarini qo‘llash o‘qituvchi va o‘quvchilar uchun samarali natijalar beradi. Korpuslar yordamida tayyorlangan interaktiv mashqlar va kontekstual vazifalar o‘quvchilarning leksik kompetensiyasini sezilarli darajada oshiradi.

Adabiyotlar:

1. Biber D., Conrad S., Reppen R. Corpus Linguistics: Investigating Language Structure and Use. Cambridge University Press, 2007.
2. Hunston S. Corpora in Applied Linguistics. Cambridge University Press, 2018.
3. McEnery T., Hardie A. Corpus Linguistics: Method, Theory and Practice. Cambridge University Press, 2012.
4. McCarthy M. Vocabulary. Oxford University Press, 2010.
5. Nation I. S. P. Learning Vocabulary in Another Language. Cambridge University Press, 2013.
6. Stubbs M. Words and Phrases: Corpus Studies of Lexical Semantics. Blackwell Publishing, 2001.

7. Sinclair J. Corpus, Concordance, Collocation. Oxford University Press, 1991.
8. Kennedy G. An Introduction to Corpus Linguistics. London: Longman, 1998.
9. Baker P. Using Corpora in Discourse Analysis. London: Continuum, 2006.
10. O‘rinboyev B. Zamonaviy tilshunoslik asoslari. Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
11. Yo‘ldoshev B. Zamonaviy tilshunoslik va korpus tadqiqotlari. Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
12. Mahmudov N. Til va nutq masalalari. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2017.
13. Nurmonov A. Tilshunoslik nazariyasi. Toshkent: Fan, 2012.
14. Granger S. Learner Corpora in Foreign Language Education. Amsterdam: John Benjamins, 2002.
15. McEnery T., Xiao R., Tono Y. Corpus-Based Language Studies: An Advanced Resource Book. Routledge, 2006.

METHODOLOGY FOR DEVELOPING PRIMARY SCHOOL STUDENTS’ SPEAKING SKILLS THROUGH COOPERATIVE LEARNING ACTIVITIES

Mustafoyeva Feruza G‘olib qizi,
Buxoro State Pedagogical Institute
Master’s student in Foreign Language

This article provides an in-depth analysis of the theoretical foundations and practical significance of developing primary school students’ speaking skills through cooperative learning. It highlights ways to enhance students’ speech activity, develop communicative competence, and effectively use interactive teaching methods.

Keywords: *speaking skills, cooperative learning, speech development, primary education, interactive methods, communicative competence.*

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING OG‘ZAKI NUTQ KO‘NIKMALARINI KOOPERATIV TA’LIM FAOLIYATLARI ORQALI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining og‘zaki nutq ko‘nikmalarini kooperativ ta’lim asosida rivojlantirishning nazariy asoslari va amaliy ahamiyati batafsil tahlil qilinadi. Shuningdek, o‘quvchilarning nutqiy faolligini oshirish, kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish hamda interaktiv o‘qitish metodlaridan samarali foydalanish yo‘llari yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: *og‘zaki nutq ko‘nikmalari, kooperativ ta’lim, nutq rivoji, boshlang‘ich ta’lim, interaktiv metodlar, kommunikativ kompetensiya.*

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ ГОВОРЕНИЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ КООПЕРАТИВНОГО ОБУЧЕНИЯ

В статье подробно рассматриваются теоретические основы и практическое значение развития навыков устной речи учащихся начальных классов на основе кооперативного обучения. Освещаются пути повышения речевой активности учащихся, формирования коммуникативной компетенции и эффективного применения интерактивных методов обучения.

Ключевые слова: *навыки говорения, кооперативное обучение, развитие речи, начальное образование, интерактивные методы, коммуникативная компетенция.*

Introduction. Primary education plays a crucial role in the formation of students as individuals. Especially at this stage, developing communicative competence is considered one of the most important tasks. Students’ ability to express their thoughts freely, engage in communication, and acquire a culture of speech directly influences their success in subsequent stages of education.

According to psychological research, including the ideas proposed by Lev Vygotsky, children’s speech develops through social interaction and collaborative activities. Therefore, it is essential to use pedagogical technologies that actively involve students in communication during the educational process. A person spends their entire life perfecting their speech, mastering the riches of language. Each age stage brings something new to their speech development. The most important stages in speech acquisition occur during childhood—preschool and school. A child's speech development is not a spontaneous process. It requires constant pedagogical guidance. What are the conditions for successful speech development and the formation of speech skills and abilities in children?

1. The need for communication. Therefore, speech development methods should include situations that determine the motivation for speech, confront the student with the need for verbal expression, and arouse their interest and desire to share and talk about something.

2. Communication is possible only through commonly understood signs, that is, words, their combinations, and various figurative expressions. Consequently, children need to be given speech models or a speech environment created. The richness, diversity, and correctness of their own speech largely depend on their speech environment. The speech environment is the speech of parents, other relatives, and friends, folklore, fiction, radio and television, cinema and theater, and at school, it also includes the speech of teachers and other school staff, speech heard in lessons, and the language of textbooks and teaching aids.

3. Reading and writing are speech skills and abilities that are based on the language system, knowledge of its phonetics, graphics, vocabulary, grammar, spelling, and the skills of constructing one's own speech and perceiving the speech of others.

The essence and principles of cooperative learning. Cooperative learning is a form of education based on students working in small groups, where each participant contributes to a common outcome. This method not only activates the learning process but also ensures the social and communicative development of students. Written speech is always more rigorous than oral speech; it clearly reveals all the errors and omissions so typical of younger students. Written speech has its own characteristics in phrase construction (complex sentences are more often used), vocabulary selection, and grammatical forms. By mastering written speech, children learn the characteristics of texts—narratives, descriptions, arguments, newspaper articles, and so on—and become familiar with their stylistic differences. The principle of speech flow is the guiding principle of teaching, which should underpin all language work and ensure children's speech development. What kind of speech can be considered correct, and what should both teacher and student strive for? Logical thinking is formed in elementary school and develops and improves throughout a person's life. Human thought is expressed in linguistic forms. No matter how complex the content of a thought, it finds a harmonious expression in the syntactic constructions and morphological forms of language. Thus, mastering language, vocabulary, and grammatical forms creates the preconditions for the development of thinking. It would be incorrect to separate the development of speech from the development of thinking. Thinking is broader than speech; it relies on more than just language. The work of thought, becoming more complex due to work, observation, and other activities, requires the enrichment and sophistication of speech. Enriching speech, in turn, has a positive effect on the development of thinking. It is important that the new linguistic resources that a student learns are imbued with real meaning. This ensures a connection between thinking and speech. If a student cannot express their thoughts in words, it means the thought itself has flaws, and these flaws are revealed in the process of formulating the thought into speech. The linguistic characteristics of oral and written speech are explained by the psychological and situational differences that exist between them. Oral speech occurs in a context of direct communication, so it is faster in pace and less complete. Non-linguistic means of expressing meaning—facial expressions and gestures—are used during speech. These means, which provide additional information in oral communication, are absent from written speech. By first grade, children have mastered oral speech sufficiently, pronounce words fluently, and do not think about the placement of words within a phraseduring communication. The written form of monologue speech is the most difficult. It is the most detailed and normative. The construction of each phrase in written speech is the subject of special thought, and at the initial stage of mastering written speech, the process of writing each word is also recognized. Teaching written speech as normative, rather than oral, is associated with high demands: clarity of utterance structure, soundness of thought, expression of attitude toward the subject of thought (object), and precision in the use of linguistic means. The main emphasis is on gradually increasing the complexity of tasks, moving from analyzing simple texts to more complex ones, from writing short and simple essays to more detailed works, which promotes the comprehensive development of verbal skills. Russian language lessons also actively use various forms of work, such as group work and role-playing games, which helps children not only learn to construct their utterances but also develop communication and collaboration skills. It's also important to ensure that exercises are practical so that children can see a direct connection between the skills they've learned and their application in life. When working on speech development, young students may encounter problems such as limited vocabulary, difficulties in comprehension and analysis of texts, as well as difficulties in formulating thoughts and organizing text when writing essays These problems require a comprehensive approach and the use of various teaching methods, such as working with texts of varying complexity, the use of additional resources (e.g., audiovisual materials), and individual work with children to address their specific needs and characteristics. Regular feedback from the teacher, as well as support and encouragement for students, help overcome these difficulties and significantly improve their speaking skills.

Methodology for developing speaking skills through collaborative learning. In this methodology, students are divided into small groups and complete tasks through interaction with each other. In this process, the active participation of every student is ensured. In the “Brainstorming method”, students freely express their ideas, which helps develop spontaneous speech. The pair work technique allows students to communicate directly with one another. In the role-play method, various real-life situations are dramatized, helping to develop dialogic speech. Through group discussions, students learn to justify their opinions, provide arguments, and make generalizations. These methods actively engage students in speaking activities and consistently develop their communicative competence.

The role of the teacher. In the process of cooperative learning, the teacher acts as an organizer and facilitator. They guide students, motivate them, and ensure equal participation. According to Tolipov O`, a teacher should develop students’ independent thinking by effectively organizing the educational process.

Conclusion. The methodology of cooperative learning is highly effective in developing speaking skills of primary school students. This approach increases learners’ verbal activity, enhances their independent thinking, and helps to form a culture of communication. Therefore, the wide use of interactive methods based on cooperation in modern education contributes to the comprehensive development of students.

Reference:

1.Vasilyeva, A. N. (1990). *Fundamentals of speech culture* (Основы культуры речи). Moscow: Prosveshchenie.

2.Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in society: The development of higher psychological processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press.

3.Slavin, R. E. (1995). *Cooperative learning: Theory, research, and practice* (2nd ed.). Boston: Allyn & Bacon.

4.Johnson, D. W., & Johnson, R. T. (1999). *Learning together and alone: Cooperative, competitive, and individualistic learning* (5th ed.). Boston: Allyn & Bacon.

5.Ishmuhamedov, R. (2008). *Innovatsion pedagogik texnologiyalar*. Toshkent: Fan.

6.Tolipov, O‘. (2005). *Pedagogik texnologiyalar asoslari*. Toshkent: O‘qituvchi.

TALABALARDA SOTSIOLINGVISTIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Bo‘ronova Malika Baxtiyorovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti
Xorijiy til va adabiyot yo‘nalishi magistranti

Mazkur maqolada talabalarda sotsiolingvistik kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirishning nazariy asoslari keng yoritilgan. Sotsiolingvistik kompetensiyaning mohiyati, uning tarkibiy tuzilmasi, kommunikativ kompetensiya bilan o‘zaro bog‘liqligi ilmiy jihatdan tahlil etiladi. Shuningdek, zamonaviy ta’lim jarayonida mazkur kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik yondashuvlar, metodlar va shart-sharoitlar asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: *sotsiolingvistika, kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, til va jamiyat, nutq madaniyati, ijtimoiy muhit, ta’lim texnologiyalari.*

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У СТУДЕНТОВ

В данной статье подробно освещаются теоретические основы формирования и развития социолингвистической компетенции у студентов. Сущность социолингвистической компетенции, её структурные компоненты, а также взаимосвязь с коммуникативной компетенцией анализируются с научной точки зрения. Кроме того, обосновываются педагогические подходы, методы и условия, способствующие развитию данной компетенции в современном образовательном процессе.

Ключевые слова: *социолингвистика, компетенция, коммуникативная компетенция, язык и общество, культура речи, социальная среда, образовательные технологии.*

THEORETICAL FOUNDATIONS FOR THE DEVELOPMENT OF SOCIOLINGUISTIC COMPETENCE IN STUDENTS

This article extensively covers the theoretical foundations of the formation and development of sociolinguistic competence in students. The essence of sociolinguistic competence, its structural components, and its interrelation with communicative competence are analyzed from a scientific perspective. Additionally, the study substantiates pedagogical approaches, methods, and conditions that contribute to the development of this competence in the modern educational process.

Keywords: *sociolinguistics, competence, communicative competence, language and society, speech culture, social environment, educational technologies.*

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida tilning ahamiyati keskin ortib bormoqda. Til nafaqat muloqot vositasi, balki jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, oliy ta’lim tizimida tahsil olayotgan talabalar uchun tilni mukammal bilish bilan birga, uni turli ijtimoiy vaziyatlarda to‘g‘ri qo‘llay olish ko‘nikmasi ham muhim hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan, sotsiolingvistik kompetensiyani rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Talabalarda ushbu kompetensiyaning shakllanishi ularning kelajakdagi kasbiy faoliyati, ijtimoiy moslashuvi hamda samarali kommunikatsiya olib borishida muhim rol o‘ynaydi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi – talabalarda sotsiolingvistik kompetensiyani rivojlantirishning nazariy asoslarini keng yoritish hamda uning ta’lim jarayonidagi o‘rnini aniqlashdan iborat.

Sotsiolingvistik kompetensiya zamonaviy tilshunoslik va pedagogika fanlarida muhim o‘rin egallovchi tushunchalardan biri hisoblanadi. Ushbu tushuncha sotsiolingvistika yo‘nalishining rivojlanishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, til va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni o‘rganishga asoslanadi. Sotsiolingvistika tilning ijtimoiy tabiati, uning jamiyatdagi funksiyalari, nutqning ijtimoiy differensiallashuvi hamda til birliklarining ijtimoiy omillar ta’sirida o‘zgarishini tadqiq etadi.

Sotsiolingvistik kompetensiya — bu shaxsning turli ijtimoiy vaziyatlarda, turli ijtimoiy guruhlar bilan muloqot jarayonida til vositalaridan to‘g‘ri, o‘rinli va maqsadga muvofiq foydalanish qobiliyatidir. Ushbu kompetensiya insonning nafaqat til tizimini bilishini, balki uni real kommunikativ vaziyatlarda samarali qo‘llay olishini ham nazarda tutadi.

Mazkur tushuncha ilk bor kommunikativ kompetensiya nazariyasi doirasida shakllangan bo‘lib, u tilni o‘rganishda faqat grammatik bilimlar yetarli emasligini, balki ijtimoiy va madaniy omillarni ham hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi. Chunki har qanday nutq jarayoni muayyan ijtimoiy kontekstda amalga oshadi va ushbu kontekst nutqning shakli hamda mazmuniga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Sotsiolingvistik kompetensiya quyidagi asosiy jihatlarni o‘z ichiga oladi:

- nutq vaziyatini to‘g‘ri anglash;
- suhbatdoshning yoshi, ijtimoiy maqomi va mavqeini hisobga olish;
- nutq uslubini mos ravishda tanlash;
- nutq etikasi va madaniyatiga rioya qilish;
- madaniyatlararo farqlarni tushunish va hurmat qilish.

Sotsiolingvistik kompetensiyaning tarkibiy tuzilmasi:

Talabalarda sotsiolingvistik kompetensiyani samarali shakllantirish uchun uning tarkibiy qismlarini chuqur anglash zarur. Ushbu kompetensiya quyidagi asosiy komponentlardan iborat:

Ijtimoiy komponent

Bu komponent shaxsning jamiyatdagi o‘rnini, ijtimoiy rollarni va statuslarni anglash qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Talaba turli ijtimoiy vaziyatlarda qanday nutq uslubidan foydalanish kerakligini bilishi lozim.

Madaniy komponent

Madaniy komponent turli xalqlarning urf-odatlari, qadriyatlari va an’analarini hisobga olgan holda muloqot qilishni anglatadi. Bu ayniqsa chet tillarini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.

Pragmatik komponent

Pragmatik komponent nutqning maqsadga muvofiqligini ta’minlaydi. Ya’ni, talaba o‘z fikrini aniq, tushunarli va vaziyatga mos tarzda ifodalay olishi zarur.

Lisoniy komponent

Bu komponent til birliklarini (leksika, grammatika, fonetika) to‘g‘ri qo‘llashni o‘z ichiga oladi.

Kommunikativ kompetensiya va sotsiolingvistik kompetensiya o‘rtasidagi bog‘liqlik

Sotsiolingvistik kompetensiya kommunikativ kompetensiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Kommunikativ kompetensiya quyidagi elementlardan iborat:

- lingvistik kompetensiya
- sotsiolingvistik kompetensiya
- diskursiv kompetensiya
- strategik kompetensiya

Shu bois, talabalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish jarayonida sotsiolingvistik kompetensiyaga alohida e’tibor qaratish zarur.

Sotsiolingvistik kompetensiyani rivojlantirishning nazariy yondashuvlari quyidagilarni qamrab oladi:

1. Kommunikativ yondashuv

Ushbu yondashuvga ko‘ra, til o‘rganish jarayoni muloqot orqali amalga oshiriladi. Talabalar real hayotiy vaziyatlarga yaqin sharoitlarda o‘qitiladi.

2. Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv

Bu yondashuv talabalarni faol ishtirok etishga undaydi. Rol o‘yinlari, muammoli vaziyatlar orqali ularning sotsiolingvistik kompetensiyasi rivojlanadi.

3. Madaniyatlararo yondashuv

Mazkur yondashuv talabalarda boshqa madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilish ko‘nikmasini shakllantiradi.

4. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv

Bu yondashuv har bir talabaning individual xususiyatlarini hisobga olishni nazarda tutadi.

Talabalarda ushbu kompetensiyani rivojlantirish uchun quyidagi pedagogik shartlar muhim hisoblanadi:

- interfaol metodlardan foydalanish;
- guruhli va juftlikda ishlashni tashkil etish;
- real kommunikativ vaziyatlarni yaratish;
- autentik materiallardan foydalanish;
- talabalarni erkin fikr bildirishga undash;
- til muhitini shakllantirish.

Bundan tashqari, o‘qituvchining roli ham muhim bo‘lib, u talabalarni rag‘batlantirishi va ularning faoliyatini to‘g‘ri yo‘naltirishi zarur.

Zamonaviy ta’lim texnologiyalari talabalarda sotsiolingvistik kompetensiyani rivojlantirish jarayonida muhim o‘rin egallaydi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi natijasida ta’lim jarayoni

sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilib, unda interaktivlik, moslashuvchanlik va samaradorlik kabi xususiyatlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Sotsiolingvistik kompetensiyani shakllantirishda zamonaviy texnologiyalar talabalarni real kommunikativ vaziyatlarga yaqinlashtiradi. Natijada ular turli ijtimoiy kontekstlarda til vositalaridan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasini egallaydilar. Bu esa talabalarning nafaqat lingvistik bilimlarini, balki ularning ijtimoiy-madaniy tafakkurini ham rivojlantiradi.

Zamonaviy ta’lim texnologiyalarining muhim jihatlaridan biri — ta’lim jarayonini individuallashtirish imkoniyatidir. Har bir talaba o‘z ehtiyojlari, bilim darajasi va qiziqishlariga mos ravishda ta’lim oladi. Bu esa sotsiolingvistik kompetensiyaning samarali shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali talabalar turli kommunikativ vaziyatlarda faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Xususan, onlayn muloqot platformalari, videokonferensiyalar va virtual darslar talabalarning nutqiy faoliyatini rivojlantiradi. Bunday muhitda ular turli ijtimoiy rollarni bajarib, muloqot jarayonida nutq uslublarini moslashtirishni o‘rganadilar.

Multimedia texnologiyalari ham sotsiolingvistik kompetensiyani rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Audio va video materiallar orqali talabalar turli madaniy muhitlarda qo‘llaniladigan nutq shakllari bilan tanishadilar. Bu esa ularning madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Shuningdek, virtual va simulyatsion muhitlar orqali real hayotiy vaziyatlar modellashtiriladi. Masalan, suhbat, muzokara, taqdimot yoki intervyu kabi vaziyatlar sun’iy ravishda yaratiladi. Talabalar ushbu jarayonda faol ishtirok etib, o‘z nutqini ijtimoiy kontekstga moslashtirishni o‘rganadilar.

Xulosa. Sotsiolingvistik kompetensiya talabalarning kommunikativ faoliyatida muhim o‘rin tutadi. Uni rivojlantirish orqali talabalar ijtimoiy jihatdan faol, nutqi rivojlangan va madaniyatli shaxs sifatida shakllanadi. Ushbu kompetensiya talabalarning turli ijtimoiy vaziyatlarda erkin va samarali muloqot olib borishiga, suhbatdoshning ijtimoiy maqomi va kommunikativ holatini to‘g‘ri baholashiga xizmat qiladi.

Shuningdek, sotsiolingvistik kompetensiya talabalarning madaniyatlararo muloqotga tayyorgarligini oshiradi. Zamonaviy globallashuv sharoitida turli madaniyat vakillari bilan samarali aloqa o‘rnatish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa talabadan nafaqat til bilimlarini, balki ijtimoiy va madaniy tafakkurni ham talab etadi.

Mazkur maqolada ko‘rib chiqilgan nazariy yondashuvlar shuni ko‘rsatadiki, sotsiolingvistik kompetensiyani rivojlantirish kompleks va tizimli jarayon hisoblanadi. Uni shakllantirishda kommunikativ, faoliyatga yo‘naltirilgan va madaniyatlararo yondashuvlardan samarali foydalanish zarur. Shu bilan birga, zamonaviy ta’lim texnologiyalarini qo‘llash ushbu jarayonning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Ta’lim jarayonida sotsiolingvistik kompetensiyani rivojlantirish uchun qulay pedagogik shart-sharoitlar yaratish, interfaol metodlardan foydalanish va talabalarni faol muloqotga jalb etish muhim hisoblanadi. Ayniqsa, real hayotiy vaziyatlarni modellashtirish, rol o‘yinlari va muammoli topshiriqlar orqali talabalarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, sotsiolingvistik kompetensiya zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, u talabalarning kelajakdagi kasbiy va ijtimoiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Uni rivojlantirish orqali talabalarning kommunikativ salohiyati, ijtimoiy moslashuvchanligi va madaniy savodxonligi oshadi. Shu bois, oliy ta’lim muassasalarida mazkur kompetensiyani shakllantirishga alohida e’tibor qaratish zarur.

Adabiyotlar:

1. Hymes, D. (1972). *On communicative competence*. In J. B. Pride & J. Holmes (Eds.), *Sociolinguistics* (pp. 269–293). Harmondsworth: Penguin.

2. Canale, M., & Swain, M. (1980). Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing. *Applied Linguistics*, 1(1), 1–47.

3. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2001). *Approaches and Methods in Language Teaching* (2nd ed.). Cambridge: Cambridge University Press.

4. Safarova, R. (2010). *Til va jamiyat*. Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti.

5. Mahmudov, N. (2012). *Nutq madaniyati*. Toshkent: Fan nashriyoti.

6. Jalolov, J. (2015). *Chet til o‘qitish metodikasi*. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.

7. Brown, H. D. (2007). *Principles of Language Learning and Teaching* (5th ed.). White Plains, NY: Pearson Education.

AMALIY MASHG’ULOTLARDA TALABALARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING NEYROPSIXOLOGIK ASOSLARI

Bakayev Najmiddin Bakayevich,
Osiyo xalqaro universiteti Fundamental tibbiyot kafedrasi v.b.professori

Mazkur maqolada tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida “lotin tili va tibbiy atamashunoslik asoslari” fanini o‘qitishda talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning neyropsixologik mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda ishchi va uzoq muddatli xotira, diqqat, ijro funksiyalari hamda analitik tafakkurning til o‘zlashtirishdagi roli asoslab berilgan. Ko‘p kanalli, kontekstual va refleksiv pedagogik yondashuvlarning samaradorligi eksperimental tarzda o‘rganilgan. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, neyropsixologik asosda tashkil etilgan o‘qitish modeli talabalarning terminologik savodxonligini, kognitiv ko‘rsatkichlarini va kasbiy tayyorgarligini sezilarli darajada oshiradi. Tadqiqot natijalari tibbiy ta’limda fanlararo integratsiya asosida samarali metodik yondashuvlarni ishlab chiqish uchun muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar:*lotin tili, tibbiy terminologiya, neyropsixologiya, kasbiy kompetensiya, ishchi xotira, uzoq muddatli xotira, diqqat, neyroplastiklik, integratsiyalashgan ta’lim, pedagogik model.*

НЕЙРОПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ В ПРАКТИЧЕСКИХ ЗАНЯТИЯХ

В данной статье анализируются нейропсихологические механизмы развития профессиональной компетентности студентов при обучении латинскому языку и медицинской терминологии в высших медицинских учебных заведениях. Обоснована роль рабочей и долговременной памяти, внимания, исполнительных функций и аналитического мышления в процессе усвоения языка. Эффективность многоканальных, контекстуальных и рефлексивных педагогических подходов изучена экспериментально. Результаты показали, что обучение, основанное на нейропсихологических принципах, значительно повышает терминологическую грамотность, когнитивные показатели и профессиональную подготовку студентов. Полученные данные имеют важное значение для разработки интегративных методик в системе медицинского образования.

Ключевые слова: *латинский язык, медицинская терминология, нейропсихология, профессиональная компетентность, рабочая память, долговременная память, внимание, нейропластичность, интегративное обучение, педагогическая модель.*

NEUROPSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING STUDENTS’ PROFESSIONAL COMPETENCIES IN PRACTICAL TRAINING

This article examines the neuropsychological mechanisms underlying the development of professional competence in students studying Latin and medical terminology in higher medical education institutions. The roles of working memory, long-term memory, attention, executive functions, and analytical thinking in language acquisition are substantiated. The effectiveness of multimodal, contextual, and reflective pedagogical approaches is experimentally investigated. The findings demonstrate that neuropsychological grounded teaching significantly enhances students’ terminological literacy, cognitive performance, and professional readiness. The results provide a scientific basis for developing integrative teaching methodologies in medical education.

Keywords: *Latin language, medical terminology, neuropsychology, professional competence, working memory, long-term memory, attention, neuroplasticity, integrated learning, pedagogical model*.

Kirish. Globallashuv davri sharoitida oliy ta’lim tizimi oldida raqobatbardosh, yuqori malakali va mukammal kasbiy kompetensiyaga ega bo’lgan mutaxassislarni tayyorlashdek o’ta muhim vazifa turibdi. Ta’lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan integratsiyalashni taqozo etadi. Ayniqsa, tibbiyot oliygohlari, farmatsiya, stomatologiya, davolash ishi, yo‘nalishlarda “lotin tilini va tibbiy atamashunoslik asoslari” fanini o‘qitish professional tayyorgarlikning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Lotin tili nafaqat tarixiy til sifatida, balki ilmiy terminologiyaning asosiy manbai sifatida ham ahamiyatlidir. Tabbiiy, gumanitar va albatta tibbiy terminlarning asosiy qismi lotin tiliga asoslangan. Shu sababli lotin tilini o‘qitish jarayoni talabalarning kasbiy terminologik

kompetensiyasini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. So‘nggi yillarda ta’lim jarayonini neyropsixologik yondashuv asosida tashkil etish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Neyropsixologiya oliy po‘stloq funksiyalarining tuzilishi va faoliyatini o‘rganadi hamda bilish jarayonlarining miya mexanizmlarini tahlil qiladi. Til o‘zlashtirish jarayoni esa murakkab neyrokognitiv tizim sifatida ishchi xotira, uzoq muddatli xotira, diqqat, tafakkur va ijro funksiyalarining uyg‘un faoliyatiga asoslanadi.

Lotin tilining grammatik tizimi mantiqiy va strukturaviy jihatdan aniq tashkil etilganligi sababli, uni o‘rganish analitik fikrlashni rivojlantiradi. Morfologik tuzilmaning qat’iyligi, so‘z yasalish modellari va terminologik aniqlik talabalarda sistemali tafakkur ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Yuqorida bildirilgan fikr-mulohazalarga ko’ra, maqsad — “lotin tili va tibbiy atamashunoslik asoslari” fani amaliy mashg’ulotlarida talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning neyropsixologik mexanizmlarini ilmiy asoslash hamda samarali zamonaviy innovasiyon pedagogik yondashuvlarning amalda qo’llanilishi tahlil qilinadi. Al qissa klassik lotin tili nafaqat tibbiyot xodimlari hayot faoliyatida, balki boshqa kasb egalari uchun ham ahamiyatlidir.Ma’lumki, Lotin tilini o‘qitish va talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish masalalari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar asosan psixolingvistika, neyropsixologiya va kompetensiyaviy ta’lim nazariyalarini o‘z ichiga oladi. Shuni ta’kidlash joizki, lotin tili darslarida kasbiy terminologiya va morfologik tizimni o‘rganish jarayoni kognitiv va neyropsixologik mexanizmlar bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bu soha bo‘yicha amaliy metodik tadqiqotlar yetarli darajada olib borilmayapti. Shu sababli maqolada lotin tilini o‘qitishda neyropsixologik asoslarni aniqlashga alohida e’tibor qaratiladi.

Jahon psixolog olimlari neyropsixologik mexanizmlarini til o’qitishda samaradorligini ilmiy asoslash zaminida samarali faoliyat olib borganlar va davom etmoqda. Jumladan:

A.R. Luriya o’z tadqiqotlarida ta’kidlashicha, oliy po‘stloq funksiyalarining tuzilishi va til faoliyatidagi roli batafsil yoritilgan. Muallifning fikricha, miyaning frontal va temporal bo‘limlari nutqni ishlab chiqish va tushunish jarayonlarida asosiy funksiyalarni bajaradi.

L.S. Vigodskiy esa tafakkur va nutq o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ko‘rsatib, til o‘qitish jarayonida analitik va mantiqiy fikrlashning rivojlanishini ta’kidlab, lingvistik o‘quv mashg‘ulotlari kognitiv jarayonlar, xususan, ishchi xotira va diqqatni faollashtirilishini ilmiy asoslaydi.

T.V.Ahutina va A.A. Leontyevlarni ishlarida individual psixologik xususiyatlar va neyropsixologik farqlarni hisobga olgan holda kompetensiyaviy yondashuvning samaradorligi tahlil qilingan. Ular ishchi xotira, diqqat va ijro funksiyalari kasbiy terminologiyani o‘zlashtirish jarayonida muhim ekanini ko‘rsatib o’tadi. .

Rus psixologlari I.A.Zimnyaya va Khutorskoyning ilmiy asoslashlaricha, kompetensiyaviy yondashuvni ta’lim jarayonida joriy etish metodlarini sharhlab, ko‘p kanalli o‘qitish, kontekstual mashqlar va muntazam takrorlash talabalarning kasbiy tayyorgarligini sezilarli darajada oshiradi .

M.S.Gazzaniga, R.B.Ivry, G.R.Mangunlarning asarlarida ko’rsatilishicha, neyrofan tadqiqotlari miyaning bilish jarayonlari va tilni o‘zlashtirish mexanizmlarini amaliy jihatdan yoritib, neyroplastiklik va bilingvizmning til o‘rganishda juda ahamiyatliligi asoslangan. Shuningdek, A.D.Friederici ,M.A.Paradis va M.T.Ullmanlar ham xorijiy tillarni o’qitish va o’rganishda neyropsixolingvistik yondashuvning afzalliklarini takidlab, tillarning qiyosiy o’rganish samaradorligini alohida e’tirof etganlar.

Mazkur maqolada talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida neyropsixologik yondashuvning o‘rni tizimli tahlil qilinadi. Shuning bilan birga, xorijiy mamlakatlarning ilg‘or pedagogik texnologiyalari va metodik yondashuvlari samaradorligi asosida tahliliy taqqoslash ishlari olib boriladi. Tadqiqotda yetakchi olimlarning neyropsixologik yondashuvga oid nazariy qarashlari, shuningdek, xorijiy tajribalarning muvaffaqiyatli strategiyalari va ularni milliy ta’lim tizimiga integratsiyalash imkoniyatlari chuqur o‘rganiladi.

O’rganilgan materiallarga asoslanadigan bo’lsak,lotin tili va tibbiy atamashunoslik asoslari fani mutaxassislik qatorida talabalarning integratsiyalashgan ta’lim jarayonini tashkil etish uchun ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasiga alohida e’tibor qaratish zarur. Oliy tibbiyot ta’limda integratsiyalashgan ta’limni samarali tashkil etish uchun mutaxassislik(odam anatomiyasi, gistologiya,mikrobiologiya, fiziologiya va potologik fanlar) fanlari bilan integratsiyalashuvi jarayonida kasbiy kompetensiyani rivojlantirish samaradorligi yuqori bo’ladi. neyropsixolingvistik yondashuv talabalar uchun kasbiy kompetensiyani rivojlantiradi va albatta amaliy tajribani boyitadi. Mutaxassislik fanlari doirasida kasbiy professional sohadagi terminologik bilim ko’nikmalar rivojlanadi va kasbiy malakani shakllantirishga xizmat qiladi. Bu jarayon nafaqat bilim va amaliy ko‘nikmlarni egallashni, balki kasbiy kompetentligini chuqurlashtirish uchun zarur bo‘lgan, fanlararo yondashuv asosida shakllanuvchi va turli faoliyat yo‘nalishlarida namoyon bo‘ladigan shaxsiy sifatlarning rivojlanishini ham taqazo etadi. Bo‘lajak shifokorlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda fanlararo integratsiyalashgan neyropsixologok yondashuvning samaradorligini baholash maqsadida pedagogik tajriba-sinov ishlari o‘tkazildi.Bunda

yuqoridagi kasbiy kompetensiyani shakllantirishda xorijiy til ta’limda lotin tili o‘qitish metodikasi va kasbiy fanlarining o‘zaro integratsiyalash asosida tashkil etildi. Ta’lim topshiriqlarining samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba- sinov ishlari olib borildi.

Ma’lumki, tajriba-sinovlar davomida olingan natijalarning samaraliligi, ishonchliligi hamda ularning shifokorlik faoliyatida qo‘llanish imkoniyatlarini baholash maqsadida tajriba-sinov ishlari tashkil etilib, u orqali ilgari surilgan yondashuvlarning afzallik va kamchiliklari, shuningdek, samaradorlik darajasi aniqlanadi. Tajriba-sinov ishlari jarayoni bilan bog‘liq erishilgan natijalarni qo‘llash, kuzatish, aniqlash, taqqoslash, hisob-kitob va tahlil qilish hamda tegishli xulosa va tavsiyalar asosida ularni yanada rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Tajriba-sinov ishlar quyidagi metodlardan foydalanishga asoslanadi: anketa, test, pedagogik kuzatuv, suhbat, o‘z-o‘zini baholash kabilardan iborat.

Metodik yondashuv talablar asosida tajriba-sinov ishlari Osiyo xalqaro universiteti tibbiyot fakulteti farmatsiya, stomatologiya, davolash ishi yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalar (jami 60 talaba ishtirok etdi) bilan olib borildi.

Xulosa qilib aytganda, neyropsixologik metod jarayonida integratsiyalashgan yondashuvni qo‘llash o‘quv materiallari sifatini oshiradi hamda talabalar uchun o‘zlashtirilgan bilimlarni ongli va mazmunli tarzda amaliyotda qo‘llash imkonini yaratib, tafakkurni kelajakka yo‘naltiradi.

Natijalar va muhokamalar. Neyropsixologik mexanizmlar tahlili shuni ko’rsatadiki, lotin tilini o‘qitish jarayonida talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish miyaning murakkab neyrokognitiv tizimi bilan bevosita bog‘liqdir. Izlanish, tahlil natijalariga ko‘ra, amaliy mashg’ulot samaradorligini oshirishda va kasbiy kompetensiyani rivojlantirishda eng muhim quyidagi neyropsixologik mexanizmlar o‘rganish jarayonida zarurligini hisobga olib, ularni ma’no va faoliyatdagi ahamiyati nuqtai nazardan tahlil qilamiz:

1. Ishchi xotira – yangi morfologik va terminologik ma’lumotlarni vaqtincha saqlash va qayta ishlashga xizmat qiladi. Tadqiqotda talabalarning ishchi xotira qobiliyati ko‘p kanalli mashg‘ulotlar orqali sezilarli darajada oshgan.

2. Uzoq muddatli xotira – professional terminlarni va grammatik qoidalarni mustahkam o‘zlashtirish uchun zarur. “Lotin tili va tibbiy atamashunoslik asoslari” fani amaliy mashg’ulotlari jarayonida muntazam takrorlash va kontekstual mashqlar talabalarda uzoq muddatli xotira faoliyatini faollashtiradi.

3. Diqqat va ijro funksiyalari – grammatika qoidalari va terminlarni o‘zlashtirishda diqqatni jamlash va nazorat qilish zarur. Frontal korteksning faoliyati talabalar nutqini tahlil qilish va yozma mashqlarda aniqlikni oshirishga yordam beradi.

a) Neyroplastiklik – miya tuzilmasining moslashuvchanligi yangi lingvistik ma’lumotlarni tezroq o‘zlashtirishga imkon beradi. Tadqiqot ko‘rsatdiki, doimiy ko‘p kanalli mashqlar va vizual-audio materiallar neyroplastiklikni rag‘batlantiradi.

b) Analitik va mantiqiy tafakkur – lotin tili morfologik qoidalarining qat’iyligi va terminologik aniqligi talabalarda tizimli fikrlashni shakllantiradi. Bu xususiyat kasbiy kompetensiyani rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, neyropsixologik mexanizmlar faollashgan holatda talabalarning professional sohadagi terminologik bilim va ko‘nikmalari samarali rivojlanadi.

Maqolada lotin tili darslarida talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga mo‘ljallangan eksperimental pedagogik model ishlab chiqildi. Model quyidagi asosiy komponentlardan iborat:

1. Kognitiv tayyorgarlik – talabalarning ishchi xotira, diqqat va analitik tafakkur ko‘rsatkichlarini diagnostika qilish. Testlar va neyropsixologik mashqlar orqali boshlang‘ich daraja aniqlanadi.

2. Ko‘p kanalli o‘qitish – matn, audio, vizual va interaktiv materiallarni birlashtirish. Masalan, lotin terminlarini o‘rgatishda grafiklar, diagrammalar, morfologik analiz mashqlari va audio prononsiyatsiya qo‘llaniladi.

3. Kontekstual mashg‘ulotlar – terminlarni professional soha kontekstida o‘rganish. Tibbiyot, biologiya yoki yuridik yo‘nalishidagi real vaziyatlar talabalarda professional kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantiradi.

4. Muntazam takrorlash va refleksiya – bilimlarni mustahkamlash uchun qayta takrorlash va o‘z-o‘zini baholash mashqlari kiritilgan. Talabalar o‘z xatolarini aniqlash va to‘g‘rilash imkoniga ega bo‘ladi.

5. Baholash va monitoring – talabalarning kasbiy terminologiya savodxonligi, grammatika qoidalari va lingvistik tafakkur darajasi eksperiment davomida baholanadi. Natijalar model samaradorligini ko‘rsatadi.

Olib borilgan tajria - sinov natijalari shuni ko‘rsatdiki:

a) ishchi va uzoq muddatli xotira faoliyati sezilarli darajada oshadi;

b) talabalarning terminologik savodxonligi va professional passiv ko‘nikmalari yaxshilanadi;

c) analitik va mantiqiy tafakkur rivojlanadi, murakkab morfologik qoidalarni tezroq o‘zlashtirish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Eksperimental pedagogik model tatbiq etilgach, talabalarning kasbiy kompetensiyasi va neyropsixologik ko‘rsatkichlari quyidagicha o‘zgarganligi kuzatildi:

1. Ishchi xotira faoliyati – ko‘p kanalli mashg‘ulotlar va vizual-audio materiallar yordamida talabalarning ishchi xotira darajasi o‘rtacha 22% ga oshdi. Bu natija terminologik ma’lumotlarni tezroq qayta ishlash imkonini berdi.

2. Uzoq muddatli xotira – muntazam takrorlash va kontekstual mashqlar natijasida talabalarning uzoq muddatli xotira ko‘rsatkichlari 18% ga yaxshilandi. Bu professional terminlarni mustahkam egallashni ta’minladi.

3. Diqqat va ijro funksiyalari – darslarda diqqatni jamlash va muammolarni yechish mashqlari qo‘llanilishi natijasida talabalarning diqqat barqarorligi 20% ga oshdi, ijro funksiyalari esa murakkab morfologik qoidalarni o‘zlashtirish yaxshilandi.

4. Analitik tafakkur va lingvistik ko‘nikmalar – lotin tilining qat’iy morfologik tuzilmasi va terminologik aniqligi tufayli talabalarning analitik fikrlash qobiliyati 15% ga yaxshilandi.

5. Kasbiy terminologik savodxonlik – kontekstual mashqlar va refleksiv faoliyat yordamida talabalarning terminologik bilim darajasi 25% ga oshdi. Bu tibbiyot- yo‘nalishlari(farmatsiya, stomatologiya, davolash ishi)da professional sohada qo‘llash uchun yetarli darajaga yetkazildi.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, neyropsixologik asosda tashkil etilgan lotin tili mashg‘ulotlari kasbiy kompetensiyani samarali rivojlantiradi va talabalarning kognitiv ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Natijalarni tahlil qilganda quyidagi bir nechta muhim jihatlar aniqlandi:

1. Neyropsixologik yondashuvning samaradorligi – ishchi va uzoq muddatli xotira faoliyatini faollashtirish, diqqat va ijro funksiyalarini mustahkamlash, analitik tafakkur va terminologik savodxonlikni oshirish imkonini beradi.

2. Ko‘p kanalli va kontekstual metodlarning ahamiyati – vizual, audio va interaktiv materiallar orqali o‘qitish terminologik va grammatik bilimlarni tezroq va samarali egallashga xizmat qiladi.

3. Refleksiv mashqlar va muntazam takrorlash – o‘quv jarayonida xatolarni aniqlash va to‘g‘rilash talabalarning mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

4. Kasbiy kompetensiyaning rivojlanishi – lotin tilini neyropsixologik tamoyillarga asoslangan holda o‘qitish nafaqat lingvistik, balki professional ko‘nikmalarni ham rivojlantiradi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, bunday pedagogik yondashuv tibbiyot yo‘nalishlari(farmatsiya, stomatologiya, davolash ishi)da lotin tilini o‘qitish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Xulosa. Lotin tilini o‘qitish jarayonida talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish neyropsixologik mexanizmlarga bog‘liqdir: ishchi va uzoq muddatli xotira, diqqat, ijro funksiyalari va analitik tafakkur muhim rol o‘ynaydi. Ko‘p kanalli, kontekstual va refleksiv mashg‘ulotlar talabalarning terminologik savodxonligini va lingvistik ko‘nikmalarini samarali rivojlantiradi. Neyroplastiklik va muntazam takrorlash tamoyillari lotin tilini o‘zlashtirish jarayonini tezlashtiradi va kasbiy tayyorgarlik darajasini oshiradi. Eksperimental model natijalari shuni ko‘rsatdiki, neyropsixologik asosda tashkil etilgan lotin tili amaliy mashg‘ulotlari professional terminologiya, mantiqiy tafakkur va analitik ko‘nikmalarni rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Ахутина Т. В. Нейропсихология индивидуальных различий детей. – М.: Смысл, 2003. – 256 с.

2. Бакаев Нажмиддин Бакаевич. (2022). Проблемы обучения латинской анатомической терминологии в полилингвальной группе и пути их решения. eurasian journal of academic research, 2(9), 49–56. https://doi.org/10.5281/zenodo.7073544

4. Бакаев Нажмиддин Бакаевич. (2022). Дистанционное обучение как средство обмена учебной информацией на расстоянии. Eurasian journal of social sciences, philosophy and culture, 2(2), 278–282. https://doi.org/10.5281/zenodo.6282694

5. Бакаев Н.Б. Глобализация, независимое образование: проблемы и решения. (2025). Международный журнал медицинских наук, 5(11), 459–463. https://doi.org/10.55640/

6. Выготский Л. С. Мышление и речь. – М.: Лабиринт, 1999. – 352 с.

7. Friederici A. D. Language in Our Brain: The Origins of a Uniquely Human Capacity. – Cambridge, MA: MIT Press, 2017. – 312 p.

8. Gazzaniga M. S., Ivry R. B., Mangun G. R. Cognitive Neuroscience: The Biology of the Mind. – 4th ed. – New York: W. W. Norton, 2014. – 672 p.

9. Лурия А. Р. Высшие корковые функции человека и их нарушения при локальных поражениях мозга. – М.: МГУ, 1962. – 432 с.

10. Лурия А. Р. Язык и сознание. – М.: Издательство МГУ, 1979. – 320 с.

11. Paradis M. A Neurolinguistic Theory of Bilingualism. – Amsterdam: John Benjamins, 2004. – 300 p.

12. Ullman M. T. The Declarative/Procedural Model of Lexicon and Grammar // Journal of Psycholinguistic Research. – 2001. – Vol. 30(1). – P. 37–69.

13. Зимняя И. А. Ключевые компетенции как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании. – М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004. – 42 с.

AI-BASED REFLECTIVE ADAPTIVE TECHNOLOGY FOR FUTURE FOREIGN LANGUAGE TEACHER METHODOLOGICAL COMPETENCE

Erkulova Feruza Melikuziyevna,
Namangan state institute of foreign languages associated prof.,PhD

The rapid processes of globalization and digital transformation have significantly changed the requirements imposed on foreign language teacher education in higher education institutions. Modern teacher preparation is no longer limited to theoretical knowledge acquisition; rather, it requires the development of methodological decision-making, reflective thinking, analytical competence, and research-oriented pedagogical activity. This article investigates the role of artificial intelligence-based reflective-analytical adaptive education integrated with action research technology in developing the methodological competence of future foreign language teachers. The study is based on the analysis of master’s degree curricula and subject programs such as “Foreign Language for Scientific and Professional Communication,” “Comparative Methodology of Foreign Language Teaching,” and “Research Methodology.” The findings reveal that existing methodological preparation systems remain predominantly theoretical and insufficiently integrate reflective practice, adaptive learning, and research-oriented pedagogical activities. In response to these limitations, an integrative technology consisting of diagnostic, reflective-analytical, AI-adaptive, and action research components is proposed. The article argues that the integration of artificial intelligence tools with reflective and research-based pedagogical practices enables individualized learning trajectories, enhances methodological decision-making, and supports the transformation of future teachers into reflective practitioner-researchers.

Keywords: *methodological competence, artificial intelligence, reflective practice, adaptive learning, action research, foreign language teacher education, methodological preparation, AI-feedback, reflective-analytical technology.*

BO‘LAJAK CHET TILI O‘QITUVCHILARINING METODIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN AI-ASOSIDAGI REFLEKTIV-ADAPTIV TEXNOLOGIYA

Globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi oliy ta’lim tizimida chet tili o‘qituvchilarini tayyorlashga qo‘yilayotgan talablarni sezilarli darajada o‘zgartirdi. Zamonaviy o‘qituvchi tayyorlash jarayoni endilikda faqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirish bilan cheklanmay, balki metodik qaror qabul qilish, reflektiv fikrlash, analitik kompetensiya hamda tadqiqotga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatni rivojlantirishni ham talab etadi. Mazkur maqolada bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarining metodik kompetensiyasini rivojlantirishda sun’iy intellekt asosidagi reflektiv-analitik adaptiv ta’limning amaliy-tadqiqot (action research) texnologiyasi bilan integratsiyalashgan holdagi o‘rni tadqiq etiladi. Tadqiqot “Ilmiy va kasbiy faoliyatga yo‘naltirilgan chet tili”, “Xorijiy tillarni o‘qitish qiyosiy metodikasi” hamda “Ilmiy tadqiqot metodologiyasi” kabi magistratura fan dasturlari va o‘quv rejalari tahliliga asoslanadi. Tadqiqot natijalari mavjud metodik tayyorgarlik tizimlari asosan nazariy xarakterga ega ekanligini hamda reflektiv faoliyat, adaptiv ta’lim va tadqiqotga yo‘naltirilgan pedagogik amaliyotni yetarli darajada integratsiyalashmaganini ko‘rsatdi. Ushbu cheklovlarni bartaraf etish maqsadida diagnostik, reflektiv-analitik, AI-adaptiv va action research komponentlaridan tashkil topgan integrativ texnologiya taklif etildi. Maqolada sun’iy intellekt vositalarini reflektiv va tadqiqotga asoslangan pedagogik amaliyot bilan integratsiyalash individual o‘quv trayektoriyalarini shakllantirish, metodik qaror qabul qilishni takomillashtirish hamda bo‘lajak o‘qituvchilarni reflektiv-amaliyotchi tadqiqotchi sifatida shakllantirishga xizmat qilishi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: *metodik kompetensiya, sun’iy intellekt, reflektiv amaliyot, adaptiv ta’lim, action research, chet tili o‘qituvchilarini tayyorlash, metodik tayyorgarlik, AI-feedback, reflektiv-analitik texnologiya.*

AI-ОРИЕНТИРОВАННАЯ РЕФЛЕКСИВНО-АДАПТИВНАЯ ТЕХНОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ МЕТОДИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

Стремительные процессы глобализации и цифровой трансформации существенно изменили требования, предъявляемые к подготовке учителей иностранного языка в системе высшего

образования. Современная подготовка педагогов уже не ограничивается усвоением теоретических знаний, а требует развития навыков принятия методических решений, рефлексивного мышления, аналитической компетентности и исследовательски ориентированной педагогической деятельности. В данной статье рассматривается роль технологии рефлексивно-аналитического адаптивного обучения на основе искусственного интеллекта, интегрированной с технологией action research, в развитии методической компетентности будущих учителей иностранного языка. Исследование основано на анализе учебных планов и программ магистратуры по дисциплинам «Иностранный язык для научной и профессиональной деятельности», «Сравнительная методика преподавания иностранных языков» и «Методология научного исследования». Результаты исследования показали, что существующие системы методической подготовки преимущественно носят теоретический характер и недостаточно интегрируют рефлексивную практику, адаптивное обучение и исследовательски ориентированную педагогическую деятельность. В связи с этим предложена интегративная технология, включающая диагностический, рефлексивно-аналитический, AI-адаптивный и action research компоненты. В статье обосновывается, что интеграция инструментов искусственного интеллекта с рефлексивной и исследовательской педагогической практикой способствует формированию индивидуальных образовательных траекторий, совершенствованию методического принятия решений и развитию будущих педагогов как рефлексивных педагогов-исследователей.

Ключевые слова: *методическая компетентность, искусственный интеллект, рефлексивная практика, адаптивное обучение, action research, подготовка учителей иностранного языка, методическая подготовка, AI-feedback, рефлексивно-аналитическая технология.*

Introduction. The rapid development of globalization, digital transformation, and knowledge-based economies has significantly influenced the modernization of higher education systems worldwide. In contemporary educational contexts, the preparation of future foreign language teachers is no longer limited to the transmission of linguistic knowledge and traditional pedagogical skills. Instead, modern educational paradigms emphasize the development of methodological competence, reflective thinking, analytical abilities, research-oriented practice, and digital literacy. As a result, teacher education institutions are expected to prepare future specialists who are capable of responding flexibly to constantly changing educational environments, integrating innovative technologies into teaching practice, and making evidence-based pedagogical decisions. In this regard, methodological preparation has become one of the most important priorities in foreign language teacher education.

The increasing complexity of educational processes requires future teachers to possess not only theoretical knowledge of language teaching methodologies but also the ability to apply such knowledge effectively in authentic pedagogical situations. However, numerous studies indicate that traditional systems of methodological preparation often fail to ensure sufficient integration between theory and practice. In many higher education institutions, methodological courses remain predominantly theoretical, while opportunities for reflective analysis, adaptive teaching practice, and practical problem-solving are limited. Consequently, students frequently experience difficulties when transferring theoretical concepts into real classroom practice, designing effective lessons, managing communicative interaction, or adapting instruction to learners’ needs.

This problem is closely connected with Lee Shulman’s theory of pedagogical content knowledge (PCK), which emphasizes that effective teachers should not only possess subject knowledge but also understand how to transform that knowledge into pedagogically meaningful instruction. According to Shulman, professional teaching competence emerges through the integration of subject knowledge, pedagogical strategies, classroom management skills, and contextual understanding. Therefore, methodological preparation should not be organized as isolated theoretical instruction but rather as an integrative and practice-oriented process that develops future teachers’ ability to make informed methodological decisions in diverse educational contexts.

Donald Schön introduced the concept of the “reflective practitioner,” describing professional educators as specialists who continuously reflect on their actions during and after practice in order to enhance teaching effectiveness. Reflection enables teachers to critically analyze pedagogical situations, identify instructional challenges, evaluate methodological decisions, and redesign teaching strategies based on evidence and experience. Thus, reflective competence becomes an indispensable component of methodological preparation in modern teacher education.

Artificial intelligence (AI), learning analytics, and digital educational platforms are increasingly being integrated into pedagogical environments to support teaching and learning processes. AI-based technologies

can analyze students’ performance, reflective writings, lesson plans, and methodological activities to generate personalized feedback, adaptive tasks, and individual learning trajectories. Such technologies contribute to the development of data-driven and learner-centered education, where instructional decisions are supported by continuous analytical evaluation.

The theoretical foundations of integrating digital technologies into education are also supported by George Siemens’ theory of connectivism. Siemens argues that knowledge in the digital era is distributed across networks and continuously shaped through technological interaction. Learning, therefore, is not confined to traditional classroom environments but occurs dynamically through digital systems, collaborative platforms, and technological networks. From this perspective, artificial intelligence should not be viewed merely as a technical tool but as an active participant in the educational process that facilitates analysis, adaptation, communication, and reflective learning.

At the same time, modern foreign language teacher education increasingly requires future teachers to engage in research-oriented pedagogical practice. The ability to investigate classroom problems, analyze teaching effectiveness, and implement pedagogical innovations has become an essential aspect of methodological competence. In this regard, action research serves as an effective mechanism for connecting theoretical knowledge with practical teaching experience. Action research enables teachers to identify classroom challenges, implement pedagogical interventions, observe outcomes, and redesign instructional strategies based on reflective analysis. Consequently, future teachers become not passive recipients of knowledge but active practitioner-researchers capable of continuously improving their professional practice.

Despite the growing importance of reflective practice, adaptive learning, and research-oriented teaching, many existing methodological preparation systems still demonstrate several limitations. Reflective activities are often formal rather than systematic, action research remains insufficiently integrated into pedagogical practice, and artificial intelligence technologies are rarely used for methodological analysis, lesson evaluation, or adaptive feedback generation. As a result, future teachers’ methodological competence develops fragmentarily rather than through a coherent and integrative pedagogical system.

Therefore, there is a growing need to develop innovative pedagogical technologies that integrate reflective practice, artificial intelligence, adaptive learning, and action research into a unified methodological preparation framework. Such integration can contribute to the transformation of methodological preparation from a predominantly theoretical process into a dynamic, analytical, adaptive, and practice-oriented system.

In response to these educational needs, the present study aims to develop and theoretically substantiate an artificial intelligence-based reflective-analytical adaptive education and action research technology designed to improve the methodological competence of future foreign language teachers. The proposed technology seeks to integrate diagnostic analysis, reflective practice, AI-supported adaptive learning, and research-oriented pedagogical activities into a unified system capable of enhancing methodological decision-making, reflective competence, and professional pedagogical development.

Methodology. The present study employed a qualitative research design based on content analysis, comparative curriculum analysis, and theoretical modeling methods. The methodological framework of the research was aimed at identifying the current state of methodological preparation in master’s degree programs related to foreign language teacher education and developing an integrative pedagogical technology capable of improving future teachers’ methodological competence through reflective, adaptive, and research-oriented approaches.

The research was conducted within the context of master’s degree programs in “Foreign Language and Literature” offered by higher education institutions. The study focused on analyzing the content, structure, methodological orientation, and pedagogical components of existing educational documents, including curricula, syllabi, course descriptions, pedagogical practice programs, and methodological guidelines. The analysis particularly examined the extent to which modern methodological preparation requirements were reflected in the educational process.

Special attention was devoted to the following core academic disciplines and educational components:

Foreign language for scientific and professional communication

Comparative methodology of foreign language teaching

Research methodology

Pedagogical practice

Master’s dissertation preparation

These disciplines were selected because they constitute the central methodological and professional foundation for preparing future foreign language teachers at the master’s level. Furthermore, these courses directly influence the development of pedagogical, methodological, communicative, reflective, and research-oriented competencies required for professional teaching practice.

The qualitative content analysis focused on identifying the presence, absence, and level of integration of the following methodological preparation components within the analyzed curricula and syllabi *reflective practice and reflective writing, methodological decision-making skills, pedagogical problem-solving activities, action research elements, lesson planning and classroom analysis, adaptive and individualized learning approaches, digital literacy and educational technologies, artificial intelligence integration, competency-based assessment mechanisms, microteaching and peer-feedback activities*.

The analysis aimed to determine whether these components were presented as isolated theoretical concepts or integrated into a systematic pedagogical framework capable of supporting future teachers’ methodological development. Particular attention was given to the relationship between theoretical instruction and practical pedagogical application.

During the analysis process, the study applied several analytical criteria, including:

the balance between theoretical and practical methodological preparation;

the level of reflective and analytical activity integration;

the presence of adaptive and individualized learning mechanisms;

the incorporation of research-oriented pedagogical activities;

the integration of AI and digital educational technologies;

the effectiveness of competency-based assessment approaches.

The findings of the curriculum and syllabus analysis demonstrated that although methodological preparation elements existed within most programs, they were frequently fragmented and predominantly theoretical in nature. Reflective activities were insufficiently systematized, action research was weakly connected with real pedagogical practice, and AI-based analytical mechanisms were almost absent from methodological preparation processes.

Based on the identified limitations, the study developed a theoretically grounded integrative pedagogical technology aimed at enhancing the methodological competence of future foreign language teachers. The proposed technology was constructed through theoretical modeling and consisted of four interconnected and mutually reinforcing components:

Diagnostic component

Reflective-analytical component

AI-adaptive component

Action research component

These components were designed to function as a unified cyclical system organized around the sequence of diagnosis → reflection → analysis → implementation → redesign. The integrative nature of the technology ensures that methodological preparation develops dynamically through continuous reflective and analytical practice rather than through isolated theoretical instruction.

To systematize the analytical framework of the study, the following table summarizes the primary methodological preparation criteria used during curriculum analysis:

Table 1. Analytical criteria for evaluating methodological preparation programs

Analytical Criteria	Observed Situation in Existing Curricula	Proposed Improvement Direction
Methodological preparation content	Predominantly theoretical	Integration of theory and practice
Reflective activities	Fragmented and insufficiently systematized	Reflective journals, self-assessment, teaching portfolios
Action research	Mostly theoretical and weakly connected with practice	Mini action research projects
AI and digital technologies	General ICT focus only	AI-feedback, adaptive tasks, learning analytics
Microteaching and case-study activities	Occasionally included but unsystematic	Systematic microteaching and peer-feedback models
Assessment mechanisms	Mainly knowledge-oriented	Competency-based assessment rubrics
Adaptive learning opportunities	Limited individualization	Personalized methodological development trajectories
Pedagogical analysis	Mostly descriptive	Reflective-analytical evidence-based evaluation

The proposed methodological framework therefore combines reflective pedagogy, artificial intelligence technologies, adaptive learning principles, and action research methodology into a coherent pedagogical system. Such integration allows methodological preparation to move beyond traditional knowledge transmission toward a dynamic, reflective, individualized, and research-oriented educational model capable of supporting future foreign language teachers’ professional development in contemporary digital learning environments.

Results and discussion. Analysis of Existing Methodological Preparation Programs

The analysis of master’s degree curricula and syllabi in “Foreign Language and Literature” programs demonstrated that contemporary higher education institutions are gradually incorporating modern pedagogical and communicative components into methodological preparation courses. The reviewed educational programs included themes related to academic communication, classroom research, professional interaction, reflective practice, and digital literacy. These elements indicate a shift from purely knowledge-oriented instruction toward more competency-based and professionally oriented education.

Particularly, the course Foreign Language for Scientific and Professional Communication contains several important topics aimed at developing both communicative and methodological competencies of future foreign language teachers. Themes such as Academic and Research Communication, Professional Correspondence and Workplace Communication, Reflective and Professional Journaling, Classroom Research, Public Speaking and Presentation Skills, and Technology and Digital Literacy contribute significantly to the development of academic communication, critical thinking, and reflective pedagogical awareness.

The inclusion of reflective journaling and classroom research topics can be considered a positive indicator because these activities encourage students to analyze their pedagogical experiences and professional growth. Furthermore, topics related to digital literacy demonstrate that higher education institutions recognize the growing importance of technological competence in modern educational environments. Such themes create a foundation for integrating innovative pedagogical approaches into teacher education.

However, despite the presence of these modern elements, the study revealed several significant methodological limitations within existing educational programs. One of the major problems identified during the analysis is the insufficient systematization of reflective activities. Although reflective journals, presentations, and classroom research tasks are included in syllabi, they are frequently implemented as isolated assignments rather than components of a coherent reflective pedagogical system. As a result, reflection often remains descriptive and formal rather than analytical and evidence-based.

Moreover, the analyzed programs rarely integrate reflective activities into a complete action research cycle involving *identification of pedagogical problems, methodological planning, implementation of instructional strategies;*

observation and analytical evaluation, redesign and improvement of teaching practices.

Consequently, students are not fully prepared to transform reflective observations into systematic pedagogical problem-solving processes. Reflection becomes an individual academic exercise instead of a practical methodological development mechanism.

The analysis of the course Comparative Methodology of Foreign Language Teaching also revealed that methodological preparation is still predominantly theoretical in orientation. The course successfully introduces students to foreign language teaching approaches, communicative methodology, psychological aspects of language learning, and systems of exercises. However, practical-reflective methodological activities remain significantly underrepresented.

Activities such as microteaching, peer-feedback, classroom observation, reflective lesson analysis, AI-assisted methodological analysis, teaching portfolios, case-study discussions are either absent or implemented unsystematically. As a result, students receive theoretical methodological knowledge but have limited opportunities to practice pedagogical decision-making in simulated or authentic teaching environments.

Similarly, the analysis of Research Methodology syllabi demonstrated that research preparation mainly focuses on theoretical academic research skills such as article writing, dissertation preparation, literature review, and research methods. Although these competencies are essential for academic development, the programs insufficiently integrate research activities with real pedagogical practice.

Action research principles are rarely presented as practical methodological tools for improving classroom instruction. Students are generally taught how to conduct theoretical research but are not systematically trained to investigate their own pedagogical activities, identify classroom problems, evaluate

instructional effectiveness, and redesign teaching strategies based on reflective evidence. Consequently, the practitioner-researcher identity of future teachers remains underdeveloped.

Another important finding concerns the limited integration of artificial intelligence technologies into methodological preparation. While some syllabi mention digital technologies and information-communication tools, AI-based analytical mechanisms are almost entirely absent. Existing programs do not sufficiently utilize AI technologies for reflective writing analysis, adaptive feedback generation, lesson plan evaluation, learning analytics, classroom discourse analysis, pedagogical decision-making support, personalized methodological recommendations.

This limitation significantly reduces opportunities for individualized and adaptive methodological development in contemporary digital learning environments.

The analysis further demonstrated that assessment systems within existing programs remain predominantly knowledge-oriented. Evaluation methods are mainly focused on tests, written assignments, oral presentations, and theoretical tasks. Competency-based assessment mechanisms aimed at evaluating methodological decision-making, reflective competence, classroom problem-solving abilities, and adaptive pedagogical thinking remain insufficiently developed.

The following table summarizes the primary findings of the curriculum and syllabus analysis.

Table 2. Analysis of Existing Methodological Preparation Programs

Components Analyzed	Positive Aspects Identified	Existing Limitations
Academic and professional communication	Development of communicative competence and academic literacy	Limited connection with reflective pedagogical practice
Reflective activities	Presence of reflective journals and self-reflection tasks	Reflection not systematized or evidence-based
Classroom research	Introduction to research concepts	Weak integration with real pedagogical practice
Methodological preparation	Strong theoretical methodological foundation	Insufficient practical implementation
Microteaching and peer-feedback	Occasionally included	Not systematically organized
Digital literacy	Inclusion of technology-related topics	Minimal AI integration
Action research	Mentioned theoretically	Rarely implemented as practical methodology
Assessment mechanisms	Variety of evaluation forms	Predominantly knowledge-oriented rather than competency-based
Adaptive learning	Some learner-centered elements	Lack of individualized learning trajectories
AI-assisted analysis	Limited or absent	No systematic AI-feedback mechanisms

Proposed Integrative Technology

To address the identified shortcomings, the present study proposes an artificial intelligence-based reflective-analytical adaptive education and action research technology designed to improve the methodological competence of future foreign language teachers. The proposed technology functions through an interconnected and cyclical pedagogical model integrating reflective practice, adaptive learning, AI-supported analysis, and research-oriented teaching activities.

The integrative nature of the technology represents its primary innovation. Rather than treating diagnosis, reflection, adaptation, and research as isolated pedagogical processes, the proposed model organizes them into a continuous developmental cycle:

diagnosis → reflection → analysis → implementation → redesign

This cyclical structure enables future teachers to continuously evaluate and improve their methodological competence through reflective and evidence-based pedagogical practice.

Diagnostic Component

The diagnostic component serves as the initial and foundational stage of the integrative technology. Its primary objective is to identify students’ methodological competence levels, pedagogical decision-making abilities, reflective thinking skills, and digital literacy.

This stage includes the analysis of lesson planning skills, teaching strategies, methodological knowledge application, classroom management approaches, reflective writing quality, pedagogical problem-solving abilities.

As a result, individualized methodological development trajectories are created for each student, allowing adaptive and learner-centered pedagogical support.

Reflective-Analytical Component

The reflective-analytical component occupies a central position within the proposed technology because it develops students’ ability to critically evaluate and improve their pedagogical practices.

This component includes the systematic implementation of reflective journals self-assessment activities, peer-feedback sessions, classroom observation, microteaching analysis, AI-generated analytical feedback.

Unlike traditional reflective activities that often remain descriptive, this component transforms reflection into evidence-based pedagogical analysis. Students learn to analyze their methodological decisions using observation data, peer comments, classroom evidence, and AI-supported analytical feedback.

This cyclical inquiry process enables future teachers to integrate theoretical methodological knowledge with authentic pedagogical practice. Furthermore, it strengthens reflective competence, adaptive decision-making, and evidence-based teaching.

The following table summarizes the structure and functions of the proposed integrative technology.

Table 3. Components of the Proposed Integrative Technology

Component	Main Purpose	Core Activities	Expected Outcomes
Diagnostic Component	Identify methodological competence levels	Lesson plan analysis, reflective diagnostics, AI evaluation	Individual learning trajectories
Reflective-Analytical Component	Develop reflective pedagogical thinking	Reflective journals, peer-feedback, microteaching analysis	Evidence-based reflective competence
AI-Adaptive Component	Individualize methodological preparation	AI-feedback, adaptive tasks, learning analytics	Personalized methodological development
Action Research Component	Develop practitioner-researcher identity	Problem-solving, pedagogical inquiry, redesign	Research-oriented pedagogical competence

Overall, the proposed integrative technology transforms methodological preparation from a fragmented and theory-dominated process into a dynamic, reflective, adaptive, and research-oriented pedagogical system.

References:

1.Erkulova F.M. Theoretical foundations of methodological preparedness//World Bulletin of Management and Law (WBML). –№41. –12/2024.–B.–14-16 (13.00.00)

2. Erkulova F.M. Selection And Systematization Of Educational Materials For Improving The Methodological Training Of Prospective Foreign Language Teachers// The American Journal of Social Science and Education Innovations. 2025.–№ 7(11). –B. –17–28.

3. Erkulova F.M. Enhancing The Methodological Training Of Future Foreign Language Teachers Through Innovative Technologies//International journal of pedagogics.2025.–№ 11(30). –B. –133–140.

4. Erkulova F.M. Strengthening methodological preparation of pre-service foreign language teachers through innovative technologies: evidence from selected master’s programs in Uzbekistan// Research Focus. – Volume 5Issue 1, 2026 P.154-162 (ResearchBip (12.32),Index Copernicus (ICV69.78)

5. Erkulova F.M. Developing methodological competence of pre-service efl teachers through a digital technology–based step-by-step training model: an integrative-didactic approach// Research Focus. – Volume 5Issue 2, 2026 P.154-162 (ResearchBip (12.32), Index Copernicus (ICV69.78)

6. Erkulova F.M. Cognitive, activity-based, communicative, and reflective determinants in methodological training of future foreign language teachers/ Scientific review of the problems and prospects of modern science and education, – France ,№1(8). –2025. –B. –52-54.

7.Burns, A. Doing Action Research in English Language Teaching. New York: Routledge, 2010.

8.McNiff, J. Action Research: Principles and Practice. London: Routledge, 2013.

9.Schön, D. A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. New York: Basic Books, 1983.

10.Shulman, L. S. “Knowledge and Teaching: Foundations of the New Reform.” Harvard Educational Review, 57(1), 1987, pp. 1–22.

11.Siemens, G. Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age. International Journal of Instructional Technology and Distance Learning, 2005.

12.Richards, J. C. Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge: Cambridge University Press, 2014.

13.Mayer, R. E. Multimedia Learning. Cambridge: Cambridge University Press, 2021.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING TAHLILIY O‘QISH KO‘NIKMALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Arziqulova Dilshoda Oyidinovna,
Navoiy davlat universiteti 2-bosqich magistranti

Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchilarning tahliliy o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari, pedagogik shart-sharoitlari va samarali usullari tahlil qilingan. Tahliliy o‘qish o‘quvchilarning matn mazmunini chuqur anglash, asosiy g‘oyani ajratish, sabab-oqibat bog‘lanishlarini aniqlash hamda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim kognitiv jarayon sifatida qaraladi. Tadqiqotda interaktiv metodlar, kompetensiyaviy yondashuv, konstruktivistik ta’lim nazariyasi hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini oshirish yo‘llari ishlab chiqilgan. Shuningdek, eksperimental kuzatuv natijalari asosida metodik tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: *O‘qish savodxonligi, tahliliy o‘qish, boshlang‘ich ta’lim, tanqidiy fikrlash, kompetensiya, matn tahlili, interaktiv metodlar, pedagogik texnologiya, konstruktivizm.*

IMPROVING STUDENTS’ ANALYTICAL READING SKILLS IN PRIMARY SCHOOL READING LITERACY LESSONS

This article analyzes the theoretical and methodological foundations, pedagogical conditions, and effective methods for developing students’ analytical reading skills in primary school reading literacy lessons. Analytical reading is considered an important cognitive process that contributes to deep understanding of the text, identification of the main idea, determination of cause-and-effect relationships, and development of critical thinking skills. The study develops ways to improve reading literacy based on interactive methods, a competency-based approach, constructivist learning theory, and modern pedagogical technologies. In addition, methodological recommendations are provided based on the results of experimental observations.

Keywords: *Reading literacy, analytical reading, primary education, critical thinking, competence, text analysis, interactive methods, pedagogical technology, constructivism.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ АНАЛИТИЧЕСКИХ НАВЫКОВ ЧТЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ ЧИТАТЕЛЬСКОЙ ГРАМОТНОСТИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

В данной статье проанализированы теоретико-методические основы, педагогические условия и эффективные методы развития аналитических навыков чтения у учащихся на уроках читательской грамотности в начальных классах. Аналитическое чтение рассматривается как важный когнитивный процесс, способствующий глубокому пониманию текста, выделению основной идеи, определению причинно-следственных связей и развитию критического мышления. В исследовании разработаны пути повышения читательской грамотности на основе интерактивных методов, компетентностного подхода, конструктивистской теории обучения и современных педагогических технологий. Также представлены методические рекомендации на основе результатов экспериментальных наблюдений.

Ключевые слова: *Читательская грамотность, аналитическое чтение, начальное образование, критическое мышление, компетенция, анализ текста, интерактивные методы, педагогические технологии, конструктивизм.*

Kirish. Bugungi kunda ta’limning asosiy vazifalaridan biri – o‘quvchini mustaqil fikrlovchi, har bir voqea-hodisa va matn mazmunini chuqur anglay oladigan, tahlil qiladigan va xulosa chiqaradigan shaxs sifatida shakllantirishdir. Ayniqsa, boshlang‘ich sinflar bu borada eng muhim bosqich hisoblanadi, chunki bu davrda bolalarda tafakkur, xotira, nutq va dunyoqarash shakllanadi. John Dewey ta’kidlaganidek, “Tanqidiy fikrlash – bu insonning har qanday hukm chiqarishda, harakatda yoki e’tiqodda ishonchli asosga ega bo‘lish uchun tahlil qilish va shubha qilish qobiliyatidir.” O‘qish savodxonligi darslari orqali o‘quvchilarni tanqidiy fikrlashga yo‘naltirish – ularning mustaqil fikrlash malakasini shakllantirishda samarali vosita bo‘la oladi.

Ta’lim tizimida o‘qish savodxonligi o‘quvchilarning keyingi barcha fanlarni o‘zlashtirishida asosiy tayanch kompetensiya sifatida qaraladi. Xalqaro baholash dasturlari (PISA, PIRLS) natijalari ham

o‘quvchilarning matnni tushunish va tahlil qilish ko‘nikmalari darajasi muhim indikator ekanligini ko‘rsatmoqda. Boshlang‘ich ta’lim bosqichi o‘quvchilarda o‘qish madaniyati, matn bilan ishlash ko‘nikmasi va fikrlash operatsiyalarini shakllantirishda hal qiluvchi davr hisoblanadi. Shu bois, o‘qish savodxonligi darslarida tahliliy o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida e’tirof etiladi. Tahliliy o‘qish faqat matnni o‘qish emas, balki uni tahlil qilish, interpretatsiya qilish, baholash va xulosa chiqarish jarayonidir. Bu esa o‘quvchining kognitiv faoliyatini yuqori bosqichga olib chiqadi.

Adabiyotlar tahlili. Tahliliy o‘qish ko‘nikmalari bo‘yicha ilmiy qarashlar kognitiv psixologiya va pedagogikada keng o‘rganilgan.

L. S. Vygotskiy nazariyasiga ko‘ra, o‘quvchilarning yuqori darajadagi fikrlash jarayonlari ijtimoiy muhit va hamkorlik asosida shakllanadi. Bu tahliliy o‘qish jarayoniga bevosita taalluqlidir.

J. Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasida esa bolalarda mantiqiy fikrlash bosqichma-bosqich shakllanishi ta’kidlanadi. Bu boshlang‘ich sinf davrida tahliliy o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

PISA va PIRLS tadqiqotlarida o‘qish savodxonligi quyidagi komponentlarga ajratiladi:

- matnni tushunish
- axborotni tahlil qilish
- interpretatsiya
- refleksiya va baholash

Mahalliy pedagog olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda interaktiv metodlar (insert, klaster, BBB, aqliy hujum) o‘quvchilarning tahliliy fikrlashini rivojlantirishda samarali vosita ekanligi qayd etilgan.

Kadirova “O’qish savodxonligi va uning ahamiyati” [6] asarida o’qish savodxonligining nafaqat akademik muvaffaqiyatga, balki ijtimoiy va shaxsiy hayotga ta’sirini ko’rsatadi. Muallif, o’qish jarayonida mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish o’quvchilarga har qanday muammoni tahlil qilish va hal etish ko’nikmalarini beradi, bu esa ularning umumiy rivojlanishiga yordam beradi.

Azizov “Zamonaviy ta’lim uslublari” asarida o’qitish jarayonida innovatsion texnologiyalar va metodlardan foydalanishning ahamiyatini ta’kidlaydi. O’yinlar, simulyatsiyalar va boshqa interaktiv usullar yordamida o’quvchilarni mantiqiy fikrlashga jalb qilish, ularning o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonini yengillashtiradi. Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun labirint, ikkita obyekt o‘rtasida o‘xshashlikni aniqlash, xato topish, krossvord yechish orqali rivojlantirish kerak. Eng samara beradigan usullardan biri bu rasmdir. Chizish jarayonida bolaning bilish faoliyati rivojlanadi, rang, hajm, makon kabi tushunchalar paydo bo‘ladi. Bolalar ko‘proq o‘yinqaroq bo’lganligi sababli ularga o’yin texnologiyalari bilan darsni o’tkazish kerak. O’yin o’quvchini ta’limda g’alaba erishishda qiziqishini orttiradi va undan bola kuchli motivatsiya hosil qilish imkoniyatini beradi. O’quvchini o’yin orqali tezkor harakat qilishga, chaqqonlikka topqirlikka, unda qonun-qoidalarga rioya qilish ko’nikmalari shakllanadi. Ayniqsa, ularda tashqi dunyoni tasavvur etish, erkin fikr yuritish, o’zaro muloqotga kurashuvchanlik vujudga keladi.

Mamatqulov “Ta’lim metodlari va pedagogik texnologiyalar” asarida interaktiv metodlarning o’qitish jarayonidagi ahamiyatini ta’kidlaydi. Muallif, o’quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash orqali ularning mantiqiy fikrlash qobiliyatini oshirishga imkon yaratishini ko’rsatadi. Guruhli ishlash va muhokama metodlari o’quvchilarning fikrlarini erkin ifoda etishiga va mantiqiy tahlil qilishiga yordam beradi.

Natija. Tadqiqot natijalari boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida tahliliy o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan interaktiv va kompetensiyaviy yondashuvlar an’anaviy o‘qitish usullariga nisbatan sezilarli darajada samarali ekanligini ko‘rsatdi. Tajriba jarayonida o‘quvchilarning matnni yuzaki o‘qishdan chuqur tahlil qilish bosqichiga o‘tishi kuzatildi. Xususan, tajriba guruhida o‘quvchilarning matn mazmunini tushunish darajasi oshdi, ular asosiy g‘oyani ajratish va muhim ma’lumotlarni ikkinchi darajali elementlardan farqlash ko‘nikmalarini ancha yaxshiroq egalladilar. Shuningdek, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash, matn voqealarini mantiqiy ketma-ketlikda tahlil qilish hamda o‘z fikrini asoslab berish qobiliyati rivojlanganligi aniqlandi. Natijalar shuni ham ko‘rsatdiki, tahliliy o‘qish jarayoniga yo‘naltirilgan darslar o‘quvchilarning faolligini oshirdi, ularni mustaqil fikrlashga undadi hamda o‘qishga nisbatan qiziqishni kuchaytirdi. Interaktiv metodlar (savol-javob, klaster, BBB, muammoli vaziyatlar) qo‘llanilganda o‘quvchilarning darsdagi ishtiroki va tahliliy fikrlash faolligi sezilarli darajada ortdi. Umuman olganda, tajriba natijalari tahliliy o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash yuqori samaradorlikka ega ekanligini tasdiqladi. An’anaviy yondashuvda o‘quvchi ko‘proq matnni o‘qish va qayta aytib berish bilan cheklanadi. Biroq bu yondashuv tahliliy fikrlashni yetarli darajada rivojlantirmaydi. Interaktiv metodlar esa:

o‘quvchini faol subyektga aylantiradi;

mustaqil fikrlashni rag‘batlantiradi;

hamkorlikda ishlashni kuchaytiradi.

Konstruktivistik yondashuvga ko‘ra, bilim tayyor holda berilmaydi, balki o‘quvchi tomonidan faol quriladi. Shu nuqtayi nazardan tahliliy o‘qish jarayoni eng samarali o‘quv faoliyatlaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, ayrim muammolar mavjud:

- o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi yetarli emas
- dars vaqtining cheklanganligi
- individual yondashuvni amalga oshirish qiyinligi

Muhokama. Olingan natijalar boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida tahliliy o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayoni murakkab va ko‘p bosqichli kognitiv faoliyat ekanligini ko‘rsatadi. An’anaviy yondashuvda o‘quvchi asosan matnni o‘qish va qayta hikoya qilish bilan cheklansa, interaktiv va kompetensiyaviy yondashuvlarda u matnni tahlil qilish, baholash va mustaqil xulosa chiqarish jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tahliliy o‘qish ko‘nikmalari faqat o‘qish texnikasiga bog‘liq emas, balki o‘quvchining kognitiv rivojlanish darajasi, fikrlash operatsiyalari va pedagogik muhit bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu nuqtayi nazardan, interaktiv metodlar va muammoli ta’lim elementlari o‘quvchilarning tanqidiy va mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Biroq, tadqiqot jarayonida ayrim muammolar ham aniqlandi. Jumladan, ba’zi o‘qituvchilarning tahliliy o‘qish metodikasini to‘liq egallamaganligi, dars vaqtining cheklanganligi hamda barcha o‘quvchilar uchun individual yondashuvni birdek ta’minlashdagi qiyinchiliklar kuzatildi. Shu bilan birga, texnik va metodik resurslar yetishmasligi ham jarayon samaradorligiga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shunga qaramay, muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, tahliliy o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tizimli qo‘llash o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi. Ayniqsa, konstruktivistik yondashuv asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning mustaqil bilim qurish jarayonini faollashtiradi va ularning o‘qishga bo‘lgan munosabatini ijobiy tomonga o‘zgartiradi.

Mustaqil fikrlash bolalarning muammoni tushunish, muqobil yechimlarni ilgari surish va qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishda asosiy rol o‘ynaydi. Matnni qayta tasvirlash matn ustida ishlashda katta ahamiyatga ega bo‘lib, o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Qayta tasvirlashdan to‘g‘ri foydalanish esa asarda yozuvchi tasvirlayotgan hayotiy manzaralarni o‘quvchilarning aniq tasavvur qilishlari uchun qulay sharoit yaratadi. Boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish darslarida o‘quvchilarning grammatik hamda nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirish, ulardagi kreativlikni oshirish yakunda tanqidiy fikrlashni o‘stiruvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. O’qish savodxonligi nafaqat matnni tushunish, balki mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga ham qaratilgan muhim jarayondir. O‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini oshirishda zamonaviy pedagogik metodlar va yondashuvlar alohida ahamiyatga ega. Ushbu tahlil, o’qish savodxonligi darslarida qo’llaniladigan zamonaviy yondashuvlar va ularning ta’siri haqida ilmiy manbalarni ko’rib chiqadi.

Xulosa. Boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchilarning tahliliy o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, tahliliy o‘qish nafaqat matnni to‘g‘ri o‘qish va tushunish, balki uning mazmunini chuqur tahlil qilish, asosiy g‘oyani ajratish, mantiqiy bog‘lanishlarni aniqlash hamda mustaqil xulosa chiqarish kabi yuqori darajadagi fikrlash jarayonlarini rivojlantiradi.

Ilmiy tahlillar asosida shuni qayd etish mumkinki, interaktiv metodlar va kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan o‘qish darslari o‘quvchilarning faolligini oshiradi, ularni passiv tinglovchidan faol fikrlovchi subyektga aylantiradi. Bu esa o‘z navbatida tanqidiy fikrlash, tahlil qilish va baholash ko‘nikmalarining shakllanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, tahliliy o‘qish jarayonining samaradorligi o‘qituvchining metodik mahorati, darsni tashkil etish shakli hamda ta’lim muhitining zamonaviyligi bilan bevosita bog‘liq ekanligi aniqlandi. An’anaviy yondashuvlar bilan solishtirganda, interaktiv va muammoli ta’lim elementlari o‘quvchilarning bilimni chuqurroq o‘zlashtirishiga va uni amaliy vaziyatlarda qo‘llay olishiga imkon yaratadi.

Umuman olganda, tahliliy o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning intellektual salohiyatini oshirish, ularni mustaqil fikrlaydigan, ijodkor va tanqidiy yondashuvga ega shaxs sifatida shakllantirishda muhim pedagogik ahamiyatga ega. Shu bois, kelgusida ushbu yo‘nalishda innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish va metodik bazani yanada takomillashtirish ta’lim sifatini oshirishning asosiy omillaridan biri bo‘lib qoladi.

Adabiyotlar:

1. Husanboyeva Q., Shodiyev F., Hazratqulov M. Boshlang‘ich ta’limda adabiyot o‘qitish metodikasi. SamDU. 2019.350 b. 182-b.

2. Kadirova N. “O‘qish savodxonligi va uning ahamiyati”. Tashkent: “O‘qituvchi”, 2022.

3. Mamatqulov O. “Ta’lim metodlari va pedagogik texnologiyalar”. Toshkent: “O‘qituvchi”, 2021.

4. Tafakkur gulshani. //Vatandosh hamda xorijiy allomalarning aforizmlari va hikmatli so‘zlari. To‘plovchi Voronsov V. T.: G‘afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1989.54 b.

5. Toirov M.E. O‘qish savodxonligi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. I qism. Toshkent: “Novda Edutainment” nashriyoti, 2023. – 80 b.

6. Ибрагимов Р. Бошланғич синф ўқувчиларни билиш фаолиятини шакллантиришнинг дидактик асослари: Пед. Фан. Ном.... дисс. Автореф. Тошкент, ТДПУ, 2005.22 6.

ONA TILI DARSLARIDA NUTQNI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN DIDAKTIK O'YINLARNING AHAMIYATI

Abdullayeva Nasiba Usmonjon qizi,
Osiyo Xalqaro Universiteti boshlang‘ich ta’lim va sport tarbiyaviy ish yo‘nalishi 1-kurs magistranti

Mazkur maqolada ona tili darslarida o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishda didaktik o‘yinlarning o‘rni hamda ahamiyati yoritilgan. Didaktik o‘yinlar orqali o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish, muloqot madaniyatini shakllantirish va darslarga qiziqishini kuchaytirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada nutqni rivojlantirishga xizmat qiluvchi interfaol metodlar va o‘yin texnologiyalarining ta’lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *didaktik o‘yinlar, nutq rivojlantirish, ona tili darslari, interfaol metodlar, og‘zaki nutq, yozma nutq, so‘z boyligi, ta’lim samaradorligi, kommunikativ kompetensiya, pedagogik texnologiyalar.*

THE IMPORTANCE OF DIDACTIC GAMES AIMED AT DEVELOPING SPEECH IN MOTHER TONGUE LESSONS

This article discusses the role and importance of didactic games in developing students’ oral and written speech during mother tongue lessons. Through didactic games, students’ vocabulary enrichment, independent thinking skills, communication culture, and interest in lessons are improved. The article also analyzes the effectiveness of interactive methods and game technologies in enhancing speech development and increasing the overall efficiency of the educational process.

Keywords: *didactic games, speech development, mother tongue lessons, interactive methods, oral speech, written speech, vocabulary enrichment, educational effectiveness, communicative competence, pedagogical technologies.*

ЗНАЧЕНИЕ ДИДАКТИЧЕСКИХ ИГР, НАПРАВЛЕННЫХ НА РАЗВИТИЕ РЕЧИ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА

В данной статье рассматриваются роль и значение дидактических игр в развитии устной и письменной речи учащихся на уроках родного языка. Посредством дидактических игр развивается словарный запас учащихся, формируются навыки самостоятельного мышления, культура общения и повышается интерес к урокам. Также в статье анализируется значение интерактивных методов и игровых технологий в повышении эффективности обучения и развитии речевых навыков учащихся.

Ключевые слова: *дидактические игры, развитие речи, уроки родного языка, интерактивные методы, устная речь, письменная речь, словарный запас, эффективность обучения, коммуникативная компетенция, педагогические технологии.*

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning nutqini rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biri sanaladi. Nutq — inson tafakkuri va madaniyatining ko'zgusi bo'lib, uni shakllantirishda maqsadga yo'naltirilgan ta'lim metodlari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ona tili darslari esa bu jarayonning asosiy maydoni hisoblanadi. Didaktik o'yinlar — ta'lim maqsadlarini ko'ngillilik, faollik va emotsional yaqinlik tamoyillari asosida amalga oshiruvchi samarali pedagogik vosita. Ular o'quvchida bilim olishga qiziqish uyg'otib, bir vaqtning o'zida til ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bolaning o'yin faoliyati orqali o'rganishi tabiiy jarayon bo'lib, didaktik o'yinlar ana shu tabiiy moyillikdan unumli foydalanadi. Ona tili ta’limining bosh maqsadi — o’quvchini har tomonlama rivojlangan, nutq madaniyatiga ega shaxs sifatida tarbiyalashdan iborat.[1]

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tadqiqotchilar L.S. Vigotskiy, D.B. Elkonin, Sh.A. Amonashvili va O.Musurmonova larning ishlari shuni ko'rsatadiki, o'yin nafaqat dam olish vositasi, balki bolaning aqliy va nutqiy rivojlanishida asosiy mexanizm vazifasini bajaradi. Ona tili darslarida didaktik o'yinlardan to'g'ri va tizimli foydalanish o'quvchining kommunikativ kompetentligini sezilarli darajada oshiradi.

D.B. Elkonin ta’kidlaganidek, o’yin bola shaxsini rivojlantirishning yetakchi faoliyat turidir[2]. Maqolaning maqsadi — ona tili darslarida qo’llanadigan didaktik o’yinlarning nutqni rivojlantirishdagi

ilmiy-pedagogik ahamiyatini ochib berish va ularni tizimli qo’llanishining metodologik asoslarini belgilashdan iborat.

O’zbekiston Respublikasining «Ta’lim to’g’risida»gi Qonunida ham zamonaviy, interfaol va innovatsion o’qitish metodlaridan foydalanish ta’lim muassasalariga qo’yiladigan talab sifatida mustahkamlangan.[3] Didaktik o’yinlar aynan shu talabni qondiruvchi samarali pedagogik vosita hisoblanadi.

Didaktik o'yinlarning mohiyati va turlari:

Didaktik o'yin — maxsus tashkil etilgan ta'lim faoliyatining bir turi bo'lib, unda o'quv vazifasi o'yin shakliga «kiyintiriladi». Bu turdagi o'yinlar uchun quyidagi xususiyatlar xarakterli:

- Aniq didaktik maqsad mavjudligi;
- O'yin qoidalari va shartlari mavjudligi;
- Raqobatchilik yoki hamkorlik elementi;
- O'quvchi faolligini ta'minlash;
- Emotsional qiziqishni uyg'otish;

Ona tili darslarida qo'llaniladigan didaktik o'yinlarni bir necha turga ajratish mumkin:

1. So'z o'yinlari- o'quvchining lug'at boyligini kengaytirishga va so'zlarning ma'no, vazifa hamda uslubiy xususiyatlarini o'zlashtirishga yo'naltirilgan. Bularga «kim ko'p so'z topadi?», «so'z zanjiri», «antonim-sinonim poygasi», «so'zni tanib ol», «topishmoqli so'z» kabi o'yinlar kiradi.

2. Grammatik o'yinlar - o'yinlar til qoidalarini qiziqarli tarzda o'rgatish uchun xizmat qiladi. «fe'l ovi», «gap tuzuvchilar», «xato toping», «kim tezroq to'g'rilaydi?» kabi o'yinlar orqali o'quvchilar grammatik kategoriyalar, so'z turkumlari va sintaktik tuzilishlarni amaliy jihatdan o'rganadi.

3. Nutqiy muloqot o'yinlari bu turdagi o'yinlar kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantiradi. Rol o'ynash, debat, «suhbat laboratoriyasi», dramatizatsiya, intervyu o'yinlari o'quvchilarga hayotiy muloqot vaziyatlarida nutqdan foydalanishni o'rgatadi. Ular og'zaki nutqning barcha jihatlarini: talaffuz, intonatsiya, uslub, nutq odobi va mantiqiy izchillikni mashq qildiradi.

4. Ijodiy va matniy o'yinlar - ijodiy o'yinlar o'quvchining yozma nutqini va badiiy tafakkurini shakllantiradi. «davom ettir», «ertak to'qi», «rasm asosida hikoya», «yangi tugatma» kabi o'yinlar o'quvchi ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqaradi va yozma nutqni boyitadi.

Didaktik o'yinlarning ona tili darslarida nutqni rivojlantirish borasidagi samarasi ko'p qirrali bo'lib, quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

- Lug'at boyligini kengaytirish O'yin muhitida yangi so'zlar o'quvchi uchun «tirik» kontekstda paydo bo'ladi. Ularni qo'llash zarurati tug'ilganda, o'quvchi yangi leksik birlikni ongli ravishda o'zlashtiradi. Tadqiqotlar ko'rsatadiki, o'yin faoliyatida o'zlashtirilgan so'zlar an'anaviy usulda o'rganilganga nisbatan xotirada 2–3 baravar uzoqroq saqlanadi.
- Og'zaki nutq ko'nikmalarini takomillashtirish. Rol o'ynash va muloqot o'yinlari paytida o'quvchi fikrlarini og'zaki ifodalashga, so'z tanlashga, gaplarni mantiqiy qurishga majbur bo'ladi. Bu jarayon og'zaki nutqning barcha komponentlarini: talaffuz aniqligini, intonatsiya turliligini, nutq tezligi va sur'atini tabiiy sharoitda mashq qildiradi.
- Kommunikativ kompetentlik — zamonaviy ta'limning ustuvor maqsadlaridan biridir. Didaktik o'yinlar o'quvchiga turli muloqot vaziyatlariga moslashishni, tinglovchini hisobga olgan holda nutq uslubini tanlashni va muloqotning ijtimoiy normalarini amalda qo'llashni o'rgatadi. Guruhiy o'yinlar jamoaviy muloqot madaniyatini ham tarbiyalaydi.
- Yozma nutqni rivojlantirish Ijodiy yozma o'yinlar o'quvchida bayon qilish, tasvirlash va mulohaza yuritish ko'nikmalarini rivojlantiradi. O'quvchi o'yin shaklida yozayotganda uslubiy, leksik va grammatik jihatlarga ko'proq e'tibor qaratadi, chunki o'yindagi raqobat yoki hamkorlik uni sifatli natijaga undaydi.
- Psixologik xavfsizlik muhitini yaratish -Ko'p o'quvchilar xato qilishdan qo'rqib, dars paytida so'zga chiqishdan tortinadi. O'yin muhiti bu psixologik to'siqni yo'q qiladi: xato o'yinning tabiiy qismi sifatida qabul qilinadi va tanqid qilinmaydi. Bu erkin nutq mashq qilinishi uchun qulay shart-sharoit yaratadi.

Didaktik o'yinlarni darsda qo'llashning metodologik asoslari

Didaktik o'yinlarni ona tili darslariga samarali kiritish uchun bir qator metodologik tamoyillarga rioya qilish zarur:

- Maqsadga muvofiqlik: har bir o'yin aniq o'quv vazifasiga bog'liq bo'lishi kerak
- Yosh xususiyatlari: o'yin o'quvchilarning yoshi, bilim darajasi va psixologik imkoniyatlariga mos bo'lishi lozim
- Izchillik: o'yinlar darsning mantiqiy ketma-ketligiga mos holda joylashtirilishi kerak

•Differentsial yondashuv: turli qiyinlik darajasidagi o'yinlar turli o'quvchilarga mo'ljallangan bo'lishi maqsadga muvofiq

•Muntazamlik: vaqti-vaqti bilan emas, balki tizimli ravishda qo'llanilganda o'yinlar maksimal ta'sir ko'rsatadi

O'qituvchining didaktik o'yinda roli muhim: u tashkilotchi, yo'naltiruvchi va baholovchi sifatida faoliyat yuritadi. O'yin boshlashdan oldin maqsad, qoidalar va mezonlar aniq tushuntirilishi, o'yin jarayonida o'qituvchi kuzatuvchi sifatida ishtirok etishi, o'yin yakunida natijalar muhokama qilinishi va til hodisalari umumlashtirilishi kerak.

Amaliyotda samarali natija bergan didaktik o'yinlarga misollar:

O‘yin nomi	Maqsad	Tavsif
So‘z zanjiri	Lug‘at boyligini kengaytirish	Birinchi o‘quvchi biror so‘z aytadi, keyingisi shu so‘zning oxirgi harfi bilan boshlanadigan yangi so‘z aytadi.
Men kim bo‘lardim	Og‘zaki monolog nutqini rivojlantirish	O‘quvchi muayyan kasb, tarixiy shaxs yoki adabiy qahramon nomidan o‘zi haqida gapirib beradi.
Xatoni toping	Grammatik sezgirlikni rivojlantirish	O‘qituvchi ataylab xatoliklar kiritilgan matn o‘qiydi, o‘quvchilar xatolarni aniqlab, to‘g‘rilaydi.
Rasm orqali hikoya	Tasviriy nutq va hikoya qilish	O‘quvchilarga rasm yoki rasmlar seriyasi beriladi, ular asosida hikoya tuziladi.

Muammo va yechimlar. Didaktik o'yinlarning samaradorligi bir qator omillarga bog'liq. Amaliyotda uchraydigan asosiy muammolardan biri — o'yinni to'g'ri rejalashtirilmasligi natijasida u ta'lim vositasidan ko'ra ko'ngilochar faoliyatga aylanib qolishi, bunday holatlarda didaktik maqsad rejada ko'rinsa ham, o'yin jarayonida u unutiladi.

Ikkinchi muammo — bir xil turdagi o'yinlarning takrorlanishi, bu esa o'quvchilarda zerikish hissini uyg'otadi. Shuning uchun o'yin repertuarini doimo yangilab borish va turli shakllarni navbatlashtirish tavsiya etiladi.

Uchinchi muammo — baholash masalasidir. Ko'pgina o'qituvchilar didaktik o'yinlarni baholamaslik kerak deb hisoblaydi, ammo aslida o'yin natijalarining ham aniq mezonlar asosida baholanishi o'quvchilarni sifatli ishtirok etishga rag'batlantiradi. Albatta, baho jarayoni o'yin ruhini buzmasligi lozim.

Xulosa. Ona tili darslarida didaktik o'yinlar nutqni rivojlantirishning eng samarali va tabiiy usullaridan biri hisoblanadi. Ular o'quvchining lug'at boyligini kengaytiradi, og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini mustahkamlaydi, kommunikativ kompetentlikni shakllantiradi hamda o'rganishga ijobiy emotsional munosabat tarbiyalaydi.Didaktik o'yinlar an'anaviy o'qitish usullarini inkor etmaydi, balki ularni to'ldiradi va boyitadi. O'yinni darsga kiritish — bu faqat yangi metodik usul emas, bu o'quvchining tabiatiga, uning rivojlanish qonuniyatlariga hurmat. Zamonaviy pedagogikaning eng muhim tamoyili ham ana shunday: o'quvchi qiziqish bilan o'rganganida eng yaxshi natijaga erishadi.Shuning uchun har bir ona tili o'qituvchisi didaktik o'yinlarni o'z pedagogik arsenalining ajralmas qismi sifatida qabul qilishi va ularni tizimli, maqsadli hamda ijodiy ravishda qo'llashi tavsiya etiladi.

Adabiyotlar:

1. Qosimova K., Matchonov S. O’zbek tili o’qitish metodikasi. — Toshkent: Fan, 2009. — B. 130.
2. Elkonin D.B. Psikhologiya igry. — Moskva: Vlados, 1999. — S. 78–85.
3. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. — Toshkent, 2020. — 17-modda
4. Xoliqov A. Ona tili ta’limi metodikasi. — Toshkent: O’qituvchi, 2018. — B. 47.
5. Amonashvili Sh.A. O'yin va ta'lim: pedagogik fikrlar. — Toshkent: G'afur G'ulom, 2005.
6. Musurmonova O. Milliy ta'limda o'yin texnologiyalari. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010.
7. Ziyodullayeva N. Ona tili darslarida interfaol metodlar. — Toshkent: O'zbekiston, 2018.
8. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. — Toshkent, 2020.
9. Davlatov S., Nishonova S. Didaktik o'yinlar metodikasi. — Samarqand: SamDU nashri, 2015

OLIY TA’LIMDA MUAMMOLI O'QITISH TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BO'LAJAK CHET TILI O'QITUVCHILARINING LINGVODIDAKTIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

Sharipova Sitora Xaydarovna,
Buxoro davlat universiteti doktoranti, Pedagogika kafedrasi o’qituvchisi
s.x.sharipova@buxdu.uz

Ushbu maqolada kelajakdagi chet tili o'qituvchilarining lingvodidaktik ko'nikmalarini samarali rivojlantirishni ta'minlaydigan professional yo'naltirilgan treningni tashkil etish usullari ko'rib chiqiladi. Maqolada lingvodidaktik kompetentsiyani lingvistik va psixologik-pedagogik sohalaradagi birliklarda fanlarini o'zlashtirish natijasida yuzaga keladigan integrativ shaxsiy xususiyat sifatida belgilash ko’rsatilgan. Lingvodidaktik ko'nikmalarni rivojlantirish metodologiyasi tizimli, faoliyatga asoslangan va shaxsga yo'naltirilgan jarayon bo'lib, u professional moslashuvchan, professional konstruktiv va professional samarali darajalarni ajratib turadi. Muammoli o'rganish mashqlari kelajakdagi chet tili o'qituvchilarining lingvodidaktik ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali usuli bo'lib xizmat qiladi. Ushbu maqolada universitetda talabalarni kasbiy tayyorlashda mashqlar va muammoli o'rganish mashqlaridan foydalanishga misollar keltirilgan va ularning didaktik salohiyati ochib berilgan. Ishlab chiqilgan metodologiyani uch darajada (professional moslashuvchan, professional konstruktiv va professional samarali) tizimli qo'llash kelajakdagi chet tili o'qituvchilarining lingvodidaktik ko'nikmalarini rivojlantirishni ta'minlaydi va ularning kasbiy rivojlanishiga yordam beradi.

Kalit so'zlar: *shakllanish, lingvodidaktik kompetensiya, lingvodidaktik ko'nikmalar, bo’lajakdagi chet tili o'qituvchisi, metodologiya, muammoli o’qitish texnologiyalari.*

ФОРМИРОВАНИЕ ЛИНГВОДИДАКТИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА НА ОСНОВЕ ТЕХНОЛОГИЙ ПРОБЛЕМНОГО ОБУЧЕНИЯ В ВУЗЕ

В данной статье рассматриваются методы организации профессионально ориентированного обучения, обеспечивающего эффективное развитие лингводидактических навыков будущих преподавателей иностранного языка. В работе лингводидактическая компетенция определяется как интегративное личностное качество, формирующееся в результате освоения дисциплин лингвистического и психолого-педагогического циклов.

Методика развития лингводидактических навыков рассматривается как системный, деятельностный и личностно-ориентированный процесс, включающий профессионально адаптивный, профессионально конструктивный и профессионально эффективный уровни. Проблемное обучение выступает эффективным средством развития лингводидактических компетенций будущих преподавателей иностранного языка. В статье приведены примеры упражнений и проблемных заданий, используемых в профессиональной подготовке студентов в вузе, и раскрыт их дидактический потенциал.

Систематическое применение разработанной методики на трёх уровнях (профессионально адаптивном, профессионально конструктивном и профессионально эффективном) способствует развитию лингводидактических навыков будущих преподавателей иностранного языка и их профессиональному становлению.

Ключевые слова: *формирование, лингводидактическая компетенция, лингводидактические навыки, будущий преподаватель иностранного языка, методика, технологии проблемного обучения.*

FORMATION OF LINGUODIDACTIC COMPETENCES OF FUTURE FOREIGN LANGUAGE TEACHERS BASED ON PROBLEM-BASED LEARNING TECHNOLOGIES IN HIGHER EDUCATION

This article examines methods of organizing professionally oriented training aimed at effectively developing the lingvodidactic skills of future foreign language teachers. Lingvodidactic competence is defined as an integrative personal quality formed through the mastery of linguistic and psycho-pedagogical disciplines.

The methodology for developing lingvodidactic skills is considered a systemic, activity-based, and learner-centered process, which includes professional adaptive, professional constructive, and professional

effective levels. Problem-based learning is presented as an effective method for developing the lingvodidactic competence of future foreign language teachers. The article provides examples of exercises and problem-based tasks used in university teacher training and reveals their didactic potential.

The systematic implementation of the developed methodology at three levels (professional adaptive, professional constructive, and professional effective) ensures the development of lingvodidactic skills of future foreign language teachers and supports their professional growth.

Keywords: *formation, lingvodidactic competence, lingvodidactic skills, future foreign language teacher, methodology, problem-based learning technologies.*

Bugungi sharoitda professional malakali chet tili o'qituvchilarini tayyorlashning dolzarbligi ta'lim mazmunidagi tez o'zgarishlar, o'qitish va o'rganish jarayonining sifatiga bo'lgan talablarning ortishi va talabalarda XXI asrning asosiy kompetentsiyalarini rivojlantirish zarurati bilan belgilanadi. Lingvodidaktik kompetentsiya - metodologik bilimlar, amaliy ko'nikmalar, kommunikativ kompetentsiya va o'z ta'limoti haqida mulohaza yuritishga tayyorlikni o'z ichiga olgan integrativ ta'lim - bu tizimda alohida o'rin tutadi. Oliy ta’limda nafaqat til bilimlarini berishga, balki talabalarning tanqidiy fikrlash va tadqiqot ko'nikmalarini rag'batlantiradigan o'quv faoliyatini tashkil etishga qodir mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojning ortib borayotganini hisobga olgan holda, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning samarali usullari masalasi ayniqsa muhimdir. Muammoli o'qitish kognitiv faoliyatni faollashtirish, mustaqillikni rivojlantirish va talabalarda professional fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan istiqbolli pedagogik texnologiya hisoblanadi. Muammoli o'qitish tamoyillarini chet tili o'qituvchilarini tayyorlashga integratsiya qilish real hayotdagi pedagogik vaziyatlarni simulyatsiya qilish, o'quv muammolarini tashxislash, muammoli darslarni loyihalash va ularning natijalarini etarli darajada baholash qobiliyatini rivojlantirish imkonini beradi. Ushbu ishning maqsadi oliy ta'lim muassasasida filologiya talabalarining (kelajakdagi chet tili o'qituvchilari) lingvodidaktik kompetensiyalarini rivojlantirishda muammoli o'qitishning samaradorligini asoslash va eksperimental ravishda sinab ko'rishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun tadqiqot quyidagi vazifalarni hal qiladi: lingvodidaktik kompetensiyaning mohiyatini nazariy tushunish, muammoli darslarning metodologik to'plamini ishlab chiqish va natijalarni keyinchalik baholash va chet tili fakultetlari o'quv dasturlari uchun tavsiyalar ishlab chiqish bilan pedagogik tajriba o'tkazish. Tadqiqotning amaliy ahamiyati kelajakdagi o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirish maqsadida universitetning o'quv jarayoniga tatbiq etish uchun mos metodologik materiallar va diagnostika vositalarini ishlab chiqishdir. Ushbu ishning ilmiy yangiligi muammoli o'qitishni lingvodidaktik mashg'ulotlarga integratsiyalash, tegishli kompetensiyalarni rivojlantirish mezonlari va ko'rsatkichlarini aniqlash va taklif qilingan usullarni real o'qitish sharoitida sinab ko'rishga kompleks yondashuvdadir.

O'qituvchilar uchun professional standartga muvofiq, bugungi o'qituvchilar zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llay olishlari, talabalar uchun individual yo'naltirilgan o'rganish va rivojlanish traektoriyasini ta'minlay olishlari, ularning ko'p madaniyatli muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishlari va mamlakatning innovatsion rivojlanishi uchun zarur bo'lgan kompetensiyalarni rivojlantirishlari kerak. [1-2]

Davlatning muhim vazifasi - bu yangi qiyinchiliklar ko'lamiga mos keladigan xorijiy til o'qituvchilarini tayyorlash uchun yangi resurslarni topish, bu esa kelajakdagi o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga yordam beradigan zamonaviy yondashuvlar, usullar, vositalar va o'qitish shakllarini izlashni taqozo etadi. Biroq, ta'lim amaliyotida jamiyatning professional malakali xorijiy til o'qituvchilariga bo'lgan ehtiyoji va talabalarni - kelajakdagi xorijiy til o'qituvchilarini - mustaqil professional kommunikativ va ta'lim faoliyatiga yetarlicha tayyorlamaslik o'rtasida qarama-qarshilik kuzatilmoqda. Xususan, talabalarning lingvodidaktik ko'nikmalarini professional til faoliyatining asosi sifatida samarali rivojlantirish muammosi hal qilinmaganligicha qolmoqda, bu esa ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Raqamli texnologiyalar zamonaviy xorijiy til ta’limining ajralmas qismiga aylanmoqda. Ayniqsa, madaniyatlararo yondashuvni amalga oshirishda virtual kommunikatsiya vositalari katta imkoniyat yaratadi. Zoom, Microsoft Teams, Google Meet va Moodle platformalari orqali xorijiy mutaxassislar bilan seminarlar, xalqaro webinarlar va virtual muloqotlar tashkil etish mumkin.

Bunday faoliyat talabalarning nafaqat til ko‘nikmalarini, balki madaniyatlararo kommunikativ tajribasini ham boyitadi. Virtual kommunikatsiya talabalarning xalqaro professional muhitga moslashuvchanligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, kasbiy ingliz tili darslarida madaniyatlararo yondashuv zamonaviy xorijiy til ta’limining muhim metodologik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv talabalarni xalqaro professional kommunikatsiyaga tayyorlash, ularning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish va global fikrlashini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, autentik materiallar, CLIL texnologiyasi, interaktiv metodlar va raqamli vositalardan foydalanish talabalarning professional kommunikativ tayyorgarligini sezilarli darajada oshiradi. Ayniqsa, madaniyatlararo yondashuv talabalarda tolerantlik, kommunikativ moslashuvchanlik va professional etikani shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu sababli oliy ta’lim muassasalarida kasbiy ingliz tilini o‘qitishda madaniyatlararo yondashuv asosidagi innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish zamonaviy ta’limning ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Adabiyotlar:

1. Byram M. *Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence*. – Clevedon: Multilingual Matters, 1997. – 124 p.
2. Deardorff D. K. *The Sage Handbook of Intercultural Competence*. – California: Sage Publications, 2009. – 569 p.
3. Coyle D., Hood P., Marsh D. *CLIL: Content and Language Integrated Learning*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010. – 184 p.
4. Richards J. C. *Communicative Language Teaching Today*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006. – 47 p.
5. Brown H. D. *Principles of Language Learning and Teaching*. – New York: Pearson Education, 2007. – 410 p.
6. Hutchinson T., Waters A. *English for Specific Purposes: A Learning-Centred Approach*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – 183 p.
7. Hall E. T. *Beyond Culture*. – New York: Anchor Books, 1976. – 298 p.
8. Kramsch C. *Language and Culture*. – Oxford: Oxford University Press, 1998. – 134 p.
9. Isroilova D. M. Professional ingliz tilini o‘qitishda madaniyatlararo yondashuv masalalari // Xorijiy tillarni o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 2021. – №3. – B. 45–52.
10. Полат Е. С. Современные педагогические и информационные технологии в системе образования. – Москва: Академия, 2010. – 368 с.
11. Тер-Минасова С. Г. Язык и межкультурная коммуникация. – Москва: Слово, 2008. – 624 с.
12. Пассов Е. И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. – Москва: Просвещение, 1991. – 223 с.
13. Safonova V. V. *Sociocultural Approach to Teaching Foreign Languages*. – Moscow: Higher School, 1996. – 240 p.
14. Canale M., Swain M. Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing // Applied Linguistics. – 1980. – Vol. 1. – №1. – P. 1–47.
15. Bakhov I. S. Formation of Professional Intercultural Competence of Future Specialists // International Journal of Applied and Fundamental Research. – 2014. – №2. – P. 98–101.

OTMDA INGLIZ TILINI O‘QITISHDA INTEGRATSIYALASHGAN KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNING METODIK ASOSLARI VA SAMARADORLIGI

Ayatov Raxim Ibragimovich,
"Alfraganus University” nodavlat oliy ta’lim tashkiloti Filologiya fakulteti Tillarni o‘qitish markazi katta o'qituvchisi, Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi
r_ayatov@afu.uz
Mirbabayeva Sabina Sobirjonovna,
"Alfraganus University” nodavlat oliy ta’lim tashkiloti Filologiya fakulteti Tillarni o‘qitish markazi katta o'qituvchisi
s.mirbabayeva@afu.uz

Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘qitishda integratsiyalashgan kompetensiyaviy yondashuvning metodik asoslari va samaradorligi ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda ingliz tili ta’limi faqat grammatik bilim, leksik zaxira yoki alohida nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirish bilan cheklanmasligi, balki kommunikativ, kasbiy, madaniyatlararo, raqamli va refleksiv kompetensiyalarni uzviy bog‘liq holda rivojlantirishi zarurligi asoslanadi. Pedagogik oliy ta’lim muassasalari sharoitida ushbu yondashuv bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini kuchaytirish, ularning metodik tafakkurini rivojlantirish hamda tilni real pedagogik va akademik vaziyatlarda samarali qo‘llash malakasini shakllantirishga xizmat qiladi. Maqolada integratsiyalashgan kompetensiyaviy yondashuvning asosiy tamoyillari, o‘qitish metodlari, baholash mezonlari va ta’lim jarayonidagi samaradorlik ko‘rsatkichlari yoritiladi. Shuningdek, kommunikativ topshiriqlar, loyiha ishlari, muammoli vaziyatlar, autentik materiallar va raqamli texnologiyalardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: *integratsiyalashgan yondashuv, kompetensiyaviy ta’lim, ingliz tilini o‘qitish, oliy ta’lim, kommunikativ kompetensiya, kasbiy kompetensiya, metodik tayyorgarlik.*

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИНТЕГРИРОВАННОГО КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДА В ПРЕПОДАВАНИИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА В УНИВЕРСИТЕТЕ

В данной статье научно-педагогически анализируются методические основы и эффективность интегрированного компетентностного подхода к обучению английскому языку в высших образовательных учреждениях. В исследовании обосновывается, что обучение английскому языку не должно ограничиваться только формированием грамматических знаний, лексического запаса или отдельных речевых навыков, а должно обеспечивать взаимосвязанное развитие коммуникативных, профессиональных, межкультурных, цифровых и рефлексивных компетенций. В условиях педагогических высших учебных заведений данный подход способствует усилению профессиональной подготовки будущих преподавателей английского языка, развитию их методического мышления и формированию умения эффективно применять язык в реальных педагогических и академических ситуациях. В статье освещаются основные принципы интегрированного компетентностного подхода, методы обучения, критерии оценивания и показатели эффективности в образовательном процессе. Также раскрываются дидактические возможности использования коммуникативных заданий, проектной работы, проблемных ситуаций, аутентичных материалов и цифровых технологий.

Ключевые слова: *интегрированный подход, компетентностное обучение, обучение английскому языку, высшее образование, коммуникативная компетенция, профессиональная компетенция, методическая подготовка.*

METHODOLOGICAL BASIS AND EFFECTIVENESS OF THE INTEGRATED COMPETENCY-BASED APPROACH IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING AT UNIVERSITY

This article provides a scientific and pedagogical analysis of the methodological foundations and effectiveness of an integrated competency-based approach to teaching English in higher education institutions. The study substantiates that English language education should not be limited only to the formation of grammatical knowledge, vocabulary, or separate language skills, but should ensure the

interconnected development of communicative, professional, intercultural, digital, and reflective competencies. In the context of pedagogical higher education institutions, this approach contributes to strengthening the professional training of future English teachers, developing their methodological thinking, and forming their ability to use the language effectively in real pedagogical and academic situations. The article highlights the main principles of the integrated competency-based approach, teaching methods, assessment criteria, and indicators of effectiveness in the educational process. It also reveals the didactic potential of communicative tasks, project work, problem-based situations, authentic materials, and digital technologies.

Keywords: *integrated approach, competency-based education, English language teaching, higher education, communicative competence, professional competence, methodological training.*

Kirish. Oliy ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘qitish jarayoni bugungi kunda faqat xorijiy tilni grammatik qoidalar asosida o‘rgatish yoki lug‘aviy birliklarni yodlatish bilan cheklanmaydi. Zamonaviy ta’lim talabalardan ingliz tilida erkin muloqot qilish, kasbiy axborotni anglash, akademik matnlar bilan ishlash, madaniyatlararo munosabatlarda faol ishtirok etish va raqamli muhitda til vositalaridan samarali foydalanish kabi murakkab kompetensiyalarni talab qiladi. Ayniqsa, pedagogik oliy ta’lim muassasalarida ingliz tili yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar kelajakda nafaqat til egasi, balki tilni o‘rgatuvchi, metodik jarayonni tashkil etuvchi va o‘quvchilarning kommunikativ rivojlanishini boshqaruvchi mutaxassis sifatida shakllanishi zarur. Shu sababli ingliz tilini o‘qitishda integratsiyalashgan kompetensiyaviy yondashuvning ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Integratsiyalashgan kompetensiyaviy yondashuv til ta’limining turli tarkibiy qismlarini yagona metodik tizimda uyg‘unlashtirishga asoslanadi. Bunda tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozish ko‘nikmalari alohida emas, balki o‘zaro bog‘liq faoliyat turlari sifatida rivojlantiriladi. Shu bilan birga, kommunikativ kompetensiya kasbiy-pedagogik, lingvometodik, madaniyatlararo, axborot-kommunikatsion va refleksiv kompetensiyalar bilan birgalikda shakllantiriladi. Natijada talaba ingliz tilini faqat o‘quv predmeti sifatida emas, balki kasbiy faoliyat, ilmiy izlanish, pedagogik muloqot va shaxsiy rivojlanish vositasi sifatida o‘zlashtiradi.

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida xorijiy tillarni o‘qitish sifatini oshirish, xalqaro ta’lim standartlariga mos mutaxassislar tayyorlash va talabalarning amaliy kommunikativ tayyorgarligini kuchaytirish muhim vazifalardan biridir. Bu jarayonda an’anaviy dars shakllarini faqat nazariy bilim berishga yo‘naltirish yetarli bo‘lmaydi. Ingliz tili mashg‘ulotlari talabaning mustaqil fikrlashi, kasbiy vaziyatlarda nutqiy qaror qabul qilishi, jamoada ishlashi, muammoni tahlil qilishi va o‘z faoliyatini baholay olishini ta’minlashi kerak. Integratsiyalashgan kompetensiyaviy yondashuv aynan shu ehtiyojlarga javob beradi, chunki u ta’lim mazmuni, metodlari, vositalari va baholash tizimini bir butun pedagogik mexanizm sifatida tashkil etadi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi ingliz tilini o‘qitishda nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalar o‘rtasidagi uzviylikni kuchaytirish, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish hamda til o‘rganish jarayonini real kommunikativ ehtiyojlar bilan bog‘lash zarurati bilan belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan, integratsiyalashgan kompetensiyaviy yondashuvning metodik asoslarini aniqlash va uning samaradorlik ko‘rsatkichlarini tahlil qilish pedagogik oliy ta’lim uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar sharhi. Ingliz tilini o‘qitishda integratsiyalashgan kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslari zamonaviy lingvodidaktika, kommunikativ metodika va kasbiy ta’lim nazariyalarida keng yoritilgan. D. Hymes tomonidan ilgari surilgan kommunikativ kompetensiya tushunchasi tilni faqat grammatik tizim sifatida emas, balki ijtimoiy muloqot vositasi sifatida o‘rganish zarurligini asoslab berdi. M. Canale va M. Swain ishlanmalarida kommunikativ kompetensiyaning grammatik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik tarkibiy qismlari ajratib ko‘rsatilib, til ta’limida ko‘nikmalarni kompleks rivojlantirish zarurligi ta’kidlanadi. J. Richards va T. Rodgers tadqiqotlarida esa til o‘qitish metodlarining amaliy samaradorligi o‘qituvchi, talaba, mazmun va vazifa o‘rtasidagi metodik uyg‘unlik bilan bog‘lanadi. D. Nunan, J. Harmer va H. Douglas Brown asarlarida kommunikativ topshiriqlar, talaba faolligi, autentik materiallardan foydalanish va baholashning uzluksizligi ingliz tili ta’limining muhim sharti sifatida talqin qilinadi. O‘zbekiston olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham xorijiy tillarni o‘qitishda kasbiy yo‘naltirilganlik, kompetensiyaviy yondashuv, interfaol metodlar va raqamli texnologiyalarni uyg‘unlashtirish masalalari pedagogik oliy ta’lim sharoitida dolzarb metodik yo‘nalish sifatida baholanadi.

Metodlar. Tadqiqotda oliy ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘qitishda integratsiyalashgan kompetensiyaviy yondashuvning metodik asoslari va amaliy samaradorligini aniqlashga qaratilgan nazariy-tahliliy, qiyosiy, pedagogik kuzatuv va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Nazariy-tahliliy metod orqali lingvodidaktika, kommunikativ ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv, kasbiy-pedagogik tayyorgarlik va

ingliz tili o‘qitish metodikasiga oid ilmiy manbalar o‘rganildi. Bu jarayonda til ta’limida kommunikativ, madaniyatlararo, kasbiy, raqamli va refleksiv kompetensiyalarni bir butun tizimda shakllantirish zarurati asosiy metodik mezon sifatida belgilandi.

Qiyosiy tahlil metodi an’anaviy grammatik-tarjima yo‘nalishidagi mashg‘ulotlar bilan integratsiyalashgan kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar o‘rtasidagi farqlarni aniqlash imkonini berdi. Bunda dars jarayonining faollik darajasi, talabalarning mustaqil nutqiy ishtiroki, kasbiy vaziyatlarda ingliz tilidan foydalanish qobiliyati, jamoaviy ishlash ko‘nikmasi va topshiriqlarni ijodiy bajarish darajasi asosiy kuzatuv mezonlari sifatida olindi. Pedagogik kuzatuv jarayonida ingliz tili mashg‘ulotlarida rolli o‘yinlar, muammoli savollar, loyiha ishlari, matn tahlili, taqdimot tayyorlash, akademik yozuv mashqlari va kasbiy muloqotga yo‘naltirilgan topshiriqlarning o‘quv natijalariga ta’siri tahlil qilindi.

Tadqiqotda integratsiyalashgan yondashuvning metodik modeli quyidagi yo‘nalishlar asosida ko‘rib chiqildi: til ko‘nikmalarini kompleks rivojlantirish, o‘quv materialini kasbiy-pedagogik mazmun bilan boyitish, talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatini faollashtirish, raqamli resurslardan foydalanish va formatif baholashni dars jarayoniga kiritish. Baholashda faqat yakuniy natija emas, balki talabaning jarayondagi ishtiroki, nutqiy faolligi, topshiriqni bajarish strategiyasi, xatolarni tuzatish qobiliyati va o‘z faoliyatini tahlil qilish ko‘nikmasi ham hisobga olindi. Umumlashtirish metodi yordamida olingan nazariy va amaliy kuzatuvlar asosida integratsiyalashgan kompetensiyaviy yondashuvning samaradorligini belgilovchi pedagogik shartlar, metodik vositalar va natijaviy ko‘rsatkichlar tizimlashtirildi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘qitishda integratsiyalashgan kompetensiyaviy yondashuvdan foydalanish talabalarning tilni o‘zlashtirish darajasini faqat nazariy bilimlar bilan emas, balki amaliy nutqiy faoliyat, kasbiy muloqot va mustaqil fikrlash ko‘nikmalari bilan bog‘liq holda rivojlantiradi. An’anaviy yondashuvda talaba ko‘pincha grammatik qoidalarni biladi, matnni tarjima qiladi yoki tayyor dialoglarni yodlaydi, biroq real kommunikativ vaziyatda mustaqil fikr bildirishda qiynaladi. Integratsiyalashgan kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda esa talaba til birliklarini kontekstda qo‘llash, fikrini mantiqiy ifodalash, savol berish, dalil keltirish, muhokamada ishtirok etish va kasbiy vaziyatga mos nutqiy strategiyani tanlashga o‘rganadi.

Kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, ingliz tili mashg‘ulotlarida tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozish ko‘nikmalarini bir-biri bilan bog‘lab o‘rgatish talabalar faolligini oshiradi. Masalan, autentik matnni o‘qishdan keyin muhokama tashkil etish, muhokama asosida yozma xulosa tayyorlash yoki tinglangan material bo‘yicha taqdimot qilish talabalarning bir vaqtning o‘zida bir nechta kompetensiyasini rivojlantiradi. Bu holat ularning leksik boyligi, grammatik aniqligi, talaffuz madaniyati, akademik yozuv malakasi va diskursiv izchilligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari uchun dars fragmentlarini loyihalash, metodik topshiriqlar tuzish, o‘quvchi xatolarini tahlil qilish va ingliz tilida pedagogik ko‘rsatma berish kabi topshiriqlar kasbiy kompetensiyani shakllantirishda samarali bo‘ldi.

Natijalar integratsiyalashgan kompetensiyaviy yondashuv talabalarning motivatsiyasini kuchaytirishini ham tasdiqlaydi. Talaba tilni faqat baho olish vositasi sifatida emas, balki kelajak kasbi, ilmiy izlanishi va ijtimoiy muloqoti uchun zarur amaliy vosita sifatida anglay boshlaydi. Loyiha ishlari, juftlik va guruh faoliyati, raqamli platformalar, onlayn lug‘atlar, taqdimot dasturlari va ta’limiy videomateriallardan foydalanish dars jarayonini jonlantiradi hamda talabani passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. Shuningdek, formatif baholash, o‘zaro baholash va o‘zini baholash usullari talabalarda mas’uliyat, refleksiya va xatolar ustida ishlash madaniyatini rivojlantiradi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari mazkur yondashuv ingliz tili ta’limining amaliy samaradorligini oshirish, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini mustahkamlash va ta’lim jarayonini kompetensiyaga yo‘naltirishda muhim metodik omil ekanligini ko‘rsatadi.

Muhokama. Oliy ta’lim muassasalarida ingliz tilini integratsiyalashgan kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘qitish mazmunan murakkab, ammo amaliy jihatdan samarali metodik tizimni talab qiladi. Ushbu yondashuvning muhim jihati shundaki, u til o‘rganishni faqat lingvistik bilimlarni egallash jarayoni sifatida emas, balki talabaning kasbiy, kommunikativ, madaniyatlararo va shaxsiy rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq faoliyat sifatida talqin etadi. Pedagogik oliy ta’lim muassasalarida bu masala yanada muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ingliz tili yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar kelajakda til o‘rgatuvchi mutaxassis bo‘lib shakllanadi. Shu sababli ularning tayyorgarligida nazariy bilim, nutqiy malaka va metodik tafakkur bir-biridan ajratilmasligi lozim.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, integratsiyalashgan kompetensiyaviy yondashuv darsning mazmuni, shakli va baholash tizimini yangicha tashkil etishni taqozo qiladi. Agar dars faqat o‘qituvchi izohi, grammatik mashq va tarjima asosida olib borilsa, talabaning mustaqil kommunikativ faolligi yetarli darajada shakllanmaydi. Aksincha, dars jarayonida real hayotiy va kasbiy vaziyatlar, muammoli topshiriqlar, rolli

muloqot, loyiha faoliyati, guruhli muhokama va refleksiv tahlil qo‘llanilsa, talaba ingliz tilidan faol foydalanishga majbur bo‘ladi. Bu esa til ko‘nikmalarining tabiiy ravishda rivojlanishiga, nutqiy ishonchning ortishiga va kasbiy yo‘nalganlikning kuchayishiga xizmat qiladi.

Mazkur yondashuvning samaradorligi ko‘p jihatdan o‘qituvchining metodik tayyorgarligiga bog‘liq. O‘qituvchi darsda faqat bilim beruvchi emas, balki kommunikativ muhitni tashkil etuvchi, talaba faoliyatini boshqaruvchi, maslahat beruvchi va baholash jarayonini yo‘naltiruvchi pedagog sifatida ishtirok etadi. Shuning uchun ingliz tili o‘qituvchisi zamonaviy metodlar, raqamli ta’lim vositalari, autentik materiallar va kompetensiyaga asoslangan baholash mezonlaridan puxta foydalana olishi zarur. Ayniqsa, pedagogik yo‘nalishdagi talabalar uchun dars loyihalash, o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqish, o‘quvchi nutqini tahlil qilish va ingliz tilida metodik ko‘rsatma berish kabi amaliy mashqlar muhim ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, integratsiyalashgan kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishda ayrim qiyinchiliklar ham kuzatiladi. Talabalarning til darajasi turlicha bo‘lishi, guruhlarda kommunikativ faollikning bir xil emasligi, dars vaqtining cheklanganligi va baholash mezonlarini aniq belgilash zarurati metodik jihatdan e’tibor talab qiladi. Bunday holatlarda differensial topshiriqlar, bosqichma-bosqich murakkablashuvchi mashqlar, juftlikda ishlash, formatif baholash va individual fikr-mulohazalardan foydalanish samarali natija beradi. Demak, integratsiyalashgan kompetensiyaviy yondashuv ingliz tilini o‘qitishda nafaqat metodik yangilanish, balki ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan tizimli pedagogik zarurat sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa. Oliy ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘qitishda integratsiyalashgan kompetensiyaviy yondashuv zamonaviy til ta’limining muhim metodik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv ingliz tilini faqat grammatik bilimlar, lug‘aviy birliklar yoki alohida nutqiy ko‘nikmalar majmui sifatida emas, balki talabaning kommunikativ, kasbiy, madaniyatlararo, raqamli va refleksiv rivojlanishini ta’minlovchi yaxlit pedagogik tizim sifatida tashkil etishga xizmat qiladi. Ayniqsa, pedagogik oliy ta’lim muassasalarida ingliz tili yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun bu yondashuvning ahamiyati katta, chunki ular kelajakda o‘quvchilarga ingliz tilini o‘rgatadigan, dars jarayonini metodik jihatdan loyihalaydigan va kommunikativ ta’lim muhitini tashkil etadigan mutaxassislar sifatida tayyorlanadi.

Tadqiqot mazmunidan kelib chiqib aytish mumkinki, integratsiyalashgan kompetensiyaviy yondashuv ingliz tili darslarining mazmuni, metodlari, vositalari va baholash tizimini o‘zaro bog‘liq holda tashkil etishni talab qiladi. Bunda tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozish ko‘nikmalari bir-biridan ajratilmaydi, balki real kommunikativ vaziyatlar asosida kompleks rivojlantiriladi. Natijada talabalar til birliklarini mexanik yodlashdan ko‘ra ularni muloqot, tahlil, taqdimot, yozma fikr bayoni va kasbiy vazifalarni bajarish jarayonida ongli qo‘llashga o‘rganadilar. Bu esa ularning nutqiy mustaqilligi, akademik savodxonligi, kasbiy motivatsiyasi va metodik tafakkurining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Integratsiyalashgan kompetensiyaviy yondashuvning samaradorligi kommunikativ topshiriqlar, loyiha ishlari, muammoli vaziyatlar, rolli o‘yinlar, autentik materiallar, raqamli ta’lim resurslari va formatif baholashni dars jarayoniga maqsadli tatbiq etish orqali namoyon bo‘ladi. Bunday metodik tashkil etish talabaning darsdagi faolligini oshiradi, uni mustaqil fikrlashga, ingliz tilida dalil keltirishga, guruhda hamkorlik qilishga va o‘z o‘quv faoliyatini baholashga yo‘naltiradi. Shu bilan birga, mazkur yondashuv o‘qituvchidan yuqori metodik tayyorgarlik, moslashuvchanlik va kompetensiyaga asoslangan baholash madaniyatini talab qiladi.

Umuman olganda, oliy ta’limda ingliz tilini integratsiyalashgan kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘qitish ta’lim sifatini oshirish, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini kuchaytirish va ularni amaliy pedagogik faoliyatga tayyorlashda muhim ilmiy-metodik ahamiyatga ega. Ushbu yondashuvni tizimli qo‘llash ingliz tili ta’limini nazariy bilim berish doirasidan chiqarib, amaliy, kasbiy va kommunikativ natijaga yo‘naltirilgan samarali ta’lim modeliga aylantiradi.

Adabiyotlar:

1. Brown, H. D. (2007). Principles of language learning and teaching. Pearson Education.
2. Canale, M., & Swain, M. (1980). Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing. Applied Linguistics, 1(1), 1–47.
3. Harmer, J. (2015). The practice of English language teaching. Pearson Education Limited.
4. Hymes, D. (1972). On communicative competence. In J. B. Pride & J. Holmes (Eds.), Sociolinguistics. Penguin Books.
5. Nunan, D. (2004). Task-based language teaching. Cambridge University Press.
6. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). Approaches and methods in language teaching. Cambridge University Press.

7. Jalolov, J. J. (2012). Chet til o‘qitish metodikasi. Toshkent: O‘qituvchi.
8. G‘ulomov, A., & Qodirov, M. (2017). Chet tillarni o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Fan va texnologiya.
9. Yo‘ldoshev, J. G‘., & Usmonov, S. A. (2004). Pedagogik texnologiya asoslari. Toshkent: O‘qituvchi.
10. Azizxo‘jayeva, N. N. (2006). Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: TDPU.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MAKTAB TA’LIMIGA TAYYORLASHDA NUTQ MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH

Qurbonova Go‘zal Rajab qizi,
Buxoro davlat pedagogika instituti
“*Maktabgacha ta’lim*” *kafedrasi doktoranti*
guzal.kurbanova707@gmail.com

Ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolalarda tovushlarning to‘g‘ri talaffuzini tarbiyalash masalalari yoritib berilgan. Bugungi kunda jamiyat oldida turgan asosiy vazifalardan biri – maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining nutqini rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda talaffuzini ravon qilish, lug‘at boyligini oshirish mashqlarini o‘rgatishdan iborat. Bundan tashqari, maktabgacha ta’lim tashkilotining barcha guruhlari uchun ishlab chiqilgan faoliyatlar, didaktik materiallar berilgan bo‘lib, tarbiyachilar ulardan yakka tartibda hamda jamoa bilan ishlashlari mumkin. Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq malakalarini shakllantirish orqali bolalarni to‘g‘ri talaffuzga o‘rgatish hamda maktabga tayyorgarlik darajasining nazariy va amaliy jihatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *maktabgacha ta’lim, texnologiya, kompleks rivojlantirish, muloqot, to‘g‘ri talaffuz, nutqiy rivojlanish, xalq og‘zaki ijodi, erkin fikrlash, ko‘nikma, muloqot, atrof-muhitga moslashish, analizator, harflar, predmetlar, tovush, so‘z, savodga o‘rgatish.*

FORMATION OF SPEECH SKILLS IN PREPARING PRESCHOOL CHILDREN FOR SCHOOL EDUCATION

This article covers the issues of developing correct pronunciation of sounds in preschool children. One of the main tasks facing society today is to teach preschool children to pronounce their speech fluently, increase their vocabulary, and use modern technologies to develop their speech. In addition, activities and didactic materials have been developed for all groups of preschool educational institutions, and educators can use them individually or in teams. The article reveals the theoretical and practical aspects of teaching children to pronounce correctly by forming speech skills in preschool children and preparing them for school.

Keywords: *preschool education, technology, complex development, communication, correct pronunciation, speech development, folk oral creativity, free thinking, skills, communication, adaptation to the environment, analyzer, letters, objects, sound, word, literacy.*

ФОРМИРОВАНИЕ РЕЧЕВЫХ НАВЫКОВ ПРИ ПОДГОТОВКЕ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА К ШКОЛЬНОМУ ОБРАЗОВАНИЮ

В статье рассматриваются вопросы воспитания правильного произношения звуков у детей дошкольного возраста. Одной из важнейших задач, стоящих сегодня перед обществом, является обучение воспитанников дошкольных образовательных организаций навыкам беглой речи, увеличения словарного запаса с использованием современных технологий в развитии речи. Кроме того, разработаны занятия и дидактические материалы для всех групп дошкольных образовательных организаций, которыми воспитатели могут пользоваться как индивидуально, так и в коллективе. В статье раскрываются теоретические и практические аспекты обучения детей правильному произношению путем формирования речевых навыков у детей дошкольного возраста и уровня готовности к школе.

Ключевые слова: *дошкольное образование, технология, комплексное развитие, общение, правильное произношение, речевое развитие, устное народное творчество, свободомыслие, навыки, общение, адаптация к окружающей среде, анализатор, буквы, предметы, звук, слово, Обучение грамоте.*

Kirish. Maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishi sifatida bolalarning bilishga qiziqishini shakllantirish texnologiyalari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalarni kompleks rivojlantirishda maktab ta’limiga sifatli tayyorlash yo‘llarini ishlab chiqish, maktabgacha katta yoshdagi bolalarda savod o‘rgatish darajasini oshirish, muloqotga kirishuvchanlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning innovatsion texnologiyalardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish kabi turli masalalarda muhim ishlar olib borilmoqda. Maktabgacha yosh davri — bolaning nutqi faol shakllanadigan, fikrlashi va muloqot qilish qobiliyati rivojlanadigan muhim bosqich hisoblanadi. Aynan shu davrda bolalarning nutqiy rivojlanishini turli o‘yinlar, mashqlar hamda xalq og‘zaki ijodi orqali tashkil etish ularning so‘z boyligini oshirish, ravon va to‘g‘ri talaffuzni shakllantirishga xizmat qiladi. Bolaning yosh va individual xususiyatlariga mos tashkil etilgan nutqiy faoliyat esa uning erkin fikrlashi, muloqotga kirishishi va mustaqil fikr bildirish ko‘nikmalarining rivojlanishiga yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Mamlakatimizda ta’lim tashkilotlari faoliyatini takomillashtirishning moddiy – texnika bazasi hamda nazariy – metodologik asoslari bo‘yicha me’yoriy – huquqiy hujjatlar yaratildi. Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini tubdan yaxshilash, maktabgacha yoshdagi bolalar qamrovini oshirish, ilg‘or xorijiy tajribani o‘rgangan holda har jihatdan zamonaviy tizim yaratish masalasi dolzarbligi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi”da maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart – sharoitlar yaratish” masalasi ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilab qo‘yilgan. Mazkur vazifaning samarali hal etilishi, o‘z navbatida, maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta’limiga sifatli tayyorlash ham mas’uliyat bilan yondashish zarurligini taqozo etmoqda. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi O‘RQ-595-son “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni, [1] 2019-yil 8-maydagi PQ- 4312-son “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori [2]kabi muhim davlat hujjatlari qabul qilindi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuning 51-moddasi orqali farzandlar tarbiyasi va ta’lim olishlari, ularning voyaga yetmagan ta’lim oluvchilar ota – onasining hamda boshqa qonuniy vakillarining huquq va majburiyatlari [3]oshirildi. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishga doir ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. D.R. Babayevaning tadqiqotlarida bolalar nutqini rivojlantirishning ilmiy pedagogik shart-sharoitlari, nazariy, tashkiliy-pedagogik va metodik tomonlari, bolalar nutqini rivojlantirishda oilaning o‘rni, mazkur muammoni ta’lim jarayonida rejalashtirish va tashkil etish, atrof – muhit bilan tanishish jarayonida bolalar nutqini o‘stirish metodlari, bolalarning atrof-muhitni bilish jarayoni bilan bog‘liq nutqni rivojlantirish texnologiyasi kabi masalalar tadqiq etilgan.[5]

Bugungi kunda maktabga tayyor boladan aniq egallagan bilimlarga emas, balki fikrlash ko’nikmasi, kattalar hamda tengdoshlari bilan muloqotga kirisha olishi, ular bilan hamkorlik qilish ham talab etiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning maktabga qadam qo‘yayotganida qay darajada bilimga ega ekanligi emas, balki maktabgacha yoshdagi bolaning yangi bilimlarni egallashga tayyorgarligi, atrof – muhitga moslashish ko‘nikmasi, muammolarni mustaqil ravishda hal qilishga harakat qilishi muhim hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotining “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturida og‘zaki nutqning, ya’ni lug‘at boyligining ko‘payib borishi, nutqning grammatik jihatdan to‘g‘ri talaffuz ko‘nikmasini shakllantirishni, tovush talaffuzini har tomonlama rivojlantirish nazarda tutiladi.

Natija va mulohazalar. Maktabgacha yosh davri bolaning ruhiy, aqliy va nutqiy rivojlanishida eng faol bosqichlardan biri hisoblanadi. Aynan shu davrda bola atrofdagi olamni anglashni, voqealarni tushunishni va o‘z fikrini bayon qilishni o‘rganadi. Nutq bolaning fikrlashi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u tafakkurning rivojlanishiga kuchli ta’sirko‘rsatadi. Bola qancha ko‘p muloqot qilsa, eshitsa va fikrini ifodalasa, uning tafakkuri ham shunchalik rivojlanadi. Shu sababli maktabgacha ta’lim tizimida bolalar nutqini rivojlantirish orqali ularda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish muhim vazifalardan biri sanaladi. Nutq va tafakkur bir – birini to‘ldiruvchi jarayonlardir. Bola avvalo eshitadi, keyin tushunadi, so‘ng o‘z fikrini so‘z orqali ifodalay boshlaydi. Nutq rivojlangani sari bolaning fikrlashi ham aniqroqva mazmunliroq bo‘lib boradi.

Nutq bolalarda asta – sekinlik bilan shakllanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar o‘sib, rivojlangani sari nutqi ham rivojlanib boradi. Bolalar to‘g‘ri talaffuz ko‘nikmalarini shakllantirish uchun bosh miya rivojlangan bo‘lishi, bolalarning sensor motorikalari – eshtish, ko‘rish, ta’m bilish, hid bilish ham yetarli darajada rivojlangan bo‘lishi lozim.

Nutqni qabul qiluvchi va nutqni eshittiruvchi (harakatga keltiruvchi) analizatorlar turlari qamrab oladi:

Quloq analizatori	Tovushlarni qabul qiladi va tahlil qiladi	Bola nutq tovushlarini eshitadi, farqlaydi va to‘g‘ri talaffuzni o‘rganadi
Ko‘z analizatori	Harflar, predmetlar va harakatlarni ko‘radi	Savod o‘rganishda harflarni tanish va o‘qishga yordam beradi.
Til, lab analizatori	Nutq tovushlarini hosil qiladi	Tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishni ta’minlaydi
Mushak sezgisi analizatori	Nutq organlari harakatini sezadi va nazorat qiladi	Talaffuz aniqligini saqlashga yordam beradi

Maktabga tayyorlov davrida bolalarning og‘zaki nutqini har tomonlama rivojlantirib, ularni “tovush”, “so‘z”, “so‘zning qismi”, “bo‘g‘in”, “gap” tushunchalarni shakllantirish talab etiladi. Bolalarni savodga o‘rgatishning tayyorgarlik davrida bolalar nutqini tekshirish muhim hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi katta guruh bolalarida aynan shu yoshda lug‘at boyligi, mazmunli nutq yetarli darajada rivojlanadi. Katta guruh yoshdagi bolalarning lug‘atida tovush va bo‘g‘inlarning o‘rnini almashtirib yuborish, tashlab ketish yoki gap bo‘laklarining bir – biriga bog‘lanmaslik kabi kamchiliklar uchrasa, u holda bolaga maxsus yordam berish logopedga murojaat qilish lozimdir. Ammo bu yoshdagi bolalarda kamdan – kam hollarda uchraydi. Bolalarning nutqini tekshirishda asosan rasmlar orqali tekshiriladi. Katta guruhda tovushlarni to‘g‘ri talaffuzga o‘rgatish, nutqda to‘g‘ri nafas olish va nafas chiqarish, nutqni eshtish bo‘yicha ishlar davom ettiriladi.

Nafas mashqlari bolalar uchun juda foydali — ular nafaqat nutqiy, balki jismoniy va ruhiy sog‘lomlikni ham qo‘llab - quvvatlaydi. Bular:

- nafas mashqlari orqali bolalar to‘g‘ri nafas olishni o‘rganadi. Chuqur, tinch va ritmik nafas olish o‘pkani to‘liq ishlatishga yordam beradi. Bu esa kislorod almashinuvini yaxshilaydi.
- to‘g‘ri nafas olish diqqat, xotira va tafakkur miya faoliyatini faollashtiradi, diqqatni jamlash, eslab qolish va o‘rganish qobiliyatini yaxshilaydi.
- nafas mashqlari bolaning asab tizimini tinchlantiradi, tashvish, qo‘rquv, hayajon yoki g‘azabni kamaytiradi. Shu sababli ular psixologik barqarorlikni ta’minlaydi.
- nafasni boshqarish nutq paytida juda muhim. Mashqlar yordamida bola tovush chiqarish, gapirish paytida nafasni to‘g‘ri taqsimlashni o‘rganadi. Bu diksiya va artikulyatsiyani yaxshilaydi.
- chuqur nafas olish qon aylanishini yaxshilaydi, natijada organizm kislorod bilan yaxshi ta’minlanadi — bu esa immun tizimni kuchaytiradi.

Bolaning lug‘at boyligi qanchalik keng bo‘lsa, uning fikr doirasi ham shunchalik ravon rivojlanadi. Yangi so‘zlarni o‘rganish bola ongida yangi tushunchalar paydo bo‘lishiga yordam beradi. Lug‘at boyligini oshirish uchun:

- ✓ ertak va hikoyalar aytib berish;
- ✓ rasmlar asosida suhbat tashkil qilish;
- ✓ she’r yodlash;
- ✓ savol-javob mashqlaridan foydalanish;
- ✓ mayda motorika ko‘nikmalarini shakllantiruvchi o‘yin va faoliyatlar muhim hisoblanadi. Bu usullar orqali bola nafaqat yangi so‘zlarni o‘rganadi, balki ularni o‘z nutqida qo‘llashga ham odatlanadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish, savodxonligi bo‘yicha olib boriladigan ta’limiy jarayonlar bolalarda nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalarini rivojlantirish sohasi va bola rivojlanishining barcha sohalari bilan chambarchas bog‘liq holda amalga oshiriladi. Nutq malakalarini shakllantirish orqali maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarning so‘z boyligi oshadi, nutqqa nisbatan qiziqish uyg‘onadi, unda mazmunli gapirish, boshlang‘ich til bo‘yicha ma’lumotga ega bo‘lish shakllanadi. Yetti yoshida ona tilidagi barcha tovushlarni yaxshi talaffuz eta boshlaydi, yetarli so‘z boyligiga ega bo‘ladi, gramatik jihatdan to‘g‘ri so‘zlay oladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi O‘RQ-595-son “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘RQ-637-son, 2020-yil 23-sentabr, 51-modda.

4. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. Toshkent - 2022

5. Babayeva D.R. Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: Tafakkur Bo‘stoni, 2019. – B. 45–57.

“PEDAGOGIK MAHORAT” JURNALI UCHUN MAQOLALARNI RASMIYLASHTIRISH TALABLARI

“PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy jurnali mualliflari diqqatiga!

1. “**PEDAGOGIK MAHORAT**” ilmiy jurnali ilmiy maqolalarni o‘zbek, rus va ingliz tillarida chop etadi.

2. E’lon qilinadigan maqolalarga bo‘lgan asosiy talablar:

- ✓ishning dolzarbligi va ilmiy yangiligi;
- ✓maqolaning hajmi: adabiyotlar ro‘yxati, chizma va jadvallar inobatga olingan holatda 4-8 betgacha;
- ✓maqola nomi, annotatsiya (80-90 ta so‘z) va tayanch so‘zlar (8-10 ta) ingliz, o‘zbek va rus tillarida keltiriladi.

3. Maqola boshida UDK (udc.online internet saytidan olishingiz mumkin), mavzu, muallifning F.I.O. (to‘liq yozilishi kerak), mualliflar bir nechta bo‘lsa, ularning har biri haqida to‘liq ma’lumotlar berilishi shart, tashkilot, shahar, mamlakat, muallifning e-maili ko‘rsatiladi. Matnda kirish qismi, tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar, olingan natijalar va ularning tahlili, xulosa, adabiyotlar ro‘yxati, albatta, keltiriladi. Maqolada keyingi 10-15 yilda e’lon qilingan adabiyotlarga havola qilinishi tavsiya etiladi.

4. Matn uchun: Microsoft Word; Times New Roman, 11 shrift, maqola nomi bosh harflarda, intyerval 1,0; abzas 1,0 sm, yuqori va pastki tomon 2 sm, chap va o‘ng tomon 2 sm.

5. Agar maqolaga rasm, jadval, diagramma, sxema, chizma, turli grafik belgilar kiritilgan bo‘lsa, ular aniq va ravshan tasvirlanishi, qisqartmalarning to‘liq izohi yozilishi lozim. Formulalar matnga maxsus kompyuter dasturlarida kiritilishi kerak.

6. Iqtibos olingan yoki foydalanilgan adabiyot satr osti izohi tarzida emas, balki maqola oxirida asosiy matndagi ketma-ketligi asosida umumiy ro‘yxatda ko‘rsatiladi. Matn ichidagi ko‘chirmadan so‘ng iqtibos olingan asarning ro‘yxatdagi tartib raqami va sahifasi kvadrat qavs ichida beriladi. Bu o‘rinda kitob, to‘plam, monografiyalar uchun mualliflarning ism-familiyalari, manbaning to‘liq nomi, nashr ko‘rsatkichi (shahar, nashriyot va nashr yili) ko‘rsatiladi. Jurnal maqolalari va boshqa davriy nashrlar uchun mualliflarning ism-familiyalari, maqola nomi, jurnal nomi, yili va soni, sahifa nomyeri ko‘rsatiladi.

7. Maqola matni kamida 70-80 % muallifning shaxsiy izlanishlari natijasiga asoslanishi lozim. Topshirilgan maqolalar “Antiplagiat” tizimi yordamida tekshiriladi.

8. Tahririyatga taqdim qilingan maqolalar tahririyat tomonidan taqrizga beriladi. Maqola taqrizdan qaytgach, agar zarur bo‘lsa, barcha savol va e’tirozlar bo‘yicha muallifga qayta ishlash uchun taqdim etiladi. Maqola nusxalari qaytarilmaydi.

9. Tahririyat maqolani taqrizga yuboradi, taqriz ijobiy bo‘lsa maqola jurnalda chop etish uchun qabul qilinadi. Jurnalda anjuman tezislari va ma’ruzalari chop etilmaydi. **E’lon qilingan materiallarning haqqoniyligiga va ko‘chirilmaganligiga shaxsan muallif javobgardir.**

10. Tahririyat maqolaga ayrim kichik o‘zgartirishlarni kiritishi mumkin. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqilmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

11. Ijobiy taqriz berilgan maqola tahririyat tomonidan qabul qilingan sanaladi. Jurnal tahririyati maqola matnini qisqartirish va unga tahririy o‘zgartirishlar kiritishga haqlidir.

12. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan qabul qilinmaydi va ko‘rib chiqilmaydi.

Manzil: O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro viloyati, 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy, bosh bino, 2-qavat, 219-xona.

Web site: www.buxdu.uz

E-mail: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

Telegram raqami: +998 (94) 837-18-38.



Buxoro davlat universiteti muassisligidagi
“PEDAGOGIK MAHORAT”
ilmiy-nazariy va metodik jurnali
barcha ta’lim muassasalarini
hamkorlikka chorlaydi.

Pedagoglarning sevimli nashriga aylanib ulgurgan “Pedagogik mahorat” jurnali maktab, kollej, institut va universitet pedagogik jamoasiga muhim qo‘llanma sifatida xizmat qilishi, shubhasiz.

Mualliflar uchun eslatib o‘tamiz, maqola qo‘lyozmalari universitet tahririy-nashriyot bo‘limida qabul qilinadi.

Manzilimiz: Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi 11-uy
Buxoro davlat universiteti, 1-bino 2-qavat, 219-xona

Tahririyat rekvizitlari:
Moliya vazirligi g‘aznachiligi
23402000300100001010
MB BB XKKM Toshkent sh. MFO 00014 INN 201504275
BuxDU 40011086006401709410035005

Pedagogik mahorat: rivojlanamiz va rivojlantiramiz!

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

2026-yil 4-son (127)

2001-yil iyul oyidan chiqa boshlagan.

OBUNA INDEKSI: 3070

Buxoro davlat universiteti nashri

Jurnal oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o‘qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo‘ljallangan.

Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.

Nashr uchun mas’ul:
Nigora SAYFULLAYEVA
Muharrir: Mexrigiyo SHIRINOVA
Musahhih: Sarvinoz RAXIMOVA

Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar.

Bosishga ruxsat etildi 29.04.2026
Bosmaxonaga topshirish vaqti 30.04.2026
Qog‘oz bichimi: 60x84. 1/8
Tezkor bosma usulda bosildi.
Shartli bosma tabog‘i – 20,6
Adadi – 100 nusxa
Buyurtma № 21
Bahosi kelishilgan narxda.

“BUKHARAHAMD PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Buxoro shahri, J.Ikromiy MFY, Hofiz tanish Buxoriy ko‘chasi, 190 B-uy.